B.Y. XODIYEV, SH.SH. SHODMONOV

IQTISODIYOT NAZARIYASI

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI

B.Y. XODIYEV, SH.SH. SHODMONOV

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(DARSLIK)

TOSHKENT–2017

UO'K: 33.01(075)
KBK: 65.01ya7
Sh-74

Sh-74 B.Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2017, 784 bet.

ISBN 978-9943-5142-4-9

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani bo'yicha tayyorlangan mazkur darslik 2002-yilda chop etilgan o'quv qo'llanma va 2005, 2010-yillarda qayta chop etilgan darslikning qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri hisoblanadi. Ushbu darslikni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va oliy o'quv yurtlarida bakalavrlar tayyorlash yangi davlat andozasi talablari hisobga olingan. Undagi mavzular mazmunini yoritishda Respublika birinchi Prezidenti I. Karimov asarlari, ma'ruzalari xususan, «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asaridan, mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlardan keng foydalanilgan. Keyingi yillarda mamlakatimizda va xorijda, ayniqsa, Rossiyada nashr etilgan qator darslik va o'quv qo'llanmalarning qisqacha tahlili berilgan, ulardagi ijobiy tomonlardan foydalanilgan va ba'zi bir munozarali jihatlar esa tanqidiy ravishda o'rganilib, muallifning shaxsiy yondashuvlari bayon etilgan.

Darslik bir-biri bilan mantiqan bog'langan to'rt qismdan iborat bo'lib, ularda iqtisodiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti, makroiqtisodiyot va jahon xo'jaligiga oid mavzular o'rin olgan. Ayniqsa, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalariga, moliya, kredit, bank va pul tizimining roliga katta e'tibor berilgan.

UO'K: 33.01(075)
KBK: 65.01ya7

Darslik barcha yo'nalishdagi bakalavrlar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: S.G'ulomov - akademik;
A. Rasulyev - professor;
O. Hamroyev - professor.

ISBN 978-9943-5142-4-9

© «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimovning bevosita tashabbusi va rahbarligida har tomonlama puxta o‘ylab ishlab chiqilgan taraqqiyotning “O‘zbek modeli”ni izchil amalga oshirish orqali iqtisodiyotimiz misli ko‘rilmagan katta muvaffaqiyat va natijalarga erishdi. Jumladan, mustaqillik yillarida milliy xo‘jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo‘lib qolgan bir tomonlama xomashyo ishlab chiqarish bo‘yicha rivojlanish, paxta yakkahokimligi va inqiroz holatidan chiqarildi; iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ta’minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalari o‘rtasidagi muvozanatlik va mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi. Soliq, byudjet va tashqi iqtisodiy faoliyat sohalarida, bank tizimi faoliyatida mustahkam barqarorlik, davlat qarzini nisbatan past darajada ushlab turish ta’minlanib mamlakatimizning jahon miqyosidagi obro‘-e’tiborini yuqori darajaga ko‘tarishga erishilmoqda.

Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan modernizatsiya, tarkibiy o‘zgarish va diversifikatsiya natijasida yangidan-yangi zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilmoqda. Bu o‘zgarishlar va xalqimizning fidokorona mehnati natijasida yaratilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmat turlarining ko‘payib, sifati tubdan yaxshilanib borishiga, aholi daromadlari va turmush darajasining keskin o‘sishi, ularning ertangi kunga bo‘lgan ishonchining tobora oshib borishiga olib kelmoqda. Ma’naviy jabhada ham tub o‘zgarishlar qilinib, jamiyat a’zolari ongida milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi shakllantirildi.

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 54201

Ayni paytda, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvarda bo'lib o'tgan kengaytirilgan majlisida va boshqa majlislarda qilgan ma'ruzalaridan bizga shu narsa ma'lum bo'lib turibdiki, mamlakatimizda erishilgan ulkan yutuqlar bilan bir qatorda bugungi kunda xalqaro miqyosda va mamlakatimiz ichida o'z yechimini topmagan muammolar, hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar ham juda ko'p ekan.

Bugungi kunda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etib turishi, dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qarama-qarshiliklarning kuchayib borishi, jahon bozorida vaziyatning tez o'zgarayotgani dunyoning ko'plab mamlakatlarida investitsion faollikning susayishi real iqtisodiyotda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati pasayib borishi ro'y berib, jahon bozorida xarid talabining kamayishi davom etmoqda, ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda, ijtimoiy keskinlik kuchaymoqda. Bundan tashqari mamlakatimizdagi ayrim sohalar, tarmoqlar va kompaniyalarda eksport hajmi kamayib, import hajmi oshib ketishi, ko'plab kapital mablag'lar sarflanishiga qaramay ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining pasayib ketishi fan-texnika taraqqiyoti yuz berib, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishiga qaramay ketgan xarajatlar va mahsulot tannarxi pasayish o'rniga aksincha, oshishi holati yuz berishi, valyuta munosabatlarining tartibga solinmaganligi, naqd pul bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar o'rtasida farq mavjudligi kabi noxush holatlar sodir bo'lib turibdi. Bu holatlar mamlakatimiz oldida turgan keng ko'lamli dasturiy maqsad va vazifalar – islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish, xususiy mulk, xususiy tadbirkorlikni kuchaytirish, iqtisodiy rivojlanish yo'lida g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmonida belgilangan vazifalar va muammolarni bartaraf etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishni talab qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini

topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Ushbu muammolar va hayotning o'zi oldimizga qo'ygan murakkab vazifalarni tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish, milliy istiqlol mafkurasining mazmunini va xususiyatlarini chuqurroq tushunish ko'p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmunini, ularning talablari, ziddiyatli va chalkash xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir. "Iqtisodiyot nazariyasi" fani iqtisodiyot tushunchalarini, uning qonun-qoidalarini, tejamli xo'jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va xo'jaliklarning bir-birlari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo'lib, unumli mehnat qilish yo'llarini va shakllarini o'rgatadi.

Jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishda «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining roli beqiyosdir. Bugungi kunda yosh avlodda bunyodkorlik g'oyalarini shakllantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini chuqurlashtirish va kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirish kabi muhim amaliy vazifalarni bajarish orqali mazkur fanning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

"Iqtisodiyot nazariyasi" fani mamlakatimizda yashayotgan hamma kishilarning daromadlari, ularning turmush darajasi faqat milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga bog'liqligini, shu yurtda mehnat qilayotgan kishilarning ijodiy mehnati bilan vujudga kelgan milliy mahsulotning ko'payishi, uning to'g'ri taqsimlanishi va foydalanilishi, milliy pul barqarorligi bilan bog'liqligini ham o'rgatadi va milliy istiqlol mafkurasining odamlar ongida shakllanishiga, ularning intellektual kamolotga erishuvida muhim rol o'ynaydi.

Doimiy o'zgarib turuvchi ichki va tashqi iqtisodiy muhit, uning insonlar, korxonalar, mamlakatlar va butun dunyoga kuchayib boruvchi ta'sirini kuzatib, amalga oshirilishi zarur bo'lgan xatti-harakatlar, iqtisodiy faoliyat jarayonlarini oldindan sezish va ko'ra bilish, qisqa-

cha qilib aytganda, **iqtisodiy ziyraklik** – yuksak ma'naviyatli shaxs fazilatlaridan biri bo'lib, uni chuqur iqtisodiy bilim va ko'nikmalarsiz tasavvur etish mumkin emas. Shuningdek, «Iqtisodiyot nazariyasi» fani kishilarning jamiyat iqtisodiy hayotini tashkil etish, unda faol ishtirok etish, yanada rivojlantirish borasida jamiyat va davlat oldidagi javobgarliklari, ya'ni **iqtisodiy mas'uliyatlarini** tarbiyalashda yetakchi o'rin egallaydi. Biz qurayotgan erkin, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik fuqarolik jamiyatiga barcha jamiyat a'zolarida **iqtisodiy madaniyatlilikni** shakllantirish orqali erishishimiz mumkin. Bu esa amaldagi iqtisodiy qonunlar, qoidalar to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, o'zlashtirilgan bilimlar asosida mehnat va ishlab chiqarish faoliyatlarini tashkil eta olish xususiyatini namoyon etib, uni faqat mazkur fan xizmatlari orqali ta'minlash mumkin.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani faqat bilish bilan cheklanmay, balki **iqtisodiy bilim va ko'nikmalarning turli darajadagi amaliy tatbiqi** bilan ham shug'ullanadi. U davlatning iqtisodiy siyosatini shakllantirish, iqtisodiy islohotlarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy qoida va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanining bugungi kundagi ahamiyati yosh avlodda vatan va el-yurt ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat hissini, turli mafkuraviy xurujlarga o'z fikri bilan qarshi tura olish qobiliyatini tarbiyalash kabi muhim vazifalarni bajarish orqali tobora oshib bormoqda.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanining ahamiyati uning **metodologik vazifasi** orqali ham namoyon bo'lib, fanning o'zi, tahlili va tamoyillari, olingan xulosalar, tadqiq etilayotgan iqtisodiy qonunlar boshqa ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanini chuqur o'rganish, uning qoida va tushunchalarini bilish boshqa iqtisodiy fanlarni o'zlashtirish va yanada rivojlantirishning garovi hisoblanadi.

Lekin hozirgi davrdagi bozor iqtisodiyotining ichki sir-asrorlarini, uning haqiqiy qiyofasini, unda sodir bo'lib turadigan nomutanosiblik, ishsizlik va inqirozlar kabi nohush voqea va hodisalarning sabablarini

sinchiklab o‘rganishga intilayotgan o‘quvchi va talabalarimiz, iqtisodiyotning muammoli tugunlarini yechishga harakat qilayotgan rahbar xodimlar, iqtisodchi mutaxassislar, bozor iqtisodiyoti bilan qiziqayotgan keng kitobxonlar ommasi talablariga javob beradigan o‘zbek tilidagi adabiyotlar, qo‘llanmalar, ayniqsa, oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tayyorlangan darsliklar yetarli emas. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yetishmasligi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari va kollejlardagi ahvol o‘rganilib, mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvarda bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida darslik, maxsus va badiiy adabiyotga bo‘lgan real ehtiyojni o‘rganib, turli darsliklarni yaratish, ularni boshqa tillarga tarjima qilish, o‘quv yurtlari, kutubxona va axborot-resurs markazlarini ta’minlash bo‘yicha qo‘ygan vazifalaridan kelib chiqib, “Iqtisodiyot nazariyasi” fani bo‘yicha mazkur darslik qayta tayyorlandi.

Albatta, bu vazifaning uddasidan chiqish oson ish emas. Qo‘yilgan vazifaning murakkabligi shundan iboratki, shu davrgacha dunyodagi hech bir mamlakat iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va harakatlarni uyg‘unlashtirishning bir mexanizmidan butunlay boshqasiga birdaniga o‘tgan emas. Bu uzoq davrni talab qiladigan jarayon bo‘lib, alohida davrni taqozo qiladi. Uning hamma uchun bir xil bo‘lgan o‘lchami va nusxalari ham yo‘q.

Shunday ekan, bozor iqtisodiyoti davrini va mamlakatimizda hozirgi davrdagi iqtisodiy islohotlarni, o‘zgaruvchan xo‘jalik tizimini faqat AQSH yoki Yevropa mamlakatlarida mavjud bo‘lgan, ko‘plari eskirib ketgan, o‘z mamlakatlarida ham inqirozlarning oldini olish, iqtisodiyotni tartibga solish yo‘llarini ko‘rsata olmagan va munozarali bo‘lib, bizning real iqtisodiy hayotimizdan ancha uzoq bo‘lgan nazariyalar asosida iqtisodiyotning rivojlanish yo‘lini yoritib bo‘lmaydi. Shuningdek, bizning iqtisodiy tafakkur tariximizda uzoq vaqt hukmron bo‘lgan, iqtisodiy hodisalarni asosan sinfiy nuqtai nazaridan va sinfiy kurash jihatlaridan olib qaragan, iqtisodiy taraqqiyotning umuminsoniy tomonlarini keyingi o‘ringa surgan eski marksistik yo‘nalishdagi aqida va qoidalarga asoslanib ham bozor xo‘jaligi hamda hozirgi zamon iqtisodiyotidagi bir qator hodisalarni tushuntirib bo‘lmaydi.

Mazkur darslikni tayyorlashda AQSHda, Yevropa mamlakatlarida, Yaponiya, Xitoy, Malayziya, Singapur va boshqa qator mamlakatlarda mavjud bo'lgan adabiyotlardagi g'oyalar, shuningdek, klassik va hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalarining asosiy g'oyalarini tanqidiy o'rganib, ularning foydali ratsional mag'zini olishga harakat qilingan. Shu bilan birga, jahonga mashhur alloma, davlat arbobi sifatida tanilgan o'tmishdagi vatandoshlarimiz tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy g'oya va fikrlar, qoidalarning asosiy mazmuni darslikka kiritilgan. Bunda u yoki bu guruhning yoki sinfning manfaati emas, birinchi navbatda, umuminsoniy, umumdavlat manfaatlari va qadriyatlar, Vatanimiz iqtisodiy rivoji manfaati asos qilib olingan va unga bir qadar ustuvorlik berilgan.

Darslikda mustaqil rivojlanayotgan Vatanimizning ravnaq topishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida yashashimiz, faoliyat ko'rsatishimiz, iqtisodiy munosabatda bo'lishimizni hisobga olib, bozor iqtisodiyoti muammolarini, uning sabab-oqibatlarini, qonun-qoidalarini, tushunchalarini, ularning qay darajada, qanday shaklda amal qilayotganligini batafsilroq yoritishga harakat qilingan. Unda iqtisodiy jarayonlarning faqat yuzaki, ko'rinib turgan tomonlarigagina emas, shu bilan birga, ularning ichki mohiyati, ziddiyatlari va bog'lanishlariga, iqtisodiy jarayonlarning sabab va oqibatlariga alohida e'tibor berilgan. Mazkur darslikda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, ayniqsa, qabul qilingan qonun, qaror va farmonlarda, prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ma'ruza va nutqlarida bayon etilgan tamoyillar, xususiyatlar ham qamrab olishga harakat qilingan hamda nazariyani amaliyotga yaqinlashtirish maqsadida bozor iqtisodiyotining ko'pgina umumiy qonun-qoidalari bevosita O'zbekiston hayoti misolida yoritilgan.

Darslikni tayyorlashda dialektik, ilmiy asbtraksiya, tahlil va sintez, tarixiylik va mantiqiylikning birligi va boshqa qator ilmiy usullardan foydalanilgan. Bunda, ayniqsa, har bir iqtisodiy voqea, hodisa, jarayon va tushunchalar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tomon birligidan iborat deb qaralib, ikki tomonlama yondashuv va tahlil usuli kengroq qo'llanilgan, shu yo'l bilan yoritilayotgan masalaning asl

mohiyatini tushunish osonlashtirilgan. Asosiy iqtisodiy tushunchalarni soddaroq qilib, oddiy tilda misollar, jadvallar, rasmlar va grafiklar asosida tushuntirishga harakat qilingan.

Ushbu darslik yangi davlat standarti talablari bo'yicha tuzilgan va Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan dastur asosida yozilgan. Unda dasturdagi mavzular asosan qamrab olingan, ko'pgina materiallar imkon darajasida qisqartirib berilgan. Shuning uchun matnda kamchilik va munozarali jihatlar ham bo'lishi mumkin.

Darslikni tayyorlashda o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalar talablari va xususiyatlari hisobga olinib, har bir bobdan keyin xulosalar, asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, shuningdek, takrorlash va munozara uchun savollar ham berilgan.

Mazkur darslikning asosiy mazmuni 2000-yilda muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan tavsiya etilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nashr qilingan «Iqtisodiyot nazariyasi» ma'ruzalar matni, 2002-yilda nashr qilingan «Iqtisodiyot nazariyasi» o'quv qo'llanmasi, 2005-yilda va 2010-yilda nashr qilingan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida bayon etilgan bo'lib, ko'pchilikning muhokamasi va mulohazasidan o'tgan. Ushbu matnda yuqoridagi kitoblarning asosiy mazmuni saqlanib qolingan holda, keyingi yillarda, ayniqsa hozirgi davrda mamlakatimiz iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yangi qabul qilingan qonunlar va qarorlar, Prezidentimizning ma'ruza va nutqlarida ilgari surilgan g'oyalar, shuningdek, AQSH, Yevropa mamlakatlari, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlar hamda mamlakatimizda chop etilgan iqtisodiy adabiyotlardagi muhim deb hisoblangan g'oyalar kiritilgan.

Ushbu darslikda iqtisodiy jarayonlar, voqea-hodisalar obyektiv tahlil qilinib, yetarli ilmiy-uslubiy asosda yoritishga harakat qilingan. Ushbu darslik talaba va o'quvchilarni nazariy va uslubiy bilim bilan qurollantirib, iqtisodiy jarayonlarni bilishga, tafakkur qilishga va mustaqil ravishda tahlil qilishga o'rgatadi, degan umiddamiz.

Iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha mazkur darslik asosan oliy o'quv yurtlari talabalari va magistrantlari uchun mo'ljallangan bo'lib, shu-

ningdek, undan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, katta ilmiy xodim izlanuvchilar va iqtisodiyot nazariyasi sohasidagi bilimlarga qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishi mumkin.

Mualliflar darslikning tuzilishi, mazmuni, muammolarning bayon qilinish tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi va keyingi ilmiy faoliyatlarida, o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda hisobga oladi.

I - B O‘ L I M
IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI

1-BOB. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA O'RGANISH USULLARI

Iqtisodiyot nazariyasi fanini o'rganish, iqtisodiy jarayonlarning tub mohiyatini to'g'ri tushunish ko'p jihatdan uni o'rganuvchilarning ma'lum nazariy va uslubiy bilim bilan qurollanishiga bog'liq. Shuning uchun ham mazkur bob kishilik jamiyati taraqqiyotining asosi bo'lgan iqtisodiyot tushunchasini, uning oldida turgan vazifalarni, uzoq davr davomida iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishini qisqacha tavsiflash bilan boshlanadi. Iqtisodiyot nazariyasi fanidagi asosiy oqimlar va nazariyalarning umumiy bayoni beriladi. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi, iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi bayon etiladi. Shu bilan birga iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar hamda ularning amal qilish mexanizmi, iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari mazmunini ochib berishga e'tibor qaratiladi.

1.1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi

Iqtisodiyot nazariyasi fani va uning qonun-qoidalarini bilish uchun, eng avvalo, iqtisodiyot va uning vazifalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish lozim. Insoniyat hayoti va uning taraqqiyoti juda murakkab, ko'p qirrali va g'oyat chigal, muammolarga boydir. Bu muammolar kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, fan, madaniyat, siyosat, mafkura, axloq, davlatni boshqarish sohalaridagi va nihoyat, oiladagi va boshqa faoliyat turlarining borgan sari ko'payib, rivojlanib hamda ularning o'zgarib borishi natijasida vujudga keladi. Uzoq davrlar davomida insoniyat fikrini band qilib kelgan ayrim masalalar bugungi kunda oddiy haqiqat va oson bilish mumkin bo'lgan narsaga o'xshab ko'rinadi.

Masalan, bugun hammaga ma'lumki, kishilar siyosat, san'at, adabiyot, fan, ma'rifat, madaniyat, ta'lim olish bilan shug'ullanishdan

oldin birlamchi hayotiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishlari kerak. Shuning uchun har bir kishi, o'zining kundalik hayotida bir qator muammolarga, ya'ni kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-ro'zg'or buyumlariga ega bo'lish, bilim olish kabi ehtiyojlarni qanday qilib, nima hisobiga qondirish mumkin degan muammolarga duch keladi.

Shu muammolarni yechish va o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida kishilar turli yo'nalishlarda, sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Demak, insonning turli faoliyatlari ichida eng asosiysi, insoniyatning yashashi va uning kamol topishini ta'minlaydigani moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan iqtisodiy faoliyatdir.

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar yaxlit qilib, bir so'z bilan, iqtisodiy faoliyat deb ataladi.

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi doirasida ro'y bergan. Shuning uchun qadimgi grek olimlarining (Ksenofont, Platon, Aristotel) asarlarida iqtisodiyot – uy xo'jaligi va uni yuritish qonunlari deb tushuntirilgan. Arab leksikonida «iqtisod» tejamkorlik ma'nosida tushunilgan, chunki islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e'tibor berilgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot tushunchasi faqat uy, individual xo'jalik yuritish yoki tejamkorlik ma'nosi bilan cheklanmaydi. Balki **iqtisodiyot – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab iqtisodiy tizimni anglatadi.**

Buning ustiga barcha resurslarimiz – tabiiy boyliklar, malakali ishchi kuchlari, ishlab chiqarish vositalari, iste'mol tovarlari, pul mablag'lari va boshqa resurslarning barchasi cheklangan miqdordadir. Hattoki, ishlab chiqarishning bugungi darajasida insoniyat ixtiyoridagi turli tabiiy boyliklarning taxminan qancha vaqtga yetishini oldindan bashorat qilish mumkin. Jumladan, insoniyat

2500-yilga kelib, barcha metall zaxiralarini sarflab bo'lishi bashorat qilinib, bunda temir rudasi 250 yilga, alyuminiy 570, mis 29, rux 23, qalayi 35, qo'rg'oshin 19 yilga yetishi taxmin qilinmoqda. Amalda hozir yashayotgan avlod ham ishlab chiqarishda qo'rg'oshin, qalayi, rux, oltin, kumush, platina, nikell, volfram, misdan foydalanish muammosiga duch kelmoqda. Yaqin yuz yil ichida ishlab chiqarishni energoresurslar: neft, gaz, ko'mir bilan ta'minlash muammosi ham alohida muammo bo'lib qolishi ehtimoldan xoli emas[1]

Ushbu cheklangan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanib, aholining to'xtovsiz o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadiga erishish, resurslar va mahsulotlarni to'g'ri taqsimlash yo'llarini topish iqtisodiyotning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Iqtisodiyot qamrov darajasiga qarab turlicha bo'lishi mumkin: jahon iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti, mintaqa va hudud iqtisodiyoti, korxona yoki firma iqtisodiyoti, oila iqtisodiyoti. Ba'zan ularni yaxlitlashtirib, makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot deb ataladi. Iqtisodiyotning bu turlari, darajalari, shakllari qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularning hammasi bir maqsadga bo'ysungan: u ham bo'lsa insoniyatning yashashi, ko'payishi va kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berish, turli xil hayotiy vositalarni yaratib, ularning ehtiyojlarini qondirib borishdan iboratdir. Shunday ekan, iqtisodiyot inson hayotining asosini, uning poydevorini tashkil etib, uning o'zi ham insonsiz, uning faoliyatisiz mavjud bo'lmaydi va mazmunga ham ega emas.

Inson tomonidan yaratilgan tovarlar va xizmatlarning, resurslarning doimo harakatda bo'lib, takror-takror ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi, ularning bu to'htovsiz harakati **takror ishlab chiqarish** deyiladi. Takror ishlab chiqarish quyidagi fazalar birligidan iboratdir:

1) ishlab chiqarish jarayoni;
2) taqsimlash jarayoni;
3) ayirboshlash jarayoni;
4) iste'mol qilish jarayoni.

Ishlab chiqarish – kishilik jamiyatining mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni yaratish ja-

[1] Зубко Н.М. Экономическая теория. - Минск: НТЦ АПИ, 1998. 61-б.

rayoni. Barcha tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida yaratilishi sababli, u takror ishlab chiqarishning eng asosiy va boshlang'ich fazasi hisoblanadi. Agar ishlab chiqarilmasa, taqsimlanadigan, ayirboshlanadigan va nihoyat, iste'mol qilinadigan narsalar bo'lmaydi.

Misol uchun, odamlarning non mahsulotiga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun eng kamida quyidagi asosiy jarayonlarni amalga oshirish lozim: ekin maydonlarini haydash va ularga ishlov berish; yerga urug' qadash va unib chiqib, to hosil yetishguncha parvarishlash; g'allani o'rish va don omborlariga joylash; donni tegirmondan chiqarib, un mahsuloti olish; undan non zavodlari yoki nonvoyxonalarda non tayyorlash. O'z o'rnida, har bir jarayon uchun kerakli bo'lgan mehnat vositalarini ham ishlab chiqish kerak bo'ladi. Masalan, ekin maydonini haydash uchun traktorlar, omochlar; urug' qadash uchun seyalkalar; g'allani o'rish uchun kombaynlar; omborga tashish uchun yuk mashinalari; donni yanchish uchun tegirmonlar; non yopish uchun tandirlar va hokazo. Agar bu vositalarning birortasi bo'lmasa, yo ishlab chiqarish jarayoni to'xtaydi yoki samaradorligi pasayib ketadi.

Taqsimot – ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va subyektlari o'rtasida taqsimlash jarayoni. Bu bosqichda, eng avvalo, ishlab chiqarish vositalari, kapital, ishchi kuchi va boshqa resurslar turli tarmoqlar, sohalar, hududlar va nihoyat, korxonalar o'rtasida taqsimlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish natijasi bo'lgan tovar va xizmatlar, ularning pul holidagi ko'rinishi bo'lgan daromadlar ham taqsimlanadi.

Bizning misolimizdagi non mahsulotini ishlab chiqarish uchun ham ushbu faoliyat sohasiga kerakli resurslar – traktorlar, omochlar, seyalkalar, kombaynlar, yuk mashinalari, tegirmonlar va tandirlar; ularni ishga soluvchi traktorchi, haydovchi, dehqon, ishchi va nonvoylar – barchasi taqsimot jarayonidan o'tadi. Ular aynan mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv tufayli turli-tuman faoliyat va jarayonlar bo'yicha o'z o'rnilarini topadilar. Shuningdek, tayyor bo'lgan non mahsulotini sotishdan olingan daromad ham turli kasb egalari – traktorchi, haydovchi, dehqon, ishchi va nonvoy o'rtasida, mulk egalari o'rtasida taqsimlanadi. Ular mahsulotdagi o'z ulushlarini ish haqi yoki foyda, foiz, renta ko'rinishida oladilar.

Taqsimot qancha adolatli va to‘g‘ri bo‘lsa, ishlab chiqarishning yuksalishiga shuncha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uni rag‘batlantiradi.

Ayirboshlash – jamiyat a’zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo‘yicha ma’lum bir o‘lcham (masalan, qiymat miqdori) asosida o‘zaro almashish jarayoni. Mehnat taqsimoti natijasida ayrim guruh kishilar tovar va xizmatlarning ma’lum turlarini ishlab chiqarish va yetkazib berishga ixtisoslashadilar. Har bir tovar turini ishlab chiqaruvchi o‘z tovarini sotib, o‘ziga kerakli bo‘lgan boshqa tovar yoki xizmatlarni sotib oladi. Jumladan, bizning misolimizdagi nonvoy ham o‘z mahsuloti – nonni sotib, tushgan puliga qassobdan – go‘sht, dehqondan – sabzavotlar, do‘kondordan – kiyim-kechak va boshqa zarur tovarlarni sotib oladi.

Natijada turli xil yo‘nalishdagi ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida iqtisodiy aloqa – ayirboshlash, pul orqali oldi-sotdi jarayoni sodir bo‘ladi.

Iste’mol – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi, foydalanilishi jarayoni. Iste’mol takror ishlab chiqarishning oxirgi fazasi bo‘lib, bu jarayon orqali jamiyat a’zolarining turli-tuman ehtiyojlari qondiriladi. Iste’mol ikki turda bo‘ladi: ishlab chiqarish (unumli) iste’moli va shaxsiy iste’mol. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish **unumli iste’mol** deyiladi. Nonvoy ishlatgan un, ko‘mir yoki tabiiy gaz, o‘simlik moyi – bularning barchasi unumli iste’mol hisoblanadi. Chunki, bularning barchasi mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Iste’mol buyumlarining ehtiyojlarni qondirish maqsadida o‘z ahamiyati bo‘yicha pirovard ravishda ishlatilishi **shaxsiy iste’mol** deyiladi. Nonvoy tayyorlagan nonning odamlar tomonidan sotib olinib, iste’mol qilinishi shaxsiy iste’molni anglatadi. Mahsulot va xizmatlar shaxsiy iste’molidan so‘ng, ular o‘rniga yana yangisini ishlab chiqarish zarurati paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, tovar va xizmatlar, resurslar harakati doimo to‘xtovsiz takrorlanib turadigan jarayondir (1.1-rasm):



1.1-rasm. Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakati

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi – ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi hamda ular o'rtasidagi ziddiyatning hal qilinishidir. Bu masalani to'g'ri tushunish uchun, eng avvalo, ehtiyojning mohiyatini, uning turlarini bilish zarur.

Insonning yashashi va kamol topishi, umuman insoniyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalarga bo'lgan zarurati iqtisodiyot nazariyasi fanida ehtiyoj deb ataladi.

Barcha hayotiy ehtiyojlar (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, siyosiy ehtiyojlar) ichida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar alohida o'rin tutadi. Bu ehtiyojlar kishilarning yashashi, mehnat qilishi va hayot kechirishi uchun turli ne'matlar hamda xizmatlarga zaruratdan iborat bo'ladi. Shu jihatdan olganda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni o'z ichiga oladi.

Moddiy ehtiyojlar – bu moddiy ko'rinishdagi ne'matlar vositasida qondiriluvchi zaruratdir. Bular iste'mol uchun zarur bo'lgan ko'plab hayotiy predmetlarni (ishlab chiqarish va transport vositalari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy va h.k.) va zeb-ziynat buyumlarini (taqinchoq, atir-upa, turli bezaklar va h.k.) o'z ichiga oladi.

Ma'naviy ehtiyojlar – bu insonning shaxs sifatida kamol topishi, dunyoqarashi va ma'naviyatining shakllanishi uchun taqozo etiladigan nomoddiy ne'mat va xizmatlarga bo'lgan zaruratdir. Ular kishilarning bilim va dam olish, madaniy saviyasini oshirish, malaka-mahoratga ega bo'lish, turli ma'naviy yo'nalishdagi xizmatlardan bahramand bo'lish kabi ehtiyojlardan iborat bo'ladi.

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI № 54201

Ehtiyojlarni iste'mol qilish tavsifiga ko'ra shaxsiy va ishlab chiqarish ehtiyojlariga ajratish mumkin.

Shaxsiy ehtiyojlar – kishilarning pirovard iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot va xizmatlarga bo'lgan zarurat. Masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari, shaxsga ko'rsatiladigan turli xizmatlar shaxsiy ehtiyojlarni namoyon etadi.

Ishlab chiqarish ehtiyojlari – mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni amalga oshirish maqsadida ishlatiluvchi turli iqtisodiy resurslarga bo'lgan zarurat. Ishlab chiqarish ehtiyojlariga xomashyo (neft, paxta va h.k.), materiallar (po'lat, yog'och, tola va h.k.), asbob-uskunalar, ish mashinalari (yuk mashinasi, ekskavator, buldozer va h.k.), ishchi kuchi va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuningdek, ehtiyojlarni yakka tarzda va birgalikda qondiriluvchi ehtiyojlar; birlamchi va ikkilamchi ehtiyojlar; yakka, guruhiy, hududiy, umumjamiyat ehtiyojlari kabi turlarga ajratish mumkin.

Insonning shaxsiy manfaati, qiziqishlari va turmush tarziga moslab qondirilishi mumkin bo'lgan ehtiyojlar yakka tarzda qondiriluvchi ehtiyojlar deyiladi. Ularga ovqatlanish, kiyinish kabilarni misol qilish mumkin. Hatto ovqatlanish jarayoni birgalikda (oilaviy yoki bir necha kishilar bilan) amalga oshirilgan taqdirda ham, har bir kishining ovqatga bo'lgan ehtiyoji alohida, yakka tarzda qondiriladi.

Odatda kishilarning turli darajalardagi guruhi (oila, jamoa, mamlakat fuqarolari va h.k.) tomonidan birgalikda namoyon etiluvchi ehtiyojlar birgalikda qondiriluvchi ehtiyojlar deyiladi. Masalan, ta'lim olish binolari, kasalxonalardan, dam olish joylaridan bahramand bo'lish, sport o'yinlari va ko'ngilochar tomoshalarni birgalikda ko'rish, mamlakat mudofaasi va tinchligini saqlash kabilar shular jumlasidandir.

Birlamchi ehtiyoj – bu insonning hayotiy faoliyatida zarurlik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan va shu sababli, birinchi navbatda qondiriladigan ehtiyoj. Inson hali bilim olishi, san'at bilan shug'ullanishi, madaniy hordiq chiqarishidan ilgari oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Ikkilamchi ehtiyoj – bu birlamchi ehtiyojlar qondirilib bo'lgandan so'ng namoyon bo'ladigan va qondiriladigan ehtiyoj. Bu turdagi ehtiyojlar odatda ijtimoiy tavsif kasb etib, ularga bilim olish, malaka oshirish, san'at bilan shug'ullanish, dam olish va h.k.larni kiritish mumkin.

Yakka ehtiyoj – bu alohida shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei, dunyoqarashi va boshqa xususiyatlari ta'sirida shakllanuvchi ehtiyoji. Jamiyatdagi kishilar soni qanchalik ko'p bo'lmasin, ular o'z ehtiyojlarining tarkibi, darajasi va qondirilish vositalari jihatidan ozmi-ko'pmi farqlanadilar. Masalan, katta yoshdagi odamlar va bolalar, erkaklar va ayollar, oliy ma'lumotlilar va ma'lumotsizlar, sportchilar va spirtli ichimliklarga moyil kishilar va hokazolarning yakka ehtiyojlari tarkibi o'zaro farq qiladi. Hattoki, bir jinsdagi, o'zaro teng va boshqa belgilari bo'yicha o'xshash insonlarning yakka ehtiyojlari ba'zi bir jihatdan farq qilishi mumkin.

Guruhiy ehtiyoj – bu ma'lum guruh yoki jamoalarga birlashgan kishilarning birgalikdagi ehtiyoji. Bir oilaning ehtiyoji boshqa biridan, bir mehnat jamoasining ehtiyojlari boshqasidan o'z tarkibi va darajasi jihatidan farq qiladi. Masalan, faraz qilaylik, Komilovlar oilasi besh kishidan iborat bo'lsin. Ota – shifokor, ona – o'qituvchi, ikki o'g'il – talaba, qiz – maktab o'quvchisi. Zokirovlar oilasi esa olti kishidan iborat: buva va buvi – nafaqada, ota – injener, ona – uy bekasi, qiz – talaba va o'g'il – maktab o'quvchisi. Har ikkala oilaning tarkibi va faoliyat turlari bir-biridan farq qilganligi sababli, ularning oilaviy ehtiyojlari ham o'z tarkibi va darajasiga ko'ra farqlanadi. Xuddi shuningdek, mebel ishlab chiqaruvchi korxona mehnat jamoasi ehtiyoji tarkibi va darajasi jihatdan tikuvchilik fabrikasi mehnat jamoasinikidan boshqacha bo'ladi.

Hududiy ehtiyoj – bu muayyan hududlarda istiqomat qiluvchi kishilarning birgalikdagi ehtiyoji. Inson muayyan hududda istiqomat qilganligi sababli, uning ba'zi bir ehtiyojlari mazkur hududda istiqomat qiluvchi barcha insonlarning umumiy ehtiyojlari sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, har bir mahalla o'zining guzari, unda joylashgan savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, bolalar bog'chasi, dam olish joylari, istirohat bog'lari va boshqa inshootlarga ehtiyoj sezadi.

Umumjamiyat ehtiyojlari – bu jamiyat miqyosidagi barcha kishilar uchun umumiy bo'lgan ehtiyoj. Har bir mamlakatning fuqarolari ham barcha uchun umumiy bo'lgan ne'matlarga ehtiyoj sezadilar. Masalan, mamlakat chegarasining daxlsizligi, uning mudofaa qobiliyatining mustahkamligi, yurt farovonligi, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, huquq-tartibot ishlarining yuqori darajada amalga oshirilishi va boshqalar.

Jamiyat ehtiyojlariga quyidagi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

a) jamiyatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi;

b) jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum;

v) tabiiy-geografik sharoitlar;

g) tarixiy-milliy an'analar va urf-odatlar;

d) aholi sonining o'sishi, uning tarkibidagi o'zgarishlar;

e) xalqaro, davlatlar, millatlar va mintaqalar o'rtasidagi aloqalar.

Ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan, moddiy ehtiyojlarni to'liq qondirish mumkin emas. Jamiyatda har bir ma'lum davrda ko'plab qondirilmagan ehtiyojlar mavjud bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan yangi buyumlarning paydo bo'lishi, keng reklamaning ta'siri va savdoning rivojlanishi natijasida ehtiyojlar o'zgaradi va ko'payib boradi. Shunday ekan, jamiyatning, ya'ni uni tashkil qiluvchi shaxslar, muassasa va korxonalar ehtiyojlarining cheksizligi, ularning to'xtovsiz yangilanib va o'sib borishi tabiiy bo'lib, uni o'ziga xos qonun orqali ifodalash mumkin. **Ehtiyojlarning ishlab chiqarish va yetkazib berishga nisbatan miqdoran o'sib, tarkib va sifat jihatidan takomillashib borishi ehtiyojlarning ustuvor darajada o'sib borish qonuni deyiladi.** Bu qonun ishlab chiqarish bilan ehtiyojlar o'rtasidagi uzviy, to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aks ettiradi.

Ehtiyojlarning o'zi ham bir-birini taqozo qiladi. Bir ehtiyoj o'z orqasidan boshqa bir ehtiyojni keltirib chiqaradi. Masalan, kompyuter texnikasiga ehtiyojning paydo bo'lishi, o'z navbatida uni ishlatishni o'rganish, unga xizmat ko'rsatish, dastur tuzish kabi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Ehtiyojlarning o'sib borishi uni qondirish vositalari darajasi bilan chegaralanadi. Chunki ehtiyojlar cheksiz o'zgargani holda uni ta'minlash uchun kerak bo'ladigan iqtisodiy resurslar cheklangan

bo‘ladi. **Iqtisodiy resurslar deganda tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui tushuniladi.**

Iqtisodiy resurslarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) tabiiy resurslar (yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmon va biologik resurslar);

2) ishchi kuchi resurslari (kishilarning mehnatga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlari majmui);

3) kapital (yollanma mehnat tomonidan harakatga keltirilib foyda olish maqsadida ishlatiladigan binolar, mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, qurilmalar, xomashyo va materiallar, sotishga tayyor tovarlar, pul mablag‘lari va boshqalar);

4) tadbirkorlik qobiliyati (kishilarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish qobiliyatlari).

Iqtisodiy resurslarning ishlab chiqarish omillaridan farqi shundaki, ularga ishlab chiqarishda bevosita qatnashadigan ishchi kuchi, tabiiy resurslar va ishlab chiqarish vositalaridan tashqari hamma moddiy resurslar, tovar va pul zaxiralari ham kiradi.

Resurslarning cheklanganligi ehtiyojni qondirishning muhim yo‘li bo‘lgan ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham cheklab qo‘yadi. Bu imkoniyatlar darajasi doimo bir xil bo‘lib turmaydi, balki yangi texnikalar va texnologiyalarning yaratilishi va ishga solinishi ishlab chiqarish imkoniyatlarini, uning chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish va ehtiyojlarni qondirish darajasi o‘rtasidagi doimiy va mustahkam aloqadorlikni quyidagicha ifodalash mumkin (1.2-rasm):



1.2-rasm. Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlarning qondirilish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, ishlab chiqarish imkoniyatlarini va binobarin ehtiyojlarni qondirish dara-

jasini oshirish zarurligi iqtisodiyot oldiga quyidagi muammolarni qo'yadi:

1) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning optimal variantlarini (eng zarur va tejamli turlarini) tanlab olish va resurslarni ko'proq ishlab chiqarishga jalb qilish;

2) mavjud resurslarning har bir birligidan tejab-tergab, samarali foydalanish;

3) fan-texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilib, yangi energiya, material, xomashyo turlari, ularning manbalarini topib, foydalanishga jalb qilish, resurslar unumdorligining oshishiga erishish.

Bu muammolarni hal qilish zaruriyati kishilardan chuqur iqtisodiy boshqa bilimlarga ega bo'lib, doimo izlanish va yuksalishda bo'lishini taqozo qiladi.

1.2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi

Iqtisodiy hayot sirlarini bilish va shu yo'ldagi faoliyatning asosiy yo'nalishlarini aniqlashga intilish juda qadim zamonlardan mavjud bo'lib, bu intilish iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, uni kishilarga kerak bo'lgan tomonga yo'naltirishga ijobiy ta'sir etish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Iqtisodiyotga oid bilimlarga dastlab, antik dunyoning ko'zga ko'ringan olimlari Ksenofont, Platon, Aristotel asarlarida, shuningdek, qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo olimlarining asarlarida e'tibor qaratilgan edi.

Biz ming yillar osha bizgacha yetib kelgan muqaddas Qur'oni Karim, hadislar, Qobusnoma, Ibn Xoldun asarlari, bobolarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muxammad Bobur asarlarini o'qir ekanmiz, ularda insonning yashashi uchun tabiat ehsonlari yetarli emasligi, ijodiy mehnat qilish kerakligi qayta-qayta uqtirilganligiga yana bir karra amin bo'lamiz. Jumladan, arab mutafakkiri Ibn Xoldun Abdurahmon Abu Zayd (1332–1406)ning iqtisodiyot bilimlarini rivojlantirishdagi hissasi juda kattadir. U o'zining 1370-yilda yozilgan «Kitob-ul-ibar» («Ibratli misollar kitobi») asarida dunyoda birinchi

bo‘lib tovarning ikki xil xususiyatini – iste’mol qiymati va qiymat tushunchalarini, oddiy va murakkab mehnatni, zaruriy va qo‘shimcha mehnat hamda zaruriy va qo‘shimcha mahsulot tushunchalarini ajrata bildi. Shuningdek, Ibn Xoldun tomonidan tovarlarni ayirboshlash jarayonida ular bir-biriga taqqoslanganda mehnatni tenglashtirish shaklida yuzaga chiqishi, ya’ni tovarda gavdalangan mehnatning miqdori va uning nafliligining hisobga olinishi ham ta’kidlangan[2].

Alisher Navoiyning iqtisodiy masalalarga oid g‘oyalari «Vaqfiya» (1482) va «Mahbub-ul-qulub» (1500) asarlarida bayon etilgan. U mahsulotni uch qismga bo‘lib, birinchi qismini ketgan xarajatga, ikkinchi qismini o‘zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlari uchun sarflashga chaqiradi. Bundan tashqari mahsulotni yaratishda mehnatning roliga va ishlab chiqarish vositalarining ishtirokiga alohida e’tibor beradi. Shu bilan birga boylikni halol mehnat bilan topish, to‘plash va foydalanish zarurligini ta’kidlaydi[3].

Lekin Aristoteldan boshlab butun dunyoning, jumladan Markaziy Osiyoning ko‘pgina olimlari iqtisodiyotni izchil o‘rganish asosida uning ko‘pgina qonun-qoidalarini, tushunchalarini yoritib bergan bo‘lsalar ham, hali iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanmagan edi.

Iqtisodiyot nazariyasi mustaqil fan sifatida ko‘pgina mamlakatlarda milliy bozor shakllangan va jahon bozori vujudga kelayotgan davrlarda «siyosiy iqtisod» nomi bilan shakllana boshladi.

Siyosiy iqtisod grekcha so‘zdan olingan bo‘lib «politikos» - ijtimoiy, «oykos» - uy, uy xo‘jaligi, «nomos» - qonun degani. Ya’ni uy yoki ijtimoiy xo‘jalik qonunlari ma’nosini beradi. 1575–1621-yillarda yashab, ijod qilgan fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreten birinchi marta 1615-yilda «Siyosiy iqtisod traktati» nomli kichik ilmiy asar yozib, bu fanni mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish fani sifatida asosladi. Keyinchalik klassik iqtisodchilar bu fikrni tasdiqlab, siyosiy iqtisod keng ma’noda moddiy hayotiy vositalarni ish-

[2] A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O‘rmonov. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002, 42-bet.

[3] A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O‘rmonov. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002, 89–90-bet.

lab chiqarish va ayirboshlashni boshqaruvchi qonunlar to‘g‘risidagi fandir, deb yozgan edilar.

Iqtisodiyot nazariyasi fani shakllanishi jarayonida bir qancha g‘oyaviy oqimlar, maktablar vujudga kelgan. Ular jamiyat boyligining manbai nima, u qayerda va qanday qilib ko‘payadi, degan savollarga javob topishga urinishgan. Bunday iqtisodiy oqimlardan dastlabkisi **merkantilizm** deb atalgan. Bu oqim tarafdorlari odamlarning, jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat, boylik savdoda, asosan, tashqi savdoda – muomala jarayonida paydo bo‘ladi, ko‘payadi, savdoda band bo‘lgan mehnat unumli mehnat, boshqa mehnatlar esa unumsizdir, deb tushuntirib keldilar. Keyinchalik, iqtisodiy bilimlar rivojlanib, takomillashib borgan sari, ayirboshlash, ya’ni bevosita savdo jarayonida mahsulot yaratilmasligi, faqat ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarda (tashish, qadoqlash, saralash, saqlash) qiymatning ko‘payishi ma’lum bo‘lib qoldi. Ayirboshlashning ekvivalentlik tartibi, ya’ni teng mehnatga teng boylik muvozanati buzilgan taqdirda boylik birovlar foydasiga qayta taqsimlanadi, natijada kimdir boyib, kimdir xonavayron bo‘lib boradi. Merkantilistlar iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifasi davlatning iqtisodiy siyosatiga amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat deb ta’kidladilar. Ularning fikricha, iqtisodiyotda ijobiy savdo balansiga erishilishi uchun davlat iqtisodiyotga faol aralashishi, ya’ni milliy ishlab chiqarish va savdoni o‘z panohiga olishi zarur deb hisoblaydi.

Keyingi oqim **fiziokratlar** deb atalgan. Ular merkantilistlardan farqli o‘laroq, boylik qishloq xo‘jaligida yaratiladi va ko‘payadi, degan g‘oyani olg‘a surdilar. Ularning vakili bo‘lgan F.Kene mashhur «Iqtisodiy jadval» asarini (1758) yozdi va unda fiziokratizm maktabi asoslarini yaratdi. Uning nazariy va siyosiy dasturini ta’riflab berdi. Bu asarda F.Kene almashuvning ekvivalentlik ta’limotini ilgari surdi. Uning fikricha almashuv yoki savdo boylik yaratmaydi, almashuv jarayonida teng miqdorli qiymatlarning almashuvi ro‘y beradi, tovarlarning qiymati bozorga kirmasdan oldin mavjud bo‘ladi. F.Kenening ta’limotida sof mahsulot nazariyasi markaziy o‘rin egallaydi. Uning fikricha, yalpi ijtimoiy mahsulot va ishlab chiqarish xarajatlari o‘rtasidagi farq sof mahsulot hisoblangan. F.Kene sof mahsulot bilan qo‘shimcha

mahsulotni chalkashtirib, ikkalasini aynan bir narsa deb tushunadi. U qo'shimcha qiymat dehqonlarning qo'shimcha mehnati samarasi sifatida yuzaga keladi deb izohlaydi, ayrim joylarda esa qo'shimcha qiymatni tabiatning sof hadyasi deb qarab, uni yaratishda tabiat ham ishtirok etadi, deb tushuntiradi[4]. Bu yerda u o'zi bilmagan holda qiymat bilan naflilik (iste'mol qiymat)ning farqiga bora olmaganligini ifoda etadi. F.Kene ta'limotini A.Tyurgo, Dyupon de Nemur va boshqalar davom ettirdi. Fiziokratlarning ta'limoti bo'yicha qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat birdan-bir unumli mehnat deb hisoblanib, boshqa sohalardagi mehnat esa unumsiz mehnat deb hisoblangan.

Keyinchalik iqtisodiyot fanining **klassik maktabi** namoyandalari bo'lmish A.Smit, U.Petti, D.Rikardo kabi atoqli iqtisodchi olimlar boylik faqatgina savdoda yoki qishloq xo'jaligidagina emas, balki shu bilan birga sanoat, transport, qurilish va boshqa xo'jalik sohalarida ham yaratilishini isbotlab berdilar va **"hamma boylikning onasi yer, otasi mehnat"**, degan qat'iy ilmiy xulosaga keldilar. Shuni aytish kerakki, A.Smitning «ko'rinmas qo'l» prinsipi hozirgi kunda juda ko'p tilga olinmoqda. U o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776) degan kitobida insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat xususiy manfaatdir deb ko'rsatadi. Inson o'z xususiy manfaatini amalga oshirishga, ya'ni foyda olishga intilib, mehnat taqsimoti sharoitida qandaydir tovar yoki xizmat turini yaratadi, boshqalarga yetkazib beradi, o'z kapitalini ko'paytiradi va shu intilishda o'zi bilmagan holda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi deb tushuntiradi. U kapital, mehnat, tovar, ishchi kuchi va boshqa resurslarning erkin harakatini ta'minlash prinsipini ilgari suradi. Ushbu maktabning «klassik» deb nom olishiga ularning quyidagi yutuqlari sabab bo'ldi.

Birinchidan, A.Smit va D.Rikardo iqtisodiyotni o'rganishga ilmiy yondashuv beradigan tadqiqot usullarini ishlab chiqdi va muvaffaqiyatli qo'lladilar. Aynan ana shu usullar yordamida ular merkantilistlarning «boylikning manbai – savdo» degan g'oyasining to'g'ri emasligini isbotladilar.

[4] A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, N.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002, 147–149-bet.

Ikkinchidan, iqtisodiyot to‘g‘risidagi barcha yig‘ilgan bilimlarni klassik maktab namoyandalari ma’lum bir ilmiy tizimga keltirdilar. Bu narsaga ular birinchi bo‘lib iqtisodiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol o‘rtasidagi tizimli aloqani tadqiq etgani sabab bo‘ldi.

Uchinchidan, ingliz klassiklari iqtisodiy hodisalarning ko‘zga ko‘ringan tomonlarini tadqiq qilish bilan cheklanib qolmadilar. Ular ushbu hodisalarning mohiyatini, ular o‘rtasidagi sabab-oqibatli aloqadorlikni aniqladilar, shuningdek, kapitalistik iqtisodiyot qonunlarini ochdilar.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining rivojlanishida Sismondining ham muhim hissasi bor. U kapitalistik iqtisodiy mexanizmni tanqid qilib, siyosiy iqtisod inson baxti yo‘lida sotsial mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan fan bo‘lmog‘i lozim deb ko‘rsatadi. Kapitalistik iqtisodiy tuzumni tanqid qilish bilan bir qatorda undan ko‘ra progressiv bo‘lgan jamiyat qurish g‘oyasi Sen-Simon, Sharl Fure, Robert Ouen kabi sotsial utopistlar tomonidan ilgari surilgan edi. Ular xususiy mulkni qattiq tanqid qilib, uni tugatish tarafdori edilar.

Ulardan keyin **marksizm** deb nomlangan nazariy yo‘nalish o‘zlarining nazariyasida jamiyat taraqqiyotiga tabiiy-tarixiy jarayon deb qarab, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, ularning iqtisodiy tuzumi, tarkibiy qismlari, vujudga kelish, rivojlanish va boshqasi bilan almashish sabablari to‘g‘risidagi ta’limotni hamda qo‘shimcha qiymat nazariyasini yaratdilar.

Iqtisodiyot nazariyasi predmetining yangicha talqini xo‘jalik yuritishning bozor tizimi to‘g‘risidagi **marjinalizm** deb atalgan yangi bir ta’limotni yaratdi. U inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, so‘nggi, qo‘shilgan degan ma’noni beradi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandalari (K.Menger, F.Vizer, Bem-Baverk va b.) bo‘lib, ular tomonidan qo‘shilgan tovar nafliligining, qo‘shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borish qonuni degan nazariyalar ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasi aniq olingan tovarga bo‘lgan talab va uning narxi o‘rtasidagi bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirini tahlil qilishda keng qo‘llanildi.

Iqtisodiyot nazariyasining yangi yo'nalishi **neoklassik**, ya'ni yangi klassik deb nom oldi. Bu nazariyaning yirik namoyandalaridan biri A.Marshall bo'lib, u iqtisodiy jarayonning funksional bog'lanishi va funksional nisbatlarini ishlab chiqishga harakat qildi, bozor muvozanatini va narxni aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qaradi. Bu nazariy yo'nalishning namoyandalaridan biri shveysariyalik iqtisodchi Leon Valras bo'lib, u umumiy iqtisodiy muvozanat modelining nusxasini ishlab chiqishga harakat qildi.

Avstriya iqtisodiy maktabining namoyandasi Y.Shumpeter «Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi» (1912) nomli kitobida iqtisodiy tizimlar o'zgarishining ichki kuchlarini, ularning ichki mazmunini va turtki beruvchi kuchini ko'rsatishga harakat qildi va u iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch tadbirkorlik degan xulosaga keldi.

Iqtisodiyot nazariyasining hozirgi zamon yo'nalishlaridan biri **keynschilik maktabidir.** 1936-yilda ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns o'zining «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» degan kitobida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: milliy daromad, kapital xarajatlar, iste'mol va jamg'arishning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, investitsiya va iste'molning eng maqsadga muvofiq tarzda tashkil topishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili deb ko'rsatadi. Keyns ta'limoti, ya'ni keynschilik maktabi ta'sirida iqtisodiyotda makroiqtisodiy tahlil yo'lga qo'yildi. U iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki zarurligini isbotladi.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri **monetarizm** deb ataladi. Agar Keyns nazariyasining ishlab chiqilishida markaziy muammo ishsizlik bo'lgan bo'lsa, monetarizm nazariyasining asosiy muammosi ishlab chiqarish hajmining pasayib borish sharoitida inflyatsiyaning vujudga kelishidir. Ushbu holat stagflyasiya degan nom oldi. Monetarizm maktabining asoschisi Milton Fridmen bo'lib, uning iqtisodiyot nazariyasiga qo'shgan hissasi pul nazariyasini yangi mazmun bilan boyitdi. Monetaristlar tovar ishlab chiqarish jarayoniga pulning qayta ta'sir etish mexanizmini, pul dastaklari va monetar siyosatning iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'sirini chuqur tadqiq etishdi. Monetarizm pul-kredit dastaklari yordamida iqtisodiyotni tartibga solishda o'ziga xos yondashuvni vujudga keltirgan nazariyadir.

Hozirgi paytda marjinalizm, monetarizm, keynschilik va boshqa qator yo'nalishdagi iqtisodiy nazariyalar yig'indisi «Ekonomiks» nomli kitobda mujassamlashgan bo'lib, u AQSH, Angliya va boshqa qator mamlakatlarda darslik sifatida o'qitiladi. Rus tilidagi tarjimasi orqali bizga ma'lum bo'lgan P.Samuelson, R.Makkonnell va L.Bryularning kitoblari uning namunalaridir. Hozirda bu yo'nalishdagi fan bizda va boshqa qator MDH mamlakatlarida «Iqtisodiyot nazariyasi» deb atala boshladi.

Yuqorida bayon etilgan va boshqa qator nazariyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, «Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllangunga qadar bosib o'tgan yo'l va unda vujudga kelgan g'oyalar, oqimlar juda murakkab, ko'pincha bir-biriga zid va qarama-qarshidir. Shu bilan birga aytishimiz kerakki, hech qaysi iqtisodiy maktabning nazariyalari mutlaq va doimiy haqiqat kursisiga egalik qila olmaydi. Har bir maktab ma'lum darajada muammolarga bir tomonlama yondashganligini yoki bo'lmasa ba'zi bir nazariy savollarni yoritishda anglashilmovchilikka yo'l qo'yganligi bilan ajralib turadi, sababi barcha nazariy oqimlar qaysidir ijtimoiy guruh manfaatlari nuqtai nazaridan va o'sha davr real holatidan kelib chiqqan bo'lib, masalaga bir tomonlama yondashuvga yo'l qo'yilganligi ko'rinib turadi. Shunday bo'lsada, ular bir-birini to'ldiradi, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning ichki ziddiyatlarini, qonunlarini ma'lum darajada umumlashtirib ifodalaydi. Demak, jamiyat o'z taraqqiyotini belgilashda alohida bir nazariya asiri bo'lib qolmasligi kerak, chuqur nazariy tahlil asosida ularning salbiy tomonlarini tashlab yuborib, ratsional mag'izlarini olib, ulardan oqilona foydalangan holda jamiyat rivojlanishi umummilliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirilishi zarur.

1.3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetini aniqlashga oid masalaning yechimi juda murakkab bo'lib, bu haqda o'tmishda ham, hozir ham turli olimlar har xil fikrlar bildirib kelmoqdalar. Masalan, Aristotel bu fanga uy xo'jaligini boshqarish qonunlari to'g'risidagi fan deb qaragan bo'lsa, merkantilistlar, fiziokratlar va ingliz klassik iqtisodiy maktabi vakillari unga boylik to'g'risidagi, uning manbalari va

ko‘paytirish yo‘llari, boylikni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish to‘g‘risidagi fan deb qaradilar. Keyingi paytda mazkur fanni xalq xo‘jaligi, ijtimoiy xo‘jalik to‘g‘risidagi fan deb ham hisoblamoqdalar. Ayrimlar iqtisodiyot nazariyasi fanini moddiy hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni boshqarish qonunlari to‘g‘risidagi fan deb ko‘rsatadilar. A.Marshall esa iqtisodiyot nazariyasi (siyosiy iqtisod) fanining predmeti insoniyat, jamiyatning me’yordagi hayotiy faoliyatini tadqiq qilishdan iborat, deb yozadi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani siyosiy iqtisod nomi bilan yuritilgan davrda qator darsliklarda va ayrim asarlarda uning predmeti moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan munosabatlarni o‘rganishdan iborat, deb ko‘rsatilgan edi.

AQSH va boshqa ba’zi bir mamlakatlardan kirib kelgan «Ekonomiks» darsliklarida (iqtisodiyot nazariyasi «Ekonomiks» deb yuritilgan darsliklarda) bu fanning predmeti kishilarning moddiy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish maqsadida cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammolarini tahlil qilish, kishilarning iqtisodiy xatti-harakatlarini o‘rganishdan iborat, deb ko‘rsatilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotgan hozirgi davrda Rossiya Federatsiyasida chop etilayotgan turli iqtisodiyot nazariyasi darsliklarida bu fanning predmeti bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’riflar berilmoqda (1.1-jadval).

1.1-jadval

«Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida fanning predmetiga berilgan ta’riflar

Mualliflari	Ta’rif	Manba
M.N.Chepurin, Kiseleva E.A.	Iqtisodiyot nazariyasi kishilarning iqtisodiy xatti-harakatini, ya’ni ularning moddiy va nomoddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq harakatlarini o‘rganadi	Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik / Pod obщ. red. prof. Chepurina M.N., prof. Kiselevoy E.A. – 6-ispravlennoe, dopolnennoe i pererabotannoe izdanie. – Kirov: «ASA», 2007, s.28.

S.S.Nosova	Ishlab chiqaruvchi kuchlarning erishilgan darajasi asosida moddiy ne'mat va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bo'yicha kishilar o'rtasida vujudga keluvchi ishlab chiqarish munosabatlarining yig'indisi	Nosova S.S. Ekonomicheskaya teoriya. Elementarniy kurs: uchebnoe posobie / S.S.Nosova. - M.: KNORUS, 2008, s.16.
G.P.Juravleva, V.I. Vidyapin	Umumiy iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo'lib, u cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida kishilar va guruhlarning xatti-harakatini o'rganadi	Ekonomicheskaya teoriya (politekonomiya): Uchebnik/ Pod obщ. red. akad. V.I.Vidyapina, akad. G.P.Juravlevoy. – 4-e izd. - M.: INFRA-M, 2004, s.31.
V.D.Kamayev	Boylik va resurslarning cheklanganligi, ulardan samarali foydalanish bilan yaxlit holdagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimini, ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi sifatidagi insonning xatti-harakatini o'rganadi.	Kamayev V.D. Ekonomicheskaya teoriya: Kratkiy kurs: uchebnik / V.D.Kamayev, M.Z.Ilchikov, T.A.Borisovskaya, 2-e izd., ster. – M.: KNORUS, 2007, s.21.
D.D.Moskvin	Ishlab chiqarish munosabatlarini va ularning ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi	Osnovi ekonomicheskoy teorii. Politekonomiya: Uchebnik /Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. D.D.Moskvina. Izd. 3-e, ispravl. M.: Editorial URSS, 2003, s.24.
E.F.Borisov	Ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishda tarkib topuvchi kishilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi	Borisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya: voprosi – otveti: Ucheb. posobie. – 2-e izd., pererab. i dop. M.: INFRA-M, 2008, s.16.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to‘g‘risida bildirilgan barcha fikrlardan ko‘rinib turibdiki, siyosiy iqtisodga doir darslik va boshqa ayrim kitoblarda ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan munosabatlarni o‘rganishga alohida e’tibor berilgan bo‘lsa, «Ekonomiks»da va keyingi paytlarda Rossiyada chiqarilgan darsliklarning ko‘pchiligida asosan kishilarning resurslarga, moddiy ashyo va buyumlarga bo‘lgan munosabatini, xatti-harakatini o‘rganishga, cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishga alohida e’tibor berilib, masalaga tor doirada (faqat ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlar) yoki bir tomonlama (faqat kishilarning moddiy ashyolarga munosabati) yondashuvga yo‘l qo‘yilgan.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyot nazariyasi fani masalaning u tomonini ham, bu tomonini ham chetda qoldirmasligi, masalaga bir tomonlama yondashuvga va tor doirada qarashga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Chunki har qanday mehnat, har qanday ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, eng avvalo, tabiat ashyolari, moddiy vositalar, pul mablag‘lari orqali amalga oshiriladi va ulardan foydalaniladi. Shuning uchun mavjud resurslarga, ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga, ulardan unumli foydalanishga bo‘lgan munosabat, ishlab chiqarish omillarining o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’sirida o‘rganilishi lozim. Boshqa tarafdan, hech qanday mehnat yoki ishlab chiqarish alohida olingan kishi yoki guruh tomonidan, boshqalar bilan aloqalarsiz, munosabatlarsiz amalga oshirilmaydi. Ular ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida bir-birlari bilan albatta o‘zaro munosabatda bo‘ladilar va shu munosabatga qarab harakat qiladilar, o‘z xulq-atvorlarini, xatti-harakatlarini belgilaydilar.

Mana shularni hisobga olib, **iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayotiy ne’matlarni (moddiy ne’matlar va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayonida sodir bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo‘jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o‘rganishdan iborat,** deb aytish mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi va vazifasini ikki tomonlama, ya’ni ham amaliy va ham nazariy tomonlarini tushuntirish

mumkin. Aksariyat hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida iqtisodiyot nazariyasining to'rtta asosiy vazifasi ajratib ko'rsatiladi:

1) bilish vazifasi – har qanday fan kabi iqtisodiyot nazariyasi ham fundamental ahamiyatga ega: jamiyatda insonlarning tabiat ashyolari, boshqa moddiy ashyolar hamda o'zaro bir-birlari bilan aloqalarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etib, bizni o'rab turgan olam to'g'risidagi fikrlarimizni kengaytiradi. Ayni paytda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini tushunish va tahlil qilish, iqtisodiyotning turli jabhalarida qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarni baholash uchun zarur bo'lgan bilimlar bilan boyitadi, iqtisodiy tafakkurlash darajasini oshiradi;

2) amaliy vazifa – amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslardan unumli foydalanib iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va shu asosda o'sib boruvchi ehtiyojlarni qondira borishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, cheklangan turli xil resurslarning har bir birligi evaziga ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash, har bir faoliyat turi bo'yicha xarajatlar miqdori bilan erishilgan samara, ya'ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo'llarini topishdan iboratdir;

3) uslubiy vazifasi – iqtisodiyot nazariyasi fanining o'zi, tahlili va uning tamoyillari, olingan xulosalar, tadqiq etilayotgan iqtisodiy qonunlar boshqa ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi;

4) g'oyaviy-tarbiyaviy vazifasi – ushbu vazifa shundan iboratki, uning yordamida talabalar, mutaxassislar va iqtisodiyot ilmini o'rganuvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, milliy istiqlol g'oyasini talaba yoshlar ongiga singdiradi, ularni millat manfaatlari yo'lida iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy mahsulotni ko'paytirish, milliy pul qadrini oshirish, milliy tovarlarni jahon miqyosida bozorgir bo'lishini ta'minlash, mamlakat aholisining turmush darajasini ko'tarish ruhida tarbiyalaydi. Iqtisodiyot nazariyasi talaba yoshlarga moddiy ne'matlarning inson mehnatining mahsuli ekanligini tushuntirib, ularni mehnat hamda cheklangan resurslarni tejash ruhida tarbiyalaydi.

1.4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar)

Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy munosabatlarda amal qiladigan iqtisodiy qonunlarni ham o‘rganadi.

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi.

Iqtisodiy qonunlar obyektiv xususiyatga ega bo‘lib, ularning kelib chiqishi, amal qilishi, rivojlanishi va barham topishi alohida kishilarning ongiga, ularning xohish-irodasiga bog‘liq emas.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani iqtisodiy qonunlarni quyidagi guruhlarga turkumlaydi:

1. Umumiy iqtisodiy qonunlar – kishilik jamiyati rivojlanishining barcha bosqichlarida amal qiladi. Masalan, vaqtni tejash qonuni, ehtiyojlarning tez o‘sib borish qonuni, takror ishlab chiqarish qonuni, ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlar xususiyati va rivojlanish darajasi mos kelish qonuni va boshqalar.

2. Xususiy yoki davriy iqtisodiy qonunlar – insoniyat jamiyati taraqqiyotining ma’lum bosqichlarida amal qiladi. Masalan, talab qonuni, taklif qonuni va qiymat qonuni. Bu qonunlar tovar-pul munosabatlari mavjud bo‘lgan bosqichlarda amal qiladi.

3. Maxsus, o‘ziga xos iqtisodiy qonunlar – alohida olingan iqtisodiy tizim sharoitida amal qiladi. Masalan, qo‘shimcha qiymat qonuni.

Iqtisodiy qonunlarning yuqorida sanab o‘tilgan guruhlarini bir-biridan farqlash uchun quyidagi shartli rasmdan foydalanamiz (1.3-rasm).



1.3-rasm. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi

Rasmdan ko‘rinadiki, kishilik jamiyatining rivojlanishi bir necha bosqichlarni bosib o‘tib, ular 1, 2, 3, ... va h.k. tartibida belgilangan. Yuqorida ta’kidlanganidek, maxsus iqtisodiy qonunlar bu bosqichlarning har biri uchun alohida tarzda amal qilib, ular mazmunan bir-biridan farqlanadi. Davriy iqtisodiy qonunlar esa taraqqiyotining bir necha (bizning rasmda 3 ta) bosqichi uchun tegishli bo‘ladi va ularda amal qiladi. Umumiy iqtisodiy qonunlar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarini qamrab olib, ularning hammasida amal qiladi.

Iqtisodiy qonunlarning har qaysisi o‘zicha amal qilmaydi, balki ular bir-birlari bilan chambarchas bog‘liqlikda amal qiladi, ularning biri ikkinchisini taqozo etadi. Shuning uchun ularni birgalikda iqtisodiy qonunlar tizimi deb yuritiladi. Iqtisodiy qonunlar yoki ularning tizimi o‘zgarmas narsa emas, balki ular ma’lum bir tarixiy sharoitda vujudga keladi, rivojlanadi va ma’lum sharoitda yo‘q bo‘lib ketadi. Masalan, qiymat qonuni, talab va taklif qonunlari, natural ishlab chiqarish davrida amal qilmagan. Tovar ishlab chiqarish va pul orqali ayriboshlash rivojlangan davrdan boshlab amal qilmoqda. Bir zamonlar kelib, ishlab chiqarishning tovar shaklidan boshqa shakliga o‘tilsa, bu qonunlar yo‘q bo‘lib ketishi mumkin.

Iqtisodiy qonunlar bilan bir qatorda iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy jarayonlarning alohida tomonlarini tavsiflaydigan iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha)larni ham ta’riflab, ularning mazmunini ochib beradi.

Iqtisodiy kategoriya – barqaror takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha.

Iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) lar alohida kishilar tomonidan o‘ylab topilmagan, balki real iqtisodiy hodisalarni ifoda etadigan ilmiy tushuncha bo‘lib, ilmiy fikrlash tafakkur mahsulidir. Masalan, bozor, kapital, ishchi kuchi, iqtisodiy muvozanat, moliya, kredit va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtisodiy qonunlar bilan iqtisodiy kategoriyalarning farqi shundaki, birinchisi iqtisodiyotning turli bo‘g‘inlari, sohalari, bo‘laklari orasidagi bog‘liqlikni, ularning biri o‘zgarsa, albatta, ikkinchisi ham o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) lar esa iqtisodiy hodisalarning

bir tomonini, uning mazmunini ifoda etadi. Masalan, narx, talab degan tushunchalar orqali biz eng avvalo bu tushunchalarning iqtisodiy mazmunini tushunib olamiz. Talab qonuni orqali esa, talab hajmi bilan narx o'rtasidagi aloqadorlikni bilib olamiz.

Umuman olganda, iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi. Ular birgalikda iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini aks ettiradi.

1.5. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari

Haqiqiy fanning amalda vujudga kelishi faqatgina tadqiqot predmetining shakllanishi bilan emas, shu bilan birga uning bilish uslubiyatining qaror topishi, takomillashib borishi bilan ham bog'liqdir.

Real iqtisodiy jarayonlarda ilmiy izlanish va tahlillarni amalga oshirish, respublikamizning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi sa'yi-harakatlari va ularning natijalarini baholash uchun ham iqtisodiyot nazariyasining ilmiy tadqiqot usullari va uslubiyatidan xabardor bo'lish, iqtisodiy tafakkurlash imkoniyatlariga ega bo'lishni taqozo etadi.

Uslubiyat – bu ilmiy bilishning tamoyillari tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va aniq hadislaridir. Bu obyektiv reallikni bilish dialektikasi, mantiqi va nazariyasini o'z ichiga oluvchi bir butun ta'limotdir. Uslubiyat umumilmiy tavsifga ega, lekin har bir fan o'zining predmetidan kelib chiqib, o'zining ilmiy bilish usullariga ega bo'ladi. Shuning uchun uslubiyat umumilmiy va ayni vaqtda xususiy bo'ladi.

Dialektik usul qoidalari ilmiy bilishning umumiy usuli bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot nazariyasida qo'llaniladigan bu tamoyillarning ayrimlari quyidagilardir:

1) iqtisodiyot bir-biri bilan aloqada, chambarchas bog'liqlikda, ziddiyatda, o'zaro ta'sir qilib turadigan turli bo'g'inlardan, bo'laklardan iborat yaxlit bir jarayonki, u doimo harakatda, rivojlanishda, mazmun va shakl jihatdan o'zgarib turadigan ichki va tashqi hodisalar bilan aloqada bo'ladi;

2) iqtisodiy jarayonning har bir bo'lagini alohida olib, uning o'ziga xos xususiyatlarini, kelib chiqish va yo'q bo'lish sabablari va oqibatlarini, uning ijobiy va salbiy jihatlarini, ichki va tashqi aloqadorlik va bog'liqlik tomonlarini zamon va makonda o'rganish;

3) iqtisodiy jarayonlarni oddiydan murakkabgacha, quyidan yuqorigacha rivojlanishda, deb qarash. Bu yerda son jihatidan o'zgarishlar to'plana borib, sifat jihatidan o'zgarishga olib kelishini hisobga olish zarur.

4) ichki qarama-qarshiliklar birligiga va ularning o'zaro kurashiga rivojlanishning manbai sifatida yondashish.

Iqtisodiy faoliyatlar, hodisa va jarayonlar tabiiy, moddiy, shaxsiy omillar va pul mablag'lari kabi omillarga tayangan holda kechadi, bu omillar o'zaro chambarchas bog'liq hamda ziddiyatda bo'ladi va birbiriga ta'sir ko'rsatadi, ular doimo sifat va miqdor jihatdan o'zgarib turadi, turli davrlarda turlicha ijtimoiy shaklga ega bo'ladi, eski iqtisodiy qonunlar, tushunchalar o'rniga yangilari paydo bo'ladi. Ana shular hisobga olinsa, bu fan uchun dialektika qoidalarini qo'llashning qanchalik zarurligi va muhimligi darhol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, iqtisodiyot nazariyasi fanining o'ziga xos tadqiqot usullari ham mavjuddir, ulardan eng muhimi ilmiy abstraksiyadir. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyati o'zgarishini o'rganishda mikroskoplardan, kimyoviy laboratoriyalardan foydalanib bo'lmaydi, bunda abstraksiya kuchi ishga solinadi.

Ilmiy abstraksiya usuli – tafakkur va tahlil paytida xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratishdir. Bu usul yordamida o'rganilayotgan voqea va hodisaning ichki, ko'zga ko'rinmaydigan mohiyati, uning asl mazmuni bilib olinadi.

Aslida har bir iqtisodiy jarayon yoki hodisa o'nlab omillarning ta'siri ostida ro'y beradi. Mazkur jarayon yoki hodisaning chuqur mazmunini ochib berish maqsadida har bir omilni o'rganish, bir tomondan, o'ta mushkul va sermashaqqat hisoblansa, boshqa tomondan, u qadar muhim bo'lmagan jihatlarni ham yuzaga chiqarib, tadqiqotchini voqeaning asl mohiyatidan chalg'itadi. Shunga

ko‘ra, tadqiqotchi uchun jarayon va hodisalarni ilmiy tahlil qilishda birinchi darajali, ahamiyatli va asosiy omillarni ajratib olib, diqqat markazini shunga qaratish muhim hisoblanadi. Bu harakatlar amalda tadqiqotchining ongida, fikran va muntazam ravishda sodir bo‘ladi. Aynan shu jarayon ilmiy abstraksiyalashdir.

Ilmiy abstraksiyalash natijasida hodisa va jarayonlarning eng umumiy xususiyat va aloqalarini namoyon etuvchi ilmiy tushuncha – kategoriyalar ishlab chiqilishi mumkin. Masalan, dunyoda ishlab chiqarilayotgan millionlab turlicha tovarlarning tashqi xossalaridagi ko‘plab tafovutlardan abstraksiyalashgan holda, biz ularni yagona iqtisodiy kategoriya – tovar tushunchasi orqali ifodalaymiz. Bunda turli tovarlarni birlashtiruvchi eng asosiy jihat – bu sotish, ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot ekanligini qat’iy e’tirof etamiz. Biroq, ilmiy abstraksiyalash uchun tadqiqotchi muayyan hodisa va jarayonning mazmun-mohiyatiga oid bilimlar bilan yetarli darajada qurollangan bo‘lishi lozim. Aks holda, u asosiy va ikkilamchi darajali omillarni to‘g‘ri ajrata olmay, pirovardida noto‘g‘ri xulosa chiqarishiga olib keladi.

Ilmiy bilishning muhim usullaridan yana biri – tahlil va sintez usulidir. Tahlil va sintez deyarli barcha fanlar uchun samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan usullardan biri hisoblansada, uning iqtisodiy fanlar uchun ahamiyati juda beqiyosdir.

Tahlil – bu o‘rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o‘rganish. Tadqiqotchi voqea-hodisaning mohiyatini chuqur anglashi, u haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi uchun uning ichki tarkibiy qismlariga kirib borishi zarur. Bu esa tadqiqot obyektini alohida tarkibiy qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, biz O‘zbekistondagi iqtisodiy o‘sish sur’ati 2016-yilda o‘tgan yilga nisbatan 7,8 foizni tashkil etganini bilamiz. Bunday o‘sish sur’atiga nimalar hisobiga erishilganini aniq tasavvur qilish uchun esa faqat tahliliy jarayonlar orqali erishamiz. Ya’ni, yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish, daromadlar va xarajatlar, mulkchilik shakllari, tarmoqlar va mintaqalar bo‘yicha tarkibiy qismlarini alohida ajratib

olish va ularni o‘rganish orqali o‘sish sur’atining manba va omillari, uni yanada oshirishning imkoniyatlari to‘g‘risida to‘g‘ri xulosa chiqara olamiz.

Sintez – bu o‘rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab umumiy xulosa chiqarishdir. Murakkab iqtisodiy tizimlar ana shu yo‘l bilan o‘rganiladi, iqtisodiy tizim butunicha tasvirlab beriladi.

Iqtisodiy fanlarda ko‘pincha sintezdan aniq iqtisodiy ko‘rsatkichlarni umumlashtirish orqali yaxlit xulosa chiqarish jarayonida foydalaniladi. Masalan, korxonalar iqtisodiy faoliyati natijalarini umumlashtirish orqali tarmoq va sohalar iqtisodiy faoliyatiga ularning faliyati natijalarini umumlashtirish orqali esa – milliy iqtisodiyotga baho berish, uning umumiy natijalarini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, sintez usuli iqtisodiyot nazariyasi fanida ko‘plab iqtisodiy ta’limot va nazariyalarning ilmiy asosga ega bo‘lgan, to‘g‘ri va muhim jihatlarini ajratib olgan holda, ularni umumlashtirish orqali yangi g‘oya va nazariyalarni hosil qilish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, narxning mazmunini, uning nimalar asosida shakllanishini ilmiy asosda ochib berishda qiymatning turli nazariyalarini sintez qilish usulidan foydalanish buning yaqqol dalilidir.

Mantiqiylik va tarixiylikning birligi usuli. Iqtisodiyot nazariyasida tarixiylik dalili tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan tadqiqot olib borish zarurligini taqozo qiladi. Chunki iqtisodiy jarayonlar tarixiy jarayon sifatida rivojlanadi. Mantiqiylik usulida jarayonlar faqatgina tarixiy nuqtai nazardan emas, shu bilan birga asosiy ichki zarur qonuniy bog‘lanishlar bo‘yicha ham tahlil qilinadi. Masalan, biz pulning iqtisodiy tabiatini o‘rganishda uning tarixiy jihatlari, jumladan, qiymat shakllarining rivojlanishini ko‘rib chiqamiz. Bu esa, bizdan tarixga, tovar-pul munosabatlarining dastlabki kurtaklari paydo bo‘lgan jamiyatga nazar tashlab, o‘sha davrdagi iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilishni taqozo etadi. Biroq, bu holat o‘tmishdagi barcha iqtisodiy munosabatlarga emas, balki aynan pulning dastlabki asoslari bilan mantiqiy bog‘langan munosabatlargagina taalluqlidir.

Pulning kelib chiqish sabablari, shakllanish jarayonlari puxta o‘rganilgandan keyin mantiq va tafakkurlash kuchi ishga solinib, uning xozirgi davrdagi asl mazmuni, vazifalari xususiyatlari bilib

olinadi. Shundagina pulning keng va chuqur mazmunga ega bo'lgan obyektiv tarixiy kategoriya ekanligi ma'lum bo'ladi.

Foydalanilayotgan usullar ichida **eksperiment** usuli ma'lum o'rin egallaydi, iqtisodiy o'sishning keskin o'zgarishi bosqichlarida, jumladan iqtisodiyotning inqiroz va beqarorlik bosqichlarida eksperimentdan keng foydalaniladi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish paytida eksperiment alohida o'ringa ega. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish, ya'ni ilmiy tajriba, eksperiment o'tkazish hisob-kitob vositasiga asoslanish va ilmiy yo'nalishlarni ishlab chiqish talab etiladi. Iqtisodiyot sohasida o'tkaziladigan eksperimentlarga erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish, muayyan iqtisodiy tadbirlarni alohida korxona yoki hududlarda sinovdan o'tkazish kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Jumladan, O'zbekistonda zarar ko'rib ishlovchi shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklarga aylantirish jarayoni dastlab Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida tajribadan o'tkazilib, keyinchalik boshqa tuman va viloyatlarda bosqichma-bosqich amalga oshirilganligini ham iqtisodiy eksperiment sifatida baholash mumkin.

Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlilni qo'shib olib borish. Mikroiqtisodiy tahlilda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish korxona, firma va fermer xo'jaliklarining ichki jarayonlarini alohida iqtisodiy subyektlarning xatti-harakati, xulqi tadqiq qilinadi. Bu tahlilda alohida olingan tovarlarning xarajatlari, kapital va boshqa resurslardan foydalanishning, narx tashkil topishining, ish haqi to'lashning, talab va taklif tarkib topishining shakl va mexanizmlarini o'rganish markaziy o'rin tutadi.

Makroiqtisodiy tahlil makro darajada (mamlakat yoki jahon miqyosida) milliy iqtisodiyotning to'laligicha faoliyat qilishi tadqiqoti bilan shug'ullanadi. Milliy mahsulot yalpi ichki mahsulot dinamikasi narxlar darajasining o'zgarishi, inflyatsiya, ishchi kuchining bandligi masalalari bu tahlil obyekti bo'lib hisoblanadi. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot o'zaro bog'langan va bir-biri bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Induksiya va deduksiya bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, ammo o'zaro bog'liqlikdagi fikrlash usulidir. **Fikrning xususiy faktlardan**

umumiy faktlarga qarab harakati induksiya, aksincha, umumiy faktlardan xususiy faktlarga tomon harakati deduksiya deb ataladi. Misol uchun, biz «A» korxonadagi ishchilar ish haqining oshirilganligi, boshqa sharoitlar o'zgarmagani holda, mehnat unumdorligining oshishiga olib kelganligining guvohi bo'ldik, deb faraz qilaylik. Bundan, butun iqtisodiy tizim uchun tegishli bo'lgan «ishchilar ish haqining oshirilishi, boshqa sharoitlar o'zgarmagani holda, mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi», degan umumiy xulosa chiqarishimiz induksiyadir. Aksincha, bunday nazariy qoidani oldindan bilgan holda, uning turli tarmoqlar, alohida korxonalardagi amal qilish holatini aniqlashimiz va baholashimiz deduksiyani anglatadi.

Iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilishda **ikki tomonlama yondashuv usuli** muhim o'rin tutadi. Bunda barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar bir-biriga qarama-qarshi ikki tomon birligidan iborat deb qaraladi. Masalan, tovar qiymati va naflilikning birligidan iborat degan nuqtai nazaridan tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi. Aks holda bir tomonlamalikka yo'l qo'yilib, yanglish tasavvurga va noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilishda **taqqoslash, statistik, matematik va grafik usullaridan** keng foydalaniladi. Ayniqsa, hozirgi davrda grafik usulni keng o'zlashtirish va qo'llash zarurdir. Grafiklar nazariya modellarini ifodalashda vositachi bo'lib xizmat qiladi. Aniqroq qilib aytganda, grafik usul o'zgaruvchi miqdorlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rgazmali qilib tasvirlaydi.

Bu usullar yordamida iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning mazmunini, ulardagi o'zgarishlarni, kelib chiqish sabab-oqibatlarini bilish mumkin bo'ladi.

Xulosalar

1. Iqtisodiyotning bosh masalasi – ehtiyojlarning cheksiz o'sib borishi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi ziddiyat va uni hal qilish yo'lini izlab topishdan iboratdir. Bu ziddiyatli holatni yechish zaruriyati kishilar oldiga quyidagi muammolarni qo'yadi:

a) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning optimal variantlarini (eng zarur va tejamli turlarini) tanlab olish va resurslarni ko'proq ishlab chiqarishga jalb qilish;

b) mavjud resurslarning har bir birligidan tejab-tergab, samarali foydalanish;

v) fan-texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilib, yangi energiya, material, xomashyo turlari, ularning manbalarini topib, foydalanishga jalb qilish, resurslardan foydalanish samaradorligining oshishiga erishish;

g) kishilarning chuqur iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishi.

2. «Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllanguncha bosib o'tgan yo'l va unda vujudga kelgan g'oyalar, oqimlar juda murakkab, ko'pincha bir-biriga zid va qarama-qarshidir. Shunday bo'lsada, ular bir-birini to'ldiradi. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, hech qaysi iqtisodiy maktabning nazariyalarini mutlaq va doimiy haqiqatga ega deb bo'lmaydi. Turli-tuman fikr va qarashlar olamidan haqiqatni izlab topish chuqur iqtisodiy bilim va tafakkurni taqozo etadi.

3. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani barcha iqtisodiy fanlarning nazariy-uslubiy asosidir. U fundamental fan bo'lib, insonlarni jamiyatning iqtisodiy asoslarini ilmiy tadqiq etishga yo'naltiradi, ularni nazariy-uslubiy bilim bilan qurollantiradi.

4. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy qonunlari va kategoriyalari to'g'risidagi fan bo'lib, u turli ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

5. Iqtisodiyot nazariyasi nafaqat nazariy fan, balki u bevosita amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Iqtisodiyot nazariyasini bilmay turib, murakkab iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri hal qilib bo'lmaydi.

6. «Iqtisodiyot nazariyasi» fani doirasida inson va jamiyatning yashashi hamda faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy tomonlarini tadqiq qilish va bilish mumkin.

7. Iqtisodiyot nazariyasining bilish, amaliy, uslubiy va g'oyaviy-tarbiyaviy vazifalari mavjud. Ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy vatanparvarlik, milliy g'urur ruhida tarbiyalashda iqtisodiyot nazariyasi g'oyaviy-tarbiyaviy vazifasining ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy faoliyat – cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar majmui.

Iqtisodiyot – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizim.

Ishlab chiqarish – kishilik jamiyatining mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni yaratish jarayoni.

Taqsimot – ishlab chiqarish omillari va uning natijalarini iqtisodiyotning turli qism va subyektlari o'rtasida taqsimlash jarayoni.

Ayirboshlash – jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha o'zaro almashish jarayoni.

Iste'mol – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlarning ishlatilishi jarayoni.

Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi, umuman insoniyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalarga bo'lgan zarurat.

Moddiy ehtiyoj – moddiy ko'rinishdagi ne'matlar vositasida qondiriluvchi zarurat.

Ma'naviy ehtiyoj – insonning shaxs sifatida kamol topishi, dunyoqarashi va ma'naviyatining shakllanishi uchun taqozo etiladigan nomoddiy ne'mat va xizmatlarga bo'lgan zarurat.

Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni – ehtiyojlarning turlari kengayib, miqdoran o'sib, sifat jihatidan takomillashib borishi.

Iqtisodiy resurslar – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish iste'mol jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayotiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish,

taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganish.

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi barqaror takrorlanib turadigan muhim ichki sabab-oqibat aloqalari, ularning o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiy kategoriya – barqaror takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha.

Uslubiyat – ilmiy bilishning tamoyillari tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va aniq hadislari.

Ilmiy abstraksiya usuli – tahlil paytida xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratish.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
2. Ehtiyoj nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
3. Iqtisodiy resurs tushunchasiga va uning turlariga ta'rif bering.
4. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berish insonning turli xil faoliyatlari ichida eng asosiysi hisoblanadi?
5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat? U boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o'rin tutadi?
6. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanishida qanday ilmiy maktab va yo'nalishlar vujudga kelgan?
7. Iqtisodiyot nazariyasining qanday vazifalari mavjud? Bu vazifalarning bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Iqtisodiy qonunlar nima va ularning qanday turlari mavjud? Iqtisodiy qonunlarning iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimada namoyon bo'ladi?
9. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
10. Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy tahlil o'rtasidagi farq nimadan iborat?

2-BOB. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida inson hayotining asosini moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish tashkil etadi. Chunki, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari bo'lmasa, ayirboshlaydigan, taqsimlaydigan va iste'mol qiladigan ne'matlarning o'zi bo'lmaydi. Har qanday jamiyat-da insoniyat iste'molsiz yashay olmaganidek, ishlab chiqarmasdan ham turolmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimiz prezidenti va hukumati mustaqillikka erishgan kundan boshlab to hozirgi kungacha ishlab chiqarish jarayonini aholi turmush darajasi va sifatini oshirishning asosiy manbai va yo'li deb qarab uni rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida – "Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va aholining ularga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, jumladan, maqbul narxlar bo'yicha keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan xalqimizni to'liq ta'minlash oldimizda turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi", deb ta'kidladilar. Prezidentimizning bu gaplari aholining o'sib boruvchi talablarini mavjud imkoniyat va resurslarimizni real hisobga olgan holda 2030-yilgacha YaIM hajmini 2 baravarga oshirish vazifasi qo'yilgani va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmining asosiy qismini ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflanayotgani bu sohaga qaratilgan katta e'tiborning dalilidir.

Biroq, bugungi kunda iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha yozilgan ayrim ilmiy ishlar, darslik va o'quv qo'llanmalarda ishlab chiqarish jarayonining mazmun-mohiyatini yoritish tamomila e'tibordan chetda qolmoqda. Bu bir tomondan, talabalarning mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) qayerda, kim tomonidan, qanday ishlab chiqarilishini tushunmaslikka olib keladi, ikkinchi tomondan, butun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida sodir bo'layotgan ishlab chiqarish munosabatlaridan bexabar qolishiga sabab bo'ladi, uchinchidan esa,

butun jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy inqirozlarning tub sababini tushunmaslikka olib keladi. Xolbuki inqiroz ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish o'zining turlari, sifati, hajmi bo'yicha talabga javob bermasligi ya'ni muomaladagi pul miqdori bilan tovarlar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi nisbatning buzilishi sababli kelib chiqadi.

Ushbu bobda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan munosabatlar va muammolarni ko'rib chiqamiz. Ishlab chiqarishning omillari tavsifi, maqsadi va mazmuni ochib beriladi, uning natijalari va samaradorligi bilan bog'liq masalalar bayoni yoritiladi va «ishlab chiqarish imkoniyatlari» tushunchasiga ham o'rin ajratiladi. Shuningdek, keyingi qo'shilgan mahsulot naflilig'i va uning kamayib borishi, keyingi qo'shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borish qonuni kabi marjinalistik g'oyalar bilan tanishtiriladi, ularning kamchilik jihatlari ochib beriladi. Bu yerda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonining har taraflama rivojlantirilishi, bu jarayonlarni modernizatsiyalash, tarkibiy jihatdan o'zgartirish, diversifikatsiyalash hamda muvozanatli va mutanosibli rivojlantirilishi iqtisodiy inqirozdan qutilishning yoki uning oldini olishning muhim yo'li sifatida qaraladi.

2.1. Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi

Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini chuqur anglash uchun eng avvalo, ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar ishlab chiqarish omillari deyiladi. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat'iy nazar ishlab chiqarish sodir bo'lishi uchun uchta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari bo'lishi shart. Bundan ko'rinadiki, ishlab chiqarish omillari, iqtisodiy resurslardan farqli o'laroq, o'z ichiga faqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi unsurlarni oladi. Misol uchun, iqtisodiy resursning muhim tarkibiy qismlaridan hisoblangan pul resurslari iste'mol mollari zaxiralari ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llanilmaganligi sababli, ishlab chiqarish omili bo'la ol-

maydi. Ishlab chiqarish omillarining mohiyatini yanada kengroq tushunish uchun ularning har biriga alohida ta'rif berib o'tamiz.

Ishchi kuchi deb insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisiga aytiladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning o'zi emas yoki uning mehnati ham emas, uning mehnatga bo'lgan qobiliyatidan iboratdir.

Mehnat qurollari deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalarga aytiladi. Bularga turli xildagi mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Mehnat predmetlari esa bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir. Yer, suv, xomashyo va boshqa turli materiallar mehnat predmetining asosiy turlarini tashkil etadi. Mehnat predmetlari tabiatda tayyor holda uchrashi mumkin yoki oldingi davrdagi mehnat mahsuli, ya'ni xomashyo bo'lishi mumkin. Masalan, tabiatda o'sib turgan turli xil o'simliklar, daraxtlar, o'rmonlar, yer osti boyliklari va boshqalar tabiatda tayyor uchraydigan mehnat predmeti bo'lsa, qazib olingan temir, mis, qo'rg'oshin, neft, ishlab chiqarilgan paxta g'alla sut kabi mahsulotlar inson mehnati ishlovidan o'tgan xomashyolardir.

Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi. Bu esa mehnat jarayonining tabiatidan kelib chiqadi; shuning uchun ham ishlab chiqarish vositalari barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xosdir.

Ishlab chiqarish omillari insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun umumiy bo'lsada, bu omillarga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, «Siyosiy iqtisod» darsliklarida ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillari mavjudligi tan olinadi. Bunda mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan iborat ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi, ishchi kuchi esa uning shaxsiy omili deb yuritiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: mehnat, kapital, yer, tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi.

Bu yerda ishchi kuchi bilan mehnat o‘rtasidagi farqni anglab olish juda muhimdir. Chunki, **mehnat insonning, to‘g‘rirog‘i ishchi kuchining ma’lum maqsadga qaratilgan faoliyati jarayoni bo‘lib, ishchi kuchi tushunchasidan tamomila farqlanadi.** Ko‘pgina adabiyotlarda esa ularga sinonim (bir xil tushuncha) sifatida qaralib, bunday holat ko‘plab chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bizga ma’lumki, **ishchi kuchi insonning mehnatga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisidir. Mehnat esa barcha omillarning birgalikdagi harakati ishchi kuchining ishlab chiqarish vositalari bilan qo‘shilishi natijasida sodir bo‘ladigan va ma’lum samara olishga qaratilgan faoliyatdir.**

Shuning uchun biz mehnat degan tushunchani emas, balki ishchi kuchi degan tushunchani ishlab chiqarishning omili deb bilamiz va ishlab chiqarish omillari ishchi kuchi, kapital, tabiat va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat deb ta’kidlaymiz (2.1-rasm).



2.1-rasm. Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishi

Ishchi kuchi insonning mehnatga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi bo‘lganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi. Ishchi kuchining boshqa tovarlar kabi qiymati va nafliligi mavjuddir va binobarin, uning bozori ham mavjud bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o‘rniga ishchi kuchi bozori, mehnat resurslari o‘rniga ishchi kuchi resurslari deyilsa to‘g‘ri va tushunarli bo‘lar edi.

Kapital tushunchasi ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko‘pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o‘z egasiga qo‘shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o‘z-o‘zidan ko‘payuvchi, o‘suvchi qiymat

deb hisoblaydi. Ayrim g'arb iqtisodchilari ham, masalan, J.Klark, L.Valras, I.Fishyerlar kapitalga daromad keltiruvchi, foyda keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar.

Qator g'arb iqtisodchilarining jumladan, D.Xayman, P.Xeyne, E.Dolon, J.Robinson, R.Dornbush va boshqalarning fikrini keltirib va ularni umumlashtirib, prof. V.D.Kamayev o'zining rahbarligida yozilgan darsligida «haqiqatdan ham – kapital o'zidan o'zi ko'payuvchi qiymat»[5] deb yozadi. Bunday fikr D.D.Moskvin, V.Ya. Ioxin, A.G.Gryaznova, E.F.Borisov va boshqalarning rahbarligida nashr etilgan qator iqtisodiyot nazariyasi kitoblarida ham aytiladi. Lekin, Amerika va Yevropa mamlakatlaridan kirib kelgan «Ekonomiks» darsliklari va boshqa ayrim adabiyotlarda kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni hamma turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari va boshqa shu kabilardan iborat deb ko'rsatadi, unga pul va tovarni kiritmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayrim iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tuzumning sotsial mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama qarab, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni kuchaytirgan. Iqtisodchilarning ayrimlari esa kapitalni bir tomonlama qarab, uning qiymat tarafini e'tiborga olmasdan faqat moddiy ashyoviy tomonini ko'rsatadilar va kapital tushunchasining tarixiyligini e'tibordan chetda qoldiradilar. Shuning uchun ham ular uni qotib qolgan doimiy, o'zgarmas tushuncha deb ishlab chiqarish vositalarini (uning faqat moddiy-ashyoviy tomonini hisobga olib) kapital deb ataydilar. Biz bu kapital tushunchasiga bo'lgan ikki tomonlama yondashuvni bir tanganing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya'ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashyoviy ko'rinishi, ikkinchi tomoni esa uning qiymat ko'rinishi ekanligini e'tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz. Biz kapital deganda yollanma mehnat tomonidan harakatga keltirilib, o'z egalariga daromad, foyda keltiradigan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma sohalarida qo'llanadigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ish-

[5] Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, 217 с.

chi kuchini sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'larini, ularning ashyoviy tomoni va qiymatining birligini tushunamiz. Boshqacha qilib aytganda, **«kapital» ham qiymatga, ham naflilikka ega bo'lgan, ma'lum foyda olish maqsadida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan, yollanma ishchi kuchi tomonidan harakatga keltiriladigan vositalardir.**

Hamma adabiyotlarda yerga deyarli bir xil tushuncha beriladi, ya'ni yer **deganda tuproqning unumli qatlami, o'tloqlar, yaylovlar, suv, havo, o'rmon, qazilma boyliklar, umuman tabiiy resurslar tushuniladi.** Ma'lumki, keyingi vaqtlarda quyoshdan, shamoldan energiya olinmoqda, havodan foydalanilmoqda. Shularni hisobga olgan holda yer degan so'z o'rniga tabiat so'zini ishlatsak to'g'ri bo'lar deb o'ylaymiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida katta e'tibor beriladigan omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir. **Tadbirkor deb iqtisodiy resurslar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan, tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan kishilarga aytiladi; bu xislatlar majmui esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi.** Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot va uning vositalarini, ekologiyani ham alohida omil deb ko'rsatadilar. Bizning fikrimizcha, ular tabiat va kapital omillarida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ularni alohida omil deb qarashga hojat yo'q.

Ishlab chiqarish omillari hech qachon bir joyda qotib turmaydi, balki doimo rivojlanib o'sib boradi. Ishlab chiqarish vositalari ham, ishchi kuchi ham doimo harakatda, rivojlanishda bo'ladi. Ilgarigi oddiy omoch-bo'yintiriqqa, bolg'a va boltaga asoslangan ishlab chiqarishdan hozirgi zamon avtomatlashgan ishlab chiqarishgacha kelish fikrimizning dalilidir.

2.2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni

Jadvaldan ko'rinadiki, 2000-yilda YaIM hajmining 50,5 foizini ishlab chiqarilgan moddiy tovarlar tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 36,7 foizni tashkil etdi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, keyingi davrlarda ishlab chiqarish hajmi to'xtovsiz o'sib

borish bilan bir qatorda mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasiga kengroq etibor berishi natijasida YaIM tarkibida moddiy ishlab chiqarishning ulushi nisbatan pasayib, nomoddiy ishlab chiqarish ulushi esa o‘sib bormoqda.

Ishlab chiqarilgan moddiy tovarlar va xizmatlar tarkibining o‘zgarishiga qaramay YaIM hajmi yildan-yilga o‘sib bormoqda. YaIMning izchil o‘sib borishi yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarining ishga tushirilishi yoki eskilarining kengaytirilishi evaziga sodir bo‘lmoqda. Masalan, 2015-yilda Toshkent issiqlik elektr stansiyasida 370 megavatt quvvatga ega bo‘lgan bug‘-gaz qurilmasi barpo etildi, Chorvoq GESi gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi, Qo‘ng‘irot soda zavodida kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarish kengaytirildi, «Samarqandkimyo» aksiyadorlik jamiyatida 240 ming tonna quvvatga ega bo‘lgan murakkab tarkibli yangi o‘g‘itlar ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Shuningdek, «Motor zavodi» aksiyadorlik jamiyatining faoliyat ko‘rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida traktor tirkamalari, jumladan, katta hajmli tirkamalar, maishiy texnika uchun tarkibiy qismlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etildi.

Shu bilan birga mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasi sezilarli ravishda rivojlanib bormoqda. Respublika YaIMdagi xizmat ko‘rsatishning ulushi 2000-yilda 36,8 foizni tashkil qilib, 2014-yilda esa bu ko‘rsatkich 54,0 foizni, 2015-yilda esa 54,5 foizni tashkil qildi. Bu esa mamlakatimizda keyingi yillarda aholining turmush sharoitini yaxshilash uchun olib borayotgan kompleks tadbirlar qatorida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga qaratilgan Davlat dasturlarining amalga oshirilishi natijasi hisoblanadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasi o‘z navbatida ikki bo‘linmadan iborat bo‘lib, birinchi bo‘linmada **ishlab chiqarish vositalari** (stanok, mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, xomashyo va turli materiallar) yaratilsa, ikkinchi bo‘linmada esa **iste’mol buyumlari** ishlab chiqariladi.

Birinchi bo‘linmada ishlab chiqarishdan chiqqan tovarlar shu yilning o‘zida ikkinchi bo‘linmada va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin, ikkinchi bo‘linmada

yaratilgan tovarlar va nomoddiy soha xizmatlari o‘z navbatida birinchi bo‘linma uchun zarurdir. Shuning uchun ular o‘rtasida doimo tovar ayirboshlash va boshqa iqtisodiy aloqalar sodir bo‘lib turadi.

Sarflanayotgan mehnat ikki xil tavsifga ega bo‘lganligi uchun har qanday mahsulot, shu jumladan, bozor sharoitidagi yoki unga o‘tish davridagi mehnat mahsuli ham ikki xil xususiyatga ega: iste’mol qiymatiga, ya’ni ma’lum bir naflilikka va qiymatga ega bo‘lib, jonli va buyumlashgan mehnat sarfining ma’lum miqdorini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu tovarning o‘zaro bog‘liq va hamisha bir-birini taqozo qiladigan ikki tomonidir (bu haqda keyingi bobda batafsilroq to‘xtalamiz). Shuning uchun ham ishlab chiqarish jarayoniga hamisha uning pirovard maqsadi bilan birgalikda qaraladi. Ishlab chiqarishning maqsadi cheklangan resurslardan unumli foydalanib, kishilar ehtiyojini qondirish ekan, uning samarasi tovar va xizmatlarning natural va qiymat jihatdan o‘sishida, ko‘payishida ko‘rinadi. Shu nuqtai nazardan olganda ishlab chiqarish jarayoni hamisha naflilikni, ya’ni iste’mol qiymatini yaratish, ko‘paytirish va qiymatlarning o‘sish jarayoni hisoblanadi, uning asosiy maqsadi esa, iste’mol qiymatini, ya’ni nafli tovarni yaratishdan iborat bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning cheklangan resurslardan foydalangan holda kishilar ehtiyojini qondirishga qaratilishi va shunga zarur bo‘lgan sifat va miqdorda iste’mol qiymati yaratishni bosh maqsad qilib qo‘yishi uning ijtimoiy yo‘nalishini ifoda etadi. Lekin bu umumiy ijtimoiy yo‘nalish aniq kishilarning, tadbirkorlarning manfaati bilan bog‘langandagina amalga oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoki unga o‘tish davrida har bir mulk egasi yoki tadbirkor ma’lum miqdorda foyda olishni, sarflangan vositalariga, pul mablag‘lariga nisbatan ko‘proq qiymatga ega bo‘lishni maqsad qilib qo‘yadi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoni bir tomondan, naflilikni yaratish jarayoni bo‘lsa, ikkinchi tomondan, qiymatning o‘sish jarayoni bo‘lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday ishlab chiqarish, bir tomondan iste’mol qiymatini (naflilikni) yaratish va ko‘paytirishdir, ikkinchi tomondan, moddiy vositalar va mehnatning sarflanishi, yangi qiymatning yaratilishi, boshqacha qilib

aytganda, qiymatning o'sish jarayonidir. Bu ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonlama xususiyatidir.

Masalan, tadbirkor ishlab chiqarishni tashkil etish uchun 10 mln. so'mlik paxta tolasi sotib oldi, deylik. Toladan ip yigirish uchun qo'llanilgan asosiy vositalar amortizatsiyasi, energiya, yonilg'i va boshqa xarajatlar 4 mln. so'mni, ish haqi 3 mln. so'mni tashkil etib, 3 mln. so'mlik qo'shimcha mahsulot yaratilib, uni tadbirkor foyda sifatida oladigan bo'lsa, Yaratilgan mahsulotning qiymati 20 mln. so'mni, qo'shilgan qiymat 10 mln. so'mni, yangi Yaratilgan qiymat 6 mln.so'mni tashkil etadi. Agar (4 mln. so'm + 10 mln. so'mni) oldingi Yaratilgan qiymat deb hisoblasak, u 6 mln. so'mga ko'payib 20 mln. so'mga yetadi. Bu 20 mln. so'm ham naflilikning ham qiymatning o'sishini ifodalaydi.

Agar biz 8 mln. so'mlik qo'shilgan qiymatdan 2 mln. so'mini amortizatsiya, energiya va boshqalardan iborat moddiy xarajatlar, ya'ni oldindan Yaratilgan qiymatlar deb qarasak, 6 mln. so'mlik qiymat, ya'ni 4 mln. so'mlik ish haqi va 2 mln. so'mlik foyda shu ishlab chiqarish jarayonida hosil qilingan yangi qiymat hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonlama tabiatini quyidagicha ifoda yetishimiz mumkin (2.3-rasm).



2.3-rasm. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonlama tabiati

Ishlab chiqarish jarayonini ikki tomonlama tahlil qilib o'rganish uning mazmunini to'g'ri tushunish imkonini beradi va turli xil chalkashliklar, munozarali tortishuvlarga chek qo'yadi. Jumladan, shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayot-gan ishlab chiqarish vositalari qiymati ko'paymagan holda, qancha qiymatga ega bo'lsa shuncha qiymat aniq mehnat bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatiga o'tkaziladi. Lekin ishlab chiqarishning oxirida qiymat ortiqcha bo'lib chiqadi. Bu ishchi kuchi tomonidan Yaratilgan yangi qiymat evaziga sodir bo'ladi.

Ishlab chiqarish vositalari naflilikni yaratishda to'liq qatnashadi, qiymatning tashkil topishida esa qisman, ya'ni uning eskirgan qismi qatnashadi. Bu ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan ayrim tabiiy kuchlar (masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda tuproq unumdorligi, quyosh va shamol energiyasi) qiymatga ega emas, shuning uchun ular tovarning nafliligini hosil qilishda omil sifatida qatnashsada, lekin qiymatning tashkil topishida, uning ko'payishida qatnashmaydi (2.4-rasm).



2.4-rasm. Tovar va xizmatlar nafliligi va qiymatining yaratilishida ishlab chiqarish omillarining roli

Demak, ishlab chiqarilgan tovarlarning nafliligini yaratishda har uchala omil: tabiat, kapital, ishchi kuchi qatnashadi, qiymatning tashkil topishida esa mehnat to'liq, kapital esa qisman qatnashadi.

Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonlama tabiati uning natijalarining ham ikki tomoni borligini ko'rsatadi.

2.3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari

Ishlab chiqarish jarayonida turli omillarning bir-birlari bilan o'zaro ta'sirda bo'lishi va birikishi asosan turli xildagi korxonalarda amalga oshiriladi. Bunday korxonalar sonining o'sishi va yiriklashuvi ayni paytda iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar turlari va hajmining o'sishidan darak beradi. Jumladan, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish, eng muhimi, Konstitutsiyamizda ko'zda tutilganidek, xususiy mulkning qonuniy, me'yoriy-huquqiy va amaliy jihatdan ustuvor rolini ta'minlash, O'zbekiston iqtisodiyotida tovar va xizmatlar hajmini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan.

Yuzaki qaraganda, har bir korxonadagi (davlat, xususiy, qo'shma korxona, fermer xo'jaligi) individual ishlab chiqarish bir-biridan mustaqil, ajralgan holda amalga oshadiganga o'xshab ko'rinadi. Ammo xilma-xil tovarlar va resurslarning uzluksiz oqimida individual ishlab chiqarilgan tovarlar va mablag'larning harakatlari bir-biri bilan qo'shilib, o'ralib-chatishib ketadi. Chunki alohida olingan individual ishlab chiqaruvchilarning faoliyati va ayrim mablag'lar, mahsulotlarning harakati o'zaro bog'langandir. Shu sababli, individual mehnatlar va tovarlar harakatining qo'shilib ketishi, butun ijtimoiy ishlab chiqarishning, jami Yaratilgan tovar va xizmatlar-ning harakatini bildiradi. Demak, **ijtimoiy ishlab chiqarish o'zaro bog'langan va aloqada bo'lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning yig'indisidir.** Har bir individual ishlab chiqarish, uning sarmoyasi va resurslari esa ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas bir bo'lagidir.

Ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni turli omillarning harakati natijasida juda ko'p turdagi tovarlar va xizmatlar massasidan iborat bo'lgan yalpi ichki mahsulot vujudga keladi. Bu Yaratilgan mahsulotlar mamlakatimiz aholisining talablarini qondirib, ularning turmush darajasini oshirishga, ishlab chiqarishni sifat va miqdor jihatdan yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham

mamlakatimiz birinchi Prezidenti va hukumati tomonidan yalpi ichki mahsulotni ko‘paytirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlari izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Ma’lumki, har yili yilning boshida mamlakatimizda oldingi yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yakunlari va yangi yildagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinadi. Ushbu ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiquvchi vazifalar amalga oshirilib, salmoqli natija va sezilarli o‘zgarishlar qo‘lga kiritilmoqda. Iqtisodiyotning yuqori barqaror sur’atlar bilan o‘sishi va makroiqtisodiy muvozanati va mutanosibligi ma’lum darajada ta’minlanmoqda, ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish va modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, diversifikatsiyalash ishlari davom ettirilmoqda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar tanqidiy tahlil qilinib, yangicha yondashuv bilan olib borilmoqda. Ayni vaqtda bu tahlillar yuqori salohiyatga ega bo‘lgan korxonalarga har bir turdagi mahsulotni xomashyo va yarim fabrikat bo‘yicha chuqur qayta ishlashning uzoq va yaqin kelajakdagi yillarga mo‘ljallangan aniq istiqbolga ega bo‘lgan mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvi asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni talab etmoqda.

Bu ko‘rilgan chora va tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘sish sur’atlari ta’minlanib, keyingi 9 yil davomida uning o‘rtacha yillik o‘sishi 8 foizdan kam bo‘lmagan, 2016-yilda esa bu ko‘rsatkich 7,8 foizni tashkil etdi (2.5-rasm).



2.5-rasm YaIMning yillar davomida o‘sish dinamikasi (foizlarda)[6]

[6] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning tarmoq tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi (2.2-jadval).

2.2-jadval

Ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning asosiy tarmoqlar bo'yicha tarkibi (%)[7]

Ko'rsatkichlar	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
Sanoat	22,3	23,3	23,9	24	24	24,1	24,0	24,3	25,7
Qishloq xo'jaligi	19,4	18,2	17,5	17,5	17,5	17,4	17,4	16,7	17,6
Qurilish	5,6	5,8	6,5	6,1	5,9	6,4	6,7	7,3	7,2
Xizmatlar sohasi	42,8	43,1	42,9	43,8	44,4	43,9	43,5	42,9	49,5
Sof soliqlar	9,9	9,6	9,2	8,6	8,2	8,2	8,6	8,8	8,7

Respublika yalpi ichki mahsulotining ishlab chiqarish tarkibi bo'yicha sanoat mahsulotining nisbatan tezroq o'sishi natijada uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2008-yildagi 22,3 foiz o'rniga 2016-yilda 25,7 foizni tashkil etdi. Shu davr ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlari salmog'ining 19,4 foizdan 17,6 foizga qadar pasayishi esa mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibining takomillashib, unda sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi yildan-yilga oshib borayotganligini anglatadi. Ayni paytda yalpi ichki mahsulot tarkibidagi sof soliqlar hissasining 9,9 foizdan 8,7 foizga qadar qisqarganligi mamlakatimizdagi soliq yukining tobora pasayib borayotganligini ko'rsatadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda har yili bir qancha yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalari ishga tushirilib, YaIM hajmini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, 2015-yilda "Xorazm viloyatida «Jeneral motors – O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida «Shevrolet Labo» kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yerda yiliga fermyerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo'lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu model yangi «Xorazm avto» za-

[7] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

vodida tayyorlanayotgan «Damas» va «Orlando» avtomobillaridan keyingi uchinchi turdagi avtomobil bo'ldi.

Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovatt quvvatga ega bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Hozircha bu loyiha sinovdan o'tkazilmoqda. 2020-yilga borib mamlakatimizda har biri 100 megavatt quvvatga ega yana uchta quyosh elektr stansiyasini foydalanishga topshirish rejalashtirilmoqda".

2016-yilda AO "GM Uzbekistan" korxonasida yengil avtomobilning **"T-250"** modelini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jizzax sement zavodining ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirildi. Tallimarjon issiqlik energiyasi ishlab chiqarish stansiyasida 900 MVt bo'lgan ikkita gaz-par qurilmasi ishga tushirildi. Angren TESda 150MVt quvatga ega bo'lgan ko'mir bilan ishlaydigan energoblok ishga tushurildi.

Farg'ona vodiysini mamlakatning boshqa hududlari bilan ishonchli transport aloqasini bog'lovchi, Qamchiq dovonidan 19,2 kilometr uzunlikdagi yer osti yo'li orqali o'tuvchi yangi Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini qurildi. Mazkur temir yo'lining foydalanishga topshirilishi bilan mamlakatimizni barcha hududlarini qamrab oluvchi yagona to'liq temir yo'l tizimi yaratildi.

Toshkent-Buxoro va Buxoro-Toshkent yo'nalishi bo'yicha yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» yo'lovchi elektr poezdlari qatnovi yo'lga qo'yildi. 291,5 km uzunlikdagi Samarkand-Buxoro temiryo'l qismini elektrlashtirish loyihasi yakunlandi. Havo kemalari parki 2 ta zamonaviy «Boeing 787–800 Dreamliner» samolyotlari bilan to'ldirildi.[8]

YaIM hajmini va uning o'sib borishini ifodalashda uni to'g'ri hisoblash muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillikdan oldingi davrda sobiq SSSRda va uning tarkibida bo'lgan hozirgi MDH davlatlarida mamlakat bo'yicha ishlab chiqarishda vujudga keltirilgan mahsulotlar yig'indisi yalpi ijtimoiy mahsulot deb atalgan. Yalpi **ijtimoiy mahsulot ko'rsatkichida yil mobaynida Yaratilgan moddiy ne'matlar yig'indisi hisobga olingan, unda xizmat ko'rsatish sohalarida vujudga keltirilgan ma'naviy ne'matlar va xizmatlar qiymati aks etmagan.** Lekin bir ishlab chiqarish tarmog'idan chiqqan hozirgi

[8] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

vaqtda oraliq iste'moli deb atalmish xomashyo, materiallar, yonilg'i va energiyalarning qiymati boshqa tarmoqlarda ishlatilib, bir necha bor takror-takror hisobga olinib, mahsulotning hajmi sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilgan, iste'molga borib tushadigan tayyor mahsulot esa undan bir necha barobar kam bo'lgan.

Yaratilgan mahsulot hajmi va tarkibini hisoblash va tahlil qilishda ikki tomonlama naflilik (natural) va qiymat jihatidan yondashish maqsadga muvofiqdir.

Naflilik (natural) jihatdan yondashilganda, ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish uchun, birinchidan, iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarini faqat qiymat holidagina emas, balki uni moddiy buyum shaklida ham qayta tiklash zarur. Buning uchun albatta mamlakatda Yaratilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida ma'lum miqdorda ishlab chiqarish vositalari natural shaklda mavjud bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ishchi kuchining qayta tiklanishi uchun zarur iste'mol buyumlari mavjud bo'lishi shart. Shuning uchun ham moddiy mahsulotlar ikki xil tovar mahsulot sifatida mavjud bo'ladi, bu esa o'z navbatida, ikki yirik bo'linmalar o'rtasida tovar ayirboshlash imkonini beradi. Undan tashqari juda ko'p korxona va tashkilotlar aholiga turlituman xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadiki, ular mehnatining natijasi xizmatlarda namoyon bo'ladi. Bu esa yalpi ichki mahsulotning muhim qismi turli xil xizmatlardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, yil davomida mamlakatda Yaratilgan yalpi ichki mahsulot natural jihatidan uch qismdan: ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari va turli xil xizmatlardan iborat bo'ladi. Yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni, ya'ni milliy mahsulotni bunday uchta ko'rinishga bo'lib o'rganish va bilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Chunki ularning har bir turi bo'yicha talab va takliflar o'rganilib, talabga yarasha ishlab chiqarish imkonini beradi.

Yaratilgan mahsulot **qiymat jihatdan** ham uch qismdan iborat bo'ladi, ya'ni:

1) ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan **ishlab chiqarish vositalari qiymatining mahsulotga o'tgan qismi ammortizatsiya fondi (s);**

2) yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning bir qismi, ya'ni, ishchilarga tegishli qismi – **zaruriy mahsulot qiymati (v);**

3) yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning mulkdorlar, tadbirkorlar va jamiyat uchun ishlab chiqarilgan qismi – **qo'shimcha mahsulot qiymati (m)**dan iboratdir (2.3-jadval).

Jadvaldan ko'rinadiki, jami ijtimoiy mahsulot 1515 birlikni, yalpi ichki mahsulot esa 585 birlikni tashkil etadi. Demak, mamlakat miqyosida takror hisobga yo'l qo'ymaslik uchun yalpi ichki mahsulotni hisoblashda sotib olingan xomashyo, yonilg'i va materiallar qiymati hisobga olinmaydi, faqat qo'shilgan qiymat hisobga olinadi. Ammo har bir korxona va tarmoq uchun sotilgan tovar mahsuloti faqatgina yalpi ichki mahsulotdan emas, balki Yaratilgan yalpi mahsulotdan iboratdir.

2.3-jadval

Milliy mahsulotning texnologik bosqichlar bo'yicha tuzilishi (shartli raqamlar misolida)

Izchil tarmoqlar	Xomashyo, yoqilg'i, materiallar	Qo'shilgan qiymat				Yalpi ichki mahsulot	Yalpi ijtimoiy mahsulot
		Amortizatsiya	Ish haqi	Soliq va to'lovlar	Foyda		
	Iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati (s)		Zaruriy mahsulot (v)	Qo'shimcha mahsulot (m)			
Paxta ishlab chiqarish	40	30	30	20	20	100	140
Paxtani qayta ishlash	140	40	50	25	30	145	285
To'qimachilik	285	50	60	30	40	180	465
Tikuvchilik	465	45	50	35	30	160	625
Jami	930	165	190	110	120	585	1515
	s=1095		v=190	m=230		585	1515

Shuni ta'kidlash lozimki, jami ijtimoiy mahsulot tarkibida oraliq mahsulot hamda ayrim takroriy hisoblar mavjud bo'lganligi sababli u ishlab chiqarish natijasiga to'g'ri baho bera olmaydi.

Takroriy hisob – bu tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonining bir necha bosqichlardan o'tishi natijasida oraliq iste'moli deb atalmish ba'zi mahsulot (xomashyo, yoqilg'i, material, energiya va h.k.)lar qiymatlarining takroran hisobga olinishi. Jadvaldagi misolimizdan ko'rinadiki, paxta tolasi, yigirilgan ip, gazlamaning qiymatini tashkil etuvchi xomashyo, yoqilg'i, material va boshqalarning ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qayta-qayta qatnashadi, ularning hisobga olinishi natijasida takroriy hisob 930 birlikni tashkil etgan.

Yalpi ichki mahsulot qiymatini to'g'ri baholash, unda takroriy hisobga yo'l qo'ymaslik uchun oraliq va pirovard mahsulot tushunchalarini ham ajratib olish lozim. **Oraliq mahsulot – bu tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusida yana qayta ishlov berilishi zarur bo'lgan yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovar va xizmatlardir.** Bizning misolimizda 140 birlik paxta xomashyosi, 285 birlik paxta tolasi va yigirilgan ip, 465 birlik to'qilgan gazlama oraliq mahsulotlar bo'lib hisoblanadi. Chunki ular tikuvchilik mahsuloti (ko'ylak yoki kostyum) ishlab chiqarishning izchil jarayonida navbatdagi bosqichda qayta ishlov berishga muhtojdirlar. Aynan 625 birlik qiymatga ega tikuvchilik mahsuloti esa pirovard mahsulot hisoblanadi. Demak, **pirovard mahsulot – bu ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayonlaridan o'tgan hamda bevosita iste'mol uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotdir.**

Bundan ko'rinadiki, jamiyat a'zolarini ishlab chiqarishning umumiy natijadan ko'ra ko'proq ishlab chiqarishning pirovard natijalari qiziqtiradi.

Ishlab chiqarishning pirovard natijasi bo'lib takroriy hisobni o'z ichiga olmagan, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini bevosita qondirishga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar va xizmatlar hisoblanadi. Shunga ko'ra, ko'pincha ijtimoiy ishlab chiqarishning pirovard natijasi sifatida yalpi ichki mahsulot, sof ichki mahsulot (milliy daromad) va boshqalarni ko'rsatish mumkin. **Mamlakatimiz**

mustaqillikka erishgandan keyin (1993-yildan boshlab) milliy hisoblar tizimi joriy qilindi va bunga asosan Yaratilgan mahsulot yalpi ichki mahsulot (YaIM) deb atalib, shu shaklda hisobga olina boshlandi.

Yalpi ichki mahsulot deb mamlakatda yil davomida Yaratilgan, bevosita iste'molchilarga yetkaziladigan tayyor mahsulotga aytiladi.

Yaratilgan yalpi ichki mahsulotdan iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati (amortizatsiya ajratmalari) chegirib tashlansa, qolgan qismi sof ichki mahsulot deyiladi. Demak, sof mahsulot bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan menejyerlar, ishchilar, dehqonlar va muhandislar, texnik xodimlar va boshqalarning sarf qilingan jonli mehnati bilan Yaratilgan zaruriy va qo'shimcha mahsulotdan iboratdir.

Zaruriy mahsulot deb ishchi va xizmatchilar ish vaqtining bir qismi bo'lgan zaruriy ish vaqtida zaruriy mehnat bilan Yaratilgan, ishchi kuchini normal holatda saqlash va qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mahsulotga aytiladi. Bunga kelgusi avlod ishchilarini yetishtirish, ya'ni ishchilarning oilasi va bolalari uchun zarur bo'lgan mahsulot ham kiradi.

Sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan ortiqcha qismi, ya'ni qo'shimcha ish vaqtida xodimlarning qo'shimcha mehnati bilan Yaratilgan qismi qo'shimcha mahsulot deyiladi.

Ishlab chiqarishning tizimi va mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar har bir korxonada, tarmoqda qo'shimcha mahsulot hajmini ko'paytirishga harakat qilinadi. U asosan uch yo'l bilan – ishlovchilar sonini ko'paytirish, ish kunini uzaytirish va ish kuni chegarasi o'zgarmagan holda zaruriy ish vaqtini kamaytirish evaziga qo'shimcha ish vaqtini ko'paytirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Misol uchun korxonada 120 kishi ishlagan bo'lsa va har bir kishi 10 ming so'mdan qo'shimcha mahsulot yaratsa hammasi bo'lib 1200 ming so'm qo'shimcha mahsulot yaratiladi. Agar ishchilar soni 150 kishiga etkazilsa (150*10ming) 1500 ming so'm qo'shimcha mahsulot yaratiladi. Bunda qo'shimcha ishchilar sonini ko'paytirish

evaziga qo‘shimcha mahsulot ko‘paytirilmoqda. Agar ishchilar soni o‘zgarmasdan 120 kishi holida qolib ish soati 8 soatdan 10 soatga uzaytirilsa (10*1250 bir soatlik Yaratilgan qo‘shimcha mahsulot) bir kunda bir ishchi 12500 so‘m, hamma ishchilar esa (120*12500) 1500 ming qo‘shimcha mahsulot yaratiladi.

Bundan ko‘rinadiki, bu ikki yo‘l bilan qo‘shimcha mahsulotni ko‘paytirish mumkin. Lekin bu ikki yo‘l cheklangan bo‘lib, uzluksiz ravishda ishchilar sonini ko‘paytirib ham, ish kunini uzaytirib ham bo‘lmaydi. Chunki ular cheklangan bo‘lib, ishchilar sonini ko‘paytirish korxonaga qimmatga tushadi, ish kunini uzaytirish esa ishchilar noroziligini keltirib chiqaradi. Demak qo‘shimcha mahsulotni ko‘paytirishning cheksiz bo‘lgan uchinchi yo‘lidan keng foydalanish mumkin. Bu yo‘l ishlab chiqarishda to‘htovsiz ravishda yangi texnika-texnologiyalarni qo‘llash, xom ashyo va energiyalarning yangi turlarini topib, ulardan samarali foydalanish yo‘llarini ochish bilan mehnat unumdorligini oshirish evaziga zaruriy ish vaqtini kamaytirish va qo‘shimcha ish vaqtini uzaytirib qo‘shimcha mahsulotni ko‘paytirish mumkin.

Ishchilar sonini ko‘paytirish va ish kunini uzaytirish yo‘li bilan olingan qo‘shimcha mahsulot **absolyut (mutloq) qo‘shimcha mahsulot** deyiladi.

Ish kuni o‘zgarmaganda zaruriy ish vaqtini kamaytirib, qo‘shimcha ish vaqtini ko‘paytirish evaziga olingan qo‘shimcha mahsulot esa nisbiy qo‘shimcha mahsulot deb ataladi. Masalan, ish kuni davomiyligi 8 soat hajmida qolgani holda, mehnat unumdorligi va intensivligini oshirish hisobiga zaruriy mahsulot yaratishga sarflanishi kerak bo‘lgan vaqt 4 soatdan 3 soatga tushirildi, deb hisoblaylik. Bunda qo‘shimcha mahsulot yaratishga sarflangan vaqt 5 soatga yetadi, ya’ni nisbiy qo‘shimcha mahsulot hajmi ortadi.

Hozircha bizning iqtisodiy amaliyotimizda (statistik, buxgalteriya hisoblarida) zaruriy va qo‘shimcha mahsulot hisoblanmaydi. Lekin ularning miqdorini, o‘sishi va kamayishini hamma darajalarida hisobkitob qilish mumkin. Buning uchun ularni hisoblash usullarini ishlab chiqish zarur.

Yil davomida olingan qo‘shimcha mahsulotlar yig‘indisi qo‘shimcha mahsulot massasi, uning zaruriy mahsulotga nisbati esa (foizda ifodalanishi) qo‘shimcha mahsulot normasi deb yuritiladi.

Agar qo‘shimcha mahsulot normasini m', massasini m, zaruriy mahsulotni v bilan belgilasak qo‘shimcha mahsulot normasi

$$m' = m/v \times 100\%$$

ko‘rinishdagi formula bilan aniqlanadi.

Misol uchun, «A» korxonaning yil davomidagi qo‘shimcha mahsulot massasi 100 mln. so‘m, zaruriy mahsulot hajmi esa 250 mln. so‘mdan iborat bo‘lsin. U holda qo‘shimcha mahsulot normasi 40% ni tashkil etadi.

Ma’lumki, qo‘shimcha mahsulot bilan zaruriy mahsulot o‘rtasida har doim ziddiyat va aloqadorlik bo‘ladi. Ularning har ikkalasidan ham butun iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyat a’zolarining farovonligini oshirish maqsadlari yo‘lida foydalaniladi.

Ba’zan davriy matbuotda va ayrim adabiyotlarda qo‘shimcha mahsulotning mazmunini to‘g‘ri tushunmaslikdan uni qo‘shimcha qiymat va qo‘shilgan qiymat bilan bir xil sinonim tushuncha sifatida ifoda etiladi. Lekin qo‘shimcha mahsulot tushunchasi qo‘shimcha qiymat va qo‘shilgan qiymat tushunchalaridan sifat va miqdor jihatidan tubdan farq qiladi.

Qo‘shimcha mahsulot yalpi ichki mahsulotning tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun unda mavjud bo‘lgan ikki tomonlama xususiyat, ya’ni qiymat va naflilik xususiyatlari qo‘shimcha mahsulotga ham mansub bo‘ladi, ya’ni qo‘shimcha mahsulot ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘ladi.



Bundan ko‘rinadiki, qo‘shimcha qiymat qo‘shimcha mahsulotning bir tomoni bo‘lib, uning faqat qiymatini ya’ni unda mujassamlashgan

qo'shimcha mehnatni ifodalaydi. Unda naflilikning biror bir grammi yoki atomi bo'lmaydi. Naflilik faqatgina qo'shimcha mahsulotda bo'lib, uning muhim tomonidir. Qo'shimcha mahsulot qo'shimcha qiymatdan faqatgina shu sifat jihatdangina emas, shu bilan birga miqdor jihatdan ham farq qiladi. Ma'lumki, ishlab chiqaruvchi kuchlar to'xtovsiz rivojlanib mehnatning unumdorlik kuchi oshib boradi. Shunga binoan qo'shimcha mahsulotning nafliligi qiymatiga nisbatan tez oshib boradi, chunki qo'shimcha mahsulot qo'shimcha qiymatning mehnat unumdorligiga ko'paytmasiga teng bo'ladi, ya'ni

(qo'shimcha mahsulot = qo'shimcha qiymat x mehnatning unumdorlik kuchi).

Shuningdek qo'shimcha mahsulot bilan qo'shilgan qiymat o'rtasida ham tub farq mavjuddir. Har bir korxonada va tarmoqlarda qo'shilgan qiymat asosiy vositalar amortizatsiyasi + ish haqi + Yaratilgan qo'shimcha mahsulot (soliq to'lovlari va foyda)dan iborat bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, agar qo'shilgan qiymat amortizatsiya, ish haqi va Yaratilgan qo'shimcha mahsulotdan iborat bo'lsa, qo'shimcha mahsulot uning bir tarkibiy qismidir. Hamma tarmoq va sohalarda Yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi mamlakatning yalpi ichki mahsulotini tashkil etadi. Shunday qilib, qo'shimcha qiymat, qo'shilgan qiymat va qo'shimcha mahsulot bir xil (sinonim) tushunchalar emas balki tamomila bir-biridan farq qiladigan alohida-alohida iqtisodiy kategoriyalardir.

Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan qo'shimcha mahsulot sotilish jarayonida foydaga aylanadi. Foydadan davlat soliq sifatida, ssuda kapital egalari esa foiz sifatida, yer egalari renta sifatida o'z ulushlarini oladilar. Bu daromad turlari qo'shimcha mahsulotning sotilib, dastlabki taqsimlangandan keyingi o'zgargan shakllaridir. Yuzaki real hayotda qo'shimcha mahsulot yuqoridagi shakllarda namoyon bo'ladi. Kimki iqtisodiy jarayonlarning tub ildizini tushunmasa, bu daromadlarning manbaini, qayerda va kim tomonidan yaratilishini tushunmasdan qolaveradi. Zaruriy va qo'shimcha mahsulotlarning mazmunini tushunishda ularning real hayotdagi modi-

fikatsiyalashgan shakllarini bilish muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, zaruriy va qo'shimcha mahsulot ularning bevosita ishlab chiqarish jarayonidagi ko'rinishidir. Ammo, ular oldi-sotdi va taqsimlash jarayonlaridan o'tib, o'z shakllarini o'zgartirib, modifikatsiyalashgan shakl oladilar.

Yangidan Yaratilgan sof mahsulotning tarkibi va modifikatsiyalashgan shakllari 2.6-rasmda aniqroq tasvirlash mumkin.



2.6-rasm. Zaruriy va qo'shimcha mahsulotning modifikatsiyalashgan shakllari

Foydaning turli to'lovlardan qolgan qismi esa tadbirkorlarning sof foydasi bo'lib, uning hisobidan o'zlarining iste'molini qondiradi, investitsiyani, turli sotsial yo'nalishdagi ishlarni amalga oshiradilar. Ko'rinib turibdiki, qo'shimcha mahsulotni ko'paytirish hech kimga zarar bermaydi, aksincha jamiyat a'zolarining hammasi uchun manfaatlidir.

Ma'lumki, qo'shimcha mahsulot bilan zaruriy mahsulot o'rtasida har doim ziddiyat va aloqadorlik bo'ladi. Ularning har ikkalasidan ham butun iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyat a'zolarining farovonligini oshirish maqsadlarida foydalaniladi.

Lekin ularning sof milliy mahsulotdagi hissasi turli omillar ta'sirida, masalan, texnika taraqqiyotining rivojlanishi, ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishi, mehnat unumdorligining oshishi natijasida o'zgarib turadi. Mehnat unumdorligining o'sishi natijasida

zaruriy mahsulotning absolyut miqdori o‘sgan holda sof milliy mahsulotdagi hissasi kamayib, qo‘shimcha mahsulotning hissasi oshib boradi. Bunday holatlar qo‘shimcha mahsulot normasining oshishida o‘z aksini topadi.

Bu bayon etilganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, qo‘shimcha mehnat va binobarin, qo‘shimcha mahsulot butun-butun tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishni, fan texnikani, ta’limni, sog‘liqni saqlashni, madaniyatni rivojlantirish, mamlakat mudofaasini mustahkamlashning iqtisodiy manbai bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Hozirgi davrdagi bozor iqtisodiyotiga doir adabiyotlarda ishlab chiqarish omillari bilan uning samarasi o‘rtasidagi bog‘liqlik **ishlab chiqarish funksiyasi** deb ataladi. Masalan, ishlab chiqarish omillari – tabiat (N), kapital (K) va ishchi kuchi (L)ni ishlab chiqarishda qo‘llashdan olingan mahsulotni M dan iborat deb faraz qilsak, ishlab chiqarish funksiyasi $M = f(N,K,L)$ dan iborat bo‘ladi. Bu formula ishlab chiqarishga jalb qilingan omillarning, ya’ni sarflarning har birligi evaziga olingan mahsulotni bildiradi va e’tiborni kam resurs sarflab, ko‘proq mahsulot olish imkoniyatini qidirishga qaratadi. Undan tashqari, bu ko‘rsatkich har bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga va ko‘paytirish mo‘ljallangan mahsulot hajmini ishlab chiqarishga qancha resurs sarfi talab qilinishini oldindan aniqlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan turli xil omillar sarfini birdaniga yoki ularning ayrim turlarini ko‘paytirish yo‘li bilan mahsulot hajmini ko‘paytirish mumkin. Lekin boshqa omillar va sharoitlar teng bo‘lgani holda ayrim omillar sarfini oshirish yo‘li bilan mahsulotni cheksiz ko‘paytirib bo‘lmaydi. Omillardan foydalanish va ularning miqdorini oshirish evaziga olingan mahsulot uch xil o‘lchanadi: umumiy mahsulot, o‘rtacha mahsulot va so‘nggi qo‘shilgan mahsulot.

Umumiy mahsulot – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmi. Odatda korxona yoki yakka tartibdagi ishlab chiqaruvchining faoliyati eng avvalo uning umumiy mahsuloti orqali baholanadi. Misol uchun, «A» korxonada 1 oy davomida barcha mavjud

resurslardan foydalangan holda 100 birlik mahsulot yaratildi, deb faraz qilaylik. Bu o'rinda 100 birlik hajmdagi umumiy mahsulot uni yaratishga sarflangan resurslar to'g'risida ma'lumot bera olmaydi. Biz faqat ushbu korxona faoliyatini boshqa bir korxona faoliyati natijasiga taqqoslab, baholashimiz mumkin. Masalan, xuddi shu turdagi mahsulotni ishlab chiqaruvchi «V» korxonada bir oy davomida 80 birlik mahsulot ishlab chiqarilgan, deylik. U holda, «A» korxonada «V» korxonaga nisbatan 1,25 baravar ko'p umumiy mahsulot ishlab chiqarilgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Biroq, bu mahsulot nima evaziga, qanday sarflar hisobiga Yaratilganligini ayta olmaymiz. Buning uchun bizga ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan omillar to'g'risida ham ma'lumot kerak bo'ladi. Bu ma'lumotlardan foydalangan holda o'rtacha mahsulotni hisoblash mumkin.

O'rtacha mahsulot – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillarining bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi:

$$O'M = M/(I,K).$$

Aytaylik, 100 birlik mahsulot 10 birlik ishchi kuchi, 8 birlik kapital va 15 birlik tabiiy resurslarni sarflash evaziga Yaratilgan. U holda har qaysi omilning bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini hisoblaymiz:

1) ishchi kuchi omili birligiga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot:

$$O'M_I = \frac{100}{10} = 10$$ birlikka teng.

2) kapital omili birligiga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot:

$$O'M_K = \frac{100}{8} = 12{,}5$$ birlikka teng.

3) tabiiy resurs omili birligiga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot:

$$O'M_N = \frac{100}{15} \approx 6{,}7$$ birlikka teng.

Ishlab chiqarish natijasini baholashda ishlab chiqarish omillari navbatdagi birligini sarflashning maqsadga muvofiqligini o'rganish,

ya'ni har bir omil qo'shimcha sarfining u keltiradigan samara bilan taqqoslash muhimdir. Bu so'nggi qo'shilgan mahsulot ko'rsatkichi orqali ifodalanadi.

So'nggi qo'shilgan mahsulot – eng so'nggi qo'shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) evaziga o'sgan mahsulot hajmi.

«A» korxonada keyingi oyda boshqa ishlab chiqarish omillari sarfi o'zgarmagani holda, ishchi kuchi resurslarining soni 2 birlikka oshirilgan, ya'ni 12 birlikni tashkil etib, buning natijasida umumiy mahsulot 110 birlikka yetgan bo'lsin. U holda, ishchi kuchi omilining so'nggi qo'shilgan mahsuloti 5 birlik (10/2)ni tashkil etadi.

Har bir qo'shilgan omil evaziga olingan qo'shilgan mahsulot so'nggi qo'shilgan omil unumdorligi deb aytiladi. So'nggi qo'shilgan mahsulot (o'sgan) miqdorini so'nggi qo'shilgan (o'sgan) ishchi kuchi yoki kapital miqdoriga bo'lish yo'li bilan qo'shilgan omil, ya'ni qo'shilgan kapital yoki qo'shilgan ishchi kuchi unumdorligi aniqlanadi, ya'ni:

$$KM = \Delta M / \Delta K \text{ yoki } KM = \Delta M / \Delta И .$$

Bu tushunchalarni yana bir shartli misol aniqroq ifodalash mumkin (2.4-jadval).

Yuqorida aytilganidek, alohida olingan omil evaziga qo'shilgan mahsulot ma'lum darajaga borgandan keyin kamaya boshlaydi. Bu kamayish ayniqsa uning har bir birligi evaziga qo'shilgan mahsulotda aniq seziladi. Mana shu qo'shilgan omil unumdorligining pasayishiga qarab marjinalistik yo'nalish vakillari **unumdorlikning pasayib borishi qonuni** degan qonunni kashf qilishgan. Ularning g'oyasi bo'yicha har bir keyingi qilingan xarajat yoki omil oldingisiga qaraganda kam samara beradi va oqibatda umumiy o'rtacha mahsulot ham pasayib ketadi.

2.4-jadval

Qo‘shilgan mahsulot va qo‘shilgan omillar unumdorligi

	1-yil	2-yil	So‘nggi qo‘shilgan miqdor	Qo‘shilgan omillar unum-dorligi ΔM/ΔO
Jalb qilingan kapital, ming so‘m	120	150	30	1
Ishchi kuchi (ishchilar soni, nafar)	100	120	20	1,5
Olingan umumiy mahsulot, dona	100	130	30	-
O‘rtacha mahsulot:	100	130	30	-
a) ming so‘m kapitalga, dona	0,83	0,87	0,04	-
b) 1 ishchiga, dona	1	1,08	0,08	-

Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, keyingi jalb qilingan omil yoki xarajat unumdorligining pasayib borishi qonuni har doim ham amal qilavermaydi. Balki u quyidagicha to‘rt holat mavjud bo‘lgan sharoit-dagina amal qilishi mumkin:

1) ishlab chiqarishning boshqa omillari o‘zgarmay faqat bir omil to‘xtovsiz oshirilganda;

2) fan-texnika taraqqiy etmay to‘xtab qolganda yoki uning yangi-liklari ishlab chiqarishga jalb qilinmaganda;

3) omillar o‘rtasidagi miqdor va sifat nisbatlari buzilganda;

4) shart-sharoitni hisobga olmasdan xarajatlar xo‘jasizlarcha, ko‘r-ko‘rona amalga oshirilganda.

Yuqorida belgilangandan boshqa holatlarda bu qonun amal qil-maydi.

2.4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi

Iqtisodiyot nazariyasi fani mavjud cheklangan iqtisodiy resurslar-dan qanday qilib foydalanilganda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini

to‘laroq qondirib borish mumkin, degan muammo ustida bosh qotiradi. Bunda, birinchidan, iqtisodiy resurslardan foydalanishning turli xil muqobil variantlari mavjud bo‘lishi ko‘zda tutilib, ulardan eng samaralisi, ya’ni jamiyat ehtiyojlarini ancha to‘laroq qondiradigan miqdorda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkonini beradigan turini tanlab olishga harakat qilinadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy resurslar nisbatan cheklanganligi sababli jamiyat a’zolarining barcha ehtiyojlarini birdaniga qondirish mumkin bo‘lmaydi. Shuning uchun jamiyatga qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarish, qaysilaridan vaqtincha voz kechish lozimligini hal qilish, ya’ni tanlashni amalga oshirish zarur bo‘ladi. Shunday tanlash orqali, resurslarning mavjud darajasida mahsulot olishning aniqlangan eng yuqori miqdori jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatini ko‘rsatadi. Jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatidan to‘liq foydalanish uchun iqtisodiy resurslarning to‘la bandligiga erishish va ishlab chiqarishning to‘liq hajmini ta’minlash zarur.

To‘la bandlik – iqtisodiyotdagi ishlab chiqarishga yaroqli bo‘lgan barcha resurslardan to‘la unum bilan foydalanish holati. Bunda ishchi majburiy ishsiz bo‘lib qolmasligi, iqtisodiyot ishlashni xohlagan va unga layoqatli bo‘lgan barcha ishchi kuchini ish bilan ta’minlashi, haydaladigan yerlar, bino va inshootlar yoki kapital uskunalar ham bo‘sh qolmasligi hamda to‘la quvvat bilan ishlashi lozim.

Ishlab chiqarishning to‘liq hajmi, resurslarni samarali taqsimlashni, ya’ni ulardan mahsulotning umumiy hajmiga eng ko‘p hissa qo‘shadigan qilib foydalanishni va mavjud texnologiyalarning eng yaxshisini qo‘llashni ham bildiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish imkoniyatlarining ma’lum chegarasi bo‘ladi. Chunki, resurslar kamyob bo‘lganligi sababli iqtisodiyot to‘la bandlik va ishlab chiqarishning to‘liq hajmida ham tovar va xizmatlarni cheklanmagan miqdorda ishlab chiqarishni ta’minlay olmaydi.

Ishlab chiqarish imkoniyati chegarasini jadval ma’lumotlaridan foydalanib yanada aniqroq tasvirlash mumkin (2.5-jadval).

2.5-jadval

Resurslar to‘liq band bo‘lganda ishlab chiqarish imkoniyatlari (shartli raqamlar)

Mahsulot turi	Muqobil variantlar				
	A	B	C	D	E
Non (mln. dona)	0	1	2	3	4
Tegirmon (ming dona)	10	9	7	4	0

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi to‘g‘risida yaxshiroq tasavvurga ega bo‘lish uchun:

birinchidan, iqtisodiyot faqat ikki xil mahsulot – non va tegirmon ishlab chiqaradi (bunda non iste’mol tovarlarini, tegirmon ishlab chiqarish vositalarini bildiradi);

ikkinchidan, iqtisodiy resurslar miqdor va sifat jihatdan o‘zgarmaydi;

uchinchidan, mehnat unumdorligi va texnologiya doimiy bo‘lib qoladi, deb faraz qilamiz.

Mavjud resurslar cheklanganligi sababli iqtisodiyotning tegirmon va non ishlab chiqarish hajmini birdaniga ko‘paytirib borish imkoniyati cheklangan. Resurslarning cheklanganligi mahsulot ishlab chiqarishning cheklanganligini bildiradi. Bunday sharoitda tegirmon ishlab chiqarishni har qanday ko‘paytirishga resurslarning bir qismini – non ishlab chiqarishni kamaytirish orqali erishadi. Aksincha, agar non ishlab chiqarishni ko‘paytirish afzal ko‘rinsa, buning uchun zarur resurslar faqat tegirmon ishlab chiqarishni qisqartirish hisobiga olinishi mumkin.

Jadvalda jamiyat tanlashi mumkin bo‘lgan sanoat tegirmonlari va non miqdorining muqobil uyg‘unlashuvi ifodalangan. A muqobil variantga binoan, iqtisodiyot o‘zining butun resurslarini tegirmon, ya’ni ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishga yo‘naltiradi. E muqobil variantda esa mavjud resurslar to‘lig‘icha non, ya’ni iste’mol buyumlari ishlab chiqarishda foydalaniladi. Jadvaldagi asosiy g‘oya quyidagicha: har qanday vaqt oralig‘ida iqtisodiyot to‘la bandlik va ishlab chiqarishning to‘liq hajmida non mahsulotini ko‘proq ishlab

chiqarishi uchun tegirmonning bir qismidan voz kechishi zarur. Iqtisodiy resurslar kamyob bo'lganligi sababli, iqtisodiyot non va tegirmon ishlab chiqarish hajmini bir vaqtda ko'paytira olmaydi.

Ishlab chiqarish imkoniyati haqidagi tushunchani chuqurlashtirish uchun jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni rasmda tasvirlaymiz (2.7-rasm).



2.6-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i

Ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'idagi har bir nuqta ikki xil mahsulot ishlab chiqarishning qandaydir eng ko'p hajmini ko'rsatadi. Jamiyat uchun mahsulotlarning erishib bo'ladigan har xil uyg'unlashuvlaridan tanlab olish imkoniyati egri chiziq ichida joylashadi.

Non va tegirmon ishlab chiqarishning har xil uyg'unlashuvini amalga oshirish uchun jamiyat ulardagi mavjud resurslarning to'la bandligi va ishlab chiqarishning to'liq hajmini ta'minlashi zarur. Non va tegirmonning barcha uyg'unlashuvi ularning eng ko'p miqdorini ko'rsatib, bu barcha mavjud resurslardan esa samarali foydalanish natijasida olinishi mumkin.

Iqtisodiyotda resurslarning to'la bandligi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun har ikkala mahsulotning tanlangan hajmi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i deb nomlanuvchi

ABCDE chizig'ida joylashgan bo'lishi lozim. Bu chiziqdan chap tomonda joylashgan har qanday nuqta resurslardan to'liq foydalanmaslikni anglatadi. Masalan, rasmdagi G nuqta iqtisodiyotda 1,6 mln. dona non va 5 ming donaga yaqin tegirmon ishlab chiqarilayotganini bildiradi. Bu esa, resurslardan foydalanishning muayyan darajasida, qo'shimcha resurslarni jalb etmagan holda, quyidagi harakatlarni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi:

a) non ishlab chiqarishning mavjud hajmini saqlab qolgan holda, tegirmon ishlab chiqarish hajmini 8 ming donagacha yetkazish;

b) tegirmon ishlab chiqarishning mavjud hajmini saqlab qolgan holda, non ishlab chiqarish hajmini 2,7 mln. donagacha yetkazish;

v) bir vaqtning o'zida har ikkala mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idan tashqarida joylashgan har qanday nuqtaga (masalan, W) resurslarning mavjud hajmi va ishlab chiqarishning mavjud texnologiyasi darajasida erishib bo'lmaydi.

Jamiyat bu mahsulotlar uyg'unlashuvidan birortasini tanlashi zarur: ko'proq tegirmon ishlab chiqarish kamroq non ishlab chiqarishni bildiradi va aksincha. **Har qanday mahsulotning qandaydir miqdorini olish uchun, voz kechishga to'g'ri keladigan boshqa mahsulot miqdori bu mahsulotning muqobil xarajatlari deb ataladi.**

Biz bu yerda faqat ikki narsa tegirmon va non misolida iqtisodiy resurslarning to'la bandligi va ishlab chiqarishning to'liq hajmi bilan xususiyatli deb hisobladik. Agar band bo'lmagan resurslar bo'lsa yoki resurslardan samarasiz foydalanilsa (to'liq foydalanilmasa) iqtisodiyot jadvalda ko'rsatilgan har bir muqobil variantdagidan kamroq mahsulot ishlab chiqargan va bu rasmda keltirilgan ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ining ichida joylashgan bo'lar edi.

Agar resurslarning miqdori, sifati hamda texnika, texnologiya o'zgarsa iqtisodiyotda ishlab chiqarishning umumiy hajmi ham (ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ining holati) o'zgaradi. Mavjud resurslarning ko'payishi har bir variantda bitta yoki har ikkala mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga olib keladi.

Hozirgi davrda fan-texnika taraqqiyoti va binobarin texnika va texnologiyalar o'zgarishi jadallashgan vaqtda ishlab chiqarish imkoniyati to'htovsiz kengayib boradi. Energiyaning, xomashyo va materiallarning yangi turlari topilib ishga tushuriladi. Yangi texnika va texnologiyalar qo'llanilib, mehnat unumdorligi, yerlar xosildorligini, chorva mollari mahsuldorligini, tejamkorlikni oshirish imkonini beradi..

2.5. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish masalasi har doim iqtisodiyot nazariyasi fanining dolzarb muammosi sifatida, uning diqqat markazida bo'lib keladi. Ayniqsa, hozirgi paytda bu masala yanada keskin qo'yilmoqda. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasdan turib mamlakatimiz oldida turgan muhim masala – mustaqil iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi. **Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag'lar yoki qilingan xarajatlar o'rtasidagi nisbat tushuniladi.**

Lekin, turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sharoitida shu jamiyatning maqsadidan kelib chiqib, samaradorlik muammosining tub mohiyati o'zgaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilganligi sababli har bir iqtisodiy subyekt ko'proq foyda olishga intiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning bosh mezoni haqida ham turlicha fikrlar mavjud. Ayrim olimlar ishlab chiqarish samaradorligining bosh mezoni foyda, boshqa birlari esa yalpi milliy mahsulot, sof mahsulot, uchinchilari milliy daromad, to'rtinchilari esa qo'shimcha mahsulot deb ko'rsatadilar. Biz bu o'rinda sanab o'tilgan fikrlarning qaysi biri to'g'ri ekanligi haqida batafsil to'xtolmaymiz, lekin shuni aytish kerakki, ko'pchilik olimlar tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikning bosh ko'rsatkichi olingan foydaning xarajatlarga nisbati, ya'ni rentabellik yoki foydalilik darajasi bilan belgilanadi deb tan olinadi. **Shuning**

uchun ham ishlab chiqarish samaradorligi olingan foydaning (F) ishlab chiqarishga sarflangan resurslar qiymatiga (I) nisbati bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$P' = \frac{F}{I} \times 100\%,$$

bu yerda: R' – foyda normasi;

I – iqtisodiy resurs sarflari.

Misol uchun, A korxonada yil davomida 800 mln. so'mlik resurs xarajat qilib, 200 mln. so'm hajmida foyda olingan bo'lsin. U holda foyda normasi 25% (200×100/800) ni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p qirrali masala bo'lib, bu aytilgan birgina asosiy ko'rsatkichda, uni to'la ravishda har tomonlama ifodalab bo'lmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish samaradorligini to'la ifodalashda unda qatnashgan omillarning unumdorligini, ulardan samarali foydalanish darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning manba va usullarini tavsiflovchi umumiy iqtisodiy qonunlardan biri vaqtni tejash qonuni hisoblanadi. **Vaqtni tejash qonuni – ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanib borishi bilan jamiyat tomonidan hayotiy ne'matlar birligini yaratishga sarflanayotgan vaqtning qisqarib borishini ifodalovchi umumiy iqtisodiy qonun.** Vaqtni tejash ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy resurslarini umumlashtiruvchi darajasi hisoblanadi. Har qanday tejam oxir-oqibatda vaqtni tejashga borib taqaladi. Vaqtni tejash qonunining mazmuni jonli va buyumlashgan mehnatni, ya'ni muayyan davrda sarflangan ish vaqti jamg'armasi hamda o'tgan davrlardagi ish vaqti sarflarining natijasini tejashni o'z ichiga oladi. Vaqtni tejash qonuni namoyon bo'lishining aniq shakli bo'lib quyidagilar maydonga tushadi:

1) mehnat unumdorligining o'sishi;
2) mashina va jihozlardan foydalanishning yaxshilanishi;
3) ishlab chiqarish material sig'imining pasayishi;
4) xo'jalik nisbatlarining optimallashuvi.

Bundan ko'rinadiki, ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri mehnat unumdorligidir. **Mehnat unumdorligi deb ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyatiga aytiladi va ishlab chiqarilgan mahsulotning (iste'mol qiymatining) sarflangan mehnat miqdoriga nisbati bilan belgilanadi.** Sarflangan mehnat miqdori esa ishlangan vaqt bilan, kishi kuni, kishi soati va h.k. bilan belgilanadi. Agar mehnat unumdorligini MU, mahsulotni M bilan, sarflangan ish vaqtini V bilan belgilasak, mehnat unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$MU = M/V .$$

Mehnat unumdorligi sarflangan jonli mehnatning har bir birligi evaziga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Misol uchun, «A» korxonada 40 kishi mehnat qilib, ular kun davomida 8 ming dona mahsulot ishlab chiqargan bo'lsinlar. U holda, bir kishi kunida Yaratilgan mahsulot 200 donani tashkil etadi. Agar mahsulot soni 10 ming donaga yetsa, u holda bir kishi kunida Yaratilgan mahsulot 250 donani tashkil etib, mehnat unumdorligi 125% (250×100/200) ga oshadi.

Samaradorlikni aniqlashda kapital unumdorligi ko'rsatkichidan ham foydalaniladi va uni ishlab chiqarishda qatnashgan kapitalning har bir birligi evaziga olingan mahsulot, daromad yoki foyda miqdori bilan aniqlanadi. Agar kapital unumdorligini – KU, ishlab chiqarishda qatnashgan kapital miqdorini – K, mahsulotni – M, yalpi daromadni – YaD, foydani – F deb belgilasak, quyidagi formulalar hosil bo'ladi:

$$KU = M/K; \qquad KU = YAD/K; \qquad KU = F/K .$$

Samaradorlikni aniqlashda bu ko'rsatkichlardan tashqari mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, energiya sig'imi degan ko'rsatkichlar ham qo'llanilib, ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har bir birligini yaratish uchun ketgan, yoki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat, energiya va moddiy ashyolar miqdorini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlarning har biri ishlab chiqarishda qatnashgan turli omillar samaradorligini ifodalab, bir-biri bilan chambarchars bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun unga ta'sir qiladigan omillarni ham bilish zarurdir. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bir qancha omillar ta'sir qiladi:

1) fan-texnika taraqqiyotni tezlashtirish, energiyalarning xomashyo va materiallarning yangi turlarini topish va uning natijalarini tezlik bilan ishlab chiqarishda qo'llash;

2) tabiiy va iqtisodiy omillarni hisobga olib ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash;

3) iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uning tashkiliy bo'g'inlarini o'zgartirish;

4) ishlab chiqaruvchilarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirib, ularning faolligini oshirish;

5) mavjud tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona, tejabtergab foydalanish, yangi, arzon, sifatli xomashyo va energiya turlarini, ekinlarning yangi hosildor navlarini, chorva mollarining mahsuldor zotlarini topib, ishlab chiqarishga joriy qilish;

6) kishilarning bilim saviyasini, malakasini oshirish, yetuk ishchi va mutaxassislar tayyorlash.

Bular ichida fan-texnika taraqqiyoti natijalarini ishlab chiqarishda qo'llash, hamma ishga innovatsion yondashish omili hozirgi kunda respublikamiz uchun dolzarb va muhim ahamiyat kasb etadi. Fan-texnika taraqqiyotining evolyusion va revolyusion shakllari farqlanadi. ***Evolyutsion*** shaklda rivojlanish deganda, FTTning mavjud texnologiyasi asosida, mashinalar va uskunalar qisman modernizatsiyalash asosida rivojlanishi tushuniladi. ***Revolyutsion*** shaklda rivojlanishi deganda esa, fan-texnikaning bir qancha sohalarida birdaniga katta o'zgarishlar bo'lib, texnikaning eng so'nggi yangiliklarini, avlodlarini ishlab chiqarishda qo'llash, prinsipial yangi texnologik tizimga o'tish tushuniladi. Fan-texnika taraqqiyotining keyingi shaklda rivojlanishi yuksak samara beradi. Shuning uchun ham ayrim me'yoriy hujjatlarda va mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma'ruzalarida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini hozirgi zamon fan va texnikasining eng yangi yutuqlari asosida tayyorlangan texnika va texnologiyalar bilan qayta qurollantirish lozimligini ta'kidlamoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fev-

raldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish" vazifasi qo'yilgan.

Xulosalar

1. Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar umumiy iqtisodiy munosabatlarining asosiy negizini tashkil etib, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarida bo'ladigan munosabatlarning yo'nalishini belgilab beradi. Shuning uchun ularni o'rganish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Insoniyat zarur ne'matlar iste'molisiz yashay olmaydi. Shunga ko'ra, bu ne'matlarni muntazam ravishda ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida insonning yashashi uchun zarur bo'lgan barcha hayotiy vositalar yaratiladi.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish omillari – tabiat, kapital, ishchi kuchi va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat bo'lib, ularning hamjihatlikdagi harakati bilan ishlab chiqarish sodir bo'ladi. Ular o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu omillardan birining sifat va miqdor jihatidan o'zgarishi pirovardida boshqa omillarning o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

4. Ishlab chiqarish jarayonida barcha omillar harakatda bo'ladi, lekin ular ichida jonli mehnat, ya'ni ishchi kuchi faol bo'lib, u barcha ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltiradi, ularga «jon kiritadi», asosiy kapital qiymatining yo'qolib ketmasligini ta'minlab, yangi Yaratilgan tovar va xizmatlarga o'tkazadi. Va nihoyat, bu jarayonda yangi tovar va xizmatlar vujudga keladi.

5. Yangi vujudga kelgan tovar va xizmatlar ikki xil xususiyatga – naflilik va qiymatga ega bo'lib, ikki tomonlama hisobga olinadi: natural-ashyoviy (naflilik) va qiymat tomonidan. Natural-ashyoviy tomondan u uch qismga: ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyum-

lari va turli xizmatlarga bo'linadi. Qiymat tarafidan ham uch qismga: iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati (s), zaruriy mahsulot qiymati (v) va qo'shimcha mahsulot qiymati (m)ga bo'linadi.

6. Bundan 100-yil ilgari marjinalistlar tomonidan kashf qilingan va iqtisodiyotning universal qonuni deb atalgan qonun – «keyingi qo'shilgan omil (qo'shilgan kapital, qo'shilgan mehnat) unumdorligining pasayib borish qonuni» ko'r-ko'rona isrofgarchilikka, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilmasa, hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti sharoitida amal qilmaydi.

7. Ishlab chiqarish jarayoni doimo o'zgarib, takomillashib va kengayib boradi. Uning rivojlanib borishida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va tarkibiy jihatdan o'zgartirib borish muhim rol o'ynaydi.

8. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish samaradorligining asosiy mezoni foyda hisoblanadi. Bunda foydaning foyda miqdorining xarajatlar miqdoriga nisbati olinadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarish omillari – ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar.

Ishchi kuchi – insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi.

Mehnat qurollari – inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalar.

Mehnat predmetlari – bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar.

Ishlab chiqarish jarayoni – kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish – jamiyat miqyosida ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib turishi.

Oddiy takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish miqyoslarining o'zgarmagan holda takrorlanishi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi.

Ishlab chiqarishning umumiy natijasi – mamlakat bo'yicha Yaratilgan milliy mahsulotning yil davomidagi yig'indisi.

Ishlab chiqarishning pirovard natijasi – ishlab chiqarish sohasidagi o'z harakatini tugatgan, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini yo bevosita (iste'mol fondi orqali), yoki bilvosita, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish (jamg'arish fondi) orqali qondirishga tayyor mahsulot.

Sof mahsulot – Yaratilgan mahsulotdan iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlangandan qolgan qismi.

Zaruriy mahsulot – ishchi va xizmatchilar ish vaqtining bir qismi bo'lgan zaruriy ish vaqtida zaruriy mehnat bilan Yaratilgan, ishchi kuchini normal holatda saqlash va qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mahsulot.

Qo'shimcha mahsulot – sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan ortiqcha qismi, ya'ni qo'shimcha ish vaqtida qo'shimcha mehnat bilan Yaratilgan mahsulot.

Qo'shimcha mahsulot massasi – yil davomida olingan qo'shimcha mahsulotlar yig'indisi.

Qo'shimcha mahsulot normasi – qo'shimcha mahsulot massasining zaruriy mahsulotga nisbati.

Ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarish omillari bilan uning samarasi o'rtasidagi bog'liqlik.

Umumiy mahsulot – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmi.

O'rtacha mahsulot – jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillarining bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi.

So'nggi qo'shilgan mahsulot – eng so'nggi qo'shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) evaziga o'sgan mahsulot hajmi.

Mehnat unumdorligi – ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyati.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish omillari nimalardan iborat?
2. Ishchi kuchi nima, uning mehnat tushunchasidan nima farqi bor?
3. Kapital tushunchasiga ta'rif bering va uning tarkibiga nimalar kirishini tushuntirib bering.
4. Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini va uning ikki tomonini tushuntiring.
5. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning mohiyati nimada?
6. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini tushuntirib bering.
7. Yaratilgan mahsulotning natural va qiymat tarkibi nimalardan iborat?
8. Zaruriy va qo'shimcha mahsulot nima, qo'shimcha mahsulot normasi va massasi formulasini yozib tushuntiring.
9. Qo'shilgan mehnat, qo'shilgan kapital va qo'shilgan mahsulot tushunchalarini izohlab bering.
10. So'nggi qo'shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borish qonunining mohiyati nima va u hozirgi davrda amal qiladimi?

3-BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI

Iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Iqtisodiy munosabatlar bir joyda o'zgarishsiz qotib turmaydi. Ular doimo o'zgarib, rivojlanib boradi. Shunga ko'ra, mazkur bobda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo'lgan turlicha yondashuvlar, ishlab chiqarishning ijtimoiy va texnologik usullari hamda iqtisodiy tizim tushunchalari batafsil ko'rib chiqiladi. Tahlil davomida iqtisodiy tizim modellari va ularning xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Ishlab chiqarish har doim muayyan mulkchilik shakli doirasida amalga oshiriladi. Shuning uchun bu yerda mulkchilik munosabatlarining mohiyati, mulk shakllarining iqtisodiy mazmuni, ularning o'zgarish va bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida mulk shakllarini o'zgartirish yo'llari va usullari kabi masalalarga alohida o'rin ajratiladi.

Mamlakatimizda taraqqiyotning hozirgi bosqichida mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, ularning rivojiga keng yo'l ochib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga ham e'tibor beriladi.

3.1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo'lgan turlicha yondashuvlar

Kishilik jamiyati ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'zaro birligi va ziddiyati asosida taraqqiy etib borib, uning turli bosqichlariga o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlar muvofiq keladi. Insoniyat taraqqiyoti bosqichlari va har bir bosqichga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlarni o'rganish iqtisodiy jarayonlarni, ularning o'zgaruvchan ekanligini bilishda muhim ahamiyatga egadir.

Taraqqiyot bosqichlarini bilishda turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- tarixiy-formatsion yondashuv;
- madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi jihatidan yondashuv;
- texnika va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondashuv;
- iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv.

Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga **tarixiy-formatsion yondashuvda** ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga e'tibor berilgan.

Ishlab chiqarish usuli ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlarining birligidan iborat. Ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birgalikda jamiyatning **ishlab chiqaruvchi kuchlarini** tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, **ishlab chiqaruvchi kuchlar – bu ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan elementlar tizimidan iborat.** Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezoni va umumiy ko'rsatkichidir.

Odamlar ishlab chiqarish jarayonida faqat tabiat ashyolari va boshqa moddiy ashyolar bilan emas, shu bilan birga o'zaro bir-biri bilan ham munosabatlarda bo'ladilar, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadilar. Bunda ishlab chiqarishda tarkib topadigan tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bir-biridan farq qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar kishilar o'rtasidagi aloqalar sifatida namoyon bo'lib, shu bilan birga ishlab chiqarish holatini bevosita tavsiflaydi, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti muayyan bosqichlarning xususiyatlarini va ularning ijtimoiy uyg'unlashuvini aks ettiradi. Bu masalan, mehnat taqsimoti, uni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash, ishlab chiqarishning to'planishi va uyg'unlashtirilishidir. Ishlab chiqarish har doim muayyan ijtimoiy shaklga ega bo'ladi. Bu ijtimoiy shakl iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltiradi, ularning mohiyati va asosini ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik munosabatlari tashkil etadi.

Iqtisodiy munosabatlar – bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va

iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir. Ular takror ishlab chiqarish munosabatlari yoki iqtisodiy munosabatlar deb ham ataladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining muayyan darajasi ishlab chiqarish munosabatlarining u yoki bu turini taqozo qiladi. **Muayyan taraqqiyot darajasidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari muayyan turining birligi va o'zaro ta'siri ishlab chiqarish usulini tashkil etadi.**

Ishlab chiqarish munosabatlari faqat ishlab chiqaruvchi kuchlar bilangina o'zaro aloqada bo'lib qolmaydi. Ular bir vaqtda bazis ham hisoblanib, uning ustida ishlab chiqarish munosabatlarining ushbu tizimiga xos bo'lgan alohida siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar hamda tartibotlarning alohida turlari qad ko'taradi. Ana shularning yig'indisi jamiyatning ustqurmasini tashkil etadi. Siyosat, huquq, ahloq va ustqurmaning boshqa elementlari ham faol rol o'ynaydi, o'zlarini vujudga keltirgan ishlab chiqarish munosabatlariga, ular orqali esa jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga ham aks ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani tashkil etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning tarkibiy qismlarini alohida rasm orqali ifodalash mumkin (3.1-rasm). Bu yerda ikki holatga e'tibor berish muhim. Birinchidan, ishlab chiqarish munosabatlari mustaqil, alohida tizimni tashkil qilmaydi. Ular ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ham, shuningdek, ustqurma bilan ham har doim o'zaro ta'sirda bo'ladi. Ikkinchidan, turli formatsiyalarda o'ziga xos ishlab chiqarish munosabatlari amal qiladi va bu esa har bir formatsiyaga mos keluvchi ishlab chiqarish usulini belgilab beradi.

Insoniyat jamiyati tarixida bir-biri bilan izchil almashib kelgan qator ishlab chiqarish usullari va shunga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar ajralib turadi. Ishlab chiqarish usullari almashuvining klassik namunasi Yevropada namoyon bo'lgan deb hisoblanadi. Yevropa hududida bir-biri bilan almashib, ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal va kapitalistik munosabatlar izchil tarkib topdi. Boshqa

qit'alarga qaraganda bu yerda kapitalizmgacha bo'lgan davrda mana shu munosabatlarning hammasi aniqroq qayd etilgan. Osiyo, Afrika, Avstraliyada Yevropa mustamlakachiligining ta'siri seziladi. Adabiyotlarda Osiyocha ishlab chiqarish usuli deb atalmish usul haqida ham qayd qilinadi. Bu usulning shakllanishida mamlakatlarning katta turkumiga xos bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining sug'orish tizimlarini markazlashtirilgan tarzda tartibga solib turish va davlatning ana shu sharoitlarda alohida roli bilan bog'liq sifat xususiyatlari aks etadi.



3.1-rasm. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning tarkibiy tuzilishi

Iqtisodiy fanda ijtimoiy taraqqiyotni **sivilizatsiyaning tarixiy rivojlanish tiplari** natijasi sifatida o'rganish ham muhim o'rin tutadi. «Sivilizatsiya» so'zi lotinchada fuqarolarga oid, ijtimoiy degan ma'nolarni anglatadi. Bu tushuncha fanga fransuz faylasuflari tomonidan nisbatan yaqin vaqt – ikki asr oldin kiritilgan bo'lib, tafakkur va erkinlik hukmron bo'lgan jamiyatlarni tavsiflash uchun qo'llanilgan. Umuman olganda sivilizatsiya rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning oqilona tashkil etilgan tuzumi sifatida talqin etiladi.

Jamiyat taraqqiyotini sivilizatsiya nuqtai-nazaridan o'rganishda sivilizatsiyalarning almashuvi nazariyasi muhim o'rin tutadi. Bu nazariya tarafdorlari quyidagi 7 ta bosqichdan iborat sivilizatsiyani ajratib ko'rsatadilar:

1) davomiylik muddati 30–35 asrni o'z ichiga olgan neolit davri;

2) davomiylik muddati 20–23 asrni o'z ichiga olgan sharqiy quldorlik davri (bronza asri);

3) davomiylik muddati 12–13 asrni o'z ichiga olgan antik davr (temir asri);

4) davomiylik muddati 7 asrni o'z ichiga olgan erta feodal davri;

5) davomiylik muddati 4,5 asrni o'z ichiga olgan industrlashishdan oldingi davr;

6) davomiylik muddati 2,5 asrni o'z ichiga olgan industrial davri;

7) davomiylik muddati 1,3 asrni o'z ichiga olgan yuqori industrlashish davri.

Bu qayd qilingan bosqichlardan ko'rinib turibdiki, ushbu nazariyada turli qarashlar va yondashuvlarni aralashtirish holatiga yo'l qo'yilib, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini ajratishning aniq bir mezoni yoki belgisi mavjud emas.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlariga **texnologik yondashuv** ham ma'lum bir oqim hisoblanadi. Ular jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida ro'y berayotgan o'zgarishlar ko'lami va tavsifini yaxshiroq tushunib olish uchun ishlab chiqarishning turli texnologik usullarini tahlil etish, mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanish tarixiga murojaat qilish zarur deb hisoblaydilar.

Mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan birgalikda ishlab chiqarishning texnologik usuli deyiladi. Ular o'rtasidagi chegaralarni jamiyat taraqqiyoti tarixining yirik bosqichlari ajratib turadi. Bir texnologik ishlab chiqarish usulidan boshqasiga o'tish asosan, mehnat vositalarining tavsifidagi o'zgarishlar, fan va texnika taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish texnologik usullarining dastlabki uchta bosqichlari alohida farqlanadi. Bular oddiy kooperatsiya, manufaktura va mashinalashgan ishlab chiqarish. **Oddiy kooperatsiya – bu bir xil tovarni ishlab chiqarish yoki xizmat vazi-**

fasini bajaruvchi xodimlarning eng oddiy shaklidagi uyushishi, birgalashib ma'lum tartib va reja asosida ishlaydigan kishilar guruhidir. Kooperatsiyaning yakka tartibdagi hunarmandchilik ishlab chiqarishiga nisbatan afzalliklari quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

1) ko'plab ishchilarning birgalikdagi mehnati ishchi kuchidagi alohida tafovutlarning yo'qolishiga, ularning sifat jihatidan bir xillashuviga olib keldi;

2) bino va inshootlardan birgalikda foydalanish natijasida yoqilg'i, yoritish va boshqa shu kabi xarajatlarning kam sarflanishi mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish vositalarining tejalishiga olib keldi;

3) birgalikdagi mehnat bellashuvni keltirib chiqarib, mehnat unumdorligini oshirdi.

Manufaktura – bu mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo'lmagan sharoitdagi kooperatsiyadir. Manufaktura davrida ishlab chiqarishning umumlashuv jarayoni davom etadi. Yalpi ishchi kuchi tarkib topadi, har bir ayrim xodim esa yalpi ishchi kuchining tarkibiy qismiga aylanadi. Bunda oddiy kooperatsiyadagidek qo'l mehnatiga va shunga mos qurolga tayanadi. Manufaktura ixtisoslashtirilgan qurol va asboblar vujudga keltirib hamda ishchini tor operatsiyalarni bajarishga bog'lab, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish uchun zarur shart-sharoit tayyorlaydi. Bu davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnatning mazmuni va tavsifida, ishlab chiqarishning butun texnologik usulida, iqtisodiy munosabatlarda va butun ijtimoiy hayotda ham tub o'zgarishlar ro'y beradi. Mehnat unumdorligi ancha o'sadi. XVIII asrning so'nggi 30-yili ichida boshlangan sanoat revolyutsiyasi natijasida **yirik mashinalashgan ishlab chiqarish** vujudga keldi.

Yirik mashinalashgan ishlab chiqarish va mehnat taqsimotiga mashinali mehnatga asoslangan kooperatsiyadir. Fabrika ichidagi mehnat taqsimoti tamomila mashinalarning vazifalari bilan belgilanadi.

Fan-texnika, texnologiya va axborot tizimidagi o'zgarishlarga qarab R.Aron, J.Gelbreyt, U.Rostou va boshqa olimlar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini uch bosqichga: industrlashishgacha bo'lgan jamiyat,

industrlashgan jamiyat, yuqori industrlashgan yoki axborotlashgan jamiyatlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadilar.

Bunda ular **industrlashishgacha bo'lgan jamiyatning asosiy belgilari** sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar: a) aholining asosan qishloq xo'jaligi bilan bandligi; b) qo'l mehnatining hukmronligi; v) mehnat taqsimotining juda sayozligi (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo, boshqaruv va boshqalar); g) natural xo'jalikning hukmronligi.

Jamiyat taraqqiyotining ikkinchi muhim bosqichi – **industrlashgan jamiyatning asosiy belgilari**: a) ishlab chiqarishning mashinalashganligi; b) sanoatning fan-texnika yutuqlari asosida rivojlanishi, unda ishchilar sonining ko'payishi; v) shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan tezroq ko'payishi va boshqalar.

Taraqqiyotning uchinchi muhim bosqichi – **yuqori darajada industrlashgan jamiyatning asosiy belgilari:** a) xizmat ko'rsatish sohasining yuksak darajada rivojlanishi; b) ishchi kuchining asosiy qismi (60–70%) shu sohada band bo'lishi; v) fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi, fan xodimlarining va malakali mutaxassislar rolining oshishi; g) iqtisodiyotning hamma sohalarida va kundalik hayotda axborot va hisoblash texnikalarining keng qo'llanilishi; d) tovarlar va xizmatlar sifatiga putur yetkazmasdan iqtisodiy resurslarning hamma turlarini tejash imkonini beradigan yangi texnika va texnologiyalarning keng qo'llanilishi va boshqalar.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, texnika va texnologiyadagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotida asosiy rolni o'ynaydi va tashkiliy, boshqaruv tizimlarining, ishchi-xizmatchilar tarkibining o'zgarishiga, mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi. Lekin bu texnik o'zgarishlarga qarab bir tomonlama yondashuv bilan jamiyat taraqqiyoti qonunlarini aniqlab bo'lmaydi. Ayniqsa, iqtisodiy tizimlar va ularning tavsifini bilishda ham texnik, ham ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni birgalikda olib, ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini va shu dialektik aloqadorlik va ta'sir natijasida sodir bo'ladigan taraqqiyot qonunlarini o'rganish zarurdir.

Jamiyat taraqqiyotiga, jumladan texnika va texnologiyaning rivojiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kuchli ta'sirini shunda ko'rish mumkinki, bir necha ming yillab rivojlanmay yotgan texnika

va texnologiya taraqqiyoti tovar xo'jaligi va bozorning vujudga kelishi bilan gurkirab o'sib ketdi. Texnika taraqqiyotining barcha bosqichlari – oddiy kooperatsiya, manufaktura, mashinalashgan, ya'ni industrlashgan ishlab chiqarish, yuqori darajadagi industrlashgan, axborotlashgan jamiyat bosqichlari keyingi 250–300-yilga, ya'ni tovar xo'jaligi rivoj topgan davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham keyingi paytda ko'pgina iqtisodchilar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini iqtisodiy tizimlarga bo'lib o'rganadilar.

3.2. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari

Har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanida ko'pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog'lab turkumlashga harakat qilinadi. Shu asosda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tizimning uchta nusxasiga kiritiladi: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlari.

An'anaviy iqtisodiyot – deyarli hamma mamlakatlar bosib o'tgan tarixiy tizimdir. U hozirgi davrda ham ba'zi iqtisodiy jihatdan past rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ularda urf-odatlar, udumlarga, an'analarga asoslangan iqtisodiy jarayonlar orqali amal qiladi. An'anaviy iqtisodiyotda natural yoki mayda tovar xo'jaligi hukmron bo'ladi. Bu yerda ishlab chiqarish, ayirboshlash, daromadlarni taqsimlash vaqti-vaqti bilan o'rnatiladigan urf-odatlarga asoslanadi. Merosxo'rlik va sulola (tabaqa) shaxslarning iqtisodiy roli yuqori bo'lib, asosan ular hukmronlik qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik aniq ifodalanadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklarni joriy qilish keskin cheklangan, chunki ular ko'pincha an'analarga zid keladi va ijtimoiy tuzum barqarorligiga xavf tug'diradi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan diniy va madaniy tartiblar birlamchi hisoblanadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiyot muammosini hal qilishning bir xil va umum tan olingan yechimi mavjud emas. Xar xil madaniyat va tarixiy

o'tmish, har xil urf-odat va an'analar, qarama-qarshi mafkuraviy qarashlarga ega bo'lgan turli jamiyatlar aniq iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun turli xil tartiblardan foydalanadi.

Bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim **ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti** hisoblanadi. Bu tizim amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy, aniqrog'i, davlat mulkchiligining hukmronligi va ma'muriy organlar tomonidan iqtisodiy qarorlarning markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan tavsiflanadi. Foydalanadigan resurslarning hajmi, mahsulotning tarkibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabilarga tegishli barcha muhim qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi.

Iqtisodiy taraqqiyotda muhim bosqich hisoblangan tizim **bozor iqtisodiyoti tizimidir**. Bozor iqtisodiyoti tizimi asosan ikki bosqichga egadir. Birinchisi erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti bo'lib, ba'zi adabiyotlarda uni sof kapitalizm deb ham yuritiladi. Ikkinchisi esa hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti bo'lib, uni aralash iqtisodiyot tizimi deb ham yuritiladi.

Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlarni tartiblashda va uyg'unlashtirishda bozor mexanizmidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bunday tizimda har bir iqtisodiy subyektning xatti-harkati uning xususiy manfaatiga asoslanadi. Ular o'zlari qabul qilgan xo'jalik yechimlari va qarorlari asosida daromadlarini eng yuqori darajada yetkazishga intiladilar. Bu alohida qabul qilingan qarorlar bozor tizimi yordamida uyg'unlashtiriladi. Raqobat sharoitida tovarlarning ishlab chiqarilishi, resurslarning taklif qilinishi shuni bildiradiki, har bir mahsulot va resurslarning ko'plab mustaqil harakat qiluvchi xaridor va sotuvchilari mavjud bo'ladi. Bu yerda iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi cheklangan tavsifga ega bo'ladi. Shu sababli davlatning roli xususiy mulkni himoya qilish va erkin bozorning amal qilishiga qulay sharoit yaratuvchi huquqiy tartiblar o'rnatishdan iboratdir.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Hozirgi davrda real hayotda bozor iqtisodiyoti sof bozor mexanizmi va rejali iqtisodiyot unsurlarini mujassamlashtiradi. Mulkchilikning har xil shakllari, tadbirkor-

likning turli yo'nalishlari mavjud bo'ladi, unda rejalashtirish, prognozlash, aholini ijtimoiy himoyalash kuchayadi. Masalan, AQSH iqtisodiyoti hozirgi davrda oldingi erkin bozor iqtisodiyotidan sezilarli farq qiladi. Bu farqlar quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, mulkning bir qismi davlat qo'lida bo'lib, u iqtisodiyotda faol rol o'ynaydi. Bu iqtisodiyotning barqarorligi va o'sishi uchun sharoit yaratishda, bozor tizimi yetarli darajada ishlab chiqarmaydigan yoki umuman yetkazib bermaydigan ayrim tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, daromadlar taqsimlanishini o'zgartirishda va shu kabilarda namoyon bo'ladi;

ikkinchidan, sof kapitalizmdan farqli o'laroq, AQSH iqtisodiyotida yirik korporatsiyalar va kuchli kasaba uyushmalari shaklidagi qudratli iqtisodiy tashkilotlar mavjud.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozimki, xususiy mulkchilik va bozor tizimiga suyanish, ijtimoiy mulkchilik va markazdan rejalashtirish har doim ham bir vaqtda mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, sobiq millatchi Germaniya iqtisodiyoti avtoritar kapitalizm deb atalgan, chunki mulkchilik xususiy bo'lib qolsada, mamlakat iqtisodi-yoti qattiq nazorat ostiga olingan va markazdan boshqarilgan. Buning teskarisi, bozor sotsializmi deb atalgan sobiq sotsialistik Yugoslaviya iqtisodiyotida resurslarga ijtimoiy mulkchilik xos bo'lgan va bir vaqtda iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va boshqarishda erkin bozor asosida olib borilgan. Shvetsiya iqtisodiyotida ham 90% dan ortiq xo'jalik faoliyati xususiy firmalarda to'plangan bo'lsada, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va daromadlarni qayta taqsimlashda faol qatnashadi. Hozirgi vaqtda Xitoy Xalq Respublikasida davlatning markazlashgan holda iqtisodiyotga aralashuvi va rejalashtirish tizimi saqlanib qolgan holda bozor mexanizmlari muvaffaqiyat bilan qo'llanilib, barqaror va tez sur'atlar bilan iqtisodiy o'sishga erishmoqda.

3.3. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk obyektlari va subyektlari

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat taraqqiyotining

mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi. Shunday ekan, **mulkchilik munosabatlari – bu mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish va o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.**

Mulkka **egalik qilish** mulkning egasi qo'lida saqlanib turishini bildiradi va Yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi. Ayrim hollarda mulkka egalik qilish uning egasi ixtiyorida saqlangan holda, undan amalda foydalanish esa boshqalar qo'lida bo'ladi. Bunga ijaraga berilgan mol-mulkni misol qilib keltirish mumkin. Mulkdan **foydalanish** – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishidir. Mol-mulkni **o'zlashtirish** yuz berganda u daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishini bildiradi. Mulkni **tasarruf etish** – bu mol-mulk taqdirining mustaqil hal qilinishidir. U mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi holatlarni erkin tanlash imkoniyati orqali namoyon bo'ladi.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmunini uning ajralmas jihatlari (egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf etish) belgilab bersada, bu munosabatlar tavsifi nafaqat alohida mulk shakllarida, balki bitta mulk shakli doirasida ham farqlanishi mumkin. Mulkchilik jamiyatdagi ham huquqiy, ham iqtisodiy munosabatlar mazmunini o'zida ifodalaydi. Mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy mazmuni o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi, shu sababli mulkchilik bir vaqtda ham iqtisodiy, ham huquqiy kategoriya hisoblanadi. Bu birlikda, yuqorida ko'rsatilganidek, hal qiluvchi rolni mulkchilikning iqtisodiy tomoni egallaydi. Mulkchilik xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllari orqali iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqariladi. Agar mulk iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarilmasa, ya'ni o'zlashtirilmasa, ishlab chiqarishda foydalanilmasa yoki mulk egasiga daromad keltirmasa, bunda u «huquqiy» kategoriya sifatida qoladi. Boshqa tomondan, mulkchilikning huquqiy jihati uning iqtisodiy tomoniga nisbatan faqat bo'ysunuvchi rol o'ynamaydi. Bu shunda ko'rinadiki, ishlab chiqarish vositalariga ma'lum huquqiy

egalik qilmasdan, hech kim ishlab chiqarish jarayonini amalga oshira olmaydi, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarilgan mahsulotdan foydalana olmaydi. Shu sababli mulkchilikning huquqiy me'yorlari (egalik qilish, tasarruf qilish, foydalanish huquqi) iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi.

Huquqiy me'yorlar, bir tomondan, aynan mulkchilik munosabatlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog'liq holda vujudga kelsa, boshqa tomondan, ular tovar ishlab chiqarish sharoitida mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishda g'oyat muhim rol o'ynaydi. Bu rol shunda ko'rinadiki, tovar xo'jaligi sharoitida ayrim ijtimoiy qatlamlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashmasdan, ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etib (masalan, savdo vositachilari) mulkdorga aylanish imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, mulkchilikning huquqiy me'yorlari, birinchidan, ishlab chiqarish vositalari va Yaratilgan moddiy ne'matlarning muayyan shaxslarga (huquqiy yoki jismoniy) tegishli ekanligini, ikkinchidan, mulk egalarining qonun bilan qo'riqlanadigan vakolatlarini va nihoyat, uchinchidan, mol-mulkni himoya qilish usullarini belgilab beradi.

Mulkchilik munosabatlari uning obyektlari va subyektlari bo'lishini shart qilib qo'yadi. **Mulkka aylangan barcha boylik turlari mulkchilik obyektlaridir.** Mulk obyekti bo'lib, inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilish qobiliyati – ishchi kuchi va boshqalar hisoblanadi. Mulk obyektida asosiy bo'g'in – bu ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish hisoblanadi. Ishlab chiqarish vositalari kimniki bo'lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot ham unga tegishli bo'ladi.

Real hayotda ishlab chiqarish vositalarining umumlashish darajasi turli xil, ya'ni ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi turli darajada va turli shakllarda amalga oshiriladi. Shunga mos ravishda mulk subyektlari vujudga keladi. **Mulk subyekti jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo'lgan, mulk obyektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo'lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga birlashgan bo'ladi.** Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik subyekti sifatida maydonga chiqishi mumkin.

Mulk obyektlari va subyektlari yordamida mulkchilik munosabatlari va huquqlarini yanada yaqqolroq tushunish mumkin. **Mulkchilik munosabatlari – bu mulk obyektini o'zlashtirish bo'yicha mulk subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir.** Bu qoidani quyidagi tasvir orqali ifodalash mumkin:



Mulkchilik huquqlari esa mulk subyektining mulk obyektiga nisbatan munosabatidir, ya'ni undan foydalanish va nazorat qilish yuzasidan kelib chiquvchi huquqlar majmuidir:



Mulk subyektlari ko'p darajali bo'lib, shu subyektlardan birontasi o'zini mulk egasi sifatida yuzaga chiqara olmasa, unda mulkchilik munosabatlari rasmiy va yuzaki tus oladi.

3.4. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida mulkchilik munosabatlari o'z ichiga davlat mulkini, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va matbubot sohalaridagi jamoa mulkining xilma-xil turlarini, ijtimoiy tashkilotlar mulkini, uy xo'jaligi va shaxsiy tomorqa xo'jaligi hamda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlarning shaxsiy mulkini, tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllarini va xususiy mulklarni oladi. Shu sababli «O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risida»gi qonunida turli-tuman mulklar quyidagi mulk shakllariga kiritiladi: davlat mulki, jamoa mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, aralash mulk (3.2-rasm).



3.2-rasm. Mulkchilik shakllarining tasniflanishi

Mulkchilik turli shakllarining mavjud bo'lishi va ularning iqtisodiy mezoni, avvalo, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasi bilan bog'liq. Shu bilan birga mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarning holati, ijtimoiy mehnat taqsimoti va tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarining yetuklik darajasi bilan mos kelishi zarur.

Davlat mulki – egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo'lgan mulk obyektlaridan iborat. Davlat mulki asosan ikki yo'l bilan hosil bo'ladi:

1) xususiy mol-mulkning milliylashtirilib, davlat ixtiyoriga o'tkazilishi;

2) davlat mablag'lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxona va tashkilotlarda investitsiyalarni amalga oshirish.

Davlat mulki haqiqatda ham xalqqa qarashli bo'lgan, bo'linmaydigan yoki umumiy resurslardan foydalanish uchun juda mosdir. Bunga misol qilib takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo'llar kabi iqtisodiy tuzilmaning kattagina qismini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda Fuqarolik Kodeksiga muvofiq davlat mulki Respublika mulkidan va ma'muriy-hududiy (munitsipal) tuzilmalar mulkidan iborat bo'ladi. yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hokimiyati va boshqaruvi tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag'lari, oltin zaxirasi, valyuta fondi va boshqa davlat fondlari respublika mulki hisoblanadi.

Ma'muriy-hududiy (munitsipal) tuzilmalar mulkida davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jaligi korxonalari va boshqa mulkiy majmualar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari kabilar mol-mulki bo'ladi.

Jamoa mulki – muayyan maqsad yo'lida o'zlarida bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirib jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarni hamjihatlik bilan o'zlashtirishni bildiradi. Jamoa mulki davlat mulkini korxona jamoasi sotib olishi, badal to'lab korxona qurishi, aksiya chiqarib, ularni sotish kabi yo'llar orqali paydo bo'ldi. Jamoa mulkining muhim xususiyati shundaki, ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsuliga ayrim shaxslar emas, balki ma'lum guruh, kishilar egalik qiladi. Jamoa mulkiga kooperativlarning, ijara va jamoa korxonalarining, aksiyadorlar jamiyatlari, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, jamoa tashkilotlari va diniy tashkilotlarning mulki kiradi.

Shaxsiy mulk – bu fuqarolar mulki bo'lib, ularning oilaviy faoliyat yuritishida shaxsiy yoki oilaviy mehnatga asoslanib, o'z ehtiyojini qondirishiga xizmat qiladi. Bu mulk shakli asosan shaxsning yoki uning oila a'zolarining mehnati va undan kelgan daromadlari asosida ko'payadi va rivoj topadi.

Fuqaroning shaxsiy mulki asosan, ularning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirokidan, o'z xo'jaligini yuritishdan tushgan mehnat da-

romadlari hisobiga vujudga keladi va ko'payadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy mulk aksiyadan olinadigan dividend, bank foizlari, xususiy sohibkorlik daromadi kabi yangi manbalarga ham asoslanadi. Shaxsiy mulk obyektlari – bu turar joylar, bog'-hovli va uylar, transport vositalari, pul jamg'armalari, uy-ro'zg'or va shaxsiy iste'mol buyumlari, yakka tartibda va boshqa xo'jalik faoliyati uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari, ularda hosil qilingan mahsulot va boshqalar bo'lishi mumkin. «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilganidek, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat sohasidagi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kichik korxonalar fuqaro va uning oila a'zolarining mulki bo'lishi mumkin. Shaxsiy mulk obyektlari ehtiyojlarini qondirish doirasidan chiqib, daromad topish yo'lida ishlatilishi mumkin.

Xususiy mulk – bir shaxsga jumladan, tadbirkorga qarashli bo'lib, yollanma mehnatga asoslangan holda daromad olishga qaratilgan mulkdir. Bu yerda mulk egasi bilan tadbirkorni bir xil qarash kerak emas. Mulk egasi o'z mulkini o'zi yuritishi ham mumkin, uni tadbirkorga ijaraga berishi ham mumkin. Agar mulk egasi o'z mulkini o'zi yuritsa, u bir vaqtning o'zida ham mulk egasi ham tadbirkor sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risidagi qonunida (7-modda) xususiy mulk o'z mol-mulkiga xususiy egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir, deb ko'rsatilgan. Shu bilan birga xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmasligi ta'kidlanadi. Xususiy mulk ham boshqa har qanday mulk shakllari kabi o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. U so'zsiz, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni, mehnatga mas'uliyatlilik munosabatlarini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, tovar ishlab chiqarish sharoitida u xufyona daromad orttirishga intilish hissini tug'diradi. Mulkchilikning bu shaklini tan olish iqtisodiyotda uni qo'llash foydali bo'lgan bo'g'inlarni aniqlash, uni tartibga solishning moliyaviy va huquqiy mexanizmlarini shakllantirishni taqozo qiladi. Lekin xususiy mulkchilikni bunday tan olish uni mutlaqlashtirish bilan umuman bog'liq emas. Bu mulk sotib olingan ishlab chiqarish vositalari asosida mustaqil xo'jalik yuritish yoki davlat

korxonalari, kooperativ firmalar, magazin, oshxona va shu kabilarni sotib olish orqali vujudga kelishi, ko'payishi mumkin.

Turli shakldagi mulklarning aralashib, birikib ketishi natijasida aralash mulk paydo bo'ladi. Bu mulk alohida olingan obyektning turli mulkdorlar ishtirokida o'zlashtirilishini bildiradi.

Shuningdek, mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida nodavlat sektorining ulushi ham sezilarli darajada oshib bormoqda (3.1-jadval).

3.1-jadval.

Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi[9]

Ko'rsatkichlar	2013		2014		2015	
	mingta	%	mingta	%	mingta	%
Ro'yxatdan o'tgan	**266,4**	**100**	**273,6**	**100**	**278,5**	**100**
Davlat	39,5	14,8	39,4	14,4	39,0	14,0
Nodavlat	226,9	85,2	234,2	85,6	239,5	86,0
Faoliyat ko'rsatayotgan - jami	**241,2**	**100**	**246,7**	**100**	**257,8**	**100**
Davlat	39,2	16,3	39,0	15,8	38,7	15,0
Nodavlat	202,0	83,7	207,7	84,2	219,1	84,0

Jadvaldan ko'rinadiki, 2013-yilda ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning mulkchilik shakllari bo'yicha 14,8 foizi davlat mulkiga asoslangan korxonalardan iborat bo'lsa, 85,2 foizi nodavlat mulkiga asoslanadi, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning esa 16,3 foizi davlat mulkiga asoslansa, 83,7 foizi nodavlat mulkiga asoslangan holda faoliyat yuritmoqda. 2015-yilda esa mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish hisobiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 15 foizi davlat mulki asosida, 84 foizi esa nodavlat mulki asosida ishlamoqda.

[9] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

3.5. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish maqsadi, yo‘llari va usullari

Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy sharti ko‘p ukladli iqtisodiyotni va raqobat muhitini shakllantirish uchun shart-sharoitni vujudga keltirishdan iborat. Bunda asosiysi mulkchilik masalasini hal qilishdir. Uzoq yillar mobaynida Sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan davlatlar qatori bizning respublikamiz iqtisodiyotida ham umumxalq mulki deb atalgan, aslida esa davlatlashtirilgan mulk to‘liq hukmronlik qilib keldi. Nazariya va amaliyotda umumxalq mulki deb hisoblangan mulk subyekti sifatida davlatning chiqishi jamiyat a’zolari o‘rtasida bu mulkka «hech kimniki», «davlatniki», «birovning mulki» deb qarashlarning shakllanishiga olib keldi. Bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish vazifasi o‘tish davrida mulkchilikda davlat sektorining salmog‘i ancha yuqori bo‘lgan mamlakatlarda bu mulkning ma’lum qismini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni taqozo qiladi. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda ham mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayon sifatida qaralib, O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi Qonunida (1991-yil 19-noyabr) quyidagicha ta’rif beriladi:

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalari va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, aksiyador jamiyatlarga, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish – fuqarolarning va davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir[10].

Bundan ko‘rinadiki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishga qaraganda ancha keng tushuncha. **Xususiylashtirish** - davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o‘tishidir. **Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish** xususiylashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vu-

[10] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasi: qonunlar va farmonlar. – T.: O‘zbekiston, 1992, 65-b.

judga keltirishni ham ko‘zda tutadi. U bir qator yo‘llar bilan amalga oshiriladi: davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish, davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish; mulkni qiymatga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) bo‘yicha fuqarolarga bepul berish; mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish; ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish; davlat mol-mulkini auksionlarda kim oshdi savdosi orqali sotish va h.k.

Xususiylashtirishning usullari ham turli-tuman bo‘lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin: 1) davlat mulkini bepul bo‘lib berish orqali xususiylashtirish; 2) davlat mulkini sotish orqali xususiylashtirish; 3) davlat mulkini bepul bo‘lib berish hamda sotishni uyg‘unlashtirish orqali xususiylashtirish (3.3-rasm).

3.3-rasm. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning dastlabki pallasidayoq mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitutsion tarzda e’tirof etildi va davlat mulki monopolizmini tugatish hamda bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirish vazifasi qo‘yildi. Avvalo mulkchilikning turli xil shakllari qaror topishi uchun teng huquqiy me’yorlar va amal qilish mexanizmlari yaratildi. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga yondashuvning muhim xususiyati – uni maxsus dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. 1992–1993-yillar xususiylashtirishning ***birinchi bosqichini*** o‘z ichiga olib, bu bosqichda xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish kvorxonalarini hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini qamrab oldi (3.4-rasm).



3.4-rasm. O‘zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari

Yengil, mahalliy sanoatga, transport va qurilishga, boshqa tarmoqlarga qarashli ayrim o‘rta va yirik korxonalar keyinchalik sotib olinish huquqi bilan ko‘proq ijara korxonalariga, jamoa korxonalariga,

yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Aksiyalarning nazorat paketi davlat ixtiyorida saqlab qolindi. Xususiylashtirishning birinchi bosqichida davlat iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan, biroq butun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan ayrim sektorlarni, ayrim korxonalarni saqlab turishni va mablag' bilan ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oldi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichi natijasida kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun kerak bo'lgan muassasalar tizimi vujudga keltirildi. Savdo, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, mahalliy sanoat korxonalari xususiy va jamoa mulki qilib berildi.

Davlat ijtimoiy dasturida belgilab berilgan ***ikkinchi bosqich*** 1994–1995-yillarga to'g'ri keldi. Bu bosqichda ko'plab o'rta va yirik kor-xonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi hamda ularning aksiyalari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etdi. Davlat mulki aksiyadorlikka aylantirilishi bilan bir qatorda kichik xususiy biznes korxonalarini tashkil qilish jadallashtirildi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bu bosqichida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini vujudga keltirish, davlat mulkini tanlov asosida hamda kim oshdi savdosida sotish amaliyotga joriy qilindi. Ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlar bozorining yangi muassasalari barpo etildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan keladigan samara ikki yoqlama tavsifga ega. Bir tomondan, u aholining bo'sh turgan mablag'larini o'ziga jalb qilib, ularning bozorga tazyiqini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, yangi mablag'larni ishlab chiqarishga jalb etish va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni yuzaga keltirish uchun sharoit yaratadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, xususiylashtirish iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorini shakllantirishning yagona yo'li emas. Tashabbuskorlik asosida yakka tartibdagi xususiy mulkchilikka asoslangan, shuningdek, turli xil kooperativlar, shirkatlar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi kichik va o'rta korxonalarni tashkil qilish – ikkinchi qudratli jarayon hisoblanadi.

Respublika iqtisodiyoti 1996-yildan boshlab mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ***uchinchi bosqichiga*** kirdi. Bu bosqich davrida (1996–1998-yillar) xususiylashtirilmaydigan obyektlar ro'yxatiga kirmagan barcha obyekt va korxonalar (jami 3146 ta) davlat tasarrufidan chiqarildi. Natijada 1997-yilda savdo-sotiq hajmi va umumiy ovqatlanish mahsulotlarining 95 foizdan ortiqrog'i davlatga qarashli bo'lmagan sektorga to'g'ri keldi. Uy joylarni xususiylashtirish jarayonida ilgari davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i fuqarolarning shaxsiy mulki bo'lib qoldi.

Xususiylashtirish jarayonlarining ***to'rtinchi bosqichi*** (1998–2003-yillar)ning asosiy vazifalari sifatida davlat byudjetiga xususiylashtirishdan tushgan mablag'larni yo'naltirish, xususiylashtirilgan korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, boshqaruv samaradorligini oshirish va mulkchilikning yangi munosabatlarini to'laqonli amal qilishi uchun sharoitlar yaratish tadbirlarini amalga oshirish belgilandi. Mamlakatimizdagi davlat korxonalarini xususiylashtirishning 1995–2003-yillardagi asosiy natijalarini 3.2-jadval orqali kuzatish mumkin.

3.2-jadval

O'zbekistonda 1995–2003-yillarda davlat korxonalarini xususiylashtirishning asosiy ko'rsatkichlari[11]

Ko'rsatkichlar	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Xususiylashtirilgan korxonalar soni, birlik	451	448	374	1449	1912	1519
Xususiylashtirish natijasida tashkil etilgan nodavlat mulkidagi korxonalar soni	266	373	372	1238	1800	1452
Aksiyadorlik jamiyatlari	110	141	152	227	223	75
Xususiy korxonalar	103	156	103	827	1252	981
Boshqa shakldagi korxonalar	53	76	117	184	325	396
Xususiylashtirishdan tushgan mablag', mlrd. so'm	8,9	9,1	14,3	23,2	43,6	56,1

[11] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Jadvaldan ko‘rinadiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida 17836 ta davlat obyekti xususiylashtirilib, ular asosida 16852 ta nodavlat mulkidagi korxonalar tashkil etilgan. Jumladan, ushbu korxonalarning 3667 tasi (21,8%) aksiyadorlik jamiyatlari, 10138 tasi (60,2%) xususiy korxonalar, 3047 tasi (18,1%) boshqa shakldagi korxonalardan iborat. Bu davrda xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar hajmi 167,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

O‘zbekistonda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining hozirgi – ***beshinchi bosqichi*** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-yanvardagi «O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni bilan bog‘liq. Mazkur Farmon asosida iqtisodiy nochor korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish, shuningdek, mazkur korxonalarni modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish maqsadida xususiylashtirilgan obyektlarga narx belgilashning samarali mexanizmi joriy etildi. Xususan, xususiylashtirilgan korxonalar davlat aktivlarining boshlang‘ich narxlarini sekin-asta pasaytirib borish hamda davlat, iqtisodiy nochor korxonalarni va past likvidli obyektlarni nol darajadagi xarid qiymati bo‘yicha tanlov asosida investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan investorlarga sotish tartiblari tasdiqlandi[12].

Mamlakatimizda hozirda ham xususiylashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich davom ettirilmoqda. Ma’lumotlardan ma’lum bo‘lishicha, 2004–2015-yillar davomida 5531 ta davlat obyekti xususiylashtirilib, buning natijasida tushgan mablag‘larning jami hajmi 836,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan (3.3-jadval).

---

[12] Валижонов А.Р. Особенности современного этапа разгосударствления и приватизации. – Восемнадцатые Международные Плехановские чтения «Реформирование и модернизация национальной экономики – стратегический курс на демократизацию и обновление общества»: Тезисы докладов профессорско-преподавательского состава и специалистов-практиков (26 марта 2005г). Выездная сессия в г.Ташкенте. – М.: изд-во РЭА, 2005, с.22–23.

3.3-jadval

O‘zbekistonda 2004–2015-yillarda davlat obyektlarining xususiylashtirilishi[13]

Yillar	Xususiylashtirilgan obyektlar soni	Xususiylashtirishdan tushgan pul mablag‘lari, mlrd. so‘m
2004	1228	78,5
2005	980	80,5
2006	673	70,5
2007	631	111,1
2008	392	130,6
2009	135	35,7
2010	96	23,0
2011	95	39,2
2012	83	32,1
2013	82	44,1
2014	288	88,0
2015	848	103,2

Respublikada xususiylashtirishning manzilli yo‘naltirilganligi uning navbatdagi xususiyatidir. Bu aholining barcha qatlamlariga mazkur jarayonda aniqroq va natijaliroq qatnashishi imkonini beradi. Xususiylashtirishning manzilli yo‘naltirilganligi uy-joylarning o‘z egalariga imtiyozli yoki bepul berilishida, aholining ko‘proq muhtoj va zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning turli xil dasturlari byudjet mablag‘lari hisobiga qoplanishida, qishloq aholisi o‘z yordamchi xo‘jaligi uchun chek yerlar olishi kabilarda ifodalanadi.

O‘zbekistonda xususiylashtirishning to‘lovliligi uning navbatdagi muhim xususiyatidir. Pulni to‘lash orqali davlat tasarrufidagi korxona va obyektlarni xususiylashtirishda mulkni bepul taqsimlash bilan bog‘liq salbiy holatlar bartaraf etilishi bilan birga qator muammolarni

[13] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

hal qilish imkoniyati yaratiladi. Bulardan asosiysi avvalo tadbirkorlikni, xususiylashtirilgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning moliyaviy manbalari paydo bo'ladi, bozor infratuzilmasini barpo etish uchun resurslar vujudga keladi va aholini ijtimoiy muhofazalash dasturini ro'yobga chiqarish uchun mablag'lar jamlanadi. Davlat mol-mulkini yangi mulkdorlarga sotish yo'li orqali ularni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirilishi bilan birga xususiylashtirishdan olinadigan mablag'lar shu korxonaning o'zini qo'llab-quvvatlashga, yangi raqobatlashuvchi korxonalar barpo etishga ham sarflanadi.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida xususiy mulk va uning asosida rivojlanayotgan xususiy tadbirkorlikka keng e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "jiddiy va kundalik e'tiborini talab qiladigan yana bir muhim yo'nalish bor. Bu – xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlashdir."[14].

Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatish sohasi singari tarmoqlar, uy-joy fondi to'liq xususiy mulk egalari tasarrufiga o'tkazildi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan, oziq-ovqat, tikuvchilik mahsulotlari, to'qimachilik, charm-poyabzal, mebel va farmatsevtika sanoati tarmoqlarida davlatning ulushi anchaga kamaytirildi.

Respublikamizda xususiylashtirish bo'yicha qo'yilgan vazifa – davlat sektori bozor iqtisodiyoti sharoitida ham sezilarli rol o'ynashini inkor qilmaydi. Chunki iqtisodiyotning davlat korxonalari ma'lum darajada saqlanib qolishi kerak bo'lgan sohalar ham mavjud. Bunday korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga moslashuviga imkon beradigan xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqish talab qilinadi.

Mamlakatimizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, ulardan samarali foydalanish, umuman iqtisodiyotni isloh

---

[14] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" // Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2017-yil 16-yanvar.

qilish bo'yicha 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilinganligi va joriy etilganligini, ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining kafolati bo'lib xizmat qilishini ta'kidlamoq zarur.

Bu borada 2015-yilda "davlat aktivlarini xususiylashtirish, avvalo, chet ellik investorlarga sotish vazifalari qo'yildi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Masalan, 506 ta mulk kompleksi tanlov asosida, investitsiya kiritish sharti bilan «nol» qiymatida yangi mulkdorlarga sotildi. Bu borada ana shu investorlar qariyb 1 trillion so'm va 40 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish, shuningdek, 22 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish majburiyatini olganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, 245 ta kam rentabelli va faoliyat ko'rsatmayotgan tashkilot to'liq tugatildi.

Xususiylashtirish dasturida ko'zda tutilgan, foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan 353 ta davlat mulki obyekti buzilib, buning natijasida 120 gektar hajmidagi yer maydoni bo'shadi. Bu yerlarning qariyb 80 gektari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish obyektlari qurish uchun tadbirkorlar tasarrufiga berildi.

Davlat mulki shaklidagi yana 319 ta ana shunday obyekt inventarizatsiya qilinib, xususiy mulk shakliga o'tkazish uchun savdoga qo'yildi va o'tgan yili ularning 102 tasi yangi mulkdorlarga sotildi. Bundan tashqari, 378 ta aksiyadorlik jamiyatining davlat ulushi baholandi va chet ellik strategik investorlarga sotish uchun ochiq savdoga qo'yildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, izchil rivojlanayotgan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan «Navoiyazot», «Farg'onaazot», «Urganch ekskavator», «Qizilqumsement», «Jizzax akkumulyator zavodi» aksiyadorlik jamiyatlari kabi korxonalar, «Aloqabank», «Turonbank» singari banklar, «O'zagrosug'urta» kompaniyasi va boshqa muassasalardagi davlatga tegishli aksiyalar ham savdoga qo'yildi.

Shu tariqa 52 ta aksiyadorlik jamiyatidagi savdoga qo'yilgan davlat ulushi xususiy mulkdorlarga sotildi. Jumladan, «Qo'qon yog'-

moy zavodi» aksiyadorlik jamiyatining davlatga tegishli aksiyalari 2 million 500 ming dollarga sotildi".[15]

Bu ishlarni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad qarovsiz holda bo'lgan bino va inshootlar negizida zamonaviy, raqobatbardosh mahsulotlarni tayyorlovchi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etib, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishdir. Bu esa, o'z navbatida, bozorlarimizni xaridorgir va import o'rnini bosuvchi ko'plab yangi turdagi tovar hamda mahsulotlar bilan boyitish, eng muhimi, aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini bundanda yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida xususiy mulkni va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ularni himoya qilishning muhim yangi bosqichi bo'ldi. Bu farmon asosida Mamlakatimizda bir qator ishlarning bajarilishi muhim vazifa sifatida qo'yildi. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida bu sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifalardan biri, deb belgilanmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi "Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomyillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat mulki obyektlarini sotish tartib-tamoyillarini yanada soddalashtirish va bu jarayonni jadallashtirish, ularni xususiylashtirishda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, xususiy mulk qilib sotilgan obyektlarda raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishga qaratilgan.

---

[15] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Xususiy mulkka berilgan bunday katta e'tibor iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlarining jadal va keng rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining ko'payishiga imkon yaratadi.

Bugun hech kimga sir emaski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik faoliyatining amaliyoti xususiy mulkning davlat mulkiga nisbatan har tomonlama samaradorligini ko'rsatmoqda.

Xususiy korxonalarda sidqidildan mehnat qilishga undaydigan omillar va shaxsiy manfaatdorlik darajasi va eng asosiysi, o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijasi uchun mas'uliyat hissi butunlay yuqori ekanligi hammaga ma'lum. Bu fikr 2017–2021-yillarga belgilangan harakatlar strategiyasida yanada aniqlashtirildi va rivojlantirildi.

Xulosalar

1. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bir xilda va tekis kechmay, uni turli bosqichlarga ajratish mumkin. Mazkur bosqichlarni bilishda tarixiy-formatsion, madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik taraqqiyot darajasi, iqtisodiy tizimlarning o'zgarishi kabi jihatlar bo'yicha yondashuvlar mavjud.

2. Iqtisodiy tizim har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar – iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar majmuasini o'z ichiga oladi. Iqtisodiyot nazariyasida ko'pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog'lab, shu asosda dunyodagi mamlakatlar iqtisodiyoti an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlariga ajratiladi.

Mulkchilik munosabatlari – shaxsiy, jamoa va davlat manfaatlarini o'zida ifoda etib, ishlab chiqarish omillari va natijalaridan foydalanish borasida kishilar, jamoalar, tarmoqlar, hududlar va davlat o'rtasidagi munosabatlar majmuasidir.

4. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni moddiy va ma'naviy ne'matlarni o'zlashtirish borasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Agar mulkchilikning iqtisodiy mazmuni u

yoki bu obyektni o'zlashtirish va foydalanish borasida subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni bildirsa, mulkchilikning huquqiy mazmuni subyektning obyektga nisbatan bo'lgan munosabatini aks ettiradi.

5. Mulkni davlat tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish – korxonalar ustav fondida davlat ulushining qisqarishi, ularning investitsion jozibadorligini oshirish va xorijiy investorlarni xususiylashtirish jarayoniga jalb etishni kengaytirishga qaratilgan kompleks dasturdan iborat jarayondir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarish usuli – ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi hamda o'zaro ta'siri.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan unsurlar tizimi (ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari).

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar – hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi majmui.

Ishlab chiqarishning texnologik usuli – mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish majmui.

Oddiy kooperatsiya – bir xil ishni yoki xizmat vazifasini bajaruvchi xodimlarning eng oddiy shaklidagi uyushmasi.

Manufaktura – mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo'lmagan sharoitdagi kooperatsiya.

Yirik mashinalashgan ishlab chiqarish – mehnat taqsimoti hamda mashinali mehnatga asoslangan kooperatsiya.

Iqtisodiy tizim – mavjud iqtisodiy munosabatlar majmuasining iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikdagi tizimi.

Mulkchilik munosabatlari – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Mulkdan foydalanish – mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning nafli jihatlarining bevosita iste'mol qilinishi.

Mulkni tasarruf etish – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.

Mulkka egalik qilish – mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishi va Yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning iqtisodiy shakli.

Mulk obyektlari – mulkka aylangan barcha boylik turlari.

Mulk subyektlari – mulk obyektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari.

Xususiylashtirish – mulkka egalik qilish huquqining davlatdan xususiy va boshqa shaxslarga o'tishi.

Davlat tassarrufidan chiqarish – mulkni davlat hisobidan chiqarilib, boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Taraqqiyot bosqichlarini bilishda qanday yondashuvlar mavjud?
2. Ishlab chiqarish usuli nima va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
3. Ishlab chiqarish usullarining eng muhim o'ziga xos belgilarini ajratib ko'rsating. Bir ishlab chiqarish usulining boshqasiga almashinishi sabablari haqida mulohaza bildiring.
4. Ishlab chiqarish texnologik usulining tarkibiy qismlarini sanab ko'rsating. Fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish texnologik usuliga ta'siri qanday?
5. Ishlab chiqarish texnologik usullarining bosqichlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?
6. Iqtisodiy tizim nusxalarini farqlantiradigan asosiy belgilarini sanab ko'rsating.
7. Mulkchilikning mohiyatiga ta'rif bering va uning turli shakllarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy mazmunini ajratib ko'rsating.

8. Mulk subyektlarining ko'p darajali bo'lishiga sabab nima? Mulkchilik shakllarining farqlanishi asosida nima yotadi?

9. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nima uchun mulkchilikning turli shakllarini taqozo qiladi? Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish nima uchun hozirgi bosqichda obyektiv zaruriyat hisoblanadi? Xususiylashtirish bosqichlari va shakllariga tavsif bering.

10. Xususiylashtirishning qanday usullarini bilasiz? Bu usullardan birini tanlab olishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

4-BOB. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI BOZOR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHI VA AMAL QILISHINING ASOSIDIR

Oldingi boblarda ishlab chiqarishning umumiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hamma bosqichlariga xos bo'lgan qonun-qoidalari va tushunchalarini, ijtimoiy tizimlar va mulk shakllarining o'zgarib turishini ko'rib chiqdik. Lekin ayrim iqtisodiy jarayonlar tarixiy tavsifga ega bo'lsada, uzoq davrlar davomida saqlanib qolishi mumkin. Jumladan, insoniyat tarixiy taraqqiyotining ko'pgina bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ayrim turlari uzoq vaqt mavjud bo'ladi. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzimi yemirilayotgan sharoitdayoq vujudga kelgan tovar ayirboshlash bir ishlab chiqarish usulidan boshqasiga o'tib, bir necha ming yillardan beri amal qilib, rivojlanib kelmoqda. Shu bilan birga biron-bir ijtimoiy-iqtisodiy hodisa yoki jarayonlarning turli tarixiy davr sharoitidagi mazmuni, o'rni, roli va ijtimoiy oqibatlari ko'p jihatdan turlicha bo'ladi. Lekin ularning umumiy, eng xususiyatli belgilari saqlanib qoladi. Ana shunday tarixiy iqtisodiy jarayonlardan biri tovar-pul munosabatlari bo'lib, hozirgi davrda uning o'rni va roli yanada oshib dolzarblik kasb etmoqda. Shu sababli ushbu bobda ijtimoiy xo'jalik, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishning natural va tovar shakllari tahlili, ularning biridan ikkinchisiga o'tish sabablari, tovar va uning xususiyatlari, tovar qiymatining miqdori, uni aniqlashga bo'lgan turli yondashuvlar, pulning vujudga kelishi, mohiyati va vazifalari, O'zbekiston milliy valyutasining muomalaga kiritilishi va uning barqarorligini ta'minlash dasturiy harakatlari yoritiladi.

4.1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi

Kishilik jamiyatining rivojlanishida ijtimoiy xo'jalikni tashkil etishning ikkita umumiy iqtisodiy shakli ajralib turadi. Umumiy iqtisodiy shakllarning tarixan birinchisi natural ishlab chiqarish hisoblanadi. Ijtimoiy xo'jalikning bu shaklida Yaratilgan mahsulotlar ishlab chiqa-

ruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish uchun, xo'jalik ichki ehtiyojlari uchun mo'ljallangan. Demak, **o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish – natural ishlab chiqarish, bunday ishlab chiqarishga asoslangan xo'jalik esa – natural xo'jalik deb ataladi.** Bunday xo'jaliklarda iste'mol hajmi va tarkibi ko'pincha ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga mos kelgan, ularning bir-biri bilan bog'lanishi bir xo'jalik doirasida amalga oshganligi sababli juda oson kechgan. Bunday munosabatlar eng avvalo ibtidoiy jamoada, keyinchalik patriarxal dehqon xo'jaligi, feodal pomestyalarida hukm surgan. Natural ishlab chiqarish shakli barcha iqtisodiy jarayonlarni bir xo'jalik doirasida qat'iy cheklab qo'yadi, tashqi xo'jaliklararo aloqalar uchun yo'l ochilmaydi. Ishchi kuchi muayyan xo'jalikka juda qattiq biriktirib qo'yiladi va ko'chib yurish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Natural xo'jalik shakllarining xuddi shu xususiyatlari qishloq xo'jalik jamoalarini ming yillar davomida barqaror saqlanib qolishining «siri»ni ochib beradi. Natural xo'jalik ishlab chiqarish maqsadlarini nihoyatda cheklab, hajmi va turi jihatidan kam bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga bo'ysungan. Shuning uchun ham jamiyat rivojlanish yo'lida asta-sekinlik bilan natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tadi.

Hozirda ijtimoiy xo'jalik yuritish shakli sifatida natural xo'jalik deyarli barham topgan. Shunga qaramay, hali u qadar rivojlanmagan hamda jahon hamjamiyati iqtisodiy aloqalaridan ajralib qolgan qoloq mamlakatlarda natural xo'jalik ko'rinishlari hamon saqlanib qolgan. Shuningdek, tovar ishlab chiqarish ommaviy tus olishiga qaramay, ijtimoiy hayotning ba'zi bir jabhalarida natural ishlab chiqarish elementlarini uchratish mumkin. Masalan, oiladagi shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun uy bekalari tomonidan ovqatlar, turli xil konserva mahsulotlarining tayyorlanishi, kir yuvish, dazmollash, uylarni tozalash kabi xizmatlarning bajarilishi, shaxsiy tomorqada turli xil sabzavot va rezavor mevalarning yetishtirilishi kabilar shular jumlasidandir. Biroq, shunga qaramay, kishilik jamiyati taraqqiyotining yuksalib borishi bilan, natural ishlab chiqarish miqyoslari qisqarib, o'z o'rnini tovar ishlab chiqarishga bo'shatib beradi.

Mahsulot va xizmatlarni o'z ehtiyojini qondirish uchun emas, balki bozorda ayirboshlash uchun ishlab chiqarish – tovar ish-

lab chiqarish, bunday ishlab chiqarishga asoslangan xo'jalik esa – tovar xo'jaligi deyiladi. Tovar xo'jaligida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buyum orqali, ular mehnati mahsulini oldi-sotdi qilish orqali namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanishi, mahsulotlar turi va miqdorining o'sishi natijasida paydo bo'ladi. Natural va tovar xo'jaliklarining bir-biridan farqini 4.1-jadval orqali ko'rish mumkin.

4.1-jadval

Natural va tovar xo'jaligining asosiy farqlari

Asosiy jihatlar	Natural xo'jalik	Tovar xo'jaligi
1. Ne'matlar ishlab chiqarishning asosiy maqsadi	Shaxsiy ehtiyojlarni qondirishda foydalanish	Boshqa tovarlarga ayirboshlash, bozorda oldi-sotdi qilish
2. Ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibining aniqlanishi	Ehtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oldindan aniqlanadi	Bozordagi muayyan talab va ishlab chiqaruvchining xususiy manfaati asosida aniqlanadi
3. Iste'molchini o'ziga jalb etish uchun kurash	Bunday kurash mavjud emas	Bunday kurash mavjud va tovar xo'jaligining rivojlanishi bilan kuchayib boradi
4. Ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilinish darajasi	Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'liq iste'mol qilinadi	Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ayrim turlari va qismlari sotilmay qolishi, ya'ni iste'mol qilinmasligi mumkin
5. Ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchining ishtirok etish tamoyillari	Ishlab chiqarish jarayonida faqat o'zining va oila a'zolarining ishchi kuchidan foydalaniladi	Ishlab chiqarish jarayonida ustun ravishda yollanma ishchi kuchidan keng foydalanish mumkin

Tovar ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning, mehnatni o'lchash va uni jamiyat-

ning jami mehnati tarkibiga kiritishning o'ziga xos usulidir. Natural xo'jalikni siqib chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida individual xo'jaliklarning tovar ayirboshlashga, oldi-sotdiga o'tish yo'li bilan boradi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv ularni turli xil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ayirboshlashni zarur qilib qo'yadi. Ayni paytda ixtisoslashuv mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi, demak, tovar ayirboshlash faqat zarurgina emas, balki foydali bo'lib ham boradi. Vaqtni va moddiy resurslarni tejash tovar xo'jaligini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib chiqadi. Ayirboshlash jarayoniga tortiladigan ishlab chiqaruvchilar tobora bir-birlariga ko'proq bog'lanib boradilar. Dastlabki davrlarda tovar xo'jaliklari jamoalar, quldorlik latifundiyalari, feodal va dehqon xo'jaliklari o'rtasida aloqalar o'rnatilishiga yordam berib, ishlab chiqarishning va umuman jamiyatning rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochgan.

Ma'lum tarixiy davrlarga kelib tovar munosabatlari jamiyat iqtisodiyotining barcha tomonlarini keng va chuqur qamrab oladi.

Tovar xo'jaligining vujudga kelishi va amal qilinishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari hamda shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

1) ijtimoiy mehnat taqsimotining ro'y berishi. Bunda ishlab chiqaruvchilar u yoki bu aniq mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashuv, o'z navbatida, qiyosiy ustunlik tamoyili bo'yicha, ya'ni mahsulotni nisbatan kam muqobil qiymatda ishlab chiqarish layoqati bilan aniqlanadi;

2) shaxsiy va xususiy mulkchilikning shakllanishi va rivojlanishi. Bunda ular o'z mulklari hamda mehnat natijalarini o'zlari tasarruf qiladilar;

3) ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi. Iqtisodiy alohidalik xo'jalik faoliyatiga oid barcha qarorlarni ishlab chiqaruvchining o'zi hal qilishini bildiradi. Xuddi shu uch holat tovar ishlab chiqarishni zarur qilib qo'yadi va bozor iqtisodiyoti vujudga kelishining shart-sharoiti hisoblanadi. Mehnat mahsuli tovarga, ya'ni bozorda ayirboshlash uchun, sotish uchun tayyorlanadigan narsaga,

ishlab chiqaruvchilar esa tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanadi. Tovar ishlab chiqarishning mohiyatini yanada kengroq tushunish uchun uning asosiy unsuri bo'lgan tovarning xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi..

4.2. Tovar va uning xususiyatlari

Tovar-pul munosabatlarini tushunishda tovarning mazmunini, uning xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Tovarga ta'rif berishda ham iqtisodchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, E.F.Borisov ta'rifiga ko'ra «Tovar – bu bozorda boshqa tovarga ekvivalent asosida ayirboshlashga mo'ljallangan, mehnat orqali Yaratilgan ijtimoiy naflilikdir»[16]. Bundan ko'rinadiki, u tovarga inson mehnati mahsuli sifatida qaraydi.

V.I.Vidyapin va boshqalar tahriri asosida tayyorlangan darslikda «ne'mat» va «tovar» tushunchalariga keng izoh berilgan. Unda tovar iqtisodiy ne'matning maxsus shakli bo'lib hisoblanishi ko'rsatib berilgan: «Tovar – bu ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan maxsus iqtisodiy ne'mat»[17]. Bu va boshqa qator olimlarning fikrlari asosida ta'kidlash mumkinki, **tovar – bu biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo'lgan, ayirboshlash uchun Yaratilgan mehnat mahsuli.**

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida turli mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan millionlab turdagi mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar tovar shaklini olgan. Jumladan, O'zbekistonda ham ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning asosiy qismi tovar shaklida oldi-sotdi jarayonidan o'tadi. Mamlakatimizda Yaratilgan ko'plab turdagi tovarlardan ba'zilarini misol keltirish mumkin (4.2-jadval).

---

[16] Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с.144.

[17] Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 143 с.

4.2-jadval

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan ba’zi tovar turlari [18]

Tovar mahsulotlari nomlari	2010	2012	2013	2014	2015	2015-yilda 2010-yilga nisbatan, %da
Yengil avtomobillar (ming dona)	217,7	235,5	251,3	250,7	190,5	87,5
Avtobuslar (dona)	1268	1100	1136	1217	754,0	59,5
Traktorlar (ming dona)	2,5	1,8	2,8	2,2	1,4	56,0
Muzlatgichlar va sovutgichlar (dona)	18893	17836	38870	89352	117108	619,8
Meva-sabzavot konservalari (mln. Shartli banka)	124,6	461,3	469,8	533,6	641,1	514,5
Shakar (ming tonna)	286,1	323,10	356,5	425,5	500,4	174,9
O‘simlik yog‘i (ming tonna)	235,6	236,0	251,0	230,0	223,1	94,7
Un (ming tonna)	1217,3	1820,3	1750,8	1979,3	2062,3	169,4
Gilam va gilam mahsulotlari, ming kv.m	655,2	696,7	30845,8	35917,6	32650,8	4983,3

Mamlakatimizda tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning rivojlanayotganligini chakana savdo aylanmasi va pullik xizmat ko‘rsatishning yildan-yilga oshib borishida ham ko‘rish mumkin. 2015-yilda chakana savdo aylanmasi 14,4 foizga, xizmatlar hajmi esa 12,5 foizga, to‘qimachilik buyumlari, kiyim va charm mahsulotlari 11,7 foizga, oziq-ovqat mahsulotlari 10,8 foizga, farmatsevtika mahsulotlari 23,7 foizga, kimyoviy mahsulotlar 29,7 foizga o‘sdi. 2016-yilning o‘zida sanoat mahsulotlarining 80 foizdan ortig‘i yangi turi o‘zlashtirildi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etib turgan sharoitda tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini kuchaytirishni taqozo etadi. Ishlab chiqarishni zamonaviy

[18] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayoni pirovardida tovarlar miqdorining oshishi, sifatining takomillashuvi va turlarining ko'payishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish, ularning sifatini takomillashtirishdan iborat diversifikatsiya jarayoni tovar ishlab chiqarishni kengaytirishning muhim yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, har qanday ishlab chiqarilgan narsa ham tovar bo'lishi uchun unda ikki xususiyat mavjud bo'lishi shart.

Tovar ikki xususiyatga ega: bir tomondan, u kishilarning biror-bir narsaga bo'lgan ehtiyojini qondira oladigan, ikkinchi tomondan esa, boshqa buyumlarga ayirboshlana oladigan, ya'ni oldi-sotdi jarayonidan o'ta oladigan buyumdir. Boshqacha aytganda, tovar naflilikka (iste'mol qiymatiga) va qiymatga egadir.

Buyumning iste'mol qiymati uning kishilar uchun nafli ekanligi, muayyan naf keltirishi orqali namoyon bo'ladi. U shaxsiy iste'mol buyumi yoki ishlab chiqarish vositalari sifatida kishilarning biron-bir narsaga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Naflilikni aniqlashda ham turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, marjinalizm maktabi asoschilari ham, ularning keyingi davomchilari ham tovarlar nafliligini aniqlashda alohida olingan individning xayolidagi psixologik yondashuv bilan, ya'ni hech kim bilan aloqasi bo'lmagan o'rmondagi cholning yoki kimsasiz orolda bir o'zi qolib ketgan Robinzonning xayoli bilan aniqlash usulini qo'llaydilar. Holbuki, tovar ayirboshlash jamiyat a'zolari o'rtasida, gavjum bozor qatnashchilari o'rtasida real qaynoq hayot jarayonida sodir bo'ladi. Ular naflilikning negizida obyektiv iqtisodiy jarayon borligini, naflilik tabiat ashyosi bilan jonli mehnatning birikishi natijasida, to'g'rirog'i naflilik aniq mehnat bilan tabiat ashyosining xususiyatlari o'zgartirilishi natijasida vujudga kelishini o'ylab ham o'tirmaydilar. Albatta, tabiatda mavjud bo'lgan yoki inson mehnati bilan Yaratilgan

har qanday narsa ham naflilikka ega bo'lavermaydi. Shuning uchun iqtisodiyot nazariyasida ijtimoiy zaruriy naflilik degan tushuncha ishlatiladi va real bozor har qanday naflilikni emas, balki ijtimoiy zaruriy naflilikni tan oladi.

Ijtimoiy zaruriy naflilik deb talab miqdori va sifatiga mos keladigan miqdor va sifatdagi naflilikka aytiladi.

Ne'matlar tovar bo'lishi uchun, ular ayirboshlashga mo'ljallangan, ma'lum mehnat sarflangan, bozorga sotishga chiqarilgan bo'lishi zarur. Shunga ko'ra, tovar mahsulotdan farqlanadi. Tovar, eng avvalo, o'z iste'moli uchun emas, balki boshqalarning iste'moli uchun bozorga sotish maqsadida tayyorlanadigan mahsulotdir. Tovarning natural-buyum va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlari, xususiyatlari ana shundan kelib chiqadi.

Tovarning almashuv qiymati – bu biror turdagi naflilikning boshqa turdagi naflilikka ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbatidir. Masalan, bitta bolta 20 kg donga ayirbosh qilinadi. Ayirbosh qilinadigan tovarlarning bu miqdoriy nisbatida ularning almashuv qiymati ifodalanadi.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari[19] fikriga ko'ra, tovarlar qiymatining umumiy asosi bo'lib mehnat hisoblanadi, shu sababli ular ma'lum miqdorlarda bir-biriga tenglashtiriladi. Tovarlarning og'irligi, hajmi, shakli va shu kabi tabiiy xususiyatlaridan birortasi qiymatning umumiy asosi bo'la olmaydi. Ayirboshlashning zarur sharti bo'lib tovarlarning turlicha nafliligi hisoblanadi. Biroq, turli tovarlarning nafliligi sifat jihatidan farq qilish bilan birga miqdoriy o'lchamga ega emas. Miqdor jihatdan taqqoslash uchun tovarlarda mavjud bo'lgan umumiy narsa – ularni yaratish uchun sarflangan mehnatdir.

Tovarlar o'lchovdosh bo'lishining boisi shuki, bularning hammasi umuman inson mehnati mahsulidir, ya'ni inson kuchi, miyasi, mushaklari, asablari va hokazolari sarfining mahsulidir. **Tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnat uning qiymatini tashkil qiladi.** Bu qiymat tovar ayirboshlaganda ko'rinadi, shuning uchun almashuv qiymati (ya'ni iste'mol qiymatlarini ayirboshlash nisbati)

[19] Tovar qiymatini mehnat bilan aniqlashga yondashuvlarida ma'lum farqlar mavjud bo'lsada, ularga A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, J.S.Mill va boshqa ayrim iqtisodchilarni, ularning izdoshlarini kiritish mumkin.

qiymat shakli bo'lib, uning ichki mazmunini tashkil etadi. Bu holat L.M.Kulikov tomonidan qiymat va almashuv qiymatini tovarning alohida asosiy xususiyatlari sifatida ajratilib ko'rsatilishida namoyon bo'ladi. «Qiymat – bu tovar ishlab chiqarish va uni sotish (ko'pincha qisqacha qilib «ishlab chiqarish xarajatlari» deb ataydilar) qanchaga tushganligi ifodasidir. Tovarni ayirboshlaganda (sotilganda) ishlab chiqaruvchi (sotuvchi), tabiiyki, o'z xarajatlarini qoplashni istaydi, biroq bozorda boshqacha nisbatlar tarkib topishi mumkin. Endi ularni boshqa ko'rsatkich – almashuv qiymati ifodalaydi. Bu bir tovar boshqasiga ayirboshlanadigan miqdoriy nisbatdir»[20]. Tovarning o'zi esa ikki tomon – naflilik va qiymatning uzviy birligidan iboratdir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, L.Kulikov tomonidan qiymatga berilgan yuqoridagi ta'rif ba'zi hollarda iqtisodchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan yanglish fikrlardan ham holi emas. Ya'ni, qiymatning ishlab chiqarish xarajatlari bilan ayniylashtirilishini u tomonidan yo'l qo'yilgan xatolik deb hisoblaymiz. Aslida, ishlab chiqarish xarajatlari qiymatning bir qismi bo'lib, aksariyat hollarda miqdor jihatidan qiymatdan kam bo'ladi.

Tovar qiymatining miqdori **ijtimoiy-zaruriy ish vaqti** orqali hisoblanadi. **Ijtimoiy zaruriy ish vaqti muayyan ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyatdagi mehnat malakasi va jadalligi darajasi o'rtacha bo'lgan sharoitda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqtidir.**

Tovar qiymatining miqdorini hisoblashda mehnatning oddiy va murakkab, malakali va malakasiz, aqliy yoki jismoniy turlari hisobga olinadi. Qiymatni hisoblashda nisbatan murakkab mehnat ko'paytirilgan yoki darajaga ko'tarilgan oddiy mehnat sifatida hisobga olinadi, shu sababli oz miqdordagi murakkab mehnat ko'p miqdordagi oddiy mehnatga tenglashtiriladi.

Tovarning ikki xil xususiyatga ega bo'lishiga sabab tovar ishlab chiqaruvchi mehnati tabiatining ikki tomonlamaligidadir. Tovarda gavdalangan mehnat bir tomondan, bu – muayyan turdagi

[20] Tovar qiymatini mehnat bilan aniqlashga yondashuvlarida ma'lum farqlar mavjud bo'lsada, ularga A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, J.S.Mill va boshqa ayrim iqtisodchilarni, ularning izdoshlarini kiritish mumkin.

aniq mehnatdir. Shuning uchun, naflilikni yaratadigan mehnat **aniq mehnat** deb nom olgan (4.1-rasm).



4.1-rasm. Mehnatning ikki yoqlama tavsifidan kelib chiquvchi tovarning ikki xil xususiyati

Aniq mehnat deb – ma'lum maqsadga qaratilib, muayyan bir shaklda sarflanadigan, aniq turdagi iste'mol qiymatni (naflilikni) vujudga keltiradigan mehnatga aytiladi. Masalan, nonvoyning non yopishga, duradgorning stol yoki stul yasashga, chevarning do'ppi tikishga, tikuvchining ko'ylak yoki kostyum tikishga qaratgan mehnat aniq mehnatdir.

Ikkinchi tomondan, ushbu mehnat – aniq shaklidan, turi va yo'nalishidan qat'iy nazar, umuman tovarlarning hamma turida gavdalangan inson mehnatidir, jami ijtimoiy mehnatning bir qismidir. U o'zining shu sifatida **abstrakt mehnat** deb ataladi. Bu mehnat esa tovar qiymatini yaratadi. Qiymat tovarning emas, balki faqat mehnatning ijtimoiy tavsifi bo'lib, unda tabiat ashyolarining birorta ham molekulasi, zarrachasi yo'qdir. Qiymatning asosida odamlar bir-birlari uchun mehnat qilishlarini bildiruvchi ijtimoiy mehnat yotadi. Biroq, alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilar mehnati o'zining ijtimoiy xususiyatini faqat mehnat mahsullarini ayirboshlash orqali ko'rsatadi.

Tovarlar qiymatining miqdori mehnat unumdorligiga qarab o'zgaradi. **Mehnat unumdorligi deb mehnatning vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatiga aytiladi. U ma'lum ish vaqti birligi mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish**

vaqti bilan o'lchanadi. Misol uchun, duradgor bir ish kuni davomida 4 ta stol yasadi. Agar ish kunini 8 soatdan iborat, deb olsak, u holda 1 ta stol yasash uchun 2 soat vaqt sarflangan. Ya'ni, duradgorning 1 soatlik mehnat unumdorligi 0,5 ta stolga teng. Mehnat unumdorligining o'zgarishi tovar birligi qiymatining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Mehnat unumdorligi o'ssa, tovar birligining qiymati kamayadi yoki aksincha, mehnat unumdorligi pasaysa, tovar birligining qiymati oshadi. Misolimizdagi duradgor yasagan bitta stolning qiymati 2 soatlik mehnat sarfiga teng edi. Deylik, uning mehnat unumdorligi ikki baravar ortib, bir ish kunida 8 ta stol yasash darajasiga yetdi. U holda, bitta stolning qiymati ham ikki baravar pasayib, 1 soatlik mehnat sarfiga teng bo'ladi.

Mehnat intensivligi ish vaqti birligi mobaynida sarflangan mehnat miqdori orqali tavsiflanuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. **Mehnat intensivligi deganda ish vaqti birligi davomida mehnat sarfining oshib borishi, ya'ni mehnatning jadallashishi tushuniladi.** Mehnat intensivligining oshishi muayyan vaqt davomida ko'proq qiymat yaratilishiga imkon beradi. Mehnat intensivligi oshganda vaqt birligi ichida Yaratilgan tovar miqdori oshishi mumkin. Lekin qiymat ham oshganligi tufayli uning bir birligiga to'g'ri keladigan qiymat o'zgarmay qolishi mumkin.

4.3. Qiymatning mehnat nazariyasi, naflilik va keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyalari

Tovar qiymatining negizini aniqlash doimiy ravishda tortishuvlar va munozaralarga sabab bo'lib, bu borada quyidagi ikki asosiy yo'nalish mavjud:

1) qiymatning mehnat nazariyasi;

2) qiymatning naflilik yoki keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi.

Qiymatning mehnat nazariyasi asoschilari Uilyam Petti, Adam Smit, David Rikardolar hisoblanadi. U.Petti – qiymatning mehnat nazariyasining dastlabki asoschisi bo'lib, u qiymatning manbai mehnat hisoblanishini, aynan mehnat sarfi tovar qiymati miqdorini belgilab berishini ko'rsatib o'tgan. Biroq, U.Petti tovarning iste'mol qiymati

va qiymati o'rtasidagi farqni ko'ra olmagan. U tovarning qiymati faqat qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishga sarflanuvchi mehnat orqali yaratiladi, deb hisoblagan. A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqotlar» (1776) nomli asarida tovarning iste'mol va almashuv qiymatini farqlab bergan. U tovar qiymatining yagona manbai bo'lib moddiy ishlab chiqarishning har qanday sohasida sarflangan mehnat hisoblanadi, degan xulosaga kelgan. Shu bilan birga, tovar qiymatining miqdorini har qanday mehnat emas, balki jamiyat uchun zarur bo'lgan o'rtacha mehnat belgilab berishini ko'rsatib o'tgan.

D.Rikardo qiymatning yagona mezoni bo'lib tovar ishlab chiqarishga sarflangan hamda ish vaqti sarflari orqali aniqlanuvchi mehnat hisoblanishini isbotlab bergan. U tovarning iste'mol qiymati va qiymati o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatib, har qanday ishlab chiqarishda tovarning qiymati sarflangan mehnat orqali aniqlanishini ta'kidlagan. Demak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlarining fikricha, tovarlarni ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Qiymatning miqdori esa, tovarlarning har bir birligini ishlab chiqarishga ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan, ya'ni ijtimoiy zaruriy ish vaqti bilan o'lchanadi. Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlari tovar ishlab chiqarish sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqalarni, ijtimoiy mehnatni taqsimlash va rag'batlantirishni tartibga soluvchi obyektiv qiymat qonunining mavjudligini e'tirof etadilar. **Qiymat qonuni tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash uning qiymati asosida amalga oshishini, qiymatning o'zi esa ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari orqali o'lchanishini ifodalaydi.**

Qiymat qonuni individual mehnat sarfi ijtimoiy zarur mehnat sarfidan kamroq bo'lgan ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiradi. Bu bilan ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini oshirishga undaydi. Aks holda ular bozordan siqib chiqarilishlari yoki xonavayron bo'lishlari mumkin.

Qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtiradi, mehnat va moddiy sarflarni kamaytirishni rag'batlantiradi va mehnatning ishlab chiqarish sohalari bo'yicha taqsimlanishini tartibga so-

lib turadi. Masalan, eng yuksak mehnat unumdorligiga erishgan ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini ijtimoiy zarur sarflaridan kamroq sarflashga erishib bozor narxlarida sotishlari va yuqori foyda olishlari mumkin. Lekin ular ish faoliyatining muvaffaqiyati kafolatlangan deb bo'lmaydi. Chunki ular ishlab chiqarishga fan-texnika yangiliklarini, samarali ishlab chiqarish usullarini o'z vaqtida qo'llab turmasalar, ma'lum vaqtdan so'ng o'z ustunliklaridan ajralib qolishlari mumkin.

Qiymat qonunining tartibga solib turuvchi mexanizmi raqobat kurashi natijasida bozor narxlarining stixiyali ravishda tebranib turishidan, ularning ijtimoiy qiymatdan farq qilib turishidan iborat. Tovar narxining ijtimoiy qiymatidan chetga chiqish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat deb hisoblanadi:

Talab = taklif bo'lgan holda narx = qiymat.

Talab > taklif bo'lgan holda narx > qiymat.

Talab < taklif bo'lgan holda narx < qiymat.

Shunday qilib, tovarlar narxining ular qiymatidan farq qilishi tovar ishlab chiqaruvchilarning xohishi bilan sodir bo'lmay, balki obyektiv qiymat qonunining kuchi ta'siri ostida bo'ladi.

Naflilik va keyingi qo'shilgan miqdor naflilig[21] **nazariyalarining** dastlabki g'oyalari XVIII asr oxirlarida paydo bo'lib, uning asoschilaridan biri Kondilyak va Galiani degan iqtisodchilar edi. Keyinchalik uning nisbatan rivojlantirilgan g'oyalari keyingi qo'shilgan miqdor naflilig" degan g'oya edi. Bu g'oyaning asoschilari avstriya maktabi vakillari K.Menger (1840–1921), F.Vizer (1851–1926), E.Bem-Baverk (1851–1914) va boshqalar hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, kishilar tomonidan juda xilma-xil moddiy va ma'naviy

[21] «Keyingi qo'shilgan miqdor naflilig» atamasini qo'llashda mualliflar tomonidan ko'plab mulohazalarga borildi. Sababi – bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda bu atamaning turli variantlari («me'yoriy naflilik», «me'yoriy foydalilik», «chegaraviy naflilik», «chegaraviy foydalilik» va h.k.) qo'llanib kelmoqda. Biroq, bu atamalar lug'aviy tarjima sifatida o'rinli qo'llanilgan bo'lsada, mazkur tushunchaning haqiqiy mazmunini ifodalay olmaydi. «Keyingi qo'shilgan miqdor naflilig» atamasi esa bu mazmunga ko'proq mos tushadi. Bobning bayon etilishini osonlashtirish maqsadida keyingi o'rinlarda qo'llaniluvchi «so'nggi qo'shilgan miqdor naflilig», «qo'shilgan miqdor naflilig», «keyingi qo'shilgan naflilik» kabi iboralar bir xil ma'no kasb etadi.

ne'matlar (hamda xizmatlar) ularni ishlab chiqarishga ijtimoiy zaruriy mehnat sarflanganligi uchun emas, balki ushbu ne'matlar naflilikka ega bo'lganligi uchun qadrlanadi. Insonlar tomonidan ma'lum naflilikiarga ehtiyoj sezilganligi sababli u yoki bu tovarni ishlab chiqarishga mehnat sarflari amalga oshiriladi. Mazkur nazariya tarafdorlari fikrlariga ko'ra, faqat tovarning nafliligi uning qiymatiga va binobarin, narxiga asos bo'lishi mumkin. Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi bilan qiymatning mehnat nazariyasining bir-biriga to'g'ri kelmasligi turli xil iste'mol qiymatlarini yoki naflilikni hisobga olish muammosi bilan bog'liq. Chunki, turli ko'rinishdagi ikkita tovarning nafliligini shunchaki umumiy tarzda o'zaro taqqoslash mumkin emas.

Bu nazariya tarafdorlari naflilikning ikki turini ajratib ko'rsatish zarur deb hisoblaydilar: a) abstrakt yoki umumiy naflilik, ya'ni ne'matlarning kishilar biron-bir ehtiyojlarini qondirish layoqati; b) aniq naflilik, bu ne'mat mazkur nusxasi foydaliligining subyektiv narxini bildiradi. Bu subyektiv narx ikki omilga bog'liq: mazkur ne'matning mavjud zaxirasi va unga bo'lgan ehtiyojning to'yinganlik darajasi. Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi muammosini o'rmonda yashovchi chol ega bo'lgan besh qop don misolida, uning ongida sodir bo'lgan psixologik xayol orqali tasvirlab ko'rsatadilar. Bu qoplardagi donning nafliligi kamayib boruvchi tartibda joylashadi: birinchi qopdagi don eng zarur, ya'ni cholning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun iste'mol qilinadi, ikkinchisi – ovqatlanishni yaxshilash uchun, uchinchisi – uy parrandalarini boqish, to'rtinchisi – pivo tayyorlash, beshinchisi – cholning o'z uyi atrofida sayrab yurgan qushlarni boqib, ko'ngilxushlik qilishi uchun. Bundan ko'rinadiki, beshinchi qopning nafliligi chol uchun u qadar ahamiyatli emas, chunki agar bu qopdagi dondan mahrum bo'lsa u faqatgina ko'ngilxushlik qilish imkoniyatidan voz kechadi xolos. Biroq, to'rtinchi qopdagi donning yo'q bo'lishi cholni pivosiz, uchinchisi esa parrandalarsiz qoldirishi mumkin. Faqat bitta qopdagi don qolgan taqdirda chol uchun uning nafliligi eng yuqori darajaga yetadi, ya'ni u ovqatlanish ehtiyoji bilan tenglashadi. Shu o'rinda turli qoplardagi donlarning nafliligi turlicha ekan, ularning qaysi biri donlarning umumiy naflilik darajasini aniqlab beradi, degan savol tug'iladi. Holbuki, qoplardagi donlarning bir-biri-

dan farqi yo'q ekan, chol uchun ularning naflilig beshinchi, so'nggi qopdagi donning naflilig orqali aniqlanadi. Demak, har bir ne'matning so'nggi qo'shilgan birligi, ya'ni uncha muhim bo'lmagan ehtiyojni qondiruvchi birligining naflilig kamayib borish xususiyatiga egadir.

Agar uzoq davrlar mobaynida tortishuvlar va bo'linishlarga olib kelgan bu ikki yo'nalishdagi nazariyalarga e'tibor bilan qaralsa, ularning hammasi tovarda gavdalangan mehnatning ikki tomonlama tavsifini, undan kelib chiquvchi tovarning ikki xil xususiyati (naflilig va qiymati)ni tushunmaslikdan, uni bilishga bir tomonlama yondashuvdan kelib chiqqanligi ma'lum bo'ladi (4.2-rasm).



4.2-rasm. Qiymatning mehnat nazariyasi va keyingi qo'shilgan miqdor naflilig nazariyasining o'zaro aloqasi hamda bir-birini to'ldirishi

Qiymat va narx nazariyasida yangi yo'nalishni boshlab bergan olim mashhur ingliz iqtisodchisi A.Marshall hisoblanadi. Tovarlarning qiymatini aniqlashda mehnat nazariyasi ham, naflilik va qo'shilgan naflilik nazariyasi ham yetarli asosga ega emas, deb hisoblagan A.Marshall bir nechta nazariyalarni sintez qilish yo'li bilan aniqlik kiritishga harakat qildi. U qo'shilgan miqdor naflilig nazariyasining

bir tomonlamaligini tovar qiymati va bahosini faqat naflilik bilan tushuntirib bo'lmasligini ko'ra bildi. A.Marshall keyingi qo'shilgan miqdor naflilligi nazariyasini talab va taklif nazariyasi hamda ishlab chiqarish xarajatlari nazariyasi bilan bog'lashga harakat qildi.

A.Marshallning tovar qiymati nima bilan aniqlanishini bilishda qo'shilgan miqdor naflilligi va ishlab chiqarish xarajatlarini sintez qilish (umumlashtirish) zarurligi haqidagi fikri juda mashhur. Neoklassiklarning qiymat va narxning bir negizli (monistik) nazariyasini yaratishga urinishdan chekinishlari xususan A.Marshall ishlari bilan bog'liq. Neoklassiklarning qoidalari qiymatning yagona manbai, narxning yagona asosi va bozor xo'jaligida jamiyat daromadlarining yagona manbai topilishi zarurligini bildiradi. Bunday yagona manba, masalan, ingliz klassik iqtisodiy maktabi va markscha nazariyalarda mehnat, marjinalistlarda qo'shilgan miqdor naflilligi kategoriyasi hisoblanadi. A.Marshall nazariyasida esa qiymat va narx ham talab (qo'shilgan miqdor naflilligi) va ham taklif (tovar ishlab chiqarish xarajatlari) tomonida yotuvchi bozor kuchlari o'zaro ta'siri orqali aniqlanadi. A.Marshall fikricha, tovar qiymati teng darajada keyingi qo'shilgan miqdor naflilligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi

Shunday qilib, A.Marshalldan boshlab iqtisodiyot nazariyasida turli nazariyalarni sintez qilishga o'tildi. Lekin A.Marshall ushbu sintezni oxirigacha yetkaza olmadi.

U ijtimoiy zaruriy naflilik va ijtimoiy zaruriy mehnat tovarning ikki tomoni ekanligini aniq ko'ra olmadi. Shuning uchun, u ijtimoiy zaruriy naflilik o'rniga qo'shilgan naflilikni, ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari o'rniga ishlab chiqarish xarajatlarini qo'ydi. Natijada tovarning qiymati ham, naflilligi ham to'liq hisobga olinmadi.

Umuman aytganda, uzoq tarixiy davrdan boshlab tortishuvga sabab bo'lgan narsa – tovarda gavdalangan ijtimoiy mehnatning ikki yoqlama tavsifi va shu asosda hosil bo'ladigan tovarning ikki xil xususiyatiga ega bo'lishini inobatga olmaslikdir. Mehnat nazariyachilari tovarga sarflangan mehnat miqdoriga asosiy e'tiborni qaratgan bo'lsa, marjinalistlar uning naflilligiga e'tibor berib keladilar. Ularning biri ko'proq tovarni ishlab chiqaruvchilar manfaati nuqtai nazaridan tahlil qilgan bo'lsa, ikkinchisi iste'molchi (xaridorlar) manfaati nuqtai-nazaridan qaraydilar. Holbuki tovarning qiymatini va binoba-

rin narxini aniqlashda uning ikki tomoniga va sotuvchilar bilan xaridorlar manfaati to'qnashgan tugunga e'tibor qaratish zarur.

4.4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari

Pul uzoq zamonlardan beri odamlarga ma'lum. Pulning kelib chiqishi turli nazariyotchilar tomonidan tovar ayirboshlash jarayonining rivojlanishi bilan bog'liq holda tushuntiriladi.

Pulning vujudga kelishi va mohiyatining turli ilmiy konsepsiyalari mavjud bo'lib, ular orasida ratsionalistik va evolyusion konsepsiyalar muhim o'rin tutadi.

Ratsionalistik konsepsiya pulning kelib chiqishini kishilar o'rtasidagi bitim, kelishuv natijasi sifatida izohlaydi. Bu holat ularning tovarlarni ayirboshlash chog'ida qiymatlarning harakatlanishi uchun maxsus vositalar zarurligiga amin bo'lishiga asoslanadi. Pulning o'zaro kelishuv sifatida amal qilishi to'g'risidagi mazkur g'oya XVIII asrning oxirlarigacha hukm surdi. Pulning kelib chiqishiga subyektiv psixologik yondashuv ko'plab hozirgi zamon xorijiy iqtisodchilarning qarashlarida ham uchrab turadi. Ularning fikricha, pul kategoriyasi obyektiv iqtisodiy kategoriya bo'lmay, kishilar kelishuviga yoki davlatning xohishiga bog'liq bo'lgan yuzaki, subyektiv kategoriyadir. Ularning bu konsepsiyasiga ishonib bo'lmaydi.

Pul kelib chiqishining evolyusion konsepsiyasiga ko'ra ular ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Qiymat shakllari va ayirboshlash rivojlanishining tarixiy jarayonini tadqiq qilish orqali tovarlar umumiy olami ichidan pul rolini bajaruvchi alohida tovarning ajralib chiqishini tushunish mumkin. Bir tovarning qiymati uni boshqa bir tovarga ayirboshlash orqali aniqlanadi (T-T). Bir qarashda ayirboshlash bitimida har ikkala tovar ham bir xil rol o'ynaydigandek ko'rinadi. Aslida esa ularning roli turlichadir. Bir tovar o'z qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi. Ikkinchi tovar esa birinchi tovarning qiymatini o'zida ifodalab, ekvivalent rolini bajaradi, ya'ni qiymatning ekvivalent shaklini tashkil etadi. Xuddi mana shu yerda pulning dastlabki kurtagi paydo bo'ladi. Pulning paydo bo'lishi va rivojlanishida qiymat shakllarining rivojlanish bosqichlarini bilish muhim o'rin tutadi. Umuman olganda, qiymatning **oddiy yoki tasodifiy, muntazam, kengaytirilgan, umumiy va pul shakllari** mavjud.

Ayirboshlash jarayonining tarixan uzoq davom etgan davri mobaynida turli tovarlar umumiy ekvivalent rolini o'ynagan. Masalan, ayrim joylarda chorva mollari, ayrim joylarda tuz, ayrim joylarda mo'yna, nodir metallar (kumush, mis, oltin) va boshqalar. Ekvivalent rolini o'ynovchi turli tovarlar ichidan ba'zi birlari o'zining barcha tomonidan tan olinishi tufayli ajralib chiqa boshladi (masalan, nodir metallar). Chunki, ekvivalent rolini o'ynovchi tovarlarning barchasi ham ayirboshlash jarayonida vositachilik vazifasini bir xilda muvaffaqiyatli bajara olmas edi. Natijada, barcha tovarlarning qiymatini bir xil tovar qiymati orqali taqqoslash mumkin bo'lgan qiymatning umumiy shakli vujudga keldi.

Tarix va arxeologiya fanlarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, tovar-pul munosabatlari eng qadimdan paydo bo'lgan va rivojlangan davlatlardan biri bizning mamlakatimiz hisoblanadi. Chunki bu yerda pul ishlatila boshlanganiga 2 ming yildan oshgan. Bunga misol qilib, hozirgi O'zbekiston hududida yashagan xalqlar va qabilalar foydalangan dastlabki pul belgilari hamda tangalarni ko'rsatish mumkin. Tarixchilarning tadqiqotlariga ko'ra, eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Axmoniylar imperiyasida zarb qilingan oltin **dariklar** va kumush **siklarni**, eramizdan avvalgi III-II asrlar oxiriga borib, Shimoliy Baqtriya, So'g'd, Buxoro, Xorazmda kumush va suberatli (bronza ustiga yupqa kumush qoplangan) "o'xshatma" tangalar zarb qilinganini aytish mumkin.

Eramizdan avvalgi I asrda davlatning o'z kumush va mis tangalari zarb qilina boshlandi. Tanganing old tomonida mahalliy hukmdor surati, orqa tomonidan – turli tasvirlar va belgilar, so'g'dcha va xorazmcha, keyinroq esa baqtriycha yozuvlar bo'lgan. So'g'd va Xorazm davlatlarida eramizning birinchi yarmida kumush va mis qo'llanilgan antik andozasining O'rta Osiyoga xos turi saqlanib qolgan. O'zbekiston bilan Turkmanistonning janubiy qismida yashagan ko'chmanchi xalq - qabilalari barpo etgan ulkan Kushon imperiyasida pul tizimi kumushga emas, balki oltinga asoslanganini aytish mumkin.

O'sha davrda tangalar mamlakatning turli shaharlarida masalan, Samarqand, Buxoro, Mashxad, Balh, Nishopur, Saras va boshqa shaharlarda chiqarilgan. Bundan tashqari XVI-XVII asrlarda Abdullaxon va Shayboniyxonlar tomonidan o'tkazilgan pul islohotida ham asosan oltin pulga asoslangan.

Shayboniyxon Samarqandni zabt etgandan keyin, 1507-yilda pul islohotini o'tkazgan. Shayboniyxon (1501–1610) va Abdullaxon (1583–1598) zarb etgan tangalar bizgacha etib kelgan. Abdullaxon davrida tanga (oltin va kumush) zarb qilish davlat poytaxti – Buxoroda markazlashtirilgan. 1695–1709-yillarda oltin tanga zarb qilish muntazam tus oldi. Tanga og'irligi 4,8 gramm, sifat sofligi juda yuqori – 958 bo'lgan[22].

Shayboniyxon va Abdullaxonlardan keyin 1695–1709-yillarda Joniylar davlati shakllanib oltin tanga zarb qilish muntazam yo'lga qo'yildi.

Shunday qilib, pulning kelib chiqishi tarixida eng avvalo, umumiy ekvivalentlik rolini bajaruvchi bir nechta metallar (oltin, kumush, mis, bronza v.b.), keyinchalik esa bimitalizm ya'ni ikki xil metall pullar (kumush va oltin)dan oxirida esa monometal (oltindan) yasalgan tangalar muomalada bo'lgan.

Bizning mamlakatimizdan ancha keyin, XIX asrning oxirida mamlakatlar birin-ketin oltin valyutaga, ya'ni monometall tizimiga o'ta boshladilar. Bu hol Avstriyada 1892, Yaponiyada 1897, Rossiyada 1898, AQSHda esa 1900-yilda sodir bo'ldi. Angliyada oltin pul tizimi XVII asrning oxirida, Germaniyada 1871-yilda, Gollandiyada 1877-yilda joriy etilgan edi.

Umumiy ekvivalent rolining nodir metallarga, jumladan oltinga yuklatilish sabablari quyidagilar orqali izohlanadi:

- sifat jihatdan bir xil o'lchamga keltirish mumkinligi;
- zanglamasligi va uzoq muddat saqlash mumkinligi;
- bo'linuvchanligi va bo'lgandan keyin yana yaxlit holga keltirish mumkinligi;
- bo'linganda ham o'z qiymatini saqlab qola olishi;
- tabiatda nisbatan kamyobligi;
- ozgina miqdordagi va og'irlikdagi nodir metallning qiymati ancha yuqoriligi.

Shu xususiyatlarga ko'ra umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi ko'plab tovarlar ichidan maxsus tovar – oltin pul ajralib chiqdi. Shunday qilib, **pul – bu hamma tovarlarni sotish va sotib olish mumkin bo'lgan, umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi maxsus tovardir.**

[22] Chjen V.A. Pul va moliya bozorlari. T.: 1996. 25–26-betlar.

Endi tovarlar dunyosi ikkiga – bir tomondan, naflilikning ifodasi bo'lgan tovarlarga va ikkinchi tomondan, qiymatning moddiylashgan ifodasi bo'lgan pulga ajraladi:



Pulning iqtisodiy mazmunini bilishda uning asosiy nazariyalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, pulning metallistik, nominalisitik va miqdoriy nazariyalarini farqlash mumkin. Pulning kelib chiqishi va muomalada bo'lishi metall pullar bilan bog'liq bo'lganligi sababli dastlab pulning metallistik nazariyasi vujudga kelgan. Uning asosiy mohiyati pulni nodir metallar (oltin va kumush) bilan ayniylashtirish orqali namoyon bo'lgan.

Pulning **metallistik** nazariyasining rivojlanishida merkantilistik maktab namoyandalarining qarashlari muhim o'rin tutadi. Ular pulning qadr-qimmatini oltin va kumushning tabiiy xossalarida deb bilib, uning tovar mazmunini tan olganlar. Biroq, pulni nodir metallar bilan ayniylashtirish ularning mohiyati va iqtisodiyotdagi roliga noto'g'ri baho berish hamda pul fyetishizmining rivojlanishiga olib keldi.

Pulning **nominalistik** nazariyasi tarafdorlari metallistik nazariyaga qarshi chiqib, pullarning tovar tabiati hamda ular ichki qiymatini zarurligining o'zini inkor etadilar. Nominalistlar pulga shartli belgi sifatida qarab, ularning nodir metallar bilan aloqadorligini rad qiladilar. Nominalistik nazariya tarafdorlarining qarashlari o'rta asrlarda to'la qiymatga ega bo'lmagan metall tangalarning muomalaga chiqarilishi bilan paydo bo'ldi. Ba'zi bir namoyandalar pullar – davlat hokimiyatining mahsuli, shunga ko'ra faqat davlatgina pullarning qiymatini belgilashi mumkin, degan fikrlarni ilgari surdilar. XX asrning boshlarida, oltin standartning tan olinmasligi, uning bekor qilinishi bilan, nominalistik nazariya yanada rivojlandi.

Pulning **miqdoriy** nazariyasi – bu muomaladagi pul miqdori, tovar narxlari darajasi hamda pullarning qiymati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni izohlashga asoslangan iqtisodiy ta'limotdir. Uning mohiyati muomaladagi pul miqdori narxlar va pul qiymati

darajasining mutanosib ravishda o'zgarishining dastlabki sababidir, degan qoidadan iborat.

Pulning mohiyatini to'laroq tushunish uchun uning quyidagi **asosiy vazifalarini** ko'rib chiqamiz: 1) qiymat o'lchovi; 2) muomala vositasi; 3) boylik to'plash vositasi; 4) to'lov vositasi.

Pulning **qiymat o'lchovi** vazifasini ideal pul bajaradi. Tovar egasi yoki sotib oluvchi fikran ideal ravishda shu tovarning almashuv qiymatini pul bilan ifodalaydi. Tovarning narxi talab va taklif miqdori teng bo'lgan taqdirdagina uning qiymatiga muvofiq keladi. Aks holda, narx qiymatdan farq qiladi. Demak, tovarlarning narxi ularning qiymati, pulning qiymati, talab va taklifning nisbati va boshqa omillarga bog'liq. Tovar almashuv qiymatining pul bilan ifodalanishi uning narxini anglatadi. Tovarning almashuv qiymatini o'lchash uchun muayyan miqdordagi pul materialini birlik qilib olish zarur. Bunday birlik **narxlar o'lchovi (masshtabi)** deb ataladi. Bir tomondan narxlar o'lchovi har qanday o'lchov birligi kabi shartlidir. Ikkinchi tomondan esa, u muayyan mamlakatda hamma tomonidan e'tirof etilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun davlat pul birligi huquqini qonun bilan mustahkamlaydi, bu birlik shu tariqa rasmiy tan olinadi.

Tovar muomalasi jarayonida naqd pul bo'lishi kerak, chunki tovarlarni oldi-sotdi paytida ularning ramziy narxlari real pulga aylanmog'i lozim. Bu jarayonda pul **muomala vositasi** vazifasini bajaradi. Dastlab tovarlarni ayirboshlashda pulning bevosita kumush yoki oltin quymalar shaklida mavjud bo'lishi muomala vaqtida qiyinchiliklar tug'dirgan: pul metallni o'lchash uni mayda bo'laklarga bo'lish, sifatini belgilash zarur bo'lgan. Keyinchalik metall quymalari o'rniga moneta (metall tanga)lar ishlatila boshlagan. Uzluksiz muomalada bo'lish natijasida oltin tangalar yeyilib ketishi, o'z vaznining bir qismini yo'qotishi sababli muomalaga to'la qiymatli bo'lmagan qiymat belgilari chiqarilgan.

Pul muomaladan chiqarilganda **boylik to'plash** vazifasini bajara boshlaydi. Natural xo'jalik sharoitida boylik to'plash, jamg'arish mahsulot jamg'arish shaklida amalga oshirilgan. Tovar xo'jaligining rivojlanishi boylik to'plashning pul jamg'arish shaklini keltirib chiqaradi. Tovar xo'jaligi taraqqiyotining dastlabki davrlarida pul

jamg'arish uni muomaladan chiqarib olish yo'li bilan amalga oshirilgan. Keyinchalik foyda ketidan quvish hukmron ahamiyat kasb etib, bo'sh yotgan pul foyda keltirmasligi sababli pul egalari uni harakatga solishga, uni foydali joyda ishlatish yo'lini topishga intildilar.

Tovarlar nasiyaga to'lov muddati kechiktirib sotilganda, pul **to'lov vositasi** vazifasini bajaradi. Xaridorlar tovarning pulini to'lov muddati kelgandan keyingina to'laydi. Pulning bu vazifasi tovar muomalasi doirasi bilan cheklanmay, pul qarz berilganda, renta va soliqlarni to'lashda ham to'lov vositasi vazifasini bajaradi. Qog'oz pullar, veksel va banknotlar – pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasidan kelib chiqqan.

Bugungi kunda zamonaviy, ya'ni qog'oz-kredit pullarning iqtisodiy mazmuni va tabiati to'g'risida so'z yuritilganda, Amerika, G'arbiy Yevropa va Rossiyada chop etilgan iqtisodiy adabiyotlarning ko'pchiligida qog'oz pulning tovar emasligi qat'iy ta'kidlanadi. Bunda ayrim iqtisodchilar pulning tabiatini uning likvidligi, boshqa birlari esa uning dekret pul, ya'ni qonun tomonidan mustahkamlanganligi orqali belgilaydilar[23].

Klassiklar ham, miqdoriylik nazariyasi tarafdorlari ham pulning alohida tovar ekanligini va boshqa tovarlardan uning ana shu alohida xususiyati ajratib turishini tushunmaydilar. Bizning nazarimizda qog'oz pullar ham alohida tovar bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymatini ifodalaydigan umumiy ekvivalent sifatida xizmat qiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bizning kundalik hayotimizda deyarli dunyoning hamma mamlakatlarida barcha valyuta ayirboshlash punktlarida pul savdosi sodir bo'lib turibdi. Bu hodisa bir kunda bir marta emas million martalab sodir bo'lmoqda. Mana shuning o'zi qog'oz pullarning tovar ekanligini isbotlaydi. Undan tashqari qog'oz pullar ham boshqa tovarlar kabi ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, umuman tovar sifatida boshqa tovarlar singari qiymatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, naflilikka, ya'ni iste'mol qiymatiga

[23] Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 163-б.; Экономическая теория: Учебник./ Под ред. А.Г.Грязновой, Т.В.Чечелевой. – М.: Издательство «Экзамен», 2004, 189-191-б.; Курс экономической теории. Учебное пособие под ред. Чепурина М.Н., Киселевой Е.А. Киров, изд-во «АСА», 1995, 96-б.

ega. Uning iste'mol qiymati umumiy ekvivalent sifatida boshqa istalgan tovarga almashuvchanligida ifodalanadi. To'la qimmatli pullardan o'z qiymatiga ega bo'lmagan pul belgilarini qo'llashga o'tish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishi natijasida qog'oz pul oddiy tovarlarga xos bo'lgan xususiyatlar – qiymat va iste'mol qiymatga ega bo'lmaydi. Ammo u maxsus tovar sifatida oltin puldagi ikki xususiyatni – qiymat belgisi va rasmiy naflilikni saqlab qoladi.

Qog'oz pul umumiy ekvivalentlik vazifasini bajarganda, boshqa tovarlar qiymati bevosita qiymatga ega bo'lgan tovar (oltin) bilan emas, balki qiymat belgisiga ega bo'lgan vakolatli «tovar» bilan o'lchanadi [24](4.3-rasm).



4.3-rasm. Oltin va qog'oz pullarning o'zaro bog'liqligi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul faqatgina umumiy ekvivalent bo'lib emas, balki o'z egasining qo'lida foyda, daromad olish vositasi bo'lib xizmat qiladi, o'zidan-o'zi o'suvchi qiymatga, bir so'z bilan aytganda kapitalga aylanadi. Buning natijasida qog'oz pullar ikkita tarkibiy qismga ajraladi: naqd pullar (qog'oz pul, tanga-chaqalar) va kredit pullar (chek, veksel, sertifikat, to'lov talabnomalari va h.k.). Ularning tub xususiyatlari 4.4-rasmda aks ettirilgan.

[24] Yusupov R.A. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2001, 9-11-b.



4.4-rasm. Naqd va kredit pullarning xususiyatlari

Bundan ko'rinadiki, pul kapital sifatida muomalada bo'ladi, unga qo'shimcha ijtimoiy vazifa yuklatiladi. Endi u daromad keltiradigan maxsus vositaga aylanadi[25].

Shunday qilib, tovar ayirboshlash, ishlab chiqarish va pulning kelib chiqishi hamda tovar-pul muomalasining rivojlanishi bozor va bozor iqtisodiyotining kelib chiqishiga sabab bo'ldi va uning rivojlanishiga shart-sharoit yaratdi.

4.5. O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi va uning barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari

Har qanday mamlakatdagi tovar-pul munosabatlarining to'laqonli amal qilishi, eng avvalo, muayyan mamlakat milliy valyutasining mavjud bo'lishi hamda barqaror amal qilishini taqozo etadi.

Mamlakatimizda milliy valyutaning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.Karimovning: «Milliy valyuta – milliy iftixor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Bu respublikaga tegishli umumiy boylik va mulkdir»[26], degan so'zlarini eslash o'rinlidir. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng o'z milliy valyutamizni muomalaga kiritish muhim va murakkab vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Bu borada hukumatimiz tomonidan har tomonlama asoslangan, izchil iqtisodiy siyosat amalga oshirildi. Unga binoan,

[25] Shodmonov Sh. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda pulning yangi mazmuni va roli. Bozor, pul va kredit. Maxsus nashr, 2001, 9-b.

[26] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995, 217-b.

respublikamiz o'z mustaqilligini e'lon qilgan bo'lsada, dastlabki yillarda sobiq Ittifoq pul birligi – rubl hududida amal qilish obyektiv zarurat sifatida tan olindi. Zero, ittifoqdosh respublikalarning siyosiy jihatdan mustaqillikka erishishlariga qaramay, ular iqtisodiyotining birdaniga, zudlik bilan rubl hududidan ajralib chiqishlari uchun iqtisodiy shart-sharoitlar mavjud emas edi. Bunday holat yagona pul makoni doirasida yuqori darajada muvofiqlashtirilgan iqtisodiy, birinchi navbatda, pul-kredit siyosatining amalga oshirilishini taqozo etar edi. Shunga ko'ra, dastlabki pallada Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki pul emissiyasi bo'yicha monopolistik huquqni amalga oshirib, rubl amal qilgan barcha mamlakatlarning hududida pul barqarorligini ushlab turish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish mas'uliyatini zimmasiga oldi. Biroq, bozor munosabatlarining shakllanishi bilan bog'liq holda narxlarni erkinlashtirish jarayonlari respublikalararo savdo jarayonlarida nomutanosibliklarni keltirib chiqara boshladi. Respublikalar savdo balanslari taqchilligini eksport narxlarini o'zgartirish, kredit emissiyasi hisobiga moliyalashtirishga majbur edilar. Bundan tashqari, davlat korxonalarini keng miqyosli subsidiyalash bo'yicha tadbirlar ahamiyatli darajada Rossiya Davlat bankining imtiyozli kreditlari hisobiga moliyalashtirilar edi. Ko'rsatib o'tilgan omillar natijasida rubl hududidagi pul-kredit nazoratining bo'shashib ketishi inflyatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keldi.

O'zbekistonning o'z milliy valyutasini muomalaga kiritishi zarurligi 1993-yilda dastlab Rossiyaning, keyinchalik MDH boshqa qator mamlakatlarining o'z milliy valyutasini muomalaga kiritishi bilan yanada kuchaydi. Chunki, O'zbekistonga boshqa respublikalar hududida amal qilish huquqini yo'qotgan eski rubl pul birliklari oqib kela boshladi. Qolaversa, rubl hududida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki mustaqil ravishda mamlakatdagi pul-kredit sohasining rivojlanishini to'liq nazorat qila olmas edi. O'zbekiston rubl hududidagi bunday ahvol natijasida juda mushkul va zararli holatga tushib qolgan edi. Chunki boshqa davlatlar to'lov va hisob-kitoblarida foydalanilishi to'xtatilgan 1961–1992-yillar namunasidagi qadrsizlangan rubllar evaziga O'zbekistondan turli mahsulotlar olib chiqib ketila boshladi. O'zbekistonga boshqa davlatlarda o'z kuchini yo'qotgan sovet pullari oqib kelishining oldini olish hamda respublika iste'mol bozorini hi-

moya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993-yil 5-mayda «Pul muomalasini tartibga solish hamda respublika iste'mol bozorini himoyalashni kuchaytirish to'g'risida»gi qarorni qabul qildi. Ushbu qarorga binoan aholi tomonidan tovarlarni xarid qilish va depozit operatsiyalarini amalga oshirishda pasport hamda kupon tizimi tatbiq etildi. Xususan, qarorda: 1993-yilning 10-mayidan boshlab omonatlarga pullarning qo'yilishi faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan pasport asosida amalga oshirilishi; 25 ming rublgacha bo'lgan qiymatdagi tovarlarni – cheklar, chek daftarchalari yoki omonatchilarning topshirig'i bo'yicha ularning bank muassasalaridagi shaxsiy hisob raqamlaridan naqd pulsiz o'tkazish orqali sotilishi; cheklar va chek daftarchalarini faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga berish va boshqa chora-tadbirlar belgilab berildi.

O'zbekistonning o'z milliy valyutasini muomalaga kiritish ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqich 1993-yilning noyabr oyidan 1994-yilning iyunigacha bo'lgan davrni, ikkinchi bosqich esa 1994-yilning iyun-iyul oylarini o'z ichiga oldi.

Pul islohotini o'tkazishda mamlakatimiz hukumati tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish, uning daromadlarining yo'qotilishiga yo'l qo'ymaslik tamoyiliga katta e'tibor qaratildi. Shunga ko'ra, muomaladagi eski pul birliklarining amal qilishini to'xtatish ham sekin-asta, bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Jumladan:

- 1993-yilning 15-noyabridan boshlab 1992-yil namunasidagi 5000 va 10000 rubl qiymatdagi pul belgilarining amal qilishi to'xtatildi;
- 1993-yilning 1-dekabridan boshlab SSSR Davlat bankining 1961–1992-yillardagi 200, 500 va 1000 rubl qiymatidagi pullarining barcha ko'rinishdagi to'lovlar sifatida qabul qilinishi to'xtatildi;
- 1993-yilning 15-dekabridan boshlab 50 i 100 rubl qiymatdagi pul belgilarining amal qilishi to'xtatildi;
- 1994-yilning 1-yanvaridan boshlab 1, 3, 5, 10 va 25 rubl qiymatdagi pul belgilari muomaladan chiqarildi;
- 1994-yilning 15-aprelidan boshlab O'zbekistonning barcha hududida Rossiya Banki banknotlarining muomalada bo'lishi to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 30-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi hududida «so'm-

kupon»ning muomalada bo‘lish tartibini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida 1993-yilning 6-dekabridan boshlab 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000, 10000 so‘m qiymatidagi «so‘m-kuponlar» mamlakatimiz hududida qonuniy to‘lov vositasi sifatida tan olindi.

O‘zbekistonda milliy valyutani joriy etishda dastlab «so‘m-kupon»ning muomalaga kiritilishi quyidagilarga imkon yaratdi: birinchidan, milliy pul islohotining iqtisodiy, texnik va ijtimoiy tomonlarini optimallashtirish uchun respublika ichki iqtisodiyotidagi barcha real omillarni to‘la aniqlash va hisobga olish; ikkinchidan, mustaqil moliya-kredit va narx siyosatini yuritish bo‘yicha muayyan tajriba orttirish; uchinchidan, milliy pul birligini joriy etish strategiyasi va mexanizmini o‘rganish, inflyatsiya jarayoniga qarshi kurash tadbirlari ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmini yo‘lga qo‘yish va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasi hamda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi Qonunning 111-moddasiga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 3-sentyabrdagi 952-XII sonli qaroriga muvofiq, 1994-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida milliy valyuta – «so‘m» muomalaga kiritildi. Milliy valyutaning joriy etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Markaziy bankining kassa ishini tashkil etish to‘g‘risida, miliy valyutani muomalaga chiqarish va hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi ko‘rsatmasi, shuningdek, qimmatliklarni qayta baholash hamda yuridik shaxslarning buxgalteriya hisobi va hisobotiga o‘zgartirishlar kiritish tartibi ishlab chiqildi. Bank muassasalari tomonidan 1994-yilning 1-iyuli holati bo‘yicha yuridik shaxslarning hisob va joriy raqamlaridagi barcha pul mablag‘larini va boshqa qimmatliklarni inventarizatsiya qilish va buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida 1000 so‘m-kuponni 1 so‘m nisbatida qayta hisoblash ishlari amalga oshirildi.

Tovar-pul munosabatlarining samarali amal qilishi ko‘p jihatdan milliy valyutaning barqarorligiga ham bog‘liq. Bu borada mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «Bugungi eng muhim vazifa – valyutamizni baquvvat, dunyoda obro‘li valyutaga aylan-

tirishdir. U yuksak qiymatga va katta kuchga ega bo'lishi lozim. So'mning barqarorligini ta'minlash va qadrini oshirish – umummilliy vazifa»[27], deya ta'kidlab, bunga erishish uchun aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan to'rtta alohida dasturlar to'plamini ko'rsatib berdi (4.3-jadval).

4.3-jadval

O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlar[28]

Dasturning mazmuni	Dasturning asosiy yo'nalishlari	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar
Milliy valyutani tovar bilan barqaror ta'minlash	- respublika bozorini iste'mol mollari bilan to'ldirish; - aholining eng zarur talablarini qondiruvchi milliy ishlab chiqarishni kengaytirish	- iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi korxonalarga har tomonlama yordam ko'rsatish; - zamonaviy iste'mol mollari ishlab chiqaradigan yangi korxonalarni jadal sur'atlarda tashkil etish; - kichik korxonalar faoliyati uchun keng maydon ochib berish; - aholining turli mamlakatlardan keltirilgan sifatli mollarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratish; - import mollar tarkibini takomillashtirish; - milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish
Yetarli valyuta zaxirasi bilan ta'minlash	- tashqi iqtisodiy siyosatni tubdan qayta ko'rib chiqish; - mamlakatning eksport imkoniyatini kengaytirish	- eksportga yo'naltirilgan korxonalar sonini ko'paytirish; - eksportga yo'naltirilgan korxonalar faoliyatini rag'batlantirish; - jahon bozorida raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish

[27] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995, 218-b.

[28] Jadval quyidagi manba asosida tuzilgan: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995, 218-b.

Milliy valyutani qadrlash va undan tejab-tergab foydalanish	- qat'iy moliyaviy-kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish; - kredit resurslaridan samarali va muayyan maqsad yo'lida foydalanish	- aholi va korxonalar tomonidan moliyaviy resurslardan tejamli foydalanishni kuchaytirish; - kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash; - kredit resurslarini eng ko'p samara beradigan sohalarga yo'naltirish
Inflyatsiyaga qarshi baquvvat, puxta o'ylangan siyosat o'tkazish	- milliy valyutaning yuksak to'lov qobiliyatini uzoq muddat davomida saqlab qolishini ta'minlash; - ishlab chiqarish hajmi bilan to'lovga qobil talabning o'sishi o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash	- muomalaga chiqariladigan har bir so'mning muayyan tovarlar bilan ta'minlanishiga erishish; - savdo korxonalarining ishini tubdan yaxshilash; - iste'mol fondining o'sishini ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatning moddiy hajmi ko'payishiga bevosita bog'liq qilib qo'yish; - naqd pul va kredit emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik

Bu belgilangan dasturlarning izchil ravishda amalga oshirilishi milliy valyutamizning mustahkamlanishiga, qat'iy valyutalarga nisbatan uning almashuv kursining barqarorlashuviga ahamiyatli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Milliy valyutamiz so'mning barqarorligini ta'minlash, uning xarid quvvatini oshirish doimiy ravishda davlatimizning e'tiborida bo'lib, uning chora-tadbirlari ko'rilmoqda. Uning bir misoli sifatida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan farmonini aytish mumkin. Bu farmonda "ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash"[29] bandi kiritilgan. Bundan tashqari ushbu harakatlar strategiyasida mamlakatimizda ish-

[29] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni, 3.1-bandi.

lab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar hajmini, turini ko'paytirish, sifatini oshirish, ular sotiladigan bozorlar miqyosi va geografiyasini kengaytirishning bir qancha yo'nalishlari, chora-tadbirlari belgilangan bo'lib, ular milliy valyutamiz barqarorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosalar

1. Tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning paydo bo'lishi ijtimoiy mehnat taqsimotining hamda xususiy mulk kelib chiqib, ishlab chiqaruvchilar alohidalashuvining rivojlanishi bilan bog'liq.

2. Tovarning ikki xossasi – nafliligi (iste'mol qiymati) va qiymati tovarda gavdalangan inson mehnatining ikki yoqlama tavsifi natijasida vujudga keladi. Agar naflilik (iste'mol qiymati) aniq mehnat orqali yaratilsa, almashuv qiymati abstrakt mehnatning natijasi hisoblanadi.

3. Qiymat tovarning ijtimoiy xossasi bo'lib, unda tabiat ashyolarining birorta ham molekulasi, zarrachasi yo'qdir. Qiymatning asosida odamlar bir-birlari uchun mehnat qilishlarini bildiruvchi ijtimoiy mehnat yotadi. Biroq, alohidalashgan tovar ishlab chiqaruvchilar mehnati o'zining ijtimoiy xususiyatini faqat mehnat mahsullarini ayirboshlash orqali ko'rsatadi.

4. Tovar qiymatini aniqlash borasida iqtisodiyot nazariyasida asosan ikki xil yo'nalishdagi yondashuv mavjud: qiymatning mehnat nazariyasi, naflilik va keyingi qo'shilgan miqdor naflilig nazariyalari. Birinchi nazariya tovar qiymatini unda mujassamlashgan ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari tashkil qiladi desa, ikkinchi nazariya tovarning qiymatini uning naflilig, ayniqsa keyingi qo'shilgan tovar naflilig belgilab beradi, deb ko'rsatadi.

5. Tovarlarni ayirboshlash jarayonining uzoq vaqt rivojlanishi natijasida umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi, boshqa hamma tovarlarni ayirboshlash mumkin bo'lgan alohida tovar pul sifatida ajralib chiqdi.

6. Pul o'zining rivojlanish tarixida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi: tovar pullar (pul o'rnini har xil mahsulotlar bosgan); to'la qiymatga ega pullar (oltin yoki kumush); to'la qiymatga ega bo'lmagan pullar (qog'oz pullar, oddiy metall tangalar); kredit pullar (veksel, banknot, chek, kredit kartochka).

7. Mamlakatimizning mustaqil iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda milliy valyutamiz (so'mning) muomalaga kiritilishi nihoyatda katta rol o'ynadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Natural ishlab chiqarish – mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish, ichki xo'jalik ehtiyojlari uchun mo'ljallagan ishlab chiqarish.

Tovar ishlab chiqarish – mahsulotlarni o'z iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish, ayirboshlash uchun va boshqalarning ehtiyojini qondirish maqsadida ishlab chiqarish.

Tovar – biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo'lgan, ayirboshlash uchun Yaratilgan mahsulot.

Naflilik – tovarning kishilarning biron-bir narsaga bo'lgan ehtiyojini qondirish layoqati.

Ijtimoiy zaruriy naflilik – talab miqdoriga mos keladigan miqdordagi naflilik.

Qiymat – tovarda gavdalangan ijtimoiy-zaruriy mehnat.

Almashuv qiymati – biror turdagi iste'mol qiymatning boshqa turdagi iste'mol qiymatga ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbati, ayrim tovarlar qiymatining boshqa tovar qiymatida ifodalanishi.

Ijtimoiy zaruriy ish vaqti – muayyan ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyatdagi mehnat malakasi va jadalligi darajasi o'rtacha bo'lgan sharoitda biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti.

Qiymat qonuni – tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash uning qiymati asosida amalga oshishini, qiymatning o'zi esa ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari orqali o'lchanishini ifodalovchi sabab-oqibat bog'liqligi.

Aniq mehnat – ma'lum maqsadga qaratilgan, muayyan bir shaklda sarflanadigan va aniq turdagi iste'mol qiymatlarni, naflilikni vujudga keltiradigan mehnat.

Abstrakt mehnat – turli tovarlarda gavdalangan mehnatning aniq shaklidan qat'iy nazar umuman inson mehnatining sarflanishi, ijtimoiy mehnatning bir qismi.

Mehnat unumdorligi – aniq mehnatning vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir. U ma'lum vaqt davomida ishlab

chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt bilan o'lchanadi.

Mehnat intensivligi – vaqt birligi ichida mehnatning sarflanish tezligi yoki jadalligining oshib borishi.

Pul – hamma tovarlarni sotish va sotib olish mumkin bo'lgan umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi maxsus tovar.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ijtimoiy xo'jalik shakllariga umumiy tavsif bering. Natural va tovar xo'jaligining asosiy farqlari nimalardan iborat?
2. Tovar ishlab chiqarish va bozorning vujudga kelishining umumiy shart-sharoitlarini tushuntiring.
3. Nima uchun tovarga naflilik (iste'mol qiymat) va almashuv qiymatining birligi sifatida qaraladi? Tovardagi bu ikki xil xususiyat nimadan kelib chiqadi?
4. Qiymatning mehnat nazariyasi mazmunini tushuntirib bering.
5. Qiymatning so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi asosida nima yotadi?
6. Keyingi (so'nggi) qo'shilgan miqdor nafliligi nima va uning pasayish sababini tushuntiring.
7. Tovarlar qiymatini aniqlashga bo'lgan quyidagi fikrlarga o'z munosabatingizni bildiring:

a) ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan belgilanadi;

b) keyingi qo'shilgan tovarlarning nafliligi bilan aniqlanadi;

v) keyingi qo'shilgan tovarlarning nafliligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi.

8. Pulning mazmunini va vujudga kelishining umumiy shart-sharoitlarini tushuntirib bering.
9. Pulning ratsionalistik va evolyusion konsepsiyalarining mazmuni nimadan iborat?
10. Pul qanday vazifalarni bajaradi? Har bir vazifasining mazmunini tushuntirib bering.
11. Oltin pul va qog'oz pul o'rtasidagi umumiylik va farqlarini ko'rsatib bering.
12. Qog'oz va kredit pullarning qadr-qiymati va barqarorligi nima bilan belgilanadi?

II-B O‘ L I M
BOZOR IQTISODIYOTI NAZARIYASI

5-BOB. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI

Oldingi bobda tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlarining rivojlanishi natijasida pulning vujudga kelganligi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanib, iqtisodiyotning barcha jabhalarini qamrab olganligi, asta-sekin bozor iqtisodiyotining shakllanib kelayotganligi bayon etildi. Ushbu bobda bozor iqtisodiyotining mazmuni, uning asosiy belgilari, subyektlari va rivojlanish bosqichlari talqiniga alohida o'rin ajratilgan. Bozor iqtisodiyotining doimiy va asosiy muammolari, uning afzalliklari va ziddiyatlari tahliliga ham o'rin berilgan. Shuningdek, bozor va uning turlari, bozor infratuzilmasi, uning tarkibiy qismlari hamda unsurlarini yoritib berishga alohida e'tibor qaratilgan.

5.1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Mazkur iqtisodiyotning barqarorligi shu bilan izohlanadiki, uzoq davrli iqtisodiy evolyusiya davomida uning amal qilishining asosiy klassik qoidalari saqlanib qoldi.

Oldingi bobda ta'kidlanganidek, xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining ro'y berishi bozor iqtisodiyotining kelib chiqishi va mavjud bo'lishing umumiy sharti hisoblanadi. Xususiy mulkchilik va mehnat taqsimoti ijtimoiy xo'jalikning tovar shaklini taqozo qiladi, tovar ishlab chiqarishning mavjud bo'lishi o'z-o'zidan pul muomalasi, ayirboshlash, taqsimlash va iste'molning bozorga oid xususiyatini ko'zda tutadi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Ishlab chiqarishning mustaqilligi, tadbirkorlikning erkinligi, resurslar erkin almashinuvining ta'minlanishi bozor iqtisodiyotini samarali amal qilishining muhim shartlari bo'lib hisoblanadi. Tovar ishlab chiqaruvchi qanchalik mustaqil bo'lsa, bozor ham shu darajada yaxshi rivojlanadi. Erkin ayirboshlash tovar ishlab chiqaruvchi faoliyatining nisbatan samarali yo'nalishlarini ko'rsatib beruvchi erkin narxlarning shakllanishiga imkon yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bunday iqtisodiyot erkin tovar-pul munosabatlariga asoslanib, uning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati yotadi, u iqtisodiy monopolizmni inkor etadi. Ayrim adabiyotlarda bozor iqtisodiyoti – bozor xo'jaligi subyektlari iqtisodiy xatti-harakatlarining erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning tovar-pul mexanizmi orqali bir-biriga bog'lanib muvofiqlashuvi deb baho beriladi. Bozor iqtisodiyotida bozor aloqalari butun tizimni, uning barcha bosqichlari – ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarini hamda iqtisodiy munosabatlarning barcha subyektlarini qamrab oladi. Shuni ham e'tiborda tutish kerakki, hozirgi sharoitda o'rtacha rivojlangan iqtisodiyotda 24 mln. dan ortiq turdagi tovarlar mavjud bo'lib, har yili ularning 1/10 qismi yangilanib turadi. Bunday sharoitda bozorning ishtirokisiz tovar turlari va hajmi bo'yicha talab va taklifni tartibga solishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bu esa bozorning vazifasini hech qanday markazlashtirilgan rejalashtirish idoralari muvaffaqiyatli bajara olmasligining yaqqol dalilidir. Bozor iqtisodiyoti esa eng samarali va muammolarni tezlik bilan hal eta oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizim hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti subyektlari tarkibiga tadbirkorlar ham, o'z mehnatini sotuvchi ishchilar ham, pirovard iste'molchilar, ssuda kapitali egalari va qimmatli qog'ozlar egalari ham kiradi. Odatda, bozor xo'jaligining barcha asosiy subyektlari uchta guruhga bo'linadi: uy xo'jaliklari, korxonalar (tadbirkorlik sektori) va davlat sektori.

Uy xo'jaliklari – iqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik. Uy xo'jaliklari doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida Yaratilgan tovar

va xizmatlar iste'mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo'jaliklari mulk egasi hamda ishlab chiqarish omillarini yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

Tadbirkorlik sektori – bu iqtisodiyotning daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi birlamchi bo'g'inidir. U ish yuritish uchun o'z kapitalini yoki qarz olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi, bu kapitaldan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi. Tadbirkorlar tovar xo'jaligida tovar va xizmatlarni yetkazib beradi.

Davlat sektori – o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan, iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli byudjet tashkilotlari va muassasalarining majmui.

Shuningdek, ba'zi darslik va o'quv qo'llanmalarda bozor iqtisodiyotining yana bir alohida, mustaqil subyekti sifatida banklar ajratib ko'rsatiladi.[30]

Bank – iqtisodiyotning me'yorda amal qilishi uchun zarur bo'lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o'tilgan bozor iqtisodiyoti subyektlarining o'zaro ta'siri va aloqasini quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (5.1-rasm).



5.1-rasm. Bozor xo'jaligi subyektlari o'zaro aloqasining umumiy modeli

[30] Экономическая теория (политэкономия): Учебник/ Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, акад. Г.П.Журавлевой, – 4-е изд. - М.: ИНФРА-М, 2004, с.78–79.; Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma./Akad. M.Sharifxo'jaevning ilmiy tahriri ostida. – T.: «O'qituvchi», 2002, 74-b.

Har qanday bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi, asosan, to'rtta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: narx, talab, taklif, raqobat.

Narxlar nisbati o'zgarib turadi, shuning uchun narx ishlab chiqaruvchi uchun ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi zarurligini aniqlashda yo'l ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Talab va taklif hamda raqobatchilik muhitidagi o'zgarishlar o'z navbatida, narxlardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

- turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo'lishi va unda xususiy mulkchilikning ustuvorligi;
- tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
- raqobat kurashining mavjudligi;
- davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi;
- korxona va firmalarning ichki va tashqi shart-sharoitlar o'zgarishlariga moslashuvchanligi.

Bozor iqtisodiyotining bu belgilari uning barcha bosqichlari uchun umumiydir. Lekin bozor iqtisodiyotining mazmuni va belgilari haqida gap borganda bu iqtisodiyotning tarixan tarkib topgan ikki turini bir-biridan farq qilish zarur. Uning birinchi ko'rinishi uzoq vaqt davomida shakllanib, g'arbdagi rivojlangan mamlakatlarda XIX asrning oxirlarigacha davom etib keldi. U iqtisodiy adabiyotlarda **klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti** deb nom oldi. Uning asosiy belgilari: a) iqtisodiy faoliyat yuritishning xususiy mulkchilikka asoslanganligi; b) kapital va ishlab chiqarishning korxona miqyosida umumlashganligi; v) tadbirkorlar, ishchilar, tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning shaxsan erkinligi; g) tadbirkorlarning yuqori foyda olish uchun kurashlari; d) iqtisodiyotning talab va taklif, erkin bozor narxi va raqobat kurashlari asosida tartiblanishi; e) aholining ijtimoiy himoya qilinmasligi, ishsizlikning va aholi ijtimoiy tabaqalashuvining kuchayishi; j) bozor harakatlarining stixiyali amalga oshirilishi, noma'lum bozor uchun ishlash.

Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko'rinishi **hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti** deb atalib, XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan buyon amal qiladi. Uning asosiy belgilari:

a) iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatini yuritishning turli mulkchilik shakllari, ya'ni xususiy, davlat, jamoa, aralash va boshqa mulk shakllariga asoslanganligi;

b) kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada umumlashganligi, mulkning bir qismi yirik monopoliyalar va davlat qo'lida to'planib, milliy va xalqaro miqyosda umumlashganligi;

v) iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki. Bunda davlat fan-texnika taraqqiyoti va boshqa omillarni hisobga olib, turli iqtisodiy tadbirlarni, rivojlanish istiqbolini aniqlash, turli sohalar va tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni tartibga solish chora-tadbirlarini belgilash vazifalarini bajaradi;

g) xo'jaliklarni yuritishda reja usulidan foydalanishning kuchayishi (biznes rejasi, prognozlash, turli xil dasturlar asosida ishlash, buyurtmalarni bajarish, marketing tizimi orqali boshqarish va boshqalar);

d) ijtimoiy himoyaning kuchayishi. Bunda davlatga, jamoalar va xususiy kishilarga tegishli turli xil ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta fondlarining vujudga kelishi.



5.2-rasm. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari

Bu har ikkala turda bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari va xususiyatlari saqlanib qoladi, ularda tovar va pulning harakati, ularning qonun-qoidalari rivojlanish uchun negiz va shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi zamon bozor xo'jaligi iqtisodiyotdagi xususiy va davlat sektorlarining o'zaro aloqasiga asoslanadi. Iqtisodiyotga ta'sirning intensivligi darajasi hamda davlat tomonidan hal etiluvchi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, zamonaviy bozor iqtisodiyotining quyidagi modellari farqlanadi (5.2-rasm).

Bozor iqtisodiyotida yuqorida tilga olingan belgi va tartiblar bilan birga, barcha hozirgi zamon iqtisodiy tizimlariga xos bo'lgan bir qator shart-sharoitlar bo'lishi taqozo qilinadi. Bular quyidagilar: ilg'or texnologiya va yangi texnik vositalardan keng miqyosda foydalanish; ishlab chiqarishning ixtisoslashishi, modernizatsiyalash diversifikatsiyalash va boshqalar.

5.2. Bozor iqtisodiyotida doimiy va asosiy muammolarning hal qilinishi

Ijtimoiy xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo'lini tanlagan har qanday mamlakat mazkur iqtisodiy tizimning qanday amal qilishini mukammal bilishi muhim hisoblanadi. Buning uchun, eng avvalo, har qanday iqtisodiy tizimning umumiy muammolarini ifodalovchi quyidagi savollarga javob topish kerak bo'ladi:

1) qanday mahsulot va xizmatlarni, qancha miqdorda ishlab chiqarish zarur?

2) ushbu mahsulot va xizmatlarni qanday texnika va texnologiya vositasida ishlab chiqariladi?

3) bu mahsulot va xizmatlar kim uchun ishlab chiqariladi?

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu muammolar qisqacha – «nima, qanday qilib, kim uchun ishlab chiqarish zarur?» tarzida ifodalanadi. Bu muammolar an'anaviy iqtisodiyotda asosan urf-odatlar, ko'p yillar davomida mavjud bo'lib kelayotgan an'analar, milliy, diniy, iqlim va boshqa omillar ta'sirida hal etilsa, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizimda markazlashtirilgan holdagi taqsimot va rejalashtirish orqali hal etiladi. Lekin bozor iqtisodiyoti bu muammo-

larni o‘zgacha tarzda hal etadi. Bunda bozor iqtisodiyoti tizimining o‘ziga xos xususiyatlaridan, uning talablari va qonun-qoidalaridan kelib chiqadi.

Nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida eng avvalo iqtisodiy resurslar bilan ta’minlanish darajasiga, talab va taklif nisbatiga bog‘liq. Bunda mavjud bo‘lgan resurslar qanday hajmda band qilinishi yoki qaysi qismi ishlab chiqarish jarayonida foydalanishi ham hisobga olinishi lozim. Bu savolga javob berishda korxona zarar ko‘rmaslik va yuqori darajada foyda olish uchun intilish qoidasiga amal qiladi. Shu bilan birga mahsulot va xizmatlarning qanday to‘plami jamiyat talablarini to‘la qondira olishi e’tiborga olinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat talab mavjud bo‘lgan, binobarin, foyda keltirishi mumkin bo‘lgan mahsulot va xizmatlar yaratiladi. Bunda korxona foydasi hajmini tovarni sotishdan olinadigan umumiy pul daromadi va uni ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari o‘rtasidagi nisbat aniqlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy (sof) foyda oluvchi tarmoqning kengayib borish tamoyili amal qiladi. Chunki foyda darajasining nisbatan yuqoriligi bu tarmoqqa kam foydali tarmoqlardagi kapitallarning oqib o‘tishini ta’minlaydi. Ammo tarmoqda yangi ishlab chiqaruvchilarning paydo bo‘lishi o‘zini o‘zi cheklovchi jarayon hisoblanadi. Chunki tarmoqqa yangi korxonalarning kirib kelishi bilan uning mahsuloti taklifi bozor talabiga nisbatan jadal ravishda o‘sadi. Bu asta-sekin mazkur mahsulot narxining pasayishiga hamda iqtisodiy foydaning yo‘qolishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, raqobat bu foydani yo‘qqa chiqaradi. Bozordagi talab va taklifning iqtisodiy foyda nolga teng bo‘lgan holdagi nisbati bu tarmoq mahsulotining umumiy miqdorini belgilab beradi. Shu vaziyatda tarmoq ishlab chiqarishning «muvozanatli» hajmiga yetadi. Bozor talabi yoki taklifida yangi o‘zgarishlar ro‘y bermaguncha bu muvozanat buzilmaydi. O‘z-o‘zidan aniqki, tarmoqdagi tovar ishlab chiqarishdan zarar ko‘rilishi kutilgan holatda korxona bunday iqtisodiy faoliyat turidan voz kechadi. Buning natijasida zarar ko‘ruvchi yoki past foyda darajasiga ega bo‘lgan tarmoqda ishlab chiqarish hajmi keskin qisqarib, taklifning talabdan ortda qolishi ro‘y beradi. Bu esa,

sekin-asta mahsulot narxining ko'tarilishi hamda foyda darajasining oshishiga sharoit yaratadi. Natijada tarmoq o'zining ishlab chiqarish hajmini qayta tiklaydi va faoliyati barqarorlashadi.

Ishlab chiqariladigan mahsulot turi va miqdorini aniqlashda iste'molchi talabi alohida, muhim rol o'ynashini ta'kidlash lozim. Iste'molchilarning tovarlarni sotib olish maqsadida pul daromadlarini sarflashga tayyorliklari bozor talabi sifatida namoyon bo'ladi. Agar bunday talab hajmi ahamiyatli darajaga yetsa, korxona ushbu mahsulotni ishlab chiqarishga rag'bat sezadi, ya'ni iste'molchi talabining ko'payishi, bu mahsulotni ishlab chiqaruvchi tarmoq uchun iqtisodiy foyda keltiradi. Iste'molchi talabining qisqarishi esa tarmoq ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Qisqasi, bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchining talabi qanday mahsulot turlarini ishlab chiqarish masalasini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, nima ishlab chiqarish zarurligini belgilash ko'p darajada resurslarni yetkazib beruvchilarga ham bog'liq. Resurslarga bo'lgan talab – bu hosilaviy talab, ya'ni bu resurslar vositasida ishlab chiqariluvchi tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabdan kelib chiqadi. O'z daromadlarini yuqori darajaga yetkazishda resurslarni yetkazib beruvchining ham bozor talabidan kelib chiqishi shubhasiz. Faqat iste'molchi talabiga muvofiq tushuvchi tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar foyda olib ishlashi mumkin va shu korxonalarning resurslarga bo'lgan talabi kuchayadi. Qisqasi, iste'molchining afzal ko'rishi uning talabi orqali namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqaruvchi va resurslarni yetkazib beruvchilar o'z manfaatlarini ta'minlash uchun bu talabga mos ravishda, ya'ni **yuqori foyda olish uchun pul to'lash qobiliyatiga ega bo'lgan iste'molchilarga zarur bo'lgan turdagi va miqdordagi tovarlarni ishlab chiqaradi va resurslarni yetkazib beradi.**

Tovarlar qanday usulda ishlab chiqariladi yoki ishlab chiqarish qanday tashkil qilinadi, degan savolga ham bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos javob bo'ladi. Bunda uchta uzviy bog'liq masalaga e'tibor beriladi:

- resurslarning alohida tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi;
- korxonalar tomonidan ishlab chiqarishning amalga oshirilishi;
- har bir korxona resurslarining uyg'unlashuvi va texnologiyani tanlash.

Bozor tizimi resurslarni avvalo yuqori talab va foyda darajasiga ega tarmoqlarga yo'naltiradi. Past foyda darajasiga ega yoki foyda olmaydigan tarmoqlar iqtisodiy resurslardan mahrum bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida eng zamonaviy texnologiyani qo'llashga layoqatli bo'lgan va shunga intilgan korxonalar samarali faoliyat ko'rsata oladi. Korxonalarning iqtisodiy samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq: mavjud texnologiya, ya'ni mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi resurslarning oqilona uyg'unlashuvi darajasi hamda iqtisodiy resurslarning narxlari. Boshqacha aytganda, iqtisodiy samaradorlik mahsulotning muayyan hajmini ishlab chiqarishga resurslarni eng kam darajada sarflagan holda erishishni bildiradi.

Bozor iqtisodiyoti o'zgaruvchan bo'ladi: u iste'molchilar, ishlab chiqarish texnologiyasi, iqtisodiy resurslar tarkibi o'zgarishiga muvofiq holda o'zgaradi. Ayni paytda resurslarni taqsimlashning ancha samarali hisoblangan tizimi vaqt o'tishi bilan iste'molchi didining o'zgarishi, ishlab chiqarish yangi texnologiyasining yaratilishi va taklif qilingan resurslar tarkibining qayta o'zgarishi oqibatida eskirishi va samarasiz bo'lib qolishi mumkin.

Iste'molchi dididagi o'zgarishlarning mahsulot narxi va foydaga ta'siri ayrim tarmoqlarni qisqartirish va boshqalarini kengaytirishni taqozo qiladi. Bu o'zgartirish resurslar bozori orqali amalga oshiriladi, chunki kengayib boruvchi tarmoq resurslarga ko'proq talab bildirsa, qisqarib boruvchi tarmoq ularga talabni kamaytiradi. Buning natijasida vujudga keluvchi resurs narxlarining o'zgarishi, resurslarni qisqaruvchi tarmoqlardan kengayuvchi tarmoqlarga qayta taqsimlaydi. Demak, bozor tizimi texnologiyaning o'zgarishi va har xil resurslar taklifi tarkibidagi o'zgarishlarga moslashadi.

Bozor iqtisodiyoti fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantiradi. Birinchi bo'lib tejamli texnologiyalarni qo'llash korxonaning o'z raqobatchilari oldidagi vaqtinchalik ustunligini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi korxonaning iqtisodiy foyda olishini bildiradi. Bundan tashqari, bozor tizimi yangi texnologiyaning tez tarqalishi uchun sharoit ham yaratadi. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona yuqori foyda berishi mumkin bo'lgan texnika va texnologiya yordamida ishlab chiqarishni amalga oshira-

dilar. Qisqacha xulosa qilinadigan bo'lsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida «nima, kim uchun va qanday qilib ishlab chiqarish zarur» degan muammoga quyidagicha javob beriladi:

a) yuqori foyda beradigan barcha tovarlar va xizmatlar to'lovga layoqatli iste'molchilar talabiga yetarli hajmda ishlab chiqariladi;

b) tovar va xizmatlar to'lov layoqatiga ega, yuqori foyda olish imkonini beradigan xaridorlar uchun ishlab chiqariladi;

v) yuqori foyda olishni ta'minlaydigan, resurslarni tejash imkonini beradigan texnika va texnologiya yordamida ishlab chiqariladi.

5.3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari

Oldingi bobdan ma'lumki, mavjud iqtisodiy tizimlar orasida bozor iqtisodiyoti o'zining afzalliklari bilan ajralib turadi. Aynan shu afzalliklar mazkur iqtisodiy tizimning samarali va barqaror amal qilishi, rivojlanishiga zamin yaratadi. Eng avvalo, bozor iqtisodiyotining uchta ustun jihatini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Bozor tizimi resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Buning mazmuni shuki, raqobatli bozor tizimi resurslarni jamiyatga eng zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi. U ishlab chiqarish uchun resurslarni uyg'unlashtirishning ancha samarali usullarini va ishlab chiqarishga yangi, ancha samarali texnologiyani qo'llashni taqozo etadi. Qisqasi, bozor tizimi shaxsiy manfaatni shunday tartibda boshqaradiki, u jamiyat uchun mavjud resurslardan zarur tovarlarni talab darajasidagi miqdorda ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

2. Iqtisodiy faoliyat va tanlov erkinligi. Bozor iqtisodiyoti tizimining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u shaxsiy erkinlik roliga ustuvorlik beradi. Ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishning asosiy muammolaridan biri bo'lib alohida shaxs va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uyg'unlashtirish hisoblanadi. Bunday uyg'unlashtirishni amalga oshirishning ikki usuli mavjud. Birinchisi – markazdan boshqarish va majbur qilish tadbirlarini qo'llash bo'lsa, ikkinchisi – bozor tizimi vositasi orqali ixtiyoriy hamkorlikdir. Faqat bozor tizimigina iqtisodiy faoliyatni majbur qilmasdan uyg'unlashtirishga

layoqatlidir. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qilib, aynan shu tufayli u muvaffaqiyatga erishadi.

3. Iqtisodiy subyektlar tinimsiz harakat va izlanishlarining ta'minlanishi. Bozor iqtisodiyotining yana bir afzalligi shundaki, unda har bir shaxs, korxona, firma va korporatsiyalar tinimsiz harakatda va izlanishda bo'lishadi. Chunki xo'jasizlik, sustkashlik, beg'amlik har qanday xo'jalik tizimini xonavayron qilishga olib keladi. Jismoniy va yuridik shaxslar raqobatga bardosh berish, doimiy ravishda foyda olishni ta'minlash uchun kurashadi. Natijada bozor iqtisodiyoti million-million kishilarni harakatga soladi, ularni boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi.

Bozor iqtisodiyotning yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy afzalliklari bilan bir qatorda boshqa ko'plab **ijobiy jihatlarini** ham sanab o'tish mumkin. Jumladan:

- uning ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi va ko'nikishining yuqori darajasi;
- fan va texnika yutuqlaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishning jadal sur'ati;
- turli-tuman ehtiyojlarni qondirish, mahsulot sifatini oshirish qobiliyati;
- buzilgan muvozanatni nisbatan tezlik bilan qayta tiklash;
- cheklangan axborot – turli resurslarning narx darajasi va ularning sarflanish darajasiga yo'nalgan holda bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli amal qila olish imkoniyati.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, **bozor iqtisodiyotining ham o'ziga xos kamchilik va ziddiyatlari mavjud.** Bozor iqtisodiyotining **asosiy ziddiyati** shundan iboratki, u o'zining bosh nazorat mexanizmi –raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qo'yadi va hatto buni rag'batlantiradi. Bunday iqtisodiyotda raqobat kuchsizlanishining ikkita asosiy manbai mavjud:

1) bozor iqtisodiyoti sharoitidagi erkin muhitda tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o'z iqtisodiy mavqelarini yaxshilashga intilib, raqobatning cheklangan yo'lidan ozod bo'lishga harakat qiladilar. Firmalarning qo'shilib ketishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, raqo-

batlashuvning noqonuniy usullari (masalan, jismoniy kuch ishlatish, zo'ravonlik, tazyiq o'tkazish va h.k.) ni qo'llash – bularning barchasi raqobatning kuchsizlanishi va uning tartibga soluvchilik ta'sirining pasayishiga olib keladi;

2) bozor tizimi rag'batlantiradigan texnika taraqqiyoti ham raqobatning zaiflashishiga olib keladi. Eng yangi texnologiya, odatda: a) juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni; b) yirik bozorlar bo'lishini; v) kompleksli, markazlashgan va qat'iyan bir butun bo'lib birlashgan bozorning tarkib topishini; g) boy va ishonchli xomashyo manbalarini talab qiladi. Bunday texnologiya bozorning hajmiga nisbatan keng miqyosdagi hisoblanuvchi ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishi zarurligini bildiradi. Boshqacha aytganda, eng yangi texnologiyani qo'llash asosida ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligiga erishish, aksariyat hollarda ko'p miqdordagi mayda firmalar emas, uncha ko'p bo'lmagan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

Bozor tizimi jamiyatning yuqori ehtiyojli tovarlar bilan ta'minlanishiga ham kafolat bermaydi. Raqobatning kuchsizlanib borishi iste'molchining erkinligiga ham putur etkazadi. Bozor tizimi o'zining iste'molchining xohishiga ancha mos keluvchi resurslarni taqsimlash layoqatini ham yo'qotib borishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotning navbatdagi ziddiyati jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqalanishi bilan bog'liq. Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma'lum darajada yumshatish mumkin.

Bozor iqtisodiyotining umumiy e'tirof qilingan kamchiliklaridan yana biri shundan iboratki, u ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif qilishga qodir emas. Shu sababli jamiyat a'zolarini bunday ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash davlat zimmasida bo'ladi.

Tovarlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi ro'y berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf eta olmaslik ham bozor iqtisodiyotining ziddiyati hisoblanadi. Bu pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiya jarayoni orqali namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlari bilan bir qatorda quyidagi **kamchilik yoki salbiy jihatlari** ham mavjud:

- atrof-muhitni ishlab chiqarish va boshqa faoliyat turlari ta'siridan muhofaza qilish mexanizmining mavjud emasligi;
- resurslarning qayta tiklanmaydigan turlarini saqlash imkoniyatining yo'qligi;
- mehnat qilish bilan bog'liq kafolatlarning mavjud emasligi;
- fanda fundamental va amaliy tadqiqotlarning rivojlanishiga ko'maklashuvning yo'qligi;
- rivojlanishning beqarorligi, inqirozli holatlarning bo'lib turishi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlik darajasining oshishi kabi holatlarining mavjudligi.

Shuningdek, 2008-yilda AQSH ipoteka kreditlash tizimida vujudga kelgan hamda ko'plab rivojlangan mamlakatlarga tarqalib, avval iqtisodiyotning moliyaviy sektorida, keyinchalik esa real sektor hamda ijtimoiy sohasida jiddiy talofatlarga olib kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham ko'p tomondan bozor iqtisodiyotining ziddiyatli jihatlari ta'siri bilan bog'liq. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bozorning o'zini-o'zi tartiblash mexanizmini mutlaqlashtirish va bunda davlatning nazorat qilish, tartibga solish vazifalariga umuman e'tibor qaratmaslik pirovardida inqiroz holatlarining ro'y berishiga olib keldi. O'zbekistonda davlat tomonidan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni tartibga solish jarayonlariga doimiy e'tibor qaratilib, zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi.[31]

5.4. Bozor va uning vazifalari

Bozor tushunchasi bozor iqtisodiyotining muhim kategoriyasi bo'lib, iqtisodiyot nazariyasida ham, xo'jalik yuritish amaliyotida ham, barcha mamlakatlar tajribasida ham qo'llaniladigan ilmiy-amaliy tushunchadir. Eng avvalo «*bozor*» va «*bozor iqtisodiyoti*» tushunchalarining bir-biridan farqlanishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Chunki,

[31] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 8-b.

ko'pincha bu ikki tushunchani bir xil ma'noda ifodalash, ba'zi adabiyotlarda sinonim so'zlar sifatida qo'llash yoki ularni chalkashtirish hollari uchraydi. Bozor jamiyatda bozor iqtisodiyoti shakllangunga qadar mehnat taqsimotining ro'y berishi natijasida vujudga kelgan bo'lib, u ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ayirboshlash jarayonini o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti esa bozor munosabatlarining tarixan uzoq davr mobaynida rivojlanishi natijasi bo'lib, tovar-pul qonunlari asosida tashkil etiluvchi va faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiy tizimni anglatadi.

Bozor iqtisodiyoti takror ishlab chiqarishning barcha fazalarini: ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarini qamrab oladi. Bozor esa faqat bitta fazani, ya'ni ayirboshlash fazasini o'z ichiga oladi. Bozor tushunchasi yuzaki qaraganda oddiy tushunchaga o'xshab ko'rinadi, ayrimlar bozorni tovarlar sotiladigan va xarid qilinadigan joy deb o'ylashadi. Lekin uning ichki mazmuniga e'tibor berilsa, u ko'p qirrali bo'lib, mazmuni o'zgaruvchan ekanligini, turli davrlarda turli ma'noni anglatishini bilib olish mumkin. Bozor tushunchasi tovar ayirboshlashning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u ibtidoiy jamoa tuzumining oxirlarida kelib chiqqan va dastlab tovar almashuv, tovar ayirboshlash joyi yoki maydoni degan mazmunni anglatgan. Dastlab, bozor ikki yoki bir necha qabila a'zolari bir-birlari bilan tovar almashuv joyi sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlarning paydo bo'lishi bilan alohida maydonlar ajratilib, unda kishilar oldi-sotdi qilganlar. Lekin hali u davrlarda tovar ayirboshlash T – T ko'rinishida, ya'ni bir turdagi tovarga boshqa turdagi tovarni ayirboshlash shaklida bo'lgan. Bunday ayirboshlashda vaqt va masofa bo'lmay, bir vaqtning o'zida o'sha joyda almashuv jarayoni sodir bo'lgan. Keyinchalik tovarlarni bunday tarzda ayirboshlashning ziddiyatlari kuchayib borishi natijasida pul kelib chiqib, sotish va sotib olish jarayoni ikkiga ajralgan va T – P – T ko'rinishini olgan. Endi tovarni sotish (T – P) va sotib olish (P – T) zamon va makon jihatidan mos kelmasligi mumkin. Chunki sotuvchi o'z tovarini bir joyda pulga ayirboshlab, o'ziga kerakli tovarni boshqa vaqt va boshqa joyda sotib olishi mumkin. Pulning kelib chiqishi bilan savdogarlar, ya'ni tovarlarni ishlab chiqaruv-

chidan olib iste'molchiga, bir joydan ikkinchi joyga olib borib sotish bilan shug'ullanadigan maxsus guruhlar paydo bo'ldi.

Mehnat taqsimoti chuqurlashib savdo sohasi vujudga keldi. Bu soha tovar-pul harakatini tezlashtirish imkonini berib, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchini bog'laydigan vositaga aylandi. Bunda ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi ham bir-birlari bilan uchrashishi shart bo'lmay, ular savdogarlar-vositachilar orqali aloqa qilishlari mumkin bo'lib qoldi. Endi bozor tushunchasining mazmuni o'zgarib, yangi ma'no kasb etadi, ya'ni tovar-pul muomalasining yangi shakli sifatida namoyon bo'la boshladi. Oldi-sotdi jarayonida yangi o'ziga xos muhim tovar – ishchi kuchining paydo bo'lishi bilan bozor umumiy tus olib, uning mazmuni yanada kengaydi. Endilikda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlargina emas, balki ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi ham bozor jarayoni orqali o'tib, ishlab chiqarishga jalb etila boradigan, ularning bir-biriga o'zaro ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita – bozor orqali sodir bo'la boshladi. Shunday qilib, hozirgi davrda bozor ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilarning ko'p qirrali murakkab aloqalarini, ularning o'zaro bir-bir-lariga bo'lgan ta'sirini bog'laydigan bo'g'in, jamiyat taraqqiyotida modda almashuvini ta'minlaydigan jarayon sifatida shakllandi. **Bozor – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida vujudga keladigan munosabatlar majmuasi.**

Bozorning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- sotuvchi va xaridorlarning o'zaro kelishuvi, ekvivalentlilik prinsipi asosida ayirboshlash;
- sotuvchilarning xarajatlari qoplanib, foyda olishi;
- to'lovga layoqatli bo'lgan xaridorlarning talabini qondirish va raqobatchilik.

Bozor tovarlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash, pulning vujudga kelishi, ularning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan tarixiy tushuncha bo'lib, hozirgi davrda keng tarqalgan obyektiv iqtisodiy jarayondir.

Bozordagi tovar va xizmatlar miqdori talabga nisbatan kam bo'lsa narxlar oshib ketadi, ayirboshlashning ekvivalentlik muvozanati buziladi, natijada tovarni sotuvchi me'yoridan ortiqcha daromad

olish imkoniga ega bo‘ladi. Aksincha, bozorda tovarlar miqdori talab miqdoridan oshib ketsa, narxlar pasayib ketib, sotuvchilar zarar ko‘radilar. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida sustkashlik, no‘noqlik va xo‘jasizlik yuz berib, ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yilsa ham zarar oshib ketadi, chunki bozor bunday behuda sarflarni hisobga olmaydi. Bularning barchasini bozor o‘z mexanizmi orqali amalga oshiradi. **Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan dastak va vositalar.**

Bozorning iqtisodiy mazmunini ochib berishda uning obyekti va subyektini ajratib ko‘rsatish lozim bo‘ladi. **Bozor obyekti – ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.**

Hozirgi sharoitda oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari do‘konlari, avtomobilga xizmat ko‘rsatish stansiyasi, benzin quyish shaxobchalari, sanoat tovarlari do‘koni, tijoratchilarning savdo shaxobchalari, turli xil supermarketlar, yirik savdo markazlari va savdo yarmarkalari, umumiy ovqatlanish shaxobchalari bozorning odatdagi ko‘rinishlari hisoblanadi. Fond birjalari, valyuta bozori, don birjalari va auksion kabilar bozorning yuqori darajada rivojlangan ko‘rinishlaridir.

Bozor subyekti – ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi. Bozor subyektlari ikki guruhga – sotuvchi va xaridorlarga bo‘linib, ular bozor munosabatlarining turli vazifalarini bajaradi. Sotuvchilar bozorga tovar va xizmatlarni taklif etadi, xaridorlar esa ularga talab bildiradi. Bozor o‘z subyektlari manfaatini bir-biriga bog‘lab, ularni muvofiqlashtiradi. Ayrim turdagi bozorlarda sotuvchi va xaridorlar o‘rtasida bevosita aloqa mavjud bo‘lsa, boshqalarida bilvosita aloqa mavjud bo‘lib, ular hech qachon bir-birini ko‘rmaydi yoki bilmaydi.

Bozorning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan Yaratilgan tovar va xizmatlarni, iqtisodiy resurslarni iste’molchilarga yetkazib berishdan iboratdir. Bu yerda bozor ishlab chiqarish bilan iste’molni bir-biriga bog‘laydi, ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmat o‘z iste’molchisini topadi. Bunda bozor vositachi bo‘lib xizmat qiladi. Bozorda qiymat shakllari almashadi. U qiymatni

tovar shaklidan pul shakliga aylantiradi. Individual mehnat sarflari sifatida chiqqan tovarlar bozor tomonidan tan olinsa, ijtimoiy mehnat sarfini namoyon qiladi va tovarning bozor qiymati hosil bo'ladi.

Bozor ayirboshlash kategoriyasi bo'lib, ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanib turishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish, yangidan boshlanishi uchun Yaratilgan tovarlar sotilishi va ularning pulga aylanishi, puldan esa kerakli iqtisodiy resurslar xarid qilinishi zarur. Bozor vositasida tovarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga, ishlab chiqaruvchilar resurslar sotib olish yo'li bilan sarflangan ishlab chiqarish vositalari o'rnini qoplaydigan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kerakli moddiy va mehnat resurslariga ega bo'ladilar. Bozor orqali resurslarning erkin harakati ta'minlanadi va ularning tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishi ro'y beradi. Iste'molchilar bozorda u yoki bu tovarga bo'lgan talabini bildiradi.

Bozor bu talabni ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilarga uzatadi. Resurslar talab bildirgan tarmoqlar va sohalar o'rtasida taqsimlanib turadi.

Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turish vazifasini talab, taklif, raqobat va narxlar yordamida bajaradi. U o'zida talab va taklifni jamlab, bu bilan nimani, qancha miqdorda va qaysi vaqtda ishlab chiqarish kerakligini aniqlab beradi. Bozor narx vositasida iqtisodiy resurslarni tovarlarga talab kamaygan tarmoqlardan talab ortgan tarmoqlarga oqib kelishini ta'minlaydi. Shuningdek, adabiyotlarda bozorning boshqa ko'plab qo'shimcha vazifalari ham keltiriladi. Bu vazifalarni yaqqolroq tasavvur etish uchun ularni maxsus rasm ko'rinishida ifodalash mumkin (5.3-rasm).



5.3-rasm. Bozorning vazifalari

Bozor turli xil vazifalarni bajarsa-da, ular o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Bozorning iqtisodiy mazmunini chuqurroq tushunish uchun uning turlari va ichki tuzilishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5.5. Bozorning turlari va tuzilishi

Hozirgi davrda bozor murakkab tuzilishga egadir. Bozorning ichki tuzilishi murakkab bo'lganligi sababli uni turkumlashga quyidagi mezonlar asos qilib olinadi: bozorning yetuklik darajasi, sotiladigan va sotib olinadigan mahsulot turi, bozor subyektlari xususiyatlari, bozor miqyosi, iqtisodiy aloqalar tavsifi va boshqalar.

Bozorning **yetuklik darajasiga qarab** rivojlanmagan bozor, erkin (klassik) bozor, hozirgi zamon rivojlangan bozorlarga bo'linadi. **Rivojlanmagan, shakllanayotgan bozor tasodifiy tavsifga ega bo'lib, unda tovarni tovarga ayirboshlash (barter) usuli ko'proq qo'llaniladi.** Bozorning bu turi tarixan hali haqiqiy pul mavjud bo'lmagan davrga to'g'ri keladi. Lekin hozirgi davrda ham ayrim mamlakatlarda pul inqirozga uchrab, ijtimoiy ishonchni yo'qotgan, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ham bozorning bunday turi amal qilishi mumkin.

Erkin (klassik) bozor – tovar va xizmatlarning har bir turi bo'yicha juda ko'p ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, sotuvchilar va xaridorlar mavjud bo'lib, ular o'rtasida erkin raqobat amal qiluvchi, narxlar talab va taklif o'rtasidagi nisbatga qarab erkin shakllanuvchi bozordir. Erkin bozorda raqobatning turli usullari qo'llanilib, aholi va ishlab chiqaruvchilar keskin tabaqalanishi ro'y beradi.

Hozirgi zamon rivojlangan bozori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash va aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida bozor aloqalarining davlat tomonidan tartibga solib turilishiga asoslanadi. Demak, davlat ham bozor ishtirokchisi bo'lib, u bozor aloqalarini tartiblashtiradi va boshqaradi. Hozirgi zamon rivojlangan bozorida turli xil birjalar va boshqa oldi-sotdi jarayoniga xizmat qiluvchi sohalar taraqqiy etgan bo'ladi. Raqobatning asoratli kurashlari,

aholining tabaqalashuvi yumshatilib, ularning daromadlari o'rtasidagi tafovutlar me'yor darajasida ushlab turiladi.

Bozor **hududiy jihatdan** ham turlicha bo'lishi mumkin. Bular mahalliy bozorlar (Toshkent bozori, Samarqand bozori, Urgut bozori, London bozori, Nyu-York bozori, Pekin bozori va boshqalar); milliy bozorlar (O'zbekiston bozori, Rossiya bozori, Ukraina bozori, Angliya bozori, Amerika bozori, Xitoy bozori va boshqalar); hududiy bozorlar (Markaziy Osiyo yoki Osiyo bozori, G'arbiy Yevropa bozori) va nihoyat jahon bozori.

Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko'ra bozorlar quyidagi turlarga bo'linadi: iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi (resurslar) bozori, valyuta bozori va fond birjalari, ilmiy-texnika kashfiyoti va ishlanmalar bozori.

Muomalaga chiqadigan subyektlarning xususiyatiga ko'ra ulgurji va chakana savdoni ajratish mumkin. Chakana savdoda, asosan, sotib oluvchilar fuqarolar hisoblanadi. Turli shakldagi korxonalar, firmalar, xususiy do'konlar va boshqalar esa sotuvchi hisoblanadi. Ulgurji savdoda mahsulotlar yirik partiyalarda ko'tarasiga sotiladi.

Bozorning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib **iste'mol tovarlari va xizmatlar bozori** hisoblanadi. Bu bozorda xo'jalik subyektlarining barcha uchta turi: uy xo'jaliklari, davlat va korxonalar qatnashadi.

Iste'mol tovarlari va xizmatlari bozorining maxsus turi **intellektual tovarlar bozoridir**. Bu bozorda aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar – ilmiy g'oyalar, texnika yangiliklari, san'at va adabiyot asarlari, har xil axborotlar oldi-sotdi qilinadi. Intellektual bozor tarkibida ilmiy-texnika ishlanmalarini ayirboshlash katta o'rin tutadi. U amalda patent, litsenziya va nou-xau sotishdan iborat bo'lib, bu bozorda asosan, innovatsiya firmalari ish ko'radi. Mazkur firmalar yangiliklar yaratish, bozorda sotish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha xizmat ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish vositalari (resurslar) bozorida tovar sifatidagi mehnat vositalari va materiallar oldi-sotdi qilinadi. Bu bozorda mashina, asbob-uskuna, xomashyo, yoqilg'i va materiallar kabi ish-

lab chiqarish vositalari ulgurji ravishda sotiladi. Resurslar bozoridagi tovarlar shaxsiy iste'molga emas, ishlab chiqarish iste'moliga xizmat qiladi, ya'ni ishlab chiqarish talabini qondiradi.

Bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar iste'mol tovarlari va resurslar bozori orqali ancha to'liq va yorqin namoyon bo'ladi (5.4-rasm).

Rasmdan ko'rinib turibdiki, uy xo'jaliklari va davlat iqtisodiy resurslarga egalik qilib, ularni resurslar bozoriga yetkazib beradi. Korxonalar resurslarga talab bildiradi. Korxonalarning resurslarni sotib olishga sarflagan pul mablag'lari resurslarni yetkazib beruvchilarning daromadlari (ish haqi, renta, foiz va foyda) oqimini tashkil qiladi.



5.4-rasm. Iste'mol tovarlari bozori va resurslar bozori hamda bozor subyektlari o'rtasida resurslar, mahsulot va daromadlar harakati[32].

Uy xo'jaliklari resurslarni sotishdan olinadigan pul daromadlarini sarflash jarayonida ko'plab tovar va xizmatlarga o'zlarining talabini bildiradi. Bir vaqtda korxonalar aynan shu bozorda tovar va xizmatlarni taklif qiladi. Tovar va xizmatlarga iste'mol sarflari oqimi korxonalarning pul tushumi yoki daromadini tashkil qiladi.

[32] Mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

Iqtisodiy resurslar bozorining tarkibiy qismini ishchi kuchi bozori tashkil qiladi. Ishchi kuchi bozorida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan iqtisodiy resursning oldi-sotdi bitimi amalga oshiriladi. Bu bozorda biznes tomonidan ishchi kuchiga bo'lgan talab, uy xo'jaliklari tomonidan bildirilgan ishchi kuchi taklifi bilan to'qnash keladi. Shunday ekan, ishchi kuchi bozorida iqtisodiy subyektlarning ikki turi – tadbirkorlar va yollanma ishchilar harakat qiladi. Ishchi kuchi insonning mehnat qilish qobiliyati sifatida tovarga aylanadi, bu qobiliyat bozor orqali uning egasidan ajratib olinishini bildirmaydi. Ishchi kuchi bozorida insonning o'zi emas, uning mehnat qilish qobiliyati ma'lum muddatga sotiladi.

Moliya bozori turli-tuman va ko'p jihatli bo'lsa ham oldi-sotdi obyekti bitta, ya'ni pul (pulga tenglashtirilgan qog'ozlar) hisoblanadi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari o'z moliyaviy resurslarini ularga ehtiyoj sezgan subyektlarga taklif qiladi.

Moliya bozorini moliyaviy bitimlarning harakatiga qarab turkumlash mumkin. Bunda moliya bozori ikkiga ajraladi: qarz majburiyatlari bozori va kapital (mulk) bozori. **Qarz majburiyatlari bozorida pul vaqtincha qarzga olinadi va shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi. Kapital (mulk) bozorida jamg'arishga qo'yilgan puldan daromad olish huquqi sotiladi va sotib olinadi.** Bu bozorda mablag'lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olib kapital bozorini ikkita bo'g'inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog'ozlar bozori. **Ssuda kapitali bozori – pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berish bo'yicha oldi-sotdi munosabatidir.** Bu bozorda asosan davlat va banklarning qisqa muddatli majburiyatlari muomalada bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori – turli ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit kabilar) ning oldi-sotdi munosabati. Mazkur bozor amalda fond birjalari, auksionlar va banklardan iborat bo'lib, unda broker va dilyerlar vositachilik qiladi. Qimmatli qog'ozlarning harakati xususiyati bo'yicha moliya bozori birlamchi va ikkilamchi (hosila) bozorlarga bo'linadi. Birlamchi bozorda yangi nusxadagi qog'ozlar sotiladi va sotib olinadi, ikkilamchi bozorda oldin chiqarilgan qimmatli qog'ozlar hara-

kat qiladi. Birlamchi bozorda qimmatli qog'ozlar sotilsa, ikkilamchi bozorda qayta sotiladi. Iqtisodiyot uchun qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori favqulodda muhim ahamiyatga ega. U xo'jalik subyektlari o'rtasida moliyaviy vositalarning erkin harakat qilishini ta'minlaydi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek fond bozorini kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida rivojlantirish"ga[33] katta ahamiyat berilmoqda.

5.6. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari

Bozorning samarali amal qilishi ko'p jihatdan uning infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir.

Bozor infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi muassasalarni quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha guruhlash mumkin:

1) **tovar va xizmatlar muomalasiga xizmat qiluvchi muassasalar** (ombor xo'jaligi, transport va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar, birjalar, auksionlar, savdo uylari, savdo-sotiq idoralari va agentliklari va h.k.);

2) **moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar** (bank, kredit muassasalari, sug'urta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari va h.k.);

3) **ijtimoiy sohaga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar** (uy-joy va kommunal xizmat idoralari, aholini ishga joylashtirish firmalari va h.k.);

4) **axborot xizmati idoralari** (ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi muassasalar).

---

[33] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 1-ilova, 3.1-band.

Bozor infratuzilmasi muassasalari tovar ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit faoliyatiga, asosiy hamkorlarni topishiga, ishchi kuchini yollashiga ko'maklashadi, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha tadbirlarini amalga oshiradi, tijorat aloqalarini o'rnatishga yordam beradi. Ularning bir qismi davlat mulki doirasida faoliyat yuritib, bepul xizmat ko'rsatsa, boshqalari mustaqil tijorat muassasasi va uyushmalaridan iborat bo'lib, ko'rsatgan xizmatlari uchun haq oladi.

Bozor infratuzilmasi tarkibida tovar va xizmatlar muomalasiga xizmat qiluvchi muassasalar muhim o'rin tutishi sababli ulardan asosiylarining qisqacha tavsifiga to'xtalib o'tamiz.

Birja – namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasasi. Uning tovar birjasi, fond birjasi, valyuta birjasi, mehnat birjasi singari turlari keng tarqalgan.

Tovar birjasi – oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil etish shakli.

Fond birjasi – qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha rasmiy jihatdan tashkil etilgan va muntazam amal qiluvchi bozor shakli.

Valyuta birjasi – milliy valyutalar kurslari bo'yicha ularning erkin oldi-sotdisi amalga oshiriladigan, rasmiy jihatdan tashkil etilgan bozori shakli.

Mehnat birjasi – ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ishchi kuchini oldi-sotdi bitimini tuzishda vositachilikni amalga oshiruvchi va ishsizlarni ro'yxatga oluvchi muassasa.

Birjada ishtirokchilar tomonidan tovar ayirboshlash to'g'risidagi bitimlar tuziladi, lekin tovarni yetkazib berish va uning haqini to'lash birjadan tashqarida yuz beradi. Bunda tovarning egasi va xaridorlari qatnashishi shart emas. Ular nomidan ishni brokyerlar (dallollar) yuritadi. **Broker (makler) – bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma.** Ular odatda mijozlar topshirig'iga ko'ra va uning hisobiga ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga o'z nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin.

Birjaning yana bir xususiyati shundaki, bu yerda hali ishlab chiqarilmagan, lekin tayyorlanishi aniq bo'lgan, oldin sotib olinib, egasi ixtiyoriga kelib tushmagan tovarlar ham sotiladi.

Birjalar ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan birjalarda ayrim turdagi yoki bir guruh tovarlar, universal birjalarda har xil tovarlar sotiladi.

Auksion – alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi. Auksionda savdo tovarlarning nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha, ommaviy sotuvga qo'yish yo'li bilan o'tkaziladi. Auksion e'lon qilingan vaqtda va ma'lum davrda o'tkaziladi. Bunda tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumi va hajmi hisobga olinadi. Auksion savdosida namuna tovarlar ro'yxatda ko'rsatilgan tartibda savdoga qo'yiladi, xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan kishi tovarni sotib oladi. Auksionlarda san'at asarlari, noyob buyumlar, kolleksiyalar ham sotilishi mumkin.

Savdo yarmarkasi – muayyan belgilangan vaqtda va joyda o'tkaziluvchi hamda o'tkazilish jarayonida ulgurji savdo bitimlari tuziluvchi tovar namunalari ko'rgazmasi. Savdo bitimlari tovar ishlab chiqaruvchi bilan savdo firmalari o'rtasida tuzilib, unda bevosita iste'molchi qatnashmaydi.

Savdo uyi – o'z ichiga tashqi savdo kompaniyasi bilan bir qatorda ishlab chiqarish, bank, sug'urta, transport, ulgurji-chakana va boshqa turdagi firmalarni oluvchi keng tarmoqli savdo kompaniyasi. U ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan savdo uyi ayrim tovarlar bilan (kiyim-kechak, oyoq kiyim, gazlama va h.k.), universal savdo uyi har xil tovarlar bilan savdo qiladi. Savdo uylari tarkibida savdo firmalari muhim o'rin tutadi. Ular tijorat ishini yurituvchi va ixtisoslashgan savdo-sotiq korxonalaridir. Firmalar mustaqil yoki yirik sanoat korporatsiyalari tarkibida ish yuritib, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanadigan turlarga bo'linadi. Ayrim firmalar har ikkala savdo turi bilan ham shug'ullanadi. Savdo uylari o'z nomidan va ko'pincha o'z hisobidan eksport-import hamda boshqa savdo aloqalarini olib boradi. Tashqi

savdo uylari savdo korxonalarini sotib olish, jihoz va uskunalarni ijaraga topshirish, kreditlar berish, sug'urta xizmati ko'rsatish orqali moliyaviy va ishlab chiqarish xizmatida ham qatnashadi.

Ulgurji savdo firmalari tovarlarni o'z mulki va mablag'lari hisobidan sotib olib, keyin iste'molchilarga sotadi. **Chakana savdo firmalari** turlicha faoliyat yuritib, ular mustaqil do'konlar, maxsus do'konlar va supermarketlardan iborat bo'ladi.

Supermarket – bu xaridorning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi. U tovarlarning deyarli barcha turlari bilan, jumladan import tovarlar bilan ham savdo qiladi. Supermarket xaridorlarga bepul maslahatlar beradi, tovarlarni buyurtma bo'yicha xaridor uyiga etkazadi, ularga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadi.

Hozirgi kunda keng rivojlanib borayotgan zamonaviy bozorlardan biri bu **elektron savdo bozorlari** bo'lib hisoblanadi. U O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi 2015-yil 9 dekabrdagi son Qonunining yangi tahriri bilan belgilanadi va amalga oshiriladi. Unda internet tarmog'idagi tijorat sohasiga oid faollikni, unda oldi-sotdini amalga oshirilishini ifodalash uchun qo'llaniladi; kompyuter tarmog'idan foydalangan holda xarid qilish, sotish, servis xizmati ko'rsatishni amalga oshirish, marketing tadbirlarini o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydi.

Elektron tijoratning an'anaviy savdo turlaridan farqi quyidagilardan iborat:

- xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega;
- savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati;
- ko'p sonli xaridorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta firmalarga murojaat qila olish imkoniyati;
- kerakli mahsulotlarni tezlikda izlab topish va ushbu mahsulotlar mavjud bo'lgan korxonalarga murojaat qilishda texnik va transport vositalaridan samarali foydalanish imkoniyati;
- xaridorlarning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati;

- hozirgi kundagi mavjud jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlarni tanlash va sotish imkoniyati;

- elektron tijoratda savdoni tashkil etish korxonalarning raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning sifatini oshirish imkoniyatini beradi.

Qo'lga kiritilgan yutuqlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, avvalambor, tizimli demokratik bozor islohotlarini joriy etish, iqtisodiy liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlarini izchil davom ettirish –bularning bari muvaffaqiyatlarning asosiy omilidir. E'tiborli jihati, yalpi ichki mahsulotning muttasil o'sishi an'anaviy xom ashyo tarmoqlari yoki bo'lmasa, jahon bozoridagi qulay kon'yunktura va ayrim xom-ashyo hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, aksincha, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirish evaziga ta'minlanmoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish natijasi o'laroq, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirish, qayta ishlangan hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlarni ko'paytirish barcha tarmoq va sanoat korxonalarining tashqi bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash imkonini bermoqda.

Infratuzilma tizimida moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar alohida o'ringa ega. Ular moliya bozori, uning asosi bo'lgan kapital bozorini shakllantiradi va amal qilish tartib-qoidalarini o'rnatadi. Moliyaviy muassasalarning aksariyati o'ziga xos belgilar bilan bir qatorda yagona umumiy belgiga ham ega. Bu ular faoliyatining doimo moliyaviy majburiyatlar bilan bog'liqligidir. Ya'ni, moliyaviy muassasalar subyektlarning ortiqcha pul mablag'larini jalb etib, o'z nomidan moliyaviy mablag'larga ehtiyoj sezgan subyektlarga pul qarz beradi.

Bozor infratuzilmasining banklar, sug'urta kompaniyalari, soliq va bojxona idoralari kabi muassasalari moliya-kredit munosabatlarida alohida o'ziga xos o'ringa ega. Ularning iqtisodiy faoliyati va moliyaviy munosabatlarda tutgan o'rni bilan keyingi boblarda batafsil tanishamiz.

Bozor iqtisodiyoti subyektlarini moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash bozor infratuzilmasining axborot xizmati idoralari, shu jumladan auditorlik firmalari zimmasiga tushadi. **Auditor firma – korxona, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boruvchi, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazuvchi muassasa.** Ular odatda aksiyadorlik jamiyati yoki kooperativ shaklda faoliyat ko'rsatadi va to'liq mustaqillikka ega bo'ladi. Auditor firmalar o'z ishini har bir mamlakatda yoki xalqaro miqyosda qabul qilingan hisob-kitob va taftish qoidalariga binoan olib boradi. Auditor firma ishida qatnashuvchi taftishchilar **auditorlar** deb ataladi. Shunday qilib, bozor infratuzilmasi va uning ko'rib chiqilgan muassasalari barcha bozor turlarining faoliyat ko'rsatishi hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlaydi.

Xulosalar

1. Bozor va bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida vujudga keladi.

2. Bozor munosabatlari subyektlari o'zaro bog'liq holda va aloqada bandlik, milliy daromad va ishlab chiqarishning umumiy hajmi kabi ijtimoiy ishlab chiqarish natijalarini aks ettiradigan va doimiy harakatda bo'ladigan daromadlar va xarajatlar oqimini shakllantiradi.

3. Bozor munosabatlarining har bir ishtirokchisi o'z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib, mustaqil qaror qabul qiladi. Aynan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinligi va mustaqilligi bozor ko'rinishidagi iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltiradi hamda o'z rivojlanishining tabiiy-evolyusion, dinamik xususiyatini belgilab beradi.

4. Bozor iqtisodiyoti – murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, birlashgan, o'zaro bog'langan va birgalikda harakatlanadigan bir qator tarkibiy tuzilmalarni o'z ichiga oladi.

5. Bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishi uchun uning infratuzilmasi shakllantiriladi. Bozor infratuzilmasi – bu bozor munosabatlariga ko'mak berishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy institutlar tizimidir.

6. Bozor iqtisodiyoti tizimining afzalligiga qaramay, shunday muammolar borki, ularni bozor mexanizmi vositasida hal etish kam samara keltiradi yoki umuman hal etib bo'lmaydi. Ana shunday muammolarni hal etish uchun davlat ularni o'z zimmasiga olishi yoki zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi kerak.

Asosiy tayanch tushunchalar

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalar.

Bozor – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisi.

Bozor obyekti – ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.

Bozor subyekti – ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi.

Uy xo'jaliklari – iqtisodiyotning asosan iste'mol sohasida faoliyat ko'rsatuvchi bozorga ishchi kuchi yetkazib beruvchi asosiy tarkibiy birlik.

Tadbirkorlik sektori – iqtisodiyotning turli sohalarida daromad (foyda) olish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi birlamchi bo'g'ini.

Davlat sektori – o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli byudjet tashkilotlari va muassasalari majmui.

Bank – iqtisodiyotning me'yorda amal qilishi uchun zarur bo'lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.

Ssuda kapitali bozori – pul shaklidagi kapitalning foiz to'lash sharti bilan qarzga berish bo'yicha oldi-sotdi munosabati.

Qimmatli qog'ozlar bozori – turli ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit kabilar)ning oldi-sotdi munosabati.

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir.

Birja – namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasasi.

Tovar birjasi – oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil etish shakli.

Fond birjasi – qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha rasmiy jihatdan tashkil etilgan va muntazam amal qiluvchi bozor shakli.

Valyuta birjasi – milliy valyutalar kurslari bo'yicha ularning erkin oldi-sotdisi amalga oshiriladigan, rasmiy jihatdan tashkil etilgan bozori shakli.

Mehnat birjasi – ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ishchi kuchining oldi-sotdi bitimini tuzishda vositachilikni amalga oshiruvchi va ishsizlarni ro'yxatga oluvchi muassasa.

Broker (makler) – bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma.

Auksion – alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi.

Savdo yarmarkasi – muayyan belgilangan vaqtda va joyda o'tkaziluvchi hamda o'tkazilish jarayonida ulgurji savdo bitimlari tuziluvchi tovar namunalari ko'rgazmasi.

Savdo uyi – o'z ichiga tashqi savdo kompaniyasi bilan bir qatorda ishlab chiqarish, bank, sug'urta, transport, ulgurji-chakana va boshqa turdagi firmalarni oluvchi keng tarmoqli savdo kompaniyasi.

Supermarket – bu xaridorning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi.

Auditor firma – korxona, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boruvchi, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazuvchi muassasa.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?

2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlari va farqlarini tushuntirib bering.

3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?

4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?

5. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.

6. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.

7. Yetuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?

8. Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko'ra bozorning qanday turlarini ajratish mumkin?

9. Hududiy jihatdan bozorning qanday turlari mavjud?

10. Bozor infratuzilmasi nima? Uning tarkibiy qismlari va asosiy unsurlariga ta'rif bering.

6-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI

Tarixdan bizga ma'lumki bir-biridan keskin farq qiladigan bir tizimdan ikkinchisiga o'tish jarayoni ma'lum o'tish davrini taqozo qiladi. Shuningdek, markazlashgan ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan voz kechib, bozor munosabatlarini shakllantirishda ham maxsus o'tish davri zarur bo'lib, bu davrning mazmuni va asosiy belgilarini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu bobda o'tish davri nazariyasi, xususan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari bayon qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari, respublikada bozor islohotlarini amalga oshirishning mazmuni, maqsadi va asosiy yo'nalishlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, bozor munosabatlariga o'tish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o'zgartirishi, keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiyalashni amalga oshirish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish kabi strategik vazifalarni amalga oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

6.1. O'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining umumiy mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri – ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davrdir.

1980–1990-yillarga kelib dunyoda ro'y bergan muhim o'zgarishlar iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to'g'risidagi nazariyalarni qaytadan ko'rib chiqish va ularga jiddiy o'zgartirishlar kiritishni zarur qilib qo'ydi. Chunki, bu vaqtga kelib g'arb mamlakatlarida uzoq vaqt-

dan beri (A.Smit davridan boshlab) hukm surib kelgan erkin iqtisodiy tartibga solish, ya'ni iqtisodiyotning o'zini-o'zi tartibga solish g'oyasi ham, iqtisodiyotni markazlashtirilgan tarzda tartibga solish va boshqarish g'oyasi ham inqirozga uchradi. Bunday sharoitda iqtisodiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo'llarini qidirib topish zarur bo'lib qoldi. Bu vaqtga kelib ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning tajribalari umumlashtirilib, iqtisodiyotning yangi taraqqiyot yo'li – ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti deb tan olindi va aksariyat davlatlar shu yo'lni tanladilar. Lekin bunday bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari (modellari) xilmaxil bo'lib, ularning umumiy va xususiy tomonlari farqlanadi.

Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha yo'llari umumlashtirilib, quyidagi uchta asosiy turga bo'linadi:

1) rivojlangan mamlakatlar yo'li;

2) rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;

3) sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li.

Bu yo'llar turli tuman va har xil bo'lishiga qaramay ularda umumiylik mavjuddir. Ularning umumiyligi shundaki, bu yo'llarning hammasi bozor iqtisodiyotiga o'tishni maqsad qilib qo'yadi va mazkur iqtisodiyotning qonun-qoidalari, amal qilish mexanizmi ko'p jihatdan umumiy bo'ladi. Shu bilan birga har bir yo'lning o'ziga xos xususiyatlari ham bor, bu esa bozor munosabatlarini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy sharoitlari har xil bo'lishidan kelib chiqadi. Masalan, bozor munosabatlariga o'tishning rivojlangan mamlakatlar yo'lida oddiy tovar xo'jaligidan erkin raqobatga asoslangan klassik yoki erkin bozor iqtisodiyotiga va undan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tiladi.

Mustamlakachilikdan ozod bo'lib, mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lining xususiyati – bu qoloq, an'anaviy iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdir. Nihoyat, sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'lining muhim belgisi markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o'tishdan iboratdir. Bu yo'lning boshqa yo'llardan farqi shundaki, totalitar iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti bilan umumiyligi yo'q, ular batamom bir-bi-

riga zid. Shu bilan birga ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarning o'zi o'tish sharoitlari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari bilan bir-birlaridan farqlanadi.

Hozirda uzoq davr mobaynida ijtimoiy xo'jalikni ma'muriy buyruqbozlik prinsiplari asosida yuritib kelgan, keyinchalik ularga bozor mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali o'ziga xos o'tish yo'lini yaratgan mamlakatlar tajribasini ham alohida ko'rsatish mumkin. Jumladan, Xitoy, Vetnam kabi ilgari faqat ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar bugungi kunda tub islohotlar orqali samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish borasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Bularning barchasi bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga **revolyusion yo'l** bilan, ya'ni jadal usulda yoki **evolyusion yo'l** bilan, ya'ni bosqichma-bosqich o'tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni birdaniga va batamom sindirish ya'ni, to'ntarish yasash talab etilib, «karaxt qilib davolash» usuli («shokovaya terapiya») deb nom oldi. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, larzalarsiz, shikastsiz samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mumkin. Islohotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, evolyusion yo'l kamroq ijtimoiy larzalarga olib keladi, ancha izchil va muqarrardir.

Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarigina emas, balki uning andozalari ham xilma-xildir. Eng avvalo, ular shunday bozor iqtisodiyoti vujudga keltirilayotgan va amal qilib turgan mamlakatlarning milliy xususiyatlari va an'analari bilan farq qiladi. Shu boisdan bozor iqtisodiyotining ma'lum andozalari ularni amalga oshi-ruvchi muayyan mamlakatga mansubligiga qarab ajratiladi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Argentina, Polsha andozalari va hokazo[34].

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurligi iqtisodiy o'sish ekstensiv omillaridan

[34] Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: O'zbekiston, 1993, 23-bet.

foydalanish imkoniyatlarining tugab borishi bilan notovar iqtisodiyotning amal qilish layoqatining pasayishi orqali ifodalanadi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ikkita muhim kamchilikka ega:

1) uning moslashuvchan emasligi, ro'y berayotgan o'zgarishlarga juda sekinlik bilan moslashib borishi;

2) mehnatkashlarda moddiy qiziqish va xo'jalik yuritish tashabbuskorligining yo'qligi oqibatida samaradorlikning o'ta darajada pasayib ketganligi.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish ko'plab mamlakatlarda umumiy tendensiyaga ega. Bu jarayon iqtisodiyotni erkinlashtirish, chuqur institutsional (eng avvalo, mulkchilik munosabatlarida) tub o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, biroq, bir vaqtning o'zida moliyaviy barqarorlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirilishini taqozo etadi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimini o'zgartirish mazkur tizim asosining o'zgarishini hamda uni sifat jihatidan farq qiluvchi bozor tizimiga almashtirilishini anglatar ekan, bunday turdagi o'zgarishlarni **tizimiy islohotlar** deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish. Erkinlashtirish – bu xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi to'siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. U butun iqtisodiyotga tatbiq etilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda davlat monopoliyasini bekor qilish;
- resurslarning markazlashgan holdagi taqsimotini tugatish;
- narxlarning asosan, talab va taklif nisbati asosida shakllantirilishiga o'tish;
- ichki va tashqi bozorlarda transaksion bitimlar ustidan davlat nazoratini pasaytirish.

2. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini yaratish. Bu yo'nalish quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

- barcha iqtisodiy agentlarning ish faolligi uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilishi;

- bozorga xorijiy raqobatchilarning ham kirishi uchun imkon berilishi;

- kichik biznesning rivojlanishiga halaqit beruvchi ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvvatlash va tarmoqqa kirishidagi to'siqlarni pasaytirish;

- tabiiy monopoliyalarning narx va mahsulot sotish siyosatini tartibga solish va boshqalar.

3. Institutsional o'zgarishlar. Mazkur o'zgarishlar quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, jumladan, xususiy sektorni yaratish;

- bozor infratuzilmasini (tijorat banklari, tovar va fond birjalari, investitsiya fondlari va h.k.) shakllantirish;

- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tizimini yaratish;

- bozor sharoitlariga mos tushuvchi xo'jalik qonunchiligini qabul qilish va boshqalar.

4. Tarkibiy o'zgarishlar. Tarkibiy o'zgarishlar birinchi navbatda iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari tarkibida oldingi tizimdan qolgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishdan asosiy maqsad – ichki va tashqi bozorlarda to'lovga qodir talabga mos bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini rivojlantirishdan iborat.

5. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Diversifikatsiya – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish, ularning sifatini takomillashtirish.

6. Makroiqtisodiy, asosan, moliyaviy barqarorlashtirish. Asli-ni olganda bu jarayon tizimiy islohotlar qatoriga kirmaydi, chunki u bozor iqtisodiyoti barqaror amal qilayotgan mamlakatlarda ham tez-tez o'tkazilib turadi. Bu yo'nalishning muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi eng av-valo va kuchli ravishda moliyaviy sohada, ayniqsa yuqori inflyatsiya shaklida namoyon bo'ladi. Inflyatsiyaning uzoq vaqt mavjud bo'lishi bozor munosabatlarining me'yorda qaror topishiga to'sqinlik qiladi, shuning uchun uni bartaraf etish o'tish davri iqtisodiyoti uchun o'ta muhim hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbir-lari tizimiga pul emissiyasini cheklash, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish, ijobiy foiz stavkasini ta'minlash va boshqalar kiradi.

7. Aholini ijtimoiy himoyalashning bozor xo'jaligiga mos bo'lgan tizimini shakllantirish. Bu tizim aholining nisbatan muhtoj qatlamini aniq ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga o'tishga yo'naltirilgan.

Bozor tizimining ko'rsatib o'tilgan asosiy unsurlari shakllanishi-ning yakuniga yetishi o'tish davri tugaganligidan darak beradi.

6.2. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari

Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyot-dan bozor iqtisodiyotiga o'tishda maqsad bir xil bo'lsa-da, turli mam-lakatlar turli yo'llarni tanlashlari mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishning revolyusion va evolyusion yo'llari mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyusion yo'lini, birdaniga katta to'ntarishlar qilish yo'lini tanladilar. O'zbekistonda esa o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarni hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyusion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchay-tirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li tanlandi.

«Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivoj-lanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga,

zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar. Buni hayotimizning o'zi bugun isbotlab bermoqda»[35].

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish va keyingi taraqqiyot yo'li ijtimoiy-yo'naltirilgan zamonaviy bozor iqtisodiyotini shakllantirishga yo'l bo'lib, puxta o'ylab, ishlab chiqilgan, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga qaratilgan "o'zbek modeli" deb nom qozongan taraqqiyot yo'li edi. Bu yo'lni amalga oshirishga birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan **quyidagi beshta muhim tamoyil** asos qilib olingan:

- iqtisodiyotni mafkuradan holi qilish, uning siyosatga nisbatan ustuvorligini ta'minlash;
- o'tish davrida davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
- butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanishi, qonunlar ustuvorligining ta'minlanishi;
- bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Bozor munosabatlariga o'tishda bu tamoyillarning hammasi ham muhim ahamiyatga egadir, lekin ularning ichida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili alohida e'tiborga loyiq. Chunki tegishli huquqiy negizni, bozor infratuzilmalarini yaratish, odamlarda bozor ko'nikmalarini hosil qilish, yangi sharoitlarda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash uchun vaqt kerak bo'ladi.

Ushbu holatni yana bir bor e'tirof etgan holda, birinchi Prezidentimiz shunday ta'kidlaydi: "Jamiyatimizni isloh qilish borasidagi maqsad va vazifalarimizning ma'no-mohiyatini ana shunday tushunishdan kelib chiqib bayon etilgan "Islohotlar – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun", "Yangi uyni qurmasdan turib eskisini buz-

[35] I.Karimov. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. T.: "O'zbekiston", 2013. 4-bet.

mang" degan mashhur shiorlar el-yurtimiz o'rtasida keng yoyilib, qo'llab-quvvatlanayotgani bejiz emas, albatta»[36].

Biz tanlab olgan va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekani siyosiy va iqtisodiy tizimni demokratlashtirish, umuman, mamlakatimiz hayotidagi tub o'zgarishlar, O'zbekistonning istiqlol yillaridagi jadal rivojlanishi misolida o'zining amaliy tasdig'ini topmoqda. Bundan tashqari, bozor munosabatlariga o'tish faqatgina iqtisodiyot sohalarini o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy hayotning bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha sohalarini, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyusion yo'l bilan o'tish haqidagi g'oya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida **bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida** eng avvalo, quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yilganligi ta'kidlanadi:

- totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish[37].

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlari aniqlab olindi va amalga oshirildi:

- o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarining qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;
- mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy

---

[36] I.Karimov. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. T.: "O'zbekiston", 2013. 6-bet.

[37] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1995, 19-b.

fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I.A.Karimov mazkur bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi bir qator vazifalarni ko'rsatib berdi:

- davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;

- ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;

- milliy valyuta – so'mni yanada mustahkamlash;

- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish[38].

O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'l davom ettirildi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi bosqichda «erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir»[39]. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

---

[38] Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998. 332–333-betlar.

[39] Qarang: Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, 2000, 15-bet.

- iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;

- xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;

- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o'rin egallashiga erishish;

- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini ta'minlash;

- iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish.

Mashhur besh tamoyilga – asoslangan o'zbek modeli bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish strategiyasi sifatida barcha amaliy ishlarimizning mustahkam poydevori, taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishiga aylandi.

Shu narsani aytish mumkinki, bu strategik ahamiyatga ega bo'lgan bu model bozor iqtisodiyoti nazariyalarini yanada boyitdi, o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlar uchun yana bir namunaga aylandi.

6.3. O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga o'tish, iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. **Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui.**

Iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat ko'rsatishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy modeli yaratildi (bu boradagi ma'lumotlar mazkur bobning 2-bandida bayon etildi).

Bu modelda yangi iqtisodiyotga o'tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning **asosiy yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarning bosh bo'g'ini **mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir**, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko'zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq **qishloq xo'jaligini isloh qilishga** ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

- Respublikamiz iqtisodiyotida agrar sohaning salmoqli o'ringa egaligi, ishchi kuchining ko'pgina qismi qishloq xo'jaligida bandligi, iqtisodiy o'sishning ko'p jihatdan shu tarmoq ahvoliga bog'liqligi;
- Respublika butun sanoat potensialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoat tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqligi;
- o'tish davrining boshlarida qishloq xo'jalik mahsulotlari (asosan paxta), valyuta resurslari, respublika uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chetdan sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manba ekanligi;

- mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi rolining ortib borishi.

Mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor munosabatlariga o'sib o'tishida **moliya-kredit sohasini isloh qilish** alohida o'rin tutadi. Moliyaviy munosabatlarda davlat byudjeti taqchilligini kamaytirib borish, byudjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarni bos-qichma-bosqich qisqartirish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina byudjetdan mablag' ajratish, iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish islohotlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri **narxlarni erkinlashtirishdir**. Narxlarning erkin shakllanishi uchun narxlar tizimini isloh qilish ham zarurdir. Dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartiriladi va keyin ichki narxlar jahon narxlariga muvofiqlashtirib boriladi. Shuningdek, narxlarni erkinlashtirishda ayrim turdagi xomashyo va mahsulot narxlari bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi tenglikka erishishga harakat qilinadi.

Narxlar islohoti boshlangandan 1994-yilgacha hamma turdagi xomashyo va mahsulotlar bo'yicha erkin narxlarga o'tildi, barcha iste'mol mollari narxi ustidan davlat nazorati bekor qilindi.

Isloh qilishning **dastlabki bosqichida** (1992-yil) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnik vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari va ta'riflarga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi. Narxlar islohotining **ikkinchi bosqichida** (1993-yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish umuman to'xtatildi. Narxlarni erkinlashtirishning **uchinchi bosqichida** (1994-yil oktyabr-noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qo'yib yuborildi. Shunday qilib, iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish **boshqarishning tegishli tizimini yaratishni** talab qiladi. Shunga asosan respublikada butun iqtisodiyotni, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va

hozirgi davrga mos bo'lgan tuzilmalari ishlab chiqildi. Ko'plab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi (Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlar qo'mitasi, Davlat agrosanoat qo'mitasi va boshqa qo'mita hamda vazirliklar) yoki ularning faoliyati tubdan qayta qurildi. Faoliyati tugatilgan ma'muriy apparatlar o'rniga bozor iqtisodiyotiga xos yangi boshqarish bo'g'inlari tuzildi.

Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman, shahar) ijroiya-boshqaruv vazifalarini bajarish uchun hokimliklar joriy qilindi. Quyi bo'g'in boshqaruvida korxona va tashkilotlarga iqtisodiy erkinlik berilib, ular yangicha ish uslubiga o'tdi.

Isloh qilish natijasida tarkib topgan boshqaruv tizimi bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan yanada takomillashib va rivojlanib boradi.

Bozor islohotlari **bozor infratuzilmasini yaratish** chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bunda moliya, bank-kredit tizimi muassasalari, sug'urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish taqozo qilinadi. Respublikada bozor infratuzilmasini yaratish bir qator yo'nalishlar bo'yicha bordi. **Birinchi yo'nalish** bo'yicha tovar-xomashyo birjasi tizimi rivojlandi. Bu, o'z navbatida, brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'lishiga olib keldi. **Ikkinchi yo'nalishda** kapital bozorining ishini ta'minlaydigan tuzilmalar vujudga keltirildi. Kredit resurslari bozori va valyuta bozori vujudga keltirildi hamda davlatga qarashli bo'lmagan sug'urta kompaniyalari tuzildi. **Uchinchi yo'nalish** ishchi kuchi bozorini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu sohada 240 dan ortiq bandlikka ko'maklashuvchi markazlarni o'z ichiga oluvchi katta tarmoq tuzildi.

Bozor islohotlari **tashqi iqtisodiy aloqalarga** ham tegishlidir. Bu sohada islohotlarni amalga oshirish borasida respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy kompleksi mutlaqo yangidan shakllantirildi, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning mohiyat e'tibori bilan yangi mexanizmi vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan muassasalar (Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati) barpo etildi. Respublikaning barcha vazirliklari va idoralari, korxonalarida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlar, tashkilotlar va firmalar tuzildi.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat ko'rsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish obyektiv zaruratdir.

Respublikada **aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari** quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi:

birinchi yo'nalish – narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish;

ikkinchi yo'nalish – Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish;

uchinchi yo'nalish – islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash.

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda xalqning uzoq yillar davomida qaror topgan ma'naviy ahloqiy qadriyatlari, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlari hisobga olinadi. Shunday qilib, islohotlarning barcha yo'nalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga o'sib o'tishiga qaratildi. Bu islohotlar O'zbekistonning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va xalqaro miqyosda obro'-e'tiborli mamlakatga aylantirishga xizmat qildi.

Islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash asosida taraqqiyotni jadallashtirish bugungi kunning muhim bosqichiga aylanmoqda.

Xulosalar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining umumiy mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o'zgartirishdan iboratdir.

2. O'tish davri quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi: sikllilik (jamiyatda u yoki bu tarkibiy o'zgarishlarning qaytarilib turishi),

beqarorlik (jamiyatda mavjud bo'lgan turli kuchlarning kurashi va o'zaro ta'siri), muqobillik (islohotlar va rivojlanish yo'llarini tanlash imkoniyati), tarixiylik (eski tizimning yo'qolib ketishi, o'rniga boshqa tizimning vujudga kelishi, uning rivojlanishi).

3. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishda tanlagan yo'li – o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyusion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

4. Iqtisodiy islohotlar – bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va xo'jalik faoliyati yuritishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

5. Iqtisodiy islohotlarning bosh bo'g'ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi.

6. Respublikada bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida bir qator vazifalar turadi. Bular xususiylashtirish va raqobatchilik muhitini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish; makroiqtisodiy barqarorlikka erishish; milliy valyutani mustahkamlash; iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish; ijtimoiy kafolatlari kuchli bo'lgan demokratik davlatni shakllantirish vazifalaridir.

7. O'tish davrida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni keng aholi qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishining asosiy sharti islohotlarning ijtimoiy yo'naltirilganligidir.

8. Milliy taraqqiyotimizning hozirgi pallasida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlari yanada kuchaytirilib, pirovard strategik maqsadimiz – ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi harakatlar izchil ravishda amal-

ga oshiriladi. Modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin.

Asosiy tayanch tushunchalar

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri – ma'muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davr.

Bozor islohotlari – bozor iqtisodiyotini va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy uklad – turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – bu xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi to'siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.

Islohotlar konsepsiyasi – ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy g'oyasi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirish.

Modernizatsiyalash – jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlari majmui.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo'llari (modellari) ni ta'riflab bering. Ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rsating.

2. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘li qanday xususiyatlarga ega? Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?

3. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish tamoyilining mazmunini batafsil tushuntiring. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini to‘laroq bayon qiling.

4. Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirildi? Har bir yo‘nalish bo‘yicha o‘zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.

5. Bozor munosabatlariga o‘tishda iqtisodiy islohotlar o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘yadi? Bu vazifalarning to‘laroq tavsifini bering.

6. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida davlatning yetakchilik faoliyati nimadan iborat ekanligini tushuntirib bering.

7. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz? Ular bir-biri bilan qanday bog‘langanligini tahlil qiling.

8. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o‘z oldiga qanday vazifalarni qo‘yadi?

9. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan milliy taraqqiyotimiz alohida davrlarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Bu davrlarda qanday iqtisodiy chora-tadbilar amalga oshirildi?

10. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etishning asosiy ustuvor vazifalarini so‘zlab bering.

7-BOB. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI

Biz ushbu darslikning birinchi bobida ehtiyoj kategoriyasining mazmuni, turlari va unga ta'sir etuvchi omillarni, shuningdek, ikkinchi bobda ishlab chiqarishning mazmuni omillari kabi masalalarni ko'rib chiqdik. Bu bobda shu kategoriyalarning bozor iqtisodiyoti davridagi ko'rinishi va amal qilish mexanizmlarini ko'rib chiqamiz.

Bozor mexanizmining amal qilishida talab va taklif kategoriyalari va ularning amal qilish qonunlari muhim o'rin tutadi. Talab va taklif nisbatining o'zgarishi narx shakllanishi hamda darajasi sezilarli ta'sir qiladi. Bu bobda dastlab talab va taklif tushunchalari, talab va taklif ta'sirida muvozanatlashgan narxning o'rnatilishi tushuntirib beriladi. Shu o'rinda talab va taklif qonunlari, ularning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar, ular o'rtasidagi muvozanatlikni bayon etishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, talabning shakllanishi va amal qilishi, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda iqtisodiyot nazariyasida muhim yo'nalishlardan biriga aylangan iste'molchi xatti-harakati nazariyasi bilan ham tanishib chiqamiz.

7.1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni

Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Lekin u taraqqiyotning turli davrlarida o'z shaklini o'zgartirib turishi mumkin. Xususan, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, **talab – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir.** Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Masalan, talaba yangi rusumdagi qo'l telefonini xarid qilish maqsadida do'konga kirdi. Qo'l telefonining narxi 300 ming so'm

bo‘lib, talabada faqat 200 ming so‘m mavjud, deb faraz qilaylik. Bu holda talabaning yangi rusumdagi telefonga nisbatan ehtiyoji talabga aylanmaydi va binobarin, qondirilmaydi. Bu o‘rinda talaba yana 100 ming so‘m miqdorida pul qidirib topishi yoki narxi 200 ming so‘mgacha bo‘lgan telefon xarid qilishi mumkin. Shu holdagina uning qo‘l telefoniga nisbatan ehtiyoji talabga aylanadi.

Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo‘ladi, chunki narx o‘zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o‘zgaradi. Shu bog‘liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta’rif berish mumkin: **ma’lum vaqt oralig‘ida, narxlarning mavjud darajasida iste’molchilarning tovar va xizmatlar ma’lum turlarini sotib olishga qodir bo‘lgan ehtiyoji talab deyiladi.**

Talablar turlicha bo‘lib, odatda bir xil tovar yoki xizmatlarga bo‘lgan talabning ikki turi farqlanadi: yakka talab va bozor talabi. **Har bir iste’molchining, ya’ni alohida shaxs, oila, korxona, firmaning tovarning shu turiga bo‘lgan talabi yakka talab deyiladi. Bir qancha (ko‘pchilik) iste’molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo‘lgan talablari yig‘indisi bozor talabi deyiladi.**

Yakka talab ham bozor talabi ham miqdor jihatdan aniqlanadi. Lekin bu miqdor har doim ham bir xil bo‘lib turmaydi, balki o‘zgaruvchan bo‘ladi. Talab miqdorining o‘zgarishiga bir qancha omillar ta’sir qiladi. Ularning ichida eng ko‘p ta’sir qiladigan omil narx omilidir.

Narx va sotib olinadigan tovarlar miqdori o‘rtasidagi bo‘ladigan bog‘liqlikni quyidagi jadval ma’lumotlari asosida qarab chiqamiz (7.1-jadval).

7.1-jadval

Narx va sotib olinadigan tovar miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlik

(raqamlar shartli ravishda qo‘yilgan)

Bir kilogramm kartoshka narxi (so‘m)	Kartoshkaga bo‘lgan yakka talab miqdori (bir oyda kilogramm)	Kartoshkaga bo‘lgan bozor talabi miqdori (bir oyda tonna)
700	10	10
600	20	20
500	30	30
400	50	50
300	60	60

Jadvaldagi misolda kartoshkaning 300 so'mdan 700 so'mgacha bo'lgan narx darajalarida ularga bo'lgan talab miqdorlari ifodalangan. Ma'lumotlar tovar narxining pasayishi sotib olinadigan tovar miqdorining o'sishiga va aksincha, narxning o'sishi talab miqdorining kamayishiga olib kelishini ko'rsatadi. Narxning eng yuqori – 700 so'm darajasida yakka talab (masalan, o'rtacha bir oilaning talabi) eng oz miqdor – 10 kg ni tashkil etgan bo'lsa, narx pasayishi bilan talab miqdori ko'payib bormoqda: 600 so'mda – 20 kg, 500 so'mda – 30 kg va h.k. Narxning eng past darajasi – 300 so'mga talabning eng yuqori miqdori – 60 kg to'g'ri kelmoqda. Jadvalning navbatdagi ustunida kartoshkaga bo'lgan bozor talabi miqdori ifodalangan. Bunda muayyan hududda taxminan 1000 ta oila istiqomat qiladi va ular kartoshka narxining o'zgarishiga nisbatan deyarli bir xil xatti-harakat, munosabatda bo'ladilar, degan shartga asoslanildi. Misoldan ko'rinadiki, bozor talabi miqdorining narxga nisbatan o'zgarishi ham yakka talabning o'zgarishiga mutanosib ravishda ro'y bermoqda.

Tovar narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik talab qonuni deyiladi. Real iqtisodiy hayotda ba'zan bu qoidaga zid bo'lgan, ya'ni ayrim tovar narxining o'sishi bilan unga bo'lgan talab miqdorining yanada ortishi holati ham uchraydi. Bu holat **Giffen samarasi** deb (ingliz iqtisodchisi R.Giffen nomi bilan) ataladi. Giffen kambag'al ishchi oilalari kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan uni iste'mol qilishlari kengayishini kuzatib, bu samarani tasvirlab ko'rsatgan. Tushuntirish shunga asoslanadiki, kartoshka kambag'al oila ovqatida mahsulotlarning asosiy qismini egallaydi. Agar kartoshka narxining o'sishi ro'y bersa, bunda kambag'al oila go'sht sotib olishdan umuman voz kechishga majbur bo'ladi, o'zining ko'p bo'lmagan daromadining barchasini kartoshka sotib olishga sarflaydi. Demak, bunday vaziyatda narxlarning oshishi zarur tovarlarga talab miqdorining kamaymasdan, aksincha ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Tovar narxi va uning xarid qilinadigan miqdori (talabning) o'rtasidagi teskari bog'liqlikni oddiy ikki o'lchamli grafikda ham tasvirlash mumkin: yotiq chiziq bozor talabi miqdorini, tik chiziq narxni ko'rsatadi (7.1-rasm).



7.1-rasm. Talab egri chizig'i

Grafikdagi DD chiziq narx va talab hajmi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni tasviriy aks ettiradi. Undagi har bir nuqta tovarning aniq narxi va iste'molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo'lgan tovar miqdorini ko'rsatadi.

Narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi bu chiziq talab egri chizig'i deyiladi.

Talab miqdoriga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillar. Talab hajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bu omillar **talabning narxdan tashqari omillari** deyiladi.

Talabga narxdan tashqari quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iste'molchining didi;
2) bozordagi iste'molchilar soni;
3) iste'molchining daromadlari;
4) bir-biriga bog'liq tovarlarning narxi;
5) kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi ehtimoli.

Bu omillarning o'zgarishi talab hajmining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini qarab chiqamiz.

1. Biror mahsulotga iste'molchi dididagi ijobiy o'zgarish ro'y bersa, narxning tegishli darajasida unga bo'lgan talab ortadi. Bu o'rinda real hayotda iste'molchilar «moda», ya'ni biron-bir tovarning keng rusum bo'lgan turini sotib olishga harakat qilishlarini misol keltirish mumkin. Iste'molchi didiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar talabning qisqarishiga olib keladi.

2. O'z-o'zidan aniqki, bozorda iste'molchilar soni ko'paysa, talab ortadi; iste'molchilarning soni kamaysa, talab qisqaradi. Masalan, aloqa vositalarining takomillashuvi xalqaro moliyaviy bozor doirasini, undagi qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi jarayonlarida ishtirok etuvchilar sonini mislsiz kengaytiradi hamda aksiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi. Tug'ilish darajasining pasayishi bolalar bog'chasi va maktabga bo'lgan talabni kamaytiradi.

3. Pul daromadi o'zgarishining talab hajmiga ta'siri boshqa omillarga qaraganda ancha murakkab. Pul daromadining ortishi juda ko'p tovarlarga talabni nisbatan oshiradi, daromadning kamayishi esa bunday tovarlarga talabni kamaytiradi. Daromad oshsa, uning o'sishiga qarab iste'molchilar aksariyat hollarda narxi yuqori bo'lsada, ko'proq sifatli tovarlarni xarid qilishga harakat qilishadi. Bunda ular non, kartoshka, karam kabi mahsulotlarni kamroq sotib olishlari mumkin. Chunki ortiqcha daromad ularga ancha yuqori oqsil tarkibiga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, go'sht va sut mahsulotlari xarid qilish imkonini beradi. **Daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar oliy toifali tovarlar deyiladi.**

Daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori teskari bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar past toifali tovarlar deyiladi.

Iste'molchilar daromadi va ular tomonidan sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik nemis iqtisodchisi va statisti Ernest Engel (1821–1896) tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Shunga ko'ra, **iste'molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik Engel qonuni deyiladi.**

Bu qonunning amal qilishini **Engel egri chizig'i** orqali ifodalash mumkin (7.2-rasm). Oliy toifali yoki normal tovarlar uchun Engel egri chizig'i o'suvchan ko'rinishida bo'ladi. Haqiqatan ham, aholi daromadlari o'sib borishi bilan bu turdagi tovarlar ko'proq xarid qilinadi. Past toifali tovarlar uchun Engel egri chizig'i pasayuvchan ko'rinishda bo'lib, daromadlar oshib borishi bilan iste'molchilar ularni kamroq miqdorda sotib oladilar. Agar tovarning iste'moli daromad darajasiga bog'liq bo'lmasa, u holda Engel egri chizig'i tik holda bo'ladi. Rasmdan ko'rinadiki, iste'molchining bir oylik daromadi 10 ming so'mdan 20 ming so'mga oshganda, u sotib olgan mahsulot miqdori 1 donadan 2 donaga, 20 ming so'mdan 30 ming so'mga oshganda 2 donadan 4 donaga oshmoqda. Daromadlarning keyingi o'sishi bilan tovarlar sotib olish hajmining o'sishi sekinlamoqda: 30 ming so'mdan 40 ming so'mgacha – 4 donadan 6 donagacha, 40 ming so'mdan 50 ming so'mgacha – 6 donadan 7 donagacha.



7.2-chizma. Engel egri chizig'i

Daromadning bundan yuqori darajalarida esa sotib olish hajmining o'sishi butunlay to'xtagan (daromadning 60 ming so'm va undan yuqori darajalarida mazkur tovarning 7 donasi sotib olinmoqda). En-

gel egri chizig'i iste'molchilar pul daromadlari o'zgarishining talabga qanday ta'sir qilishi to'g'risida axborot beradi. Bu axborot tovar ishlab chiqaruvchilar uchun o'z tovarlarining mumkin bo'lgan sotish hajmi va bozor kon'yunkturasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O'zaro bog'liq tovarlar narxi o'zgarishining talabga ta'sirini o'rganishda ularni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) o'zaro bir-birini almashtiruvchi yoki o'rinbosar tovarlar; 2) o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tovarlar.

O'zaro bir-birini almashtiruvchi tovarlardan birining narxi o'zgarishi bilan boshqasiga bo'lgan talabning o'zgarishi to'g'ri bog'liqlikda bo'ladi. Masalan, sariyog' narxining oshishi margaringa bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Sariyog' narxining pasayishi esa margaringa bo'lgan talabni kamaytiradi.

O'zaro bir-birini to'ldiruvchi tovarlardan birining narxi o'zgarishi bilan boshqasiga bo'lgan talabning o'zgarishi teskari bog'liqlikda bo'ladi. Masalan, agar avtomobilning narxi oshsa, benzinga bo'lgan talab qisqaradi. Aksincha, avtomobilning narxi tushsa, benzinga bo'lgan talab oshadi.

5. Kelgusida iste'molchi daromadlari, tovar narxi o'zgarishining kutilishi va tovarlar miqdorining yetarli bo'lishi yoki bo'lmasligi kabi omillar talab hajmini o'zgartirishi mumkin. Kelgusida narxning nisbatan oshishining kutilishi iste'molchi joriy talabining oshishiga olib keladi. Aksincha, narxning pasayishi va daromadning ko'payishining kutilishi tovarlarga bo'lgan joriy talab hajmining qisqarishiga sabab bo'ladi. Shu o'rinda, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ham jahon va milliy bozorlardagi talab hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatib, aksariyat hollarda uning qisqarishiga olib kelayotganligini ta'kidlash o'rinlidir.

7.2. Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif qonuni

Bozor holatining o'zgarishiga iste'molchi yoki xaridorning munosabati ularning talabi orqali namoyon bo'lsa, ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining munosabati taklif orqali namoyon bo'ladi.

Ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdagi

tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori taklif deyiladi. Narx o'zgarishi bilan sotishga chiqariladigan mahsulot miqdori ham o'zgarishi sababli talab kabi taklifning ham bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi. Alohida ishlab chiqaruvchi hamda bozor taklifini ifodalovchi misol 7.2-jadvalda ko'rsatilgan.

7.2-jadval

Narx va taklif miqdori o'rtasidagi bog'liqlik
(raqamlar shartli ravishda qo'yilgan)

Bir kilogramm kartoshka narxi (so'm)	Kartoshkaning yakka taklifi miqdori (bir oyda kilogramm)	Kartoshkaning bozor taklifi miqdori (bir oyda tonna)
700	60	60
600	50	50
500	30	30
400	20	20
300	10	10

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kartoshka narxining 700 so'm darajasida yakka taklif (masalan, bitta sotuvchi taklifi) eng yuqori miqdor – 60 kg ni tashkil etgan. Narx pasayib borishi bilan esa taklif miqdori ham pasayib bormoqda: 600 so'mda – 50 kg, 500 so'mda – 30 kg va h.k.

Jadvalning navbatdagi ustunida esa kartoshkaning bozor taklifi (ya'ni, jami sotuvchilar tomonidan sotilishi mumkin bo'lgan) miqdori ifodalanib, u ham o'z tavsifiga ko'ra yakka taklifga mos tushadi. Demak, narxning oshishi bilan shunga mos ravishda sotishga chiqariladigan tovarlar taklifi miqdori ham ortadi, narxning tushishi bilan taklif hajmi qisqaradi. **Narxning o'zgarisbi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to'g'ri bog'liqlikdagi o'zgarishi taklif qonuni deyiladi.** Iste'molchi uchun narxning oshishi to'siq rolini o'ynasa, ishlab chiqaruvchi uchun rag'batlantirish vazifasini bajaradi.

Narx darajasi va taklif miqdori o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatuvchi ma'lumotlarni grafikda ifodalab, **taklif egri chizig'ini** tasvirlash mumkin (7.3-rasm).



7.3-chizma. Taklif egri chizig'i

Bozorda taklif qilinadigan tovar hajmiga **narxdan tashqari bir qator omillar** ham ta'sir qiladi. Bu omillarning asosiylari quyidagilar:

1) resurslar narxi;
2) ishlab chiqarish texnologiyasi;
3) soliq va subsidiyalar;
4) boshqa tovarlar narxi;
5) narx o'zgarishining kutilishi;
6) bozordagi sotuvchilar soni.

Mazkur omillardan bir yoki bir nechtasining o'zgarishi taklif hajmining o'zgarishini taqozo qiladi.

Taklifga ta'sir qiluvchi omillarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

1. Resurslar narxi. Ishlab chiqarish xarajatlari va taklif o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjud. Resurs narxlarining pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va taklifni oshiradi. Aksincha, resurslarga narxning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, mineral o'g'itlar narxining pasayishi bug'doy taklifini oshiradi, qurilish materiallari narxlarining oshishi uy-joy va ishlab chiqarish binolari taklifini qisqartiradi.

2. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Texnologiyalarning takomillashuvi mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Resurslarning mavjud narxida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va taklif ko'payadi. Masalan, paxta zararkunandalariga qarshi ancha samarali biologik usullarning yaratilishi paxta tolasining miqdori va sifatini, binobarin taklifini oshiradi.

3. Soliqlar va subsidiyalar darajasi. Soliqlarning aksariyat turlari ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, import tovarlarga boj to'lovlarining oshishi uning taklifini qisqartiradi. Aksincha, davlat qandaydir tovar ishlab chiqarish yoki biror sohaga subsidiya (subsidiya – davlat tomonidan aholi yoki korxonalarga o'z zararlarini qoplash yoki boshqa maqsadlar uchun qaytarilmaslik sharti bilan beriluvchi mablag') bersa, bu amalda xarajatlarni kamaytiradi va uning taklifini oshiradi.

4. Boshqa tovarlar narxi. Boshqa tovarlar narxlarining o'zgarishi ham mazkur tovar taklifini o'zgartiradi. Masalan, boshqa o'zgarmas sharoitlarda qo'y go'shti narxining pasayishi natijasida undan olinadigan foyda darajasi ham pasayib, qassoblar tomonidan mol go'shti taklifining oshirilishiga olib keladi.

5. Narx o'zgarishining kutilishi. Kelgusida mahsulot narxi o'zgarishining kutilishi ham ishlab chiqaruvchining bugungi kundagi bozorga mahsulot yetkazib berish xohishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelajakda neft narxining keskin pasayishining kutilishi neftning taklifini pasaytiradi.

6. Ishlab chiqaruvchilar yoki sotuvchilar soni. Tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko'p bo'ladi. Tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilar soni ortib borishi taklifni ko'paytiradi, chunki tovar ishlab chiqarish ko'payadi.

Taklif hajmining o'zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash xarajatlari va transport-tashish imkoniyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq vaqt saqlab bo'lmaydigan qishloq xo'jalik

va oziq-ovqat mahsulotlari uchun taklif kamdan-kam o'zgaruvchan bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonining xususiyati, tabiiy resurslarning mavjud darajasi ham taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, narxning o'zgarishiga javoban ishlab chiqarishni kengaytirish yoki boshqa xil mahsulot ishlab chiqarishga o'tish imkoniyati mavjud bo'lsa taklif o'zgaradi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlar cheklangan bo'lsa, uning narxi (renta) qanchalik oshmasin, yer taklifini oshirib bo'lmaydi.

Ijodiy kasb soha xodimlarining (masalan, olimlar, shoirlar, yozuvchilar, musavvirlar va boshqalar) mehnat mahsuli va noyob san'at asarlarining taklifi ham noo'zgaruvchan bo'ladi.

7.3. Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati

Biz yuqorida turli omillar ta'sirida talab va taklif miqdorining o'zgarib turishini ko'rdik. Lekin talab bilan taklif miqdorlari bir-birlari bilan doimo ma'lum nisbatda bo'ladi, bu nisbatlar o'zgarib turadi. Ba'zan talab taklif miqdoridan oshib ketib, narx ko'tirilsa, ayrim paytda taklif talab miqdoridan oshib ketib, narx pasayib ketadi.

Talab miqdori bilan taklif miqdori bir-biriga teng bo'lgan holat bozor muvozanati deyiladi. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx bozor narxi deyiladi. Ba'zan uni **muvozanatlashgan narx** deb ham yuritiladi. Bozor muvozanati va muvozanatlashgan narx doimo mavjud bo'lmaydi, ularga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar muvozanatning buzilishiga sabab bo'ladi. Ammo iqtisodiyotda bozor muvozanatiga intilish doimo mavjud bo'ladi.

Talab va taklif tushunchalari tahlili bizga sotuvchi va xaridorlar manfaatining muvofiq kelishini qarab chiqish imkonini beradi. Bunday muvofiqlik o'z ifodasini muvozanatlashgan narxda topadi.

Oldingi bandlarda ko'rib chiqilgan bozor talabi va taklifi egri chiziqlarini bitta grafikka joylashtirib, bozorning muvozanatlashgan nuqtasini hosil qilamiz (7.4-rasm).



7.4-chizma. Bozor muvozanati

Grafikda E nuqtaga muvozanatlashgan narx (N_m) va mahsulotning muvozanatlashgan miqdori (M_m) mos keladi. Ya'ni, kartoshka narxi 500 so'm bo'lganda, xaridorlar 30 tonna kartoshkani sotib olishga, sotuvchilar esa 30 tonna kartoshkani bozorga chiqarishga tayyor va bunday imkoniyatga egadirlar. Narxning 400 so'm darajasida sotuvchilar va xaridorlar ahvoli butunlay o'zgaradi: sotuvchilar faqat 20 tonna kartoshkani sotishga, xaridorlar esa 50 tonna sotib olishga tayyor bo'ladilar va hokazo.

Grafikda narxning 700 so'm darajasidagi bozor holati tovarlar ortiqcha ishlab chiqarilishini ko'rsatadi va to'yingan bozorni ifodalaydi. Aksincha, 300 so'm darajasidagi bozor holatida tovar taqchilligi (defitsit) vujudga keladi va taqchil tovar bozorini tavsiflaydi.

Bozor muvozanatini o'ziga xos matematik tenglik sifatida ham ifodalash mumkin:

$$T_b = T_f = N_m = M_m,$$

bu yerda: T_b – talab,
T_f – taklif,
N_m – muvozanatlashgan narx,
M_m – tovarning muvozanatli miqdori.

Muvozanatlashgan narxning mohiyatini tushunish uchun vaqt omili katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli bozordagi bir zumlik, qisqa davrli va uzoq davrli muvozanat holatlarini farqlash zarur. Bir zumlik muvozanat uchun taqdim qilinadigan tovarlarning o'zgarmas yoki doimiy miqdori xos. Bu ishlab chiqarishning bozor vaziyatiga tez, birdaniga moslasha olmasligi bilan bog'liq. Qisqa davrli muvozanat vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish orqali ishlab chiqarish va taklifni ko'paytirish imkoniyatini taqozo qiladi. Bunday vaqtinchalik omillarga ish vaqtidan tashqari (masalan, dam olish va bayram kunlari) ishlash, ish smenasini ko'paytirish kabi tadbirlar kiradi. Uzoq davrli muvozanatni ta'minlash uzoq muddatli davrda amal qiluvchi omillardan foydalanishni taqozo qiladi. Bunda ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga keltirish bilan bog'liq investitsiyalar haqida gap boradi. Bu davrda yangi korxonalarni qurish ham mumkin bo'ladi.

Iste'molchining tovar narxlarining o'zgarishiga sezgirlik darajasini aniqlashda narx bo'yicha egiluvchanlik tushunchasidan foydalaniladi. Ayrim mahsulotlar narxidagi uncha sezilarli bo'lmagan o'zgarishlar sotib olinadigan mahsulot miqdorida katta o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday mahsulotlarga talab nisbatan egiluvchan deyiladi. Boshqa xil mahsulotlar narxidagi sezilarli o'zgarish xarid miqdorida faqat katta bo'lmagan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich talabning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib talabning egiluvchanligi deb ataladi. Talabning narx bo'yicha egiluvchanligi (E_t) darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E_t = \frac{\Delta Q}{\Delta P},$$

Bu yerda: ΔQ – talab miqdorining foizli o'zgarishi;
ΔR – narxlarning foizli o'zgarishi.

Talabning narx bo'yicha egiluvchanligi tovarning muayyan narx darajasi uchun alohida hisoblanadi. Masalan, 7.1-jadval asosida kartoshkaga talabning narx bo'yicha egiluvchanligini ko'rib chiqaylik. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 1 kg kartoshka narxi 700 so'mdan 600 so'mga tushganda bozor talabi miqdori 10 tonnadan 20 tonnaga qadar ortgan. Bunday holda talab elastikligi:

$$E_t = \frac{10}{10} : \frac{100}{700} \approx 7$$

ga teng.

Ya'ni, kartoshka narxining 1 foizga pasayishi unga bo'lgan talab miqdorining 7 foizga o'sishiga olib kelgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tovarning har bir muayyan narx darajasi uchun talabning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichlari farqlanadi. Jumladan, jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha, kartoshka narxi 600 so'mdan 500 so'mga pasayganda talab egiluvchanligi ko'rsatkichi 3% ni, 500 so'mdan 400 so'mga pasayganda 3,3% ni tashkil etadi va h.k.

Talab egiluvchanligini belgilab beruvchi bir qator omillar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

1. O'rinbosar tovarlarning mavjudligi. Odatda muayyan turdagi ehtiyojni bir qator tovarlar bilan qondirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Masalan, qishda sovuqdan saqlanish uchun palto bilan bir qatorda kurtka, plashch va boshqa issiq kiyimlardan foydalanish mumkin. Yoki biror joyga sayohatga borish uchun samolyot bilan bir qatorda tezyurar poezd, avtomobildan foydalanish mumkin. Bu o'rinda kurtka, plashch va boshqa issiq kiyimlar paltoning, tezyurar poezd, avtomobil samolyotning o'rinbosar tovarlari hisoblanadi. Agar biror tovarning boshqa o'rinbosar tovarlari qanchalik ko'p bo'lsa, unga bo'lgan talab shunchalik ko'p egiluvchan bo'ladi. Jumladan, sof raqobatli bozorda taklif qilinadigan tovarlarning o'rinbosar tovarlari juda ko'p bo'lib, shu sababli har bir alohida sotuvchi mahsulotlariga talab butunlay egiluvchan hisoblanadi.

2. Tovar qiymatining iste'molchi daromadidagi salmog'i. Iste'molchi daromadida tovar qiymati qanchalik katta o'rinni egallasa, unga talab shunchalik yuqori egiluvchan bo'ladi. Masalan, daftar yoki qalam narxining 10 foizga o'sishi bir necha so'mni tashkil

qiladi va bu talab qilinayotgan tovar miqdorida juda kam o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, avtomobil yoki uy narxining 10 foizga o'sishi bir necha million so'mni tashkil qilishi mumkin. Narxlarning bunday oshishi juda ko'p oilalar bir necha yillik daromadining katta qismini tashkil qiladi va aytish mumkinki, bu sotib olinadigan mahsulot miqdorini sezilarli ravishda kamaytiradi.

3. Mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari. Zeb-ziynat buyumlariga talab odatda egiluvchan, hayotiy zarur buyumlarga esa talab noegiluvchan hisoblanadi. Masalan, non va elektr energiyasi zaruriy iste'mol buyumlari hisoblanadi, shu sababli ular narxining oshishi non yoki elektr energiyasini iste'mol qilishning keskin kamayishiga olib kelmaydi. Boshqa tomondan, zeb-ziynat buyumlariga narxlar oshganda ularni osonlik bilan iste'moldan chiqarib tashlash mumkin.

4. Vaqt omili. Qaror qabul qilish uchun vaqt oralig'i qancha uzoq bo'lsa, mahsulotga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, agar mol go'shtining narxi 10%ga ko'tarilsa, iste'molchi uni xarid qilishni birdaniga qisqartirmasligi mumkin. Lekin bir qancha vaqt o'tishi bilan u o'zining moyilligini tovuq go'shti yoki baliqqa o'tkazishi mumkin. Shuningdek, daromad bo'yicha talab egiluvchanligi ham mavjud. Daromadlar ko'payishi bilan tovar va xizmatlarga bo'lgan talab ham oshadi. Bundan ko'rinadiki, daromad talabga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir darajasini aniqlash uchun daromad bo'yicha talab egiluvchanligi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Iste'molchi daromadining bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich talabning daromad bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$E_I = \frac{\Delta Q}{\Delta D}.$$

Bu yerda: ΔQ – talab miqdorining foizli o'zgarishi;
ΔD – daromadning foizli o'zgarishi.

Misol uchun, iste'molchi daromadi oyiga 100 ming so'm bo'lganida 5 kg go'sht mahsulotlari iste'mol qilib, daromadi 150 ming so'mga qadar oshganda, uning go'sht mahsulotlari iste'moli hajmi oyiga 7 kg

ga etdi, deb faraz qilaylik. Iste'molchining go'sht mahsulotlariga talabining daromad bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichini hisoblaymiz:

$$E_t = \frac{2}{5} : \frac{50}{100} = 0{,}8$$

Ya'ni, iste'molchi daromadining 1% ga ortishi o'z navbatida uning go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabi miqdorining 0,8% ga ortishiga olib kelmoqda. Xuddi talabning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi singari taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichini ham aniqlash mumkin.

Taklif hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda, narxning bir foizga o'zgarishi taklifning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib taklifning egiluvchanligi deb ham ataladi.

Taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi (E_{tf}) darajasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E_{tf} = \frac{\Delta Q}{\Delta R}$$

Bu yerda: ΔQ – taklif miqdorining foizli o'zgarishi;
ΔR – narxlarning foizli o'zgarishi.

Yuqoridagi 7.2-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, kartoshka narxining turli darajalaridagi o'zgarishga muvofiq keluvchi taklif egiluvchanligi ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin. Masalan, 1 kg kartoshkaning dastlabki narxi 700 so'mdan 600 so'mga pasayishi sotuvchilar tomonidan taklif miqdorini 60 tonnadan 50 tonnaga qadar qisqartirilishiga olib kelgan. Bu holda, kartoshka taklifining narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi:

$$E_{tf} = \frac{10}{60} : \frac{100}{700} \approx 1{,}2$$

ga teng.

Ya'ni, kartoshka narxining 1% ga pasayishi uni bozor taklifining 1,2% ga qisqarishiga olib kelgan. Ta'kidlash lozimki, talabning narx bo'yicha egiluvchanligi singari taklifning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichlari ham tovarning har bir muayyan narx darajasi

uchun farqlanadi. Jumladan, jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha kartoshka narxi 600 so'mdan 500 so'mga pasayganda taklif egiluvchanligi ko'rsatkichi 2,4% ni, 500 so'mdan 400 so'mga pasayganda 1,7% ni tashkil etadi va h.k.

Taklif egiluvchanligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil, mahsulotga narxning mavjud o'zgarishini hisobga olish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi narxning mavjud o'zgarishiga moslashish uchun qanchalik uzoqroq vaqtga ega bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi shunchalik katta o'zgaradi va shunga mos ravishda taklifning egiluvchanligi ham yuqori bo'ladi. Biz yuqorida vaqt omilining juda qisqa, qisqaroq va uzoq muddatli davrlaridagi taklifning o'zgarishiga ta'sirini tahlil qilib bergan edik. Bu ta'sir taklifning egiluvchanligida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Shu o'rinda, talab va taklif egiluvchanligi ko'rsatkichlarini aniqlashda ularning turli darajalarini umumiy holda baholash muhim o'rin tutadi. Bunda asosan, quyidagi uchta holatni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) talab yoki taklif egiluvchanligi koeffitsienti 1 dan katta (E_T, E_{Tf}>1). Bunday talab yoki taklif «egiluvchan» yoki «nisbatan egiluvchan» deb ataladi. U talab yoki taklif etilayotgan tovar miqdorining foizdagi o'zgarishi narxning foizdagi o'zgarishiga qaraganda ahamiyatli darajada ro'y berishini anglatadi;

2) talab yoki taklif egiluvchanligi koeffitsienti 1 ga teng (E_T, E_{Tf}=1). Bunday talab yoki taklif «birga teng egiluvchan» deb ataladi. U talab yoki taklif etilayotgan tovar miqdorining foizdagi o'zgarishi narxning foizdagi o'zgarishi bilan teng borishini anglatadi;

3) talab yoki taklif egiluvchanligi koeffitsienti 1 dan kichik (E_T, E_{Tf}<1). Bunday talab yoki taklif «noegiluvchan» yoki «nisbatan noegiluvchan» deb ataladi. U talab yoki taklif etilayotgan tovar miqdorining foizdagi o'zgarishi narxning foizdagi o'zgarishiga qaraganda ahamiyatsiz darajada ro'y berishini anglatadi.

Tovarlarning talab yoki taklif bo'yicha egiluvchanlik darajasini bilish real hayotda ularning narx strategiyasini ishlab chiqish hamda tovar sotishdan olinadigan yalpi daromadni eng yuqori hajmiga yetkazishda ham muhim rol o'ynaydi.

7.4. Iste'molchi xatti-harakati nazariyasi

Hozirda iqtisodiyot nazariyasiga oid ko'plab darslik va o'quv qo'llanmalarda bozor talabining shakllanishi va namoyon bo'lishini iste'molchining xatti-harakati orqali tushuntirishga harakat qilinmoqda. Bunda oldindan g'arb adabiyotlarida mavjud bo'lib kelgan turli nazariyalardan foydalanib, iste'molchi hatti-harakati nazariyasi alohida yo'nalish sifatida bayon etilmoqda[40]. Talabalarni mazkur nazariyaning mohiyati bilan tanishtirish maqsadida uning asosiy tushunchalarini ko'rib chiqamiz.

Iste'molchining bozordagi xatti-harakati so'nggi qo'shilgan naflilik nazariyasi hamda iste'molchi tanlovi nazariyasi orqali izohlanadi. So'nggi qo'shilgan naflilik nazariyasining mazmuni bilan IV bobda batafsil tanishib chiqqan edik. Bu nazariya yordamida iste'molchining manfaati nuqtai nazaridan uning afzal ko'rishi qoidalari bayon etiladi. Agar naflilikka iste'molchi o'lchami bilan qaralsa, u iste'molchining biron-bir ne'matni iste'mol qilishidan olinadigan qoniqishni anglatadi. **Iste'molchi tomonidan o'zi uchun turli tovarlarning naflilik darajasining baholanishi iste'molchining afzal ko'rishi deyiladi.**

Naflilik funksiyasi ma'lum miqdordagi tovarlarga boshqa bir miqdordagi tovarlarni taqqoslashni bildiradi. Naflilikni mut-

[40] Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004; Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, Изд-во Проспект, 2005, V-боб, 3-§; Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, X-XI-боблар; Экономика: Учебник, 3-е изд., перераб. и доп./Под ред. д-ра экон. наук проф. А.С.Булатова. – М.: Экономистъ, 2005, IX-боб; Иохин В.Я. Экономическая теория: Учебник / В.Я.Иохин. – М.: Экономистъ, 2005, IX-боб; Курс экономической теории: Общие основы экономической теории. Микроэконмика. Макроэкономика. Основы национальной экономики: Учебное пособие / Под ред. д.э.н., проф. А.В.Сидоровича. – М.: «Дело и Сервис», 2001.

laq ko‘rsatkichlarda o‘lchashning ahamiyati bo‘lmay, iste’molchi tanlovini naflilik darajasining ketma-ket joylashuvi bilan izohlash mumkin. Bir to‘plamdagi tovarlar nafliligi boshqasidan qay darajada afzalligini ko‘rsatib berish mumkin emas.

Naflilik funksiyasi iste’mol qilinayotgan tovarlar(X,Y)dan olinayotgan naflilikning hosilasini ifodalaydi:

$$U(X,Y) = XY$$

So‘nggi qo‘shilgan naflilik – muayyan ne’matning navbatdagi birligini iste’mol qilishdan olingan qo‘shimcha naflilikdir. So‘nggi qo‘shilgan naflilik umumiy naflilikning o‘sgan qismidan iborat ekan, u naflilik funksiyasining hosilasi hisoblanadi. Muayyan ehtiyojni qondiruvchi har bir navbatdagi ne’mat oldingisiga qaraganda kamroq naflilikka ega bo‘ladi. Ne’matlarning cheklangan miqdori sharoitida esa doimo ehtiyojni eng kam darajada qondiruvchi «so‘nggi nusxasi» mavjud bo‘ladi.

So‘nggi qo‘shilgan naflilik pasayib borish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu iqtisodiy tamoyil sifatida ifoda etiladi. Mazkur tamoyilning mohiyati shundan iboratki, agar alohida olingan yakka iste’molchining holatidan kelib chiqilsa, ne’matlarni iste’mol qilish hajmining ko‘payib borishi bilan ma’lum vaqtdan boshlab, muayyan ne’matning navbatdagi birligini iste’mol qilishdan olingan qo‘shimcha naflilik oldingisiga nisbatan kamayib boradi.

Kishi qanchalik ko‘p miqdordagi tovarni iste’mol qilsa, u shunchalik ko‘p yalpi naflilikka ega bo‘ladi. Yalpi **(umumiy) naflilik so‘nggi qo‘shilgan naflilik ko‘rsatkichlarini jamlash orqali aniqlanadi.** Agar iste’molchi manfiy so‘nggi qo‘shilgan naflilikka ega bo‘lsa, u holda yalpi naflilik kamayadi. So‘nggi qo‘shilgan naflilikning pasayib borish qonunini iste’mol qilingan muzqaymoq misolida 7.3-jadval orqali ifodalash mumkin.

7.3-jadval

Muzqaymoq iste'mol qilishdan olingan so'nggi qo'shilgan va yalpi naflilik

Iste'mol qilingan muzqaymoqlar soni	So'nggi qo'shilgan naflilik (MU)	Yalpi naflilik (U)
0	-	0
1	4	4
2	3	7
3	2	9
4	1	10
5	0	10
6	-3	7

Jadvaldan ko'rinadiki, musbat ishorali so'nggi qo'shilgan naflilikning oshib borishi bilan, yalpi naflilik miqdori o'sib bormoqda. Biroq, bu o'sish sur'ati muzqaymoqlarning navbatdagi soni qo'shilishi bilan pasayib bormoqda. Manfiy ishorali so'nggi qo'shilgan naflilik yalpi naflilikning qisqarishiga olib kelmoqda.

Iste'molchi tovarlarning turli to'plamini xarid qilishda doimo **naflilikni maksimallashtirish qoidasiga** amal qiladi. Bu qoidaning mazmuni quyidagicha bayon etiladi: **iste'molchi o'zining daromadini shunday sarflashi kerakki, daromad to'liq sarflangan holatda tovarni xarid qilishdan olingan so'nggi qo'shilgan naflilikning tovar narxiga nisbati barcha tovarlar uchun bir xil qiymatga ega bo'lishi lozim**, ya'ni:

$$\frac{MU_x}{P_x} = \frac{MU_y}{P_y}$$

bu yerda: $MU - X$ va Y tovarlarning so'nggi qo'shilgan naflilig'i; P – ularning narxi. Bu qoida **iste'molchining muvozanatli holatini** ifodalaydi. Iste'molchi o'zining didi va ruhiyatiga ko'ra turli xil tovarlar to'plamini ma'qul ko'rishi mumkin. Bunda u tovarlarning ma'lum bir

to‘plamini boshqa biriga taqqoslab ko‘radi. Iste’molchi tanlovini tushuntirishda befarqlik egri chizig‘i muhim rol o‘ynaydi.

Befarqlik egri chizig‘i ehtiyojlarni bir xil darajada qondirilishini ta’minlovchi iste’mol to‘plamlari yig‘indisini namoyon etadi. Ya’ni, iste’molchi uchun befarqlik egri chizig‘ida joylashgan tovarlar to‘plamini tanlashda farq mavjud bo‘lmaydi. Befarqlik egri chizig‘i pasayib boruvchi ko‘rinishda bo‘ladi. Befarqlik egri chizig‘ining pasayib borishi shu bilan izohlanadiki, tanlanishi lozim bo‘lgan har ikkala tovar ham iste’molchi uchun nafli hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bir tovarlar to‘plami (masalan, A)dan boshqa bir tovarlar to‘plami (masalan, V ga) tomon harakat qilib, iste’molchi naflilik miqdorini oshiradi. Biroq, ayni paytda xuddi shuncha miqdordagi naflilikka ega bo‘lgan A tovardan voz kechadi. Qisqasi, V tovar qanchalik ko‘p bo‘lsa, A tovar shunchalik oz bo‘ladi, chunki A va V tovarlar o‘rtasida teskari aloqa mavjud. O‘zgaruvchilari o‘rtasida teskari aloqa mavjud bo‘lgan har qanday egri chiziq esa pasayib boruvchi ko‘rinishda bo‘ladi.



7.5-chizma. Befarqlik kartasi

Agar iste’molchining A va V tovarlarning barcha to‘plamlari bo‘yicha afzal ko‘rishlarini egri chiziqlar orqali tasvirlansa, **befarqlik kartasi** hosil bo‘ladi. Har bir befarqlik egri chizig‘i kishi har biriga bir xilda qaraydigan tovarlar to‘plamini ifodalaydi. 7.5-rasmda befarqlik kartasining bir qismini aks ettiruvchi uchta befarqlik egri chizig‘i tasvirlangan. I_3.befarqlik egri chizig‘i ehtiyojlarni qondirilishining eng yuqori darajasini aks ettiradi.

Ehtiyojlarning har bir darajasiga ko'ra cheksiz befarqlik egri chizig'i mavjud bo'lishi mumkin. Biz sodda ko'rinishda faqat uchta egri chiziqni ifodaladik. Bu uch egri chiziq tovarlar to'plamining ranjirovkasi (tartibini) ta'minlaydi. Ranjirlash to'plamlarni afzallikning eng yuqori darajasidan eng kam tomonga yo'naltirilgan tartibda qo'yib chiqadi. Biroq, bu tartib bir to'plamning boshqa biridan nechog'liq afzalligini ko'rsatib bera olmaydi.

Iste'molchi hatti-harakatini tushunishda **iste'molchi byudjetining cheklanganligi** muhim ahamiyat kasb etadi. Byudjet cheklanganligi iste'molchining muayyan pul daromadlari mavjudligi sharoitida narxlarning muayyan darajasida u yoki bu turdagi tovarlarning ma'lum cheklangan miqdorini sotib olish imkoniyati orqali ifodalanadi. Iste'molchi byudjetining cheklanganligini grafikda ikki turdagi tovarni sotib olishning turli kombinatsiyalarini ko'rsatuvchi **byudjet chizig'i** shaklida ham aks ettirish mumkin. Iste'molchi byudjeti chizig'ining holatiga uning daromadlari va tovarlar narxining o'zgarishi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, iste'molchi daromadining muayyan miqdorida 20 birlik A tovar yoki 10 birlik V tovar sotib olish mumkin bo'lsin. Birdaniga sotib olinishi mumkin bo'lgan har ikkala tovarning turli kombinatsiyalari G byudjet chizig'ida joylashadi. Agar iste'molchining daromadi 2 baravar oshsa, u holda uning byudjet chizig'i ham tegishli ravishda G_1 holatiga siljiydi. Aksincha, daromadning kamayishi, byudjet chizig'ining ham qisqarishiga va G_2 holatiga siljishiga olib keladi (7.6-rasm).



7.6-chizma. Daromad o'zgarishining byudjet chizig'iga ta'siri

O‘z navbatida narxning o‘zgarishi ham byudjet chizig‘idagi turli o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi (7.7-rasm).



7.7-chizma. Narx o‘zgarishining byudjet chizig‘iga ta’siri

Jumladan:

1) V tovar narxining pasayishi byudjet chizig‘i burchagining o‘zgargan holda yangi chiziq hosil bo‘lishiga olib keladi (M chiziq);

2) B tovar narxining oshishi byudjet chizig‘i burchagining o‘zgargan holda yangi chiziq hosil bo‘lishiga olib keladi (N chiziq);

3) A va V tovarlar narxi ilgarigi nisbat saqlangan holda oshsa, u holda eski chiziqqa parallel bo‘lgan yangi chiziq hosil bo‘ladi (L chiziq).

Iqtisodiyot nazariyasida iste’molchi tanlovini o‘rganishda mazkur tanlov oqilona ravishda amalga oshiriladi va quyidagi shartlar ta’minlanadi deb faraz qilinadi:

1) mavjud va cheklangan byudjetdan to‘liq foydalaniladi;
2) ehtiyojlar maksimal darajada qondiriladi.

Optimal tanlov ham quyidagi shartlarni keltirib chiqaradi:

birinchidan, tanlov nuqtasining byudjet chizig‘ida yotishi. Iste’molchi amalda barcha daromadini iste’molga sarflamay, ma’lum qismini kelgusidagi iste’molga qoldirsada, nazariy jihatdan biz uning barchasi sarflanadi, deb faraz qilamiz. Agar nuqta byudjet chizig‘idan chapda yotsa – uning to‘liq sarflanmaganligini, o‘ngda yotsa – imkoniyat darajasidan chetda ekanligini tushunamiz;

Ikkinchidan, tanlangan iste'mol tovarlari to'plami eng ma'qul ko'rilgan kombinatsiyada bo'lishi lozim (7.8-rasm). Bunda uchta befarqlik egri chizig'i ifodalangan bo'lib, ular iste'molchiga turli darajadagi qoniqish beradi: I_3 – eng yuqori darajadagi qoniqish; I_2 – o'rtacha qoniqish; I_1 – eng kam qoniqish. Har bir egri chiziqda iste'molchi tanlovini ifodalovchi bittadan nuqta joylashgan: I_1 da – C; I_2 da – D; I_3 da – F nuqtalar. Iste'molchining C nuqtani tanlashi oqilona emas, chunki D nuqta unga nisbatan ko'proq ehtiyojni qondiradi; F nuqta eng ko'p ehtiyojni qondirishi mumkin, biroq u byudjet imkoniyatidan tashqarida hisoblanadi.



7.8-chizma. Iste'molchining optimal tanlovi

D nuqtada iste'molchi ehtiyojlarining qondirilishi maksimumlashadi, chunki bu nuqta ehtiyojlarning maksimal qondirilishini ta'minlovchi tovar va xizmatlar to'plami eng ko'p qoniqish beruvchi befarqlik egri chizig'ining byudjet chizig'i bilan kesishgan joyida yotadi.

Xulosalar

1. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi – iqtisodiy tizimning samarali va moslashuvchan dastagidir. Bozor mexanizmining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning har bir elementi narx bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, narxning talab va taklif hajmiga ta'siri hamda ularning o'zaro aloqadorligi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning faoliyatini belgilab beradi.

2. Talab – ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismidir. Talab qonuniga muvofiq narxning o'sib borishi talabning qisqarishiga olib keladi, talabning kengayishi esa narxning o'sishiga olib keladi. Shuning uchun narx (mustaqil o'zgaruvchi) bilan talab (tobe o'zgaruvchi) o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

3. Talab ikki xil yo'nalishda o'zgaradi: biri talab hajmining o'zgarishi bo'lib, talab egri chizig'i bo'ylab harakatlansa, ikkinchisi talab xususiyatning o'zgarishi bo'lib, talab egri chizig'ining o'zini o'ngga-yuqoriga yoki chapga-pastga qarab siljitadi.

4. Taklif ishlab chiqaruvchilarning bozorga sotishga chiqargan tovarlari miqdori bo'lib, tovarlar miqdori ishlab chiqarish bilan belgilanadi, ammo aynan unga bog'liq emas, chunki zahira, eksport va import omillari ham taklif qilinadigan tovarlar miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Taklif bilan narx o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud, narxlarning o'sishi taklifning o'sishiga olib keladi va aksincha.

5. Talab va taklifning o'zaro ta'siri natijasida bozor muvozanati vujudga keladi. Bozor muvozanati – talab hajmining taklif hajmiga mos kelishidir. Bunday mos kelishlik bozorda muvozanatli narxni yoki bozor narxini shakllantiradi.

6. Bozordagi bir zumlik, qisqa davrli va uzoq davrli muvozanatlik holatni farqlash zarur. Bir zumlik muvozanat uchun taqdim qilinadigan tovarlarning o'zgarmas yoki doimiy miqdori xos. Bu ishlab chiqarishning bozor vaziyatiga tez, birdaniga moslasha olmasligi bilan bog'liq. Qisqa davrli muvozanat vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ishlab chiqarish va taklifni ko'paytirish imkoniyatini taqozo qiladi. Uzoq davrli muvozanatga erishish uzoq muddatli davrdagi omillardan foydalanishni taqozo qiladi. Bular ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga keltirish bilan bog'liq investitsiyalarni amalga oshirish, shuningdek, yangi korxonalarni qurishdan iborat.

7. Xo'jalik amaliyoti uchun bozor subyektlarining narx o'zgarishiga bo'lgan munosabatini ifodalovchi talab va taklif egiluvchanligi tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Talab egiluvchanligi ko'rsatkichi asosida ishlab chiqaruvchilar yalpi tushum miqdorini oson aniqlab olishlari mumkin. Agar talab egiluvchan bo'lsa, narx

bilan yalpi tushum qarama-qarshi tomon harakatlanadi, talab noegiluvchan bo'lsa harakat bir tomonlama bo'ladi.

8. Iste'molchining bozordagi xatti-harakati so'nggi qo'shilgan naflilik nazariyasi hamda iste'molchi tanlovi nazariyasi orqali izohlanadi. So'nggi qo'shilgan naflilik pasayib borish tendensiyasiga ega bo'lib, bu iqtisodiy tamoyil sifatida ifoda etiladi. Mazkur tamoyilning mohiyati shundan iboratki, agar alohida olingan yakka iste'molchining holatidan kelib chiqilsa, ne'matlarni iste'mol qilish hajmining ko'payib borishi bilan, ma'lum vaqtdan boshlab, muayyan ne'matning navbatdagi birligini iste'mol qilishdan olingan qo'shimcha naflilik oldingisiga nisbatan kamayib boradi. Iste'molchi tomonidan o'zi uchun turli tovarlarning naflilik darajasining baholanishi iste'molchining afzal ko'rishi deyiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Talab – pul bilan ta'minlangan, to'lovga qodir ehtiyoj; ma'lum vaqt oralig'ida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji.

Yakka talab – har bir alohida iste'molchi (masalan, shaxs, oila, korxona, firma)ning tovarning shu turiga bo'lgan talabi.

Bozor talabi – bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi.

Talab qonuni – tovar narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik.

Talab egri chizig'i – narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi egri chiziq.

Oliy toifali tovarlar – daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

Past toifali tovarlar – daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori teskari bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

Engel qonuni – iste'molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

Taklif – ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdagi tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori.

Taklif qonuni – narxning o‘zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to‘g‘ri bog‘liqlikdagi o‘zgarishi.

Bozor muvozanati – talab miqdori bilan taklif miqdori o‘rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo‘lgan holat.

Bozor narxi – bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx.

Talabning narx bo‘yicha egiluvchanligi ko‘rsatkichi – talab hajmiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar o‘zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o‘zgarishi talabning necha foizga o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Talabning daromad bo‘yicha egiluvchanligi ko‘rsatkichi – iste’molchi daromadining bir foizga o‘zgarishi talabning necha foizga o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Taklifning narx bo‘yicha egiluvchanligi ko‘rsatkichi – taklif hajmiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar o‘zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o‘zgarishi taklifning necha foizga o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Iste’molchining afzal ko‘rishi – iste’molchi tomonidan o‘zi uchun turli tovarlarning naflilik darajasining baholanishi.

So‘nggi qo‘shilgan naflilik – muayyan ne’matning navbatdagi birligini iste’mol qilishdan olingan qo‘shimcha naflilik.

Yalpi (umumiy) naflilik – so‘nggi qo‘shilgan naflilik ko‘rsatkichlarining yig‘indisi.

Befarqlik egri chizig‘i – ehtiyojlarni bir xil darajada qondirilishini ta’minlovchi iste’mol to‘plamlari yig‘indisi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta’sir qiladi? Bu omillardan har biri o‘zgarsa, talab egri chizig‘ida qanday o‘zgarish ro‘y beradi?

2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta’sir qiladi? Bu omillardan har biri o‘zgarsa, talab egri chizig‘ida qanday o‘zgarish ro‘y beradi?

3. Don birjasida bug‘doyga bo‘lgan talab va taklifning umumiy hajmi quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi deb faraz qilaylik:

Talab, ming sentner hisobida	Bir sentner narxi (so'm) hisobida	Taklif, ming sentner hisobida	Ortiqcha (+) yoki kam (-)
85	3400	72	
80	3700	73	
75	4000	75	
70	4300	77	
65	4600	79	
60	4900	81	

a) Bozor narxi yoki muvozanatlashgan narx qanday bo'ladi? Bug'doyning muvozanatlashgan miqdori qancha? 4-ustunni to'ldiring va natijalarini tushuntirib bering;

b) jadval ma'lumotlaridan foydalanib bug'doyga bo'lgan talab va taklif egri chiziqlarini grafik shaklida tasvirlang. Muvozanatlashgan narx va muvozanatlashgan miqdorni aniqlang;

v) nima uchun 3400 so'm bu bozorda muvozanatlashgan narx bo'la olmaydi? 4900 so'm-chi?

g) davlat bug'doyning eng yuqori narxini 3700 so'm qilib belgiladi deb faraz qilaylik. Bunday narx qanday oqibatlarga olib kelishini batafsil tushuntiring. O'z javoblaringizni grafikda tasvirlang.

4. Talab va taklifning quyidagi o'zgarishlarining har biri raqobatli bozorda muvozanatli narx va mahsulotlarning muvozanatli miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi? Javoblaringizning to'g'riligini tekshirish uchun talab va taklif egri chiziqlari grafigidan foydalaning:

a) taklif qisqaradi, talab esa o'zgarishsiz qoladi; b) talab qisqaradi, taklif esa o'zgarishsiz qoladi; v) taklif ko'payadi, talab esa o'zgarishsiz qoladi; g) talab ham, taklif ham ko'payadi; d) talab ortadi, taklif esa o'zgarishsiz qoladi; e) taklif ko'payadi, talab esa qisqaradi; j) talab ortadi, taklif esa qisqaradi; z) talab ham, taklif ham qisqaradi.

5. Engel qonunining mohiyatini tushuntirib bering.

6. Iste'molchi xatti-harakati nazariyasining asosida nimalar yotadi? Bu nazariyaning asosiy qonun-qoidalarini izohlang.

7. Iste'molchining afzal ko'rishi nima? U iste'molchi tanloviga qanday ta'sir ko'rsatadi?

8. Yalpi (umumiy) naflilik va so‘nggi qo‘shilgan naflilik tushunchalari o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?

9. Befarqlik egri chizig‘i nimani ifodalaydi? Befarqlik kartasi-chi? Ularning iste’molchi xatti-harakatini tushuntirishdagi ahamiyatini izohlang.

10. Iste’molchi byudjeti chizig‘iga narx va daromaddagi o‘zgarishlar qanday ta’sir ko‘rsatadi?

8-BOB. RAQOBAT VA MONOPOLIYA

Bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri raqobat hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar raqobatning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I. A. Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib, «Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat – bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir», deb ta'kidlaydi.[41]

Shuningdek, bu masalaning muhimligini yana bir bor ta'kidlab, "mamlakatimizda Yaratilgan texnologiyalarning raqobatdoshligini ta'minlash, "nou-xau" namunalarini yaratish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ya'ni yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish"[42] kerak. Bu muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan jihatlarni yoritib berish mazkur bobning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, monopoliyalarning iqtisodiy asosi, turlari va mamlakatimizda monopoliyaga qarshi qonunchilikning rivojlantirilishi bayon etiladi.

8.1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondashishi-

[41] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999, 34-bet.

[42] Mirziyoyev Sh. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" // Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2017-yil 16-yanvar.

ni talab qiladi. **Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat** tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat pirovardida iste'molchilarni o'ziga jalb etish uchun kurashni ham anglatadi.

Resurslarni yetkazib beruvchilar o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, tabiiy resurslar, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobatlashadilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo'ladi.

Raqobat **iste'molchilar o'rtasida** ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya'ni xaridorlar har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lishga harakat qiladilar. Arzon va sifatli tovarni sotib olish uchun kurashadilar. Shunday qilib, raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha subyektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. **Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy jarayon, voqea va hodisalarning ikki tomonlama xususiyatga ega ekanligini e'tiborga olib raqobat munosabatlarining mazmunini yoritishda ham ikki tomonlama yondashuv, tahlil va sintez qilish usulini davom ettirgan holda quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin (8.1-rasm).



8.1-rasm. Raqobat ishtirokchilarining asosiy maqsadlari

Rasmdan ko'rinadiki, raqobat kurashi ikki tomonlama: bir tomondan ishlab chiqaruvchilar o'rtasida, ikkinchi tomonidan esa iste'molchilar o'rtasida sodir bo'ladi. Bunda ishlab chiqaruvchilar sarflangan xarajatlarning har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish maqsadida raqobatlashadilar. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida ular orasida tovarlarni sotish doiralarini kengaytirish, qulay bozorlar, arzon xomashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalariga erishish uchun kurash boradi. O'z navbatida xaridorlar, ya'ni iste'molchilar sarflagan har bir so'm xarajati evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashadilar, ularning har biri arzon, sifatli tovar va xizmatlarga ega bo'lishga harakat qiladi.

Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo'lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Chunki har bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalardagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi subyektlar manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishini aniq tavsiflaydi. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarining ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir.

Raqobatning mazmuni uning vazifalarini ko'rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) tartibga solish vazifasi;
2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
3) innovatsion vazifa;
4) moslashtirish vazifasi;
5) taqsimlash vazifasi;
6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning **tartibga solish vazifasi** ishlab chiqarishni talab (iste'mol)ga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta'sir o'tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijti-

moiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya'ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning **resurslarni joylashtirish vazifasi** ishlab chiqarish omillarini ular eng ko'p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning **innovatsion vazifasi** fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti subyektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko'rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi.

Raqobatning **moslashtirish vazifasi** korxona (firma)larning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo'naltirilgan bo'lib, ularning shunchaki o'zini-o'zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo'jalik faoliyati sohalarining ekspansiyasi (kengayishi)ga o'tishini bildiradi.

Raqobatning **taqsimlash vazifasi** ishlab chiqarilgan ne'matlar yalpi hajmi (yalpi ichki mahsulot)ning iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Nihoyat, raqobatning **nazorat qilish vazifasi** bozordagi ba'zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltiriladi.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. **O'z miqyosiga ko'ra** raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, yuqori foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqdagi mavjud korxonalarda ishlayotgan ishchilarning malakasi, ularning texnika bilan ta'minlanish va mehnat unumdorligi darajalari turlicha bo'lganligi sababli, ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining ahamiyatli qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnika darajasi va mehnat unum-dorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zarar ko'radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat kapitallarning foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat obyektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qayerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga «baravarlashtiradi».

Iqtisodiy adabiyotlarda **bir tarmoq ichidagi raqobatning** to'rtta shakli alohida ajratib ko'rsatiladi. Bular sof raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyadir.

Sof raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar. Ayni paytda, ushbu mahsulot xaridor va iste'molchilarining soni ham juda ko'p bo'ladi. Sof raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan nazorat o'rnata olmaydi yoki nazorat sezilarsiz darajada bo'ladi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Sof raqobat sharoitida

yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan, yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta korxona yoki firmadan iborat bo'lganligi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi. Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy bo'lib, u mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o'z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o'nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni paytda, har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini tabaqalashtirish, ya'ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati (sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k.) bo'yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarning mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisi bo'lib, qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari – po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilar fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'mol tovarlari – avtomobillar, kir yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashagan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining narx siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to‘rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya’ni sof holda uchramaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o‘rganish, cheksiz ko‘p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko‘rsatadi. Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o‘rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib bormoqda. Jumladan, **turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o‘rtasida mavjud bo‘lishiga ko‘ra** quyidagi raqobat turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) monopollashmagan korxonalar o‘rtasidagi raqobat;
2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat;
3) turli monopoliyalar o‘rtasidagi raqobat;
4) monopolistik birlashmalar ichidagi raqobat.

Shuningdek, iqtisodiy adabiyotlarda **g‘irrom va halol raqobatlashuv** usullari ham ajratib ko‘rsatiladi.

Raqobatlashuvning noan’anaviy, jamiyat tomonidan e’tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya’ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro‘siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish g‘irrom raqobat deb yuritiladi. G‘irrom raqobat orqali firmalar o‘z raqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Banklarni, moddiy resurs ta’minotchilarini kredit va materiallar yetkazib berishdan voz kechishga majburlash, yetakchi mutaxassislarni og‘dirib olish, narxni keskin pasaytirish g‘irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Halol raqobat – raqobat kurashida jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo‘llash, o‘zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo‘llamaslik kabi qoidalarga asoslanadi. Shu o‘rinda halol raqobatning quyidagi belgilarini ham ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- qalbaki bellashuv, majburiy safarbarlikni tan olmaydi;
- boqimandalik, befarqlik, yuzakichilik, ko‘zbo‘yamachilik kabi salbiy holatlarga barham beradi;

- qarindosh-urug'chilikni, oshna-og'aynigarchilikni, tanish-bilishlikni, ma'muriy-buyruqbozlikni tan olmaydi.[43]

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo'lib ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi. Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi – «narxlar jangi» deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar raqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi kerak bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini pasaytirish imkonini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – **demping narxlarni qo'llashdir**. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga harakat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsuloti narxini pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday harakat qilishiga olib keladi. Natijada firmalarning bozordagi mavqei o'zgarmay, faqat tarmoq bo'yicha foyda hajmini kamaytiradi.

[43] Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. – T.: «Mehnat», 1997, 58–59-b.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda **yashirin narx yordamidagi raqobat** ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda yangi tovarlar sifatining oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y beradi. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularni sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'mol bozorlarida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalariga ega bo'lishi mumkin.

Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib raqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab, tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda to'lanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, **texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish** uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma o'z mahsulotini shunchaki sotish bilan cheklanmasdan, balki uni o'rnatib berish, korxona xodimlarini kompyuterdan foydalanishga o'rgatish, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajarish, texnikaviy xizmat ko'rsatish kabilarni ham amalga oshiradi; mahsulot xossa va o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ichida **marketing** muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga mos-

lashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi.

Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qisqartiradilar. Shu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barqarorligicha qolaveradi. Shunday qilib, monopoliyalar hukmron bo'lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'li bilan sotiladigan tovar hajmini ko'paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kuchli bo'lganligi sababli mahsulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va reklamaga zarur bo'lgan mablag'ni sarflay oladilar.

8.2. Monopoliyalarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Monopoliya tushunchasiga turli o'quv adabiyotlarida turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, ba'zi o'rinlarda uni «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarning qandaydir xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq huquqi»[44] sifatida qaralsa, boshqa holatlarda «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba'zi adabiyotlarda – yakka) hukmronlik holati»[45] deb ta'riflanadi. Bu ta'riflardagi monopoliyaning «mutlaq huquq» yoki «har qanday yoki yakka hukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq

---

[44] Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, стр 121.

[45] Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. – М.: ТК Вебли, Изд-во Проспект, 2005, 191-б.; Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «O'qituvchi», 2002, 246-b.

yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta'riflash o'rinli deb hisoblaymiz: **monopoliya – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar) ning birlashmalari.**[46]

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni, grekcha «monoc» - yagona, bitta va «poleō» - sotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. **Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi.** Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba'zi bir korxonalarning o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitallarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Kapitalning to'planishi – bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati,

---

[46] Bu mazmundagi ta'riflar quyidagi manbalarda ham berilgan: Шишкин А.Ф. Экономическая теория: Учебное пособие для вузов. 2-е изд. Кн.1. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1996, 597-б.; Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, 208-б.; Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, 499-б.

qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi. Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi. **Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir.**

Ishlab chiqarishning gorizontal va vertikal to'planishi farqlanadi.

Ishlab chiqarishning gorizontal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i doirasidagi korxona va firmalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish to'planishining asosiy shakli sifatida maydonga tushgan edi.

Ishlab chiqarishning vertikal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotdagi bir necha o'zaro bog'liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning to'planishidir. U ilmiy-texnika inqilobi sharoitlarida keng rivojlandi.

Ishlab chiqarishning to'planishi o'z rivojining ma'lum darajasida monopoliyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning to'planishi hamda monopoliyalarning paydo bo'lishi o'rtasidagi ichki aloqalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarning hukmron mavqega ega bo'lishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi;

2) yirik korxonalar o'rtasidagi raqobat juda qaltis bo'lib, ular uchun katta miqyosdagi yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yuqori narxlar belgilash va yuqori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoqlarga birlashishi lozim bo'ladi.

Monopoliyalarning vujudga kelishida ishlab chiqarishning to'planishidan tashqari yana bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) davlatning proteksionistik bojxona siyosati. U chet eldagi raqobatchilarning ichki bozorga kirish imkoniyatini yo'qotib, monopoliyalarning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi;

2) banklarning faoliyati va moliyaviy siyosati. Banklar sanoat monopoliyalarining jadal o'sishiga imkon beradi.

Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko‘ra ajratish mumkin.

1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko‘ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. O‘zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O‘zbekiston havo yo‘llari» DAK, «O‘zbekiston temir yo‘llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o‘z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi va xizmat ko‘rsatuvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba’zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko‘payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. “Ta’kidlash joizki, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida faqat uglevodorod xomashyosi, qimmatbaho va rangli metallar, uran xomashyosini qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalarni, shuningdek, tabiiy monopoliyalarning strategik infratuzilma tarmoqlarini –temir va avtomobil yo‘llari, aviatashuvlar, elektr energiya ishlab chiqarish, elektr va kommunal tarmoqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat boshqaruvida saqlab qolish maqsadga muvofiq, deb topildi”[47]

Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko‘p hamda ular o‘rtasida ma’lum darajada raqobat mavjud bo‘lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o‘z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma’lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi.

[47] O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so‘zi, 2016-yil 16-yanvar.

Bunga misol tariqasida ko‘plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari, mineral ichimliklari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist ishlab chiqaruvchilarga O‘zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko‘mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg‘un) va Boysun (To‘da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko‘p bo‘lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste’molchisi yoki xaridori mavjud bo‘lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi. Misol tariqasida dehqon va fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan paxta tolasi va ularni shartnoma asosida “O‘zpaxtasanoateksport” xolding kompaniyasi tarkibida paxta xomashyosini qabul qilish va qayta ishlashni tashkil qilish bo‘yicha “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati va uning hududiy filiallariga sotishini keltirishimiz mumkin. Bunda paxta yetishtiruvchilar tarmoqda cheksiz va ular tomonidan yetishtirilgan paxta xom-ashyosini faqatgina “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyatiga sotishadi.

2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko‘ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun’iy monopoliya farqlanadi.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo‘lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo‘lgan mulkdorlar va xo‘jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o‘ziga xos texnologiyaning qo‘llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo‘lmaydigan ba’zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo‘lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo‘lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko‘payib borishi bilan tovar birligiga to‘g‘ri keluvchi xarajatlar-

ning sezilarli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi. 2017-yil boshida har biri 10 turdagi mahsulotni ishlab chiqaradigan 151 tabiiy monopoliya subyektlari mavjud.[48]

Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

1) **patent tizimi** – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan Yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutlaq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

2) **mualliflik huquqi** – ilmiy, badiiy va san'at asarlari, ijro san'ati fonogrammalari, ko'rsatuvlar, efir to'lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o'z mahsulotlarini ma'lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko'paytirishga ruxsat berish imkonini ta'minlaydi;

3) **tovar belgilari** – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro'yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha paydo bo'lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o'zgartiradi, ya'ni:

- bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qiladi (xomashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalarga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarining bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

[48] O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi ma'lumoti

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;

- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

Sun'iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsorsium, konsern kabi aniq shakllarda namoyon bo'ladi.

Kartel – bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarning uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, Yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi va h.k. bo'yicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikat – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maxsus tashkil etilgan yagona savdo tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qo'yish).

Konsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuini o'z ichiga oluvchi birlashma. Odatda bunday birlashma ma'lum ishlab chiqarish faoliyatini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan turli soha korxona va tashkilotlaridan tuziladi. Bunda bosh tashkilot qolgan ishtirokchilar faoliyati ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozirda sun'iy monopoliyalarning sanab o'tilgan shakllari orasida konsernlar keng tarqalgan.

Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning **ijobiy tomoni** asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek,

u ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi. Ikkinchidan, monopolist bo'lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi. Chunki, uncha yirik bo'lmagan raqobatlashuvchi korxonalarning odatda moliyaviy jihatdan imkoniyatlari cheklangan bo'lib, ular ishlab chiqarishga yangiliklarni tatbiq etish orqali kelgusidagi daromadlarni oshirishdan ko'ra, ko'proq joriy daromadga e'tibor qaratadilar. Bundan tashqari, yangi g'oyalar raqiblar tomonidan juda tez o'zlashtirib olinadi va, buning oqibatida, bu g'oyalarni amalga oshirish xarajatlarini bir tomon qilgani holda, uning samarasidan barcha foydalanadi. Yirik monopolistik firmalarda moliyaviy imkoniyatlar keng bo'lib, innovatsiyadan olingan foyda ularning mualliflariga tegishi aniq kafolatlanadi. Monopoliyaning **salbiy tomoni** sifatida quyidagi jihatlarni ko'rsatish mumkin:

1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yuqori foyda ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyiqiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba'zi hollarda xonavayron bo'ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib, ishsizlik va inflyatsiya o'sadi, xo'jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foyda olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani qo'shimcha urinishlarsiz o'zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlari to'g'risida qayg'urish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo'lgan korxonalarni o'zlariga bo'ysundirishlari, jamiyatga o'z ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to'lash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o'ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o'z mahsulotini iste'mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o'zlarining kamsituvchi shartlarini ko'ndalang qo'yishlari mumkin. Bundan ko'rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu **monopoliyaga qarshi siyosat** deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini **monopoliyaga qarshi qonunchilik** tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo'ladi.

Odatda AQSH dagi monopoliyaga qarshi qonunchilik nisbatan ilgariroq va mukammalroq ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. U quyidagi uchta qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

1. Sherman qonuni (1890-yilda qabul qilingan). Bu qonun savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo'lga olish, narxlar bo'yicha kelishuvlarni taqiqlaydi.

2. Kleyton qonuni (1914-yilda qabul qilingan). Bu qonun mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo'yicha kamsitish, ma'lum ko'rinishdagi birlashib ketishlar, o'zaro bog'lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi.

3. Robinson-Petmen qonuni (1936-yilda qabul qilingan). Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo'yicha kamsitishlar va boshqalarni taqiqlaydi.

1950-yilda Kleyton qonuniga **Seller-Kefover tuzatishi** kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga to'siq qo'ygan bo'lsa, Seller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

8.3. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyusion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va tavsifiga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirish strategiyasiga ko'ra "iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida mono-poliyani bosqichma-bosqich kamaytirish; prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash"[49]

[49] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi

ga kengroq e'tibor berilmoqda. Jumladan, 2017-yil va undan keyingi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobat muhitini yaratish hamda mahsulotlar va xizmatlar bozorida bosqichma-bosqich monopoliyani qisqartirish ko'zda tutilmoqda. Unga ko'ra,

- korxonalarning birlashishi va qo'shib olinishida monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini olish talablarini birxillashtirish;
- raqobatni cheklovchi kelishuvlar, bitimlar va kelishilgan harakatlarga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish;
- ustun mavqega ega bo'lgan korxonalarning aksiya va ulushlarini sotib olishda tadbirkorlik subyektlarining hujjatlarini ko'rib chiqish tartibini soddalashtirish;
- manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish maqsadida sho'ba korxona tomonidan ta'sischining ustav fondidan ulush sotib olishini va shu'ba korxona vakillarining ta'sischi kuzatuvchilar kengashida a'zoligini taqiqlash ishlarini olib borish nazarda tutilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, kompaniyalar shaklidagi monopoliyalar saqlanib qolgan bo'lib, ular ko'pincha tarmoq vazirliklari mavqe va vazifalariga ega bo'ladilar. Mahsulot va xomashyolarning alohida turlarini limit va fond ko'rinishida taqsimlashning eskicha tizimi, shuningdek, biznesni amalga oshirish uchun ruxsat, litsenziya, sertifikatlar berish, kelishish kabi mavjud ma'muriy to'siqlar monopolistik tendensiyalarga ko'proq imkon yaratadi. 2016-yilda 609 ta davlat aktivlari investitsiya kiritish va yangi ish o'rinlarini yaratish sharti bilan "nol" xarid qiymatida sotildi.

Bugungi kunda 413 ta davlat aktivlari, shu jumladan 65 tasi "nol" xarid qiymatida ommaviy savdolarga qo'yildi.[50]

O'zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo'lishini maksimal darajada bartaraf etish. Buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqa-

"O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 3.2-bandi.

[50] O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi ma'lumotlari

rish tizimini takomillashtirish uchun nisbatan qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chuqur institutsional islohotlar zarur;

b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o'z ustunlik mavqelarini suiiste'mol qilish imkoniyatlarining oldini olish. Davlat muassasalari raqobatning rivojlanishini ta'minlashlari lozim. Busiz samarali innovatsiyalar, past xarajatlar va narxlar, mahsulotning yuqori sifatiga erishish, boshqacha aytganda, butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas[51]

O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. Shunday qilib, O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik subyektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir. Shu maqsadda O'zbekistonda «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonun (1992-yil, avgust) kuchga kiritildi hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunga ko'ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga yetkazgan zararni qoplashlari, jarima to'lashlari, g'irromlik bilan olgan foydadan mahrum etilishlari shart.

---

[51] Шадыбаев Т. и др. Особенности антимонопольной политики в Узбекистане: общие принципы и правовая база. - Экономическое обозрение, №2, 2004, с.5.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o'zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqozo etdi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 27-dekabrda «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g'irrom raqobatning oldini olish, uni cheklash, to'xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslarini belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllantirish va samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, qonunda asosan ikkita muhim yo'nalish, ya'ni birinchidan, monopoliyaga qarshi taribga solishning prinsipial yangi ko'rinishi bo'lib, u mavjud va saqlanib qolgan monopolistlar tomonidan bozorda hukmronlik mavqeini suiiste'mol qilishning oldini olish va unga barham berishni ko'zda tutsa, ikkinchidan, eng asosiy muhim masalalardan bo'lib hisoblangan monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish ekanligi belgilab qo'yilgan.

Mazkur qonun monopoliyalarning amal qilishini taqiqlamay, balki bozorda ularning hukmronligi oqibatida kelib chiquvchi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan. Qonunda ko'zda tutilgan taqiqlar ham rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun, ham O'zbekiston va boshqa o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari uchun xos bo'lgan monopolistlar xatti-harakatiga qarshi o'rnatilgan.

Quyidagi hatti-harakatlar monopoliyaga qarshi qonunchilikka zid hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan bozordagi ustunlik holatining suiste'mol qilinishi (5-modda);
- xo'jalik subyektlarining raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlari (o'zaro kelishilgan xatti-harakatlari) (6-modda);
- davlat boshqaruvi organlari va mahalliy hokimiyat organlarining raqobatni cheklashga yo'naltirilgan xatti-harakatlari (7-modda);
- insofsiz raqobat (8-modda).

Monopoliyaga qarshi faol choralarni amalga oshirish uchun 1992-yilda O'zbekistonda monopoliyaga qarshi organ sifatida Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi tashkil etildi. Boshqarmaga ro'yxatga kiritilgan monopoliya

mavqeidagi korxonalar mahsuloti bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turish huquqi berildi. 1996-yilda ushbu boshqarma negizida Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi tashkil qilindi. 2000-yilda Respublika Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoniga asosan monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi va mustaqil davlat qo'mitasiga aylantirildi. Keyinchalik mazkur qo'mitaning faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan ushbu tashkilot Monopoliyadan chiqarish, raqobatni va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasiga aylantirildi.[52]

Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan monopoliyaga qarshi siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri – bu monopolist korxonalarning tovar bozoridagi egallab turgan ustunlik mavqeini suiiste'mol qilishning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha nazorat olib borishdan iboratdir. Aynan shu maqsadda monopolist korxonalar Davlat reestri yuritilib, unga muayyan tarmoqda ustun mavqega ega bo'lgan korxonalar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi qonuni 6-moddasida «ustun mavqe» tushunchasi quyidagicha izohlanadi: «Ustun mavqe tovar yoki moliya bozorida xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda unga o'z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir.

---

[52] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida. PF-4483-son. 2012-yil 13-noyabr.

Tovar bozorida qaysi xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi:

1) ellik va undan ortiq foizni tashkil yetsa;

2) o'ttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda bo'lib, bunda quyidagi shartlar:

xo'jalik yurituvchi subyektning tovar bozoridagi ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror bo'lib turishi;

tovar bozorida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda bo'lib turishi;

ushbu bozorga yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat bo'lishi shartlari belgilangan bo'lsa, shu xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining mavqei ustun mavqe deb e'tirof etiladi».[53]

Reyestrga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z mahsulotlarining narx (tarif)lari yoki rentabellik darajalarini Moliya vazirligida yoki joylardagi moliya organlarida deklaratsiyadan o'tkazishlari shart.

Respublikada monopoliyalar ro'yxatiga kirgan korxona (tarmoq) larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Monopol mavqedagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikning chegarasini belgilab qo'yish.

2. O'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul O'zbekiston Respublikasining (2001-yil 6-dekabrdagi 310-II-sonli) qonuni bilan tasdiqlangan «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida» asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1996-yil, 26-aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e'tibor beriladi. Tabiiy monopoliyalarni davlat yo'li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ichiga oladi.

[53] O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Raqobat to'g'risida. 2012-yil 6-yanvar.

Keyingi yillarda Davlat reestrini yuritish uslubiyotini takomillashtirib borish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, chet el investitsiyalarining kirib kelishi natijasida barpo etilayotgan korxonalar salmog'ining oshishi va boshqa omillar ta'sirida ko'pgina monopolist korxonalar tovar bozorlaridagi ulushining kamayishi munosabati bilan Davlat reestridan chiqarilmoqda.

Tarmoqlarda monopol hisoblangan bir qancha uyushmalar tugatilib, o'rnida mustaqil korxonalar vujudga keltirildi, bu esa raqobat muhitining yanada kuchayishiga olib keldi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shu sababli ham "mamlakatimizda Yaratilgan texnologiyalarning raqobatdoshligini ta'minlash, "nou-xau" namunalarini yaratish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ya'ni yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish"[54] kerak.

Xulosalar

1. Raqobat bozorning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. U bir tomondan, ishlab chiqarish munosabati sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Raqobatli bozor ishlab chiqarish samaradorligiga erishish va iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlashga imkon yaratadi.

2. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo ikki turga – tarmoq ichidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular sof raqobat, monopollashgan raqobat, sof monopoliya va oligopoliyadir.

3. Sof raqobat va sof monopoliya real hayotda kam uchraydi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining holatini monopollashgan raqo-

[54] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017-yil 15-yanvar.

bat va oligopoliya tavsiflaydi. Monopollashgan raqobatda juda ko'p mayda firmalar tomonidan turli-tuman tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqariladi, shuning uchun sohaga kirish qiyin emas.

4. Raqobat – xo'jalik yuritishning asosiy usuli hisoblangani uchun raqobat muhitining shakllanishi bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Raqobat muhiti deb bozor munosabatlari ishtirokchilarining xo'jalik yuritishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan iqtisodiy, qonuniy, tashkiliy va siyosiy sharoitlar majmuasiga aytiladi. Raqobat muhitining mavjudligi – alohida olingan firmaning bozor sharoitida erkin harakat qilib hukmronlik mavqeiga erishishiga halaqit beruvchi asosiy omildir.

5. Monopoliyani tartibga solish – miqdoran hisoblash imkoniyati kam bo'lgan juda murakkab jarayondir. O'zbekistonda davlatning monopoliyaga qarshi chora-tadbirlari nafaqat monopoliyani cheklash, balki monopoliyadan chiqarish jarayoni bilan uzviy ravishda olib borilmoqda. Juda ko'plab tarmoqlarda hukmron mavqega ega bo'lgan korxonalar (ular yagona korxona-tarmoq sifatida ish yuritishar edi) xususiylashtirilib, mustaqil korxonalarga aylantirildi va natijada tarmoqda raqobat muhiti shakllantirildi.

6. Davlatning monopoliyaga qarshi qonunchiligi raqobatlashuvchi subyektlar ishchanligini susaytirmaydigan darajada yetarlicha moslashuvchan bo'lishi darkor.

Asosiy tayanch tushunchalar

Raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurash.

Tarmoq ichidagi raqobat – ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, yuqori foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boruvchi kurash.

Tarmoqlararo raqobat – turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurash.

G'irrom raqobat – raqobatlashuvning noan'anaviy, jamiyat tomonidan e'tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chet-

ga chiquvchi, noiqtisodiy (ya'ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro'siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish.

Halol raqobat – jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo'llash, o'zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo'llamaslik kabi qoidalarga asoslangan raqobat kurashi.

Narx vositasida raqobatlashuv – ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi asosidagi kurash.

Narxsiz raqobatlashuv – asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblangan kurash.

Monopoliya – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

Ishlab chiqarishning to'planishi – ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishi.

Kapitalning to'planishi – qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishi.

Kapitalning markazlashuvi – bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati va boshqa shakllarda ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishi.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi va binobarin, foyda olishdagi yakkahukmronlik holati.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati.

Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sa-

babli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati.

Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati.

Legal (qonuniy) monopoliya – qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat.

Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Kartel – ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qolib, Yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota asosida amalga oshiriladigan bitta sanoat tarmog'idagi bir necha korxonalarning uyushmasi.

Sindikat – ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish maxsus tashkil etilgan yagona savdo tashkiloti orqali amalga oshiriluvchi, bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi.

Trest – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

Konsorsium – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi.

Konsern – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuini o'z ichiga oluvchi birlashma.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.

2. Raqobatning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Bu vazifalarning bir-biridan farqini ajratib ko'rsating.

3. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.

4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.

5. Halol va g'irrom raqobatlashuv usullariga nimalar kiradi?

6. Raqobatlashuvning demping narxlarni qo'llash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?

7. Monopoliya nima va uning vujudga kelishining iqtisodiy asoslari nimalardan iborat? Monopoliyaning qanday turlari mavjud?

8. Kapitalning to'planishi va markazlashuvi o'rtasida qanday farq bor?

9. Tabiiy, legal va sun'iy monopoliyalarning bir-biridan farqlanishini ko'rsating.

10. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?

11. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi qonunchilikning mohiyati qanday?

12. Raqobat muhitining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

13. O'zbekistonda raqobatni qo'llab-quvvatlovchi va monopoliyaga qarshi kurashuvchi qanday tashkilotlar mavjud?

9-BOB. NARXNING MOHIYATI VA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Narx bevosita tovarning qiymati va naflliligi bilan bog'liq bo'lsada, o'zi mustaqil amal qiladigan iqtisodiy kategoriya hisoblanib, bozor mexanizmining muhim tarkibiy unsurlaridan biridir. U o'zining vazifalari orqali barqaror iqtisodiyotning shakllanishi hamda samarali amal qilishiga, bozor muvozanatining ta'minlanishiga, milliy daromadning iqtisodiyot turli tarmoq va sohalari, xo'jalik yurituvchi subyektlari bo'yicha taqsimlanishiga, aholining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, u ishlab chiqaruv-chilarni rag'batlantirib, sog'lom raqobat muhitining yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu bobda narxning iqtisodiy mazmuni va vazifalari, shakllanish tamoyillari, narx darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, narx turlari batafsil bayon etiladi. Shuningdek, turli darajadagi raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari, davlatning narx siyosati va uning O'zbekistondagi o'ziga xos jihatlari ham ko'rib chiqiladi.

9.1. Narxning mazmuni, vazifalari va uning darajasiga ta'sir etuvchi omillar

Tovarlar qiymati va ularning naflliligi o'zlarining namoyon bo'lishini narxda topadi. Amaliy hayotda qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarni, naflilik esa iste'molchilarni rag'batlantiruvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuch sifatida amal qiladi.

Tovarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, lekin doimo bir-birini taqozo etadigan, birisiz ikkinchisi bo'lmaydigan ikki xususiyatga, ya'ni ma'lum bir naflilikka (iste'mol qiymatiga) va qiymatga ega ekanligi, tovar yoki xizmat shu ikki xususiyat birligidan iborat ekanligi o'quvchiga oldingi boblardan ma'lum. Oldingi o'rinlarda biz tovarning qiymati har qanday sarflarni emas, balki mavjud sharoitda shu tovarni ijtimoiy zaruriy miqdorda va sifatda ishlab chiqarish, ya'ni ijtimoiy-zaruriy naflilikni yaratish uchun zarur bo'lgan

ijtimoiy zaruriy sarflarni ifoda yyetishini aytib o'tgan edik. Narxlar mazmunini aniqlashda tovardagi mana shu ikki xil xususiyatning, ya'ni ijtimoiy qiymat va ijtimoiy naflilik birligini, bunda iste'mol qiymati (naflilik) qiymatni o'zida olib yuruvchi moddiy asos ekanligini to'g'ri hisobga olmaslik, uning mazmunini ochishda masalaga bir tomonlama yondashish natijasida narx mazmuni turli olimlar va oqimlar tomonidan turlicha aniqlanmoqda va unga turlicha ta'rif berilmoqda. Buning ustiga narxning darajasiga (yuqori yoki past bo'lishiga), uning o'zgarishiga turli xil omillar ta'sir qiladiki, bu ham masalani to'g'ri tushunishni bir oz chigallashtiradi. Masalan, ingliz klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillari g'oyalarida hamda oldingi siyosiy iqtisod darsliklarida narxning asosini qiymat tashkil qiladi deyilgan bo'lsa, marjinalizm yo'nalishidagi va hozirgi davrdagi P.Samuelson, K.Makkonnell va S.Bryularning «Ekonomiks» darsliklarida, shuningdek, yaqinda chop etilgan ayrim iqtisodiyot nazariyasi o'quv qo'llanmalarida tovar narxining asosini uning nafliligi, aniqroq aytganda, qo'shilgan miqdor nafliligi tashkil qiladi degan fikrlar beriladi. Bunda so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligiga alohida e'tibor beriladi. Uchinchi guruh olimlar esa narx talab va taklif asosida tashkil topadi deyishadi. Ularning har biri o'zlaricha turli dalillar topib, o'z g'oyalarini isbotlashga harakat qiladilar.

Rossiyada chop etilgan bir qator «Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida tovarning ikki xil xususiyati va binobarin, har ikki nazariyaning mohiyati, mazmuni va ularning narxni to'g'ri aniqlashdagi roli beriladi, lekin narxning asosida nima yotishi haqida aniq fikr berilmaydi.

Alohida tovarlarga qilingan mehnat sarflari turlicha bo'lib, ulardan ayrimlari ijtimoiy mehnat sarfi sifatida to'liq tan olinsa, boshqasi qisman tan olinadi, uchinchisi esa umuman tan olinmasligi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, bozordagi mavjud narxlarga mehnat sarflari yoki qiymatning aynan o'zi deb qarash noto'g'ridir. Chunki unga mehnat sarfidan boshqa omillar ham ta'sir qilib, natijada narx qiymatdan past yoki yuqori bo'lishi mumkin. Jumladan, o'zgarib turuvchi talab va taklif ta'siri ostida biror tovarning bozor narxi

tebranib, uning qiymatidan u yoki bu tomonga farqlanishi mumkin. Raqobat ham qiymat – narx nisbatiga xuddi talab va taklif kabi ta'sir ko'rsatadi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, xaridor u yoki bu tovarni sotib olishda, nafaqat uning qancha turishini, balki mazkur tovarning iste'mol xususiyatlari o'zining ehtiyoji va didiga qanchalik mos kelishini, ya'ni uning nafliligini ham hisobga oladi. Tovarning xarid qilinishi uning alohida olingan bir kishi uchun emas, balki jamiyat uchun nafliligini va shu bilan birga ijtimoiy qiymatini ham tan olishni bildiradi. Shu sababli, «ijtimoiy naflilik» tushunchasining o'zi biror tovar (xizmat) ning jamiyat uchun nafliligi, qadr-qimmatga egaligini ko'rsatadi. Shu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, **narx o'zida faqatgina qiymat yoki naflilikning birini emas, balki har ikkalasining bir vaqtda mavjudligini va ularning ma'lum miqdorini pul ko'rinishida ifoda etadi.** Tovardagi ikki xususiyat birdaniga tan olinmasa, u pulda ifodalanmasa oldi-sotdi sodir bo'lmaydi. Chunki tovarning qiymati tomonida sotuvchining manfaati, nafliligi (iste'mol qiymati) tomonida esa xaridorning manfaati yotadi. Tovar egasi tovar ishlab chiqarish sarflarini qoplab, ma'lum darajada, iloji boricha ko'proq foyda olishni ta'minlashi mumkin bo'lgan qiymatni pul shaklida o'zlashtirishga intilsa, xaridor iloji boricha sarflayotgan pulining har bir birligiga ko'proq naflilik (iste'mol qiymati) olishga harakat qiladi. Ularning manfaatlari to'g'ri kelgan nuqtada, darajada narx o'rnatilib, tovar-pul almashuvi, oldi-sotdi sodir bo'ladi. Bu holatni yaxshiroq tasavvur qilish uchun quyidagi 9.1-rasmga e'tiborni jalb etamiz.



9.1-rasm. Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxdagi ifodasi

Bu rasmdan tovarning narxi ma'lum bir iqtisodiy jarayonni ifoda etuvchi mustaqil ilmiy tushuncha ekanligi, tovarning ikki xususiyatiga asoslanishini, ular bilan chambarchas bog'liqlikda o'zgarishini ko'rish mumkin.

Undan tashqari, hozirgacha iqtisodiy fanlarda real hayotda turli-tuman tovarlar va xizmatlar naflliligini, ularning o'zgarishini bir ko'rsatkichga keltirib hisoblashning pul ko'rinishidan boshqa o'lchami topilgan emas. Naflilikning marjinalistlar tomonidan kiritilgan shartli o'lchami – yutil (inglizcha utility – naflilik) ham turli tovarlar naflliligi hisobini olib borishga qodir emas. Bulardan xulosa qilib aytish mumkinki, **narx – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy naflliligining puldagi ifodasidir.**

Bu yerda shuni yana bir bor ta'kidlash joizki, narxda alohida olingan ishlab chiqaruvchilarning individual sarflari emas yoki alohida olingan individual shaxslarning psixologik jihatdan naflilikka bergan bahosi ham emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy sarflar va jamiyat uchun zarur bo'lgan miqdorda va sifatda Yaratilgan va tan olingan ijtimoiy naflilik (iste'mol qiymat) o'z ifodasini topadi. Tovarlar va xizmatlar uchun qilingan ijtimoiy sarflarning asosli ravishda o'sishi yoki tovar va xizmatdagi sifat ko'rsatkichlarining o'sishi ushbu tovar narxining oshishiga olib keladi.

Masalan, avtomobil dvigatelida ot kuchining oshishi, saloni, boshqaruv tizimi va tezligida bo'lgan o'zgarishlar uning narxi oshishiga sabab bo'ladi. Chunki shu o'zgarishlar bilan bir vaqtda unga sarflangan xarajatlar ham oshgan bo'ladi. Bunday ikki tomonlama o'zgarishlar natijasida narxlarning o'zgarishi hamma tovarlar va xizmatlarga xosdir. Narx tovar va xizmatlardagi ikki xususiyatning puldagi ifodasi sifatida, ularning o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Shuning uchun real hayotda turli tovarlar va xizmatlardagi ikki xil xususiyat o'zgarishlari ularning hajmini hisoblashda ikki xil narxda hisobga olinadi (9.2-rasm).

9.2-rasm. Tovardagi ikki xil xususiyatni ifodalovchi narxlarning mahsulot hajmini hisoblashda qo'llanishi

Narxning iqtisodiy mazmuni uning vazifalari ko'rib chiqilganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Narx quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Muvozanatlikni ta'minlash vazifasi. Bunda narx bozorda talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi. **Bozor narxi – bu muvozanatlashgan narx bo'lib, u birinchidan, tovarlarning sotilishini ta'minlaydi, ikkinchidan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydi.**

2. Qiymat va naflilikni o'lchash vazifasi. Narx qiymat va naflilikning puldagi ifodasi deb aytamiz, chunki qilingan sarf-xarajatlar va olingan natijalar (foyda yoki zarar) narxlar asosida hisob-kitob qilinadi. Ishlab chiqarish va uning natijalarining natural ko'rsatkichlari ham mavjud (tonna, kg, m^2, kvt-soat va hokazo). Bu ko'rsatkichlarni shu holicha taqqoslab, umumiy ko'rsatkichga keltirib bo'lmaydi. Barcha natural ko'rsatkichlarning umumiy o'lchovi ularning pulda ifodalangan narxidir. Hisob-kitob uchun joriy va qiyosiy narxlar qo'llaniladi. **Joriy narxlar amaldagi narxlar bo'lib, ular yordamida yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblanadi. Qiyosiy narxlarda ma'lum yil (bazis yil) asos qilib olinib, ishlab chiqarishning natijalari shu narxda hisoblanadi va boshqa yillar bilan taqqoslanadi. Yalpi** milliy mahsulot, milliy daromad, real ish haqi va shu kabi ko'rsatkichlar dinamikasi qiyosiy narxlarda hisoblanadi.

Chunki joriy narxlar inflyatsiya tufayli o'zgarishi va real iqtisodiy natijani ko'rsatmasligi mumkin.

3. Tartibga solish vazifasi. Bozor holati (kon'yunkturasi) talab va taklif hamda ularning nisbatiga bog'liq. Talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirishni, askincha holatda esa tovar ortiqchaligini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi. Narx tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ularning daromadlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Muayyan ishlab chiqarish xarajatlari saqlangan holda narx yuqori bo'lsa, foyda miqdori ortadi, narx tushsa, foyda kamayadi va hatto ishlab chiqaruvchilar zarar ko'rishi ham mumkin. Bu ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Narx oshsa, ishlab chiqarish kengayadi. Boshqa kapitallar ham foyda yuqori bo'lgan soha va tarmoqlarga oqib kela boshlaydi. Xullas, narx ishlab chiqarishni tartibga solib, uni o'zgartirib turadi va rivojini ta'minlaydi.

4. Raqobat vositasi vazifasi. Narx raqobat kurashining eng muhim vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar o'z raqiblarini yengish uchun narxni pasaytirish usulidan foydalanishlari mumkin. Demak, narxni o'zgartirib turish usuli raqobatda keng qo'llaniladi.

5. Ijtimoiy himoya vazifasi. Narx aholining kam daromad oluvchi ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish vazifasini ham bajaradi. Narxning bu vazifasi tovar (xizmat)lar ijtimoiy dotatsiyalangan narxlar bo'yicha sotilganda bajariladi. Bunda ular davlat byudjeti va turli xayriya mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minlanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida ijtimoiy himoya vazifasini o'tuvchi narxlar, aholining keng qatlamlarini hayotiy zarur iste'molchilik tovarlari bilan minimal darajada ta'minlash maqsadida ham qo'llaniladi. Masalan, bizning respublikamizda 1991-yildan 1995-yilgacha un va un mahsulotlari, qand-shakar, go'sht, o'simlik moyi, choy, sovun kabi mahsulotlar dotatsiyalangan narxlarda, cheklangan miqdorda sotildi. Ularning dotatsiyalangan va haqiqiy narxlari o'rtasidagi farq byudjet mablag'lari hisobiga qoplab borildi. Shunday qilib, narx bozor munosabatlarining vositasi sifatida bir-biri bilan uzviy bog'langan muhim vazifalarni bajaradi.

Narxning mazmunini to'laroq tushunishda, uning darajasiga ta'sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Bulardan asosiy-

lari – bo'lib qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari; tovarning naflilik darajasi; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati; davlatning iqtisodiy siyosati va h.k. hisoblanadi. Bu omillar ichida tovar qiymati va naflilig'i uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi (9.3-rasm).



9.3-rasm. Narx darajasiga ta'sir qiluvchi omillar

Boshqa omillar esa narxning ijtimoiy qiymat bilan ijtimoiy naflilik miqdori atrofida goh birinchisining, goh ikkinchisining foydasiga tebranishiga sabab bo'ladi. Masalan, talab va taklif nisbatini olaylik. Agar tovarlarning ayrim turiga talab taklifga nisbatan baland bo'lsa, ijtimoiy qiymat o'zgarmagan holda narxning darajasi nisbatan yuqori bo'ladi, yoki aksincha taklif talabga nisbatan ko'proq bo'lsa, ijtimoiy qiymat o'zgarmagan holda narxning darajasi unga nisbatan past bo'ladi.

Hozirgi davrda iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha chop etilayotgan ko'plab darslik va o'quv qo'l[illegible]nmalarda narx darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatorida pulning qadr-qimmati e'tibordan chetda qolmoqda. Holbuki, pulning qadr-qimmatining o'zgarishi ham narx darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, milliy valyutani chet el valyutalariga ayirboshlash nisbatining o'zgarishi orqali yaqqolroq namoyon bo'ladi. Masalan, 1 AQSH dollari 1300 so'mga teng bo'lgan chog'da 10 dollar turuvchi qandaydir tovarning narxi 13000 so'm bo'ladi. Agar so'mning qadri oshib, 1 dollar 1000 so'mga tenglashsa, u holda shu tovarning narxi 13000 so'm emas, balki 10000 so'm bo'ladi. Narx darajasiga boshqa omillarning ta'siri masalasiga alo-

hida to‘xtalmasa ham bo‘ladi. Chunki soliq miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, narx darajasi shuncha yuqori bo‘lishi hammaga ayondir.

9.2. Narx turlari va ularning mazmuni

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlaridagi ishlab chiqarish va sotish sharoitlarining xilma-xilligi hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi darajasidagi farqlar narx turlarini farqlash zaruratini tug‘diradi. **Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashkil qiladi.** Narxlar tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha qarab chiqamiz.

Ulgurji narx – ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta miqdordagi tovarlar bir yo‘la ko‘tarasiga sotilganda qo‘llaniladigan narx. Ulgurji narx ishlab chiqaruvchilar va ta’minlash-sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma’lum miqdorda foyda ko‘rishini ta’minlashi zarur. Ulgurji narx tovar birjalari va savdo uylarida ham qo‘llaniladi.

Shartnoma narx – sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narx. Shartnoma narx odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o‘zgarmaydi. Mazkur narx ham milliy, ham xalqaro bozorlarda qo‘llaniladi. U xalqaro bozorda qo‘llanilganda tovar (xizmat) larning jahon narxlariga yaqin turadi.

Chakana narx – tovarlar bevosita iste’molchilarga sotiladigan narx. Chakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi. Chakana narx tovarlarga bo‘lgan talab va taklifni bog‘lovchi rolini o‘ynaydi hamda ularning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo‘lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyalangan narxlarni vujudga keltiradi. **Chegaralangan narx – davlat tomonidan yuqori va quyi chegaralari belgilanib, shu doirada o‘zgarishi mumkin bo‘lgan narx.** Bunday narx yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narx darajasini nazorat qiladi. **Dotatsiyalangan narx – davlat byudjeti hisobidan maxsus arzoniashtirilgan narx.** Bunday narxdan kam daromadli oilalar,

beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx – bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini bozordan siqib chiqarish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan maxsus narx. U «bozorga kirib olish narxi» deb ham ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

Nufuzli narx – sotish hajmini o'zgartirmasdan, yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan narx. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo'lib, monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bundan tashqari aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi. Rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun dala hovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, so'nggi nusxadagi kiyimlar kiyish, yangi modeldagi avtomashinada yurish – martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi. Martabali iste'mol nufuzli narxlarni yuzaga keltiradi. Ular odatdagi narxlardan ancha yuqori bo'ladi. Nufuzli narxlarni qo'llashda tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari va rentabellik darajasi, bozordagi talab, uning o'zgarishi va bozordagi raqobatlashuv sharoiti hisobga olinadi. Shunga qarab, **ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan qat'iy (standart) narx va o'zgaruvchan narx qo'llaniladi.** Shunday tovarlar borki, iste'molchilar ularning narxi o'zgarmasligini afzal ko'radi. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati ta'riflari shunday narxlar jumlasiga kiradi.

Erkin bozor narxi – bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxidir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narx jamiyat va bozor munosabatlari barcha subyektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Narx diapazoni qanchalik keng bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Bozor ko'lami hisobga olinganda hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar mavjud bo'ladi. **Hududiy narx faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxdir.** Milliy narx mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar naflilligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi. **Jahon bozori narxi muayyan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.**

Narxning xilma-xil turlari mavjud bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. **Iqtisodiyot nazariyasida narx nisbati degan tushuncha bor, u narx pariteti deb ham yuritiladi.** Iqtisodiyot va undagi jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lganidan narxlar bir-birini yuzaga chiqaradi. Masalan, ruda narxi metall narxiga, metall narxi mashina narxiga, mashina narxi kiyim narxi tarkibiga kiradi, chunki bu narxlarning har biri o'zidan keyingi mahsulot xarajatlarini shakllantiradi. Bozorga shunday o'ziga xos tovarlar chiqadiki, ular ko'pchilik sohalarda ishlatiladigan eng muhim iqtisodiy resurslar hisoblanadi. Bular metall, neft, ko'mir, gaz, yog'och, bug'doy, paxta kabi tovarlar bo'lib, ular narxining o'zgarishi butun narxlar nisbatini o'zgartiradi.

9.3. Raqobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari

Narxning shakllanishiga bozorning holati bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki narxning shakllanishida bozordagi talab va taklif nisbati asosiy omillardan biri hisoblanadi. Talab va taklif miqdoriga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatiga ko'ra, bozordagi raqobatning turli ko'rinishlari farqlanadi. **Mukammal raqobat sharoitida** ishlab chiqaruvchi (yoki sotuvchi) hamda iste'molchi (yoki xari-

dor)larning soni juda ko‘p bo‘lib, ularning ishlab chiqarish hajmini o‘zgartirish orqali narx shakllanishiga ta’siri umuman sezilmaydi. **Nomukammal raqobat sharoitida** esa ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) yoki iste’molchilar (xaridorlar)dan birining soni cheklangan bo‘lishi ularning bozordagi ishlab chiqarish hajmiga va, pirovardida, bozordagi narxning shakllanishiga sun’iy ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Bunday raqobatning turli darajalarida narxlarning shakllanish xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, biz quyida mukammal raqobat, sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya sharoitida narxlarning shakllanish xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanishi. Erkin raqobat kurashi sharoitida narxning tashkil topish xususiyatlarini tadqiq etgan dastlabki iqtisodchilardan biri A.Marshall hisoblanadi. Uning fikricha, tovarning oldi-sotdi jarayoniga qadar ikki xil, ya’ni **sotuvchi va xaridor narxlari** mavjud bo‘ladi. Nazariy jihatdan har ikki narxning yuqori va quyi darajalari mavjud. Sotuvchi o‘z tovari narxining imkon qadar yuqori bo‘lishidan manfaatdor, chunki bunday narx uning foydasi hajmini oshiradi. Biroq, erkin raqobat sharoitida narxni boshqalardan yuqori darajada belgilashga intilish mazkur sotuvchining bozordan siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Sotuvchi narxining eng past darajasi shu tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni qoplashi kerak. Xaridor tovarni eng past narxda sotib olishdan manfaatdor, biroq erkin raqobatli bozor sharoitida uning ham tovar sotib ololmay qolish xavfi mavjud bo‘ladi. Xaridor narxining yuqori darajasi esa, Marshall ta’biricha, so‘nggi qo‘shilgan miqdor nafliligiga teng bo‘lishi kerak.

Sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi qulay narxga erishish borasidagi kurash har ikki narxning mosligi ta’minlangunga, ya’ni bozor narxi paydo bo‘lgunga qadar davom etadi. Shunday qilib, sotuvchining narxi tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari, xaridor narxi tomonidan esa so‘nggi qo‘shilgan miqdor nafliligi maydonga tushib, ularning nisbati asosida bozor narxi paydo bo‘ladi. Bu holatni Marshall shunday ifodalaydi: «...«ishlab chiqarish xarajatlari» prinsipi hamda «so‘nggi qo‘shilgan naflilik» prinsipi, shubhasiz, yagona talab

va taklif umumiy qonunining tarkibiy qismi hisoblanib, ulardan har birini qaychining bitta kesuvchi tomoniga qiyoslash mumkin»[55]. Shu o'rinda, 4-bobda bildirilgan fikr-mulohazalarni yana bir bor esga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya'ni, mukammal raqobatli bozor sharoitida narxning shakllanishida talab va taklifning ta'sirida A.Marshall ta'kidlaganidek, so'nggi qo'shilgan naflilik va ishlab chiqarish xarajatlari emas, balki ijtimoiy zaruriy naflilik va ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari yotadi.

Talab va taklifning muvozanati mukammal raqobat bozoridagi narxning shakllanishiga muvofiq keladi (9.4-rasm).



9.4-rasm. Mukammal raqobatli bozor sharoitida narxning shakllanishi

Rasmdan ko'rinadiki, faqat narxning R_E darajasidagi talab miqdoriga ishlab chiqaruvchilar tomonidan taklif miqdori muvofiq keladi. Narxning bu darajadan har qanday pasayishi talabning taklifdan oshib kyyetishini, narxning bu darajadan har qanday yuqori bo'lishi esa, taklifning talabdan oshib kyyetishini keltirib chiqaradi.

---

[55] Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3 т. М., 1993. Т.III. С.282.

Narxning R_A darajasidagi holat uzoq vaqt mavjud bo'la olmaydi. Chunki, tovarlarning sotilmay, to'planib qolishi bilan sotuvchilar o'rtasidagi raqobat kuchayib, ular o'z tovarlarini tezroq sotish maqsadida narxni tushira boshlaydilar.

Narxning R_V darajasidagi holat ham barqaror turmaydi. Chunki, bu holatda talab taklifdan oshib ketib, tovarlar taqchilligi boshlanadi. Taqchil tovarga ega bo'lish uchun bir-biri bilan raqobatga kirishgan xaridorlar uning narxini oshira boshlaydilar.

Bozordagi yagona muvozanatlashgan, nisbatan uzoq vaqt barqaror amal qiluvchi narx sifatida talab hajmi taklif hajmiga muvofiq kelgan holdagi narx R_E maydonga tushadi.

Raqobatlashuv asosida paydo bo'lgan muvozanat doimo talab va taklif egri chiziqlarining kesishuv nuqtasida joylashadi. Muvozanat narxi har doim ham darhol, bir zumda tarkib topmaydi. Unga erishishda toki talab va taklif muvozanatga kelgunga qadar narx atrofidagi tebranishlarni o'z ichiga oluvchi ma'lum davrlar taqozo etilishi mumkin.

Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Monopoliya sharoitida narx shakllanishining o'ziga xos jihati shundaki, agar mayda tovar ishlab chiqaruvchilar faqat o'zlarining individual narxlarini o'zgartira olsalar, ulardan farqli o'laroq bozor ishtirokchilari sifatidagi monopoliyalar bozor narxlarini o'zlari belgilay oladilar. Bunda monopoliyalar ommaviy talabning oshishi bilan narxning oshishi hamda ommaviy taklifning oshishi bilan narxning pasayib borishidan o'ziga xos tarzda foydalanadilar.

Ommaviy tartibda tovarlarni sotuvchi monopoliyalar o'z manfaatlari yo'lida taklif kam bo'lganda narxning oshishi tendensiyasidan foydalanadilar.

Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi quyidagi miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi: talabga nisbatan tovarlar taklifi qanchalik yuqori bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik past bo'ladi va aksincha, taklif kamayishi bilan narx oshib boradi (9.5-rasm).



9.5-rasm. Taklif bo'yicha narx egri chizig'i

Rasmdan ko'rinadiki, tik o'qda muayyan tovarlar taklifi hajmining ko'payib borishi, yotiq o'qda esa mahsulot birligiga bo'lgan narx darajasining oshib borishi aks ettirilgan. Taklif bo'yicha narx egri chizig'i (R_1R_2) bozor narxining tovarlar ommaviy taklifiga bog'liqligini ifodalaydi.

Monopolistlar mahsulotlarning sun'iy taqchilligini vujudga keltirish maqsadida o'z tovarlarining sotish hajmini ataylab qisqartiradilar. Bozorda tovarlarning yetishmasligi monopol yuqori narxlarning o'sishiga olib keladi.

Monopoliyalar narxni oshirishning har bir yangi jarayonida tovarlarni ishlab chiqarish va sotish hajmini qisqartirishdan ko'rilgan zararni hisobga oladi. Daromaddan bunday yo'qotishlarning oldini olish maqsadida ular yangi narxlarni yanada yuqori darajada belgilaydilar. Shu bilan bir vaqtda monopoliyalar mahsulotlarning qisqargan hajmini sotishdan olingan tushum yo'l qo'yilgan yo'qotishni qoplashi hamda daromad miqdorining o'sishini ta'minlashini nazorat qilib turadilar.

Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Monopsoniya mayda tovar ishlab chiqaruvchilardan tovarlarning katta hajmini sotib olib, talab bo'yicha narx qonunidan o'ziga xos tarzda foydalanadi.

Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi quyidagi miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi: taklifga nisbatan xaridorlarning ommaviy talabi qanchalik katta bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha, talabning kamayishi bilan bozor narxi pasayib boradi. Bu bog'liqlik 9.6-rasmda yaqqolroq aks ettirilgan. Rasmdan ko'rinadiki, tik o'qda muayyan tovarlarga talab hajmining ko'payib borishi, yotiq o'qda esa mahsulot birligiga bo'lgan narx darajasining oshib borishi aks ettirilgan. Talab bo'yicha narx egri chizig'i (R_1R_2) bozor narxining xaridorlarning ommaviy talabiga bog'liqligini ifodalaydi.



9.6-rasm. Talab bo'yicha narx egri chizig'i

Monopsonist o'zi uchun zarur bo'lgan tovarni, masalan qishloq xo'jaligi xomashyosini oldindan past narxlarda sotib olib, uning katta miqdordagi zaxirasini tayyorlab qo'yadi. Bu esa unga yangi hosilning yig'im-terimi davrida o'zi sotib olayotgan xomashyoga monopol

past narxlarni o'rnatish imkonini beradi. Bunday past narxlarda monopsonist juda katta foyda oladi. Sun'iy ravishda sotilayotgan mahsulot ortiqchaligi hududining vujudga keltirilishi xarid narxlarining navbatdagi pasayishiga olib kelib, natijada monopsonistning foydasi oshib boradi. Bunga g'arb mamlakatlari monopsoniyalari tomonidan ancha vaqtdan buyon Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari tadbirkorlari va mayda tovar ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinayotgan arzon xomashyoni misol tariqasida keltirish mumkin. Afrikadan an'anaviy tarzda eksport qilinuvchi bir qator tovarlar (choy, kofe, kakao va h.k.)ga ham azaldan o'ta past narxlar o'rnatib kelinadi.

Bir vaqtning o'zida monopoliya va monopsoniya hisoblanuvchi firma o'zining daromadini «narxlar qaychisi» usuli orqali ahamiyatli darajada oshiradi. Bunda monopol yuqori va monopol past narxlardan foydalanilib, ular o'rtasidagi farq xuddi qaychining ikkita kesuvchi tomoni bir-biridan uzoqlashgandagi singari kattalashib boradi. Narxlarning bunday harakati tovarlar ortiqchaligi va taqchilligi hududlarining kengayishiga asoslanadi. U sanoatning ko'plab qayta ishlovchi korxonalari uchun xosdir. Bu korxonalar o'zlarining tayyor mahsulotlariga undirma sanoat tarmoqlarida o'rnatilgan narxlarga nisbatan bir necha marta yuqori narx o'rnatadilar.

XX asrning ikkinchi yarmida AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa g'arb mamlakatlarida agrobiznes sohasining kengayishi bilan narxlar qaychisi asosiy usullardan biriga aylanib, uning yordamida yirik firmalar o'rta va mayda fermyerlarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan siqib chiqardilar.

Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi tarmoqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'llaniluvchi «ergashish» hamda «inkor etish» xatti-harakatlari orqali izohlanadi.

«**Ergashish**» holatida bir oligopolist tomonidan narx bo'yicha qilingan o'zgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar tomonidan ham ergashish, ya'ni shunday o'zgarishlar qilish kuzatiladi. Odatda, bozorda o'z tovarlariga narxni pasaytirish orqali iste'molchilari soni hamda sotish hajmini oshirishga qaror qilgan oligopolist xatti-harkatiga javoban qolgan oligopolistlar ham

narxlarni pasaytiradilar. Natijada narxning umumiy pasayishi ro'y berib, bozordagi ulush oldingi holda qoladi, ya'ni oligopolistning xatti-harakati samara bermaydi.

«Inkor etish» holatida bir oligopolist tomonidan narx bo'yicha qilingan o'zgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar tomonidan inkor etish, ya'ni hech qanday javob o'zgarishlari qilmaslik kuzatiladi. Ko'pincha bunday holat oligopolist tomonidan o'z tovariga narxni oshirgan chog'ida ro'y beradi, ya'ni qolgan oligopolistlar tovarlari narxlarini oshirmaydilar. Natijada narxni oshirgan oligopolist o'z iste'molchilarini yo'qotib, bozordan siqib chiqariladi. Yuqorida bayon etilgan holatlar natijasida oligopolist firmaning talab egri chizig'i «siniq egri chiziq» ko'rinishini oladi (9.7-rasm). Bunday holatni birinchi bo'lib XX asrning 40-yillarida amerikalik iqtisodchi P.Suizi tavsiflab bergan.



9.7-rasm. Oligopolistik bozordagi narxning shakllanishida talab egri chizig'ining «sinishi»

Rasmdan ko'rinadiki, dastlab oligopolist firmaning mahsulotiga talab egri chizig'i D_1D_1 ko'rinishida bo'lib, R_0 narx darajasida Q_0 sotish hajmini ta'minlar edi. Oligopolist firma o'z tovari narxini R_1

darajaga pasaytirishi talabni o'stirib, mahsulot hajmini Q_1 ga qadar oshirishi ko'zda tutilar edi. Biroq, boshqa oligopolistlarning «ergashish» xatti-harakatini tutishi, ya'ni ularning ham o'z tovarlari narxini pasaytirishi natijasida talab egri chizig'ining «sinishi» ro'y berib, u endi D_1ED_2 ko'rinishini oladi. Oqibatda sotish hajmi oldingi Q_0 darajasida qolgani holda tovarning narxi pasayib, oligopolistlar o'z foydalarining ma'lum bir qismini yo'qotadilar.

Oligopolist firma o'z tovari narxini R_0 dan R_2 ga oshirgan taqdirda qolgan oligopolistlar «inkor etish» xatti-harakatini qo'llashlari natijasida talab egri chizig'i yana «sinadi». Oldingi D_1D_1 ko'rinishdagi talab egri chizig'i endi D_3ED_1 ko'rinishini oladi. Agar boshqa oligopolistlar ham o'z tovarlari narxini oshirganlarida, mazkur oligopolist-firmaning tovariga bo'lgan talab hajmi Q_2 ga qadar qisqarishi lozim bo'lsa, bunday xatti-harakatning amalga oshirilmasligi natijasida bu qisqarish Q_3 ga qadar davom etadi, ya'ni bozordagi sotish hajmini yo'qotish darajasi oshib ketadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, oligopoliya sharoitida ishlab chiqaruvchilar narxni ko'proq o'zaro kelishish orqali belgilashga harakat qiladilar.

O'z mahsulotlariga bozor narxini o'rnatishda oligopolistlar tomonidan «**narx bo'yicha yetakchilik**» xatti-harakati keng qo'llaniladi. Bu xatti-harakat narx vositasida raqobatlashuvni inkor etib, mazkur tarmoqqa kiruvchi barcha oligopolist firmalarning narxni shakllantirish va uni o'zgartirishda yetakchi oligopolist firmaga ergashishlarini taqozo etadi. Odatda tarmoqdagi eng yirik firma yetakchi sifatida maydonga tushadi. Narx bo'yicha yetakchi firma boshqalarga qaraganda iqtisodiy jihatdan ancha ustun bo'lsada, u o'zining xatti-harakatini faqat narx jihatdan tazyiq o'tkazish asosida amalga oshira olmaydi. Narxni shakllantirishda yetakchi – firma boshqa ergashuvchi-firmalarning ham manfaatlarini e'tiborga olmog'i lozim. Bu manfaatlar ularning xarajatlarini qoplash, me'yordagi foydani ta'minlash, mahsulotlarini sotishga sharoit yaratish kabi holatlar orqali namoyon bo'ladi. Agar talab yoki ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishi natijasida bozor narxi oligopolistik kelishuv doirasidagi firmalarning manfaatlariga muvofiq kelmay qolsa, yetakchi firma darhol narxlarni o'zgartirishi lozim bo'ladi.

9.4. Narx siyosati va uning O‘zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari

Ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan barcha mamlakatlarda davlatning narx sohasidagi siyosati ko‘p jihatdan narxlarni erkinlashtirish, milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

Narxlarni erkinlashtirish – iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko‘p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Narxlarni erkinlashtirish xomashyo bilan mahsulot ayrim turlarining narxlari, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari o‘rtasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. Shu yondashuvlarga asoslanib, narxlar quyidagi yo‘llar bilan erkinlashtiriladi:

a) narxlarni birdaniga yoki «esankiratadigan» tarzda qo‘yib yuborish;

b) narxlarning o‘sishini sun’iy ravishda to‘xtatib qo‘yish;

v) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma’lum darajada saqlab qolish.

Bozor munosabatlariga o‘tayotgan har bir mamlakat shu yo‘llardan birini tanlashda ulardan har birining mavjud real shart-sharoitlarga qanchalik mos kelishi, aholi asosiy qismining moddiy ahvoliga qanday darajada ta’sir ko‘rsatishi, isloh qilishning tanlab olingan yo‘liga qanchalik darajada javob berishi va kutiladigan salbiy oqibatlarini hisobga olishi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Sobiq ittifoq mamlakatlari negizida vujudga kelgan bir qancha mustaqil davlatlar narxlarni erkinlashtirishning «esankiratuvchi» yo‘lini tanlab oldi. Barcha turdagi xomashyo resurslari, iste’mol mollari hamda xizmatlar narxlari bir yo‘la erkin qo‘yib yuborilishi natijasida narxlar keskin oshdi. Bu aholi keng qatlamining birdaniga qashshoqlashuviga, ijtimoiy ahvolining keskinlashuviga olib keldi. Ishlab chiqarishning pasayishiga, milliy sanoat va qishloq xo‘jaligining izdan chiqishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o‘ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga

olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi. Shu yo'l bilan **narxlarni erkinlashtirishning dastlabki bosqichida (1992-yilning boshida)** keng doiradagi ishlab chiqarish-texnika vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va ta'riflariga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Narxlarni erkinlashtirishning keyingi bosqichida (1993-yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. Qat'iy belgilangan va davlat tomonidan tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning soni ancha qisqardi.

Narxlarni erkinlashtirishning navbatdagi bosqichida (1994-yil oktyabr-noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning ta'riflari oshirildi. Shunday qilib, respublikada iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni bosqichma-bosqich (uch bosqichda) to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Narxlarni erkinlashtirish aholini ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi. Davlat tomonidan turli kompensatsiyalar maqsadidagi jamg'armalar tuzildi, ish haqi, pensiya va stipendiyalarning eng kam miqdori muntazam suratda oshirib borildi, bolalar uchun nafaqalar joriy etildi. Aholining muhtoj qismiga yordam ko'rsatildi, imtiyozli soliq stavkalari joriy etildi. Aynan samarali va oqilona narx siyosati vositasida mamlakatimizda birlamchi ehtiyojga ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu esa, birinchidan, aholining mazkur tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini milliy ishlab chiqarish tomonidan to'la va sifatli ta'minlash imkonini berdi. Ikkinchidan esa, oziq-ovqat va boshqa strategik ahamiyatga ega bo'lgan tovarlarning o'zimizda yetarli hajmda ishlab chiqarish imkoniyatining qo'lga kiritilishi, respublikamizning boshqa mamlakatlardan qaramligini bartaraf etib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minladi. Bu borada prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish o'rinlidir: «**Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustah-**

kamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir»[56].

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi hamda barqarorligini oshirishda narxning ahamiyati oshib bormoqda. Jumladan, O'zbekistonda qat'iy tejamkorlik tizimini rag'batlantirish orqali korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan mahsulotlar tannarxini pasaytirishga bog'liqdir.

2017-yilda O'zbekistonda:[57]

- inflyatsiya darajasini aniqlashda tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) o'zgarishini kuzatish metodikasini takomillashtirish;
- moliya bozorlarini va tijorat banklarining investitsiyaviy imkoniyatlarini barqarorlashtirishga qaratilgan Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkalarini belgilash tizimini takomillashtirish;
- naqd pulsiz ko'rinishda tovar va xizmatlar sotishda sun'iy yuqori narxlar o'rnatganlik uchun javobgarlikni oshirish orqali ichki bozorda narxning shakllanish tartibini boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy qilish;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga narxlarni deklaratsiya qilish tartibini bosqichma-bosqich qisqartirish hamda keyinchalik 2020-yilda uni bekor qilish.

Hozirda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida ko'rsatilgan ustuvor yo'nalishlariga ko'ra, 2017-yilda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ayniqsa, valyuta bozori holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshirish, zaruriyat tug'ilganda, milliy valyuta va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash va yuqori iqti-

---

[56] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2017-yil 15-yanvar.

[57] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 8-ilova, №118.

sodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan qonunchilikni takomillashtirish ishlarini olib borish ko'zda tutilmoqda.

Xulosalar

1. Narx o'zida faqat naflilik yoki ijtimoiy mehnat sarflarining birini emas, balki har ikkalasining bir vaqtda puldagi ko'rinishini ifoda etadi. Demak, narx – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.

2. Narxning darajasiga ta'sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Bulardan asosiylari qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari; tovarning naflilik darajasi; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati; davlatning iqtisodiy siyosati, pulning qadr-qimmati va h.k. hisoblanadi. Bu omillar ichida tovar qiymati va nafliligi uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi.

3. Narx quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: muvozanatlikni ta'minlash vazifasi; qiymat va naflilikni hisobga olish vazifasi; tartibga solish vazifasi; raqobat vositasi vazifasi; ijtimoiy himoya vazifasi.

4. Narxning juda ko'p turlari mavjud bo'lsada, ularning barchasi bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi.

5. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlarda davlatning narx sohasidagi siyosati ko'p jihatdan narxlarni erkinlashtirish, milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

6. O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi.

7. Respublikada narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish aholini ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Narx – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasi.

Bozor narxi – bir tomondan, tovarlarning sotilishini ta'minlovchi, boshqa tomondan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydigan muvozanatlashgan narx.

Joriy narx – yil davomidagi ishlab chiqarish natijalarini hisoblashda qo'llaniluvchi amaldagi narx.

Qiyosiy narx – ishlab chiqarishning natijalari ma'lum yil (bazis yil) asosida hisoblanuvchi va boshqa yillar bilan taqqoslanuvchi narx.

Narx tizimi – iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari.

Ulgurji narx – ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta partiyadagi tovarlar bir yo'la ko'tarasiga sotilganda qo'llaniladigan narx.

Shartnoma narx – sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narx.

Chakana narx – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narx.

Chegaralangan narx – davlat tomonidan yuqori va quyi chegaralari belgilanib, shu doirada o'zgarishi mumkin bo'lgan narx.

Dotatsiyalangan narx – davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx.

Demping narx – bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan maxsus narx.

Nufuzli narx – sotish hajmini o'zgartirmasdan, yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan narx.

Erkin bozor narxi – talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxi.

Narx diapazoni – narxlar oralig'ining puldagi ifodasi.

Hududiy narx – faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, shu hudud doirasidagi omillar ta'sirida hosil bo'ladigan narx.

Milliy bozor narxi – bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narx.

Jahon bozori narxi – muayyan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladigan narx.

Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi – taklifga nisbatan xaridorlarning ommaviy talabi qanchalik katta bo'lsa, bozor narxi da-

rajasi shunchalik yuqori bo'lishi va aksincha, talabning kamayishi bilan bozor narxi pasayib borishi o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik.

Ommaviy taklif bo'yicha narxning o'zgarishi – talabga nisbatan tovarlar taklifi qanchalik yuqori bo'lsa, bozor narxi darajasi shunchalik past bo'lishi va aksincha, taklif kamayishi bilan narx oshib borishi o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering. Narxlarning asosiy turlariga qisqacha tavsif bering.
2. Narxning tashkil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud? Ularning afzallik va kamchilik tomonlarini ko'rsatib bering.
3. Narxning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
4. Mukammal raqobat sharoitida narxning tashkil topish mexanizmini tushuntirib bering.
5. Sof monopoliya sharoitida narx qanday shakllanadi?
6. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
7. Oligopoliya sharoitida firmalarning «inkor etish» va «ergashish» xatti-harakatlarining mazmuni nimadan iborat? «Narx bo'yicha yetakchilik» tushunchasini izohlab bering.
8. «Narxlar qaychisi» nima va undan qanday sharoitlarda foydalaniladi?
9. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekistonda narxni erkinlashtirish jarayoni qay tarzda amalga oshirildi?
10. Narx siyosati nima? O'zbekistonda narx siyosati amalga oshirilishining qanday xususiyatlari mavjud?

10-BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATI. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI

Inson faoliyati turlicha bo'lib, turli xil yo'nalishga qaratilgan bo'ladi. Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o'rin tutadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda shaxsiy omilining tarkibiy qismini tashkil etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar davomida, ayniqsa, uning hozirgi bosqichida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, unga keng erkinlik berishga, uning rivojlanishiga to'siq bo'ladigan har qanday g'ov va cheklovlarni bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, maqsadi va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida amal qiladigan shakllarini batafsil bayon etish, tadbirkorlik kapitalining mazmunini va uning harakat shakllarini tahlil qilish, kapital harakatida vujudga keladigan jarayonlar va uning namoyon bo'lishini, shuningdek, kapitalning aylanish tezligi va undan foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini yoritish ushbu bobning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tadbirkorlikni ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlatimizning iqtisodiy siyosatida strategik vazifaga aylangan davrda ushbu masalalarni o'rganish o'ta dolzarbdir.

10.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari

Tadbirkorlik faoliyatining tarixi uzoq o'tmishga borib taqalsada, uning ilmiy tushunchasi VII asrga kelib paydo bo'lgan va mulkdor degan tushuncha bilan bir xil tushunilgan. Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan, raqobatli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish, boshqarish turli xil shakl va usullarda olib boriladi. Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o'rin tutadi va bu faoliyat orqali mulkchilikning turli shakllarini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarish ya'ni foyda olish amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda turli ilmiy-nazariy adabiyotlarda tadbirkorlik faoliyati va biznes xususida, uning yo'nalishlari, tamoyillari, huquqiy-iqtisodiy jihatlari to'g'risida ko'plab olimlarning fikrlari, mulohazalari keng o'rin egallamoqda. Ularda ko'pincha tadbirkorlik faoliyati va biznesni bir xil tushuncha sifatida talqin qilinmoqda. Fikrimizcha, tadbirkorlik biznesdan farq qilib, tadbirkorlik – bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ijodkorlik, yangilik yaratish ruhi asosida yondashish bilan bog'liq faoliyatdir. Biznes esa unga nisbatan keng tushuncha bo'lib, umuman foyda olish nuqtai-nazaridan yuritiluvchi faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida ta'riflanishicha **«Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir»**[58].

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanishida uch bosqich ya'ni, mazkur sohani ilmiy jihatdan tadqiq etishdagi alohida bosqichlar shartli ravishda ajratiladi.

Birinchi bosqich dastlabki bozor munosabatlari shakllanish davri – XVIII asrda paydo bo'lib, u tadbirkor tomonidan amalga oshirila-digan tavakkalchilik jarayonlari bilan bog'liq. Aynan iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga oid dastlabki tadqiqotlar ham shu davrda R. Kantilon, A. Tyurgo, F. Kene, A. Smit va J. B. Sey asarlarida amalga oshirilgan.

Fransuz iqtisodchisi R. Kantilon tadbirkorlikning muhim tavsifiy xususiyatlaridan biri sifatida tavakkalchilikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, tadbirkor – voqea va hodisalarni oldindan ko'ra bilish xususiyatiga ega bo'lgan, o'z zimmasiga barcha mas'uliyatni olib tavakkal qiluvchi, o'z xatti-harakatlari tufayli daromad olishga umid qiluvchi va har qanday yo'qotishlarga tayyor bo'lgan shaxsdir[59]. R.Kantilondan keyin neoklassik maktab namoyandalari o'z asarlarida

[58] Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-may O'RQ-328-sonli Qonuni.

[59] Предпринимательства в конце XX века. М., 1992, 20-б.

o‘ziga xos tavakkalchilik asosida raqobatlashib, savdo faoliyati bilan shug‘ulanuvchi korxona egasini tadbirkor deb hisoblay boshladilar.

Tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risidagi nazariyalar rivojlanishining **ikkinchi bosqichida** tadbirkorlikning asosiy xususiyati sifatida innovatsion faoliyat ajratib ko‘rsatiladi. Bu oqimning asoschisi Y. Shumpeter bo‘lib, uning fikricha, iqtisodiy o‘sishning negizida tadbirkorni ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyasini ishlatishga, qo‘llashga bo‘lgan intilishi yotadi va bu intilishning natijasi innovatsiya, yangiliklar hisoblanadi.

Mazkur nazariyalar rivojlanishi **uchinchi bosqichining** asosiy g‘oyasi - tadbirkorning muhim shaxsiy fazilatlari, jumladan izlanish va tadqiqot hisoblanadi. Bu oqim namoyandalari F. Xayek va L. Mizes tadbirkorlikka yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish va tadqiq qilish deb qaraydi, shu bilan birga faoliyati izlanish tarzida kechadigan har qanday shaxsni bo‘lg‘usi tadbirkor deb hisoblashadi.

K. Makkonnell va S. Bryu tadbirkorlikka asosida uzluksiz shartlar va talablar yotuvchi muhim faoliyat turi sifatida qaraydilar. **Birinchidan**, tadbirkor tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va «katalizator» vazifasini bajaradi. **Ikkinchidan**, biznesni yuritish jarayonida u qarorlar qabul qilishdek qiyin bir vazifani zimmasiga oladi. **Uchinchidan,** tadbirkor – tashkilotchi shaxs bo‘lib, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi. **To‘rtinchidan,** tadbirkor bu tahlikaga boruvchi insondir. U nafaqat o‘z mol-mulki, vaqti, mehnati bilan, balki o‘z sheriklari, aksiyadorlari qo‘shgan mablag‘lar bilan ham tahlikaga boradi[60].

Tadbirkorlik faoliyatiga yuqorida keltirilgan turli xil fikrlar va yondashuvlarni umumlashtirgan holda qisqa qilib quyidagicha ta’rif berish mumkin: **tadbirkorlik faoliyati – shakli, turi va sohasidan qat’iy nazar foyda olish va uni ko‘paytirish maqsadida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir.** Tadbirkorlikning rivojlanishi, o‘z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo‘lishini taqozo etib, ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

[60] Макконнелл К., Брю С. Экономикс. Принципы, проблемы и политика / 19-изд. – М.: Республика, 2013, с. 38.

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning biron turini tanlash, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, uni o'zgarishlarga moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularning narxini belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum huquq va erkinliklar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik huquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi subyekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, xo'jalik yuritish yo'lini erkin tanlash, daromadni investitsiyalash imkoniyati va shu kabilarni real ta'minlaydigan ma'lum iqtisodiy muhit va ijtimoiy-siyosiy sharoit yaratishi zarur.

To'rtinchidan, tadbirkorlik mulkchilik va o'zlashtirish turli-tuman shakllari va turlarining mavjudligini taqozo qiladi. O'z navbatida mulkchilik va o'zlashtirish sohalaridagi turli-tumanlilikning o'zi obyektiv hodisa bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi oqibati sifatida maydonga chiqadi.

Beshinchidan, yetarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma'lumot va malakali tayyorgarlikka ega bo'lish, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq bo'yicha imtiyozlar, tadbirkorlik muhiti va uni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjud bo'lishi tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi shart-sharoitlari hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan davlatlarda tadbirkorlik yaxshi rivojlanadi, aks holda faoliyatning bu turi xufyona iqtisodiyot sohasiga o'tib ketishi ehtimoli ham yuqori bo'ladi.

10.2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari, ularni tashkil etish va boshqarishning bozor tizimlari

Hozirgi davrda ishlab chiqarish vositalarining ijtimoiy, umumdavlat maqsadlarida foydalanadigan va nihoyat, jamoa, guruh, xususiy va shaxsiy maqsadlarda ishlatiladigan turlari mavjud. Shunga mos ravishda tadbirkorlikning turli-tuman: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari rivojlanadi.

Turli mamlakatlarda davlat korxonalarining huquqiy maqomi turli-tumanligi bilan ancha farqlanadi. Hatto biron-bir mamlakatda barcha davlat korxonalari faoliyatini tartibga soluvchi yagona qonuniy hujjat mavjud emas. Yuqorida ko'rib o'tilgan sharoitlar asosida davlat korxonalarini uchta guruhga bo'lish mumkin:

- byudjet korxonalari;
- davlat ishlab chiqarish korxonalari;
- aralash kompaniyalar.

Byudjet korxonalari – davlatning vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda faoliyat ko'rsatuvchi hamda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriluvchi xo'jalik mustaqilligiga ega bo'lmagan korxonalar. Ular o'zlarining holati bo'yicha davlatning ma'muriy-boshqarish tizimiga kiradi va biron-bir vazirlik, mahkama yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga bevosita bo'ysunadi yoki ularning tarkibiy qismi hisoblanadi. Barcha daromad va xarajatlari davlat byudjeti orqali o'tib, olingan foydasidan soliq to'lamaydi.

Davlat ishlab chiqarish korxonalari – xo'jalik faoliyati bilan birga davlat tomonidan belgilangan doirada boshqarish va tartibga solish vazifalarini ham bajaruvchi, alohidalashgan mol-mulkka ega bo'lgan korxonalar. Bundan ko'rinadiki, davlat ishlab chiqarish korxonalari yoki korporatsiyalari o'zida tijorat korxonalari va davlat organlari belgilarini mujassamlashtirib, korxonalarning ancha keng tarqalgan tashkiliy, huquqiy shakli hisoblanadi.

Aralash kompaniyalar – davlat va xususiy omonatchilarning aksiyalarini birlashtirish asosida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari va majburiyatlari cheklangan shirkatlar shaklidagi korxonalar. Aralash kompaniyalar aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonun asosida ish yuritadi va yuridik shaxs hisoblanadi, xo'jalik faoliyatida xususiy firmalar bilan barobar tijorat asosida qatnashadi. Shu bilan birga, ular xususiy firmalarga nisbatan ma'lum imtiyozlardan foydalanadi. Bu imtiyozlarga davlat tomonidan moliyaviy yordam va dotatsiyalar berish, chet el litsenziyalarini yengil shartlar bilan olish, boshqa davlat korxonalaridan xomashyo va yarim fabrikatlarni qat'iy belgilangan narxlarda olish, ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun bozor bilan ta'minlanganlik va shu kabilar.

Korxonalarning mulkchilik mavqeidan tashqari xilma-xil tashkiliy-huquqiy shakllari ham mavjud bo'ladi. Korxonalar xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, ishlab chiqarish kooperativlari, jamoa korxonalari, ijara korxonalari, xo'jalik birlashmalari shaklida tuzilishi mumkin.

Kooperativ tadbirkorlik – jamoa mulkiga asoslanib, kooperatsiya a'zolarining uning faoliyatida o'z mehnati bilan ishtirok yyetishini taqozo etuvchi jamoa tadbirkorligining alohida shakli. Kooperativ mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: ishlovchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita qo'shilishi (xususiy mulkchilikda bunday qo'shilishda mulkdor, davlat mulkchiligida esa davlat vositachi hisoblanadi); kooperatsiya a'zolarining ishlab chiqarish vositalaridan keng foydalana olishi; ularning iqtisodiy jihatdan teng huquqqa egaligi; jamoaning o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirishi; jamoa va shaxsiy manfaatlar uyg'unligining yuzaga kelishi va h.k.

Xususiy tadbirkorlik alohida shaxs yoki korxona tomonidan xususiy tashabbus asosida tashkil qilinadi. Tadbirkorlikning bu shaklida mulk va ishlab chiqarish natijalari xususiy shaxslarga tegishli bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil qilish yollanma mehnatga asoslanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil qilish o'zi yoki oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy korxona egasi uning menejeri ham hisoblanib, korxonaning barcha majburiyatlari uchun shaxsiy javobgar bo'ladi. Xo'jalik huquqi nuqtai nazaridan yakka tartibdagi tadbirkorlik huquqiy shaxs hisoblanmaydi, shu sababli uning egasi cheklanmagan mas'uliyatga ega bo'lib, faqat fuqarolardan olinadigan daromad solig'ini to'laydi. Bu odatda kichik magazin, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar, dehqon xo'jaliklari, shuningdek, huquqshunos, vrach, advokat kabi turli malakali mutaxassislar xizmati ko'rinishida tashkil qilingan tadbirkorlikdir.

Tabdirkorlik faoliyatini amalga oshirishning muhim shakllaridan biri aksiyadorlik jamiyatlaridir.

Aksiyadorlik jamiyati – kapitali qimmatli qog'oz shaklida rasmiylashtirilgan turli omonatchilarning pul mablag'laridan tarkib topuvchi korxona. Yirik ishlarni amalga oshirib, katta foyda

olish maqsadida bir necha tadbirkorlar o'zlarining moddiy (ishlab chiqarish vositalari) va pul mablag'larini birlashtirib ittifoq (jamiyat) tuzadilar. Ular iqtisodiy adabiyotlarda aksiyadorlik jamiyati deb yuritiladi. Aksiyadorlik jamiyatining dastlabki kapitali ichki manba – ta'sischilar kapitali hamda tashqi manba – aksiyalarni sotish orqali jalb etilgan kapitaldan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra, aksiya chiqarish va uni erkin joylashtirish aksiyadorlik munosabatlarining muhim tomonlaridan birini tashkil qiladi.

Aksiyadorlik jamiyati ochiq va yopiq ko'rinishda bo'ladi. **Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati – ishtirokchilari o'zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz sotib olish va ularni erkin sotish huquqiga ega bo'lgan jamiyat. Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati – aksiyalari faqat uning ta'sischilari yoki oldindan belgilangan boshqa shaxslar doirasida taqsimlanuvchi jamiyat.**

Aksiya – bu uning egasi aksiyadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz. Bundan tashqari aksiya korxonani boshqarishda qatnashish huquqini ham beradi.

Aksiyaning egasi yozilgan va egasi yozilmagan, oddiy va imtiyozli turlarini farqlash mumkin. **Egasi yozilgan aksiya – aksiyadorlik jamiyati reestrida aksiya egasining nomiga qayd qilinib, faqatgina uning yozma ruxsati bilan oldi-sotdi qilinishi mumkin bo'lgan aksiya.** Yopiq aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari faqat egasi yozilgan aksiyalardan iborat bo'lishi mumkin. **Egasi yozilmagan aksiya – jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilmagan holda boshqa shaxslarga mulk qilib beriluvchi hamda erkin tarzda oldi-sotdi qilinuvchi aksiya.**

Oddiy aksiya – dividendni qo'yilgan mablag'ga mutanosib ravishda taqsimlash imkonini beruvchi aksiya. Oddiy aksiya imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanib, aksiyadorlik jamiyati zaxiralar to'ldirilib bo'lgandan so'ng qolgan sof foydani dividend shaklida taqsimlashda ishtirok etadi. Uning egasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishida masalalarni hal etishda ovoz berish huquqiga ega bo'ladi.

Imtiyozli aksiya – aksiyadorlik jamiyati dividendi va mol-mulkini taqsimlashda oddiy aksiya egasiga nisbatan ustunlik beruvchi aksiya. U, agar aksiyadorlik jamiyati nizomida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, ovoz berish huquqini bermaydi, lekin qat'iy belgilangan dividendni keltiradi.

Aksiyalar maxsus tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi, shu sababli o'zining narxiga ega. **Aksiyada ifodalangan pul summasi uning nominal qiymati deyiladi. Aksiyaning fond bozorida sotiladigan narxi aksiya kursi deb atalib, u olinadigan dividend miqdoriga to'g'ri mutanosib, bankka qo'yilgan pul foizi miqdoriga esa teskari mutanosiblikda bo'ladi.** Xaridor aksiyani undan olinadigan daromadi bankka qo'yilgan puldan keladigan foizdan kam bo'lmagan taqdirdagina sotib oladi.

Aksiya kursi quyidagicha aniqlanadi:

$$AK = \frac{D}{F_s} \times 100\%$$

bu yerda: AK – aksiya kursi; D – dividend; F_s – ssuda foizi.

Ssuda foizi o'sganda aksiya kursi tushadi. Agar dividend ssuda foiziga qaraganda yuqori darajada o'ssa, aksiya kursi ko'tariladi.

Aksiyadorlik jamiyatining tashkil topishi ta'sischilik foydasi kabi daromad turining paydo bo'lishi bilan bog'liq. **Ta'sischilik foydasi sotilgan aksiyalar summasi va aksiyadorlik korxonasiga haqiqatda qo'yilgan mablag' miqdori o'rtasidagi farqdan iborat.**

Aksiyadorlik korxonasida ta'sischilik foydasi bilan bir qatorda dividend kabi daromad turi shakllanadi.

Dividend (lotincha dividendus - bo'lishga tegishli) – aksiya egasiga to'lanadigan daromad. Dividend vositasida aksiya egasi qimmatli qog'ozning shu turiga qo'yilgan pul mablag'lari (kapital) ning tegishli qismiga o'zining mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqaradi. Dividend orqali faqat aksiyadorlik jamiyati olgan foydaning bir qismi taqsimlanadi. Uning boshqa qismi jamg'arishga, soliq to'lashga va shu kabilarga ketadi. Dividend miqdori olinadigan foyda va chiqarilgan aksiya miqdoriga bog'liq va hamda odatda ssuda foizidan yuqori bo'ladi.

Aksiyalarning nazorat paketi – aksiyadorlik jamiyati faoliyati ustidan nazorat o'rnatishni ta'minlash imkonini beruvchi aksiyalar soni. Nazariy jihatdan olinganda, aksiyadorlik jamiyati faoliyati ustidan nazorat olib borish uchun ovoz berish huquqiga ega bo'lgan aksiyalarning 51 foiziga egalik qilish zarur. Amalda esa, aksiyalarning ko'plab aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanib ketganligi u qadar yuqori salmoqqa ega bo'lmagan aksiyalar sonini qo'lga kiritish orqali ham nazorat paketiga egalik qilish imkonini beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari aksiya bilan birga obligatsiya ham chiqaradi.

Obligatsiya – sotib olishga sarflangan mablag'ni kelgusida qat'iy belgilangan foizi bilan qaytarish majburiyatini ifodalovchi qimmatli qog'oz shakli. U egasining jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo'yganligini tasdiqlaydi. Obligatsiya aksiyadorlik jamiyati moliyaviy mablag'larini ko'paytirish uchun chiqariladi. Aksiya egasi korxona mulkdori, obligatsiya egasi esa uning kreditori hisoblanadi. Undan tashqari, obligatsiya aksiyadan farq qilib, o'z egasiga yillik kafolatlangan daromad keltiradi, ammo aksiyadorlik jamiyati ishlarini hal qilishda ovoz berish huquqini bermaydi. Obligatsiyalar bo'yicha to'lanadigan daromad odatdagi ssuda foizi miqdoridan ortiq bo'lmaydi. Uning qiymati aksiyadorlik jamiyati tomonidan ma'lum muddat o'tgandan so'ng to'lanadi. Aksiyaga qo'yilgan mablag' obligatsiyaga joylashtirilgandan farq qilib, aksiyador talabi bo'yicha qaytarilishi mumkin emas va faqat sotish orqali qoplanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy tizimlari sifatida marketing va menejment katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham mamlakatimizda korxonalarni korporativ boshqarish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shu tariqa, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi talablarini inobatga olgan holda, Lavozim va kasblarning yangi klassifikatori ishlab chiqildi va tasdiqlandi, unga bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan 566 ta yangi toifa kiritildi[61].

[61] O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumoti

Marketing – tovar-pul munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning yaxlit tizimi bo'lib, bunda xo'jalik muammolarini hal etishda bozor talablari, xaridorlarning tovar va xizmatlarga real talablari va ehtiyojlari yotadi.

Marketing faoliyati korxona amal qilishining tashqi sharoitlari to'g'risidagi axborotning olinishi; raqobatchilarning tovarlariga qaraganda bozor talablarini to'laroq qondiruvchi tovarlar to'plamini yaratish; sotish sohasining eng yuqori nazoratini belgilab beruvchi iste'molchi, talab, bozorga zarur darajada ta'sir ko'rsatishni ta'minlashi lozim. Marketingning zamonaviy konsepsiyasi bozor uchun zarur bo'lgan va bozorda sotish mumkin bo'lgan tovarlarni zarur hajmda ishlab chiqarishni tashkil etish tamoyiliga asoslanadi. Korxonaning ishlab chiqarish-texnikaviy, tashkiliy, investitsiya va boshqa faoliyati iste'molchining ehtiyojlariga, ularning yaqin istiqboldagi o'zgarishiga yo'naltiriladi. Xaridorlarning talablari tovar ishlab chiqarish hajmi va nomenklaturasini, mazkur talab va ehtiyojlarni qondirishni yuqori darajasi esa eng ko'p foyda olishni belgilab beradi. Marketingning maqsadi va vazifalarini belgilab olish muhim hisoblanadi. **Marketingning maqsadi** – eng yuqori iste'mol qoniqishi, iste'mol, turmush sifatini oshirish, tovar va xizmatlarning keng tanlovini ta'minlovchi korxona mahsulotini sotishning zarur hajmiga erishish uchun ishlab chiqarishning yuqori daromadliligi va samaradorligini ta'minlash. Bu maqsadga **marketingning quyidagi vazifalari** orqali erishiladi: korxonaning ichki va tashqi marketing muhitini tahlil qilish; marketing chora-tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bozor va muammolarni kompleks o'rganish; iste'molchilar va talabning shakllanishini tahlil qilish; raqobatchilar va raqobatni o'rganish; sotishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish; yangi tovarning konsepsiyasini shakllantirish; marketing tadqiqotlari asosida tovar ishlab chiqarishni rejalashtirish; narx siyosatini shakllantirish va amalga oshirish; marketing dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; marketingni axborot bilan ta'minlash; marketingni boshqarish.

Marketing tamoyillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- yuqori darajada foydali va samarali xo'jalik yuritishni ta'minlash;

- ishlab chiqarish-sotish faoliyatini bozor talablari asosida yo‘naltirish;

- tovar ishlab chiqarishning xaridorlarning ehtiyojlariga funksional bog‘liqligini ta’minlash;

- faoliyatni ishlab chiqarish imkoniyatlari asosida emas, balki bozor ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish;

- bozorda yuqori raqobatbardoshlikni ta’minlash;

- xaridorlarning ehtiyojlarini qondiruvchi tovarlarni tayyorlash va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik hamda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish;

- bozor holatini, uning rivojlanish istiqbolini, tovar va xizmatlarga mavjud va potensial talabni kompleks o‘rganish;

- ishlab chiqarish va moliyalashtirishni muvofiqlashtirish va rejalashtirish;

- mahsulot tayyorlash va sotishning an’anaviy shakl va kanallarini takomillashtirish, shuningdek, yangilarini topish;

- boshqaruv tizimining moslashuvchan va samarali tashkiliy tuzilmalarini joriy etish;

- ishlab chiqarish va sotish jarayonlarining o‘zaro aloqasi va ta’sirining yuqori darajasini ta’minlash[62].

Menejment – ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori natijalarga erishish maqsadida qo‘llaniluvchi ishlab chiqarishni boshqarishning shakllari, vositalari, usullari va tamoyillarining majmui.

Menejmentning asosiy maqsadi iste’molchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda mavjud moddiy va ishchi kuchi resurslari asosida tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni tashkil etish hamda korxona faoliyati rentabelligini va uning bozordagi barqaror holatini ta’minlash hisoblanadi. Shunga ko‘ra, **menejment quyidagi vazifalarni** bajarishga qaratilgan bo‘ladi:

- ishlab chiqarishni avtomatlashtirishni ta’minlash va yuqori malakaga ega bo‘lgan ishchilardan foydalanishga o‘tish;

---

[62] Экономическая теория: Учебник. / Под общ.ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, с.199.

- korxona xodimlari uchun mehnatning qulay sharoitlarini ta'minlash va nisbatan yuqori ish haqi belgilash orqali ish faoliyatini rag'batlantirish;

- korxona faoliyati samaradorligi ustidan muntazam nazorat o'rnatish, uning barcha bo'linmalari ishini muvofiqlashtirish;

- yangi bozorlarni muntazam izlash va o'zlashtirish;

- korxona rivojlanishining aniq maqsadlarini aniqlash;

- maqsadlarning ustuvorligi, ularning ketma-ketligi va yechimning izchilligini ochib berish;

- turli davrlarga mo'ljallangan muammolarning hal etilishi uchun chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- zarur resurslar va ularni ta'minlash manbalarini aniqlash;

- belgilangan vazifalarning bajarilishi ustidan nazoratni o'rnatish[63].

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarishning zamonaviy bozor tizimi sifatida marketing va menejmentning rivojlantirilishi, milliy iqtisodiyotda ularning usul va vositalaridan keng foydalanish pirovardida korxona va tashkilotlar faoliyatining yuksalishi va iqtisodiy o'sishning ta'minlanishiga qulay zamin yaratadi.

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishning keng rivojlanib borayotgan ko'rinishi bo'lib, korporativ boshqaruv hisoblanadi. Mamlakatimizda bu sohani rivojlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Germaniyadagi Yevropa menejment va texnologiyalar maktabining faol ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarining rahbar xodim va mutaxassislarini tizimli asosda tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, ularning zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallashini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tashkil etildi.

O'tgan yili Germaniya va iqtisodiy jihatdan rivojlangan boshqa davlatlardagi yetakchi ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini keng jalb qilgan holda, mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va yirik korxonalarning 160 nafardan ortiq rahbar xodimi korpo-

[63] Экономическая теория: Учебник. / Под общ.ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, с.212.

rativ boshqaruv sohasida malaka oshirdi, ularning yarmi Germaniya korxonalarida tajriba orttirdi.[64]

10.3. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi va rag‘batlantirilishi

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu asosda aholining bandligi va farovonligini oshirish muammolarini hal etish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

2015-yil 15-maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4725-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2016-yilning 5-oktyabrdagi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-fevraldagi «Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-2750 sonli qarori va boshqa bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun turli imtiyoz va qulayliklar berildi, imtiyozli kreditlash tizimi soddalashtirildi.

Muhim strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni monitoring qilish, samaradorligini oshirish hamda ularni muvaffaqiyatli va sifatli amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrdagi PQ-2458-sonli “2016-yilga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi

[64] O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so‘zi, 2016-yil 16-yanvar.

to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-martdagi PQ-2313-sonli “Muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida”gi qarorlariga kiritilgan investitsiya loyihalarning avtomatlashtirilgan nazorat va monitoring tizimi Iqtisodiyot vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan ishlab chiqildi va joriy qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasidagi qator farmon va qarorlari, xususan, 2015-yil 15-maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4725-sonli Farmoniga muvofiq, iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada yengillashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi ortiqcha to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha keskin va ta’sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sohaning yanada rivojlanishiga zamin va turtki bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga mazkur sohani turli darajalarda qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimi katta ta’sir ko‘rsatdi. Davlat tomonidan uning me’yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi va takomillashtirildi, kichik korxonalarni moliya-kredit va investitsiya jihatidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqildi va bugungi kunda ham hayotga izchil ravishda tatbiq etilmoqda. Bu sohada mintaqalararo va xalqaro aloqalar yo‘lga qo‘yilmoqda, hukumatlararo va xalqaro shartnomalar tasdiqlanmoqda, tadbirkorlarning jamoatchilik uyushmalari faoliyati jonlantirilmoqda, axborot ta’minoti tizimi vujudga keltirilmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining shakllanishi va mustahkamlanishida Savdo-sanoat palatasi, Dehqon va fermer xo‘jaliklari uyushmasi, «Madad», «Kafolat», «O‘zagrosug‘urta» kabi qator sug‘urta kompaniyalari, Respublika biznes-inkubatori, Dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash

jamg'armasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi kabi byudjetdan tashqari jamg'armalarning roli juda katta bo'ldi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada erkinlashtirish va rag'batlantirish chora-tadbirlari kuchaytirilmoqda. Jumladan, keyingi yillarda xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik huquqini himoya qilish borasidagi qonunchilik mustahkamlandi, bozor infratuzilmasini shakllantirish ishlari jadallashtirildi, biznesni ro'yxatga olish, ixtiyoriy ravishda yopish va tugatish, faoliyatning alohida turlari bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayonlari soddalashtirildi va tartibga solindi. Moliya, soliq va statistika hisobotlarining barcha shakllari va muddatlari keskin qisqartirilmoqda. Soliqqa tortish stavkalari unifikatsiya qilindi va kamaytirildi. Xususan, 2007-yilda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 13 foizdan 10 foizga tushirilgan bo'lsa, 2014-yildan esa sanoat sohasidagi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 5 foizni tashkil qildi va bu holat xanuzgacha o'zgarishsiz qolmoqda. Shuningdek, tadbirkorlarga, avvalo, kichik biznes subyektlariga asosiy, shu jumladan, talab yuqori bo'lgan moddiy resurslardan keng foydalanish imkonini beradigan barqaror bozor mexanizmi shakllandi. Masalan, banklarning barcha filiallarida tadbirkorlarga yaqindan maslahatlar berish bo'yicha "Tadbirkorlar xonasi" tashkil etildi. Shuningdek, filiallar va mini banklarda tashkil etilgan "Tadbirkorlar burchagi" orqali respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida Yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, taklif etilayotgan yangi bank xizmatlari to'g'risida doimiy ravishda axborot berib borilishi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi PF-4848-sonli «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni doirasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan "Davlat xaridlari to'g'risida", "Davlat va xususiy sektor sherikli-

gi to‘g‘risida”gi qonun loyihalari hamda 30 dan ziyod qonun va me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash borasida faol ishlar olib borilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va kichik korxonalar tashkil etish maqsadida 2016-yil mobaynida kichik biznes subyektlariga 15,9 trillion so‘mlik kreditlar ajratildi va o‘sish 2015-yilga nisbatan 1,3 barobarni tashkil qildi. Jumladan, qiymati 3,3 trillion so‘mlik mikrokreditlar ajratildi, xalqaro moliya institutlarining 206,7 million dollar miqdoridagi kredit liniyalari o‘zlashtirildi (10.1-rasm).



10.1-rasm. Kichik biznes subyektlariga ajratilgan mikrokreditlarning o‘sish dinamikasi, milliard so‘m.[65]

Ana shu kredit mablag‘larini ajratishda asosiy e’tibor kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining investitsiya maqsadlariga, ularning boshlang‘ich kapitalini shakllantirishga hamda mikrokreditlash ko‘lamini kengaytirishga qaratildi.

Respublikamizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilinishini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar 2016-yil davomida 31 766 ta yangi kichik tadbirkorlik subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklaridan tashqari) tashkil etish imkonini berdi. Natijada 2017-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 218 170 tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 11 066 taga ko‘paydi.

---

[65] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratib berilayotganligi natijasida 2016-yil yanvar-dekabr oylarining dastlabki yakunlari bo'yicha ularning ulushi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida 56,9 foizni (2015-yilning yanvar-dekabr oylarida 56,5 foiz), sanoatda - 45,0 foizni (40,6 foiz), xizmatlar sohasida - 60,5 foizni (57,8 foiz), eksportda - 28,5 foizni (27,0 foiz) va bandlikda - 78,1 foizni (77,9 foiz) tashkil etdi.

2016-yilda o'zining kichik xususiy ishini, o'z biznesini tashkil etishga intilayotgan yoshlarga imtiyozli kreditlar ajratish, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlar xarid qilish uchun iste'mol kreditlari berish ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlar bank tizimi faoliyatining diqqat markazida bo'ladi.

2016-yil mobaynida «E-ijro» idoralararo elektron hamkorlik tizimini faol joriy etish asosida tadbirkorlik subyektlariga «Yagona darcha» markazlari orqali 100 mingdan ziyod davlat xizmatlari ko'rsatildi. 127 mingdan ziyod firma nomlariga Internet orqali buyurtma berildi.

Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda yanada rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar 2016-yil mobaynida qariyb 32 ming yangi kichik biznes subyekti tashkil etish imkonini berdi.[66]

2017-yildan 1-yanvardan boshlab banklar tomonidan aholiga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kredit ajratish taklif etilmoqda:

- chorvachilik;
- parrandachilik;
- asalarichilik;
- quyonchilik;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, bog'dorchilik va uzumchilik;
- issiqxonalar qurish;
- baliqchilik;
- kichik ishlab chiqarish sexlarini tashkil etish;

[66] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

- kasanachilikni rivojlantirish;
- hunarmandchilik;
- sartaroshxona xizmatini tashkil etish;
- tikuvchilik va chevarlikni qo'llab-quvvatlash;
- poyabzal tuzatish ustaxonasini tashkil etish;
- umumiy ovqatlanish xizmatini tashkil etish;
- maishiy texnikalarni tuzatadigan ustaxonalar tashkil etish;
- go'zallik salonlari tashkil qilish;
- aholiga transport xizmatlari ko'rsatish;
- avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatuvchi shahobchalar qurish;
- avtomobillarni yuvish shahobchasi tashkil qilish;
- kompyuter xizmatlari ko'rsatishni tashkil qilish;
- savdo faoliyatini yo'lga qo'yish;
- hammomlar tashkil qilish;
- nonvoyxona tashkil qilish;
- qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish;
- boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun.

Hududlarda kredit olish jarayonida investitsion loyihalar va biznes-rejalar puxtaligini ta'minlash maqsadida maslahat xizmatlari ko'lamini kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Investitsion iqlim va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash borasida bank tizimi zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash

Bunda:

– bank xizmatlari bozorida raqobatni yanada kuchaytirish, iqtisodiyot subyektlari va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va masofadan xizmat ko'rsatish ko'lamlarini kengaytirish;

– tadbirkorlikning bir turi sifatidagi bank faoliyatiga barcha ko'rinishlardagi noqonuniy aralashuvlar va bu boradagi qonun me'yorlarining buzilish holatlari oldini olish;

– kredit ajratish jarayonining maqbul va tezkor muddatda amalga oshirilishiga erishish maqsadida bank filiallarining kredit ajratish borasidagi vakolatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish masalalari asosiy mezonlardan bo'lib qoladi.[67]

[67] 2015-yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli «Urgut», «G‘ijduvon», «Qo‘qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoniga muvofiq 300 ming AQSH dollaridan ortiq hajmda investitsiyalar kiritgan hamda eksportbop va ichki bozorda import o‘rnini bosuvchi xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqaradigan tadbirkorlik subyektlariga bir qator imtiyozlar berildi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jadal rivojlanib, iqtisodiyotning mustaqil va samarali sektoriga aylanib bormoqda (20.1-jadval).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2000–2015-yillar mobaynida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar soni 2,3 marta ko‘paydi, kichik binesning YaIMdagi ulushi 2000-yildagi 31% dan 2016-yilda 56,9% gacha oshdi, bugungi kunda kichik biznes sohasidagi xodimlar ish bilan band jami aholining 78% dan ortig‘ini tashkil qilmoqda, sanoat sohasidagi kichik korxonalar mahsulotlari hajmi umumiy sanoat mahsulotidagi ulushi 12,9% dan 45,0% gacha oshdi.

20.1-jadval.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning ulushi[68]

Kichik biznes ulushi (%)	2000y.	2016y.
YaIMda	31,0	56,9
Sanoat mahsulotida	11,3	45,0
Qurilishda	37,0	70,7
Chakana tovar aylanishida	45,3	89,6
Ish bilan bandlikda	49,7	78,1
Eksportda	10,2	28,5

O‘z navbatida, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarga namunaviy loyihalar taklif etilib, ularga kredit hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha tegishli maslahatlar berilmoqda va qisqa muddatlarda kredit mablag‘lari ajratish choralari ko‘rilmoqda.

2016-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari \\ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xisoboti. www.cb.uz

[68] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Banklarning imtiyozli kreditlaridan foydalanish, o‘z biznesini tashkil etish fuqarolarning kuch va imkoniyati, qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun keng sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasining 3.4-bandiga ko‘ra, **Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:**[69]

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan tamo-yilni amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish;

- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-tamoyillarini soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo‘yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartib-

[69] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni.

ga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirishga katta e'tibor berishi ko'zda tutilmoqda.

Ushbu qarorga ko'ra «Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorining loyihasini ishlab chiqishni ham tegishli vazirlik va idoralarga vazifa sifatida yuklab qo'yilgan.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili (biznes ombudsman)ni tashkil etish vazifasi turibdi. Ushbu loyihada yangi tashkil etiladigan ombudsmanga quyidagi vakolatlarni berish nazarda tutiladi:[70]

- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining amalda ro'yobga chiqarilayotganligini o'rganish;
- davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

10.4. Tadbirkorlik kapitali va uning harakat bosqichlari

Tadbirkor ixtiyorida bo'lib, foyda olish maqsadida ishlatiladigan va yollanma mehnat tomonidan harakatga keltiriladigan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari birgalikda tadbirkorlik kapitali deb ataladi. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo harakatda bo'ladi va bu harakat jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tadi.

[70] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni.

Kapital ikki xil xususiyatga ega bo'lib, uning qiymati – ko'pchilikka ma'lum bo'lganidek, ushbu kapitalni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat sarfidan iboratdir. Kapitalning nafliligi esa uning: a) ko'plab turdagi va miqdordagi naflilikiarni (tovar va xizmatlarni) yaratishda; b) ishchi kuchining ish bilan bandligini ta'minlashda; v) qisman qiymatning tashkil topishida, ya'ni shakllanishida; g) eng muhimi, qo'shimcha mahsulotni yaratishda va o'zlashtirishda to'liq ishtirok yetishi orqali namoyon bo'ladi.

Kapital qaysi sohada va qanday shaklda amal qilmasin hamda qanday tarkibiy qismlardan iborat bo'lishidan qat'iy nazar, u barcha ko'rinishlarda ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi va shu xususiyatlarning birligi sifatida amal qiladi. Kapitalning bu xususiyatlari tovardagi ikki xil xususiyatdan va uni keltirib chiqaruvchi sabab – tovarda gavdalangan mehnatning ikki yoqlama tavsifidan kelib chiqadi. Chunki pul tovar ayirboshlash rivojlanishining mahsuli bo'lib, tarixiy va mantiqiy jihatdan kapitalning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi.

Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatni quyidagicha ifodalash mumkin (10.2-rasm).



10.2-rasm. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi

Rasmdan ko‘rinadiki, tovardagi ikki tomonlama xususiyat o‘z navbatida tadbirkorlik kapitaliga ham o‘tadi. Chunki, u pul, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi ko‘rinishidagi unumli kapital hamda tayyor tovarlardan iborat bo‘ladi. Ayni paytda, kapital tovarlari o‘sish xususiyatiga ega bo‘lgan qiymatni ham namoyon etadi.

Tadbirkorlik kapitalining harakat jarayoni ikki jihatdan, ya’ni – bir turdagi naflilikning sifat jihatdan boshqa turdagi naflilikka o‘tishi va miqdor jihatdan ko‘payishi hamda qiymatning o‘sish jarayonidan iborat.

Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyat pirovardida yangidan Yaratilgan tovarning ikki tomoni, birinchidan, sifat jihatdan yangi turdagi va ko‘rinishdagi, miqdor jihatdan esa ko‘paygan naflilik, ikkinchidan esa, o‘tkazilgan va qo‘shilgan qiymatda namoyon bo‘ladi.[71]

Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida doimo harakatda bo‘ladi va bu harakat jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o‘tadi. Ishlab chiqarishga sarflanadigan har qanday sarmoya o‘z harakatini **pul shaklidan** boshlaydi. Pul (P) tegishli resurslar bozoridan zarur tovarlar, ya’ni ishlab chiqarish vositalari (Iv) va ishchi kuchi (Ik) sotib olishga sarflanadi (avanslanadi). Bu holda pul shunchaki tovarlar sotib olishgagina emas, balki ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy faoliyat omillarini sotib olishga sarflanadi. Ushbu muomala sohasida pul kapitali o‘z harakatining birinchi bosqichidan o‘tadi:



Mazkur jarayon natijasida pul shaklidagi mablag‘lar **unumli kapital shakliga** aylanadi va ular ishlab chiqarish jarayonining potensial omillari hisoblanadi. Kapital harakatida **ikkinchi bosqich** ishlab chiqarish (I) jarayoni hisoblanib, uning natijasida iste’molga tayyor **tovar tovar** (T) **shaklini** oladi. Bu yerda hosil qilingan tovarlar qiy-

[71] Xajiyev B.D. Tadbirkorlik kapitali va uning samarali amal qilishi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. avtoref. – T., 2008, 13–14 -b.

mati ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga sarflangan qiymatdan ortiq bo‘ladi, ya’ni:



Chunki hosil qilingan tovarlar qiymatida ishlab chiqarish vositalarining ko‘chgan qiymati, ishchi kuchi qiymatining ekvivalenti va ular tomonidan vujudga keltirilgan qo‘shimcha mahsulot qiymati ham mavjud bo‘ladi.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish sodir bo‘ladi T’→P’ ushbu bosqichda tovarlar pulga aylanadi va o‘zining dastlabki shakliga qaytib keladi. Dastlab, pul shaklida sarflangan mablag‘ yana pul shaklida, ammo miqdor jihatidan ko‘proq bo‘lib qaytadi. Shu sababli uni P’=P+p ko‘rinishida ifodalash mumkin.

Tovarlarni sotishdan tushgan pul kapitali yana ishlab chiqarish omillari sotib olish uchun sarflanadi va shu tariqa yuqoridagi harakat to‘xtovsiz takrorlanaveradi.

Tadbirkorlik kapitalining o‘z harakatida uch bosqichni izchil bosib o‘tib, muntazam ravishda bir shakldan boshqa bir shaklga aylanib, yana dastlabki shakliga qaytib kelishi uning doiraviy aylanishi deyiladi.

Doiraviy aylanishning birinchi va uchinchi bosqichlari muomala sohasida, ya’ni resurslar va tovarlar bozorida, ikkinchi bosqichi esa ishlab chiqarishda ro‘y beradi. Shuning uchun formulada ishlab chiqarish jarayoni va muomala sohasi o‘rtasidagi oraliqlar nuqtalar (...) bilan ajratilib ko‘rsatiladi. Har bir bosqichda kapital muayyan harakat shakliga kiradi. Birinchi bosqichda u pul shaklida, ikkinchi bosqichda unumli yoki ishlab chiqarish omillari va uchinchi bosqichda tovar shaklida yuzaga chiqadi. Kapital doiraviy aylanish jarayonida uning har bir shakli alohida vazifani bajaradi va shunga ko‘ra ular **kapitalning harakati shakllari** deyiladi.

Kapital **pul shaklining harakati** iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bunga pulni ishlab

chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib olishga avanslash orqali erishiladi. Kapital **unumli shaklining harakati** tovarlar ishlab chiqarish va xudi shu jarayonda qiymatning o'sishiga erishishni ta'minlash vazifasiga qaratiladi.

Kapital **tovar shaklining harakati** orqali ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatining narx shaklida ro'yobga chiqishi sodir bo'ladi va o'sgan qiymatning pulga aylanishi bilan tadbirkorning foyda olish maqsadi ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish uzluksiz davom yetishi uchun tadbirkorlik kapitali o'zining bir shaklidan boshqa bir shakliga aylanib turishi va ayni paytda har uchala shaklda ham mavjud bo'lmog'i lozim. Agar tadbirkorlik kapitali bu shakllarning birortasida to'xtab qolgudek bo'lsa, uning harakatidagi uzluksizlik buziladi. Tadbirkorlik kapitalining har uchala shakli bir vaqtda o'z doiraviy aylanishiga ega bo'ladi.

Tadbirkorlik kapitali pul shaklining doiraviy aylanishi:



Unumli kapitalning doiraviy aylanishi:



Tadbirkorlik kapitali tovar shaklining doiraviy aylanishi:



Kapital o'z harakatini qanday ijtimoy-iqtisodiy shakllarda amalga oshirmasin, ular uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, doiraviy aylanish va uning bosqichlarining harakat ko'rinishi umumiy. Shu bilan birga

xo'jalik yuritishning ayrim shakllarida tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi, ularning bosqichlari va harakat shakllari o'zlarining iqtisodiy mazmuni jihatidan farqlanadi.

10.5. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital

Tadbirkorlik kapitalining harakati bir doiraviy aylanish bilan to'xtab qolmaydi, balki u uzluksiz davom etib, takrorlanib turadi. **Doiraviy aylanishlarning bunday uzluksiz takrorlanib, yangilanib turishi tadbirkorlik kapitalining aylanishi deyiladi.**

Kapitalning ayrim qismlari turli tezlikda harakat qilishi tufayli sarflangan mablag'larning aylanish tezligi turlicha bo'ladi. Masalan, unumli iste'molda bo'lgan xomashyo va materiallar qiymati, bir doiraviy aylanishdan keyin boshqa qismi masalan, mehnat qurollari qiymati bir necha doiraviy aylanishdan keyin o'zining boshlang'ich shakliga qaytadi.

Kapital o'zining aylanish tavsifiga ko'ra ikki qismga: asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi.

Asosiy kapital – ishlab chiqarish jarayonida bir nechta doiraviy aylanishlar davomida qatnashadi, o'zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo'lib-bo'lib, asta-sekinlik bilan o'tkazib boradi va bir necha yillik xizmat muddati davomida ashyoviy-buyum shaklini o'zgartirmaydi.

Aylanma kapital – bir doiraviy aylanish davomida to'liq iste'mol qilinadi, o'zining qiymatini ishlab chiqarish natijalariga to'liq o'tkazadi va ashyoviy-buyum shaklini ham yo'qotadi.

Asosiy va aylanma kapitallar bir-biridan quyidagi belgilar asosida farqlanadi.

1. Ishlab chiqarish jarayonida harakat qilish xususiyatlari. Asosiy kapital uzoq davr (masalan stanok 10-yil, bino 50–100-yil) davomida faoliyat qiladi, o'zining oldingi natural-buyum shaklini shu davrdagi doiraviy aylanishlar davomida saqlab qoladi. Aksincha, aylanma kapital (masalan paxta, jun, metall va b.) har bir doiraviy aylanishda to'liq unumli iste'mol qilinadi, o'zining ashyoviy-buyum shaklini yo'qotadi va yangi turlari bilan almashinadi.

2. Qiymatini ishlab chiqarish natijalariga o'tkazish xususiyati. Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida qator yillar davomida faoliyat qilib, ularning qiymati tovarlarga qisman-qisman o'tib boradi. Xomashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya kabi aylanma kapital elementlari har bir doiraviy aylanishda to'liq unumli iste'mol qilinadi va ularning qiymati mahsulot va xizmatlar qiymatiga to'liq o'tadi.

3. Kapital qiymatining aylanish usuli. Qiymatining aylanish usuli bo'yicha asosiy kapital qiymati ikkiga bo'linadi. Qiymatning mahsulotga o'tgan qismi tovarlar va xizmatlar bilan birga muomalada bo'ladi va doiraviy aylanish jarayonida tovar shaklidan pul shakliga o'tadi hamda qoplash fondi shaklida asta-sekin jamg'ariladi. Mahsulotga o'tmagan qismi ishlab chiqarish doirasida mavjud bo'lgan asosiy kapitalda gavdalanganicha qolaveradi. Iste'mol qilingan mehnat predmetlari qiymati to'la-to'kis aylanib, yangi mahsulotlar qiymati tarkibiga kiradi.

4. Qayta tiklanish usuli. Qayta tiklanish usulida asosiy kapitalning ishlab chiqarish natijlariga o'tkazilgan qiymati, bu vositalar bir qator doiraviy aylanishlarni o'z ichiga olgan muayyan davr davomida yeyilib, ishdan chiqqandan keyin pul shaklidan yangi asosiy kapital shakliga aylanadi. Aylanma kapital har bir doiraviy aylanishdan keyin ashyoviy-buyum shaklida qaytib tiklanadi.

Tadbirkorlik kapitali o'z harakatida ishlab chiqarish va muomala bosqichlarini bosib o'tadi. Shu sababli uning **aylanish vaqti** (Av) ishlab chiqarish vaqti (Iv) va muomala vaqti (Mv) yig'indisidan iborat:

$$Av = Iv + Mv$$

Sarflangan mablag'larning ishlab chiqarish jarayonida bo'lish vaqti, ya'ni ishlab chiqarish vositalari sotib olingandan tayyor tovar bo'lgan davrgacha o'tgan vaqt ishlab chiqarish vaqtini, muomala jarayonida bo'lish vaqti, ya'ni ishlab chiqarish vositalari sotib olish va tayyor tovarlarni sotish uchun ketgan vaqt muomala vaqtini tashkil etadi. Ishlab chiqarish vaqti uch qismdan iborat bo'ladi:

1) bevosita mehnat jarayoni yoki ish davri (Id);

2) turli tanaffuslar davri (Td);

3) ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish zaxiralarida bo'lish davri (Zd).

Demak,

$$Iv = Id + Td + Zd$$

Ish davri – ishlab chiqarish vaqtining asosiy tarkibiy qismidir. Bu vaqt davomida mahsulot mehnatning bevosita ta'siri ostida bo'ladi. Ish davrining uzunligi ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatiga, qo'llaniladigan mehnatning miqdori va uning unumdorligi darajasiga bog'liqdir.

Tanaffuslarni tabiiy jarayonlarning mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatish zarurligi va tashkiliy tavsifdagi sabablar taqozo etadi. Birinchi holda, mehnat buyumlari u yoki bu darajada uzoq davom etadigan jismoniy, kimyoviy va biologik jarayonlarning ta'siri ostida bo'ladi (quritish, achitish va shunga o'xshash jarayonlar). Bunda mehnat jarayoni qisman yoki to'liq to'xtaydi, ishlab chiqarish jarayoni esa davom etadi. Tashkiliy sabablarga ko'ra tanaffuslar vaqti korxonalarning ish rejimi bilan, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish vositalarning zaxira va ehtiyotlar sifatida bo'lish vaqti – bu ularning ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan davrdir. Tez quritadigan, tez achitadigan, umuman texnologik jarayonlarni tezlashtiradigan yangi texnika va texnologiyalarning qo'llanilishi tanaffus davrining va binobarin ishlab chiqarish vaqtining qisqarishiga olib keladi. Transport shoxobchalarini rivojlantirish, xo'jalik aloqalarining samarali tizimini belgilash, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirish, ehtiyojlarni puxta hisobga olish, muomala vaqtini qisqartirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kapitalning aylanish tezligi ulardan foydalanish samaradorligiga jiddiy ta'sir qiladi. **Aylanish tezligi** muayyan davr ichida (A) qilingan aylanishlar soni (n) yoki bir aylanishning uzun-qisqaligi (a) bilan belgilanadi: n=A/a; a=A/n

10.6. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samaradorligi

Kapitalning samaradorlik darajasi turli omillar ta'sirida shakllanadi. Ular orasida asosiy kapitalning tarkibi (tarmoq tarkibi, turlar bo'yicha tarkibi); asosiy kapitaldan foydalanish va uni taqsimlash samaradorligi; eskirgan mehnat vositalarini yangilari bilan amashtirish yo'llari va usullari muhim ahamiyatga ega.

Asosiy kapitalning tarmoq tarkibi ularning ayrim tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi va har bir tarmoqning kapitalning umumiy qiymatidagi hissasi bilan tavsiflanadi. Agar asosiy kapital tarkibida ko'proq texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish samaradorligini belgilaydigan tarmoqlarning ulushi oshsa, ularning tarmoq tarkibining yaxshilanganligini bildiradi.

Asosiy kapitalning turlari bo'yicha tarkibi ular har bir turining kapital umumiy qiymatidagi hissasi va nisbati bilan tavsiflanadi.

Asosiy kapitalning ayrim turlari ishlab chiqarishda o'z ishtiroki bo'yicha bir xil rol o'ynamaydi. Agar binolar asosan ishlab chiqarish jarayonining bir me'yorda borishini ta'minlab, mehnatning umumiy sharoitini tashkil qilib, ishlab chiqarish samaradorligiga bilvosita ta'sir ko'rsatsa, mehnat qurollari (ish mashinalari, uskunalar va boshqalar) ishlab chiqarish jarayonida faol rol o'ynaydi va ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy kapitalning mulk shakllari bo'yicha tarkibi kapitalning umumiy qiymatida har bir mulk shaklining hissasi bilan tavsiflanadi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi bozor islohotlari, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari korxonalardagi mavjud asosiy va aylanma kapitallar qiymatining o'sishiga hamda tarkibining o'zgarib, sifat jihatidan takomillashib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha asosiy kapitalni ko'paytirish manbalari tuzilmasining tahlili hamon davlat byudjeti mablag'lari hissasining yuqoriligini, bank kreditlari, chet el investitsiyalari va kreditlari, byudjetdan tashqari fondlarning hissasi esa pastligini ko'rsatmoqda. 2011–2015-yillarda tarkibiy o'zgarishlarni, iqtisodiyotning soha va

tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib boriladi.

Ushbu maqsadlar uchun 2011–2015-yillar ya'ni oxirgi besh yil mobaynida o'zlashtirilgan investitsiyalarga qaraganda 2 barobar ko'p investitsiyalarni yo'naltirildi. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 24 foizdan kam bo'lmasligi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni ta'minlaydi (10.2-jadval).

10.2-jadval.

O'zbekistonning iqtisodiyot tarmoqlarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi, mlrd. so'm[72]

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015
Jami			
mlrd. so'mda	28694,6	35233,3	40737,3
foizda	100	100	100
Sanoat	34,2	37,4	38,8
Qishloq xo'jaligi	4,6	4,1	3,7
Qurilish	1,5	2,3	4,0
Transport	15,2	11,9	9,2
Aloqa	2,7	2,2	2,0
Savdo va umumiy ovqatlanish	5,2	5,6	5,6
Uy-joy va kommunal xo'jaligi	23,2	22,7	24,7
shundan			
- uy-joy xo'jaligi	20,7	20,2	20,5
- kommunal xo'jalik	2,5	2,5	4,2
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot	3,1	2,8	2,2
Ta'lim	2,6	2,3	3,1
Boshqalar	7,7	8,7	6,7

[72] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Iqtisodiyotning turli sohalaridagi asosiy kapitallarini ko'paytirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshirilgan. 2013-yilda iqtisodiyot sohalari asosiy kapitalini ko'paytirish maqsadida kiritilgan jami investitsiyalar hajmi 28694,6 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 40737,3 mlrd.so'mni tashkil qilib shu davrlarga nisbatan 142,0 foizga ko'paygan. Shundan 2013-yilda asosiy kapitalga jami kiritilgan investitsiyalarning 34,2 foizini sanoat, 15,2 foizini transport hamda 20,7 foizini uy-joy va kommunal xo'jaligi tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yilda esa asosiy kapitalga jami kiritilgan investitsiyalarning 38,8 foizini sanoat, 9,2 foizini transport hamda 24,7 foizini uy-joy va kommunal xo'jaligi tashkil qildi.

Tahlillar ko'rsatadiki, tadbirkorlik kapitalini ko'paytirish manbalarida qarz mablag'lari rolining oshishi asosan xorijiy kreditlarning ko'payishi hisobiga yuz bergan. Bu esa respublikada chet el kreditlari bo'yicha kafolatlarning yuqori darajasi va tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining beqarorligi bilan izohlanadi.

Respublika hukumati tadbirkorlik kapitalini ko'paytirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va qo'shma korxonalarni rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda.

2016-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan iqtisodiyotga 19 963,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar kiritildi. Bu respublika bo'yicha jami kiritilgan investitsiyalar hajmining 40,3 foizini tashkil etadi. Shuningdek, ular tomonidan 20 677,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarildi (jami qurilish ishlari hajmining 70,7 foizi) yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,6 foizga o'sdi. Zamonaviy texnologiyalarni tadbiq qilish zaruriyati, tadbirkorlik bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va investitsiya muhitining yaxshilanishi borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatga bevosita chet el investitsiyalarini olib kirish faollashib, kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida chet el investitsiyasi tarkibi sezilarli darajada o'zgardi.

Asosiy kapitalni shakllantirishda chet el investitsiyalarining ishtirokini barqarorlashtirish tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, investitsiya muhitini rivojlantirish va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda quyidagi o'zgarishlarni taqozo etadi:

- ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olish, global ilmlarni egallash, soliqlarning tartiblovchi rolini takomillashtirish, ularning rag'batlantiruvchilik rolini kuchaytirish;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni uzoq muddatli hududiy, maqsadli dasturlarga muvofiq olib borish;
- importga cheklovlarni iqtisodiyotda import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish bilan mutanosib ravishda kiritib borish, mazkur tarmoqlarni asosan xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirish;
- mamlakatga xorijiy kapitalni keng miqyosda jalb qilishda kreditlar hissasini kamaytirish va bevosita xorijiy investitsiyalar hissasini o'stirishga erishish lozim.[73]

Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish o'zaro bog'langan ikki jarayonga: asosiy kapitalning eskirishi, ya'ni amortizatsiya jarayoni va amortizatsiya fondidan mehnat vositalarini jismoniy shaklda tiklash uchun foydalanishga tayanadi.

Mehnat vositalari jismoniy eskirishining ikki shakli mavjud: 1) ulardan bevosita foydalanish natijasidagi jismoniy eskirish; 2) harakatsiz turish natijasida, tabiiy kuchlarning ta'sirida jismoniy eskirish.

Mehnat vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanish natijasida jismoniy eskirganda, ular texnik, ishlab chiqarish xossasini va iste'mol qiymatini asta-sekin yo'qotib boradi. Ayni vaqtda asosiy kapital tabiiy kuchlarning ta'sirida jismoniy eskirishi ham mumkin. Bunday eskirish qiymati qoplanmaydi va u yo'qotishni bildiradi. Bu yo'qotish asosiy kapitalning harakatsiz turish natijasidagi eskirishiga teng bo'ladi.

Mehnat vositalari jismoniy eskirish bilan birga ma'naviy jihatdan ham eskiradi. Ma'naviy eskirishning ham ikki xil turi mavjud bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. Ma'naviy eskirishning birinchi turi mehnat

[73] Xajiyev B.D. Tadbirkorlik kapitali va uning samarali amal qilishi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. avtoref. – T., 2008, 17–18 -b.

vositalari tayyorlanadigan tarmoqlarda mehnat unumdorligi oshganligi natijasida ular qiymatining pasayishida ifodalanadi. Bu ishlab turgan uskunalarni yangilari bilan almashtirishni zarur qilib qo'ymaydi, chunki ishlab turgan va yangi uskunalarning texnika darajasi bir xil bo'lib qolaveradi. Biroq, ancha past qiymatga ega bo'lgan mehnat vositalarining keng qo'llanishi shunga olib keladiki, ilgari sotib olingan mehnat vositalari qiymatining bir qismi yo'qoladi.

Ma'naviy eskirishning ikkinchi turida ancha mukammal, arzon va unumli mashinalarning ishlab chiqarishga kirib kelishi bilan ilgari o'rnatilgan mehnat vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmay qoladi va natijada ular yangilari bilan almashtiriladi. Ma'naviy eskirishdan ko'riladigan zararning oldini olishning asosiy yo'li mehnat qurollaridan ancha samarali foydalanish hisoblanadi.

Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning bir qismi amortizatsiya fondi yordamida qoplanadi.

Amortizatsiya asosiy kapital eskirib borishiga qarab, uning qiymatini asta-sekin ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazish, asosiy kapitalni keyinchalik qayta tiklash maqsadlarida mahsulotning amortizatsiya miqdoriga teng qismini ajratib borish jarayonidan iborat.

Amortizatsiya ajratmalari belgilangan amortizatsiya normalari (me'yorlari) asosida ajratilib boriladi.

Asosiy kapitalning eskirishi bilan amortizatsiya o'rtasida mustahkam aloqa bor. Biroq bular bir xil tushunchalar emas. Eskirish mehnat vositalaridan foydalanish vaqtida ularning texnik-ishlab chiqarish xossalarini asta-sekin yo'qotish jarayonini aks ettiradi. Amortizatsiya ancha murakkab jarayon bo'lib, iste'mol qilingan mehnat vositalari qiymatini ularning eskirishiga muvofiq ravishda mahsulotga o'tkazish, iste'mol qilingan mehnat vositalarining o'rnini qoplash maqsadida pul fondini jamg'arish jarayonini aks ettiradi. Shunday qilib, eskirish amortizatsiyaning dastlabki shart-sharoitidir.

Amortizatsiya normasi amortizatsiya ajratmalari yillik summasining shu asosiy kapital qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi va foizda ifodalanadi. Amortizatsiya ajratmalarining umumiy normasi asosiy kapitalni takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususi-

yatlariga muvofiq ravishda ikki qismdan iborat bo'ladi: bir qismi asosiy kapitalni to'la qoplashga (qayta tiklashga), ikkinchisi ularni qisman qoplashga (kapital ta'mirlashga) mo'ljallanadi.

Amaliyotda umumiy yillik amortizatsiya normalarini (A_n) belgilashda asosiy kapital qiymati (K_{as}) asosiy kapitalning harakat qilishi muddati davomida kapital ta'mirlash uchun sarflar (T_k), eskirgan mehnat vositalarini tugatishdan olingan mablag' (M_t) va shu vositaning xizmat davri (X_d) hisobga olinadi:

$$A_n = \frac{K_{as} + T_k - M_t}{K_{as} \times X_d} \times 100\%$$

Amortizatsiya normalari mehnat vositalari jismoniy va ma'naviy eskirishining haqiqiy miqdorini aks ettirishi kerak. Oshirilgan normalar mahsulot tannarxini sun'iy ravishda o'stirib yuboradi, pasaytirilgan normalar esa asosiy kapitalning tiklanish davrini kechiktiradi va shu tariqa taraqqiyotga to'siq bo'ladi.

Hozirgi sharoitda amortizatsiya ajratmalari rivojlangan mamlakatlarda kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi. Shunga ko'ra, davlat ko'pincha firmalarga jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llashga ruxsat beradi. Jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmalarining yuqori normalarini belgilash orqali asosiy fondlar qiymatini nisbatan qisqaroq vaqt ichida ro'yxatdan chiqarish imkonini beradi. Odatda jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash asosiy fondlarning aktiv qismi uchun ruxsat etiladi. Biroq, bu holat nafaqat asosiy kapitalning tezroq yangilanishini, balki ishlab chiqarish xarajatlarini amortizatsiya ajratmalariga to'g'ri keluvchi qismining oshib ketishiga ham olib keladi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligining oshishi, eng avvalo, qo'shimcha kapital mablag' sarflanmasdan turib mahsulot hajmini ko'paytirishda o'z ifodasini topadi. Bir tomondan, milliy mahsulot yoki milliy daromadning o'sish sur'atlari bilan, ikkinchi tomondan, asosiy kapitalning o'sish suratlari o'rtasidagi nisbat milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligining umumlashuvchi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Asosiy

kapitaldan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan asosiy kapital qiymati o'rtasidagi aloqani aks ettirib, u o'zaro bog'liq ikki ko'rsatkich – kapitaldan olinadigan samara (K_s) va mahsulotning kapital sig'imi (K_{sig}) ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi. **Milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitaldan olinadigan samara darajasi ishlab turgan asosiy kapitalning har bir so'miga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot yoki milliy daromadni, kapital sig'imi darajasi esa ishlab chiqarilgan milliy daromad yoki yalpi ichki mahsulotning bir so'mi hisobiga asosiy kapital qiymatining to'g'ri kelishini tavsiflaydi:**

$$K_s = \frac{YaIM}{K_{as}} \text{ yoki } K_s = \frac{MD}{K_{as}}.$$

$$K_{sig'} = \frac{K_{as}}{YaIM} \text{ yoki } K_{sig'} = \frac{K_{as}}{MD}.$$

Korxona miqyosida kapitaldan olinadigan samara darajasi asosiy kapitalning bir so'mi evaziga korxona ishlab chiqaradigan mahsulot miqdori (M) bilan, kapital sig'imi esa korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotning (M) bir so'm hisobiga qancha asosiy kapital qiymati to'g'ri kelishi bilan tavsiflanadi:

$$K_{samara} = \frac{M}{K_{as}}; \; K_{sig'.kor.} = \frac{K_{as}}{M}.$$

Korxonadagi mehnat vositalarining ayrim turlaridan foydalanish samaradorligi natural ko'rsatkichlar yordami bilan aniqlanadi. Masalan, bir to'quv dastgohida metr hisobida bir kunda to'qilgan mato, bir avtomobilda bir kunda tonna hisobida tashilgan yuk va hokazo.

Asosiy kapital (fondlar) harakati aylanma kapital va muomala mablag'lari harakati bilan uzviy bog'liq. Shu sababli aylanma kapital va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini aniqlash va uni oshirish omillarini ko'rsatib berish muhim ahamiyatga ega.

Aylanma kapitaldan samarali foydalanishning umumlashuvchi ko'rsatkichi hisoblangan iqtisodiyot miqyosida mahsulotning material sig'imi ($M_{sig'}$) mahsulot yaratishda iste'mol qilingan aylanma kapital qiymatining yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki milliy daromadga (M_d) nisbati orqali aniqlanadi:

$$M_{sig'} = \frac{AK}{MD}$$

Korxona miqyosidagi material sig'imi ($M_{sig'.kor.}$) unda iste'mol qilingan aylanma kapital qiymatining ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$M_{sig'.kor.} = \frac{AK}{M}$$

Sarflangan aylanma kapital birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori material sig'imi ko'rsatkichiga teskari miqdordir.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi u bilan aylanma kapital o'rtasidagi nisbatga bog'liqdir. Bevosita ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan aylanma kapitalning salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lardan shunchalik samarali foydalaniladi. Amaliyotda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish koeffitsienti bilan o'lchanadi. Bu koeffitsient bir yil ichida sotilgan mahsulot qiymatining aylanma mablag'larning o'rtacha yillik summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Aylanish davri (a) yildagi kunlar sonining aylanishlar soniga (n) nisbati bilan aniqlanadi:

$$a = \frac{360}{n}.$$

Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtiradigan asosiy omil ishlab chiqarish vaqtini avvalo ish davrini, shuningdek, muomala vaqtini qisqartirishdir.

Xulosalar

1. Xo'jalik yuritishning bozor tizimiga o'tish – iqtisodiyotning tadbirkorlik turiga o'tish demakdir. Tadbirkorlikning iqtisodiy

tabiati tashabbuskorlik, tavakkalchilik va mas'uliyat, ishlab chiqarish omillarini yangicha usulda birlashtirish, novatorlik kabi bir qancha belgilar bilan tavsiflanadi.

2. Tadbirkorlik faoliyati deb shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatga aytiladi.

3. Tadbirkorlik daromadining o'ziga xos xususiyati shundaki, birinchidan, u ishlab chiqarish jarayonida resurslarning eng optimal variantda qo'llanilishi natijasida vujudga keladi, ikkinchidan esa, bozorda ayirboshlash natijasida shakllanadi.

4. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatda ma'lum darajada shart-sharoit yaratilishi zarur. Tadbirkorlik vazifalarini amalga oshirish, rivojlantirish va shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlar majmuasi tadbirkorlik muhitini tashkil qiladi. Tadbirkorlik muhiti bir necha unsurlardan tashkil topgan: huquqiy asosning mavjudligi, iqtisodiy erkinlik, shaxsiy manfaat, bozorning rivojlanganligi, raqobat, davlatning cheklangan roli.

5. «Tadbirkorlik» va «biznes» tushunchalari mazmun va mohiyatan bir faoliyatni anglatadi. Ammo faoliyatning novatorlik tomoni haqida gap borganda «tadbirkorlik» tushunchasi ishlatiladi.

6. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining quyidagi shakllari samarali amal qilib kelmoqda: xususiy tadbirkorlik, mas'uliyati cheklangan va mas'uliyati cheklanmagan jamiyatlar, hissadorlik jamiyatlari. Hissadorlik jamiyatlarining rivojlanishi milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hissadorlik jamiyatlarining paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantiradi, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini ko'paytiradi, aholining keng qatlamini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga undaydi.

7. Kapital o'zining amal qilish jarayonida bir necha shaklda namoyon bo'ladigan murakkab hodisadir. Ilk bosqichda kapital buyum, pul, qiymat ko'rinishida bo'lib, xo'jalik faoliyatiga yo'naltiriladi. Shuning uchun kapital avanslangan qiymat shaklini oladi. Natijada kapital qo'shimcha mahsulot, daromad olishni ta'minlaydigan qiymatga aylanadi.

8. Kapitalning aylanishi shunday harakatki, unda kapital barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tib, o'ziga xos bo'lgan vazifalarni bajarib o'zining dastlabki shakliga qaytadi. Kapitalning aylanishi avanslangan qiymat butunlay qoplangan taqdirda amalga oshgan hisoblanadi. Kapital aylanish tezligi kapitalning bir yilda aylanish tezligi va aylanish soni bilan o'lchanadi.

9. Kapital o'zining aylanish xususiyatiga qarab asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi. Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida to'liq ishtirok etib, o'z qiymatini mahsulot qiymatiga qismlar bilan o'tkazadi. Mehnat vositalari o'rnini qoplash uchun mo'ljallangan va amortizatsiya fondida jamg'ariladigan asosiy kapital qiymati amortizatsiya ajratmalari deyiladi. Amortizatsiya ajratmalari summasining asosiy kapital qiymatiga nisbati amortizatsiya normasi deyiladi va foizlarda hisoblanadi. Aylanma kapital ishlab chiqarish jarayonida o'z qiymatini to'laligicha tayyor mahsulot qiymatiga o'tkazadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Tadbirkorlik faoliyati – shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.

Aksiyadorlik jamiyati – ko'proq foyda olish maqsadida aksiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma.

Aksiya – bu uning egasi aksiyadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz.

Aksiya kursi – qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarning sotiladigan narxi.

Obligatsiya – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo'yganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.

Ta'sischilik foydasi – sotilgan aksiyalar va aksiyadorlik korxonasiga haqiqatda qo'yilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq.

Dividend – aksiya egasi o'zlashtiradigan daromad turi.

Tadbirkorlik kapitali – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari.

Aylanma kapital – unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to'liq iste'mol qilinadigan, o'z qiymatini Yaratilgan mahsulotga to'liq o'tkazadigan va ashyoviy-buyum shaklini ham yo'qotadigan qismi.

Asosiy kapital – unumli kapitalning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o'zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo'lib-bo'lib o'tkazib boradigan va xizmat muddati davomida o'zining ashyoviy-buyum shaklini o'zgartirmaydigan qismi.

Amortizatsiya normasi – amortizatsiya ajratmalari yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:

1. Tadbirkorlik faoliyatiga ta'rif bering. «Tadbirkorlik faoliyati» va «biznes» tushunchalarini izohlang.
2. Tadbirkorlikning vazifalarini sanab ko'rsating. Nima uchun tadbirkor tahlika (tavakkalchilik) bilan faoliyat ko'rsatadi?
3. Tadbirkorlikning rivojlanish shart–sharoitlari nimalardan iborat?
4. Tadbirkorlikning shakllari va ularning xususiyatlarini ko'rsating.
5. Aksiyadorlik jamiyatiga ta'rif bering. Aksiya nima, aksiya kursi qanday aniqlanadi? Aksiya kursiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.
6. Tadbirkorlik kapitali nima? Uning tarkibiy tuzilishi qanday?
7. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida qanday bosqichlardan o'tadi hamda qanday shakllarga kiradi?
8. Kapitalning aylanishiga tavsif bering. Aylanish vaqti qanday vaqtlarni o'z ichiga oladi? Ularga tushuncha bering.
9. Kapitalning aylanish tezligi qanday aniqlanadi? Kapitalning aylanish uzunligi ikki oyni tashkil qiladi deb faraz qilsak, bir yilda necha marta aylanadi va bir aylanishining uzunligi qancha davom etadi?
10. Unumli kapital asosiy va aylanma kapitalga qanday mezonlar bo'yicha ajratiladi? Asosiy va aylanma kapitalga tavsif bering.
11. Amortizatsiyaning iqtisodiy mazmuni nimadan iborat? Uning normasi qanday aniqlanadi?
12. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi? Aylanma kapital va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini tushuntiring.

11-BOB. KORXONA (FIRMA) XARAJATLARI VA FOYDASI

O'tgan bobdan bizga ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tadbirkor yoki korxona foyda olish va uni ko'paytirish uchun faoliyat ko'rsatadi. Uning oladigan foyda miqdori esa ishlab chiqargan mahsuloti yoki ko'rsatayotgan xizmatining hajmiga, sifatiga, tannarxiga va baholar darajasiga bog'liq bo'ladi. Korxonalarning bozorga mahsulot yetkazib berib, foyda olishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omil sarf-xarajatlar darajasi hisoblanadi. Har qanday tovarni ishlab chiqarish iqtisodiy resurs sarflarini taqozo qilib, ular ham ma'lum narxga ega bo'ladi. Korxona oladigan foydaning miqdori bir tomondan bozorga taklif qiladigan tovar miqdoriga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan unga qilinadigan iqtisodiy xarajatlar darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorida sotiladigan narxlarga bog'liq. Shuning uchun ham ishlab chiqarish xarajatlari "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining muhim kategoriyalaridan biri bo'lib, uni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Bu bobda sarf-xarajatlarning umumiy tabiati, mazmuni va tarkibiga to'xtalib, foydaning tashkil topishi jarayoni tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, foydaning manbai, uning miqdoriga, darajasiga ta'sir etuvchi omillar, foyda normasi va massasi kabi masalalarga alohida e'tibor beriladi.

11.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi

Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxona, firma) o'z faoliyati natijalaridan ko'proq foyda olishga harakat qiladilar. Har qanday korxona oladigan foyda nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori narxlarda sotishga, balki tovar ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Tovarlarni sotish narxlari asosan korxona faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish xara-

jatlari korxonaning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni sotish jarayonlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog'liq. Lekin har qanday tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun ma'lum sarf xarajatlar talab etiladi. Hozirda ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etishda ikki xil yondashuv – klassik va neoklassik yoki zamonaviy konsepsiyalardan foydalaniladi. Klassik nazariya yondashuviga ko'ra, ishlab chiqarish xarajatlari – bu mahsulot ishlab chiqarish uchun amalga oshirilgan barcha jonli mehnat, pul va moddiy sarflardir.

Umumiy nazariy jihatdan quyidagilarni farqlash lozim:

1) ishlab chiqarishning ijtimoiy xarajatlari yoki mahsulot qiymati;
2) korxona (firma)ning individual ishlab chiqarish xarajatlari.

Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari – bu mahsulot ishlab chiqarish uchun ijtimoiy zaruriy mehnatning umumiy (jonli va moddiylashgan) sarflaridir. Ular mazkur mahsulotni ishlab chiqarish jamiyat uchun qanchaga tushganligini ko'rsatadi. Tovar ishlab chiqarish sharoitida ijtimoiy xarajatlar pul shaklida namoyon bo'ladi va tovar qiymatiga muvofiq tushadi, ya'ni:

$$w = c + v + m,$$

bu yerda: w – ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari yoki mahsulot qiymati; s – iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati; v – ishchi kuchi qiymati (ish haqi); m – qo'shimcha qiymat.

Korxona ishlab chiqarish xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi:

$$k = s + v.$$

Korxona ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalari, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Korxona tomonidan **ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi.**

Korxona ishlab chiqarish xarajatlarini ikkiga bo'lib o'rganish mumkin: bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari (11.1-rasm).



11.1-rasm. Xarajatlarning namoyon bo'lish sohasiga ko'ra turkumlanishi

Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari faqat tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga olib, tovar birligi qiymatining faqat bir qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatidan foyda miqdoriga kam bo'ladi.

Muomala xarajatlari tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi. Ular ikki guruhga bo'linadi: qo'shimcha muomala xarajatlari va sof muomala xarajatlari. **Tovarlarni o'rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari qo'shimcha muomala xarajatlari hisoblanadi.** Muomala xarajatlarining bu turlari ishlab chiqarish xarajatlarining davomi hisoblanib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushumi summasidan qoplanadi.

Sof muomala xarajatlari tovarni sotish bilan bog'liq bo'lib, sotuvchilarning maoshi, marketing (iste'molchilar talabini o'rganish), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida Yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining ikkinchi yo'nalishdagi konsepsiyalari marjinalistlar va neoklassiklar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular bu boradagi klassik nazariyalarni ham ma'lum darajada hisobga oladilar. Biroq, bu konsepsiyalarning o'ziga xos tomoni shundaki, ular

ishlab chiqarish xarajatlarini tushuntirishda resurslarning cheklanganligi va ulardan muqobil foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqadilar.

Marjinalistik sarf-xarajatlar nazariyasi bo'yicha korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi (11.2-rasm).



11.2-rasm. Xarajatlarning jalb etilish manbaiga ko'ra turkumlanishi

Tashqi xarajatlar korxona tomonidan zarur resurs va xizmatlarni tashqaridan to'lov asosida jalb yetishi uchun sarf qilingan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xomashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijaraga olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ham ataladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozordagi narxlariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Tashqi va ichki xarajatlarning mohiyatini ochib berish, ularning bir-biridan farqini tushuntirishda bugungi kunda xo'jalik amaliyotimizda faoliyat yuritayotgan ko'plab yakka tartibdagi tadbirkorlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Aytaylik, biron-bir tadbirkor o'ziga qarashli bo'lgan xonadonda kichik ishlab chiqarish sexi tashkil qildi. Bu yerda uning tashqi xarajatlari aniq: ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo uchun to'lov, elektr energiyasi, suv va boshqa kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, transport xizmatlari uchun to'lov va boshqalar. Bu o'rinda ichki xarajatlar nimadan iborat bo'ladi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Misolimizdan ko'rinadiki, tadbirkor sex binosi sifatida o'z xonadonidan foydalanyapti. Shubhasiz, u o'z xonadonidan foydalanganligi uchun o'ziga haq to'lamaydi, biroq agar u ushbu xonadonni biron-bir kishiga ijaraga berganida ma'lum miqdorda (aytaylik, bir oyga 200 ming so'm) pul daromadi olgan bo'lar edi. Uning xonadonidan sex sifatida foydalanish muqobil holatda kelishi mumkin bo'lgan ijara to'lovidan, ya'ni 200 ming so'mdan mahrum etmoqda. Demak, bu o'rinda tadbirkor «ko'zga ko'rinmagan» holda 200 ming so'm sarflamoqda, ya'ni ichki xarajat qilmoqda. Bu turdagi ichki xarajatlarga yana tadbirkorning o'zining ish haqini, agar oila a'zolari mehnatidan foydalansa, ularning ish haqini va shunga o'xshash boshqa xarajatlarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo'lgan to'lov – me'yordagi foyda ham renta va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Me'yordagi foyda iqtisodiy foydadan farq qiladi. **Me'yordagi foyda – bu iqtisodiy resurs sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini rag'batlantirib turish uchun to'lanadigan haq hisoblanadi.** Agar biron-bir faoliyat turi me'yordagi foyda keltirmasa, tadbirkor bu faoliyat turi bilan shug'ullanishdan to'xtaydi va o'zining kuch-quvvatini boshqa faoliyatga sarflaydi. Sarf-xarajatlarni ichki va tashqi xarajatlarga ajratish korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qilish yoki qilmasligiga qarab xarajatlar doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarga bo'linadi (11.3-rasm).

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (qisqarishi yoki ortishiga) ta'sir qilmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi. Doimiy xarajatlar (DX) ishlab chiqarish hajmining o'sishiga bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchi hajmida ham mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatlari (qarzlar bo'yicha foiz va boshqalar), soliqlarning ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan turlari, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, uskunalarga xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

O'zgaruvchi xarajatlar (O'X) deb ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qiladigan xarajatlarga aytiladi. Unga xomashyo, material, yonilg'i, transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi.

11.3-rasm. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra xarajatlarning turkumlanishi

Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar yig'indisi umumiy xarajatlar (UX)ni tashkil qiladi.

Doimiy (DX), o'zgaruvchi (O'X) va umumiy (UX) xarajatlarning grafikdagi ifodasini 11.4-rasm orqali ko'rishimiz mumkin.



11.4-rasm. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) xarajatlarning grafikdagi tasviri

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar tushunchalaridan foydalaniladi. **O'rtacha umumiy xarajatlar yalpi (umumiy) xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori nisbatiga teng:**

$$O'UX = \frac{UX}{M};$$

bu yerda: O'UX – o'rtacha umumiy xarajatlar;
UX – umumiy xarajatlar;
M – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

O'rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$O'DX = \frac{DXC}{M};$$

bu yerda: O'DX – o'rtacha doimiy xarajatlar;
DXC – doimiy xarajatlar summasi.

O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar o'zgaruvchi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$O'O'X = \frac{O'XC}{M} \quad ;$$

bu yerda: O'O'X – o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar;

O'XC – o'zgaruvchi xarajatlar summasi.

Shartli raqamlar yordamida korxonaning doimiy, o'zgaruvchi, umumiy va o'rtacha xarajatlari to'g'risidagi misolni ko'rib chiqamiz (11.1-jadval).

11.1-jadval

Korxonaning doimiy, o'zgaruvchi, umumiy va o'rtacha xarajatlari

Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, dona	Korxona xarajatlari, ming so'm			O'rtacha xarajatlar, so'm		
	Doimiy	O'zgaruvchi	Umumiy	Doimiy	O'zgaruvchi	Umumiy
0	100	0	100	100000	0	100000
100	100	120	220	1000	1200	2200
200	100	240	340	500	1200	1700
300	100	360	460	333	1200	1533
400	100	490	590	250	1225	1475
500	100	640	740	200	1280	1480
600	100	810	910	167	1350	1517

Jadvaldan ko'rinadiki, o'rtacha doimiy xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan kamayib bormoqda. Bu ishlab chiqarish hajmining kengayishi bilan korxonaning doimiy xarajatlari mahsulotlarning tobora ko'payib boruvchi miqdoriga taqsimlanib borishi natijasida ro'y beradi. O'rtacha o'zgaruvchi va o'rtacha umu-

miy xarajatlar esa ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan turlicha o'zgarishi mumkin. Bizning misolimizda o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar 100 dan 300 donagacha bir xilda bo'lib, ishlab chiqarishning yanada kengayishi bilan ortib bormoqda. O'rtacha umumiy xarajatlar esa 400 donagacha miqdorda pasayib borib, undan yuqori miqdorlarda o'smoqda. Jadvaldan ko'rinadiki, o'rtacha umumiy xarajatlarni o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlarning yig'indisi sifatida ham ifodalash mumkin:

$$O'UX = O'DX + O'O'X$$

Bu o'rtacha umumiy, doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarning egri chiziqlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi (11.5-rasm):



11.5-rasm. O'rtacha xarajatlarning egri chiziqlari

Eng yuqori darajada foyda olishga erishish uchun tovar ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlash lozim. Bunda iqtisodiy tahlil vositasi bo'lib so'nggi qo'shilgan xarajat tushunchasi xizmat qiladi. **So'nggi qo'shilgan xarajat deb mahsulotning navbatdagi birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarga aytiladi:**

$$SQX = \frac{\Delta UX}{\Delta M} \quad ;$$

bu yerda: SQX – so'nggi qo'shilgan xarajat;
ΔUX – umumiy xarajatlarning o'zgarishi;
ΔM – mahsulot miqdorining o'zgarishi.

Qo‘shilgan xarajatlarni har bir navbatdagi qo‘shilgan mahsulot birligi uchun aniqlash mumkin. **Tovar yoki xizmatlarning keyingi qo‘shilgan birligini ishlab chiqarishga to‘g‘ri keladigan xarajatlar o‘rtacha qo‘shilgan xarajatlar deyiladi.**

"Ishlab chiqarishni tashkil etishning butun jarayonini –xomashyoni chuqur qayta ishlashdan toki uni tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan yo‘lini –siklini, sarflangan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va nechog‘liq o‘zini qoplashini asoslab bergan holda, prognoz qilishni ta’minlash darkor.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish natijasida 2030-yilda, yangi turdagi tovarlar tayyorlashni o‘zlashtirish asosida neft-gaz-kimyo sohasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3,2 barobar, rangli metall mahsulotlari 2,2 marta, qora metalldan tayyorlanadigan buyumlar 2,3 karra, kimyo sanoati mahsulotlari, jumladan, mineral o‘g‘itlar 3,2 barobar ko‘payishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo‘lgan tayyor, ekologik toza to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2030-yilda 5,6 marta, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini esa 5,7 karra oshirish imkonini beradi".[74]

11.2. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish xarajatlarining o‘zgarish tamoyillari

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda vaqt omili, ya’ni xarajat qilingandan pirovard natija olinguncha o‘tgan davr sezilarli

---

[74] I. Karimov Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2016-yil 16-yanvar.

ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli vaqt omilidan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqa va uzoq muddatli davrda alohida tahlil qilinadi.

Qisqa muddatli davr – bu korxonaning faqat o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirish uchun taqozo etiladigan davrdir. Misol uchun, korxona mahsulotiga talab keskin oshdi, deb faraz qilaylik. Taklifning muayyan hajmida talabning oshishi narxning ham ko'tarilishiga va binobarin, korxona foydasining ko'payishiga olib keladi. O'z o'rnida, ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali korxona foyda massasini yanada oshirish imkoniga ega. Buning uchun u eng avvalo qisqa muddatli davrdagi ishlab chiqarish xarajatlarini amalga oshiradi. Bunday xarajatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) jonli mehnat xarajatlarini oshirish, ya'ni qo'shimcha ishchi kuchini yollash va ulardan foydalanish;

2) xomashyo, material, elektr energiyasi va boshqa xarajatlar miqdorini ko'paytirish;

3) nisbatan arzon va ishlab chiqarishga osonlik bilan joriy etish mumkin bo'lgan mehnat vositalari miqdorini ko'paytirish va h.k.

Bundan ko'rinadiki, korxona ishlab chiqarish hajmini o'stirish uchun qisqa davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin bo'lib, ular qisqa muddatli xarajatlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish bino va inshootlari maydoni, mashina va uskunalar miqdori) doimiy bo'lib qoladi, hamda bu davr faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli davr – bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini va barcha band bo'lgan resurslari miqdorini o'zgartirish uchun yetarli bo'lgan davrdir. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishini taqozo qiladigan davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxona xususiyatidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Misol uchun, tikuvchilik korxonasida ishlab chiqarish quvvatlarini nisbatan qisqa muddatda, masalan bir necha kunda o'zgartirish mumkin. Buning uchun bir necha ish stoli va tikuvchilik mashinalari sotib olish va o'rnatish kifoya qiladi. Mashinasozlik yoki neftni qayta ishlash zavodidagi qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish esa bir necha yilni taqozo yetishi mumkin.

Uzoq muddatli davrda barcha xarajatlar, shu jumladan, doimiy xarajatlar ham o‘zgaruvchi hisoblanadi.

Qisqa muddatli vaqt davomida korxona o‘zining doimiy (qayd qilingan) quvvatlariga o‘zgaruvchi resurslar miqdorini qo‘shib borish yo‘li bilan ishlab chiqarish hajmini o‘zgartirishi mumkin. Biroq, ishlab chiqarish quvvatlariga (doimiy resurslarga) qo‘shilgan o‘zgaruvchi resurslar ma’lum vaqtdan so‘ng kamayib boruvchi natija (mahsulot) beradi.

Bu holat marjinalistlar tomonidan **unumdorlikning pasayib borishi qonuni** deb atalmish g‘oya orqali izohlab beriladi. Unga ko‘ra, ma’lum davrdan boshlab korxonaning ishlab chiqarish quvvatlariga (masalan kapital yoki yerga) o‘zgaruvchi resurslar birligi (masalan, jonli mehnat)ni ketma-ket qo‘shib borish, har bir keyingi o‘zgaruvchi resurs birligi qiymatiga kamayib boruvchi qo‘shilgan mahsulot beradi. Boshqacha aytganda, agar asosiy kapitalga xizmat ko‘rsatuvchi ishchilar soni ko‘payib borsa, ishlab chiqarishga ko‘proq ishchini jalb qilib borish bilan ishlab chiqarish hajmining o‘sishi tobora sekinlik bilan ro‘y beradi. Bu qonunni tasvirlash uchun quyidagi misolni keltiramiz. Faraz qilaylik, fermer foydalanadigan yerning doimiy miqdoriga (masalan 20 ga) ega bo‘lib, unda don yetishtiradi. Agar fermer ekinga qayta ishlov bermasa, har bir gektar yerdan 40 sentnerdan hosil oladi deb hisoblaymiz. Agar ekinga qo‘shimcha bir marta ishlov berilsa, hosildorlik 50 s/ga ga qadar ko‘tarilishi mumkin. Ikkinchi ishlov berish hosildorlikni 57 s/ga, uchinchisi - 61 s/ga, to‘rtinchisi, aytaylik 63 s/ga ga qadar ko‘tarishi mumkin. Ekinga keyingi ishlov berishlar juda kam yoki nolga teng bo‘lgan qo‘shimcha hosil beradi. Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, unumdorlikning pasayib borish qonuni, o‘zgaruvchi resurslarning barcha birligi (masalan barcha ishchilar) sifat jihatidan bir xil degan farazga asoslanadi. Ya’ni, har bir qo‘shimcha ravishda jalb qilingan ishchi bir xil aqliy layoqatga, bilimga, malakaga, harakat tezligi va shu kabilarga ega deb hisoblanadi. Demak, qo‘shilgan mahsulot keyingi jalb qilingan ishchi kam malakaga ega bo‘lgani uchun emas, balki kapital (fondlar)ning mavjud miqdoriga nisbatan ko‘p miqdorda ishchilarni band qilish sababli kamayib boradi. Bu yerda ishlab chiqarish omillari o‘rtasidagi nis-

bat, mutanosiblik buzilishi sodir bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, unumdorlikning pasayib borishi degan qonun tabiiy ravishda o'zidan o'zi emas, balki omillarning boshqasi o'zgarmagani holda ayrimlarini ko'r-ko'rona ko'paytirib, ular o'rtasidagi mutanosiblik buzilganda sodir bo'ladi.

Qulay iqtisodiy muhit tufayli ishlab chiqarish quvvatlarining to'xtovsiz kengayib borishi natijasida korxona o'rtacha umumiy (yalpi) xarajatlarida qanday o'zgarish ro'y beradi? Dastlab, qandaydir vaqt oralig'ida ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi o'rtacha umumiy xarajatlarning pasayishi bilan birga boradi. Ammo oxir-oqibatda ko'proq va yanada ko'proq quvvatlarni ishga tushirish o'rtacha umumiy xarajatlarning o'sishiga olib keladi. Bunday hollarni samaraning kamayib borish qonuni tushuntirib berolmaydi, chunki uning amal qilish shart-sharoiti ishlab chiqarishda foydalanadigan resurslardan bittasi miqdorining o'zgarmasligi hisoblanadi. Uzoq muddatli davrda barcha resurslar miqdori o'zgaradi. Bundan tashqari biz tahlilda barcha resurslar narxini doimiy deb faraz qilamiz. Shu sababli uzoq muddatli davrda o'rtacha xarajatlarning o'zgarishi tamoyilini ishlab chiqarish miqyosi o'sishining ijobiy va salbiy samarasi yordamida tushuntirish mumkin.

Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi shunda namoyon bo'ladiki, korxonada ishlab chiqarish hajmi o'sib borishi bilan, bir qator omillar ishlab chiqarish o'rtacha xarajatlarining pasayishiga ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bu omillar quyidagilar: 1) mehnatning ixtisoslashuvi; 2) boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuvi; 3) kapitaldan samarali foydalanish; 4) qo'shimcha turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi. Quyida bu omillarning har biriga batafsil to'xtalib o'tamiz.

1. Mehnatning ixtisoslashuvi. Korxona ko'lamining o'sib borishi bilan foydalanilayotgan mehnatning ixtisoslashuv darajasini oshirish imkoni kengayib boradi. Qo'shimcha ravishda ishchilarning yollanishi topshiriqning ular o'rtasida borgan sari aniqroq taqsimlanib borishini anglatadi. Ishlab chiqarish jarayonida 5–6 tadan turli operatsiyalarni bajarish o'rniga endilikda har bir ishchi bitta – yagona topshiriqni bajarishi mumkin bo'ladi. Butun ish kuni davomida u

o‘zining malakasiga ko‘proq mos keladigan vazifani bajarish bilan band bo‘ladi. Kichik korxonalarda malakali ishchilar ko‘pincha o‘z ish vaqtlarining deyarli yarmini hech qanday malaka talab etmaydigan ishlarni bajarishga sarflaydilar. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarining oshib ketishiga olib keladi. Shuningdek, ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi bilan ta’minlanuvchi mehnat operatsiyalarining taqsimlanishi imkoniyati ishchilar uchun o‘z vazifalarini bajarishlarida katta tajriba orttirishga zamin yaratadi. 5–6 ta topshiriq bilan band qilingan eng mahoratli ishchi ham bu vazifalarning har birini bajarishda u qadar malakali bo‘la olmaydi. Yagona vazifani bajarish imkoniga ega bo‘lgach, xuddi shu ishchi yanada unumliroq ishlay oladi. Va nihoyat, mehnat ixtisoslashuvining yuqori darajasi ishchi tomonidan bir topshiriqni bajarishdan boshqa biriga o‘tishdagi vaqt yo‘qotilishi holatining oldini oladi.

2. Boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuvi. Ishlab chiqarishning yirik miqyoslari, shuningdek, boshqaruv bo‘yicha mutaxassislar mehnatidan yaxshiroq foydalanish imkonini beradi. Birdaniga 20 nafar ishchini nazorat qilishga qodir bo‘lgan rahbarning mehnati bir necha ishchiga ega bo‘lgan kichik korxonada yetarli darajada foydalanilmaydi. Bu holatda ma’muriy apparatni ta’minlash xarajatlarini oshirmagan holda korxona ishlab chiqarish xodimlarining sonini ikki baravar ko‘paytirish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga, kichik firmalar boshqaruvchi mutaxassis mehnatidan bevosita maqsadga muvofiq foydalana olmaydilar. Kichik korxonada sotish muammolari bo‘yicha mutaxassis o‘z vaqtini boshqaruvning turli sohalari – masalan, marketing, ishchi kuchi resurslarini boshqarish, moliyaviy boshqarish bo‘yicha taqsimlashga majbur bo‘lishi mumkin. Operatsiyalar miqyosining kengayishi marketing bo‘yicha mutaxassis o‘zini mahsulotlarni taqsimlash va sotish ustidan nazorat o‘rnatishga to‘liq bag‘ishlashi mumkinligidan darak berib, boshqaruvning boshqa funksiyalarini bajarish uchun qo‘shimcha ravishda tegishli mutaxassislar jalb etiladi. Pirovardida bu holat samaradorlikning oshishi hamda mahsulot birligiga bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishiga olib keladi.

3. Kapitaldan samarali foydalanish. Ko‘p hollarda kichik firmalar ishlab chiqarish jihozlaridan texnologik nuqtai nazardan nisbatan

samarali foydalanishga qodir bo'lmaydilar. Mahsulotlarning ko'plab turlarini ishlab chiqarish uchun mashinalarni faqat juda yirik va qimmat turuvchi komplektlarda sotib olish mumkin. Buning ustiga, mazkur mashina jihozlaridan samarali foydalanish ishlab chiqarishning katta hajmlarini taqozo etadi. Demak, yaxshi jihozlarni sotib olish va samarali foydalanishga faqat yirik ishlab chiqaruvchilargina erishishlari mumkin. Misol uchun, avtomobilsozlikda ishlab chiqarishning nisbatan samarali usullari yig'ish liniyasi uchun robot texnikasi hamda murakkab jihozlarning qo'llanishini taqozo etadi. Mazkur jihozlarning samarali ishlatilishi uchun, ba'zi bir hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga 200 mingdan to 400 mingga qadar avtomobil ishlab chiqarish hajmiga erishish lozim bo'ladi. Faqat yirik ishlab chiqaruvchilargina bunday jihozlarni sotib olishlari va samarali foydalanishlari mumkin. Bu holat mayda ishlab chiqaruvchilar uchun muammolarni keltirib chiqaradi. Avtomobillarni boshqa jihozlar yordamida ishlab chiqarish samarasiz va mahsulot birligiga nisbatan ko'proq xarajatlar qilinishiga olib keladi. Biroq, nisbatan samarali jihozni sotib olib, undan ishlab chiqarishning kichik hajmi tufayli to'liq foydalanmaslik ham samarasiz va qimmatga tushuvchi yo'l hisoblanadi.

4. Qo'shimcha turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi. Yirik miqyosdagi ishlab chiqarishning tashkilotchisi qo'shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun kichik firmaga qaraganda kengroq imkoniyatga ega bo'ladi. Go'sht qadoqlash bo'yicha yirik fabrika ishlab chiqarish chiqindisidan yelim, o'g'itlar, dorivor mahsulotlar va boshqa shu kabi qo'shimcha mahsulotlarni tayyorlaydiki, kichik firma bu chiqindilarni zarur bo'lmaganligi uchun shunchaki tashlab yuborishi mumkin edi.

Ishchi va boshqaruvchilar mehnatini ixtisoslashtirish darajasini oshirish, nisbatan samarali asbob-uskunalardan foydalanish imkoniyati, chiqindilardan samarali foydalanish kabi barcha texnologik omillar o'z ishlab chiqarish miqyosini kengaytirishga layoqatli bo'lgan tadbirkor tomonidan mahsulot birligini ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirilishiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarishga jalb etilgan barcha resurslar miqdorining 10%ga oshirilishi ishlab chiqarish hajmining nisbatan ko'proq, masalan 20%ga oshi-

shiga olib keladi, natijada o'rtacha umumiy xarajatlar pasayadi. Vaqt o'tishi bilan firmaning kengaytirilishi salbiy iqtisodiy oqibatlarga, va shundan kelib chiqqan holda, mahsulot birligi ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishiga olib kelishi mumkin.

Salbiy miqyos samarasi ro'y berishining asosiy sababi yirik miqyosdagi ishlab chiqaruvchiga aylangan firmaning faoliyatini samarali nazorat qilish va muvofiqlashtirishga harakat qilish chog'ida vujudga keluvchi ma'lum boshqaruv qiyinchiliklari bilan bog'liq. Uncha katta bo'lmagan korxonada bitta – yagona boshqaruvchi uning faoliyatiga doir barcha muhim qarorlarni shaxsan o'zi qabul qilishi mumkin. Firma hajmining uncha katta bo'lmaganligi tufayli mazkur boshqaruvchi barcha ishlab chiqarish jarayonini yaxshi tasavvur qila oladi hamda firma faoliyatining barcha yo'nalishlarini tezlik bilan o'zlashtira olishi, o'z qo'l ostidagilaridan olayotgan axborotlarni osonlik bilan tahlil qilishi, ular asosida aniq va samarali qaror chiqara olishi mumkin bo'ladi.Biroq bunday qulay holat firma miqyosining kengayishi bilan o'zgaradi. Ma'muriy xodimlar va ishlab chiqarish jarayonini alohidalashtiruvchi boshqaruv qatlamlari ko'payib boradi; yuqori rahbariyat korxonadagi haqiqiy ishlab chiqarish jarayonidan alohidalashib qoladi. Yirik korxona miqyosida oqilona qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni yig'ish, tushunish va qayta ishlash bir kishi uchun imkon darajasidan tashqarida bo'ladi. Boshqaruv apparatining chuqurlashuvi va kengayishi esa axborot almashinuvi, qarorlarni muvofiqlashtirishdagi muammolarni hamda byurokratik holatni keltirib chiqaradi, boshqaruvning turli bo'g'inlari tomonidan qabul qilingan qarorlar bir-biriga zid kelish ehtimoli kuchayadi. Natijada samaradorlikka putur yetib, ishlab chiqarishning o'rtacha xarajatlari oshadi. Boshqacha aytganda, barcha resurslar miqdorining 10%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining nomuvofiq ravishda, aytaylik 5%ga o'sishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishidan doimiy ravishda olinuvchi samara. Ba'zi hollarda ijobiy miqyos samarasi ta'siri barham topuvchi ishlab chiqarish hajmi bilan salbiy miqyos samarasi kuchga kiruvchi ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi tafovut juda ahamiyatli bo'lishi mumkin. Bu ikkala chegara orasidagi maydonda

barcha resurslarning 10%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining ham mutanosib ravishda 10%ga ko'payishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish miqyosining kengayib borishi chuqur ixtisoslashuv tufayli boshqarish bo'yicha mutaxassislar mehnatidan ancha yaxshi foydalanish imkoniyatini beradi. Bu oxir-oqibatda samaradorlikning oshishi va mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga olib keladi.

11.3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi

Korxonalarning faoliyatiga baho berishda sotilgan mahsulotlarning hajmi, ularga qilingan sarf-xarajatlar va foyda tushunchalaridan keng foydalaniladi.

Korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag'lar ularning pul tushumlari yoki pul daromadlari deyiladi. Aytaylik, korxonada bir oy davomida 100 ming dona «A» mahsuloti ishlab chiqarildi. Har bir mahsulotning narxi 1000 so'm. Agar barcha mahsulotlar sotilgan taqdirda, korxonaning bir oylik pul tushumi 100 mln. so'm (100000 × 1000) ga teng bo'ladi.

Biroq, korxonaning pul tushumlari uning faoliyatining samaradorligiga baho bera olmaydi. Chunki, bu pul tushumlari qanday xarajatlar evaziga olinganligi aks ettirmaydi. Shunga ko'ra, korxona pul tushumlaridan hamma xarajatlar ajratib tashlansa qolgan qismi – foyda hisoblanadi, u korxona ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish jarayonida Yaratilgan mahsulot yoki xizmatlarning qiymati sotilgandan keyin ikki qismga: ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va foyda qismlariga bo'linadi. Agar yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ishlab chiqarish jarayonida Yaratilgan qo'shimcha mahsulot foydaga aylanadi. Albatta har bir korxonada olingan foyda miqdori Yaratilgan qo'shimcha mahsulotga teng bo'lmasligi, ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Bu hol soliqlar va baholar mexanizmi ta'sirida sodir bo'ladi.

Korxona pul daromadlaridan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda deb yuritiladi. Ayrim adabiyotlarda bu **iqtisodiy foyda** deb ham yuritiladi.

Bizning misolimizdagi korxonada «A» mahsulotni ishlab chiqarishning bir oylik xarajatlari 60 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsin. U holda, korxonaning bir oylik foydasi 40 mln. so'm (100 mln. – 60 mln.) ga teng bo'ladi.

Foydaning tarkib topishi ikki bosqichdan o'tadi:

birinchi bosqichda foyda ishlab chiqarish jarayonida yangi qiymatning yaratilish chog'ida vujudga keladi. Yangidan Yaratilgan qiymat tarkibidagi qo'shimcha mahsulot foydaning asosiy manbai hisoblanadi, biroq u hali aniq foyda shaklida namoyon bo'lmaydi;

ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish jarayonida Yaratilgan foyda tovarlarni sotilgandan so'ng olingan pul daromadi bilan xarajatlarning farqi ko'rinishida to'liq namoyon bo'ladi. Demak, tovar va xizmatlar sotilganda ularning umumiy qiymati pul daromadlariga, undagi qo'shimcha mahsulot esa foydaga aylanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, foydaning haqiqiy manbai qo'shimcha mahsulotdir. Odatda ishlab chiqarish sohasidagi yirik korxonalar tovarlarni katta hajmda ishlab chiqarib, ularni savdo vositachilariga ulgurji narxlarda sotadilar. Shunga ko'ra, ular tovarning ulgurji narxi uning tannarxidan yuqori bo'lgan taqdirda foyda oladilar. Demak, **ishlab chiqaruvchi foydasi (F_{ich}) – bu mahsulot tannarxi (T) va ulgurji narxi (N_u) o'rtasidagi farqdan iborat:**

$$F_{ich} = H_u - T$$

Bundan ko'rinadiki, mahsulot birligidan olinadigan foyda ikkita asosiy omilga bog'liq bo'ladi: 1) mahsulot tannarxi darajasi; 2) ulgurji narxlar darajasi.

Tannarx – bu mahsulotning har bir birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Mahsulot tannarxini xarajatlarning asosiy turkumlari bo'yicha hisoblash mumkin. Misolimizdagi «A» mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxini hisoblab chiqamiz (11.2-jadval).

11.2-jadval

«A» mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxini hisoblash

Xarajatlar	Jami ishlab chiqarish xarajatlari, mln. so'm	1 birlik mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari, so'm
Xomashyo va materiallar	24,0	240
Yoqilg'i va energiya	9,0	90
Ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar	15,0	150
Transport xarajatlari	6,0	60
Boshqaruv xarajatlari	6,0	60
Jami	**60,0**	**600**

Jadvaldan ko'rinadiki, korxonada «A» mahsulotning bir oylik ishlab chiqarish xarajatlari 60 mln. so'mdan iborat bo'lib, jami 1000 dona mahsulot ishlab chiqarilgan. Demak, 1 dona mahsulotning tannarxi 600 so'mga teng.

Har bir korxona xarajatlarini ya'ni tannarxni kamaytirishga harakat qiladi. Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida eksport salohiyatini yuksaltirish va milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan tejamkorlikka erishish hamda mahsulot va xizmatlar tannarxini pasaytirishga bog'liq. Shunga ko'ra, 2016-yilda "Tarmoqlar bo'yicha mahsulotlar tannarxi o'rtacha 10 foizga qisqartirilgan bo'lsa-da, kimyo va yengil sanoat, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa bir qator tarmoqlarning ayrim mahsulotlari qimmatligi sababli tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'la olmayapti. Ayrim korxonalar zarar bilan ishlamoqda"[75] deb o'rinli ta'kidlandi.

[75] Sh.Mirziyoyev. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" // Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan

Bu o'rinda mahsulot tannarxini uning qiymatidan farqlash lozim. Ma'lumki, mahsulot qiymati (Q) o'z ichiga sarflangan ishlab chiqarish vositalari qiymati (Q_{IV}) hamda yangidan Yaratilgan qiymat (Q_{YA}) ni to'liq oladi. O'z navbatida yangidan Yaratilgan qiymat ish haqi (IH) va yalpi foydaga (F_{ya}) ajraladi (11.6-rasm).



11.6-rasm. Mahsulot qiymati tarkibi

Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi ikkinchi omil – korxona o'z mahsulotlarini sotuvchi narx darajasi bo'lib, bu o'rinda mahsulot narxi, qiymati va tannarxi o'rtasidagi nisbatning beshta asosiy holatini ajratib ko'rsatish mumkin (11.7-rasm).



11.7-rasm. Tovar qiymati va narxining nisbati

Rasmdan ko'rinadiki, birinchi holatda narx mahsulotlar tannarxidan past darajada o'rnatilib (N_1 daraja), buning natijasida ular zarariga sotilishi mumkin.

Ikkinchi holatda narxning N_2 darajada o'rnatilishi mahsulotni sotishdan olingan pul tushumining korxona xarajatlariga teng kelishi,

majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi 2017-yil 16-yanvar.

ya'ni ishlab chiqarishning faqat o'zini-o'zi qoplashi ta'minlanishi mumkin. Uchinchi holatdagi N_3 narx darajasi tannarxdan yuqori, biroq qiymatdan past bo'lib, bunda korxona foydasi tovarda mujassamlashgan foyda miqdoridan kam bo'ladi. To'rtinchi holatdagi N_4 narx darajasi qiymat miqdoriga teng bo'lib, korxona tovarda mujassamlashgan barcha foydani oladi. Va nihoyat, beshinchi holatdagi N_5 narx darajasini o'rnatish korxonaga tovar qiymatidan ko'proq pul daromadi olish imkonini beradi. Buni yuqorida keltirilgan misoldagi «A» mahsulot qiymati va narxi orqali aniqroq ifodalash mumkin: N_1 = 500 so'm; N_2 = 600 so'm; N_3 = 800 so'm; N_4 = 1000 so'm; N_5 = 1200 so'm.

Korxona yalpi foydasining taqsimlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi (11.8-rasm).



11.8-rasm. Yalpi foydaning taqsimlanishi

Rasmdan ko'rinadiki, eng avvalo yalpi foydadan boshqa iqtisodiy subyektlarga turli to'lovlar amalga oshiriladi. Bu to'lovlarga boshqalarning yer va binolaridan foydalanganlik uchun ijara haqi, qarzga olingan pul mablag'lari uchun to'lanadigan foizni kiritish mumkin. Bundan tashqari, korxonalar davlat va mahalliy hokimiyat organlari byudjetiga soliqlar to'laydilar, turli hayriya va boshqa fondlarga mablag'lar kiritadilar. Mablag'larning qolgan qismi korxona sof foydasini tashkil etadi. U korxonaning ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlariga, shuningdek, jamg'arish (ishlab chiqarishni kengaytirish)ga, atrof-muhit muhofazasi, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash va boshqa maqsadlarga sarflanadi.

Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasini o'zaro farqlash lozim.

Iqtisodiy foyda umumiy pul tushumidan barcha ichki va tashqi xarajatlar, shuningdek, me'yordagi foydani chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlari chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Shu sababli buxgalteriya foydasi iqtisodiy foydadan ichki xarajatlar miqdoriga ko'proqdir. Bunda ichki xarajatlar har doim o'z ichiga me'yordagi foydani ham oladi. Korxona umumiy pul tushumi tarkibidagi umumiy va buxgalteriya xarajatlari hamda foydasining farqlanishini quyidagi tasvir orqali yaqqolroq tasavvur etish mumkin (11.9-rasm).



11.9-rasm. Korxona umumiy pul tushumi tarkibidagi iqtisodiy va buxgalteriya foydasining farqlanishi

Korxona foydasining mutlaq miqdori uning massasini tashkil qiladi. Foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi foyda normasi deyiladi.

Amaliyotda foyda normasini hisoblashning ikki variantidan foydalaniladi. Bular foydaning joriy sarflarga – korxona xarajatlariga yoki avanslangan mablag'larga (asosiy va aylanma kapital) nisbatidir.

Bular quyidagicha aniqlanadi:

$$1.\ P' = (P/W) \times 100\%,$$

bu yerda: R' – foyda normasi; P – foyda massasi; W – ishlab chiqarish xarajatlari;

$$2.\ P' = (P/K_{avans}) \times 100\%,$$

bu yerda: R' – foyda normasi; P – foyda massasi; K_{avans} – korxona avanslangan mablag'lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati.

Bizning misolimizdagi korxonaning «A» mahsulot ishlab chiqarishdan olgan foyda massasi 40 mln. so'mni, foyda normasi esa 66,7 % ((40 mln. so'm / 60 mln. so'm) × 100%) ni tashkil etadi.

Foyda normasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga to'g'ri mutanosib hamda ishlab chiqarish xarajatlari yoki avanslangan mablag'lar qiymatiga teskari mutanosibdir. Shu tufayli foyda normasi korxona ish samaradorligining integral ko'rsatkichi hisoblanadi.

Foydaning o'sishiga chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgarmagan holda ikki yo'l bilan: 1) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga; 2) narxni oshirish hisobiga erishish mumkin.

Xulosalar

1. Ishlab chiqarish xarajatlari – iqtisodiyot nazariyasining eng muhim ilmiy kategoriyalaridan biridir. Uning vazifasi korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarning miqdori va tarkibini aniqlashdan iborat.

2. Xarajatlarni tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotdan olingan pul tushumi nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashi, balki foyda olishni ham ta'minlashi kerak. Foyda – tadbirkorlik faoliyatining mazmunini anglatadigan, uni harakatga keltiruvchi omildir. Ammo bu maqsadga erishish ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita bog'liq. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etish iqtisodiy tahlilning muhim bo'g'ini hisoblanadi.

3. Tadbirkor korxona xarajatlari va foydasiga turlicha yondashadi. Muayyan xarajatlar doirasida foyda olishning eng yaxshi imkoniyatlarini ta'minlashi kerak. Muayyan foyda doirasida esa xarajatlarni shunday optimal darajaga keltirish kerakki, bunda ishlab chiqarishni moliyalashtirish ko'p sarf talab etmasin.

4. Korxona umumiy xarajatlari ikkiga bo'linadi: ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlari mahsu-

lotni yaratish uchun sarflanadigan xarajatlardir. Ushbu xarajatlar xomashyo, yoqilg'i, energiya, ishchi kuchi, amortizatsiya va boshqalarga sarflanadi. Muomala xarajatlari tovarlarni realizatsiya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan sarflardir. Ular sof muomala va qo'shimcha muomala xarajatlariga bo'linadi. Sof muomala xarajatlari foyda hisobidan qoplansa, qo'shimcha muomala xarajatlari esa tovar narxiga kiritiladi.

5. Korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalanadigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlar korxona ishlab chiqarish jarayonida zarur bo'lib, tashqaridan jalb qilingan resurs va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishi uchun sarflanadigan xarajatlardir. Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozor narxlariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

6. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etish darajasiga qarab doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar ham farqlanadi. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (qisqarishi yoki ortishi) ta'sir etmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchi hajmida ham mavjud bo'ladi. O'zgaruvchi xarajatlar deb ishlab chiqariladigan tovar miqdorining oshishiga yoki kamayishiga bevosita ta'sir qiladigan xarajatlarga aytiladi. Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi.

7. Korxona ishlab chiqarish hajmini o'stirish uchun qisqa muddatli davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin. Boshqacha aytganda, qisqa muddatli davr oralig'ida korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari o'zgarishsiz qoladi, ishlab chiqarish hajmi jonli mehnat, xom ashyo va boshqa resurslar miqdorini ko'paytirish orqali o'zgarishi mumkin. Bunda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish intensivligini oshirish mumkin.

8. Qisqa muddatli davr – bu korxonaning faqat o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirish uchun taqozo etiladigan davrdir. Uzoq muddatli davr – bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini va butun band bo'lgan resurslari miqdorini o'zgartirish uchun yetarli bo'lgan davrdir. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishini taqozo qiladigan davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxona xususiyatidan kelib chiqib farqlanish mumkin.

9. Korxona pul daromadlaridan sarflangan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda yoki iqtisodiy foyda deb yuritiladi. Tovar va xizmatlar sotilganda ularning umumiy qiymati pul daromadlariga, undagi qo'shimcha mahsulot esa foydaga aylanadi. Bundan ko'rinib turibdiki foydaning haqiqiy manbai qo'shimcha mahsulotdir.

10. Korxonaning umumiy foydasidan byudjetga (asosan soliq to'lovlari), banklarga (olingan ssuda uchun foiz) to'lovlar va boshqa majburiyatlar chiqarib tashlansa korxona sof foydasi qoladi. Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlari chiqarib tashlanishi natijasida aniqlanadi. Shu sababli buxgalteriya foydasi iqtisodiy foydadan ichki xarajatlar miqdoriga nisbatan ko'proqdir. Bunda ichki xarajatlar har doim o'z ichiga normal foydani ham oladi.

11. Foydaning o'sishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgarmagan holda ikki yo'l bilan: yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga, yoki narxning oshishi hisobiga erishish mumkin.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ishlab chiqarish xarajatlari – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar.

Ichki xarajatlar – korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanish natijasida vujudga keladigan xarajatlar.

Tashqi xarajatlar – tashqaridan jalb qilingan resurslarga to'lovlarni amalga oshirishga ketgan xarajatlar.

Doimiy xarajat – ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etmaydigan, u o'zgarganda ham miqdorini o'zgartirmaydigan xarajatlar.

O‘zgaruvchi xarajat – ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta’sir etadigan xarajatlar.

O‘rtacha xarajatlar – mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar.

Qo‘shilgan xarajatlar – mahsulotning navbatdagi qo‘shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar.

To‘g‘ri xarajatlar – mahsulot tannarxiga bevosita qo‘shilib, uning tarkibiga kiradigan xarajatlar.

Egri xarajat – mahsulot tannarxiga ustama bo‘lib, narxda aks etadigan xarajatlar.

Iqtisodiy yoki sof foyda – yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

Foyda normasi – foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga bo‘lgan nisbatining foizdagi ifodasi.

Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlarining mohiyatini va tarkibini tushuntiring.

2. Ichki va tashqi xarajatlar o‘rtasidagi farq nimadan iboratligini misol orqali tushuntiring.

3. O‘rtacha doimiy, o‘zgaruvchi va umumiy xarajatlarning mazmuni hamda ularning ahamiyatini tushuntirib bering.

6. Foydaning mazmuni va manbaini tushuntiring.

7. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqi nimada? Ularning shakllanish tartibini tushuntirib bering.

8. Yalpi foydaning taqsimlanish tartibini tushuntirib bering. Mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllarining turliligi foydaning taqsimlanish tartibiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

9. Foyda massasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni izohlab bering.

10. Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi quyidagi o‘zgarishlardan qaysilari uzoq muddatli davrdagi xarajatlarga kiradi:

a) kompaniya neftni qayta ishlovchi yangi uskunani o‘rnatadi;

b) korxona yana 200 ishchini yollaydi;

v) fermer o‘z uchastkasida qo‘llaniladigan o‘g‘it miqdorini ko‘paytiradi;

g) fabrikada uchinchi smena joriy qilinadi.

11. Sarflarning quyidagi turlari xarajatlarning qaysi turkumiga tegishli ekanligini aniqlang: mahsulot reklamasiga sarflar, korxona chiqargan zayomlar bo'yicha foiz to'lovlari; xom-ashyoga sarflar, ko'chmas mulkka soliq to'lovlari, boshqaruv xodimlari maoshi; ishchilarga ish haqi to'lovlari; amortizatsiya ajratmasi.

12. Quyidagi keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib foyda normasini har ikkala usulda hisoblang: umumiy foyda – 250 ming so'm; ishlab chiqarish xarajatlari – 1250 ming so'm; avanslangan mablag'lar (asosiy va aylanma kapital) – 2500 ming so'm.

Natijalarni taqqoslab, izohlab bering.

12-BOB. ISH HAQI VA MEHNAT MUNOSABATLARI

Mamlakatda Yaratilgan milliy mahsulotning taqsimlanish tamoyillari, shakllari, usullari muhim ahamiyat kasb etib, ulardan amalda foydalanish masalalari iqtisodchi-mutaxassislar o'rtasida turli tortishuv, bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Aytiqsa, kishilarning hayot kechirishi va turmush darajasini aniqlab beruvchi daromadlarning asosiy turi bo'lgan ish haqini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bobda ish haqining iqtisodiy tabiati bilan bog'liq muammolar, ish haqi shakllari va bozor munosabatlari sharoitida uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ish haqi stavkasini tabaqalashtirish masalalari, shuningdek, mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va ularni shakllantirishda turli shartnomalarning va kasaba uyushmalarining roliga alohida o'rin beriladi.

12.1. Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari

Ish haqining mazmunini to'g'ri tushunib olish uchun eng avvalo Yaratilgan jami mahsulotning taqsimlanish tartibi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish lozim. Mamlakatda ishlab chiqarilgan jami mahsulotning (tovar va xizmatlarning) taqsimlanish tamoyillari bo'yicha turlicha nazariyalar mavjud. Bozor iqtisodiyotiga doir adabiyotlarning ko'pchiligida «uch omil» deb nomlanuvchi nazariya keng tarqalgan. Bu nazariyaning asoschilaridan biri fransuz olimi J.B.Sey **«ishlab chiqarishning uch omili»** degan g'oyani ilgari surib, unda tovarlarni ishlab chiqarishda mehnat, yer va kapital bab-baravar qatnashadi, ular hamma daromadlar manbaidir va binobarin daromadlar ham shu omillar o'rtasida taqsimlanadi, deb ko'rsatadi. Uning bu g'oyasi amerikalik iqtisodchi olim J.B.Klarkning **qo'shilgan omil (so'nggi qo'shilgan kapital yoki ishchi kuchi) unumdorligi** degan g'oyasiga asos bo'lib xizmat qiladi. Klark o'zining «Boyliklarning taqsimlanishi» nomli asarida Yaratilgan boylik uchala omil o'rtasida ularning har biri yaratgan mahsulot miqdoriga (ya'ni unumdorligiga) qarab taqsimlanadi, deb ko'rsatdi.

Sey va Klark g'oyalarining ijobiy tomoni quyidagilardan iborat:

a) kapital, yer va ishchi kuchi (jonli mehnat) ning har uchalasi tovar yoki xizmatning nafliligini yaratishda qatnashishi ko'rsatiladi;

b) Yaratilgan naflilik miqdori bilan bu uchala omilning miqdori va unumdorligi o'rtasida bog'liqlik mavjudligi, agar bu uchala omil bir-biriga mos ravishda miqdor va sifat jihatidan oshsa, tovarlar va xizmatlar hajmi ham ko'payishi asoslanadi.

Ammo bu g'oyalarning kamchiligi ham mavjud bo'lib, ular hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitiga to'g'ri kelmaydi.

1. Sey va Klark iqtisodiyot nazariyasi hali yetarli darajada rivojlanmagan davrda yashab, ijod etganliklari uchun, tovar va xizmatlarda gavdalangan mehnatning ikki yoqlama tavsifini va undan kelib chiquvchi tovarning ikki xil xususiyatini tushunmaganliklari tufayli, kapital va yer tovar nafliligini yaratishda passiv ravishda qatnashsada, qiymat yaratmasliklarini, ular faqat eskirishiga teng, ya'ni amortizatsiya ajratmalariga teng qiymatni yangi tovarga jonli mehnat ta'sirida o'tkazishini, yangi qiymat esa faqat jonli mehnat tomonidan yaratilishini tushunib yeta olmaydilar va binobarin ko'rsatib berolmaganlar.

2. Klark tomonidan Yaratilgan qo'shilgan mehnat unumdorligining kamayib borish qonuni turli omillarning bir-biriga mosligi ta'minlanmagan, ko'r-ko'rona xarajatlar oshirib borilgan hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti mutlaqo to'xtab qolgan davrga (holatga) mos kelib, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitiga to'g'ri kelmaydi.

3. Sey va Klark aytganlaridek, hozirgi davrda Yaratilgan boylik, to'g'rirog'i milliy mahsulotning hammasi bu uchala omilning miqdori va unumdorligiga qarab taqsimlanmaydi, balki uning amortizatsiya ajratmalari, markazlashgan fondlar tashkil qilingandan keyin qolgan qismi shu omillarga qarab uning egalari o'rtasida taqsimlanadi.

Sey va Klarklardan tashqari ayrim oqimlar, masalan lassalchilar mehnat hamma boylikning va madaniyatning manbaidir, shuning uchun hamma daromad jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlanishi zarur, deb ko'rsatadilar. Lassalchilar, birinchidan, boylik faqatgina

mehnatning natijasi bo'lmasdan, uni yaratishda yer (tabiat resurslari) va kapital ham qatnashishini, ya'ni uning nafliligi har uchala omil natijasi ekanligini tushuna olmadilar. Ikkinchidan, ularning Yaratilgan mahsulotni barcha jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlash zarur degan g'oyalari mutlaqo noto'g'ri bo'lib, bunday holatda mahsulotni ko'paytirishga ishlab chiqaruvchilar o'rtasida hech qanday qiziqish bo'lmasligi o'z-o'zidan tushunarlidir. Keyinchalik sobiq sotsialistik mamlakatlarda, jumladan sobiq Sovet Ittifoqida mahsulot va daromadlar davlat qo'lida bo'lib, mehnatning miqdori va sifatiga qarab taqsimlanadi degan g'oya hukmron bo'ldi. Lekin bu g'oya va uning talablari amalda bajarilmadi.

Mana shu yuqoridagi aytilgan nazariy fikrlar va amaliy tajribalarni hamda hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablarini hisobga olib, Yaratilgan mahsulotni taqsimlashning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ko'rsatishga harakat qilamiz:

a) umuman olganda mahsulotni, binobarin daromadlarni taqsimlash ham doim bir xil bo'lmay, balki shu davrda amal qilib turgan iqtisodiy munosabatlar tizimiga, jumladan mulkchilik munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoitlari, ya'ni kapitalga mulkchilikning turli shakllari, yerga esa davlat mulki mavjud bo'lgan sharoitda Yaratilgan milliy mahsulot mulk egalari (davlat, jamoa, xususiy, shaxsiy) va ishchi kuchining egasi bo'lgan ishchi-xizmatchilar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda daromadlarning bir qismi albatta umumjamiyat umumdavlat manfaatlarini ko'zlab ish olib boruvchi davlat ixtiyoriga kelib tushadi;

b) milliy mahsulotdan eng avvalo shu mahsulotni yaratishda qatnashgan ishlab chiqarish vositalarining qiymati, aniqrog'i, takror ishlab chiqarishni o'z maromida olib borish uchun amortizatsiya va sarflangan boshqa moddiy vositalar summasi ajratib qo'yiladi, chunki bu summa asosiy ishlab chiqarish vositalarini (asosiy kapitalni) qayta tiklash uchun zarurdir;

v) undan keyin turli xil tabiiy ofat va favqulodda hodisalarning ta'sirini bartaraf qilish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni bir maromda to'xtovsiz amalga oshirishni kafolatlash uchun sug'urta fondlari, qariyalar, bolalar, nogironlar va turli boshqa kam ta'minlangan

oilalarni himoya qilish uchun nafaqa hamda ijtimoiy himoya fondlariga ajratiladi;

g) davlatni boshqarish, mamlakat mudofaasini mustahkamlash, aholining tinch hayotini va mehnatini qo'riqlash, mamlakat miqyosida fan-madaniyatni, ta'lim tizimini, sog'liqni saqlashni rivojlantirish uchun fondlar ajratiladi (bu ajratmalar ko'pdan-ko'p davlat soliqlari tarzida amalga oshirilib, davlat byudjetiga tushuriladi va u yerda qayta taqsimlanib turli yo'nalishlar xarajatiga yo'naltiriladi).

Yalpi ichki mahsulotning yuqorida aytilganlardan qolgan qismi hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital, yer egalari va ishchi kuchi egalari o'rtasida belgilangan tartib qoidalar asosida taqsimlanadi va jamiyat a'zolarining ixtiyoriga kelib tushadi. Chunki bu jarayon natijasida ishlab chiqarishda qatnashgan ishchi kuchi egasi va boshqa omillar egalari – mulkdorlarning mahsulotdagi ulushi aniqlanadi hamda ularning omilli daromadlari sifatida shakllanadi. Bu ish haqi, foiz, renta va foyda shaklidagi daromad turlari ko'rinishini oladi.

12.2. Ish haqining iqtisodiy mazmuni

Yaratilgan yalpi ichki mahsulotning ma'lum qismi, ya'ni ishchi va xizmatchilarga, ya'ni ishchi kuchiga tegishli qismi uning ishlab chiqaruvchilari o'rtasida mehnatning miqdori, sifati va unumdorligiga qarab taqsimlanadi, bu iqtisodiy adabiyotlar va hujjatlarda ish haqi deb yuritiladi. Ish haqi hozirgi davrda barcha mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham iqtisodchi olimlar ish haqining mazmuniga katta e'tibor beradilar. Ish haqining mazmunini aniqlashda turli iqtisodchilar turli tomondan yondashib, unga har xil ta'rif beradilar.

Masalan, D.Rikardo va T.Maltuslarning «Yashash uchun vosita minimumi» konsepsiyasida ish haqini **yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi** bilan bir xil deb hisoblanadi. Lekin bunday qarash to'g'ri emas. Bu minimum o'z ichiga ishchi kuchi shakllanadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar tug'dirgan ehtiyojlarni ham oladi. Shu bilan birga ishchi kuchi narxining quyi chegarasini yashash uchun zarur vositalar miqdorining minimumi bi-

lan aniqlash, ishga yollovchilarning ish haqini mazkur quyi chegaradan pasaytirishga intilishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning xo'jalik amaliyotidagi ish haqining darajasini kuzatish shuni ko'rsatadiki, ishchi kuchi bozorida real ish haqining o'rtacha darajasi yashash uchun zarur jismoniy vositalar minimumiga qaraganda ancha yuqori darajada o'rnatilgan.

Qiymatning mehnat nazariyasi (ingliz klassik siyosiy iqtisod maktabi, marksistik yo'nalishidagi iqtisodchilar) ishchi kuchini alohida, o'ziga xos tovar deb hisoblaydi. Shu sababli bu nazariya ish haqiga **tovar bo'lgan ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli, ya'ni uning puldagi ifodasi** sifatida qaraydi va uni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari qiymati sifatida aniqlaydi. Mazkur g'oya tarafdorlari ishchi kuchi qiymatiga bir qator omillar, avvalo tabiiy shart-sharoitlar, aholining madaniy rivojlanishi, ularning malakasi va ishchi oilasini saqlash hamda ularning tabiiy takror ishlab chiqarish sharoitlari ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga bu g'oyada hayotiy ehtiyojlar hamda ularning qondirilish usullari mamlakatning ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida erishilgan darajaga bog'liqligi ta'kidlanadi. Bu fikrlar hozirgi davrda ham ko'pgina ko'zga ko'ringan iqtisodchi olimlar tomonidan ma'qullanib kelinmoqda. Masalan, A.F.Shishkin, E.F.Borisovlar o'zlarining «Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida ish haqini ishchi kuchi tovar qiymatining puldagi ifodasi deb ta'riflaydilar[76]. Bu mualliflar o'z fikrlarini asoslashda ko'pgina olimlar mehnat jarayoni bilan ishchi kuchining farqiga bormaganligini, shu sababli bozorda mehnat sotiladi deb fikr yuritishini tanqid qilib, bozorda mehnat emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotilishini, bu jarayon yuzaki qaralganda mehnatga haq to'lashga o'xshab ko'rinishini isbotlashga harakat qilganlar. Lekin ish haqiga «ishchi kuchi qiymatining puldagi ifodasi» sifatida qarash, aniq ishchi kuchi bozorida ish haqi darajasiga uning unumdorligi, mehnat intensivligi, talab va taklif kabi omillarning ta'sirini yetarli hisobga olmaydi.

---

[76] Борисов Е.Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. – 544 с.; Шишкин А. Ф. «Экономическая теория», учебник, книга 2, М. изд-ва «Владос», 1996, 154 с.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasida ayrim mualliflar (jumladan, «Ekonomiks» darsliklarida, V.D.Kamayev rahbarligida nashr etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligi va boshqalarda)[77] ish haqini **mehnat narxi** sifatida, ayrimlari esa[78] **mehnat bozoridagi talab va taklifning muvozanat narxi** sifatida talqin etadilar. Bunda ular asosan bozorda mehnat sotiladi degan bizningcha noto‘g‘ri tushunchaga asoslanishadi. Mehnat ishchi kuchining funksiya qilishi, uning ma’lum maqsadga qaratilgan faoliyat jarayoni bo‘lib, uning na qiymati, na narxi yo‘qligi, bu jarayonni bozorga olib chiqib sotib bo‘lmasligi fanda ham, real hayotda ham, iqtisodiy amaliyotda ham hammaga ayon bo‘lgan va allaqachon isbotlangan masaladir. Shuning uchun buni isbotlashga harakat qilmasak ham bo‘ladi. Lekin bu g‘oyaning negizida bir ijobiy tomon borki, uni albatta hisobga olish zarur. Bu ham bo‘lsa ular mehnatni ishchining malakasi, intensivligi va natijasi bilan bog‘lashga harakat qilganlar. Ish haqining mazmuni to‘g‘risidagi turli nazariyalarni, (turli mamlakatlardagi va o‘z mamlakatimizdagi amaliyotni) umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Ish haqi to‘g‘risidagi nazariyalarda unga bir tomonlama yondashish xususiyati mavjud bo‘lib, uning murakkab va ko‘p qirrali iqtisodiy jarayon ekanligi ma’lum darajada e’tibordan chetda qolgan. Lekin bu nazariyalarning har birida ish haqining u yoki bu tomoniga to‘g‘ri baho berilgan bo‘lib, ularda foydalanish mumkin bo‘lgan ijobiy mazmun mavjuddir.

2. Ish haqining umumiy darajasi har doim har bir mamlakatda iqtisodiyotning erishgan darajasiga, ya’ni umumiy mehnat unumdorligi, milliy mahsulot hajmi, uning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Chunki shu mahsulotlarning bir qismi

[77] Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. Т.2. – М.: Республика, 1992, 156-б.; Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений/ Под ред. В.Д.Камаева. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2004, 175-б.

[78] Курс экономической теории. Учеб. пособ. под ред. Чепурина М.Н., Киселевой Е.А. Киров, изд-во «АСА», 1995, 233-б.; Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi». 2002, 227-b.

mehnatning miqdori va sifatiga qarab taqsimlanadi. Shuning uchun ham u turli mamlakatlarda turli miqdorlarda bo'ladi.

3. Ish haqining miqdori ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga, ishchining o'zini, oila a'zolarini boqishga yetadigan darajada bo'lishi lozim.

4. Ish haqining miqdori va darajasi ishchi kuchining malakasi, uning mehnati unumdorligi bilan bog'liq bo'ladi.

5. Ish haqining darajasi har bir firma yoki korxonada ishlab chiqarishning erishgan darajasi bilan, ya'ni ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi va bir ishchiga to'g'ri kelgan miqdori bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham u mehnat miqdori, malakasi bir xil bo'lsa-da, turli korxonalarda turlicha miqdorda bo'lishi mumkin.

Ushbu xulosalardan keyin ish haqining mazmuniga ta'rif berib aytish mumkinki, **ish haqi – ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir.**

Ish haqi ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan zaruriy mahsulot bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki ish haqi uning asosiy qismini tashkil etadi.

Ish haqining asosiy vazifasi ishchi va xizmatchilarning turmush va mehnat sharoitini yaxshilash, boshqacha qilib aytganda, mehnat me'yori bilan iste'mol me'yori o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashdan iboratdir.

Albatta ishchi kuchini takror hosil qilishda ish haqidan tashqari foiz, renta, foyda, dividend, turli imtiyozlar va nafaqalarning ham roli bor. Ish haqining mazmunini to'laroq tushunish uchun nominal va real ish haqi tushunchalarini bilish zarur.

Ishchi uchun qanday shaklda va qancha miqdorda ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi muhim. Shu sababli nominal va real ish haqi farqlanadi. **Nominal ish haqi – bu ma'lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish haqi.** Misol uchun, mexanika zavodi ishchisi yanvar oyida 200 ming so'm, fevral oyida 190 ming so'm, mart oyida 220 ming so'm ish haqi oldi. Bular nominal ish haqi hisoblanadi.

Real ish haqi – bu nominal ish haqi summasining qanchalik tovarlar va xizmatlar miqdorini sotib olishga yetadigan quvvatidir. Boshqacha aytganda real ish haqi – bu nominal ish haqining «xarid qilish» qobiliyatidir. O'z-o'zidan aniqki, real ish haqi nominal ish haqi miqdoriga va xarid qilinadigan tovarlar (va xizmatlar) narxiga bog'liq. Shunday ekan, real ish haqi boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda, nominal ish haqiga to'g'ri mutanosibdir va iste'mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir. Bu miqdorlar nisbatini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$V_p = \frac{V_n}{P},$$

bu yerda: V_p – real ish haqi; V_n – nominal ish haqi; R – iste'mol buyumlari va xizmatlarning narx darajasi.

Bizning misolimizda ishchining nominal ish haqi yanvar oyiga nisbatan fevral oyida 95 foizni, mart oyida 110 foizni tashkil etgan edi. Real ish haqi darajasining o'zgarishini aniqlash uchun esa iste'mol buyumlari va xizmatlarning narx darajasi to'g'risida ma'lumot zarur bo'ladi. Aytaylik, narx darajasi yanvar oyiga nisbatan fevralda 1,08, mart oyida esa 1,2 baravar oshgan bo'lsin. U holda ishchining real ish haqi fevral oyida 176 ming so'mni, mart oyida esa 183 ming so'mni tashkil etadi. Ya'ni, ishchining real ish haqi yanvar oyiga nisbatan fevral oyida 88 foiz, mart oyida 91,5 foiz darajasida bo'ladi.

Real ish haqi darajasiga tovarlar va xizmatlar narxidan tashqari belgilangan soliqlar miqdori va boshqa turli sharoitlar ham ta'sir qiladi. Masalan, soliq turlari va miqdori qancha ko'p bo'lsa real ish haqi shuncha pasayadi, yoki aksincha.

Nominal ish haqi ishchining ishlab topgan pul daromadi darajasini, real ish haqi esa uning iste'moli va farovonlik darajasini tavsiflaydi.

Ish haqi aholi daromadlarining asosiy tarkibiy qismlaridan birini tashkil qilib, u istiqbolda ham o'zining yetakchi rolini saqlab qoladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida keyingi yillardagi o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdorlarining o'sishini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rish mumkin (12.1-jadval).

Birinchi Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizdagi real ish haqini oshirish masalalari ilgari surilib, real ish haqining oshishi – bu iqtisodiyotning qanday sur'atlarda rivojlanayotganini, mamlakatning moliyaviy ahvoli mustahkamlanayotganini, mutanosib monetar siyosat qanday ta'minlanayotganini yaqqol aks ettiradigan o'ziga xos ko'zgu va ko'rsatkichdir, deb ta'riflanadi.

12.1-jadval

O'zbekistonda o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi[79]

Yillar	Davrning so'nggi oyidagi o'rtacha nominal ish haqi miqdori, so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish, marta
2005	108609,9	1,72
2006	183940,1	1,69
2007	270575,9	1,47
2008	418126,5	1,54
...	...	...
2012	1056600	2,58
2013	1203100	1,21
2014	1366900	1,14
2015	1549600	1,13

Mamlakatimizda ish haqi darajasining oshib borishi hisobiga ishlayotgan har bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqi darajasi ham oshib bormoqda (12.2-jadval). Bu esa aholi daromadlarining yildan yilga oshib borayotganligidan dalolat beradi.

*Xususiy tadbirkorlik va qishloq xo'jaligini hisobga olmagan holda

"2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz **aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun** mustahkam asos yaratdi.

---

[79] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi"[80].

12.2-jadval.

Mamlakatimizda bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqining darajasi[81]

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015
Respublika bo'yicha jami*	**1078,4**	**1203,1**	**1366,9**	**1549,6**
Sanoat	1599,7	1907,1	2183,9	2456,1
Qurilish	1510,9	1853,3	1988,8	2217,5
Transport va aloqa	1496,5	1649,1	1855,4	2034,5
Savdo va umumiy ovqatlanish	1436,1	1642,3	1804,0	1950,7
Uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning noishlab chiqarish turlari	889,2	1047,2	1272,1	1515,5
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va ijtimoiy ta'minot	827,1	851,7	958,3	1100,0
Ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish	919,9	935,7	1057,2	1220,5
Moliya, kreditlash va sug'urtalash	1213,6	1838,3	2164,3	2627,8
Boshqalar	706,5	881,1	1073,4	1188,8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2012-yilda Respublikamizda o'rtacha ish haqi darajasi 1078,4 ming so'mni tashkil qilib, shundan sanoat

[80] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so'zi, 2016-yil 15-yanvar.

[81] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

(1599,7 ming so‘m), qurilish (1510,9 ming so‘m), transport va aloqa (1496,5 ming so‘m), savdo va umumiy ovqatlanish (1436,1 ming so‘m) va moliya kreditlash va sug‘urta (1213,6 ming so‘m) tarmoqlarida o‘rtacha ish haqi darajasidan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, boshqa tarmoq va sohalar Respublikamiz o‘rtacha ish haqi darajasidan past bo‘lgan. 2015-yilda bu ko‘rsatkichlar Respublika bo‘yicha o‘rtacha ish haqi darajasi 1549,6 ming so‘mni tashkil qildi, shundan sanoat (2456,1 ming so‘m), qurilish (2217,5 ming so‘m), transport va aloqa (2034,5 ming so‘m), savdo va umumiy ovqatlanish (1950,7 ming so‘m), moliya kreditlash va sug‘urta (2627,8 ming so‘m) tarmoqlaridagi ish haqi darajasi respublika o‘rtacha ish haqi darajasidan yuqori qo‘rsatkichga ega bo‘lib, boshqa tarmoqlarda esa bu ko‘rsatkich respublika o‘rtacha ish haqi darajasidan kam bo‘ldi.

12.3. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari

Ishlab chiqarishning texnik asoslari, ishchilar mehnatining mazmuni, ularga bilim berish va kasb-hunarga o‘rgatish borasidagi o‘zgarishlar munosabati bilan ish haqi shakli va tizimlari ham o‘zgarib boradi. Ish haqini tashkil etishda uning ikkita asosiy shakli – vaqtbay va ishbay shakllari farqlanadi. **Vaqtbay ish haqi xodimning malakasi, mehnatining sifati va ishlagan vaqtiga qarab to‘lanadigan ish haqidir.** U odatda mehnatning natijalarini miqdoran aniq hisoblab bo‘lmaydigan, balki ular muayyan vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda (masalan, injener-texnik xodimlar va xizmatchilar, sozlovchilar, elektromontyorlar va shu kabilarga haq to‘lashda) yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog‘liq bo‘lmagan paytlarda (masalan, konveyyerlar va avtomat liniyalarida ishlash) qo‘llaniladi. **Ishbay ish haqi ishchining ishlab chiqargan mahsulot miqdori va sifati yoki bajargan ishining hajmiga qarab to‘lanadigan ish haqidir.** Mahsulot birligi uchun to‘lanadigan ish haqi miqdori tarif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish me’yoriga taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Ish haqi tizimi o‘z ichiga haq to‘lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari majmuini oladi. Jumladan:

- to‘g‘ri ishbay haq to‘lash tizimi;
- ishbay-mukofotli haq to‘lash tizimi;
- ishbay-progressiv haq to‘lash tizimi.

To‘g‘ri ishbay haq to‘lash tizimida ishlab chiqarish me’yori qay darajada bajarilishidan qat’iy nazar, ish haqi yagona mahsulot birligi uchun belgilangan tarif bo‘yicha to‘lanadi. **Ishbay-mukofotli haq to‘lash tizimi** bir qancha ko‘rsatkichlar, masalan, reja topshirig‘idan ortiqcha hajmda ishlab chiqarilganligi, yuqori sifat darajasi ta’minlanganligi va boshqalar uchun mukofot berishni nazarda tutadi. **Ishbay-progressiv haq to‘lash tizimida** ishchining belgilab qo‘yilgan me’yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif bo‘yicha ish haqi beriladi, me’yordan yuqorisiga esa oshirilgan haq (tarif) bo‘yicha pul to‘lanadi. Ishbay ish haqi tizimida yakka tartibdagi, jamoa va ijara pudratida qo‘llaniladigan mehnatga haq to‘lash farqlanadi. Bunda olingan tayyor mahsulot uchun uning sifati va ishlab chiqarish chiqimlarini hisobga olib haq to‘lanadi. Haq to‘lashning jamoa shaklida ish haqi brigada, sex va boshqa bo‘linmaning pirovard mehnat natijalariga bog‘liq qilib qo‘yiladi. Bunda har bir xodim faqat o‘ziga berilgan shaxsiy topshiriqlargagina emas, balki shu bilan birga bo‘linmaning butun ish hajmini ham bajarishdan manfaatdor bo‘ladi.

Ishchilarning ish haqini tabaqalashtirish eng avvalo davlat tarif tizimi yordamida amalga oshiriladi. **Tarif tizimi – tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo‘yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasini tartibga solib turuvchi me’yorlar majmui.**

Tarif tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
- tarif-malaka ma’lumotnomalari;
- tarif stavkalari;
- tarif setkalari;
- ish haqiga nisbatan qo‘llaniluvchi turli koeffitsientlar.

Tarif-malaka ma’lumotnomalari ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil tavsifi, u yoki bu aniq ishni bajaruvchining bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablardan iborat bo‘lib, ularda muay-

yan ishni tariflash uchun qo'yiladigan razryadlar ham ko'rsatiladi.

Tarif setkasida razryadlardan tashqari tarif koeffitsientlari ham bo'lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to'lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to'lashning o'zaro nisbatini ko'rsatadi (birinchi razryadning tarif koeffitsienti hamma vaqt birga teng bo'ladi).

Tarif stavkalari tegishli razryadga ega bo'lgan ishchining mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilab beradi.

Mehnat qilish sharoiti og'ir va zararli bo'lgan ishchilarga tarif stavkasiga **qo'shimcha haqlar** belgilanadi. Tarif stavkalariga ustamalar shaklidagi haq (razryadlar bo'yicha farqlantirilgan) kasbiy mahorat uchun belgilanadi.

Alohida tarmoqning iqtisodiyotdagi ahamiyatiga qarab amalda ish haqini va mansab maoshlarini farqlantirish ishlari amalga oshiriladi. Bunda mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yetakchi tarmoqlarga tajribali, malakali kadrlarni jalb etish, bu tarmoqlarda ishchi va xizmatchilar tarkibi barqaror bo'lishini ta'minlaydigan sharoitlarni vujudga keltirish maqsadi ko'zlanadi.

Respublikamizda ham tarif tizimi orqali ish haqi tabaqalashtirilib, turli kasblar va ish turlari uchun ish haqi to'lashning yagona razryadlari aniqlangan. Narxlar o'sishi bilan minimal ish haqi darajasi (1-razryad) hamda barcha razryadlar ular o'rtasidagi nisbat saqlangan holda oshirib boriladi. Masalan oxirgi o'zgarish, 2016-yilning 1-oktyabridan boshlab Respublikamizda ish haqining minimal darajasi oyiga 149775 so'm qilib belgilanib, boshqa razryadlarga to'g'ri keladigan ish haqi summasi ham shunga mos ravishda oshiriladi (12.3-jadval).

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilarining moddiy va ijtimoiy ta'minotini tubdan takomillashtirishga harakat qilinmoq-da. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning strategik yo'nalishlariga bag'ishlangan Farmonida[82] - aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam

[82] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 1-ilova, 4.1-bandi.

ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

- byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish kabi vazifalar belgilangan.

12.3-jadval.

Yurtimizdagi eng kam oylik ish haqi miqdorining o'sishi[83]

Qachondan	Miqdori	Prezident Farmoni
01.08.2010 dan	**45 215 so'm** 1,2 baravar oshirildi	09.07.2010 PF-4224-son
01.12.2010 dan	**49 735 so'm** 1,1 baravar oshirildi	15.11.2010 PF-4253-son
01.08.2011 dan	**57 200 so'm** 1,15 baravar oshirildi	07.07.2011 PF-4332-son
01.12.2011 dan	**62 920 so'm** 1,1 baravar oshirildi	03.11.2011 PF-4377-son
01.08.2012 dan	**72 355 so'm** 1,15 baravar oshirildi	05.07.2012 PF-4450-son
01.12.2012 dan	**79 590 so'm** 1,1 baravar oshirildi	09.11.2012 PF-4482-son
15.08.2013 dan	**91 530 so'm** 1,15 baravar oshirildi	11.07.2013 PF-4547-son
15.12.2013 dan	**96 105 so'm** 1,05 baravar oshirildi	02.12.2013 PF-4582-son
01.09.2014 dan	**107 635 so'm** 1,12 baravar oshirildi	31.07.2014 PF-4639-son
15.12.2014 dan	**118 400 so'm** 1,1 baravar oshirildi	21.11.2014 PF-4672-son
01.08.2015 dan	**130240 so'm** 1,1 baravar oshirildi	26.08.2015 PF-4751-son
01.10.2016 dan	**149775 so'm** 1,15 baravar oshirildi	22.09.2016 PF-4875-son

[83] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

12.4. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli

Mehnat munosabatlari – ish beruvchilar va yollanma ishchilar o'rtasidagi mehnat sharoitlari va mehnatga haq to'lash bo'yicha munosabatlardir.

Ishga yollash bo'yicha korxona ma'muriyati va ishchilar o'rtasidagi munosabat mehnat shartnomalari yordamida shakllanadi. **Mehnat shartnomalari – korxona ma'muriyati va ishchilar o'rtasidagi ishga yollash bo'yicha munosabatni namoyon etuvchi va tartibga soluvchi huquqiy hujjat.** Mehnat shartnomalari avvalo ish haqi stavkasi, me'yordan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka, dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va sog'liqni saqlashga ajratmalar hamda narxlarning o'zgarishini hisobga olib iste'mol savati qiymatini tartibga solish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Keyin mehnat sharoiti masalalari qarab chiqiladi. Nihoyat, qator tashkiliy masalalar hal qilinadi. Odatda kelishuv bir necha yilga (asosan uch yilga) tuziladi. Ayrim hollarda davlat ham korxona ma'muriyati va ishchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga, masalan, ish tashlash masalalariga tegishli munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo ish tashlash huquqi «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqidagi xalqaro pakt»da mustahkamlangan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklar jumlasiga kiradi.

Ko'pchilik mamlakatlarda mehnat munosabatlarining rivojlanishida bosh masala ishsizlikni ijtimoiy kafolatlashga, ishlovchilarning mehnat sharoitini yaxshilash va ish haqini oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar hisoblanadi. Bu muammolarni hal qilishda asosiy rol kasaba uyushmalariga tegishli bo'ladi. Aksariyat ishchi kuchi bozorlarida ishchilar o'zlarining ishchi kuchini kasaba uyushmalari orqali jamoa bo'lib «sotadilar». Kasaba uyushmalari nisbatan ko'p sonli ishga yollovchilar bilan muzokaralar olib boradi va ularning asosiy iqtisodiy vazifasi ish haqini oshirishdan iborat bo'ladi. Kasaba uyushmalari bu maqsadga turli xil yo'llar bilan erishishi mumkin.

1. Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish. Kasaba uyushmalar nuqtai nazaridan ish haqini oshirishning eng qulay usuli ishchi kuchi-

ga bo'lgan talabni kengaytirish hisoblanadi. Ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi natijasida ish haqi stavkasi ham, ishchi o'rinlari soni ham ortadi. Kasaba uyushmalari bu talabni belgilovchi bir yoki bir necha omillarni o'zgartirish yo'li bilan ishchi kuchiga bo'lgan talabni ko'paytirishlari mumkin. Xususan, ular quyidagilarga erishishga harakat qiladilar: 1) ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatga talabni oshirish; 2) mehnat unumdorligini oshirish; 3) ishchi kuchi bilan birgalikda foydalanadigan boshqa ishlab chiqarish omillari narxlarini o'zgartirish.

2. Ishchi kuchi taklifini qisqartirish. Kasaba uyushmalari ishchi kuchi taklifini qisqartirish yo'li bilan ish haqi stavkasini oshirishlari mumkin. Bunga quyidagi yo'llar bilan erishiladi: a) immigratsiyani cheklash; b) bolalar mehnatini qisqartirish; v) pensiyaga muddatida chiqishni qo'llab-quvvatlash; g) ish haftasini qisqartirishga yordam berish.

Bulardan tashqari kasaba uyushmalari tadbirkorlarni o'z a'zolarini ishga yollashga majbur qilib, ishchi kuchi taklifi ustidan to'liq nazorat o'rnatadi. Kasaba uyushmalari o'z a'zolari sonini qisqartirish siyosati orqali (masalan, uzoq muddatli o'qitish, yangi a'zolarni qabul qilishni cheklash yoki taqiqlash) ishchi kuchi taklifini sun'iy ravishda qisqartiradi. Bu, o'z navbatida, ish haqi stavkasining ortishiga olib keladi.

3. Kasb bo'yicha malaka darajasini litsenziyalash. Bu ma'lum mehnat turi taklifini cheklash vositasi hisoblanadi. Bunda kasaba uyushmalari korxona ma'muriyatiga ma'lum kasbdagi ishchilar aniq ko'rsatilgan talablarga javob bergan taqdirda ishga qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi. Bu talablar o'z ichiga ishchining ta'lim darajasi, mutaxassislik bo'yicha ish staji, imtihon natijasi va shaxsiy tavsiflarini oladi.

4. Kasaba uyushmalari jamoa shartnomalari tuzishda monopol holatga ega bo'lgan tadbirkorlarga qarshilik ko'rsatish yo'li bilan ham ish haqi stavkasini oshirishga erishishi mumkin. Buning natijasida ish haqini oshirish bilan bog'liq qo'shimcha sarflar, yangi ishchi kuchini yollash natijasida olinadigan qo'shimcha mahsulot hajmidan ortiq bo'ladi.

Kasaba uyushmalari o'zlarining iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishlarida manfaatlari himoya qilinayotgan mehnatkashlar guruhining kasbiy ixtisosligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yopiq

(tor) yoki ochiq (keng) turda tashkil etilishi mumkin. **Yopiq turdagi kasaba uyushmalari** ish haqi darajasini oshirish uchun ishchi kuchi taklifini qisqartirishga harakat qiladilar. Bu ko'proq ma'lum kasb egalari, masalan, duradgorlar, g'isht teruvchilar, elektr payvandchilar kabilarni o'ziga birlashtiruvchi sex kasaba uyushmalari tarzida tashkil etiladi. Sex kasaba uyushmalari ish beruvchilarni faqat mazkur kasaba uyushmasiga a'zo bo'lgan ishchilarni yollashga majbur etib, shu orqali ishchi kuchi taklifi ustidan nazorat o'rnatadilar. Zarur holda kasaba uyushmasiga a'zolikni qisqartirish orqali ishchi kuchi taklifini sun'iy yo'l bilan qisqartiradilar. Bunda ular quyidagi yo'llardan foydalanishlari mumkin:

– o'qitish, kasbga tayyorlash muddatini cho'zish;

– kasaba uyushmasiga a'zo bo'lish badallarini oshirish;

– yangi a'zolarni qabul qilishni cheklash yoki umuman taqiqlash va boshqalar.

Bu tadbirlar asosida ishchi kuchi taklifini qisqartirish hamda ish haqi darajasini oshirish jarayonini quyidagi rasm orqali ko'rish mumkin (12.1-rasm).



12.1-rasm. Yopiq turdagi kasaba uyushmasining ish haqi darajasiga ta'siri

Rasmdan ko'rinadiki, kasaba uyushmalari ishchi kuchi taklifini dan ga qadar qisqartirish orqali ish haqi darajasini dan ga qadar oshirishga erishadilar. Biroq, ishchi kuchi taklifining pasayishi yollangan ishchilar sonining dan ga qadar qisqarishiga olib keladi.

Aksariyat kasaba uyushmalari o'z a'zolari sonini cheklashga harakat qilmaydilar. Aksincha, ular barcha mavjud yoki keyinchalik yollanuvchi ishchilarni birlashtirishga harakat qiladilar. Bu **ochiq turdagi yoki tarmoq kasaba uyushmalari** uchun xos bo'lib, tarmoqdagi barcha ishchilarni, ularning malakasidan qat'iy nazar, o'z saflariga a'zo bo'lishiga intiladilar. Bu o'rinda, agar kasaba uyushmasi a'zolari faqat malakali mutaxassislardan tarkib topsa, uni yopiq tarzda tashkil etish ham mumkin bo'ladi.

Chunki ish beruvchilar bu qadar katta miqdordagi malakali mutaxassislarni ishdan bo'shatib, ular o'rniga boshqalarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Biroq, o'ziga malakasiz yoki past malakali ishchilarni birlashtirgan kasaba uyushmasi a'zolikni cheklay olmaydi, bunday holatda ish beruvchilar bu ishchilarni kasaba uyushmasiga a'zo bo'lmagan ishchilar bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu holat kasaba uyushmasining amal qilish zaruratini yo'qqa chiqaradi.

Agar tarmoq kasaba uyushmasi mazkur tarmoqdagi deyarli barcha ishchilarni birlashtira olsa, u holda ish haqi darajasi bo'yicha shartnoma tuzishda kasaba uyushmalari korxona ma'muriyatini o'z ta'siri doirasida ushlab tura oladi. Ma'muriyat tomonidan ularning shartlari inkor etilgan holda, ishchilarni ish tashlashga undash orqali kasaba uyushmalari korxonani ishchi kuchi taklifidan to'liq mahrum yetishi mumkin.

Ochiq turdagi kasaba uyushmasining ish haqi darajasiga ta'sirini quyidagi rasm orqali ko'rish mumkin (12.2-rasm).



12.2-rasm. Ochiq turdagi kasaba uyushmasining ish haqi darajasiga ta'siri

Ochiq turdagi yoki tarmoq kasaba uyushmasi deyarli barcha ishchilarni o'z tarkibiga kiritish orqali ishchi kuchi taklifini nazorat qilib, ish haqi darajasini erkin raqobat sharoitidagi dan ga qadar oshiradilar. Natijada ishchi kuchi taklifi egri chizig'i SS dan ga siljiydi. ish haqi darajasida ish beruvchilar bandlik darajasini dan ga qadar qisqartiradilar.

Hozirgi zamon mehnat munosabatlari o'zida davlatning ta'sirini ham aks ettiradi. Davlatning qonunchilik faoliyati mehnat munosabatlarining barcha tomonlarini qamrab oladi. U nafaqat iqtisodiyot davlat sektorining ishchi kuchiga bo'lgan talabini bildiradi, balki uni xususiy sektorda ham tartibga soladi, milliy iqtisodiyot miqyosida ishga yollashning asosiy o'lchamlarini aniqlaydi.

Mehnat munosabatlariga davlatning ijtimoiy dasturlari (kam ta'minlangan oilalarga yordam, ishsizlik bo'yicha nafaqa, har xil ijtimoiy to'lovlar, pensiya ta'minoti va boshqalar) katta ta'sir ko'rsatadi. Bu dasturlar bozor tahlikasi yuqori bo'lgan davlatlarda aholining ijtimoiy–iqtisodiy ahvolini barqarorlashtirishga ma'lum bir darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning ishchi kuchi bozoridagi vositachilik roli ham mehnat munosabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, o'ziga qisman ishchi o'rinlarini qidirish va tavsiya qilish hamda ishga joylashtirish bo'yicha umummilliy dasturni ishlab chiqarish vazifalarini oladi. Ishchilarni o'qitish va qayta tayyorlashning davlat tizimi bozorning o'zgaruvchan talablariga tez moslashishga imkon beradi.

Mamlakatimizda kasaba uyushmalari faoliyatini takomillashtirish, Keksa avlodni qo'llab-quvvatlash va manzilli ijtimoiy himoyasini kengaytirish borasida ish beruvchilar va kasaba uyushmalarining mas'uliyatini oshirish hamda keksalarni moddiy qo'llab-quvvatlash. maqsadida ularning oldiga bir qator vazifalarni qo'yish ko'zda tutilmoqda. Jumladan,

"Jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali keksa avlod vakillarini ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish; 15 ming nafar pensiya yoshidagi shaxslarga pensiyaga chiqishdan oldin bir yo'la moddiy yordam berish va ularni qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash; 14 ming nafar

xodimlarga yubiley sanalari munosabati bilan qimmatbaho sovg'alar topshirish; 55 ming nafar ishlamaydigan pensionyerlarga (korxonalarning sobiq xodimlariga) moddiy yordam berish"[84].

Ushbu bajarilishi lozim bo'lgan ishlarga sarflanadigan xarajatlarga 8000,0 mln. so'm rejalashtirilgan bo'lib, shundan ish beruvchilar mablag'lari – 7000,0 mln.so'm, Kasaba uyushmalari mablag'lari esa – 1000,0 mln.so'mni tashkil etadi.

Xulosalar

1. Mahsulot va daromadlarni taqsimlash ham doim bir xil bo'lmay, balki shu davrda amal qilib turgan iqtisodiy munosabatlar tizimiga, jumladan mulkchilik munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoitlari, ya'ni kapitalga mulkchilikning turli shakllari mavjud bo'lgan, yerga esa davlat mulki bo'lib turgan sharoitda Yaratilgan milliy mahsulot mulk egalari (davlat, jamoa, xususiy, shaxsiy) va ishchi kuchining egasi bo'lgan ishchi-xizmatchilar o'rtasida taqsimlanadi.

2. Yaratilgan yalpi ichki mahsulotning uning ishlab chiqaruvchilari o'rtasida mehnatning miqdori, sifati va unumdorligiga qarab taqsimlanadigan qismi ish haqi deb yuritiladi.

3. Ish haqining asosiy vazifasi ishchi va xizmatchilarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilash, boshqacha qilib aytganda, mehnat me'yori bilan iste'mol me'yori o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashdan iboratdir.

4. Ishchi uchun qanday shaklda va qancha miqdorda ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi muhim. O'z-o'zidan aniqki, real ish haqi nominal ish haqiga va xarid qilinadigan tovarlar narxiga bog'liq. Shunday ekan, real ish haqi, boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda, nominal ish haqiga to'g'ri mutanosibdir va iste'mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir.

5. Real ish haqi uch omil bilan aniqlanadi: birinchidan, nominal

[84] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni, 8-ilova. № 215.

ish haqining miqdori bilan; ikkinchidan, amaldagi soliqlar yuki bilan; uchinchidan, iste'mol tovarlari narxlari darajasi bilan.

6. Ishchilarning ish haqini tabaqalashtirish eng avvalo davlat tarif tizimi yordamida amalga oshiriladi. Tarif tizimi yordamida tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo'yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasi tartibga solib turiladi.

7. Ko'pchilik mamlakatlarda mehnat munosabatlarining rivojlanishidagi ishsizlikni ijtimoiy kafolatlash, ishlovchilarning mehnat sharoitini yaxshilash va ish haqini oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda kasaba uyushmalari asosiy rol o'ynaydi.

8. Kasaba uyushmalari o'zlarining iqtisodiy vazifalarini amalga oshirishlarida manfaatlari himoya qilinayotgan mehnatkashlar guruhining kasbiy ixtisosligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yopiq (tor) yoki ochiq (keng) turda tashkil etilishi mumkin. Yopiq turdagi kasaba uyushmalari ish haqi darajasini oshirish uchun ishchi kuchi taklifini qisqartirishga harakat qilsalar, ochiq turdagi kasaba uyushmalari ish haqi darajasi bo'yicha shartnoma tuzishda korxona ma'muriyatiga bevosita ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ish haqi – ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.

Vaqtbay ish haqi – ishchining ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) hisobga olinib to'lanadigan ish haqi.

Ishbay ish haqi – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmiga qarab to'lanadigan ish haqi.

Nominal ish haqi – pul shaklida olingan ish haqi summasi.

Real ish haqi – nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.

Ishbay-mukofotli haq to'lash tizimi – bajarilgan ish uchun haq to'lashni erishilgan turli natija ko'rsatkichlariga qarab mukofot berish bilan qo'shib olib borilishini nazarda tutuvchi tizim.

Ishbay-progressiv haq to'lash tizimi – ishchining belgilab qo'yilgan me'yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif bo'yicha, me'yordan yuqori qismiga esa oshirilgan haq (tarif) bo'yicha ish haqi to'lanishini ko'zda tutuvchi tizim.

Tarif tizimi – ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasini tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo'yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab tartibga solib turuvchi me'yorlar majmui.

Tarif-malaka ma'lumotnomalari – ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta'rifi, ishchi va mutaxassislarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar, turli tavsifdagi ishlarni tariflash uchun qo'yiladigan razryadlar majmui.

Tarif setkasi – turli razryadlar va tarif koeffitsientlari majmui bo'lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to'lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to'lashning o'zaro nisbatini ko'rsatadi.

Tarif stavkalari – tegishli ravishda belgilab berilgan turli razryadga ega bo'lgan ishchilarning mehnatiga to'lanadigan haq miqdori majmui.

Mehnat shartnomalari – korxona ma'muriyati va ishchilar o'rtasidagi ishga yollash bo'yicha munosabatni namoyon etuvchi va tartibga soluvchi hujjat bo'lib, unda ish haqi stavkasi, me'yordan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka, dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va sog'liqni saqlashga ajratmalar hamda narxlarning o'zgarishini hisobga olib iste'mol savati qiymatini tartibga solish kabi masalalar ifoda etiladi.

Kasaba uyushmasi – ish beruvchi va ishga yollanuvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlarining shakllanishi, amalga oshirilishi va tartibga solinishida ishga yollanuvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat tashkiloti.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yaratilgan milliy mahsulotning qanday qismi ish haqi shaklini oladi?

2. Ish haqi bilan zaruriy mahsulot o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?

3. Ish haqining turlicha nazariyalarini tahlil qilib, ularga o'z qarashingizni bildiring.

4. Real ish haqi darajasi qanday omillar ta'siri ostida o'zgaradi?

5. Nima uchun ish haqining umumiy darajasi har xil mamlakatlarda turlicha?

6. Tarif tizimi o'z ichiga qanday tarkibiy qismlarni oladi? Ularning har birining ahamiyati va farqlanishini tushuntirib bering.

7. Mehnat munosabatlari deganda nimani tushunasiz? Mehnat munosabatlari kimlar tomonidan tartibga solinadi?

8. Kasaba uyushmasi nima va uning qanday turlari mavjud?

9. Kasaba uyushmalari ish haqini oshirishning qanday usullaridan foydalanadilar?

10. Mehnat shartnomasi nima va unda qanday masalalar o'z ifodasini topadi?

13-BOB. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilishi iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo'g'inlari uchun umumiy bo'lsada, lekin ayrim olingan sohalarda, bu qonun va kategoriyalar ulardagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlar ham kasb etadi. Ayniqsa, bu o'ziga xos xususiyat agrar sohada yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bu yerda takror ishlab chiqarish ko'p jihatdan tirik organizm (hayvon, o'simlik va boshqalar) bilan ham bog'liq bo'lib, iqtisodiy qonunlar tabiiy qonunlar bilan chatishib ketadi. Ushbu bobda iqtisodiyotning umumiy tomonlari bilan birgalikda uning agrar sohada namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlari bayon etiladi, shuningdek, agrar munosabatlarning mazmuni tahlil qilinib, yer rentasining vujudga kelishi va taqsimlanishi muammolari hamda ularning qisqacha tavsifi beriladi. Bu yerda fermerlik xo'jaliklari rivojiga alohida e'tibor qaratiladi. Agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning tarkibi va vazifalariga to'xtalib o'tilib, agrobiznes va uning turlari bayon etiladi. Bu bobda mustaqillik yillarida agrar sohada erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda mavjud muammolarga ham e'tibor qaratiladi.

13.1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim sohasi bo'lib, unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va aholi uchun iste'mol buyumlari tayyorlovchi sanoat tarmoqlariga xomashyo ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda bu sohani rivojlantirishga har doim alohida e'tibor berib kelinmoqda. **«2016-yilda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli ishlar davom ettirildi»**[85]

[85] Sh. Mirziyoyev. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" // Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy

deb ta'kidlaydi mamlakatimiz Prezidenti. Agrar soha oldida turgan vazifalarni bajarish uchun agrar sohani va ular bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlari, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohalarini xorijiy davlatlar tajribasi asosida har tomonlama rivojlantirish zarurdir. Boshqa sohalar kabi qishloq xo'jaligida ham kishilar o'rtasida iqtisodiy aloqa va munosabatlar sodir bo'ladi.

Agrar sohada ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq bo'ladi. yerga **egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi.**

Yerning hosil berish qobiliyatiga tuproq unumdorligi deyiladi. U tabiiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. **Uzoq yillar davomida kishilarning hech qanday aralashuvisiz, tabiiy o'zgarishlar natijasida erning ustki qatlamida o'simlik «oziqlanishi» mumkin bo'lgan turli moddalarning vujudga kelishi erning tabiiy unumdorligi deyiladi.**

Agar tuproq unumdorligi kishilarning tabiatga ta'siri natijasida, ya'ni tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash sun'iy yo'l bilan (masalan, yerni organik va kimyoviy o'g'itlash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, ilmiy asoslangan holda sug'orish, irrigatsiya va melioratsiya kabi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish hamda boshqa shu kabi yo'llar bilan) amalga oshirilsa, bu iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi.

Yerdan olinadigan hosil ko'proq mana shu yerning tuproq unumdorligini saqlash va uni oshirish, ya'ni insonning, aniqrog'i ishchi kuchining, jonli mehnatning yerga faol ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi qishloq xo'jaligida ham ishlab chiqarish uning omillarining bevosita birikishi asosida sodir bo'ladi. Bunda ishchi kuchi faol bo'lib, asosiy rolni o'ynaydi. Qishloq xo'jalik korxonalarida yerdan boshqa barcha ishlab chiqarish vositalari xususiy, shaxsiy, jamoa mulk shaklida bo'lishi mumkin. Turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish vositalaridan jamiyat barcha a'zolarining turmush darajasini yaxshilash yo'lida foydalaniladi. Hozirgi paytda qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning asosiy

---

yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2017-yil 16-yanvar.

ko'rinishlari fermer va dehqon xo'jaligi shakllarida bo'lib, ulardagi ishlab chiqarish jarayonlari turli iqlim va tuproq sharoitlarida olib boriladi.

Shunga binoan qishloq xo'jaligida kapitalning tarkibida turli inshootlar, binolar, uzatma mexanizmlar va boshqalarning hissasi ko'proq. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishni amalga oshirishda aylanma kapital ham qatnashadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida aylanma kapital quyidagilardan tashkil topadi: yosh va boquvdagi hayvonlar, yem-xashak, urug'lik fondlari, kimyoviy o'g'itlar, xizmat muddati bir yildan kam bo'lgan turli xil ishlab chiqarish vositalari – inventarlar, yoqilg'i va moylash materiallari hamda shu kabilar. Ishlab chiqarish jarayoni qishloq xo'jaligida aylanma kapitalning ko'pgina qismi hali tugallanmagan ishlab chiqarish shaklida bo'ladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni sotish jarayonida kapital boshqa tarmoqlardagidek doiraviy aylanib turadi, ya'ni pul shaklidan ishlab chiqarish shakliga, undan tovar shakliga o'tib, yana pul shakliga qaytib keladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning miqdori yerning hosildorligi, uning sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi. yerning tabiiy, biologik, iqtisodiy va texnikaviy sharoitlarini yaxshilash ham qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan kapitalning doiraviy aylanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu omillardan to'laroq foydalanish har bir xo'jalikning muhim vazifasidir. Tabiiy omillar qishloq xo'jalik mahsulotining bevosita ko'payishiga ta'sir yetsa ham, mahsulotning qiymatini oshirmaydi, ya'ni qiymat yarata olmaydi. Ishlab chiqarish tabiiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bu yerda ish davri va umumiy ishlab chiqarish vaqti o'rtasidagi muddat sanoatga nisbatan birmuncha uzoqroq bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligida turli ekinlarni ekib bo'lingandan to hosil yig'ishtirib olinguncha ishlab chiqarish vaqti davom etadi. Ish davri esa shu vaqt ichida qishloq xo'jalik ekinlari mehnat ta'sirida bo'lgan kunlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni mavsumiyligi bilan xususiyatlidir. Bu hol qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan mehnat vositalaridan, ya'ni kombayn, turli ekish asboblari va shu kabilardan foydalanish vaqtiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Boshqacha qilib aytganda, bu mehnat vositalaridan yilning ma'lum muddatlarida-

gina foydalaniladi, qolgan vaqtda esa ular bekor turadi. Masalan, seyalkadan ekish davomida foydalanilsa, g'alla o'rish kombaynlari, paxta terish mashinalari esa yiliga 20–30 kun yig'im-terim paytida ishlatiladi, xolos. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligida mehnatning kapital va energiya bilan qurollanish darajasi moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori bo'lishini taqozo qiladi, lekin bu yerda asosiy va aylanma kapital harakati sustroq. Bulardan tashqari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va mehnat jarayonlarining mavsumiyligi sababli yil davomida aylanma mablag'larning sarfi bir me'yorda bo'lmaydi. Qish va yoz mavsumlarida xarajat qilinadigan aylanma mablag'lar tarkibida birmuncha tafovutlar mavjud. Masalan, qish mavsumida aylanma mablag'larning ko'pgina qismi (urug'lik, yem-xashak, turli ozuqalar) ishlab chiqarish ehtiyot qismi shaklida turadi, yoz faslida esa tugallanmagan ishlab chiqarish, texnikaning butlash qismlari, neft mahsulotlari va shu kabilarning hissasi ortib boradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilishda yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni hisobga olib, ishni tashkil qilish uning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Bizning mamlakatimizda aholining nisbatan zichligi va qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning cheklanganligini hisobga olib, yerga xususiy mulkchilik joriy qilinmadi, unga davlat mulki saqlanib qoldi. Lekin, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, oqilona agrar islohotlar amalga oshirilmoqda va bu jarayon chuqurlashtirilmoqda.

2015-yilda qishloq xo'jaligi tarmog'ida muhim ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Chunki ko'pgina qishloq xo'jaligi mahsuloti turlarini ishlab chiqarish bo'yicha o'sishga erishildi (13.1-jadval).

Jadvaldan ko'rinadiki, 2015-yilda 2003-yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida kartoshka (323,2%), poliz mahsulotlari (306,8%), uzum (393,3%), tuxum (338,5%), go'sht (217,1%) darajada o'sgan.

O'zbekistonda amalga oshirilgan agrar islohotlarni amalga oshirish, tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish natijasida murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli 2016-yilda mo'l hosil yetishtirildi –8,3 million

tonnadan ziyod g'alla, 3 million tonnadan ortiq paxta 21 mln. tonna meva va sabzavot yetishtirildi[86].

13.1-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy turlarining ishlab chiqarishning o'sishi[87]

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2003	2012	2013	2014	2015	2015-yilda 2003-yilga nisbatan,%
Kartoshka	ming tonna	834,4	2056,1	2250,4	2452,4	2696,7	323,2
Poliz mahsulotlari	ming tonna	3301,4	7766,5	8518,4	9286,7	10128,1	306,8
Poliz ekinlari	ming tonna	587,3	1418,4	1558,3	1696,1	1853,1	315,5
Mava va rezavorlar	ming tonna	765,8	2052,6	2261,1	2490,6	2746,2	358,6
Uzum	ming tonna	401,5	1204,6	1322,1	1441,2	1579,0	393,3
Go'sht	ming tonna	936,7	1403,7	1787,8	1906,3	2033,5	217,1
Sut	ming tonna	4031,1	7310,9	7885,5	8431,6	9028,2	224,0
Tuxum	mln. dona	1632,4	3873,7	4388,1	4950,0	5526,0	338,5

O'zbekistonda yer davlat mulki hamda umummilliy boylik bo'lganligi sababli yerga bo'lgan mulkchilik, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalari alohida ajratib tahlil qilinishi lozim.

Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi. yerga egalik deganda avvalo yerga bo'lgan mulkchilik huquqi va uni iqtisodiy jihatdan realizatsiya qilish ko'zda tutiladi. yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor (bizda davlat) amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi yer kodeksida ta'kidlanganidek, «Er uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin»[88].

Yerdan foydalanish huquqi – bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. Yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas. Real xo'jalik hayotida yer-

[86] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

[87] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

[88] O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi». T., «O'zbekiston», 1999 y., 20-modda.

ga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko'pincha har xil jismoniy va huquqiy shaxslar, xususan hozir bizda asosan dehqon va fermer xo'jaliklari amalga oshiradi. Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham to'rt omil – yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va ishchi kuchi qatnashib, bunda yer muhim ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etadi. Ammo biz avval aytganimizdek, ishlab chiqarish jarayonida hamma ishlab chiqarish vositalarini, jumladan, yerni harakatga keltirib, undan unumli foydalanadigan, uning iqtisodiy unumdorligini oshiradigan omil – ishchi kuchidir. Agrar munosabatlarni o'rganishda ham ishchi kuchining, jonli mehnatning faol rol o'ynashini, uning hamma moddiy vositalarga jon ato etib, harakatga keltiruvchi rolini tushunmaslik go'yo kapital foyda yoki foiz, yer esa renta yaratadi, degan ko'pgina xato fikr-mulohazalarga, yolg'on tasavvurlarga olib keladi.

Agar mamlakatimizda aholi sonining va ularning qishloq xo'jaligimahsulotlariga bo'lgan talabining oshib borishini, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar maydonining ko'paymasligini, aksincha, ayrim sabablarga ko'ra (sho'rlanish natijasida, qurilish maydonlariga, yo'llarga ajratilishi natijasida) ularning kamayib borishini hisobga olsak, yerning har bir birligidan unumli foydalanish masalasi borgan sari dolzarb masala bo'lib boradi.

Agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi. Renta munosabatlari nazariyasi hozirgacha to'liq o'rganilmagan va to'liq yoritib berilmagan nazariyalardan hisoblanadi. Iqtisodchilar o'rtasida uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha turlicha yondashuv va qarashlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari noaniqligicha qolmoqda. Shu sababga ko'ra rentani miqdoriy aniqlash va uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha asosiy va ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan nazariyalarga duch kelamiz.

13.2. Renta munosabatlari

Renta nazariyasi dastlab, fiziokratlar maktabining asoschilari F.Kene va A.Tyurgolarning ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan. Ular rentaning vujudga kelish sababini tabiat, yerning qandaydir sirli ku-

chi, tabiat ehsoni, yerning qo‘shimcha mahsulot yarata olish qobiliyati natijasi deb izohlaganlar. Ular qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yaratishda, jumladan, sof va qo‘shimcha mahsulot yaratishda tabiat rolini ko‘rsatishga harakat qilganlar. Keyinchalik renta nazariyasining asoslari klassik iqtisodchilar U.Petti, J.Anderson, A.Smit va D.Rikardolar tadqiqotlarida turli darajada takomillashtirilgan. Jumladan, Anderson differensial renta to‘g‘risidagi qarashlarni ilgari surgan, biroq rentaning tovar qiymatining bir qismi ekanligini tushuntirib berolmagan. Rikardo esa, fiziokratlardan farqli o‘laroq, rentaga mahsulot ijtimoiy va individual qiymatlari o‘rtasidagi farq sifatida qarab, renta nazariyasini qiymatning mehnat nazariyasi, qiymat qonuni bilan bog‘lagan.

Renta nazariyasini rivojlantirishda rus iqtisodchilaridan N.G.Chernishevskiy va N.I.Zibyerlar salmoqli hissa qo‘shganlar.

Hozirgi vaqtda Rossiyada «Iqtisodiyot nazariyasi» bo‘yicha chop etilgan qator o‘quv qo‘llanma va darsliklarda ham yer rentasi munosabatlari keng bayon etilmoqda. D.D.Moskvin tahriri ostida tayyorlangan darslikda yozilishicha, resurslarning turli-tumanligi natijasida ulardan foydalanish chog‘ida renta daromadlarining turli ko‘rinishlari paydo bo‘ladi, jumladan: qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda vujudga keluvchi yer rentasi; foydali qazilmalarni qazib olish chog‘ida vujudga keluvchi renta; o‘rmon resurslaridan foydalanishda hosil bo‘luvchi renta; qurilish uchastkalaridan olinuvchi renta va h.k. Barcha turdagi tabiiy resurslar yer bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli ulardan foydalanishda rentaning vujudga kelishi uchun bir-biriga o‘xshash shart-sharoitlar mavjud bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik ekinlaridan foydalanishning iqtisodiy shart-sharoitlariga nisbatan ishlab chiqilgan renta munosabatlarini tahlil qilish uslubiyoti rentaning barcha turlariga tegishli bo‘ladi, shunga ko‘ra ularni yer rentasiga kiritish to‘g‘ri bo‘ladi. Haydaladigan yer, qurilish uchastkasi, ruda koni, baliq ovi, o‘rmon va boshqalardan to‘lanishidan qat’iy nazar, renta ko‘rinishidagi mazkur pul summasi yer rentasi deb ataladi[89].

Yer rentasining bir qancha tarixiy ko‘rinishlari mavjud. Masalan,

---

[89] Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д.Д.Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003, с.216–217.

uch shakldagi: barshchina (ishlab berish), obrok (natural soliq) va pul solig'i shakllaridagi feodal rentalari shular jumlasidandir. Hozirgi paytda turli mamlakatlarda mavjud renta vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi: absolyut yer rentasi, differensial (tabaqalashgan) renta I va II, monopol renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta. Yuqorida aytib o'tilgan qator nazariyalarni hamda yer rentasining tarixiy va zamonaviy shakllarini umumlashtirib aytish mumkinki, yer **rentasi – yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir.**

Rentaning mohiyatini tushunishdagi asosiy qiyinchilik tadbirkorlar o'rtasida qayta taqsimlanmaydigan qo'shimcha sof daromadni vujudga kelishi shart-sharoit va sabablarining ochib berilishi hisoblanadi. Bunday holat vujudga kelishining sabablaridan biri samarali xo'jalik yuritish uchun yaroqli bo'lgan yerlarning cheklanganligi va qayta tiklab bo'lmasligida o'z ifodasini topadi. Ikkinchi sababi – yerga yoki boshqa tabiiy resurslarga mulkchilik obyekti yoki xo'jalik yuritish obyekti sifatidagi monopoliyaning mavjudligi hisoblanadi. Uchinchi sababi esa, ko'p mamlakatlarda qishloq xo'jaligidagi kapital uzviy (organik) tuzilishi, ya'ni doimiy va o'zgaruvchi kapital o'rtasidagi nisbatning pastligi hisoblanadi.

Yer uchastkalarining unumdorligi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha mahsulot qiymatning bir qismi renta shaklini oladi hamda u differensial renta deb ataladi.

Qishloq xo'jaligida eng muhim ishlab chiqarish vositasi – yerning miqdori va sifatini tabiatning o'zi cheklab qo'ygan, uni inson ko'paytirishga qodir emas. Shuning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini faqat yaxshi va o'rtacha unumdor yer uchastkalarida tashkil etish bilan cheklanish mumkin emas. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab ko'p bo'lganligi uchun yomon, kam unumli yerlarda ham ishlab chiqarishni tashkil etish zarurdir. Agar ishlab chiqarilgan mahsulot to'lovga qodir talab bilan ta'minlangan bo'lsa, yerning mahsuldorligi yoki joylashuvi jihatidan yomon sharoit qishloq xo'jalik tovarlariga narx shakllanishini tartibga soluvchi ijtimoiy

normal sharoit hisoblanadi. Natijada o'rtacha yoki yaxshi yerlarda xo'jalik yurituvchi ishlab chiqaruvchilar ustama qo'shimcha mahsulot va binobarin qo'shimcha foyda oladilar. Demak, differensial renta hosil bo'lishining tabiiy sharti miqdori cheklangan yerning sifati (unumdorligi) dagi farqlardir, uning ijtimoiy-iqtisodiy sababi esa foydalaniladigan yerlarda iqtisodiy jihatdan alohidalashgan tarzda mustaqil xo'jalik yuritishdir.

Differensial renta o'zining kelib chiqish sharoitlarga qarab differensial renta I va differensial renta II ga bo'linadi.

Differensial renta I yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan, sanoat markazlariga, bozorlarga va aloqa yo'llariga yaqin joylashgan serunum yer uchastkalarida vujudga keladi. Differensial renta I ning hosil bo'lishini shartli misol yordamida ko'rib chiqamiz (13.2-jadval).

13.2-jadval

Differensial renta I ning hosil bo'lishi

Er uchastkasi	Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari (so'm)	O'rtacha foyda (so'm)	Ijtimoiy qiymat (so'm)	Yalpi mahsulot (tonna)	Mahsulotning individual qymati (so'm)	Ijtimoiy qiymat – bozor narxi (so'm)	Yalpi sotilgan mahsulot (so'm)	Differensial renta I (so'm)
A	8000	2000	10000	20	500	500	10000	-
B	8000	2000	10000	25	400	500	12500	2500
V	8000	2000	10000	30	333	500	15000	5000

Misolimizdagi uch xil yer uchastkalaridan olingan mahsulotning ijtimoiy qiymati bir xil, ya'ni 10000 so'mni tashkil qiladi. Yalpi hosildorlik A uchastkasida 20 tonna, B va V uchastkalarda 25 va 30 tonnani tashkil qiladi. Har bir uchastkadan turlicha hosil olinganligi tufayli ularda yetkazilgan mahsulotlarning individual qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi. Ya'ni, A uchastkasida har bir mahsulot birligining qiymati 500 so'm bo'lsa, B uchastkasida 400 so'm, V

uchastkasida esa 333 so‘mni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati yomon uchastkada yetishtirilgan mahsulot narxida sotiladi (misolimizda 500 so‘m). Natijada yomon yer uchastkasi (A) o‘zining yakka ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash va foyda olish imkoniga ega bo‘ladi. O‘rtacha (B) va yaxshi (V) yer uchastkalarida esa yomon yer uchastkasi (A)ga nisbatan 2500 va 5000 so‘m miqdorda qo‘shimcha daromad olinadi. Bu olingan qo‘shimcha daromad yerning tabiiy unumdorligi bilan bog‘liq bo‘lgan differensial renta I ni tashkil qiladi.

Differensial renta II xo‘jaliklarni intensiv rivojlantirish, yerning hosildorligini oshirish uchun qo‘shimcha xarajatlar sarf qilish bilan, ya’ni qishloq xo‘jaligida kimyoviy o‘g‘itlarni qo‘llash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish darajasi bilan bog‘liq holda vujudga keladi.

Bu holni biz 13.3-jadvalda shartli misol bilan ifoda yetishimiz mumkin.

13.3-jadval

Differensial renta II ning hosil bo‘lishi

Ishlab chiqarish davri	Ishlab chiqarish xarajatlari (so‘m)	Yalpi mahsulot (tonna)	1 tonna mahsulotning individual qiymati (so‘m)	1 tonna mahsulotning ijtimoiy qiymati (so‘m)	Sotilgan mahsulot summasi, so‘m	Qo‘shimcha mahsulot, ya’ni differensial renta II, so‘m
Birinchi yil	10000	20	500	500	10000	-
Ikkinchi yil	15000	40	375	500	20000	10000

Misolimizda yerga qo‘shimcha 5 ming so‘m xarajat qilish natijasida qo‘shimcha 20 tonna mahsulot olinsa, u holda birinchi yilga nisbatan qo‘shimcha olingan 10 ming so‘m daromad differensial renta II ni tashkil etadi. Bunday intensiv rivojlanish qishloq xo‘jaligida bosh yo‘l hisoblanadi. Chunki qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirmay turib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va jamiyat a’zolarining o‘sib borayotgan talabini qondirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham

qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun alohida e'tibor beriladi. Buning uchun qishloq xo'jaligini agrar sanoatlashgan asosga qo'yish, intensivlashtirishni tezkorlik bilan amalga oshirish choralari ishlab chiqilishi lozim. Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlash uzluksiz o'smoqda. Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish uchun ajratilgan kapital mablag'lar ham ortmoqda.

Agar hamma joyda bir xil xarajat qilinib, hosildorlik bir xil oshirilsa edi, unda hech qanday differensial renta II bo'lmas edi. Gap shundaki, yer birligiga sarflangan bu xarajatlar turli hududlarda, viloyatlarda, xo'jaliklarda turlicha darajada amalga oshiriladi va natijada hosildorlik ham turlicha oshadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotining ijtimoiy qiymati bilan yakka tartibdagi qiymati o'rtasidagi tafovut xo'jaliklarning ustama qo'shimcha mahsulotini tashkil qiladi. Ya'ni, differensial rentaning har ikkala ko'rinishini (renta I va II ni) o'z ichiga oladi. Differensial renta I va II mahsulotning muayyan ijtimoiy qiymati bilan hudud bo'yicha yoki alohida olingan xo'jalikning individual qiymati o'rtasidagi tafovutdan iboratdir. Shu hosil qilingan daromadlar davlat bilan xo'jalik o'rtasida taqsimlanadi. Uning davlatga to'langan qismi yer rentasi ko'rinishini oladi (chunki bizda yer davlat mulkidir).

Differensial renta I yuqorida qarab chiqilganidek, xo'jaliklar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy sharoitda vujudga keladi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi korxonalarida hosil qilingan bu xildagi renta yer davlat mulki bo'lganligi sababli uning manfaatlari yo'lida sarf qilish maqsadida markazlashtirilgan davlat fondida (byudjetida) to'planishi lozim. Bu hol o'rta va yaxshi unumli yerda joylashgan xo'jaliklarning iqtisodiy manfaatdorligiga putur etkazmaydi, balki boshqa xo'jaliklar bilan ozmi-ko'pmi iqtisodiy sharoitlarni tenglashtirish imkonini beradi. Markazlashtirilgan davlat fondiga o'tgan bu mablag'lar (differensial renta I) ni mamlakat oldida turgan vazifalarni bajarish, xususan yangi yerlarni o'zlashtirish va yer unumdorligini yuksaltirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin bo'ladi.

Differensial renta II yerdan intensiv foydalanish, ya'ni uning iqti-

sodiy unumdorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ham bu xildagi rentaning asosiy qismi xo‘jaliklarning o‘zlarida qoldirilishi mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Uning faqat bir qismi davlat fondiga jalb qilinishi mumkin, chunki davlat ma’lum darajada bu rentani hosil qilishda o‘z hissasini qo‘shadi, ya’ni transport yo‘llari qurilishiga, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini amalga oshirish uchun kapital mablag‘lar sarflaydi, texnikalar, kadrlar, mineral o‘g‘itlar yetkazib beradi. Shunday qilib, differensial renta I va differensial renta II yer egasi bo‘lgan davlat bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Absolyut renta. Ko‘pgina mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi sharoitida ishlab chiqarishni olib borishga to‘g‘ri keladi. Hozirgi davrda yerga xususiy mulkchilik bilan bir qatorda boshqa mulkchilik shakllari ham mavjud. Masalan, davlat mulki, vaqf (machit, cherkov) mulklari va boshqalar. yerga **bo‘lgan mulkchilik monopoliyasi ijaraga beriladigan barcha yer uchastkalarining sifatidan qat’iy nazar, yer egalariga absolyut renta deb atalgan rentani olishga imkon beradi.** Absolyut yer rentasining vujudga kelish mexanizmi shundan iboratki, yer egalari (xususiy, davlat, cherkov, masjid) yerni ishlovchi ijarachilarga (fermyerlar, tadbirkorlar) foydalanish uchun ma’lum miqdorda ijaraga beradilar va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to‘lovlar oladilar. Mana shu to‘lov absolyut yer rentasi deb nom olgan. Agar yer ijaraga berilganda shu yerda turli xil inshootlar, binolar qurilgan bo‘lsa, ularga to‘lanadigan haq alohida hisoblanadi va ular ijara haqi deb ataladi.

Agrar munosabatlarni tadqiq qilar ekanmiz, nima uchun qishloq xo‘jalik ishchilari yaratadigan qo‘shimcha mahsulot jamiyat miqyosida barcha mulk egalari o‘rtasida qayta taqsimlanmaydi, nima uchun qishloq xo‘jaligida olinadigan daromad o‘rtacha foydadan yuqori bo‘ladi, bu hodisaning sababi nimada, degan savollar tug‘iladi.

Tarixan shunday bo‘lib qolganki, ko‘pgina mamlakatlarda, jumladan, bizning mamlakatimizda ham qishloq xo‘jaligidagi kapitalning uzviy tuzilishi sanoatdagidan pastdir. Shuning uchun qishloq xo‘jaligida Yaratilgan tovarlarning bozor qiymati, ishlab chiqarishning ijtimoiy qiymatidagi qo‘shimcha qiymat miqdori jamiyatda

shakllangan o'rtacha foydadan ortiq bo'ladi. Qishloq xo'jalik tovarlarining bozor narxi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish narxi o'rtasidagi bu tafovut absolyut renta manbai bo'lib xizmat qiladi.

Renta nazariyasiga ko'ra qishloq xo'jaligida rentaning yana bir turi – **monopol renta** ham mavjud bo'ladi. Boshqa yerda uchramaydigan tabiiy sharoit, ba'zan noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari (uzumning alohida navlarini, sitrus ekinlari, choy va hokazolarning alohida turlarini) yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday tovarlar monopol narxlar bilan sotiladi. Bu narxlarning yuqori bo'lishi ko'pincha to'lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa yer egalariga monopol renta olish imkonini beradi.

Faqat qishloq xo'jaligida emas, balki **undirma sanoatda** ham qo'shimcha daromad olinadi. Ma'lumki foydali qazilma konlari joylashuvi (va demak, ishlash uchun qulayligi) jihatidan ham, konning boyligi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Xuddi qishloq xo'jaligidagi singari, o'rta va yaxshi konlardagi korxonalar qo'shimcha foyda oladilar, u ham differensial rentaga aylanadi.

Ijara haqi. Renta munosabatlarini qarab chiqishda rentaning ijara haqidan farqiga e'tiborni qaratish zarur. Agar ijaraga beriladigan yerga oldin bino, inshoot va shu kabilar qurish bilan bog'liq ravishda kapital qo'yilmalar sarflanmagan bo'lsa, ijara haqi va renta miqdoran bir-biriga to'g'ri keladi. Aks holda, ijara haqi yer rentasidan farq qiladi. Ijara haqi quyidagilardan iborat: yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta (R), yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz (r); yer uchastkasini ijaraga bergunga qadar unga qurilgan inshootlar amortizatsiyasi (A). Buni formulada quyidagicha yozish mumkin:

$$IX = R + r + A.$$

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijara obyekti emas, balki oldi-sotdi obyekti hamdir. yer ham qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish va tabiiy qazilma boyliklar qazib olish uchun, har xil ishlab chiqarish va turar joy binolari, inshootlar, yo'llar, aeroportlar va hokazolar qurish uchun sotib olinadi. Bunday hollarda yerning

narxi nima bilan belgilanadi?

Yer narxi. Ma'lumki, yer inson mehnati mahsuli bo'lmaganligi sababli almashuv qiymatiga ega emas. Shunga ko'ra, nazariyotchilar yer va boshqa tabiat in'omlari narxini **irratsional narxlar** deb atay-dilar. yer uchastkasining egasi uni sotishda olingan summani bankka qo'yilganda, u keltiradigan foiz tarzidagi daromad shu yer uchastka-sidan olinadigan rentadan kam bo'lmagan taqdirdagina yerni sotadi. Boshqacha aytganda, **yerning narxi kapitallashtirilgan rentadir.** Boshqa sharoitlar teng bo'lganda, xuddi shu renta miqdori yer narxini belgilaydi. U renta miqdoriga to'g'ri va ssuda foizi normasiga teskari mutanosibdir. Shunday qilib, yerning narxi ikkita miqdorga bog'liq: 1) yer uchastkasi egasi olish mumkin bo'lgan yer rentasi miqdoriga; 2) ssuda foizi me'yoriga. Shundan kelib chiqib yerning narxi quyi-dagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$H_E = \frac{R}{r'} \times 100\%,$$

bunda: N_E – yer narxi;
R – renta;
r' – ssuda foizi me'yori.

Faraz qilaylik, R = 15 ming doll., r' = 5%. Bunda yerning narxi (N_E) 300 ming dollarga teng bo'ladi. yer egasi faqat shu narxdagina yerini sotishi mumkin, chunki muayyan miqdordagi kapitaldan olina-digan foiz unga bankdan rentaga teng miqdorda yillik daromad olish imkonini beradi.

Renta miqdori o'sib, ssuda foizi me'yori pasayib borgan taqdirda yerning narxi o'sib boradi. yer narxini aniqlashning bu usuli nazariy ahamiyatga ega. Amalda yer narxi yer uchastkasiga talab va tak-lifga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillarga bog'liq. Jumladan, yerga narxning o'sishini, unga noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun foy-dalanishga talabning o'sishi bilan tushuntirilishi mumkin. Inflyatsiya va asosan giperinflyatsiya sharoitida yerga talab keskin o'sadi, bu te-gishli ravishda yer narxining o'sishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyo-tiga asoslangan g'arb mamlakatlarida XX asr boshlaridan to hozirgi

davrgacha yer narxi barqaror o'sish tamoyiliga ega bo'lib, faqat ayrim davrlardagina uning pasayishi kuzatiladi.

13.3. Agrosanoat integratsiyasi va agrobiznes

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida qishloq xo'jaligi hamma vaqt sanoat, savdo va boshqa tarmoqlar bilan mustahkam bog'liq bo'lib kelganligini hisobga olish kerak. Chunki mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlariga va qishloq xo'jalik xomashyosidan tayyorlangan tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish faqat qishloq xo'jaligining holatiga emas, balki sanoat tarmoqlari bilan uyg'un rivojlanishiga ham bog'liq bo'ladi. Xuddi ana shu holat iqtisodiyot tarkibida agrosanoat majmuasini bitta pirovard natijani ro'yobga chiqarishga bo'ysundirilgan tarmoqlarning yagona, yaxlit tizimini keltirib chiqarish uchun asos bo'ladi.

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo'jaligi bilan sanoat, ayniqsa, unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

Agrosanoat integratsiyasi ko'p qirrali bo'lib, u g'oyat xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bular eng avvalo ana shu jarayon qaysi darajada, ya'ni butun mamlakat ko'lami, viloyat doirasi yoki korxona darajasida yuz berishiga bog'liq. Butun mamlakat va mintaqalar ko'lamida agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligining tarmoqlararo aloqalari kuchayishida, iqtisodiyotning oziq-ovqat (tarmoq) va mintaqa agrosanoat majmualari tashkil bo'lishi va rivojlanishida ifodalanadi.

Agrosanoat majmuasi (ASM) – bu qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlari birikmasidir. ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi. **Birinchi soha** – qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar; **ikkinchi soha** – qishloq xo'jaligining o'zi; **uchinchi soha** – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar

(tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish); **to'rtinchi soha** – odamlar hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma (yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va tara xo'jaligi)dan iborat.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalarni (uy-joy, madaniy-maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va hokazo) o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jalik sohalarida foyda olish maqsadida olib borilayotgan tadbirkorlik faoliyati agrobiznes deyiladi. Agrobiznes tushunchasiga bevosita qishloq xo'jaligi sohasiga kirmaydigan, biroq u bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy, ta'mirlash xizmati ko'rsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi. Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo'g'ini **fermer va dehqon xo'jaliklaridir**. Chunki ular bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bu xo'jaliklar o'z yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanish ham mumkin. Fermer xo'jaligining afzalligi shundan iboratki, unda mulk va mehnat bevosita qo'shiladi, bu esa ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Fermer xo'jaliklari mustaqil tuzilma bo'lish sababli o'z faoliyatini bozor kon'yunkturasiga tez moslashtira oladi. Unda iqtisodiy manfaat va pirovard natija uchun mas'uliyat bitta faoliyatning ikki tomonini tashkil qiladi. Bularning hammasi fermer xo'jaligining yashovchanligini ta'minlaydi.

Agrobiznes turlaridan biri agrofirmalardir. **Agrofirma ma'lum**

turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonadir. Agrofirmalar ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga xos resurslarni ishlatib, iste'molga tayyor bo'lgan mahsulot yaratadi. Mazkur turdagi korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, chunonchi oilaviy xo'jalik asosida ham tashkil topib, kichik zavodlar bilan birikishi mumkin. Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yangi turlaridir.

Agrosanoat birlashmalari bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarning birlashmasidir. Masalan, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi sex va zavodlar, iste'molchilarga yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi.

Agrosanoat kombinatlari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarning ma'lum bir hududida birlashuvidir. Agrobiznes turiga ko'ngilli va paychilik mablag'lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni ham kiritish mumkin.

Qishloq xo'jaligidagi davlat korxonalari, jamoa xo'jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan qo'shma korxonalar ham agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

13.4. O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirish va yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonda agrar islohotlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, mulkchilik munosabatlari va shakllarini tubdan isloh qilish, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va mustahkam-

lash, qishloqlarni obod etish asosida qishloq aholisining daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish vazifalarining amalga oshirilishini ko'zda tutadi.

Mamlakatimizda ilk mustaqillik yillaridan boshlab yurtboshimiz boshchiligida fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashga hamda fermerlik harakatini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi.

Qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan qator qonun hujjatlari qishloqda yangi huquqiy munosabatlarni joriy etish hamda fermerlikni rivojlantirish imkonini yaratdi.

Qishloq xo'jaligida bozor islohotlarini amalga oshirishni **ikki bosqichga** bo'lishimiz mumkin.

Birinchi bosqich 1991–2000-yillarni o'z ichiga olib, ushbu davrda past rentabelli, aholiga o'z imkoniyatlarini namoyon etish uchun sharoit yaratib bermagan shirkat xo'jaliklarini tugatib, bunda fermer xo'jaliklarini tashkil etish yo'li tanlandi hamda quyidagi asosiy chora-tadbirlar amalga oshirildi:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 29-noyabrdagi PF-295-sonli Farmoniga asosan qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va fuqarolarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratib berildi;

– 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan yer kodeksi bilan fuqarolarga fermer xo'jaligi yuritish uchun yerlarni ijaraga berishning huquqiy asoslari belgilab berildi;

– 2004-yil 26-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq fermer xo'jaliklarining huquqiy maqomi, faoliyatining tashkil etilishi hamda ularning huquq va majburiyatlari to'liq belgilab berildi;

– Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 300-sonli qaroriga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan dehqon (fermer) xo'jaliklari boshliqlari attestatsiyadan o'tkazilib, ushbu xo'jaliklar fermer xo'jaliklari sifa-

tida qayta ro'yxatdan o'tkazildi.

Islohotlarning **ikkinchi bosqichi** 2001–2012-yillarni o'z ichiga olib, ushbu davrda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi hamda ushbu davrda quyidagi asosiy ishlar amalga oshirildi:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi PF-3226-sonli Farmoniga asosan zarar bilan ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida fermer xo'jaliklari tashkil etildi, fermer xo'jaliklariga yer maydonlari tanlov asosida ellik yilgacha meros qilib qoldirish huquqi bilan ijaraga berildi;

– Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentyabrdagi 383-sonli qarori bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish va bajarilishini monitoring qilish tartiblari belgilandi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-noyabrdagi PQ-725-sonli Qaroriga muvofiq hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat byudjeti hisobidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar ajratildi;

– barcha qishloq xo'jaligi yer maydonlari to'liq inventarizatsiya qilinib, fermer xo'jaliklarining faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlari optimallashtirildi.

2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimizda 160 ming 300 dan ortiq fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda[90].

O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2015-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17,2 foizini yetishtirib berdi, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholining 27,6 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi (13.4-jadval).

13.4-jadval

[90] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining tutgan o‘rni

Ko‘rsatkichlar	2008	2010	2012	2014	2015	2015-yilda 2008-yil-ga nis-batan %
Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so‘m	36839,4	61831,2	96589,8	144867,9	171369,0	465,2
shu jum-ladan: qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti, mlrd. so‘m	7134,6	15810,7	24370,3	36957,0	42280,4	592,6
Qishloq xo‘jaligining YaIMdagi salmog‘i, foizda	19,4	17,5	17,5	17,2	24,7	-
Iqtisodiyotda band bo‘lgan ishchi kuchi soni, ming kishi	11035,4	11628,4	12223,8	12818,4	13058,3	118,3
Shu jum-ladan: qishloq xo‘jaligida bandlar soni, ming kishi	2958,7	2965,2	3330,0	3531,3	3643,3	1231,4
Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ishchilar salmog‘i, foizda	26,8	25,5	27,2	27,6	27,9	-

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Jadvaldan ko‘rinadiki, Respublikamiz agrar tarmog‘ida amalga oshi-

rilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar natijasida qishloq xo‘jaligining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘sib bormoqda. O‘tgan 2008–2015-yillar oralig‘ida joriy narxlarda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti qiymati o‘sib borish dinamikasiga ega bo‘lib, 2008-yildagi 7134,6 mlrd. so‘mdan 2015-yilda 42280,4 mlrd. so‘mga yetgan.

Mamlakatimizda barcha haydaladigan yerlarning 3/4 qismidan ko‘prog‘i (4,2 mln.ga) sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, uning yarmidan ko‘prog‘i yaxshi meliorativ holatdadir, qolgan yerlarning esa meliorativ holati talabga javob bermaydigan bo‘lib, ularni qayta ko‘rib chiqish, kollektor-drenaj tarmoqlarini rekonstruksiya qilishni olib borishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda sug‘orib kelingan har gektar yerning meliorativ holatini qayta ko‘rib chiqish uchun 1990-yilgi darajadan 14–15 baravar ko‘p xarajat talab qilinadi. Bundan xulosa shuki, birorta ham fermer irrigatsiya va melioratsiya ishlarini o‘zi mustaqil amalga oshira olmaydi. Faqat davlatgina melioratsiya tarmoqlarini rekonstruksiyalashga, qurishga va irrigatsiya tadbirlarini amalga oshirishga qodirdir.

Qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, davlat buyurtmasiga binoan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini moliyaviy sog‘lomlashtirish asosida ichki va tashqi bozorning ehtiyojlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishga imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, paxta-g‘alla, meva-sabzavotchilik va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda eng ilg‘or agrotexnik tadbirlarni qo‘llash hamda chorvachilik, parrandachilik, asalarichilikni rivojlantirishga yetarlicha e’tibor berilmoqda.

Qishloq xo‘jaligini isloh qilish jarayonida qo‘llanilgan muhim yo‘nalishlardan biri – bu shaxsiy tomorqalarni kengaytirish, yangi sug‘oriladigan yerlarni shaxsiy xo‘jaliklar va bog‘-dala hovli uchastkalariga ajratib berish yo‘li bilan aholini yer va ish bilan ta’minlashdan iboratdir. Shu ko‘rilgan chora-tadbirlar hisobiga, birinchidan, qishloq joylarda ishsizlikning kuchayib borish xavfini barham toptirishga, ikkinchidan, aholining real daromadlarini oshirishga, uchinchidan,

aholini hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi keskinlikka barham berishga va to'rtinchidan, yakka tartibda uy-joy qurilish ko'lamini ancha kengaytirishga muvaffaq bo'linmoqda.

Respublikada islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichlaridayoq, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi sifatida faoliyat ko'rsatishi lozimligini ta'kidlab o'tgan edi. Shu sababli respublikamizda qishloq xo'jaligini fermerlashtirish agrar islohotlarning tarkibiy qismi hisoblanib, bu jarayon zarar ko'rib ishlash natijasida og'ir ahvolga tushib qolgan davlat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish, mavjud davlat va jamoa xo'jaliklari tarkibida ular resurslari hisobidan fermer xo'jaliklari tashkil etish hamda dehqonlarning mol-mulklari negizida dehqon xo'jaliklarini tarkib toptirish yo'li bilan amalga oshirildi. Fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil qilish, rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solish O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonunlarga hamda qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan boshqa huquqiy bitimlarga va hukumat qarorlariga asoslanadi. Fermyerlarning o'zini o'zi boshqarishi jarayonlarini kuchaytirish va shu asosda qishloq xo'jaligi samaradorligini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqish maqsadida 2012-yil 22-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi** PF-4478-sonli Farmoni qabul qilindi. Undan so'ng 2015-yil 15-dekabrda "**Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 362-sonli qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qonuniy hujjatlarda fermyerlarga ajratilgan yerlarni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga olish huquqi mustahkamlab qo'yildi. Shu bilan, birga bu xo'jalik uchun yerlarning unumdorligini saqlash va oshirishda davlat tomonidan kafolatlar yaratish yo'li bilan ularni himoyalash tizimi vujudga keltirildi. Shunday qilib fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun

ham huquqiy, ham tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-noyabrdagi **“Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ-725-sonli qarorida fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga samarali va amaliy davlat madadini ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida hosildorligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiradigan fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag‘lar ajratish, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har yili Davlat byudjeti loyihasini shakllantirishda mazkur maqsadlarga yer solig‘i bo‘yicha tushumlar hisobidan mablag‘lar ajratish vazifasi belgilab berilgan edi. Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘lar qiymati 2008-yilda 60 milliard so‘mdan 2013-yilda esa 200 milliard so‘mgacha yoki 333,3 foizga oshdi. 2008–2013-yillarda bu maqsadlar uchun ajratilgan jami mablag‘lar qiymati 810 mlrd. so‘mni tashkil etdi va bu fermer xo‘jaliklarining moliyaviy ahvolini yaxshilashga muhim hissa qo‘shdi (13.1-rasm).



6.2.2-rasm. Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiradigan fermer xo‘jaliklariga davlat byudjetidan ajratilayotgan subsidiyalar qiymati, mlrd. so‘mda [91]

«Shu bilan birga, - deb ta’kidlaydilar Birinchi Prezidentimiz, -

[91] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

o‘tgan davr mobaynida orttirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo‘jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishni qat’iy talab etmoqda. Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo‘jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo‘jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o‘sishiga ko‘p jihatdan to‘sqinlik qilmoqda. Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo‘lgan fermer xo‘jaliklari o‘zini zarur texnika, aylanma mablag‘ bilan ta’minlash, kredit olish qobiliyatiga ega bo‘lish, eng asosiysi, o‘z xarajatlarini qoplash va foyda ko‘rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligini bugun hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda»[92].

O‘zbekistonda Fermer xo‘jaliklari uyushmasi o‘rniga Fermyerlar kengashi tashkil etilmoqda 2012-yil 22-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzoladi. Bu hujjat mamlakat agrar sektorini barqaror va samarali rivojlantirishning, aholi farovonligini oshirishning eng muhim bo‘g‘ini sifatida fermer xo‘jaliklarining roli va ahamiyatini oshirish maqsadida qabul qilindi. Unga ko‘ra quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklarining g‘oyat muhim vazifalari qilib: qishloqda ijara munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini tashkil qilishning yetakchi bo‘g‘ini va shakli sifatida fermer xo‘jaliklarining huquqlari, manfaatlari himoya qilinishi va samarali faoliyat yuritishini ta’minlash; fermerlikni tashkiliy jihatdan mustahkamlash, fermer xo‘jaliklarining o‘zini o‘zi boshqarish ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, tayyorlov, ta’minot va xizmat ko‘rsatish tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlarini takomillashtirish; fermer xo‘jaliklarining iqti-

[92] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009, 22–23-b.

sodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini oshirish, fermyerlarning yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo'jalik xomashyosini kompleks qayta ishlash, shuningdek, qishloqda yangi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil qilish hamda rivojlantirish hisobiga mexanizatsiyalash darajasi va rentabellikni oshirishdan manfaatdorligini rag'batlantirish kabi yo'nalishlar belgilandi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

Birinchi yo'nalish – bevosita fermer xo'jaliklarini mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha asosiy xarajatlarini moliyalashtirish

Ikkinchi yo'nalish – qishloq xo'jaligi korxonalariga soliq imtiyozlarining berilishi

Uchinchi yo'nalish – ball-boniteti past yerlarda paxta yetishtiradigan fermer xo'jaliklariga moliyaviy yordam berish

To'rtinchi yo'nalish – respublikamizda irrigatsiya-melioratsiya tizimini Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Respublikada agrar islohotlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarida xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirishga ham katta ahamiyat berildi. Bunga dastlab, umumdavlat ehtiyojlari uchun yetkazib berilayotgan mahsulotlarga oqilona xarid narxlarini belgilash, keyinchalik mahsulotlarning ko'pchilik turlariga davlat buyurtmasini asta-sekin bekor qilish (1995-yildan faqat paxta va donga davlat buyurtmasi saqlanib qoldi) hamda qishloq xo'jalik korxonalarini qo'llab-quvvatlash (soliqlardan ozod qilish, kreditlarni qaytarish muddatini cho'zish va boshqalar) orqali erishildi.

Hozirgi davrda agrar islohotni tubdan hal etishni taqozo qilayotgan g'oyat muhim yo'nalish – qishloq xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (sanoat, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalariga) jalb etishdan iboratdir. Bunda qishloq joylarda faoliyat shaklini tez o'zgartira oluvchi, zamonaviy texnologiyaga ega bo'lgan, qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlaydigan, kasanachilik va xalq hunarmandchiligiga asoslangan kichik korxonalarni ochish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Qishloq joylarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal

rivojlantirish – agrar sohadagi islohotlarning hozirgi kundagi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari dolzarb bo'lib bormoqda.

Ana shu dolzarb masalalarni hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning strategik yo'nalishlarida **"Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish"** dasturi belgilandi.[93] Unda:

- tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

- paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

- fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjud-

[93] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 1-ilova, 3.3-bandi.

larini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

- kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

- global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

Ushbu harakatlar strategiyasiga ko'ra, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini maqbullashtirish lozim bo'ladi, bunda: paxta ekin maydonlarini 49 ming gektarga va g'alla maydonlarini 10 ming gektarga qisqartirish; qisqartirilgan ekin maydonlariga boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, jumladan, kartoshka – 8,1 ming gektar, sabzavot – 27,2 ming gektar, intensiv bog' – 5,9 ming gektar, tokzor – 2,9 ming gektar, ozuqa ekinlari – 10,9 ming gektar va moyli ekinlar – 4 ming gektar.[94]

Bundan tashqari, O'zbekistonda yangi «O'zagroeksportbank» aksiyadorlik tijorat banki tashkil etiladi. Bank eksport qiluvchi tashkilotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, meva-sabzavot mahsulotlarining eksport imkoniyatlarini samarali va barqaror rivojlantirishni ta'minlash, agrosanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va aholi uchun

[94] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 8-ilova, 161 qator.

yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etilmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan agrar islohotlarni amalga oshirish va uni yanada chuqurlashtirishning barcha yo'nalishlari respublikaning xususiyatlari va bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqadi.

Xulosalar

1. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda ishlab chiqarish jarayoni bevosita tirik mavjudotlar – yer, o'simlik, chorva mollari bilan bog'liq bo'ladi va tabiiy qonunlar iqtisodiy qonunlar bilan bog'lanib ketadi. Bunda yer mehnat quroli va mehnat predmeti sifatida qatnashadi. yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u yeyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha, agar undan to'g'ri foydalanilsa, uning unumdorligi oshib boradi.

2. Qishloq xo'jalik korxonalarida ham asosiy kapital turli xil traktorlar, mashinalar, transport vositalari, bino, inshootlar, ko'p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva hamda ish hayvonlari, shuningdek, xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan turli xil asbob-uskunalardan tashkil topadi.

3. Qishloq xo'jaligida muhim ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer pul bilan baholanmasligi, ya'ni qiymati o'lchanmasligi tufayli, kapital qiymati tarkibida hisobga olinmaydi. Qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan asosiy kapitalning ayrim turlari masalan, ko'p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva, ish hayvonlari, sug'orish inshootlari va boshqalar sanoat tarmoqlarida bo'lmaydi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish vositalari hisoblangan binolar, sug'orish inshootlari va boshqalar ishlab chiqarish natijasini oshirishga faol ta'sir o'tkazadi, sanoat tarmog'ida esa ular birmuncha sustroq va bilvosita ta'sir o'tkazadi.

4. Agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi. Renta munosabatlari yer egasi va uni ijaraga olib foydalanuvchi (tadbirkor) o'rtasida mazkur yerdan olinadigan foydani taqsimlash borasida sodir bo'ladigan munosabatlardan iborat bo'ladi. yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir.

5. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi korxo-

nalarining muhim va asosiy shakli fermer xo'jaliklari bo'lib, ularni rivojlantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

6. Hozirgi paytda turli mamlakatlarda vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab renta quyidagi turlarga ajratiladi: absolyut yer rentasi, differensial (tabaqalashgan) renta I va differensial renta II, monopol renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta.

7. Agrosanoat majmuasi (ASM) – bu qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlari birikmasidir va agrosanoat integratsiyasining bir ko'rinishidir. ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi. Birinchi soha – qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar; ikkinchi soha – qishloq xo'jaligining o'zi; uchinchi soha – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish); to'rtinchi soha – qishloq aholisi hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infratuzilma (yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, maishiy xizmat ko'rsatish, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va tara xo'jaligi).

8. Tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jalik sohalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agrobiznes tushunchasiga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan biznes turlari kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnika yetkazib berish, ta'mirlash xizmatlari ko'rsatish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Asosiy tayanch tushunchalar

Agrar munosabatlar – yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir.

Renta munosabatlari – yerdan foydalanish natijasida vujudga keladigan sof daromadni taqsimlash va o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Differensial renta – yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

Differensial renta I – yerlarning tabiiy unumdorligi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

Differensial renta II – yerlarning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

Absolyut renta – qishloq xo'jaligida yerga bo'lgan mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, barcha turdagi – yaxshi, o'rtacha va yomon yerlardan olinadigan renta.

Monopol renta – alohida tabiiy sharoitga ega bo'lgan, noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta.

Undirma sanoatda renta – foydali qazilma konlarining yuza yoki chuqur joylashishi va ularning boyligi jihatdan farqlar natijasida vujudga keladi.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq xo'jalik tarmoqlarining birligi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi – bevosita qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi sohalar.

Ijtimoiy infratuzilma – odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalar.

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayoni.

Agrobiznes – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sohalardagi namoyon bo'lish shakli.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Agrar munosabatlarning mazmunini, iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rnini va xususiyatlarini ko'rsatib bering.
2. «Yerga egalik» va «yerdan foydalanish» tushunchalarini izohlang.
3. Yer rentasi nazariyalarining umumiy tomonlari va tub farqlarini ko'rsatib bering.
4. Yer rentasining asl mazmunini tushuntiring.
5. Differensial (I va II) va absolyut rentaning hosil bo'lish shart-sharoitlari, manbalari va taqsimlanishini tushuntirib bering.
6. Monopol renta nima?
7. Qazib oluvchi va undirma sanoatda renta qanday hosil bo'ladi?
8. «Ijara haqi» va «yer rentasi» ning farqlarini izohlang.
9. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga tavsif bering.
10. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalarining iqtisodiy mazmuniga o'z fikringizni bildiring.

III-B O‘ L I M
MILLIY IQTISODIYOT (MAKROIQTISODI-YOT)NING AMAL QILISH VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

14-BOB. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O'LCHAMLARI. YALPI MILLIY MAHSULOT VA UNING HARAKAT SHAKLLARI

Oldingi boblarda biz iqtisodiy jarayonlar va ularda sodir bo'ladigan munosabatlarni umumiqtisodiy va korxonalar darajasida ko'rib chiqqan edik. Mazkur bobda iqtisodiy munosabatlar makroiqtisodiy darajada tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tavsifi, milliy ishlab chiqarishning natijasi hisoblangan yalpi ichki mahsulot, uning tarkibiy qismlarining iqtisodiy mazmuni va harakat shakllari yoritiladi. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash tizimi hamda uning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash usullari bayon etiladi.

14.1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Barchamizga ma'lumki, o'tmishda O'zbekiston iqtisodiyoti sobiq ittifoq iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanib, uni mustaqil milliy iqtisodiyot deb bo'lmas edi. Bizga bir yoqlama rivojlangan paxta yakkahokimligiga, xomashyo ishlab chiqarishga va boy mineral xomashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan, yonilg'i, g'alla va boshqa ko'pgina ishlab chiqarish vositalari, iste'mol tovarlarining ta'minlanishi bo'yicha markazga qaram bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan»[95] mamlakat edi.

Lekin, eng yomoni O'zbekiston iqtisodiyoti, asosan, xomashyo tayyorlashga yo'naltirilgani, biryoqlama rivojlanish hisobidan mo'rt va nochor holga tushib qolgan bo'lib, iqtisodiyotga, ekologiya va

[95] Qarang: Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999, 6-bet.

aholi genofondiga halokatli ta'sir o'tkazadigan paxta yakkahokimligi yurtimizdagi vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan edi. Buning oqibatida ulkan tabiiy, mineral-xomashyo, mehnat va inson salohiyatiga ega bo'lishiga qaramay, respublikamiz sobiq SSSRda aholi turmush darajasi, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivoji bo'yicha oxirgi o'rinlardan birida turar edi[96].

Yangi energetika, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlarining vujudga kelishi, ko'plab yirik inshootlar, korxonalar, zavod va fabrikalar qurilganligi, yonilg'i va g'alla mustaqilligiga erishilganligi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, modernizatsiyalash, yangilash, diversifikatsiyalash, izchil o'sish sur'atlari milliy mustaqil iqtisodiyotni mustahkamlash sari harakat natijalaridir.

Mamlakatimizda mustaqil amal qiladigan bozor iqtisodiyotining qator infratuzilmalari: savdo, bozor, birja, moliya, bank, kredit, soliq, sug'urta, bojxona tizimlari va boshqa qator funksional iqtisodiyot tarmoqlari barpo etildi. Shunday qilib, O'zbekistonda erkin, zamonaviy bozor munosabatlariga asoslangan yangi, mustaqil rivojlanayotgan, o'z xalqi, millati manfaatlariga xizmat qiladigan milliy iqtisodiyot shakllantirildi.

Milliy iqtisodiyot ko'plab o'zaro bog'liq iqtisodiy unsurlardan iborat bo'lgan murakkab iqtisodiy tizimni namoyon etadi. Mazkur unsurlar o'rtasidagi amalda tarkib topgan munosabatlarning butun majmui iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini tavsiflab beradi.

Milliy iqtisodiyot – barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro- va makrodarajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir. Milliy xo'jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.

Makrodarajada qaralganda milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi quyidagilar o'rtasidagi munosabat sifatida namoyon bo'ladi:

– mavjud ishlab chiqarish resurslari;

– resurslarning ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ajralib chiqqan iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi taqsimot hajmi;

[96] O'zbekistonning 16-yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16-yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007-yil 31-avgust.

– iqtisodiy subyektlarning ishlab chiqarish hajmlari;

– milliy mahsulotning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarida shakllanuvchi tarkibiy qismlari.

Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini sodda ko'rinishda rasm orqali tasvirlash mumkin (14.1-rasm).



14.1-rasm. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi

Milliy iqtisodiyot me'yorida faoliyat qilish va barqaror o'sishi uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro bog'liqligi va muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi. Milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasining shakllanishida quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: mavjud bozor kon'yunkturasi, bozorlar sig'imi va monopollashuv darajasi, mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi, fan-texnika taraqqiyotining miqyoslari, tavsifi va rivojlanish sur'atlari, ishlab chiqarish resurslarining sifati, hududlarning yer maydonlari va infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanganligi, ekologiya holati.

Milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirish o'ta murakkab jarayon bo'lib, u uzoq muddatli, har tomonlama o'ylab olib boriluvchi iqtisodiy siyosatga asoslanadi. Chunki, iqtisodiy rivojlanishda turli beqarorlik holatlari, inqirozlar ro'y berib turadi. Jumladan, 2008-yilda AQSHda boshlangan va hamon davom etib turgan jahon-moliyaviy iqtisodiy inqirozi ham milliy iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bunday ta'sir quyidagi holatlar orqali namoyon bo'lmoqda:

Birinchidan, mamlakatimiz eksport qiladigan mahsulotlar (qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqalar)ning jahon bozoridagi narxlarining keskin tushib ketishi natijasida eksportdan olinadigan daromad hajmining pasayib ketishi;

Ikkinchidan, umuman dunyo bozoridagi talabning keskin tushib ketishi oqibatida mahsulot sotish hajmining qisqarishi;

Uchinchidan, jahondagi investitsion faollikning pasayishi natijasida uzoq muddatli investitsion loyihalarimizni amalga oshirish muddatlarining kechikishi va h.k.

Milliy iqtisodiyotimizning barqaror va muvozanatli rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ushbu holatlarni o'z vaqtida aniqlab, ularning oldini olish va ta'sir oqibatlarini yumshatish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar evaziga iqtisodiyotimizning yuqori o'sish sur'atlari saqlab qolindi.[97]

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, mikro- va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. **Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida iqtisodiyotning o'zaro aloqada va ta'sirda harakat qiladigan sohalari, tarmoqlari, hududiy tuzilmalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo'jalik tizimidir.** Makroiqtisodiyot o'z ichiga iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarini, bank, moliya, sug'urta, soliq, bojxona tizimlarini o'z ichiga oladi.

Makroiqtisodiyot milliy iqtisodiyot bilan birgalikda jahon iqtisodiyotini ham o'z ichiga oladi. Bu yerda ko'proq milliy iqtisodiyot haqida so'z yuritib, jahon xo'jaligi to'g'risida keyingi boblarda alohida to'xtalib o'tamiz. Milliy iqtisodiyotning asosiy funksional ahamiyati mamlakat aholisining doimiy ravishda o'sib boruvchi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda namoyon bo'ladi. Milliy iqtisodiyotning mazkur asosiy muammosi naqadar samarali hal etilayotgani makroiqtisodiy tahlil yordamida aniqlanadi. **Makroiqtisodiy**

[97] Qaralsin: Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 14–15-b.

tahlilning maqsadi – takror ishlab chiqarish jarayonini obyektiv ravishda aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish asosida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida vujudga kelgan holatlarni ochib berishdan iborat. Bu maqsadga erishishning muhim shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning holati va harakatini obyektiv aks ettiruvchi statistik ma'lumotlarning mavjudligi;

2) mamlakat iqtisodiyotini tahlil qilishda keng miqyosda va tarixiy jihatdan yondashuv;

3) iqtisodiy tizim salohiyatini haqqoniy ravishda baholamasdan hamda iqtisodiy qonunlarning obyektiv amal qilishini bilmasdan turib mamlakat iqtisodiyotiga aralashuv salbiy holatlarni keltirib chiqarishini anglash;

4) makroiqtisodiy nazariya muayyan mamlakatlarning iqtisodiyotini obyektiv ravishda tadqiq etish asosida yaratilishini hamda undan boshqa mamlakatlar amaliyotida o'ta ehtiyotkorlik bilan foydalanish mumkinligini tushunish;

5) ishlab chiqarishni aholi daromadlari va iste'moli darajasini o'stirishga yo'naltirish;

6) aholi daromadlari, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik o'sishining yagona manbai bo'lib mamlakatdagi barcha ishchi kuchlarini ish joylari hamda ular daromadlarining oshishi bilan ta'minlovchi milliy ishlab chiqarishning barqaror va samarali o'sishi ekanligini tushunish.

Ko'pgina mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho berilib, ular faoliyatining rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati, uning o'sishi yoki pasayishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi. Bu tizimga kiruvchi turli xil ko'rsatkichlar, **birinchidan,** bizga ma'lum vaqt oralig'idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. **Ikkinchidan,** makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, milliy mahsulot va uning tarkibiy qismlari harakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirish imkonini beradi.

Nihoyat, **uchinchidan**, mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan samarali foydalanish darajasini, iqtisodiyotning turli sohalari, tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik va muvozanatlik holatini aks ettiradi.

Butun milliy iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), aholi daromadlari (AD), ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya va boshqa shu kabilar hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi.

14.2. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari

Jamiyat a'zolarining ehtiyojlari muntazam ravishda tarkibiy jihatdan o'zgarib, yangilanib, miqdoran ko'payib va sifat jihatidan takomillashib borar ekan, bu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari ham to'xtovsiz yangilanib, va takroran amalga oshib turadi. **Jamiyat miqyosidagi ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takrorlanib turishi ijtimoiy takror ishlab chiqarish deyiladi.**

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish ikki ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin: oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish.

Oddiy takror ishlab chiqarish deb ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining hajm va sifat jihatdan o'zgarmagan holda takrorlanishiga aytiladi. Odatda bunday ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ko'proq o'z ichki ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan natural xo'jalik va oddiy tovar xo'jaligi davri uchun xos bo'lgan.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish deb ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish miqyoslarining muntazam ravishda oshib borgan holdagi takrorlanishiga aytiladi. Bu turdagi takror ishlab chiqarish hozirgi davrdagi barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xosdir.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish natijasida mamlakat miqyosida milliy mahsulot yaratiladi. **Milliy mahsulot – mamlakat iqtisodiyotida Yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmidir.** U barcha moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish hamda xizmatlarni o'z ichiga olib, hozirgi bizning mamlakatimiz qo'llayotgan milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot (YaIM) deb yuritiladi. Milliy mahsulot ko'rsatkichi oldingi davrlarda, masalan oldingi sobiq Sovet ittifoqi iqtisodiyotida jami ijtimoiy mahsulot (JIM) deb, boshqa ko'pgina mamlakatlarda esa yalpi milliy mahsulot (YaMM) deb yuritilar edi. Yalpi **milliy mahsulot – bu o'z mamlakati yoki xorijda joylashgan milliy korxonalar tomonidan Yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmining jami qiymatidir. Shu** o'rinda ta'kidlash lozimki, milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini aniqroq ifodalash va taqqoslash uchun yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichi qulayroqdir. Shuning uchun hozirgi davrda ko'pgina mamlakatlarda bu ko'rsatkichdan foydalaniladi. Yalpi **ichki mahsulot – ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda Yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib yetadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor narxidagi qiymatidir.**

Yalpi ichki mahsulot umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u faqat mazkur mamlakat ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mamlakat ichida Yaratilgan tovar va xizmatlar jami qiymatining bozor narxlaridagi ifodasini namoyon etadi. U barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Yalpi ichki mahsulot xuddi yalpi milliy mahsulot kabi hisoblanadi, biroq YaIM ko'rsatkichiga mazkur mamlakatning chet ellardagi ishlab chiqarish omillaridan foydalanib olib borilgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmlari kiritilmaydi, lekin shu mamlakat ichidagi xorijiy mamlakat korxonalari mahsuloti kiritiladi. Shuning uchun YaMM bilan YaIM miqdor jihatdan qisman farq qiladi.

YaMM va YaIMning o'zaro farqini quyidagi rasm orqali yaqqolroq ifodalash mumkin (14.2-rasm).



14.2-rasm. YaMM va YaIM o'rtasidagi tarkibiy nisbatlar

Demak, rasmdan ko'rinadiki, mamlakat YaMM 100 trln. so'mni (M2 va M3 shartli raqamlar yig'indisi), YaIM esa 104 trln. so'mni (M2 va M1 shartli raqamlar yig'indisi) tashkil etadi.

YaMM va YaIM o'rtasidagi farq u qadar ahamiyatli emas. Bu farq rivojlangan mamlakatlarda YaIMning ±1 foizni tashkil etadi. BMT statistika xizmati asosiy ko'rsatkich sifatida YaIMdan foydalanishni tavsiya etadi. Yaqin vaqtlarga qadar AQSH va Yaponiyada YaMM ko'rsatkichi qo'llanilar edi, endilikda bu mamlakatlar ham YaIM ko'rsatkichini qo'llay boshladilar.

Hozirgi paytda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi hisobga olinmoqda. Shuning uchun biz bundan keyingi o'rinlarda yalpi ichki mahsulot to'g'risida so'z yuritamiz.

Mamlakatimizda oqilona iqtisodiy siyosat yurgizilib, taraqqiyotning o'zbek modelida belgilangan strategik tamoyillarni izchil amalga oshirish natijasida makroiqtisodiy barqarorlik saqlanib kelinmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda. Keyingi 12-yil davomida (2004–2015-yillar) bu ko'rsatkichning o'sish sur'ati o'rtacha yiliga 8 foizdan oshiqroqni tashkil etdi. 2016-yilda esa yalpi ichki mahsulot 7,8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,6 foiz, qishloq xo'jaligi

mahsulotlari qariyb 6,8 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 12,5 foizga oshdi[98].

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasida "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur'atlarini saqlab qolish"[99] vazifasi belgilandi.

Olib borilgan tarkibiy o‘zgarishlar natijasida sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 14,2 foiz o‘rniga 2016-yilda 25,7 foizni, xizmatlar ko‘rsatish sohasining ulushi 37,2 foiz o‘rniga 49,5 foizni tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligida esa aksincha – bu ko‘rsatkich pasayib, 30,1 foizdan 17,6 foizga tushdi (14.1-jadval).

14.1-jadval

Yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish tarkibi, foizda

Ko‘rsatkichlar	2000	2004	2008	2012	2013	2014	2015	2016
Sanoat	14,2	17,5	22,3	24,0	24,1	24,1	24,3	25,7
Qishloq xo‘jaligi	30,1	26,4	19,4	17,5	17,4	17,2	16,7	17,6
Qurilish	6,0	4,8	5,6	5,9	6,4	6,8	7,3	7,2
Xizmatlar sohasi	37,2	37,2	43,4	44,9	43,9	43,5	42,9	49,5
Sof soliqlar	12,5	14,1	9,3	7,7	8,2	8,4	8,8	8,7

***Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.*

Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to‘g‘ri hisoblab chiqish uchun mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YaIM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko‘p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, iqtisodiyotning barcha korxona va tarmoqlaridagi qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi olinadi.

---

[98] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlari

[99] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni, 1-ilova 3.1-band.

Qo'shilgan qiymat – bu korxonalar yalpi mahsuloti bozor qiymatidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangandan qolgan qismidir.

YaIM yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor narxidagi summasi bo'lganligi uchun tovarning o'zi yoki uning naflliligi ko'paymagan holda narxlar oshishi evaziga uning hajmi oshib ketishi mumkin. Narx ishlab chiqarish umumiy hajmining har xil elementlarini yagona umumiy asosga keltirishning eng keng tarqalgan ko'psatkichi sifatida foydalaniladi. Shuning uchun yalpi ichki mahsulotga baho berishda nominal va real milliy mahsulot hisobga olinadi. **Joriy bozor narxlarida hisoblangan milliy mahsulot nominal milliy mahsulot, o'zgarmas, qiyosiy narxlarda hisoblangan milliy mahsulot esa real milliy mahsulot deb yuritiladi.** Har xil yillarda ishlab chiqarilgan YaIM qiymatini faqat narx o'zgarmagan taqdirda o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari narx darajasi bizga iqtisodiyotda inflyatsiya (narx darajasining o'sishi) yoki deflyatsiya (narx darajasining pasayishi) o'rin tutganligini va uning miqyosi qandayligini bilish imkonini beradi.

Narx darajasi indeks shaklida ifodalanadi. **Narx indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlari summasini xuddi shunday tovarlar va xizmatlar miqdorining bazis davrdagi narxlari summasiga taqqoslash opqali hisoblanadi.** Taqqoslashning boshlang'ich davri «bazis yil» deyiladi. Agar bu aytilganlarni formula shakliga keltirsak, u quyidagi ko'rinishni oladi:

$$Narx\ indeksi = \frac{Joriy\ yildagi\ iste'mol\ tovarlari\ narxi}{Bazis\ yildagi\ iste'mol\ tovarlari\ narxi}$$

Amaliyotda bir qator turli xil tovar va xizmatlar to'plami yoki iste'mol savatining narx indeksidan foydalaniladi. G'arb mamlakatlari va xususan AQSHda bu indekslar ichida eng keng qo'llaniladigani iste'mol narxlari indeksi hisoblanadi. Uning yordamida tipik shahar aholisi sotib oladigan, iste'mol tovar va xizmatlarining 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor savatining qayd qilingan narxlari hisoblanadi. Ammo narxning umumiy darajasini hisoblash uchun YaIM narx

indeksidan foydalaniladi. YaIM narx indeksi ancha keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga nafaqat iste'mol tovarlari, balki investitsion tovarlar, davlat tomonidan sotib olinadigan hamda xalqaro bozorda sotilgan va sotib olingan tovarlar va xizmatlar narxlarini ham oladi. YaIM narx indeksi nominal YaIMni real YaIMga aylantirib hisoblash imkoniyatini beradi. Nominal YaIM shu mahsulot ishlab chiqarilgan davrda amal qilib turgan narxlarda ifodalangan ishlab chiqarish hajmini bildiradi.

Joriy yildagi nominal YaIMni real YaIMga aylantirishning ancha oddiy va to'g'ridan-to'g'ri usuli nominal YaIMni narx indeksi (NI)ga bo'lishdir, ya'ni:

$$Reall\ YAIM = \frac{Nominal\ YAIM}{NI}$$

Iqtisodiyotda yillik ishlab chiqarish hajmining ko'rsatkichi YaIM bilan birga, uning tarkibiy qismlari sifatida hisoblanish mumkin bo'lgan bir qator o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar mavjud bo'ladiki, ular milliy iqtisodiyotning turli tomonlarini tavsiflab beradi.

YaMM va YaIM ishlab chiqarish yalpi hajmining ko'rsatkichi sifatida bitta muhim kamchilikka ega. Ular mazkur yilda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan asosiy kapitalning o'rnini qoplash uchun zarur bo'lgan qiymatni ham o'z ichiga oladi.

Mamlakat iqtisodiyotining qanchalik rivojlanganligi va samarali ekanligini aniq bilish uchun aynan shu yilda jonli mehnatning unumli harakati natijasida vujudga keltirilgan sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichidan foydalaniladi.

YaIMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichi hosil bo'ladi:

$$YAIM - Amortizatsiya\ yillik\ summasi = SMM.$$

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxona tomonidan o'rnatiladigan

narxga qo'shimcha hisoblanadi. Bunday soliqlar og'irligi iste'molchi zimmasiga tushib, natijada ular daromadining bir qismini yo'qotadi. Hozirgi davrda qo'llanilayotgan milliy hisoblar tizimida **SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlanib, milliy daromad (MD) ko'rsatkichi aniqlanadi:**

$$SMM - Biznesga\ egri\ soliq = Millty\ daromad.$$

Shunday qilib, hozirgi hisoblar tizimida SMM miqdori bilan MD miqdori bir-biridan farq qilib qolgan. Aslida mamlakat miqyosida ularning miqdori farq qilmasligi lozim. Chunki milliy daromad sof milliy mahsulotning sotilgandan keyingi puldagi ko'rinishidir. Shuning uchun ba'zi adabiyotlarda milliy daromadni sof mahsulotning o'zgargan shakli deb ham yuritiladi. Bu holat milliy hisoblar tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Amaliyotda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan milliy daromad farqlanadi. **Ishlab chiqarilgan milliy daromad – bu yangidan Yaratilgan mahsulotning butun hajmi. Foydalanilgan milliy daromad – bu ishlab chiqarilgan milliy daromaddan har xil yo'qotishlar (tabiiy ofatlar, mahsulotlarni zaxirada saqlashdagi yo'qotishlar va h.k.) va tashqi savdo qoldig'i chiqarib tashlangan miqdorga teng.** Milliy daromadni barcha tupdagi daromadlarni (amortizatsiya ajratmasi va biznesga egri soliqlardan tashqari) qo'shib chiqish yo'li bilan ham aniqlash mumkin. Milliy daromadning bir qismi, jumladan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, kopxona foydasidan to'lanuvchi soliqlar va kopxonaning taqsimlanmaydigan foydasi amalda uy xo'jaliklari ixtiyoriga kelib tushmaydi. Ikkinchi tomondan esa, uy xo'jaliklari oladigan daromadning bir qismi, masalan, ijtimoiy to'lovlar – ular mehnatining natijasi hisoblanmaydi.

Shaxsiy daromad ko'rsatkichini topish uchun milliy daromaddan uy xo'jaliklari qo'liga kelib tushmaydigan daromadlarning yuqoridagi uchta turini chiqarib tashlashimiz hamda joriy mehnat faoliyatining natijasi hisoblanmagan daromadlarni unga qo'shishimiz zarur:

Milliy daromad – Ijtimoiy sug'urta ajratmasi – Korxona foydasiga soliqlar – Korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi + Ijtimoiy to'lovlar = SHaxsiy daromad.

Shaxsiy daromaddan soliqlar to'langandan keyin uy xo'jaliklarining to'liq tasarrufida qoladigan daromad shakllanadi.

Soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy daromaddan shu daromad hisobidan to'lanadigan soliqlar miqdorini chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblanadi. Soliqlar to'langandan keyingi daromad uy xo'jaliklari eng oxirida ega bo'ladigan daromad hisoblanib, alohida shaxs va oilalar o'z tasarrufida bu daromadlarning bir qismini iste'mol uchun sarflaydilar va boshqa qismini jamg'armaga yo'naltiradilar.

Milliy mahsulot hajmining aniq baholanishiga hufyona iqtisodiyot ta'sir ko'rsatadi. **Xufyona iqtisodiyot – bu tovar-moddiy boyliklar va xizmatlarning jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan harakati, ya'ni davlat boshqaruv organlaridan yashirin holda alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir.** Bu munosabatlar o'z ichiga iqtisodiy faoliyatning barcha hisobga olinmagan, tartibga solinmagan turlarini oladi. Xufyona iqtisodiyot tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) jinoyatga aloqador iqtisodiyot – rasmiy iqtisodiyot tarkibiga iqtisodiy jinoyatning kiritilishi (boyliklarning talon-taroj qilinishi; nazoratning har qanday shaklidan yashiringan holdagi xufyona iqtisodiy faoliyat – narkobiznes, qimor o'yinlari, fohishabozlik; daromadlarni noiqtisodiy qayta taqsimlash shakli sifatidagi fuqarolarning shaxsiy mulkiga qarshi umumjinoiy harakatlar – bosqinchilik, shaxsiy mulkni zo'rlik bilan tortib olish, o'g'irlash, reket);

2) soxta iqtisodiyot – hisobga olish va hisobotlarning amaldagi tizimiga soxta natijalarni haqiqiy natija sifatida kirituvchi rasmiy iqtisodiyot (qo'shib yozishlar);

3) norasmiy iqtisodiyot – tovar va xizmatlarning ayriboshlash va taqsimlash bo'yicha iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi norasmiy o'zaro aloqalar tizimi bo'lib, u mazkur subyektlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar va bevosita aloqalarga asoslanadi;

4) yashirin ikkalamchi iqtisodiyot – yakka tartibdagi va kooperativ faoliyatning nazoratdan yashiringan, ya'ni qonun tomonidan taqiqlangan yoki belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan turi.

14.3. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari

Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni hisoblashda milliy hisoblar tizimidan foydalaniladi. **Milliy hisoblar tizimi (MHT) – bu barcha asosiy iqtisodiy jarayonlarni, takror ishlab chiqarish sharoitlari, jarayonlari va natijalarini tavsiflovchi o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tasniflar va guruhlar tizimi.**

MHT BMT tomonidan e'lon qilingan «Milliy hisoblar va yordamchi jadvallar tizimi» nomli hujjat asosida xalqaro statistikada standart tizim sifatida 1953-yildan boshlab qo'llanila boshladi. Shu davrdan (1953-yildan) buyon to bugungi kungacha MHT to'rt marta o'zgartirilib, takomillashtirildi. Lekin u hali ham takomillashtirishga muhtoj. Hozirgi davrda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda mazkur tizimning takomillashtirilgan shakli qo'llanilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, ya'ni 1993-yildan boshlab MHTdan foydalana boshladi. Q. Mambetjanovning fikricha, hozirgi kungacha **milliy hisoblar tizimining rivojlanishini yettita bosqichga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.**

Birinchi bosqich XVII asrning ikkinchi yarmidan 1930-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, unda milliy hisoblar tizimi ilk bor shakllana boshladi. Bu bosqichda asosiy e'tibor milliy boylik va daromad ko'rsatkichlarini hisoblashga qaratilgan. Lekin, bu bosqichda milliy hisobchilik yagona bir tizim sifatida shakllanmadi.

Ikkinchi bosqich o'tgan asrning 30-yillaridan boshlandi va unda keynschilik ta'limoti muhim o'rin tutdi. Bu bosqichda asosiy e'tibor milliy boylik va milliy daromadni hisoblash usullarini takomillashtirish, iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning harakatini tahlil qilish, makroiqtisodiy tahlil uchun zarur axborot tizimini shakllantirish, uning davlat hokimiyatini boshqarishdagi rolini oshirish va milliy hisoblar tizimining ayrim ko'rsatkichlariga aniqliklar kiritishga qaratildi.

Uchinchi bosqich (1953-yil) ikkinchi jahon urushidan keyingi davrni o'z ichiga olib, davlatlar vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish ehtiyojidan kelib chiqib yondashildi. Ushbu bosqichda BMT Statistika komissiyasi tomonidan MHTning dastlabki andozasi MHT-1953 tasdiqlandi.

To'rtinchi bosqichda (1968-yil) BMTning MHT-1953 andozasi ancha takomillashtirildi, olingan ma'lumotlarni taqqoslash imkoni tug'ildi va MHTning boshqa qulay jihatlari ham ochib berildi.

Beshinchi bosqich. 1993-yilga kelib ayrim mamlakatlarda milliy hisobchilikni yuritish tartibida katta farqlar mavjudligi tufayli ularning xalqaro qiyosiy taqqoslash imkoniyati buzildi, jahon bo'yicha ko'rsatkichlarni umumlashtirish masalasi murakkablashdi va jahon iqtisodiyotini tahlil qilish qiyinlashdi. Shu sababli, milliy hisoblar tizimining yangi MHT-1993 andozasi qabul qilindi. Unda MHTning to'lov balansi va davlat moliyasi statistikasi bilan o'zaro bog'liqliklari aniqlab olindi, MHTning bir nechta bo'lim va boblari yangilandi, operatsiyalar va ularni hisobga olish qoidalari, yalpi ishlab chiqarish, kapital iste'moli va zaxiralari, bozor va nobozor ishlab chiqarishning nisbatlari ko'rsatkichlarini hisoblash metodologiyasi ishlab chiqildi.

Oltinchi bosqichda MHTning eng oxirgi andozasi, ya'ni MHT-2008 yaratildi va hozirgi kunda ham amal qilmoqda. MHTning bu andozasida uning iste'molchilari uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishning ixchamligi va shaffofligini ta'minlash, iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflash, iqtisodiyot va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qilish, moliyaviy operatsiyalarni hisobga olish usullarini takomillashtirish, uning ayrim konsepsiya va kategoriyalariga aniqlik kiritish, soddalashtirish masalalari hal qilindi.

Yettinchi bosqich 2008-yildan keyingi davrlarni o'z ichiga olib, MHTni yanada takomillashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda[100].

Shu bilan birga ta'kidlash joizki, hali bu hisoblar tizimining zaif va bo'sh joylari anchagina bor. Masalan, unda takror ishlab chiqarishni o'z maromida olib borishni ta'minlash nuqtai nazaridan qaraganda

[100] Q. Mambetjanov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy hisoblar tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. // I.f.n. ... dis. avtoreferati. – Toshkent – 2012. 8–9 betlar.

YaIMning muhim tarkibiy qismlarini, jumladan, amortizatsiya ajratmalari SMM, milliy daromad, zaruriy va qo'shimcha mahsulot kabi ko'rsatkichlarni tarmoqlar va hududlar kesimida hisoblashning usullari ishlab chiqilmagan va ularni hozirgacha aniq hisobga olishning imkoni bo'lmayapti.

Milliy hisoblar tizimi asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajatlar balansi misol bo'lishi mumkin. Daromadlar xo'jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajatlar to'rtta guruhdan iborat bo'ladi: iste'mol, investitsiyalar, davlat xaridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me'yordagi – muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi. Ushbu milliy hisoblar tizimi asosida YaIM uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin:

Birinchi usul – bu YaIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha Yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi hisoblab chiqiladi. Qo'shilgan qiymatni aniqlash jami ijtimoiy mahsulotdan oraliq mahsulotlar va xomashyo, yoqilg'i, materiallar qiymatini chegirish orqali amalga oshiriladi. Biz YaIMni hisoblashning mazkur usuliga tegishli ba'zi tushunchalar (masalan, takroriy hisob, oraliq mahsulot) va shartli misollarni darslikning 2-bobida ko'rib chiqqan edik. Bu usul bilan hisoblangan YaIM alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o'rnini va hissasini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi usul – bu YaIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv.

Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan hamma sarflar qo'shib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlarni mamlakat ichida xo'jalikning uchta subyekti – uy xo'jaliklari, davlat, tadbirkorlar hamda tashqaridan chet ellik iste'molchilar sotib olishi mumkin.

Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari - bu kundalik ehtiyojdagi tovarlarga, xizmatlarga, uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir.

Investitsion sarflar – tadbirkorlik sektorining asosiy va aylanma kapital tovarlarini (investitsion tovarlar) sotib olishga qiladi-

gan sarflaridir. Investitsion sarflar asosan uchta qismdan iborat: a) tadbirkorlar tomonidan mashina, yskuna va stanoklarning barcha xaridi; b) barcha qurilishlar; v) zaxiralarning o'zgarishi. Birinchi guruh elementlarning «investitsion sarflar» tarkibiga kiritilish sababi aniq: qurilishlarning bunday sarflar tarkibiga kiritilishi, o'z-o'zidan aniqki, yangi fabrika, ombor yoki elevator qurilishi investitsiyalar shakli hisoblanadi. YaIM tarkibiga tovar zaxiralarning ko'payishi, ya'ni ishlab chiqarilgan, lekin mazkur yilda sotilmagan barcha mahsulotlar kiritiladi. Boshqacha aytganda YaIM o'z ichiga yil davomidagi zaxiralar va ehtiyotlar barcha o'sishining bozor qiymatini oladi. Zaxiralarning bu o'sishi YaIMga joriy ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi sifatida qo'shiladi.

Zaxiralar kamayganda, bu kamayish YaIM hajmidan chiqarilishi zarur. Zaxiralarning kamayishi yil davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgandan ko'proq mahsulot sotilganligini bildiradi. Boshqacha aytganda jamiyat mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotni va bunga qo'shimcha oldingi yillardan qolgan zaxiralarning bir qismini iste'mol qilgan bo'ladi.

Milliy hisoblar tizimida YaIMni hisoblashda yalpi, xususiy va ichki investitsiyalar tushunchasidan foydalaniladi. **Xususiy va ichki investitsiyalar** mos ravishda xususiy va milliy kompaniyalar amalga oshiradigan investitsion sarflarni bildiradi. Yalpi **investitsiyalar** o'z ichiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mashina, uskuna va qurilmalarning o'rnini qoplash uchun mo'ljallangan barcha investitsion tovarlar ishlab chiqarishni, hamda iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar hajmiga har qanday sof qo'shimchalarni oladi. Yalpi investitsiyalar mohiyatiga ko'ra iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplash summasi va investitsiyalarning o'sgan qismidan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan **sof xususiy ichki investitsiyalar** tushunchasi joriy yil davomida qo'shilgan investitsion tovarlar summasini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Davlat sarflari – bu mahsulotlar va iqtisodiy resurslarni, xususan ishchi kuchini sotib olishga davlatning (boshqaruvning quyi va mahalliy organlari bilan birga) qilgan barcha sarflarini o'z ichiga oladi.

Chet elliklarning milliy iqtisodiyot tovarlariga sarflari xuddi mamlakat ichidagi iste'molchilik sarflari kabi milliy ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Shu sababli YaIMni sarflar bo'yicha hisoblashda tovar va xizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya'ni eksport qiymati ham qo'shiladi. Boshqa tomondan, iste'mol va investitsion sarflar hamda davlat mablag'larining bir qismi import qilingan, ya'ni chet elda ishlab chiqarilgan tovarlarga sarflanadi. Milliy ishlab chiqarish umumiy hajmi asossiz oshib ketmasligi uchun import hajmi YaIM tarkibidan chiqariladi. **Eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq tovar va xizmatlarning sof eksporti yoki oddiy qilib sof eksport deyiladi.** Sof eksport ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. **Agar eksport importdan ortiq bo'lsa ijobiy, import eksportdan ortiq bo'lsa salbiy bo'ladi.**

Qarab chiqilgan sarflarning to'rt toifasiga notijorat muassasalar (kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tashkilotlar) sarflari va moddiy aylanma vositalari zaxirasidagi o'zgarishlarni qo'shib chiqish yo'li bilan YaIM hajmi aniqlanadi.

Uchinchi usul – bu YaIMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv.

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar uy xo'jaliklari ixtiyoriga ish haqi, renta to'lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Shu sababli bu usulda YaIM pirovard mahsulot hisobidan olingan ana shu barcha daromadlarni qo'shib chiqish orqali aniqlanadi.

YaIMni daromadlar bo'yicha hisoblashda uy xo'jaliklari, korxona va davlat muassasalarining dastlabki, ya'ni taqsimlangan daromadlarini mehnat haqi va yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va h.k.) ajratish mumkin. YaIMni mazkur usul bo'yicha hisoblashda daromadlarning barcha summasiga iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar summasi ham qo'shiladi.

YaIMni hisoblashga sarflar va daromadlar bo'yicha yondashuvning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagi jadval orqali o'zaro taqqoslash mumkin (14.2-jadval).

14.2-jadval

YaIMni hisoblashga sarflar va daromadlar bo'yicha yondashuv

Milliy mahsulot hajmini sarflar summasi bo'yicha hisoblash	Milliy mahsulot hajmini daromadlar summasi bo'yicha hisoblash
Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari +	Daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarf va to'lovlar: a) amortizatsiya b) egri soliqlar +
Tadbirkorlarning investitsion sarflari +	Ish haqi +
Tovar va xizmatlarning davlat xaridi +	Renta to'lovlari +
Chet elliklar sarfi +	Foiz +
Notijorat muassasalari sarfi +	Foyda
Moddiy aylanma vositalar zaxirasidagi o'zgarishlar =	=
YaIM	**YaIM**

YaIMni hisoblashda uning tarkibiga kirgan daromadlarning alohida turlarini batafsil qarab chiqamiz. Amortizatsiya ajratmasi shu yil ishlab chiqarilgan mahsulot (YaIM) qiymati tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kirib, mahsulot sotilishi natijasida pul shaklidagi daromad sifatida qaytib keladi va **amortizatsiya fondi** hisobida to'planib boradi.

Egri soliqlar korxonalar uchun ishlab chiqarish xarajatlari hisoblanadi va shu sababli mahsulot narxiga qo'shiladi. Bunday soliqlar aksiz to'lovlari, sotishdan olinadigan soliqlar, mulk solig'i, litsenziya va bojxona to'lovlarini o'z ichiga olib, davlat byudjetida daromad sifatida namoyon bo'ladi.

Daromadlarning eng muhim turi bo'lgan ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlarga to'lanadi. U ish haqiga ko'plab qo'shimchalar, ijtimoiy sug'urta to'lovlari va nafaqa

ta'minotining har xil xususiy fondlari, ishsizlik nafaqalari va boshqa turli mukofot hamda imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Ish haqi va unga qo'shimchalar ham ishchi kuchini taklif qiluvchilar uchun daromadning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi va shu sababli aholi daromadlarining muhim tarkibiy qismi sifatida qapaladi.

Renta to'lovlari iqtisodiyotni resurslar (kapital, yer) bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining oladigan daromadi hisoblanib, korxona xarajatlari tarkibiga kiradi (yer davlat mulki bo'lsa renta davlat ixtiyoriga, byudjetga borib tushadi va byudjet daromadi hisoblanadi).

Foiz pul kapitali egalariga pul daromadi to'lovlaridan iborat. Bunda davlat tomonidan amalga oshiriladigan foizli to'lovlar foizli daromadlar tarkibidan chiqariladi.

Mulkdan olinadigan daromadlar ikki turga bo'linadi: bir qismi mulkiy daromad va boshqa qismi esa korporatsiyalar foydasi deyiladi.

Xulosalar

1. Milliy iqtisodiyot ko'plab o'zaro bog'liq iqtisodiy unsurlardan iborat bo'lgan murakkab iqtisodiy tizimni namoyon etadi. Milliy iqtisodiyot, barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro- va makrodarajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

2. Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. Makroiqtisodiyot o'z ichiga iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarini oladi.

3. Ko'pgina mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho berilib, ular faoliyatining rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati uning o'sishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi.

4. Butun milliy iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – yalpi milliy mahsulot (YaMM), yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daro-

mad (MD), ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

5. Bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy mahsulot tarkibiga faqat tovar shaklida bo'lib, bozor narxi mavjud bo'lgan yoki, hech bo'lmaganda, ularni yaratish uchun haqiqatda sarflangan xarajatlar miqdori bo'yicha baholash mumkin bo'lgan mahsulot va xizmatlar kiritilishi mumkin.

6. YaIM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida Yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi. Qo'shilgan qiymat – bu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan mol yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

7. Milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichidan foydalaniladi. Yalpi ichki mahsulot umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u faqat mazkur mamlakat ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mamlakat ichida Yaratilgan tovar va xizmatlar jami qiymatining bozor narxlaridagi ifodasini namoyon etadi.

8. Milliy hisoblar tizimi asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajatlar balansi misol bo'lishi mumkin. Daromadlar xo'jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajatlar to'rtta guruhdan iborat bo'ladi: iste'mol, investitsiyalar, davlat xaridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me'yordagi – muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

9. YaIM uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin: 1) qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv; 2) sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv; 3) daromadlar bo'yicha yondashuv.

Asosiy tayanch tushunchalar

Makroiqtisodiyot – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

Milliy hisoblar tizimi – milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni, turli tarmoqlar o'rtasidagi aloqadorlikni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlardagi summasi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati.

Sof milliy mahsulot (SMM) – yil davomida jonli mehnatning unumli harakati bilan Yaratilgan yangi mahsulotdir.

Milliy daromad – yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning puldagi ifodasi bo'lib, hozirgi hisoblar tizimida SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Shaxsiy daromad – milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalari, korxona foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo'liga kelib tushadigan ijtimoiy to'lovlar summasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Nominal YaIM – joriy narxlarda hisoblangan YaIM.

Real YaIM – narxlarning o'zgarishini hisobga olib, o'zgarmas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan YaIM.

Qo'shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste'mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Oraliq mahsulot – ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar.

Pirovard mahsulot – ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va unumli iste'mol qilishga tayyor bo'lgan mahsulotlar.

Xufyona iqtisodiyot – YaIMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin qismi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi nimani ifodalaydi? Uning qanday tarkibiy qismlari mavjud?

2. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning farqi nimada? Ular iqtisodiyotning qanday ko'rinishlari uchun xos ekanligini izohlang.

3. Milliy hisoblar tizimining mohiyati nimada? U o'z ichiga qanday ko'rsatkichlarni oladi.

4. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?

5. YaIM va SMM bir-biridan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy daromad-chi?

6. Milliy mahsulot harakat shakllari tavsifini bering.

7. YaIM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat.

8. Nominal va real YaIM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko'rsating.

9. Agar joriy yildagi nominal YaIM hajmi 700 mlrd. so'mga, narx indeksi 1,5 ga teng bo'lsa, real YaIM hajmi qancha bo'ladi? Agar narx indeksi 0,8 ga teng bo'lsa-chi?

10. Sof iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichining mohiyati hamda hisoblash tartibini tushuntirib bering.

15-BOB. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF

Mazkur darslikning 7-bobida talab va taklif tushunchalari, ularning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, talab va taklif qonunlari hamda ular o'rtasidagi muvozanatlik masalalari bayon etilib, unda talaba va o'quvchilarning tushunishini osonlashtirish maqsadida ushbu masalalar tovar va xizmatlarning alohida olingan turlari bo'yicha ko'rib chiqilgan edi. Milliy iqtisodiyot yaxlit holda, ya'ni makroiqtisodiyot darajasida o'rganilayotgan jarayonda mamlakat barcha fuqarolari, tadbirkorlar, davlat va chet el iste'molchilarining jami tovarlar va xizmatlar turlari bo'yicha talabi va taklifini o'rganish iqtisodiyotni samarali, muvozanatli va mutanosibli yuritishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun bu bobda makroiqtisodiy tahlil davom ettirilib, eng avvalo iqtisodiyot yaxlit olingan holda ko'rib chiqiladi va uning makrodarajadagi asosiy ko'rsatkichlari bo'lgan yalpi talab va yalpi taklif tushunchalarining iqtisodiy mazmuni tavsiflanadi. Tahlil davomida yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillar, ular ta'sirida narxlar darajasining o'zgarishi hamda ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi qanday o'rnatilishi bayon etiladi.

15.1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar

Iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirib, uning barqaror o'sishini ta'minlashda eng avvalo yalpi talabning mazmunini bilish zarur.

Yalpi talab (aggregate demand, AD) – barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida sotib olinishi mumkin bo'lgan turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabning umumiy hajmidir. Shuningdek, yalpi talabni milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmi sifatida ifodalash ham mumkin. Yalpi talab barcha iste'molchilarning turli xil tovarlarga va xizmatlarga bo'lgan talablari yig'indisidan tashkil topadi. Bilamizki, tovar va xizmatlar ikki xil bo'ladi: shaxsiy iste'mol

tovarlari va tadbirkorlar ishlab chiqarish jarayonida unumli iste'mol qiladigan ishlab chiqarish omillari – yer, kapital va ishchi kuchi.

Iste'mol tovarlari turli-tuman moddiy, ma'naviy tovarlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, turli ko'rinishdagi (masalan, davlat, xususiy, jamoa, korporativ) tadbirkorlarning ishlab chiqarish omillariga bo'lgan talabi ham turli-tumandir (masalan, turli mashinalar, stanoklar, asbob-uskunalar, inshootlar, transport vositalari, yonilg'i, xomashyo, materiallar, ishchi kuchi va h.k.). Talabning umumiy miqdori sotib olishga mo'ljallangan tovarlarning turlari, miqdori, sifati hamda narxiga bog'liq bo'ladi. Uni quyidagi rasm orqali osonroq tushunish mumkin (15.1-rasm).

Yalpi talabni faqatgina pul miqdori bilan belgilash bizningcha, unga bir tomonlama yondashuv bo'ladi. Masalan, investitsiya tovarlari miqdori, sifati, turi o'zgarmagan holda narx ikki barobar oshsa, belgilangan pul miqdori o'zgarmagan holda ikki barobar kam investitsiya tovarlarini sotib olish mumkin bo'ladi xolos.



15.1-rasm. Yalpi talab miqdorining tovarlar turlari, miqdori, sifati hamda narxiga bog'liqligi

Yalpi talab miqdor jihatidan aniqlanadi va uning umumiy miqdori turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi.

Turli o'quv qo'llanmalari va darsliklarda yalpi talab miqdorini aniqlash usullari va unga ta'sir etuvchi omillarni bayon etishda turli

jihatdan yondashiladi. Jumladan, akademik V. Vidyapin va boshqalar umumiy tahriri ostida chop etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida yalpi talab iqtisodiyotning alohida sohalari sarflarining yig'indisi sifatida ifodalanadi, ya'ni:

$$Y_d=C+I+G+NX$$

bu yerda – yalpi talab;
C – uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari;
I – xususiy sektorning investitsiya sarflari;
G – davlat xaridi;
NX – sof eksport. [101]

Professor V. Kamayev esa yalpi talabni real yalpi milliy mahsulot tarkibiy qismlariga bo'lgan umumiy pul miqdori sifatida namoyon bo'lishini hamda uni pulning miqdoriy nazariyasiga muvofiq quyidagi ko'rinishda ifodalanishini ta'kidlaydi:

$$AD-M\times V/P,$$

bu yerda AD – yalpi talab;
M – pul miqdori;
V – pulning aylanish tezligi;
P – narx darajasi[102]

Bundan ko'rinadiki, V. Kamayevning fikricha yalpi talab pulning miqdori va narx darajasiga bevosita bog'liqdir. Bu o'rinda u sotib olinadigan tovarlar turi, miqdori va sifatini e'tibordan chetda qoldiradi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, narx darajasi qancha past bo'lsa, iste'molchilar (mamlakat ichidagi hamda chet eldagi) ishlab chiqarilgan tovarlar real hajmi-ning shuncha katta hajmini va aksincha, narx darajasi qancha yuqori bo'lsa, shuncha kam qismini sotib oladi. Shunday qilib, boshqa sharoitlar o'zgarmas deb faraz qilgan taqdirda ham birgina

[101] Экономическая теория: Учебник / Изд. испр. и доп.; Под общ. ред. акад. В. И. Видяпина, А. И. Добрынина, Г. П. Журавлевой, Л. С. Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005. – С. 412.

[102] Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В. Д. Камаева.; 10-е изд., перераб. и доп. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, с. 291.

narx darajasining oshishi ishlab chiqarishning real hajmiga bo'lgan yalpi talab hajmining keskin kamayishiga, ya'ni ishlab chiqarilgan tovarlar massasining bir qismi sotilmay qolishiga sabab bo'ladi. Aksincha, narx darajasining pasayishi ishlab chiqarish hajmiga nisbatan yalpi talabning oshishiga, ya'ni tovarlarning yetishmasligiga olib keladi. Yalpi talabga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi ham milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga olib keladi.

Narx darajasi va talab ta'siridagi milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bu teskari bog'liqlikni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (15.2-rasm).



15.2-rasm. Yalpi talab egri chizig'i

Rasmdan ko'rinadiki, yalpi talab egri chizig'i yakka talab egri chizig'iga o'xshaydi, biroq o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar bir-biridan farqlanadi. Agar yakka talab egri chizig'i turli narx ko'rsatkichlarida alohida iste'molchining muayyan tovarga bo'lgan talabi miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalasa, yalpi talab egri chizig'i mamlakatdagi narxlarning turli darajasi hamda ishlab chiqarishning real hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Agar yakka talab egri chizig'ining pasayuvchanligi daromad va almashuv samaralarining amal qilishi bilan izohlansa, yalpi talab egri chizig'ining pasayuvchan ko'rinishda bo'lishi narxlar umumiy da-

rajasining o‘zgarishi natijasida ro‘y beruvchi foiz stavkasi samarasi, boylik samarasi va import tovarlar xaridi samarasi orqali izohlanadi.

Foiz stavkasi samarasi. Mazkur samaraning mohiyati shundan iboratki, narx darajasining o‘sishi bilan pulga bo‘lgan talab ham ortadi. Bu esa muomaladagi pul miqdorining o‘zgarmagan hajmi sharoitida foiz stavkasining o‘sishiga olib keladi. O‘z navbatida foiz stavkasining o‘sishi iste’mol va investitsiya sarflari hajmini pasaytiradi. Chunki foiz stavkalarining oshib ketishi aholi tomonidan uy va uy jihozlari, avtomobil kabi uzoq muddatli iste’mol tovarlarini sotib olish uchun kredit olishni samarasiz qilib qo‘yadi. Shuningdek, tadbirkorlar ham foizning yuqori darajasida o‘zlarining nisbatan past daromad keltiruvchi investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan voz kechadilar.

Narx o‘zgarishi bilan foiz stavkalarining hamda yalpi talab umumiy miqdorining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni rasm orqali osonroq tushunish mumkin (15.3-rasm).



15.3-rasm. Narx darajasi oshishining yalpi talabga ta’siri

Bu yerda biz narx oshgan holatda pulga bo‘lgan talabning, foiz stavkasining oshishini va, nihoyat, yalpi talab miqdorining kamayishini ifoda etdik. Narx pasaysa, shu holatning teskarisi, ya’ni pulga bo‘lgan talab hamda foiz stavkasining pasayishi va oqibatda yalpi talab miqdorining oshishi ro‘y beradi.

Boylik samarasi. U ba’zida real kassa qoldiqlari samarasi deb ham atalib, narx darajasining oshishi bilan moliyaviy aktivlar (bank omonatlari, aksiya va obligatsiyalar) real qiymatining pasayishini

anglatadi. Buning natijasida aholi daromadlari ham pasayib, ular tomonidan sotib olinuvchi tovar va xizmatlar miqdori kamayadi.

Import tovarlar xaridi samarasi. Bu samara narx darajasi o'zgarishining u yoki bu mamlakatdagi ichki va jahon narxlari nisbatiga ta'siri orqali namoyon bo'ladi. Mamlakatdagi narxlar umumiy darajasining oshishi, chet el tovarlari narxi o'zgarmagan yoki sekinroq o'sgan holatda, milliy iste'molchi uchun chetdan xorijiy tovarlarni olib kelishni foydali qilib qo'yadi. O'z navbatida, mazkur mamlakat tovar va xizmatlarini xorijiy iste'molchilar tomonidan xarid qilish hajmi ham qisqaradi. Natijada bu mamlakatning eksport hajmi kamayadi. Eksport hajmining kamayishi va import hajmining oshishi sof eksportning va pirovardida, yalpi talab umumiy hajmining qisqarishiga olib keladi.

Tashqi va ichki talabning ortishi va xo'jalik yuritish sharoitlarining yaxshilanishi sanoatning barqaror rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2015-yilda oldingi yilga nisbatan 8%ga ortdi va 91705,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Sanoatning yuqori sur'atlar bilan rivojlanishida korxonalarni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlar boshqaruv tizimini isloh qilish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi sabab bo'ldi. Sanoatning YaIM tarkibidagi ulushi 2000-yildagi 14,2% dan 2015-yilda 24,3% ga oshdi.[103] Qo'shilgan qiymat o'sishining yarmidan ko'prog'i tayanch tarmoqlarda ishlab chiqarishning kengayishi hisobiga yuz berdi.

Yalpi talab hajmiga narxdan tashqari omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Quyida ulardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar. Narx darajasining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda, narxdan tashqari bir yoki bir nechta omillar ta'sirida iste'molchilar xaridi hajmida o'zgarish ro'y berishi mumkin. Bu iste'molchi farovonligi, iste'molchining kutishi, iste'molchining qarzlari va soliqlarning o'zgarishi natijasi hisoblanadi.

Iste'molchining farovonligi uning moliyaviy aktivlarga (aksiya va obligatsiya) hamda uy va yer kabi ko'chmas mulklarga egaligiga

[103] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

bog'liq bo'ladi. Ular real qiymatining keskin kamayishi tovar xarid qilish hajmining kamayishiga olib keladi. Iste'mol sarflarining qisqarishi natijasida yalpi talab kamayadi. Aksincha, moddiy va moliyaviy boyliklar real qiymatining oshishi natijasida, narxlarning mavjud darajasida iste'mol sarflari o'sadi. Bunga aksiya kursining keskin oshishi, hatto narxlar darajasi o'zgarmay qolganda iste'molchi farovonligining o'sishiga olib kelishini misol qilib keltirish mumkin. Uy va yer real qiymatining keskin kamayishi narx umumiy darajasining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda iste'molchi farovonligining pasayishiga olib keladi.

Iste'molchining kutishi. Iste'mol sarflari hajmidagi o'zgarish, iste'molchining narxlar va daromadlar darajasidagi kelajakdagi o'zgarishlarni oldindan bilishiga bog'liq. Masalan, agar iste'molchi kelajakda o'zining real daromadi ko'payadi, deb hisoblasa, u joriy daromadlarining ko'proq qismini sarflashga tayyor bo'ladi. Natijada bu davrda iste'mol sarflari ko'payadi, jamg'arish esa kamayadi va yalpi talab ortadi. Aksincha, agar iste'molchi kelajakda o'zining real daromadlari kamayadi deb hisoblasa, ularning iste'mol sarflari va demak, yalpi talabi qisqaradi. Xuddi shunday tarzda inflyatsiyaning kutilishi bugungi yalpi talabni oshiradi. Chunki iste'molchilar narxlar oshgunga qadar tovarlarni xarid qilib qolishga harakat qiladi. Aksincha, yaqin kelajakda narxlar pasayishining kutilishi, bugungi iste'mol miqdorining kamayishiga olib keladi.

Iste'molchi qarzlari. Iste'molchi qarzlari ko'p bo'lganda, u joriy daromadini qarzlarga to'lab, o'zining bugungi sarflarini qisqartirishi mumkin. Aksincha, iste'molchi qarzdor bo'lmasa, u bugungi sarflarini ko'paytirishga tayyor bo'ladi.

Soliq. Daromad solig'i stavkasining kamayishi, narxlarning mavjud darajasida iste'mol sarflarini ko'paytiradi, soliqlarning oshishi iste'mol sarflarini kamaytiradi.

2. Investitsion sarflar. Investitsion sarflar, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, yalpi talabning narxdan tashqari muhim omili hisoblanadi. Narxlarning mavjud darajasida korxona sotib olishi mumkin bo'lgan yangi ishlab chiqarish vositalarining kamayishi yalpi talabning kamayishiga, aksincha korxona sotib oladigan inves-

titsion tovarlar hajmining ko'payishi yalpi talabning ko'payishiga olib keladi. Investitsion sarflarni o'zgartirish mumkin bo'lgan narxdan tashqari omillarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

Foiz stavkalari. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, foiz stavkasining oshishi investitsion sarflarning kamayishiga va yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Bu yerda gap mamlakatda pul massasi hajmining o'zgarishi oqibatida foiz stavkalarining o'zgarishi haqida boradi. Pul massasining ko'payishi foiz stavkasini pasaytiradi va shu orqali kapital qo'yilmalar hajmini ko'paytiradi. Aksincha, pul massasining kamayishi foiz stavkasining oshishiga va investitsiyalarning qisqarishiga olib keladi.

Investitsiyalardan kutiladigan foyda. Kapital qo'yilmalardan yuqori foyda olishning kutilishi investitsion tovarlarga talabni oshiradi va aksincha, istiqbolda investitsion dasturlardan foyda olish noaniq bo'lsa, investitsiyalarga sarflar kamayish tamoyiliga ega bo'ladi, demak, yalpi talab ham kamayadi.

Soliqlar. Korxonadan olinadigan soliqlarning ko'payishi kapital qo'yilmalardan olinadigan foydaning kamayishiga va demak, investitsion sarflar va yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Aksincha, soliqlarning qisqarishi bunday foydani va investitsion sarflarni ko'paytiradi.

Texnologiya. Yangi va takomillashgan texnologiya investitsion sarflarni va shu orqali yalpi talabni rag'batlantirish tamoyiliga ega bo'ladi.

Ortiqcha quvvatlar. Ortiqcha quvvatlar, ya'ni mavjud foydalanilmaydigan asosiy kapitalning ko'payishi, yangi investitsion tovarlarga talabni va natijada yalpi talabni kamaytiradi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilganda tadbirkorlar ko'proq mashina va uskunalar sotib olishga tayyor bo'ladi, demak investitsion sarflari ko'payadi.

3. Davlat sarflari. Narxlarning mavjud darajasida, milliy mahsulotda davlat xaridining ko'payishi yalpi talabning o'sishiga olib keladi. Bunga davlatning milliy armiyani tuzish yoki uning sonini oshirish to'g'risidagi qarori misol bo'la oladi. Davlat sarflarining kamayishi yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Masalan, yangi avtomobil yo'li qurishga davlat sarflarining qisqarishi shunday natijaga olib keladi.

4. Sof eksportdagi o'zgarish. Sof eksportning ko'payishi yalpi talabni ham ko'paytiradi. Birinchidan, eksportning yuqori darajasi, chet ellarda milliy tovarlarga bo'lgan talabni oshiradi. Ikkinchidan, importning qisqarishi milliy tovarlarga ichki talabning ko'payishini taqozo qiladi. Sof eksport hajmining o'zgarishiga avvalo chet davlatlar milliy daromadi va valyuta kurslarining o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Chet mamlakatlarda daromadlar darajasi oshganda, ularning fuqarolari ham milliy tovarlarni, ham xorij tovarlarini ko'proq miqdorda sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chet ellarda milliy daromadning kamayishi esa sof eksport hajmini qisqartiradi.

Valyuta kurslari. Boshqa valyutalarga nisbatan milliy pul kursining o'zgarishi sof eksportga va demak yalpi talabga ta'sir ko'rsatadi. Faraz qilaylik, ienaning dollardagi narxi o'sdi. Bu dollarning ienaga nisbatan qadrsizlanganligi va iena kursi ko'tarilganligini bildiradi. Dollar va iena o'rtasidagi yangi nisbat natijasida yaponiyalik iste'molchilar ienaning ma'lum summasiga ko'proq dollar sotib olishi mumkin. Demak, yaponiyalik iste'molchilar uchun amerika tovarlari yapon tovarlariga qaraganda arzonroq bo'ladi. Shu bilan birga amerikalik iste'molchilar dollarning ma'lum summasiga yapon tovarlarini nisbatan kamroq miqdorda sotib olishi mumkin. Bunday holda AQSH eksportining o'sishi, importining esa kamayishi holatini kutish mumkin. Sof eksportning ko'payishi o'z navbatida AQSH iqtisodiyotida yalpi talabning ko'payishiga olib kelishini bildiradi.

15.2. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklif tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar

Iqtisodiyotni muvozanatli yuritishda yalpi taklif va unga ta'sir etuvchi omillarni bilish muhimdir.

Yalpi taklif (aggregate supply, AS) – mamlakatda muayyan vaqtda ishlab chiqarilib, narxlarning muayyan darajasida sotishga tayyor turgan, o'zining ijtimoiy naflilig, turlari, sifati, miqdori va ijtimoiy qiymati bo'yicha shu davrdagi talabga javob beradigan barcha tovarlar va xizmatlar hajmidir. Bu narxlarning har xil mumkin bo'lgan o'rtacha darajasida milliy ishlab chiqarishning mavjud real hajmini ko'rsatadi.

Yalpi taklif turli xil ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari va xizmatlardan hamda investitsiya tovarlaridan iborat bo'ladi. Bundan tashqari yalpi taklifga uy xo'jaliklari taklif qiladigan ishchi kuchi resurslari ham kiradi. Albatta ishlab chiqarilgan va sotishga mo'ljallangan iste'mol tovarlari va xizmatlari ham, shuningdek, investitsiya tovarlarining turlari ham juda ko'p va turli-tumandir. Lekin yalpi talab o'zining ijtimoiy zaruriy naflilligi bilan, ya'ni o'zining turlari, miqdori va sifati bo'yicha hamda ijtimoiy qiymati bo'yicha shu davrdagi ishlab chiqarish va jamiyat a'zolari talabiga mos kelishi kerak. Yalpi taklifni va uning miqdorini umumlashtirib quyidagi rasm ko'rinishida ifodalash mumkin (15.4-rasm).



15.4-rasm. Yalpi taklif umumiy miqdorining tovarlar turlari, miqdori, sifati hamda narxiga bog'liqligi

Yalpi taklifga eng avvalo bozor narxlari darajasi bilan ijtimoiy qiymat miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Narxlar darajasining qiymat miqdoridan oshishi qo'shimcha tovarlar ishlab chiqarish uchun rag'bat yaratadi. Narxlar darajasining qiymatdan pasayishi esa tovar ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi. Shu sababli turli tovarlar narxlari va milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bog'liqlik mavjud bo'ladi. Bu bog'liqlik yalpi taklif egri chizig'ida aniq aks etadi (15.5-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, yalpi taklif egri chizig'i o'z shakli jihatidan yakka yoki bozor taklifining an'anaviy egri chizig'idan farq qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, uzoq muddatli va qisqa muddatli davrdagi yalpi taklif egri chizig'i bir-biridan farqlanadi. Uzoq davrdagi yalpi taklif egri chizig'i o'z shakliga ko'ra rasmdagi nuqtaga qadar joylashgan har qanday tik chiziqdan iborat bo'ladi. Iqtisodiy resurslarning ishlab chiqarishga tobora ko'proq jalb etilishi mazkur chiziqni nuqtaga yaqinlashtiradi va pirovardida shu nuqtada joylashgan chiziqqa tenglashadi. Chunki qo'shimcha resurs va imkoniyatlarni ishga solish uchun vaqtning yetarli bo'lishi uzoq muddatli davrda iqtisodiyotda to'la bandlik holatiga olib keladi.



15.5-rasm. Yalpi taklif egri chizig'i

Qisqa muddatli davrda yalpi taklif egri chizig'ining ko'rinishi bir oz murakkabroq bo'lib, uchta kesmani o'z ichiga oladi.

I. Yotiq kesma. U ba'zida «keynscha» kesma deb ham atalib, iqtisodiyotning tanazzul yoki turg'unlik pallasidagi holatini aks ettiradi. Yotiq kesma milliy ishlab chiqarish potensial hajmi (rasmdagi nuqta)dan ancha kam bo'lgan ishlab chiqarishning real hajmi (rasmdagi nuqtaga qadar bo'lgan hajm)ni o'z ichiga oladi. Ya'ni, bu oraliqda mamlakatdagi mavjud ko'plab ishlab chiqarish quvvatlari, mashina, uskuna va ishchi kuchi ishlab chiqarishga jalb etilmaydi yoki ulardan to'liq foydalanilmaydi. Shunga ko'ra, mazkur resurslarning ishlab chiqarishga jalb etilishi narx darajasiga hech qanday ta'sir

ko‘rsatmaydi. Bu oraliqda ishlab chiqarish real hajmi qisqarganda ham tovar va resurslar narxi eski darajada qoladi. Shunday qilib, yotiq kesmada narx darajasi o‘zgarmagan holda milliy ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati mavjud.

II. Oraliq kesma. va nuqtalar orasidagi mazkur kesma milliy ishlab chiqarish real hajmining ko‘payishi narx darajasining o‘sishi bilan birga borishini ko‘rsatadi. Bu ishlab chiqarishning to‘liq quvvat bilan ishlay boshlaganidan, korxonalarning ancha eski va kam samarali uskunalardan foydalana boshlaganligidan guvohlik beradi. Ishlab chiqarish hajmining kengayib borishi bilan qo‘shimcha ishchi kuchi ham ishga jalb qilinadi. Shu barcha sabablarga ko‘ra mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlar ortadi, korxonalar ishlab chiqarishining rentabelli bo‘lishi uchun tovarlarga ancha yuqori narx belgilaydi. Shu sababli oraliq kesmada milliy mahsulot real hajmining ko‘payishi narxlarning o‘sishi bilan birga boradi.

III. Tik kesma. U ba’zida «klassik» kesma deb ham atalib, iqtisodiyot o‘zining to‘liq yoki tabiiy darajasiga erishganligini ko‘rsatadi. Bunda iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatining shunday nuqtasida (rasmdagi nuqta) joylashadiki, bunda qisqa muddatda ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirishga erishish mumkin emas. Iqtisodiyot to‘liq quvvat bilan ishlay boshlaganligi sababli narxning to‘xtovsiz oshib borishi ham ishlab chiqarish real hajmining ko‘payishiga olib kelmaydi. Qisqacha aytganda, bu kesma milliy ishlab chiqarish hajmi doimiy bo‘lib qolishi, narx darajasi esa o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Yalpi taklif hajmiga ta’sir qiluvchi omillar. Yalpi taklifga narxdan tashqari bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillardan bir yoki bir nechtasining o‘zgarishi yalpi taklifning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Yalpi taklifning narxdan tashqari bu omillari bitta umumiy xususiyatga ega: agar ular o‘zgarsa, mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarish xarajatlari ham o‘zgaradi. Natijada yalpi taklif egri chizig‘i joyini o‘zgartiradi.

1. Resurslar narxining o‘zgarishi. Resurslar narxi tayyor mahsulot narxidan farq qilib, yalpi taklifning muhim omili hisoblanadi. Boshqa sharoitlar o‘zgarmay qolganda resurslar narxining oshishi

mahsulot birligiga xarajatlarning ko'payishiga, resurs narxlarining pasayishi esa xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Resurs narxlariga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Resurslar taklifining ko'payishi ular narxini pasaytiradi va natijada mahsulot birligiga xarajatlar kamayadi. Resurslar taklifining kamayishi esa qarama-qarshi natijaga olib keladi. Endi alohida resurslar taklifi o'zgarishining yalpi taklifga ta'sirini qarab chiqamiz.

Yer resurslari taklifi yangi yerlarning ochilishi, sug'orish inshootlarining qurilishi, yerga ishlov berish texnik imoniyatlarining takomillashuvi tufayli ko'payishi mumkin. yer resurslari taklifining ko'payishi yerga bo'lgan sarflarning kamayishiga olib keladi va shu orqali mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni pasaytiradi. Irrigatsiya qurilmalari shoxobchalarining kengayishi, dehqonchilikning intensiv usullarini qo'llash tufayli yer resurslarining kamayishi qarama-qarshi natijaga olib keladi.

Ishchi kuchi resurslari. Korxona xarajatlarining asosiy qismi ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lash uchun ketadigan xarajatlar hisoblanadi. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, ish haqining o'zgarishi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mavjud ishchi kuchi resurslarining ko'payishi ish haqining pasayishiga, ularning kamayishi esa ish haqining oshishiga olib keladi.

Kapital. Agar jamiyat asosiy kapital zaxirasini o'stirib borsa, yalpi taklif o'sish tamoyiliga ega bo'ladi. Masalan, agar jamiyat o'z daromadining asosiy qismini tejab, uni investitsion tovarlar sotib olishga yo'naltirsa, yalpi taklif o'sadi. Xuddi shunday asosiy kapital sifati yaxshilanganda ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va yalpi taklif ko'payadi. Korxona o'zining eski, sifati past bo'lgan qurilmalarini yangi va ancha takomillashgan qurilmalar bilan almashtirishi bunga misol bo'la oladi. Agar mamlakat asosiy kapitalining miqdori kamaysa va sifati yomonlashsa, yalpi taklif qisqaradi.

Tadbirkorlik qobiliyati. Vaqt o'tishi bilan mamlakatda tadbirkor kishilar soni ko'payadi va bu yalpi taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, keyingi vaqtda respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga asosiy e'tiborning qaratilishi bunday faoliyat bilan shug'ullanishga

harakat qiluvchi kishilar sonining ko'payishiga olib kelishi muqarrar va bu o'z navbatida yalpi taklifni oshiradi.

Import resurslar narxlari. Chet ellardan resurslar importi milliy iqtisodiyotda yalpi taklifning ko'payishiga olib keladi. Import resurslariga narxlarning pasayishi milliy iqtisodiyotda yalpi taklifni oshiradi, narxning oshishi esa yalpi taklifni kamaytiradi. Keyingi davrda import resurslarga narxning o'zgarishiga olib kelayotgan asosiy omillardan biri – valyuta kurslarining o'zgarib turishi hisoblanadi. Bu qanday ro'y berishini tushunib olish uchun chet el valyutalarining so'mga nisbatan narxi tushdi, ya'ni so'mning qiymati ko'tarildi, deb faraz qilamiz. Bunda korxonalarga har bir so'm uchun ko'proq chet el valyutalari olish imkoniyati vujudga keladi va bu milliy ishlab chiqaruvchilar uchun chet el resurslarining so'mda ifodalangan narxi tushganligini bildiradi. Bunday sharoitda milliy korxonalar chet el resurslari importini ko'paytiradi va ishlab chiqarishning mavjud darajasida mahsulot birligiga bo'lgan xarajatlarni kamaytirishga erishadi. Aksincha, chet el valyutalarining so'mga nisbatan narxi oshgan taqdirda, ya'ni so'm qadrsizlanganda import resurslari narxlari ko'tariladi. Natijada bu resurslarning importi kamayadi, mahsulot birligiga xarajatlar ortadi.

Bozordagi hukmronlik. Resurslarni yetkazib beruvchilarning bozordagi hukmronligining susayishi yoki kuchayishi ham resurs narxlariga va yalpi taklifga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bozordagi hukmronlik – narxlarni raqobat mavjud bo'lgan sharoitdagidan ancha yuqori o'rnatish imkoniyatidir. Keyingi 20-yil davomida OPEK mamlakatlari bozor monopoliyasining vujudga kelishi va halokatga uchrashi buning ishonchli misoli bo'lib xizmat qilishi mumkin. 70-yillarda OPEK mamlakatlari neft narxini o'n martalab oshirishga erishdi, bu mahsulot birligiga xarajatlarni keskin ko'paytirdi. 80-yil o'rtalarida OPEK mamlakatlarining bozordagi hukmronligining sezilarli susayishi, aksincha ishlab chiqarish qiymatining kamayishiga olib keldi.

2. Samaradorlikning o'zgarishi. Samaradorlik – bu ilgari ta'kidlanganidek, milliy ishlab chiqarish real hajmining sarflangan resurs miqdoriga nisbatidir. Boshqacha aytganda, samaradorlik – xarajat birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarishning

o'rtacha hajmi yoki ishlab chiqarish real hajmi ko'rsatkichi. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda bir ishchi hisobiga ko'proq miqdorda mashina va uskunalardan foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish; ancha bilimli va malakali ishchi kuchini qo'llash kabi omillarning o'zaro ta'siri samaradorlikning o'sishi va yalpi taklifning oshishiga olib keladi. Qisqacha qilib aytganda, mahsulot birligiga xarajatlar kamayganda samaradorlikning oshishi yalpi taklifning oshishiga, aksincha, unumdorlikning kamayishi natijasida mahsulot birligiga harajatlarning ko'payishi yalpi taklifning qisqarishiga olib keladi.

3. Huquqiy me'yorlarning o'zgarishi. Korxonalar o'z faoliyatida amal qiladigan huquqiy me'yorlarning o'zgarishi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni va yalpi taklifni o'zgartirishi mumkin.

Huquqiy me'yorlar o'zgarishining ikki turi mavjud:

a) soliq va subsidiyalarning o'zgarishi;

b) davlat tomonidan tartibga solish tavsifi va usullarining o'zgarishi.

Korxonalardan olinadigan soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, ish haqi fondiga nisbatan ajratmalar)ning oshishi mahsulot birligiga xarajatlarni ko'paytirishi va yalpi taklifni qisqartirishi mumkin.

Korxonaga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalarning ortishi yoki soliq yukining kamayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va yalpi taklifni oshiradi.

Davlat tomonidan tartibga solish tavsifi va usullarining o'zgarishi ham ko'p hollarda mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarini va shu orqali yalpi taklifni o'zgartiradi.

15.3. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi

Yuqorida yalpi talab mamlakat miqyosida iqtisodiyotning hamma bo'limlarida va tarkibiy qismlarida Yaratilgan turli tovar va xizmatlarni sotib olishga mo'ljallangan pullar miqdori sifatida, yalpi taklif esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va hududlari, korxona va tashkilotlarida sotish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning yalpi miqdori sifatida namoyon bo'lishini aytib o'tgan edik.

Endi shuni ta'kidlash joizki, milliy bozorda, oldi-sotdi jarayonida pul egalari, ya'ni iste'molchilar ixtiyoridagi pullar tovar va xizmatlar egalariga, aksincha, Yaratilgan tovar va xizmatlar esa pul egalariga o'tishi lozim. Boshqacha aytganda tovarlar dunyosi bilan pul dunyosi o'rtasidagi harakat qarama-qarshi oqim hosil qiladi. Buning uchun esa pul egalari sotib olmoqchi bo'lgan tovar va xizmatlar tarkibi, miqdori, sifati hamda narxi bo'yicha ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar turi, miqdori, sifati hamda qiymati bilan mos tushishi lozim. Bunday moslikning qanchalik ta'minlanishi turli bozorlar orqali aniqlanadi va tartibga solinadi. Bu moslik darajasi yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat va uning o'zgarishi orqali aniqlanadi.

Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nisbatni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (15.6-rasm). Albatta, real hayotda bunday to'liq muvozanatlik sodir bo'lishi juda qiyin va murakkabdir. Lekin tovar va xizmatlarning u yoki bu turlari, miqdori va sifati bo'yicha mos kelish hollari uchrab turadi. Yalpi talab bilan yalpi taklifning bir-biriga mosligi iqtisodiy muvozanat deb ham yuritiladi.



15.6-rasm. Yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat

Yalpi talab egri chizig'i va yalpi taklif egri chizig'i kesishgan nuqta umumiqtisodiy muvozanatni ifodalab, bu holatga narxning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmi orqali erishiladi.

Iqtisodiyot doimiy ravishda makroiqtisodiy muvozanat tomon harakat qiladi va ma'lum darajada bu tenglik ta'minlab turiladi. Biroq, yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarib turishi natijasida muvozanat buziladi va iqtisodiyot yangi muvozanat tomon harakat qiladi.

Yalpi talab va yalpi taklif muvozanati yalpi taklif egri chizig'ining qaysi kesmasida ro'y berishiga qarab o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

Yalpi talab egri chizig'i yalpi taklif egri chizig'ini yotiq kesmada kesib o'tsa, narx darajasi milliy ishlab chiqarish muvozanatli real hajmining shakllanishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Bunda yalpi talab miqdorining o'sishi milliy ishlab chiqarish real hajmining oshishiga, uning kamayishi esa bu hajmning kamayishiga olib keladi. Biroq, bu o'zgarishlar iqtisodiyotdagi umumiy narx darajasining o'zgarishisiz ro'y beradi (15.7-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, yotiq kesmada yalpi talabning o'sishiga taklif egri chizig'i bo'yicha muvozanat nuqtasining o'ng tomonga silijishi orqali javob beriladi. Ya'ni, "A" "D" _"1" dan "A" "D" _2ga qadar o'sgan talab miqdori iqtisodiyotda to'liq foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi orqali milliy ishlab chiqarish hajmini "Q" _"1" dan "Q" _"2" ga qadar o'stirish orqali qondiriladi.



15.7-rasm. Yotiq kesmada yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining o'zgarishi

Tik kesmada ishchi kuchi va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalaniladi, shu sababli yalpi talabning kengayishi faqat narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni uni oshiradi. Milliy ishlab chiqarishning real hajmi esa o'zgarishsiz qoladi (15.8-rasm).



15.8-rasm. Tik kesmada yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining o'zgarishi

Rasmdan ko'rinib turibdiki, tik kesmada yalpi talab miqdorining dan ga oshishi faqat narx darajasini dan ga qadar o'sishiga olib kelmoqda, milliy ishlab chiqarish hajmi esa potensial daraja – hajmida qolmoqda. Chunki bu chegarada iqtisodiyot o'zining barcha ishlab chiqarish imkoniyatlarini ishga solib bo'lgan hisoblanadi.

Oraliq kesmada yalpi talabning kengayishi bir vaqtning o'zida milliy ishlab chiqarish real hajmining ko'payishiga va narx darajasining oshishiga olib keladi (15.9-rasm).



15.9-rasm. Oraliq kesmada yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining o'zgarishi

Rasmdan ko'rinadiki, yalpi talabning dan ga o'sishi yalpi taklif egri chizig'i bo'ylab milliy ishlab chiqarish hajmining dan ga qadar ko'payishiga olib kelmoqda. Biroq, bu ko'payish ayni paytda narxlar darajasini ham dan ga oshirmoqda. Bu esa oraliq kesmada iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish resurslari asta-sekin to'la bandlik holatiga o'tayotganligini, qo'shimcha quvvatlarning ishga tushirilishi tobora o'sib boruvchi xarajatlar orqali amalga oshishini anglatadi. Demak, yalpi talabning o'sishi yalpi taklifning qaysi kesmasida ro'y berishidan kelib chiqqan holda narx darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatar ekan. Yalpi talabning kamayishi ham turli kesmalarda turlicha kechadi. Agar yotiq kesmada yalpi talab kamaysa, milliy ishlab chiqarishning real hajmi kamayib, narx darajasi o'zgarishsiz qoladi. Tik kesmada narx tushadi, milliy ishlab chiqarish to'liq bandlik darajasida bo'lganligi sababli, uning real hajmi o'zgarishsiz qoladi. Oraliq kesmada milliy ishlab chiqarishning real hajmi qisqaradi va narx darajasi pasayadi. Ayni paytda bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, oraliq va tik kesmalarda yalpi talabning qisqarishi vaziyatni murakkablashtiruvchi omillar ta'sirida birdaniga narxning pasayishiga olib kelmasligi mumkin. Buning murakkablik tomoni shundan iboratki, tovarlar va resurslar narxi pasayish tamoyiliga ega bo'lmaydi. Shu sababli ayrim iqtisodchilar bunday tamoyilni **xrapovik samarasi** deb ataydilar (xrapovik – bu g'ildirakni faqat oldinga harakat qilishga majbur etuvchi mexanizm). **Xrapovik samarasi shunga asoslanadiki, narx osonlik bilan ko'tariladi, lekin juda qiyinchilik bilan, sekin pasayadi.** Shu sababli yalpi talabning oshishi narx darajasini ko'taradi, lekin talab kamayganda, qisqa davr ichida narxning pasayishini kutish mumkin emas (15.10-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, yalpi talab dan ga oshganda, muvozanat holati a dan s ga ko'chadi, ishlab chiqarish hajmi dan ga ko'payib, narx ham dan darajaga qadar o'sadi. Biroq, yalpi talab o'zining dastlabki holatiga qaytsa, endi narx pasaymaydi, balki muvozanat yangi e holatiga ko'chib, ishlab chiqarish hajmi o'zining dastlabki darajasidan ham pasayib, darajasiga qadar tushib ketadi.



15.10-rasm. Xrapovik samarasi

Shu o‘rinda nima uchun narx pasayish tamoyiliga ega emas, degan savolga aniq javob berish qiyin bo‘lsada, uning ayrim sabablarini ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, korxona umumiy xarajatlarining asosiy qismini (70–75 foiz) ish haqi tashkil qilib, u qisqa davr ichida pasayish tamoyiliga ega bo‘lmaydi. Chunki ishchilarning asosiy qismi shartnoma (kasaba uyushmalar orqali) bo‘yicha ishlab, shartnoma muddati tugagunga qadar ish haqini pasaytirish taqiqlanadi. Shu-ningdek, tadbirkorlarning o‘zlari ham ish haqi darajasini pasaytirishni xohlamasliklari mumkin. Buning ikkita sababi bor. Bir tomondan, ancha past ish haqi ishchilarning mehnat unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, ish haqining past darajasi mahsulot birligiga mehnat sarflarini kamaytirsa, mehnat unumdorligining past darajasi esa mehnat sarflarini oshiradi. Agar ular ish haqini pasaytirishga qaror qilsalar, malakali ishchi kuchidan ajrab qolishlari mumkin. Ikkinchidan, juda ko‘pchilik korxonalar yetarli darajada monopol mavqega ega bo‘ladi va bu ularga talab kamayganda ham narxning pasayishiga qarshi turish imkonini beradi.

Ishlab chiqarilgan va sotib olingan mahsulotning real hajmi teng bo‘lganda, iqtisodiyotda muvozanatlikka erishiladi.

O‘zbekistondagi yalpi talab va yalpi taklifning o‘lchamlarini 15.1-jadval ma’lumotlari orqali ifodalash mumkin. Bundan ko‘rinadiki, 2015-yilda mamlakatimizdagi yalpi taklif va yalpi talab o‘rtasidagi farq mavjud bo‘lib, bunday farqning xosil bo‘lishida uy

xo'jaligiga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlarining sarflari hisobga olinmaganligi ham ta'sir ko'rsatmoqda. Undan tashqari, bu jadvalda bizning mahsulotlarimizga xorij mamlakatlari talablari hamda pulning aylanish tezligi hisobga olinmagan. Agar bu omillar hisobga olinsa, yalpi talab bilan yalpi taklif o'rtasidagi farq yanada oshishi mumkin.

15.1-jadval

O'zbekistondagi yalpi talab va yalpi taklifning o'lchamlari, 2015-yil, mlrd. so'm hisobida[104]

Yalpi taklif ko'rsatkichlari	**Miqdori, mlrd. so'm**	**Yalpi talab ko'rsatkichlari**	**Miqdori, mlrd. so'm**
Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	70075,3	Uy xo'jaliklari iste'mol sarflari	71025,6
Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	101293,7	Yalpi xususiy ichki investitsiya sarflari	40737,3
		Davlat sarflari	36257,3
		Sof eksport	-277,5
Yalpi taklif	**171369,0**	**Yalpi talab**	**147742,7**

Hozirda jahonda ro'y berayotgan global iqtisodiy inqiroz ayni paytda ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotidagi yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishini ham ifodalaydi. Odatda, tashqi talab qisqarib borayotgan bir paytda, ushbu muvozanatni tiklash maqsadida ichki talabni kuchaytirishga harakat qilinadi. Shunga ko'ra, respublikamizning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasida ham mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash ularning mahsulotiga bo'lgan ichki talabni va eksportni har tomonlama rag'batlantirish tadbirlari alohida o'rin tutadi.

[104] Манба: Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Ushbu dasturda "eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish"[105] vazifasi qat'iy qilib belgilandi.

Mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'sishi barcha mavjud imkoniyatlarning safarbar qilinayotganligi hamda o'zini oqlagan islohotlar strategiyasining izchil davom ettirilayotganligi hisobiga ta'minlanmoqda. Xususan:[106]

– xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes yuritish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun zarur sharoit va qulay muhit yaratish borasida aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

• sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, yuqori texnologiyali va zamonaviy ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, ushbu sohada keng qamrovli investitsion dasturlarning izchillik bilan amalga oshirilishi;

• iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini tubdan oshirish, bunda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish ko'lamining yanada kengaytirilishi;

• banklarning kapitallashuvi, likvidligi va resurs bazasini yanada mustahkamlash hamda ularning investitsion faolligini yanada oshirishga qaratilgan izchil va aniq maqsadli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

• ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholi bandligi va real daromadlarining oshishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishiga zamin yaratmoqda.

---

[105] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni, 1-ilova, 3.2-band.

[106] 2014-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2015-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank hisoboti. www.cbu.uz

2015–2016-yillarda mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmlarining yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatildi.

Xulosalar

1. Yalpi talab – bu barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida turli tovarlar va xizmatlarni sotib olish mumkin bo'lgan milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmi.

2. Yalpi talab turli tovarlarning miqdori, sifati va narx darajasiga bevosita bog'liq. Agar yakka talab egri chizig'i turli narx ko'rsatkichlarida alohida iste'molchining muayyan tovarga bo'lgan talabi miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalasa, yalpi talab egri chizig'i mamlakatdagi narxlarning turli darajasi hamda ishlab chiqarishga bo'lgan talab hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

3. Yalpi taklif – bu mamlakatda narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqarilib, sotishga chiqarilayotgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmidir. Bu narxlarning har xil mumkin bo'lgan o'rtacha darajasida milliy ishlab chiqarishning mavjud real hajmini ko'rsatadi.

4. Yalpi taklifga eng avvalo narxlar darajasi bilan ishlab chiqarilgan tovarlar ijtimoiy qiymati o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Narxlar darajasining qiymatdan oshishi qo'shimcha tovarlar ishlab chiqarish uchun rag'bat yaratadi. Narxlar darajasining qiymatdan pasayishi esa tovar ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi. Shu sababli narxlar va milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bog'liqlik mavjud bo'ladi.

5. Yalpi taklifga narxdan tashqari yana bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi: a) resurslar narxining o'zgarishi; b) samaradorlikning o'zgarishi; v) huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.

6. Iqtisodiyot nazariyasida yalpi taklifga uch xil nuqtai nazardan yondashuv mavjud: yalpi taklif narxlar darajasiga bog'liq emas; narxlar darajasiga bevosita bog'liq; yalpi taklifning o'sishida yoki kamayishida narxlar darajasi o'zgarishsiz qoladi. Shuning uchun yalpi taklif egri chizig'i grafigi uchta kesmaga ega: tik, yotiq va oraliq kesmalar.

7. Yalpi talabning o'sishi yalpi taklifga turlicha ta'sir qiladi: taklif egri chizig'ining keynscha kesmasida taklif aynan o'sha miqdorga ortadi, oraliq kesmada – narxlar darajasining o'sganligi uchun taklif oz miqdorda ortadi; klassik kesmada esa – yalpi taklifda o'zgarish bo'lmaydi, chunki barcha resusrlar jalb etilgan bo'ladi, lekin narxlar darajasi keskin o'sadi.

8. Yalpi talab egri chizig'i va yalpi taklif egri chizig'i kesishgan nuqta umumiqtisodiy muvozanatni ifodalab, bu holatga narxning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmi orqali erishiladi.

9. Iqtisodiyot doimiy ravishda makroiqtisodiy muvozanat tomon harakat qiladi va ma'lum darajada bu tenglik ta'minlab turiladi. Biroq, yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarib turishi natijasida muvozanat buziladi va iqtisodiyot yangi muvozanat tomon harakat qiladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Yalpi talab – barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida turli tovarlar va xizmatlarni sotib olish mumkin bo'lgan milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmi.

Yalpi taklif – mamlakatda narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqarilgan va sotishga tayyor bo'lgan barcha tovarlar va xizmatlar hajmi.

Xrapovik samarasi – yalpi talab oshganda narxning o'rtacha darajasi ko'tarilishi, lekin talab kamayganda, qisqa davr ichida narx pasayish tamoyiliga ega bo'lmasligini ifodalovchi ko'rsatkich.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yalpi talab va yalpi taklifni tahlil qilish nima uchun zarur?
2. Yalpi talab nima? Nima uchun yalpi talab egri chizig'i o'zgaradi?
3. Yalpi talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Yalpi talab egri chizig'ining pasayuvchan shaklda bo'lishiga foiz stavkasi, boylik va import tovarlar xaridi samaralarining ta'sirini tushuntirib bering.

5. Yalpi taklif nima? Yalpi taklif egri chizig'idan uchta kesmani tasvirlang va ular nimani ko'rsatishini tushuntiring?

6. Yalpi taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

7. Hozirgi sharoitda O'zbekistonda yalpi taklifning o'zgarishiga ko'proq qaysi omillar ta'sir ko'rsatmoqda?

8. O'zbekistonda yalpi taklif hajmini oshirishda davlat tomonidan qanday choralar ko'rilmoqda?

9. Huquqiy me'yorlarning o'zgarishi yalpi taklif hajmiga ta'sir ko'rsatishi borasida Respublikamiz tajribasidan misollar keltiring.

10. Nima sababdan xrapovik samarasi ro'y beradi? Bu samaraning real hayotda amal qilishiga misollar keltiring.

11. Yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining ahamiyati nimada? Bunday muvozanatga erishish yo'llarini izohlab bering.

16-BOB. ISTE'MOL, JAMG'ARMA VA INVESTITSIYALAR

Oldingi boblardan ma'lumki, barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida yil davomida Yaratilgan mahsulotning yig'indisi yalpi ichki mahsulot deb ataladi. Shu bilan yalpi ichki mahsulot harakati to'xtab qolmaydi, balki davom etadi va ayirboshlash, taqsimlash jarayonlaridan o'tib, undan keyin turli xil talab va ehtiyojlarni qondirish uchun iste'molga borib tushadi. Taqsimlanish jarayonida eng avvalo, undan (YalMdan) yil davomida iste'mol qilingan (yeyilgan) asosiy vositalar qiymati ya'ni ammortizatsiya fondi ajratib tashlanib sof mahsulot hajmi aniqlanadi. Mana shu sof mahsulotning puldagi ifodasi milliy daromad deb yuritiladi. Shu milliy daromad taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlaridan o'tgandan keyin iste'mol fondi va jamg'arma fondlariga ajraladi.

Ushbu bobda milliy daromad tarkibiy qismlari tahlili davom ettirilib, uning iste'molning mazmuni, turlari hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kengaytirishga ijtimoiy taraqqiyotni amalga oshirishga ketadigan qismi bo'lgan jamg'arishning iqtisodiy mazmuni qarab chiqiladi. Ularning darajasini aniqlovchi asosiy omillar ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga daromadning iste'moldan ortiqcha qismi – jamg'armaning iqtisodiy mazmuni va omillarini ko'rsatib berishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Undan tashqari investitsiyaning mazmuni manbalari, uning jamg'arma bilan bog'liqligi ham yoritiladi.

16.1. Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi

Milliy iqtisodiyotda yalpi ichki mahsulotning asosiy qismi bo'lgan yangidan vujudga keltirilgan mahsulot, ya'ni sotilgandan keyingi uning puldagi ko'rinishi bo'lgan milliy daromaddan iste'mol va jamg'arish maqsadlarida foydalaniladi. **Keng ma'noda iste'mol**

jamiyat a'zolari iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanish jarayonini bildiradi. Bunda unumli va shaxsiy iste'mol farqlanadi.

Unumli iste'mol bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan ishlab chiqarish maqsadida foydalanish jarayonini anglatadi.

Shaxsiy iste'mol ishlab chiqarish sohasidan tashqarida ro'y berib, bunda kishilarning iste'mol buyumlaridan va xizmatlardan bevosita o'zlarining shaxsiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida foydalanishi tushuniladi.

Shaxsiy iste'mol o'z navbatida ikki turga bo'linadi: moddiy hamda nomoddiy ne'mat va xizmatlar iste'molidan iborat bo'ladi.

Moddiy iste'mol – ehtiyojlarni qondirishda moddiy ko'rinishdagi ne'matlardan foydalanish. Bularga oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, turli xil buyumlar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalardan foydalanishni misol keltirish mumkin.

Nomoddiy ne'mat va xizmatlar iste'moli – ehtiyojlarni qondirishda nomoddiy ko'rinishdagi ne'mat va xizmatlarning nafli xususiyatlaridan foydalanish. Bularga bilim olish, musiqa tinglash, sog'liqni tiklash, advokat xizmatidan foydalanish va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Yakka tartibdagi yoki jamoa bo'lib iste'mol qilish ham farqlanadi. **Alohida shaxsning o'z ixtiyorida bo'lgan ne'matlarni iste'mol qilishi yakka tartibdagi iste'molga, jamiyat a'zolari turli guruhlarining ne'matlardan birgalikda foydalanishi jamoa bo'lib iste'mol qilishga kiradi.** Masalan, ovqatlanish, kiyinish, badiiy asarlar o'qish yakka tartibdagi iste'molni, jamoat transportidan foydalanish, o'yingohlarda sport o'yinlarini tomosha qilish, sihat maskanlarida sog'liqni tiklash jamoa bo'lib iste'mol qilishni anglatadi.

Milliy daromadning jamiyat a'zolari moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga sarflanuvchi qismi iste'mol fondi deb ataladi. Iste'mol fondi butun aholining shaxsiy iste'molini, aholiga ijtimoiy xizmat qiladigan muassasalardagi, shuningdek, ilmiy muassasalar va boshqarishdagi barcha sarflarni o'z ichiga oladi.

Iste'mol fondining shaxsiy daromad shaklida aholi qo'liga kelib tushadigan qismi iste'mol sarflari maqsadida ishlatiladi. **Iste'mol sarflari – bu aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.** Aholi o'z daromadini sarflar ekan, bugungi (joriy) iste'mol hamda kelgusidagi iste'mol hajmini oshirish o'rtasida tanlovni amalga oshiradi. Jumladan, "2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Kelgusida iste'mol hajmini oshirish imkoniyati joriy davrdagi jamg'armaga ham bog'liq bo'ladi. **Jamg'arma – bu aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi.** Uning hajmi barcha xo'jaliklar daromadidan iste'mol sarflarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Daromad tarkibida iste'mol sarflari ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, jamg'arma hajmi shunchalik kam bo'ladi. Jamg'armaning o'sishi esa iqtisodiy ma'noda mablag'larning iste'mol buyumlari xarid qilishdan investitsion tovarlar xarid qilishga yo'naltirilishini bildiradi. Shunga ko'ra, jamg'arma – bu muddat jihatidan kechiktirilgan iste'molni anglatadi. Shu bilan birga joriy davrda amalga oshirilgan jamg'arma joriy iste'molning chegirilgan qismidir, chunki jamg'arma aholi va korxonalar ixtiyoridagi daromadning iste'molga sarflanmagan qismi hisoblanadi:

$$Y=C+S,$$

bu yerda Y – barcha xo'jaliklar ixtiyoridagi daromad;

C – iste'mol miqdori;

S – jamg'arma miqdori.

Shu sababli daromad tarkibidagi iste'mol sarflari va jamg'arma nisbatining o'zgarishi bir qator, ba'zan qarama-qarshi oqibatlarga olib kelishi mumkin. **Birinchidan,** daromadlarning qandaydir qismini jamg'armaga qo'yish oqibatida u tovarlarda bo'lgan talabda o'z aksini topmaydi. Jamg'arma, yuqorida ta'kidlanganidek, daromadlarning ma'lum bir qismini iste'mol qilishdan chegirib qo'yishni bildirib, natijada iste'mol sarflari hajmi barcha ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni sotib olish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Aholi daromadi-

ning jamg'arilgan qismi o'zining xususiy talabini vujudga keltirmaydi. Buning natijasida sotilmay qolgan tovarlarning ko'payishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlik va daromadlarning pasayishi ro'y berishi mumkin. **Ikkinchidan,** jamg'arma talabning yetishmasligiga olib kelmasligi ham mumkin, chunki jamg'arilgan mablag'lar tadbirkorlar tomonidan investitsion maqsadlarda ishlatiladi. Bu jamg'arma keltirib chiqaradigan iste'mol sarflaridagi har qanday yetishmaslikni to'ldiradi. **Uchinchidan,** korxonalar ham o'zining barcha mahsulotini pirovard iste'molchilarga sotishni ko'zda tutmaydi, balki uning bir qismidan o'z ishlab chiqarishida foydalanishi mumkin. Shunday qilib, agar tadbirkorlar aholining jamg'armalariga teng miqdordagi mablag'larni investitsiyalarga qo'yishni ko'zda tutsa, ishlab chiqarish darajasi doimiy bo'lib qoladi.

Iste'mol va jamg'arma darajasini aniqlab beruvchi asosiy omil milliy daromadning hajmi va uning o'zgarishi hisoblanadi. Uning yalpi ichki mahsulotdan amortizatsiya ajratmalari hamda biznesga egri soliqlarni chegirib tashlash orqali aniqlanishi 14-bobda aytilgan edi. Lekin milliy daromad tarkibida to'g'ri soliqlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli soliqlar to'langandan keyin **korxonalar va aholi qo'lida qoladigan daromad** iste'mol sarflari va jamg'arma yig'indisiga teng bo'ladi. Shaxsiy iste'mol va jamg'armaning darajasi bevosita soliqlar to'langandan keyingi qolgan daromad bilan aniqlanadi. Bu daromadni biz tahlil chog'ida **ixtiyoridagi** yoki **sof daromad** deb ataymiz. Demak, bu daromad iste'molning ham, jamg'armaning ham umumiy omili hisoblanadi. Chunki jamg'arma daromadning iste'mol qilinmaydigan qismi hisoblansa, soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy jamg'armani aniqlab beradigan asosiy omil bo'lib chiqadi. Har yilgi haqiqiy iste'mol miqdori va soliqlar to'langandan keyingi daromad o'rtasidagi farq shu yildagi jamg'arma miqdorini aniqlaydi.

Iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik iste'mol va jamg'arma funksiyasi deyiladi. Bu funksiyalarni bayon etishda klassik iqtisodchilar va keynschilarning nuqtai nazarlari farqlanadi. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, kishilar o'z mablag'larini qo'shimcha daromad keltirgan taqdirda jamg'armaga yo'naltirishga harakat qiladilar. Shunga

ko‘ra, banklarning real foiz stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ularning jamg‘armaga qiziqishlari shu qadar kuchli bo‘ladi, ya’ni jamg‘arma real foiz stavkasining o‘sib boruvchi funksiyasi hisoblanadi. Aholi daromadlari iste’mol va jamg‘arma mablag‘larining yig‘indisidan iborat ekan, real foiz stavkasining o‘sishi bilan iste’mol pasayib, jamg‘arma esa ko‘payib boradi. Boshqacha aytganda, klassik iqtisodchilar fikriga ko‘ra iste’mol **real foiz stavkasining pasayib boruvchi funksiyasi** hisoblanadi.

J. M. Keyns klassik iqtisodchilarning bu fikrlariga qarshi chiqib, uy xo‘jaliklarining iste’mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog‘liq emasligini, kishilar uchun hamma vaqt joriy iste’molning kelgusidagi iste’moldan afzalligini ta’kidlaydi. U iste’mol sarflari darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil sifatida uy xo‘jaliklarining joriy daromadlarini ko‘rsatadi. Demak, Keyns fikriga ko‘ra, **iste’mol – uy xo‘jaliklari joriy daromadlarining o‘sib boruvchi funksiyasi** hisoblanadi:

$$C=f(Y).$$

Iste’mol funksiyasini grafik ko‘rinishida ham tasvirlash mumkin (16.1-rasm). Bunda tik o‘qqa iste’mol sarflari, yotiq o‘qqa esa aholi ixtiyoridagi daromad miqdori joylashtiriladi.



16.1-rasm. Iste’mol funksiyasining grafikdagi tasviri

Har ikkala o‘q o‘rtasidan 45° ostida o‘tuvchi 0F to‘g‘ri chiziq iste’mol sarflari va ixtiyordagi (sof) daromadning miqdoran tengligini ifodalaydi. 0Y o‘qidagi har qanday daromad miqdorini ifodalovchi ushbu chiziqda joylashgan nuqta 0S o‘qning tegishli miqdordagi iste’mol sarfiga teng bo‘ladi. Boshqacha aytganda, uy xo‘jaligi sof daromadning barcha hajmini to‘liq iste’molga sarflaydi. Biroq, bunday

tenglik amalda doimo ham ro'y beravermaydi. Iste'mol sarflari miqdori ba'zida joriy sof daromadlar miqdoridan past bo'lishi, ba'zida esa oshib ketishi ham mumkin. Shuning uchun iste'mol egri chizig'i S sof daromad 0F chizig'iga mos tushmay, unga nisbatan ma'lum darajada og'adi. Har ikkala chiziqning o'zaro kesishgan V nuqtasi «**0 darajadagi jamg'arma**»ni anglatadi. Bu nuqtaning chap tomonida iste'mol sarflari daromad miqdoridan yuqori bo'lib, bu **manfiy jamg'arma** deb ataladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, real hayotda har doim ham iste'molning ma'lum qismi daromad hajmiga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, biron-bir shaxsning daromadi kutilmaganda juda past darajaga tushib qolishi mumkin. Biroq, bu shaxs, daromadi bunga imkon bermagan taqdirda ham, ma'lum darajada ovqatlanish, kiyinish va boshqa zarur iste'mol xarajatlarini amalga oshirishga majbur. U mazkur sarflarni yo oldingi davrda jamg'arilgan daromadlari hisobiga, yoki o'zgalardan qarz olish hisobiga qoplashi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda iste'mol sarflarining bu darajasi **avtonom** (ya'ni, joriy sof daromaddan mustaqil) **holdagi iste'mol darajasi** deyiladi. Bizning grafigimizda bu daraja nuqtadan boshlanadi.

Rasmdagi V nuqtaning o'ng tomoni esa **ijobiy (musbat ishorali) jamg'arma** deb ataladi. Aynan V nuqtada aholi daromadlari va sarflarining muvozanatiga erishiladi. Daromad miqdori oshib borgan sari bu muvozanat buzilib, jamg'arma miqdori ortib boradi. Rasmdagi daromadning darajasida iste'mol miqdori kesmadan, jamg'arma miqdori esa kesmadan iborat bo'ladi.

Jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri bir oz o'zgacha ko'rinishda bo'ladi (16.2-rasm).



16.2-rasm. Jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri

Rasmdan ko'rinadiki, jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri iste'mol funksiyasi tasvirining aksi sifatida namoyon bo'ladi. Bu grafikda ham V nuqta 0 darajadagi jamg'arishni, 0Y yotiq chizig'ining 0 darajadan pastki qismi manfiy jamg'arishni, yuqori qismi esa ijobiy (musbat) jamg'arishni anglatadi. kesma sof daromadning darajasidagi jamg'arma miqdorini ko'rsatadi.

Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari yana bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Obyektiv omillar alohida iste'molchining ixtiyoriga, idrokiga bog'liq bo'lmagan omillardan iborat bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– barcha xo'jaliklar tomonidan jamg'arilgan mol-mulk darajasi;
– narxlar darajasi;
– real foiz stavkalari;
– iste'molchining qarzdorligi darajasi;
– iste'molchilarni soliqqa tortish darajasi.

Subyektiv omillar, asosan, iste'molchining o'ziga, uning ruhiyati va bozordagi xatti-harakatiga bog'liq bo'ladi. Bu omillar qatoriga iste'mol va jamg'arishga bo'lgan moyillik, kelgusidagi narx, pul daromadlari, soliq, tovarlar mavjudligi darajasining o'zgarishiga nisbatan munosabatni kiritish mumkin. Turli omillar ta'sirida iste'mol va jamg'arma darajasining o'zgarishini shartli ma'lumotlar asosida tuzilgan quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz (16.1-jadval).

16.1-jadval

Iste'mol va jamg'arma darajasi,
mlrd. so'm (shartli raqamlar asosida)

Yillar	Daromad darajasi (Y)	Iste'-mol (C)	Jam-g'arma (S)	Iste'molga o'rtacha moyillik (S : Y)	Jamg'a-rishga o'rtacha moyillik (S : Y)	Iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik (ΔS : ΔY)	Jamg'arishga keyingi qo'shilgan moyillik (ΔS : ΔY)
2002	1500	1300	200	0,87	0,13	-	-
2008	1800	1500	300	0,83	0,17	0,67	0,33
2015	2200	1700	500	0,77	0,23	0,50	0,50

Jadvaldan ko‘rinadiki, yillar davomida sof daromad hajmi oshib borishi bilan uning iste’mol va jamg‘armaga sarflanishi o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib bormoqda. Iste’molchilarning daromadlari qanchalik o‘sib borgan sari ularning jamg‘armaga bo‘lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi. Buni iste’mol va jamg‘armaga bo‘lgan o‘rtacha va keyingi qo‘shilgan moyillik ko‘rsatkichlari orqali ham kuzatish mumkin.

Daromadlarning iste’molga sarflanadigan ulushi iste’molga o‘rtacha moyillik (IO‘M) deyiladi:

$$IO'M = \frac{Iste'mol\ sarflari\ hajmi}{Daromadlar\ hajmi} = \frac{S}{Y}.$$

Daromadlarning jamg‘armaga ketadigan ulushi esa jamg‘armaga o‘rtacha moyillik (JO‘M) deyiladi:

$$JO'M = \frac{Jamg'arma\ hajmi}{Daromadlar\ hajmi} = \frac{S}{Y}.$$

Bizning misolimizda (16.1-jadval) yillar davomida daromad hajmi oshib borishi bilan IO‘M pasayib, JO‘M esa o‘sib bormoqda. Shunisi ahamiyatliki, iste’molga va jamg‘armaga o‘rtacha moyillik ko‘rsatkichlari iste’mol va jamg‘armaning daromaddagi ulushini anglatar ekan, ulardan birining qandaydir miqdorga o‘zgarishi boshqa birining ham teskari yo‘nalishda xuddi shunday miqdorga o‘zgarishiga olib keladi. Qisqacha aytganda, bo‘ladi. Shuningdek, iste’mol yoki jamg‘armaga keyingi qo‘shilgan moyillik ko‘rsatkichi ham ahamiyatlidir. Bu ko‘rsatkich iste’molchi daromadining navbatdagi o‘zgarishi uning iste’mol va jamg‘armaga nisbatan munosabati qanday o‘zgarishini aks ettiradi. **Daromad hajmining o‘zgarishi natijasida iste’mol sarflari hajmining o‘zgarishi darajasi iste’molga keyingi qo‘shilgan moyillik (IQM) deyiladi**, ya’ni:

$$IQM = \frac{\text{Iste’moldagi o‘zgarish}}{\text{Daromaddagi o‘zgarish}}.$$

Daromad hajmining o'zgarishi natijasida jamg'arma hajmining o'zgarishi darajasi jamg'armaga keyingi qo'shilgan moyillik (JQM) deyiladi, ya'ni:

$$JQM=\frac{\text{Jamg'armadagi o'zgarish}}{\text{Daromaddagi o'zgarish}}=\frac{\Delta S}{\Delta Y}.$$

Demak, sof daromadning o'sgan qismi ham yo iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. Bu sarflangan qismlar o'rtasidagi nisbat o'zgargan taqdirda ham ularning umumiy yig'indisi 1ga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\frac{\Delta C}{\Delta Y}+\frac{\Delta S}{\Delta Y}=1{,}0.$$

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyatining samarali amalga oshishida jamg'arish jarayonlarining ahamiyati beqiyosdir. Shunga ko'ra, jamg'arishning mohiyati, uning omillari va samaradorligi ko'rsatkichlarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

16.2. Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi

Jamg'arish iqtisodiyotdagi yalpi sarflarning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, investitsion tavsifdagi tovarlarga talab darajasini belgilab beradi. Investitsiyalar jamg'arishning amalda namoyon bo'lish shakli bo'lganligi sababli dastlab, tahlilni jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligini nazariy jihatdan asoslash bilan boshlaymiz.

Jamg'arish – milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot zaxiralarini ko'paytirish uchun sarflanishidir.

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish bir-biridan farqlanadi. Jamg'arilgan mablag'larning moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining asosiy kapitallarini va aylanma mablag'larini kengaytirishga ketadigan qismi ishlab chiqarish sohasidagi **jamg'arish summasini** hosil qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi jamg'arish iqtisodiy o'sishning muhim omilidir.

Ijtimoiy-madaniy sohadagi jamg'arish (noishlab chiqarish jamg'arishi) uy-joy fondini, kasalxonalar, o'quv muassasalari, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport muassasalari, ya'ni nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash, yangilashga sarflanadi. Noishlab chiqarish sohasini kengaytirish ham ishlab chiqarishni rivojlantirishning zarur shartidir.

Jamg'arish summasi, uning hajmi va tarkibi takror ishlab chiqarish sur'atlarini belgilab beradigan hal qiluvchi omillardir. **Jamg'arish normasi** bevosita jamg'arish summasining butun milliy daromad hajmiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$JN=(JS/MD)\times 100\%,$$

bu yerda JN - jamg'arish normasi;

JS - jamg'arish summasi;

MD - milliy daromad.

Jamg'arish normasining ham o'z chegarasi bo'lib, uni me'yoridan oshirish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lib chiqishi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, uning haddan tashqari ortishi natijasida investitsion sarflar samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki kapital mablag'lar hajmi bilan qurilish tashkilotlarining quvvatlari, materiallar va uskunalar yetkazib berish imkoniyatlari, infratuzilmaning rivojlanishi o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Oqibatda iqtisodiy o'sish pasayib ketish tamoyiliga ega bo'ladi. Shunday qilib, jamg'arish hajmi iqtisodiy o'sish sur'atlari va sifatiga faqat o'zining miqdori bilangina hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib qolmaydi. Fan-texnika revolyutsiyasi sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi birinchi o'ringa chiqadi.

Jamg'arish hajmi milliy daromadning bir qismini tashkil etadi va shu sababli milliy daromad hajmi ko'payishini belgilaydigan omillar jamg'arish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillardan asosiysi qo'llaniladigan resurslar massasi va ularning unumdorligidir. Jamg'arish miqdori ishlab chiqarish jarayonida xomashyo, materiallar, energiyani tejab-tergab sarflashga ham bog'liq. Mahsulot birligiga ularni sarflashni kamaytirish moddiy vositalarning o'sha miqdorida mahsulotlarni ko'proq hajmda ishlab chiqarishga imkon beradi.

16.3. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya **nominal investitsiya**, ana shu pul mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar **real investitsiya** deyiladi.

Investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy harakatlar – investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs – **investor** deyiladi.

Investitsiyalarning manbalaridan biri bo'lib aholi keng qatlamlarining jamg'armalari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, amalda jamg'arma egasi va investor bir shaxsda namoyon bo'lishi va bo'lmasligi ham mumkin. Odatda, jamg'arma jamiyatdagi ko'pchilik subyektlar tomonidan amalga oshirilib, ulardan investitsiya sifatida foydalanish esa butunlay boshqa subyektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sanoat, qishloq xo'jalik va boshqa korxonalar jamg'armasi ham investitsiya manbai bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda «jamg'aruvchi» va «investor» bir subyektda mujassamlashadi.

Investitsiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

– investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va h.k.);

– qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);

– jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari);

– davlat byudjeti mablag'lari;

– chet elliklar mablag'lari.

Mamlakatimizda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tuzilishi ham yillar davomida o'zgarib bormoqda (16.2-jadval). Jum-

ladan, yildan yilga davlat byudjeti mablag'larining ulushi kamayib, korxona mablag'lari, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda nobyudjet fondlar mablag'larining ulushi oshib bormoqda.

16.2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalar va ularning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, foizda[107]

Ko'rsatkichlar	2004	2006	2008	2010	2011	2012	2013	2014	2015
Asosiy kapitalga investitsiyalar, mln. so'm	2473,2	3838,3	8483,7	15409,1	18291,3	22067,0	28694,6	35233,3	40737,3
Jami, foizda	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Davlat byudjeti	14,9	10,7	9,0	7,8	6	5,1	5,3	4,5	4,8
Korxonalar mablag'lari	43,2	48,3	44,1	32,1	30,1	30,3	30,4	32,3	52,1
Aholi mablag'lari	12,4	11,7	9,8	15,2	20,1	20,5	24,8	22,4	
Hukumat tomonidan kafolatlangan xorijiy investitsiyalar	14,5	4,9	5,0	4,8	4,7	4,5	4,2	4,2	20,1
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	10,0	14,1	20,9	24,0	20,4	17,2	15,1	15,6	
Tijorat banklari kreditlari	2,3	3,4	5,0	9,1	11,1	11,4	10,3	11,2	11,7
Nobyudjet fondlar mablag'lari	2,4	6,9	6,3	7,0	7,6	11,0	9,5	9,5	10,7
Boshqa qarz mablag'lari	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,6

Respublikamizda 2015-yilda asosiy kapitalni rivojlantirish maqsadida kiritilayotgan mablag'ning katta qismlarini korxonalar va aholi mablag'lari (52,1 foiz) va chet el investitsiyalari va qarzlari (20,1 foiz) tashkil etadi.

Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi:

1) investitsiya sarflaridan kutilayotgan foyda normasi;

2) foiz stavkasi.

[107] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Investitsiyalarga qilinadigan sarflarning harakatlantiruvchi kuchi, rag'batlantiruvchi turtki **foyda** olishni ko'paytirish hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini ular foyda keltiradigan bo'lsagina sotib oladilar.

Investitsiyalar darajasini belgilaydigan ikkinchi omil **foizning real stavkasi** hisoblanadi. **Foiz stavkasi – real asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo'lgan, bankdan olingan ssuda kapitaliga korxona to'lashi lozim bo'lgan pul miqdori.**

Investitsiya darajasiga kutilayotgan sof foyda normasi va foiz stavkasidan tashqari boshqa quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi:

1) mashina va uskunalarni xarid qilish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

2) tadbirkorlardan olinadigan soliq miqdori;

3) texnologik o'zgarishlar.

Yalpi sarflar tarkibining investitsiya sarflariga oid qismi **yalpi xususiy ichki investitsiyalar** deb yuritiladi. Shunga ko'ra yalpi va sof investitsiyalarni ham bir-biridan farqlash zarur.

Yalpi investitsiyalar joriy yil davomida iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplashga mo'ljallangan (amortizatsiya) hamda iqtisodiyotdagi kapital hajmiga har qanday sof qo'shimchalardan iborat barcha investitsion tovarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Sof investitsiyalar esa joriy yil davomida qo'shimcha ravishda jalb qilingan investitsion tovarlardan iborat. Boshqacha aytganda, sof investitsiya yalpi investitsiya bilan amortizatsiya ajratmalarining ayirmasiga teng. Sof investitsiya asosiy va aylanma kapitalning o'sishini ta'minlaydi.

Yalpi investitsiyalar bilan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi nisbat iqtisodiyot rivojlanish holatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Quyidagi rasmda yalpi va sof investitsiyalar hamda amortizatsiya nisbati o'zgarishining o'suvchi, turg'un va qisqaruvchi iqtisodiyotlarga ta'sirini ko'rishimiz mumkin (16.3-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, yalpi investitsiyalar tarkibida sof investitsiyalar hajmining ahamiyatli darajada bo'lishi yil oxirida kapital hajmining o'sishiga hamda, pirovardida iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi. Turg'un iqtisodiyot sharoitida esa yalpi investitsiyalar faqat

amortizatsiya ajratmalari, ya'ni iste'mol qilingan kapitalni qoplash fondi hajmiga teng bo'lib, yil oxirida kapital miqdori o'zgarmay qoladi.



16.3-rasm. Yalpi investitsiya hamda amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri

Yalpi investitsiyalarning iste'mol qilingan kapitalni qoplash fondi hajmidan ham oz bo'lishi yil oxirida kapital miqdorining qisqarishiga va buning oqibatida, iqtisodiyot ko'rsatkichlarining pasayib ketishiga olib keladi.

16.4. Jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash muammolari

Jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatga erishish barqaror iqtisodiy o‘sishning sharti hisoblanadi. Biroq, bu muvozanatga erishish doimo oson kechavermaydi. Bunga sabab investitsiya darajasi hamda jamg‘arma darajasining boshqa-boshqa jarayon va holatlarga bog‘liqligi hisoblanadi.

Investitsiya va jamg‘arma o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash borasida bir qator nazariy qarashlar farqlanadi. Bu borada eng avvalo klassik iqtisodchilarning qarashlarini ko‘rib chiqamiz.

Klassik iqtisodchilar nuqtai nazaridagi eng markaziy holat – bu ular tomonidan foiz stavkasining ham investitsiyaning, ham jamg‘armaning funksiyasi sifatida qaralishi hisoblanadi (16.4-rasm).



16.4-rasm. Jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi muvozanatning klassik modeli

Rasmdan ko‘rinadiki, klassik modelni tuzishda tik o‘q bo‘yicha real foiz stavkasi, yotiq o‘q bo‘yicha esa jamg‘arma va investitsiya hajmi ko‘rsatkichlari joylashtirilgan. Investitsiya va foiz stavkasi o‘rtasida teskari funksional bog‘liqlik mavjud: foiz stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiya hajmi shu qadar past bo‘ladi va aksincha. Jamg‘arma esa to‘g‘ri, o‘suvchi funksional bog‘liqlikka ega, ya’ni foiz stavkasining yuqori bo‘lishi jamg‘arma darajasining ham yuqori bo‘lishiga olib keladi. Iqtisodiyotdagi investitsiya va

jamg'arma hajmlari o'rtasida muvozanat (E nuqta)ga erishish uchun foiz stavkasining darajasi ta'minlanishi lozim. Foiz stavkasi darajasining muvozanat darajasidan chetlanishi (– past va – yuqori bo'lgan holatlar) investitsiya va jamg'arma hajmi o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keladi. Foiz stavkasining darajasida investorlar uchun qulay narxlarning vujudga kelishi investitsion resurslarga bo'lgan talabni oshiradi, biroq bunday darajada jamg'arma uchun rag'bat pasayib ketadi. Natijada investitsion resurslar taqchilligi paydo bo'ladi. darajada esa barcha subyektlar uchun jamg'armaning naflliligi oshadi, biroq bunday foiz darajasida barcha investorlar ham o'z faoliyatining foydaliligini ta'minlay olmaydilar. Natijada jamg'armaning ahamiyatli qismi investitsiyalarga aylana olmaydi.

Keynschilarning investitsiya va jamg'arma o'rtasidagi muvozanat modeli o'z tuzilishiga ko'ra klassik modeldan farq qiladi. Bunda eng markaziy nuqta – J. M. Keyns tomonidan jamg'arma foiz stavkasining emas, balki daromadning funksiyasi deb qaralishi hisoblanadi: . Investitsiya esa, klassik modeldagi singari, foiz stavkasining funksiyasi deb olinadi: . Ya'ni, keynscha konsepsiyaning asosida jamg'arish va investitsiya darajalarining boshqa-boshqa omillar ta'sirida o'zgarishi yotadi. Keynscha modelning mohiyatini quyidagi rasm orqali izohlash mumkin (16.5-rasm).



16.5-rasm. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modeli

Rasmdan ko'rinadiki, grafik ko'rsatkichlarining joylashuvi ham klassik modeldan farq qiladi. Tik o'qda jamg'arma (S) va investitsiya (I) darajasi, yotiq o'qda esa milliy daromad darajasi (NI) joylashgan.

Iqtisodiyotdagi jamg'arma darajasi milliy daromad hajmiga bog'liq holda o'zgaradi. Milliy daromad hajmi amalda investitsiya darajasiga ham ta'sir ko'rsatsada, mazkur modelda uni milliy daromadga bog'liq bo'lmagan, ya'ni avtonom holda beriladi. Grafikda investitsiya va jamg'arma egri chiziqlari E nuqtada kesishadi. Agar iqtisodiyotdagi to'la bandlik holatiga milliy daromadning F darajasida erishiladi, deb tasavvur qilsak, u holda bu darajada investitsiya va jamg'arma muvozanatini (nuqta) ta'minlash uchun investitsiya darajada bo'lishiga erishish lozim bo'ladi. Biroq, Keyns talqiniga ko'ra, investitsiya va jamg'arma darajasining muvozanati to'la bandlik bo'lmagan sharoitda ham ta'minlanishi mumkin: grafikdagi milliy daromadning N hajmida aynan shu holatga (E nuqta) erishiladi.

Investitsiya va jamg'arma darajalari muvozanatining klassik va keynscha modellari o'rtasidagi farq quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: **birinchidan,** klassik modelda bu muvozanat ro'y berishi uchun iqtisodiyotning doimiy ravishda to'la bandlik holatida bo'lishi taqozo etiladi. Keynscha modelda esa, yuqorida ko'rib chiqilganidek, bu muvozanatga to'la bandlik bo'lmagan holatda ham erishish mumkin; **ikkinchidan,** klassik modelda narx mexanizmi juda harakatchan bo'ladi. Keynscha modelda narxning bunday moslashuvchanligi inkor etiladi; **uchinchidan,** yuqorida ta'kidlanganidek, klassik modelda jamg'arma foiz stavkasining funksiyasi sifatida, keynscha modelda esa daromad funksiyasi sifatida qaraladi. Demak, yuqoridagilardan ko'rinadiki, jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modeli klassik modelga nisbatan asoslangan, real hayot, ya'ni iqtisodiyotning to'la bandligi mavjud bo'lmagan holatga nisbatan ham tatbiq etilib, takomillashtirilgan model hisoblanadi. Shunga ko'ra, biz ham makrodarajadagi boshqa muammolarni ko'rib chiqish va tahlil qilishda, asosan, ushbu modeldan foydalanamiz.

16.5. O'zbekistonda investitsion faoliyatni kuchaytirish va uning shart-sharoitlari

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotg an keng qamrovli iqtisodiy islohotlar investitsiya jarayonlarining faollashuvini

taqozo etmoqda. Iqtisodiyotda yangi tarmoq va sohalarning yo'lga qo'yilishi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi, ish o'rinlarining tashkil etilishi tobora ko'proq mablag' va resurslarni jalb qilishni rag'batlantirmoqda. Jumladan, "Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq"[108].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsion faoliyat tobora oshib bormoqda (16.3-jadval).

16.3-jadval

Investitsiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. so'm[109]

Tarkibiy qismlar	2005	2008	2010	2012	2013	2014	2015
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - jami	3165,2	9555,9	15338,7	22797,3	28694,6	35233,3	40737,3
Chet el investitsiyalari va kreditlari	687,0	2863,9	4340,8	4653,3	6216,4	7132,6	8188,2
Qurilish ishlari	1453,1	3575,9	8245,8	11753,9	15219,3	20060,4	25329,1

Jadvaldan ko'rinadiki, agar 2005-yilda asosiy kapitalga 3165,2 mlrd. so'mni, chet el investitsiyalari va kreditlari 687,0 mlrd.so'm, qurilish ishlari uchun 1453,1 mlrd so'm miqdorida investitsiyalar kiritilgan bo'lsa, 2015-yilga kelib asosiy kapitalga 40737,3 mlrd. so'mni, chet el investitsiyalari va kreditlari 8188,2 mlrd.so'm, quri-

[108] O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so'zi, 2016-yil 16-yanvar.

[109] Manba: O'zbekiston raqamlarda. Statistik to'plam. Toshkent, 2015.

lish ishlari uchun 25329,1 mlrd.so‘m miqdorida investitsiyalar kiritildi. Bu esa, jalb etilayotgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligining o‘sishiga ahamiyatli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, o‘zlashtirilgan barcha investitsiyalarning 50 foizdan ortig‘i ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va texnik qayta jihozlashga yo‘naltirildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev mamlakatimiz hududlariga salmoqli investitsiyalarni kiritishga doir muammolarga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlab, Milliy bank investitsiya faoliyatiga o‘z mablag‘lari bilan birga, tashqaridan moliyalashtirish manbalarini jalb etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerakligini ham aytib o‘tdi.[110]

2004-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2473,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2014-yilga kelib bu ko‘rsatkich 35233,3 mlrd. so‘mga etdi. Investitsiya sohasida shakllangan ijobiy dinamika iqtisodiyotning o‘sishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi (16.4-jadval).

Bu sohada o‘tgan davr mobaynida ko‘zga tashlanuvchi o‘ta muhim jihat –respublikamizda investitsiya faolligining sezilarli darajada oshganligidir. Ayniqsa, mamlakatimizdagi investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonlariga bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlash chora-tadbirlarining ta’siri ahamiyatli bo‘ldi.

“Iqtisodiyotga jalb qilingan insvestitsiyalar miqdori 16.6 mlrd dollarni tashkil qilgan, yoki 2015-yilga nisbatan 9.6 foizga oshgan. O‘zlashtirilgan chet el investitsiyalari va kreditlari 11.3 % oshgan va 3.7 millard dollarni tashkil qildi. 164 ta katta investitsion loyihalarni amalga oshirish tugatildi, ularning umumiy qiymati 5.2 mldr dollarni

---

110 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, 2017-yil 16-yanvar.

tashkil qeildi. AO "GM Uzbekistan" korxonasida yegil avtomobilning "**T-250**" modelini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jizzax sement zavodining ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirildi. Tallimarjon issiqlik energiyasi ishlab chiqarish stansiyasida 900 MVt bo'lgan ikkita gaz-par qurilmasi ishga tushirildi.angren TESda 150MVt quvvatga ega bo'lgan ko'mir bilan ishlaydigan energoblok ishga tushurildi.

16.4-jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi to'g'risida ma'lumot[111]

Yillar	Joriy narxlarda, mlrd. so'm.	O'tgan yilga nisbatan o'sish, foizda
2004	**2473,2**	**105,2**
2005	**3012,9**	**107,0**
2006	**3838,3**	**109,1**
2007	**5479,7**	**122,9**
2008	**8483,7**	**128,3**
2009	**12531,9**	**124,8**
2010	**15409,1**	**109,2**
2011	**18291,3**	**107,9**
2012	**22067,0**	**120,6**
2013	**28694,6**	**130,0**
2014	**35233,3**	**122,8**
2015	40737,3	109,6

Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasi ishga tushurildi, uning 19 km li qismi Qamchiq dovonidan o'tadigan tuneldan iborat.

Toshket-Buxoro va Buxoro-Toshkent elektrlashtirilgan katta tezlikda yuruvchi elektropoezd qatnovi yo'lga qo'yildi.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish natijasida uning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'sishi 2016-yilda

111 Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

6.6%ga oshdi, meva-sabzavot yetishtirish 11.2%ga, kartoshka yetishtirish 9.7%ga, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish 10.4%ga oshgan. 2016-yilda 32 mingta kichik biznes subyetklari yangitdan yaratildi. Bu 2015-yilga nisbatan 18%ga ko'pdir. Kichik biznes subyektlarining YaIM mahsulotdagi ulushi 56.9%ni, bu ko'rsatkich sanoatda 45 %ni tashkil qildi. Iqtisodiyotninng stabillashganligi oqibatida aholi daromadlarining o'sishi 11%ni tashkil qilgan. Byudjet tashkilotlari xodimlari ish haqlari 15 %ga oshgan, 726ming kishi ish bilan ta'minlangan, shundan 438.5 kishi ta'lim sohalari bitiruvchilaridir."Sog'lom ona va bola yili" dasturini amalga oshirish uchun 8 trillion so'm va 212 million AQSH dollari hajmidagi mablag' ajratilgan".[112]

Bugungi kunda O'zbekistonda investitsion faoliyatni ta'minlash maqsadida Mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 40 mlrd. dollarga teng bo'lgan 649 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ko'zda tutuvchi tarmoq dasturlarini o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash belgilangan.

Xususan, 2017-yilda umumiy qiymati 1,0 mlrd. dollarlik 145 ta ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan, shu jumladan:[113]

- meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash sohasida 147 mln. dollarlik 63 ta loyiha;
- rangli va qimmatbaho metallarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 217 mln. dollarlik 6 ta loyiha;
- kimyoviy xom ashyolarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 25 mln. dollarlik 2 ta loyiha;
- uglevodorod xom ashyolarini qayta ishlashni chuqurlashtirish bo'yicha 342 mln. dollarlik 6 ta loyiha;
- tayyor charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha 6 mln. dollarlik 9 ta loyiha;
- farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirishga yo'naltirilgan 24 mln.dollarlik 7 ta loyiha;

[112] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

[113] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni, 8-ilova, №132.

- qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish bo'yicha 151 mln. dollarlik 29 ta loyiha;

- tayyor to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha 178 mln. dollarlik 15 ta loyiha.

Xulosalar

1. Milliy iqtisodiyotda YaIMning asosiy qismi yangidan vujudga keltirilgan mahsulot, uning sotilgandan keyingi puldagi ifodasi milliy daromad iste'mol va jamg'arma maqsadlarida sarflanadi.

2. Keng ma'noda iste'mol jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni bildirib, unumli va shaxsiy iste'molga ajraladi.

3. Jamg'arma – bu aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadlarida to'planib borishi. Uning hajmi uy xo'jaliklari daromadidan iste'mol sarflarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

4. Iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omilar o'rtasidagi bog'liqlik iste'mol va jamg'arma funksiyasi deyiladi. Bu funksiyalarni bayon etishda klassik iqtisodchilar va keynschilarning nuqtai nazarlari farqlanadi. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, jamg'arma banklarning real foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning qiziqishlari shu qadar kuchli bo'ladi. J.M.Keyns klassik iqtisodchilarning bu fikrlariga qarshi chiqib, uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog'liq emasligini, kishilar uchun hamma vaqt joriy iste'molning kelgusidagi iste'moldan afzalligini ta'kidlaydi. U iste'mol sarflari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida uy xo'jaliklarining joriy daromadlarini ko'rsatadi.

5. Iste'molchilarning daromadlari o'sib borgan sari ularning jamg'arishga bo'lgan moyilliklari shunchalik oshib boradi.

6. Amalda jamg'arish kapital mablag'lar yoki investitsion sarflar shaklida yuzaga chiqib, u yangi asosiy kapitalni hosil qilish, ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni ifodalaydi.

7. Jamg'arish summasi milliy daromadning bir qismini tashkil etadi va shu sababli milliy daromad hajmi ko'payishini belgilaydigan

omillar jamg'arish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillardan asosiysi qo'llaniladigan resurslar massasi va ularning unumdorligidir.

8. Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo'yilmadir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu pul mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar real investitsiya deyiladi.

9. Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi: 1) investitsiya sarflaridan kutilayotgan foyda normasi; 2) foiz stavkasi.

10. Statistik ma'lumotlar dinamikasi nushdan dalolat beradiki, mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarflanayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga o'sib borish tendensiyasiga ega.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iste'mol – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni.

Shaxsiy iste'mol – iste'molchilik tavsifidagi ne'matlar va xizmatlardan bevosita foydalanish, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol qilinishi.

Unumli iste'mol – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish.

Iste'mol sarflari – aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

Jamg'arish – aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'plab borilishi.

Iste'molga o'rtacha moyillik – daromadlarning iste'molga ketadigan ulushi.

Jamg'arishga o'rtacha moyillik – daromadlarning jamg'arishga ketadigan ulushi.

Iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik – daromad hajmining o'zgarishi natijasida iste'mol sarflari hajmining o'zgarishi darajasi.

Jamg'arishga keyingi qo'shilgan moyillik – daromad hajmining o'zgarishi natijasida jamg'arish hajmining o'zgarishi darajasi.

Iqtisodiy jamg'arish – milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zaxiralarni ko'paytirish uchun sarflanib borishi.

Jamg'arish normasi – jamg'arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

Investitsiya – ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo'yilma.

Investitsiyalar samaradorligi – milliy daromad (foyda)ning o'sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.
2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarini sanab ko'rsating.
3. Iste'mol va jamg'arma funksiyalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo'llagan holda tushuntiring.
4. Manfiy va musbat (ijobiy) jamg'arma nima va ularning grafikdagi joylashishi qanday bo'ladi?
5. Jamg'arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Iste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz? Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillik qanday aniqlanadi?
7. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsifini bering.
8. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri qanday?
9. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik modelining mohiyatini tushuntirib bering.
10. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modelining mohiyatini hamda klassik modeldan farqini tushuntirib bering.

17-BOB. IQTISODIY O'SISH VA MILLIY BOYLIK

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga erishishdir. Aholi farovonligining oshib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy taraqqiyot va o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq. Ushbu bobda iqtisodiy taraqqiyotning mohiyati, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari, ko'rsatkichlari va omillari bayon qilinadi, shuningdek, iqtisodiy o'sish borasida mavjud bo'lgan turli xil nazariyalar, konsepsiyalar va modellar mazmunini yoritishga muhim o'rin ajratilgan. Ushbu bobda milliy boylik va uning tarkibiy tuzilishi kabi masalalarga alohida e'tibor beriladi.

17.1. Iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni va ko'rsatkichlari

Mamlakatimiz iqtisodiyotining turli sohalari, tarmoqlari va hududlarida puxta asoslanib amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida yildan-yilga barqaror o'sib borayotgani mustaqil taraqqiyot yo'lining yo'nalishi naqadar to'g'ri tanlanganligini ko'rsatib turibdi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov asarlarida va ma'ruzalarida mustaqil iqtisodiy taraqqiyotning yo'l-yo'riqlari, yo'nalishlari va natijalari batafsil bayon qilinib, ko'rsatib berilmoqda. Lekin iqtisodiy adabiyotlarda asosan iqtisodiy o'sish haqida gap yuritilib, iqtisodiy taraqqiyot muammosiga kam e'tibor berilmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyot juda keng qamrovli muammo bo'lib, uni bu yerda har taraflama va batafsil yoritib bera olmaymiz, balki uning ayrim bizningcha muhim jihatlariga to'xtalamiz.

Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy o'sish tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayonlar bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Iqtisodiy taraqqiyot uzoq muddatli va keng qamrovli jarayon bo'lib, kengaygan takror ishlab chiqarishga asoslangan holda ishlab chiqa-

ruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlarning o‘zaro ziddiyatda va ta’sirda bo‘lib, to‘xtovsiz rivojlanishida o‘z aksini topadi.

Iqtisodiy taraqqiyot jarayoni siklik tavsifiga ega bo‘lib, faqatgina iqtisodiy o‘sish jarayoninigina emas, shu bilan birga iqtisodiy inqiroz, turg‘unlik, jonlanish va yuksalish jarayonlarini ham qamrab olib, goh o‘sib, goh pasayib to‘lqinsimon tarzda rivojlanib boradi. Iqtisodiy taraqqiyotning mazmunini aniq bilish uchun avvalo, taraqqiyot tushunchasining o‘zi nimaligini, uning mazmunini tushunish muhimdir. Albatta jamiyat taraqqiyoti haqida turli davrlarda har xil mutafakkirlar, faylasuflar tomonidan turli-tuman g‘oyalar, nazariyalar ilgari surilgan bo‘lib, ularning ichida taraqqiyot haqida aniqroq ta’rif sifatida nemis mumtoz falsafasining yirik namoyondasi Gegelning ta’rifi e’tiborga sazovordir.

Uning ta’limotiga ko‘ra taraqqiyot muayyan bir narsa, voqea hodisa va jarayonlarning ma’lum tomonga, ya’ni pastdan yuqoriga, oddiylikdan murakkablikka tomon yo‘naltirilgan harakatining bir ko‘rinishidir[114]

Ushbu falsafiy ta’rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, **iqtisodiy taraqqiyot iqtisodiyotning ma’lum bir tomonga ya’ni pastdan yuqoriga, oddiylikdan murakkablikka tomon yo‘naltirilgan to‘xtovsiz sodir bo‘ladigan to‘lqinsimon harakatidir.** Iqtisodiy taraqqiyot zamon va makon jihatdan keng qamrovli bo‘lib, uzoq davrlarni qamrab oladi va bir qancha bosqichlarni bosib o‘tadi. Bunda har bir yangi progressivroq bosqich o‘zidan oldingi bosqichni inkor etadi va keyinroq borib o‘zidan keyingi, bundan ko‘ra progressiv bo‘lgan bosqichga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi, to‘g‘rirog‘i keyingi progressivroq bo‘lgan bosqich tomonidan inkor etiladi. Iqtisodiy taraqqiyot bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki tomonning ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlarning birligida va ularning o‘zaro dialektik ta’sirida ro‘y beradi. Albatta bunda ishlab chiqaruvchi kuchlar: tabiat, kapital (bunda mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan iborat bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari ko‘zda tutiladi), ishchi kuchlarining rivojlanishi faol rol o‘ynaydi, ya’ni ularning rivojlanib

[114] Karimov T.K. “Ijtimoiy taraqqiyot va davrimizning jahonshumul muammolari” Toshkent: 1997 y. 14–15 betlar.

borishi iqtisodiy munosabatlarning ham o'zgarishiga ya'ni birinchisining rivojlanish darajasiga moslashishiga olib keladi. Iqtisodiy munosabatlar ham o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Agar u mos kelsa ijobiy, mos kelmasa salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy taraqqiyot ko'p qirrali bo'lganligi uchun u ko'pgina ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Ularning asosiylari:

1. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning (mehnat predmetlari, mehnat qurollari, ishchi kuchi) rivojlanish darajasi mehnatning energiya yangi texnika va texnologiya bilan qurollanish darajalari bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkichlarning qanchalik rivojlanganligi ishlab chiqarish omillari: mehnat, kapital, yer unumdorligi ko'rsatkichlarining o'sishida o'z ifodasini topadi;

2. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash jarayonlarining borishi;

3. Fan texnika va texnologiyalar taraqqiyoti, ulardan unumli foydalanish va mamlakat iqtisodiy quvvatining yuksalishi;

4. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib, shu davrdagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi va sifatiga mos kelishi va ular rivojlanishini rag'batlantirish darajasi. (Bunda mulkchilik ayirboshlash, taqsimot, iste'mol munosabatlarining rivojlanganlik darajasi);

5. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari: YaIM va milliy daromad hajmining alohida olingan yillar bo'yicha o'sishi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorining o'sishi;

6. Iqtisodiyotning muvozanatli va mutanosibli rivojlanib ortiqcha (talabdan oshiq) ishlab chiqarish, behuda sarf harajatlarning, oxir oqibatda inqirozlarning oldini olish darajasiga;

7. Inson hayoti farovonligining miqdor va sifat jihatdan o'sish darajalari;

8. Kapital, jamg'arish va investitsiyalarning o'sishi;

9. Qo'shimcha mahsulot miqdorining ko'payib borishi.

Shuni ta'kidlash joizki, qo'shimcha mahsulot ko'rsatkichi hamma bosqichlarda taraqqiyotning natijasi, uning mezoni va keyingi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining manbai bo'lib xizmat qiladi. Lekin iqtisodiy adabiyotlarda bu haqda juda kam to'xtaladi yoki umuman

to‘xtalmaydi. Chunki u hozirgi davrdagi statistik ma’lumotlarda, buxgalteriya hisobotlarida aniqlanmaydi va binobarin ko‘rsatilmaydi. Lekin uning miqdorini ikki yo‘l bilan: qo‘shimcha mahsulotning modifikatsiyalashgan shakllari bo‘lib, real iqtisodiy hayotda hammamiz biladigan: a) foyda, foiz renta, soliq miqdorlarini qo‘shish yo‘li bilan; b) Yaratilgan sof ichki mahsulotdan zaruriy mahsulotni (ish haqi va ijtimoiy fondlarni) ajratib tashlash yo‘li bilan aniqlash mumkin.

Iqtisodiy taraqqiyot uzoq muddat davomida unda sodir bo‘layotgan hamma o‘zgarishlarni, raqamlar bilan ifodalab bo‘lmaydigan jihatlarni ham qamrab oladi. Iqtisodiy taraqqiyot ikki yo‘l bilan, revolyusion va evolyusion yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Revolyusion yo‘l birdaniga katta to‘ntarishlar, keskin burilishlar yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin. Lekin bu yo‘l xatarli bo‘lib, ko‘plab ijtimoiy to‘qnashuvlarga, talofatlarga, yo‘qotishlarga, ishsizlik, inflyatsiya darajalarining oshib ketishi kabi noxush hodisalarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bizning mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotning har tomonlama o‘ylangan evolyutsion yo‘li tanlandi. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganlaridek, - “Tadrijiy rivojlanish – bu evolyusion yo‘l degani. Biz buni bosqichma-bosqich, qadamba-qadam rivojlanish deymiz”[115]

Iqtisodiy taraqqiyot juda ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, turli xil yo‘nalishlarda va shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Ulardan asosiylari:

1. Markazdan turib rejalashtirish va taqsimlash asosida boshqariladigan ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan yo‘l;

2. Jahonning ko‘pchilik mamlakkatlarida amalga oshirilib rivojlanish yo‘lini ochib berayotgan bozor iqtisodiyoti yo‘li.

O‘zbekiston mamlakatimiz birinchi Prezidenti I. Karimovning bevosita tashabbusi va rahbarligida puxta o‘ylab ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan bosqichma-bosqich, lekin izchil amalga

---

[115] Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2013-yil 7-dekabr. T.:O‘zbekiston, 2013. 14 bet.

oshiriladigan mustaqil taraqqiyot yo'lini tanladi. Bu yo'lni tanlash birdaniga va oson kechgani yo'q. Bu jahondagi ko'plab mamlakatlarning taraqqiyot tajribalari, o'zbek xalqining tarixiy merosi, an'analari, urf-odatlari, turmush tarzi, uning mehnatsevarlik, bunyodkorlik qobiliyatlari, mavjud tabiiy, iqtisodiy shart-sharoitlar va boshqa bir qancha omillar hisobga olingan holda puxta o'ylab ishlab chiqilgan yo'l edi. Iqtisodiy taraqqiyotning bu yo'li Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan, hammaga ma'lum bo'lgan mashhur besh tamoyilning mazmun, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan model bo'lib, jahon mamlakatlari hukumatlari va xalqlari tomonidan tan olinib, "O'zbek modeli" degan nom qozondi.

Bu modelda faqatgina iqtisodiy taraqqiyot emas, shu bilan birga Davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma'naviyat, huquq va tartibotni, umuman jamiyat hayotining barcha jabha va sohalarini tubdan isloh qilish va rivojlantirish ko'zda tutilgan. Lekin biz bu yerda asosan e'tiborni uning iqtisodiy tomoniga qaratmoqchimiz.

Bugungi kunda o'zbek modelida ifodasini topgan besh tamoyil va boshqa strategik maqsadlarni amalga oshirish asosida mamlakatimizda erishilgan iqtisodiy taraqqiyot natijalarining haqiqiy bahosini anglab yetish, olib borilgan iqtisodiy siyosatning naqadar to'g'ri va asosli ekanini tushunish uchun mustaqil taraqqiyotimiz boshlangan dastlabki yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni esga olish muhim hisoblanadi. Mazkur vaziyat birinchi Prezidentimizning "O'zbekistonning 16-yillik taraqqiyot yo'li"[116] nomli risolasida batafsil bayon qilingan edi. Jumladan, mamlakatimizdagi bug'doy va un zaxirasining bor-yo'g'i o'n-o'n besh kunga yetadigan hajmda bo'lib, mamlakatning amalda ocharchilik ostonasiga kelib qolgani, iqtisodiyotning asosan xom-ashyo tayyorlashga yo'naltirilib, biryoqlama rivojlanib, nochor holga tushib qolgani; hali yangi milliy valyuta joriy etilmagan sharoitda iqti-sodiyotning fojiali ravishda inqirozga yuz tutishi va inflyatsiyaning keskin ravishda o'sib ketishi; paxta yakkahokimligining yurtiimizdagi ekologik va ijtimoiy vaziyatni jar yoqasiga olib kelib qo'ygani; ommaviy ishsizlikning kuchayib, aholi turmush darajasi-

[116] Karimov I. A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 2008. 3–55 betlar.

ning haddan tashqari pasayib ketgani, 1990-yilda sobiq Ittifoqda ishlab chiqarila-digan paxta tolasining 62,4 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelib, mamlakatimizda uning atigi 7 foizi qayta ishlanar edi. Shu davrda O'zbekistonda ekiladigan paxta maydonlari umumiy ekin maydoni-ning 75 foizidan ko'prog'ini tashkil yetishi kabi holatlar keng va batafsil ko'rsatilgan edi. Bular hammasi zudlik bilan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda iqtisodiyotni tubdan o'zgartirib, taraqqiyot yo'liga tushirib yuborish zarurligini taqozo qilar edi.

Mana shu sharoitlardan kelib chiqib mamlakatda tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish boshlandi. Dastlabki yillardayoq bozor iqtisodiyotining asoslari yaratildi, bozor infratuzilmasini tashkil etish va raqobat muhitini shakllantirish orqali bozor munosabatlarining mexanizmi ishga tushirildi.

Mamlakatimizda xususiy mulkchilik tiklanib, uning rivoji ustuvor ahamiyat kasb etdi. Xususiy mulk konstitutsiyaviy asosda ishonchli kafolatga ega bo'ldi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari savdo va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining butunlay davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi natijasida mamlakatimizda amalda ko'p shaklli mulk va ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi, mulkdorlar va tadbirkorlarning yangi sinfi paydo bo'ldi. Ayni paytda biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan moliya, bank, soliq va sug'urta tizimlarini shakllantirish hamda o'z milliy valyutamizni muomalaga kiritish ham ulkan ahamiyat kasb etdi.

Bu davrda amalga oshirilgan islohotlar diqqat-e'tibori mamlakatimiz aholisining farovonligi, eng avvalo uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasiga qaratildi. Qishloq xo'jaligida paxta yakkaxokimligiga barham berilib, ekin maydonlarining katta qismi don mahsulotlariga ajratildi. Natijada ozuqabop g'alla importiga qaramlik barham topib, tez orada g'alla mustaqilligi qaror topdi. Shuningdek, chuqur tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida respublikaning yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoji o'zi hisobidan to'la ta'minlandi. Mustaqillik yillarida erishilgan ulkan iqtisodiy taraqqiyotimiz birinchi Prezidentimiz I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-yilli-

giga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishdagi ma'ruzasida batafsil yoritilgan. Unda ko'rsatilganidek, istiqlol davrida iqtisodiyotda yangi tarmoqlar – avtomobilsozlik, motorsozlik va ularga butlovchi qismlar tayyorlaydigan sohalar, neft va gazni qayta ishlaydigan, zamonaviy televizor va kompyutyerlar ishlab chiqaradigan, selyuloza-qog'ozlar, qand-shakar, farmatsevtika va boshqa yangi-yangi tarmoqlarga asos solindi. Respublika sanoatida yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, ya'ni mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, kimyo va yengil sanoat kabilarning hissasi ortib bordi. O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilishini o'zgartirishda yangi neft konlari, Mingbuloq va Ko'kdumaloq konlarining ishga tushirilishi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi, Yangi Angren va Tolimarjon GRESlari qurilishining jadallashtirilishi, metall ishlab chiqarilishining ko'paytirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, oziq-ovqat, yengil sanoat, kimyo, qurilish materiallari sanoati va boshqa tarmoqlar to'liq modernizatsiya qilindi va ularda dunyo bozorida raqobatbardosh bo'lgan tovarlar ishlab chiqarilmoqda.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti tomonidan puxta o'ylab ishlab chiqilgan iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli"ning to'g'ri ekani va xalqimizning manfaatlariga to'liq javob berayotganini keyingi yillarda iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan o'sib, rivojlanib borayotgani misolida ko'rish mumkin. O'zbekistonda 1996-yildan boshlab iqtisodiy o'sish ta'minlanib, uning sur'atlari 2001–2003-yillarda o'rtacha 4 foizdan, 2004–2006-yillarda 7 foizdan yuqori o'sish suratiga ega.

Jahon miqyosida davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jiddiy ta'siriga qaramasdan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining yillik o'sishi barqaror davom etib, 2007–2015-yillarda 8 foiz va undan ortiqroq, 2016-yilda esa bu ko'rsatkich 7,8 foizni tashkil etdi.

Eng muhimi, mamlakatimizdagi yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi an'anaviy xomashyo tarmoqlari hisobidan emas, jahon bozoridagi qulay kon'yunktura va ayrim xomashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki birinchi navbatda raqobatga bardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivoj-

lantirishni belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta’minlanmoqda.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikka erishilib, u yildan-yilga tobora mustahkamlanib borayotgani, mustaqil taraqqiyot davrida O‘zbekiston iqtisodiyotining 4,1 barobar o‘sganligi orqali ham namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 1990-yildagi 14,2 foiz o‘rniga 2015-yilda 24,3 foizni tashkil etdi, ayni paytda qishloq xo‘jaligining ulushi 34 foizdan 16,7 foizga kamaydi.

Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 15 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 5,7 foizga oshgani xalqimizning hayot darajasi tobora o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha iqtisodiy taraqqiyotni amalga oshirishda investitsiyalar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. 2015-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o‘zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko‘p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig‘i xorijiy investitsiyalar bo‘lib, shuning 73 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalaridir.[117]

17.2. Iqtisodiy o‘sish modellari

Iqtisodiy o‘sish masalasi hozirgi zamon iqtisodiyotining muhim va zarur muammolaridan bo‘lib, borgan sari uning ahamiyati oshib bormoqda.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasida bu masala bo‘yicha shakllangan nazariyalarni asosan ikki yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchisi, yangi klassik nazariyalar. Bu nazariyaning asoschilari A. Marshal, L. Valras va M. Fridmanlardir. Bu yo‘nalishdagi nazariyalarning asosida o‘zini-o‘zi tartibga soladigan bozor iqtisodiyoti mexanizmlari: erkin raqobat, baho (narx), talab va taklif mexanizm-

[117] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

lari hamma ishlab chiqarish omillaridan unumli foydalanib, ishlab chiqarish hajmining to'xtovsiz o'sib borishiga shart-sharoitlar yaratadi va ta'minlaydi deb ko'rsatadilar.

Ularning nazariyasi bo'yicha iqtisodiyotga davlat aralashuvi juda ham cheklangan bo'lishi kerak. M. Fridman pul emissiyasini va muomaladagi pul hajmini yiliga eng kamida 3 foizga oshirib borib, talabni kuchaytirish va shu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasining ikkinchi yo'nalishi J. M. Keyns va keynschilar nazariyasi bo'lib, ular barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili samarali talabni rivojlantirish va uning tarkibini takomillashtirish zarurligini, buning uchun esa davlat va xususiy investitsiyalarning ishtirokini, davlatning makro darajada iqtisodiyotni tartibga solishda faol ishtirokining zarurligini ko'rsatadi. Keyns nazariyasi investitsiyalarni ko'paytirib, yalpi talabni oshirish va uning ta'sirida iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishga qaratilgandir.

Iqtisodiy o'sishning muhim nazariyalaridan biri Nobel mukofoti sovrindori Amerikalik iqtisodchi Saymon Kuznets nazariyasidir. U rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish tarixini o'rganib yuqori samarali texnologiyalarni qo'llash asosida uzoq muddatli davrlarda xo'jaliklarning aholi uchun zarur bo'lgan turli xil tovarlar va xizmatlarni yaratib berish qobiliyatini oshirib borish zarurligini ko'rsatadi.

Bunday o'sishni ifodalash uchun bir necha yo'nalishdagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur deb hisoblaydi:

1) Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning o'sish sur'ati.

2) Ishlab chiqarish omillari unumdorligining yuqori sur'atlar bilan o'sishi.

3) Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining tez o'zgarishi.

4) Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlar tezligi.

5) Iqtisodiy o'sishning xalqaro masshtabi va boshqalar.

S. Kuznetsning iqtisodiy o'sishga bergan ta'rifi va tavsiya qilgan ko'rsatkichlaridan shu narsa ayonki, u iqtisodiy o'sish bilan iqtisodiy taraqqiyotning mazmunini chalkashtirib yuborgan.

Bu masala to'g'risidagi nazariyalarning ichida U. Rostouning iqtisodiy o'sish bosqichlari to'g'risidagi nazariyasi ham e'tiborga sazo-

vordir. U iqtisodiy o'sish bosqichlari bilan bir qatorda jamiyatning tarixiy evolyutsiyasini yaratishga harakat qilgan. U jamiyat va iqtisodiyot bosqichlarini aniqlashda uch belgiga:

A) texnika taraqqiyoti darajasiga;

B) ishbilarmonlikning faollik darajasiga;

C) iste'mol darajasiga.

Mana shu belgilarga qarab U. Rostou iqtisodiy taraqqiyotning tarixiy jarayonini besh bosqichga bo'ladi.

1. An'anaviy yoki sinfiy jamiyat. Bu bosqich fan-texnika taraqqiyotining va uni amalda qo'llashning pastligi, qishloq xo'jaligining sanoatga nisbatan ustunligi, iqtisodiy aloqalarning rivojlanmaganligi, aholi o'sishining iqtisodiy o'sishga nisbatan yuqoriligi, aholi daromadlarining va jamg'arish darajasining pastligi bilan tavsiflanadi.

2. Iqtisodiyotning jadal (sakrab) o'sishi uchun shart-sharoit yaratiladigan bosqich. Bu bosqich ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va iqtisodiy o'sishga shart-sharoit yaratilib borishi bilan tavsiflanadi.

3. Jadal rivojlanish bosqichi. Uning farq qiladigan xususiyati jamg'arish normasining yuqoriligi fan-texnika taraqqiyoti va uning natijalaridan foydalanish darajasining yuqoriligidir.

4. Yetuklikka yo'l. Bunda iqtisodiy o'sish sur'atlari oshib, aholi o'sish sur'atlaridan yuqori bo'ladi.

5. Umumiy ravishda aholi iste'molining yuqoriligini ta'minlaydigan bosqich. Bu bosqichda ishlab chiqarishning o'sishiga bo'lgan cheklanganliklar va bu bilan bog'liq bo'lgan muammolar bartaraf bo'ladi, uzoq muddatli foydalanadigan tovarlar ahamiyati oshadi, ekologiya va talab muammosi kuchayadi.

Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari, nazariyalari pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o'z mazmuniga ko'ra bir-birlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy muvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

Iqtisodiy o‘sishni tahlil qilishda neoklassik nazariya namoyondalari quyidagi nazariy shartlarga asoslanadilar:

1) mahsulotning qiymati barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;

2) ishlab chiqarish omillarining har biri o‘zining keyingi qo‘shilgan mahsulotiga tegishli ravishda mahsulot qiymatini yaratishga hissasini qo‘shadi. Shunga ko‘ra, bunga javoban barcha keyingi qo‘shilgan mahsulotga teng keluvchi daromad ham oladi;

3) mahsulot ishlab chiqarish va buning uchun zarur bo‘lgan resurslar o‘rtasida miqdoriy bog‘liqlik mavjud;

4) ishlab chiqarish omillarining erkin tarzda amal qilishi hamda ular o‘rtasida o‘zaro bir-birining o‘rnini bosish imkoniyati mavjud.

Biz oldingi boblarda aytganimizdek, neoklassik va boshqa ayrim yo‘nalishdagi nazariyotchilar bu yerda ham ikkita uslubiy xatoga yo‘l qo‘yadilar:

1) ular ishlab chiqarish omillarining barchasi bir xil qiymat yaratadi, ular qiymatni yaratishda baravar ishtirok etadi, deb hisoblaydilar. Holbuki, barcha ishlab chiqarish vositalari hech qanday yangi qiymat yaratmaydilar, balki o‘zlarining qiymatlariga teng miqdordagi qiymatni jonli mehnat yordamida yangi Yaratilgan mahsulotga o‘tkazadilar. Shunday qilib, qiymatning shakllanishida kapital va jonli mehnat qatnashadi. Yangi qiymat esa faqat jonli mehnat tomonidan yaratiladi. Lekin barcha omillar Yaratilgan va o‘sgan (ko‘paygan) mahsulotning nafliligini yaratishda qatnashadilar;

2) ular doimo barcha omillar ichida jonli mehnatning faol rol o‘ynashini, qolganlari esa passiv rol o‘ynashini unutadilar. Chunki hech bir tabiiy resurs, kapital resurlari jonli mehnat tomonidan harakatga keltirilmasa, o‘zicha harakatga kela olmasligi, irib-chirib o‘z joyida ham jismonan, ham qiymati yo‘q bo‘lib ketishi, ularning qiymati faqat jonli mehnat tomonidan saqlab qolinishi million yillardan beri milliard martalab tasdiqlanib kelmoqda. Lekin negadir ularning bunga e’tibor bergisi kelmaydi.

Neoklassik model ko‘p omilli hisoblanib, amerikalik iqtisodchi P. Duglas va matematik Ch. Kobb yaratgan ishlab chiqarish funksiyasi asos qilib olingan. Kobb-Duglas modelida ishlab chiqarish hajmi-

ning o'sishida ishlab chiqarish turli omillarining ulushini aniqlashga harakat qilinib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$Y=AK^{\alpha}L^{\beta},$$

bu yerda Y – ishlab chiqarish hajmi;

K – kapital sarflari;

L – ishchi kuchi sarflari;

A – mutanosiblik koeffitsienti;

α va β – ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi va kapital sarflari bo'yicha elastiklik koeffitsientlari.

Elastiklik koeffisienti bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi natijasida boshqa bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi darajasini ifodalaydi. Shunga ko'ra, α koeffisienti kapital sarflarining 1 foizga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini, β koeffitsienti esa ishchi kuchi sarflarining 1 foizga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi. α va βning yig'indisi ishchi kuchi va kapital sarflarining bir vaqtning o'zida 1 foizga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.

Ch. Kobb va P. Duglas o'z tadqiqotlarida AQSH qayta ishlash sanoatining 1899–1922-yillar mobaynidagi ish faoliyatini tahlil qilib, ishlab chiqarish funksiyasining ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilganlar:

$$Y=1{,}01\times K^{0{,}25}\times L^{0{,}75}.$$

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'sha davrda AQSH qayta ishlash sanoatida kapital sarflarining 1 foizga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini 0,25 foizga, ishchi kuchi sarflarining 1 foizga oshirilishi esa ishlab chiqarish hajmini 0,75 foizga oshishiga olib kelar ekan.

Keyinchalik Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasini golland iqtisodchisi Yan Tinbergen yanada takomillashtirib, unga yangi omil – texnika taraqqiyoti ko'rsatkichini kiritdi. Natijada ishlab chiqarish funksiyasi formulasi quyidagi ko'rinishni oldi:

$$Y=AK^{\alpha}L^{1-\alpha}e^{rt},$$

bu yerda e^{rt} – vaqt omili.

Ishlab chiqarish funksiyasiga vaqt omilining kiritilishi endilikda nafaqat miqdor, balki «texnika taraqqiyoti» atamasi orqali uyg'unlashuvchi sifat o'zgarishlari – ishchi kuchi malakasining o'sishi, innovatsiya jarayonlarining kuchayishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashuvi, jamiyat miqyosida ma'lumotlilik darajasining oshishi va boshqalarni ham aks ettirish imkonini berdi.

Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modeli makroiqtisodiy muvozanatning keynscha nazariyasini rivojlantirish va unga tanqidiy yondashish natijasida vujudga kelgan. Bu modellar orasida ingliz olimi R. Xarrod va amerikalik olim E. Domarning iqtisodiy o'sish modellari e'tiborga molik hisoblanadi. Har ikkala modelning umumiy jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar orqali shartlanadi:

1) ular neoklassik modellardan farqli o'laroq bir omilli model hisoblanadi. Ya'ni bu modellarda milliy daromadning o'sishi faqat kapital jamg'arishning funksiyasi hisoblanib, kapital samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ishchi kuchi bandligining oshishi, FTT yutuqlaridan foydalanish darajasining o'sishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi kabi boshqa barcha omillar nazardan chetda qoldiriladi; 2) ishlab chiqarishning kapital sig'imi ishlab chiqarish omillari narxlarining nisbatiga bog'liq bo'lmay, faqat ishlab chiqarishning texnik sharoitlari orqali aniqlanadi.

Neokeynscha modelda investitsiyalarning o'sishi iqtisodiy o'sish va uning sur'atlarini belgilovchi omil hisoblanib, u bir tomondan, milliy daromadning o'sishiga imkon yaratadi, ikkinchi tomondan esa, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi. O'z navbatida daromadning o'sishi bandlikning oshishiga imkon yaratadi. Investitsiya hajmining ko'payishi natijasida kengaygan ishlab chiqarish quvvatlari daromadning o'sishi orqali to'liq ishga tushirilishi lozim. Shunga ko'ra, E. Domarning modelida quyidagi tenglik orqali muvozanatning ta'minlanishi shart qilib qo'yiladi:

Pul daromadining qo'shimcha o'sishi (talab) = **Ishlab chiqarish quvvatlarining qo'shimcha o'sishi (taklif)**

Bu tenglik formula tarzida yozilsa, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Delta I \times \frac{1}{\alpha} = I \times \sigma \quad \text{yoki} \quad \frac{\Delta I}{I} = \sigma \times \alpha$$

bu yerda I – har yillik sof kapital qo'yilmalar;

ΔI – sof kapital qo'yilmalarning qo'shimcha o'sishi;

ΔI/I– sof kapital qo'yilmalarning o'sish sur'ati;

1/α– multiplikator, bu yerda α – jamg'arishga bo'lgan o'rtacha moyillik;

σ – kapital samaradorligi.

Shunday qilib, iqtisodiyotdagi ishchi kuchining to'la bandligini hamda ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishlashini ta'minlovchi sof investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalarning o'sish sur'ati "σ×α" ga teng bo'lishi lozim. Agar iqtisodiyotdagi investitsiyalarning potensial o'rtacha samaradorligi 0,3 ga, jamg'arishga bo'lgan o'rtacha moyillik 0,2 ga teng bo'lsa, u holda investitsiyalarning o'sish sur'ati 6% ((0,3×0,2)×100%)ga teng bo'ladi.

R. Xarrodning iqtisodiy o'sish modeli investitsiya va jamg'armalar o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanat, ya'ni "I=S" ga asoslanadi. U statik holdagi makromuvozanat uchun alohida, dinamik holdagi makromuvozanat uchun alohida formuladan foydalanadi. 1-formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$G \times C = S,$$

bu yerda G – milliy daromadning o'sish sur'ati (ΔY/Y);

S – kapital sig'imi (I/ΔY);

S – milliy daromad tarkibidagi jamg'arishning ulushi (S/Y).

2-formula quyidagi ko'rinishda o'z ifodasini topadi:

$$G_w \times C_r = S,$$

bu yerda Gw – haqiqiy jamg'arma va taxmin qilinayotgan investitsiyalar o'rtasidagi dinamik muvozanatni ta'minlovchi o'sishning kafolatlangan sur'ati;

Cr – kapital koeffitsientining talab etilayotgan miqdori.

Neokeynschilarning fikriga ko'ra bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy kafolatlangan o'sish sur'atiga avtomatik ravishda erishib bo'lmasligi sababli, ular dinamik muvozanatga erishish uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi to'g'risidagi xulosaga keldilar.

Iqtisodiy o'sishning muhim modellaridan biri bo'lib **tarmoqlararo balans** hisoblanadi. Tarmoqlararo balansning dastlabki nazariy asoslari sobiq ittifoq davrida ishlab chiqilgan edi. Keyinchalik u asli Rossiyalik bo'lgan AQSH iqtisodchi olimi V. Leontev tomonidan «**xarajatlar – natijalar**» modeli sifatida takomillashtirilgan holda ishlab chiqildi.

V. Leontev iqtisodiy tahlilning «xarajatlar – natijalar» usulida eng avvalo e'tiborni iqtisodiyotdagi miqdoriy aloqalarga qaratadi. Tarmoqlar o'rtasidagi bu aloqalar texnologik koeffitsientlar orqali o'rnatiladi.

Tarmoqlararo balans jadvali to'rtta kvadrantdan iborat. Birinchi kvadrantga mahsulot ishlab chiqarishga moddiy sarflar ko'rsatkichlari joylashtirilgan. Ikkinchi kvadrantga shaxsiy iste'mol, jamg'arish, davlat xaridi va eksport sifatida foydalaniluvchi pirovard mahsulot ko'rsatkichlari joylashtirilgan. Uchinchi kvadrantdan qo'shilgan qiymat (ish haqi, foyda, soliqlar) va import ko'rsatkichlari o'rin olgan. To'rtinchi kvadrantda sof milliy mahsulotni qayta taqsimlash ko'rsatkichlari joylashgan. Tarmoqlararo aloqalar jadvali ustunlari bo'ylab xarajatlarni, ya'ni har bir tarmoq bo'yicha mahsulot qiymatini tashkil etuvchi unsurlarni, satrlar bo'yicha esa – milliy iqtisodiyot har bir tarmog'i mahsulotini taqsimlash tarkibiy tuzilmasini aks ettiradi.

Tarmoqlararo balans modelida bir tarmoqdagi pirovard talab yoki ishlab chiqarish sharoitidagi o'zgarishlar boshqa barcha o'zaro bog'liq tarmoqlarning miqdoriy ta'sirini kuzatish orqali o'rganiladi. Bu esa qandaydir tovarga bo'lgan ehtiyojlar yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasidagi har qanday o'zgarishlar muvozanatlashgan narxlar tarkibini o'zgartirib, texnologik koeffitsientlarning ham o'zgarishiga olib kelishini anglatadi.

Iqtisodiy o'sish modellari to'g'risida so'z yuritiganda «nol darajadagi iqtisodiy o'sish» konsepsiyasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur konsepsiyaga XX asrning 70-yillarida asos solingan. Bu konsepsiya tarafdorlarining fikricha texnika taraqqiyoti va iqtisodiy o'sish atrof-muhitning ifloslanishi, tabiatga zaharli moddalarning chiqarilishi, shahar qiyofasining yomonlashuvi va boshqa shu kabi ko'plab salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Aholi sonining tezlik bilan ko'payib borishi, ishlab chiqarish mikyoslari-

ning kengayishi natijasida ishlab chiqarish, ayniqsa, tabiiy resurslarning kamayib borishi pirovardida iqtisodiy o'sish chegaralarini cheklab qo'yadi. Buning oqibatida ocharchilik, ekologiyaning buzilishi, resurslarning tugashi ro'y berib, tez orada aholi soni va sanoat ishlab chiqarish hajmi keskin qisqara boshlaydi. Shunga ko'ra, «nol darajadagi iqtisodiy o'sish» konsepsiyasi tarafdorlari iqtisodiy o'sishni maqsadga muvofiq ravishda ma'lum chegarada ushlab turish zarur, deb hisoblaydilar. Ular iqtisodiy o'sish tovar va xizmatlar hajmining ko'payishini ta'minlashini tan olsalarda, bu o'sish bir vaqtning o'zida turmush darajasining yuqori sifatini ta'minlay olmasligini ta'kidlaydilar. O'z navbatida, mazkur konsepsiya muholiflari iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini yoqlab, uning o'zi cheksiz ehtiyojlar va cheklangan resurslar o'rtasidagi ziddiyatni yumshatishini, aynan yuqori darajadagi o'sish sharoitida jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyati vujudga kelishini ko'rsatadilar. Atrof-muhitning ifloslanishi esa iqtisodiy o'sish oqibati bo'lmay, u tabiiy resurslardan foydalanishdagi narx shakllanish tizimining noto'g'riligidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, mazkur muammolarni hal etish uchun tabiiy resurslardan foydalanishda qonuniy cheklovlar yoki maxsus soliqlarni kiritish, ifloslantirish huquqi bozorini shakllantirish lozimligini ta'kidlaydilar.

17.3. Iqtisodiy o'sishning mazmuni va turlari

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot mutlaq hajmining va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorining o'sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sishni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda biron bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o'lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon

boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa mamlakatdagi aholi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflaydigan mazkur ko'rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va inson hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi. Shunga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barcha tavsifi yillik o'sish sur'atlarining foizdagi o'lchovida to'liq o'z ifodasini topadi:

$$O'S = \frac{YaIM_{joriy\ davr} - YaIM_{bazis\ davr}}{YaIM_{bazis\ davr}} \times 100\%,$$

bu yerda O'S – iqtisodiy o'sish sur'ati, foizda;

YaIM bazis davr – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

YaIM joriy davr – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.



17.1-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda[118]

[118] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar natijasida 1996-yildan boshlab oldingi yilga nisbatan, 2001-yildan boshlab esa 1991-yildagi darajaga nisbatan YaIM hajmining barqaror ravishda o'sishiga erishildi. Mamlakatimiz YaIMning iqtisodiy o'sish darajasi yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida yuzaga kelgan muammo va qiyinchiliklarga qaramay, 2009-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 8,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda esa bu ko'rsatkich 8 foizni tashkil etdi (17.1-rasm, 17.1-jadval).

17.1-jadval

O'zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi[119]

Yillar	Ko'rsatkichlar		
	YaIM absolyut miqdori, mlrd. so'm	YaIMning o'sish sur'ati, %	YaIMning aholi jon boshiga o'sishi, %
2004	12189,5	7,7	6,5
2005	15923,4	7,0	6,0
2006	20759,3	7,3	6,2
2007	28186,2	9,5	8,0
2008	36839,4	9,0	7,2
2009	48097,0	8,1	6,3
2010	61831,2	8,5	6,7
2011	77750,6	8,3	5,5
2012	96589,8	8,2	6,6
2013	118986,9	8,0	6,7
2014	144867,9	8,1	6,7
2015	171369,0	8,0	6,9

2015-yilda «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz,

[119] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi».[120]

17.1-rasm va 17.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda 2005–2015-yillar davomida real YaIMning o'sish sur'ati faqatgina absolyut miqdorda emas, balki aholi jon boshiga o'sishi ro'y bermoqda. Shuningdek, iqtisodiy o'sish mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayib borishini ham anglatadi. Milliy ishlab chiqarish natijalarining miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan takomillashib borishi pirovardida ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining o'ng tomonga qarab siljishiga olib keladi.

Aytaylik, 2015-yildagi milliy ishlab chiqarish hajmi (Y_{2015}) 2000-yildagi (Y_{2016})ga nisbatan o'sdi. Bu o'sish o'z navbatida milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining ham kengayishiga olib keladi (17.2-rasm).



17.2-rasm. Iqtisodiy o'sish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi

---

[120] I. Karimov Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dastur-ning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2016-yil 16-yanvar.

Rasmdan ko‘rinadiki, iqtisodiy o‘sish natijasida ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot miqdori ortadi, bu esa aholi turmush farovonligining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yanada to‘laroq qondirish imkoniga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘sishning ahamiyati to‘g‘risida gapirilganda uning darajasini ham e’tiborda tutish lozim. Iqtisodiy o‘sish sur’atlarining ahamiyatlilik darajasi turli mamlakatlar real YaIMning hajmidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Real YaIM hajmi nisbatan kichik bo‘lgan mamlakatlar uchun 8–10% darajasidagi iqtisodiy o‘sish sur’ati me’yordagi holat sanalishi, real YaIM hajmi juda katta bo‘lgan mamlakatlar uchun 2–3% darajasidagi iqtisodiy o‘sish sur’ati esa ahamiyatli ko‘rsatkich hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy o‘sish sur’atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo‘llaniluvchi **«70 miqdori qoidasi»** yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko‘ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o‘sish sur’atiga bo‘lish kerak bo‘ladi.

Mamlakatimizdagi o‘sish sur’atining 4,8% darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 14-yil va 7 oy talab etiladi (70:4,8). Keyingi yillarda iqtisodiy o‘sish sur’atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi. Bu qoida orqali biz faqatgina keyingi yillardagi iqtisodiy o‘sishning bashoratinigina amalga oshirishimiz mumkin. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016 –2030-yillarda 2 barobar ko‘payishiga erishish uchun o‘rtacha yillik o‘sish sur’atlari 4,8 foiz darajasida bo‘lishini ta’minlash zarur. Agar keyingi 11-yilda bu ko‘rsatkich 8 foizdan yuqori bo‘lib kelganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol ayon bo‘ladi”.[121] Lekin real iqtisodiyotda bu qoidadan

[121] I. Karimov Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dastur-ning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2016-yil 16-yanvar.

foydalanib bo'lmaydi. Chunki ixtiyoriy bir yilda iqtisodiy o'sish 4,8 foizdan yuqori yoki past bo'lgan taqdirda bu qoida buziladi.

Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun ishlab chiqarish omillari miqdori ikki barobar ko'paytirilishi lozim, sodda qilib aytganda mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana korxonalar qurilishi lozim. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot ishlab chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;

b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;

v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;

g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda iqtisodiyotning yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi.

17.4. Iqtisodiy o'sishning omillari

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar **taklif omillari** deb ham atalib, iqtisodiyotning o'sish layoqatini belgilab beradi:

1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;

2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;

3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;

4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi ichki mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y=f(L, K, \hat{N})$$

bu yerda Y – yalpi ichki mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi har bir omilning samaradorligini ifodalovchi xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

1) mehnat unumdorligi (Y/L) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining ishlab turgan ishchilar soniga yoki ular tomonidan sarflangan jonli mehnat miqdoriga ish kuni, ish soati va h.k. nisbati;

2) mehnat sig'imi (L/Y) – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

3) kapital samaradorligi (Y/K) –ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

4) kapital sig'imi (K/Y) – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

5) tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'llanilgan tabiiy resurslar miqdoriga nisbati;

6) mahsulotning resurslar sig'imi (N/Y) – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L) – ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlardan tashqari yana **keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi** ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o'zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo'shimcha o'sishi ta'sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi hajmini belgilab beradi:

1) keyingi qo'shilgan mehnat unumdorligi ($\Delta Y/\Delta L$);

2) keyingi qo'shilgan kapital unumdorligi ($\Delta Y/\Delta K$);

3) keyingi qo'shilgan tabiiy resurslar unumdorligi ($\Delta Y/\Delta N$).

Bu ko'rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishida har bir omilning hissasini namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Y=(\Delta Y/\Delta L)L+(\Delta Y/\Delta K)K+(\Delta Y/\Delta N)N\ .$$

Iqtisodiy o'sishga **taqsimlash omillari** ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning yuqori miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin: 1) resurslarning ko'proq hajmining jalb etilishi; 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan (17.3-rasm).



17.3-rasm. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar

Amaliy hayotda iqtisodiy o'sishni qisman susaytirib turuvchi omillar ham mavjud bo'ladiki, ular mehnat muhofazasi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi holatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda respublikamizda davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog'lig'ini muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atining susayishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali mehnat unumdorligini oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan mablag'lar boshqa tomonga jalb qilinadi. Bu albatta kishilar sog'lig'i va hayoti uchun zarur bo'lgan darajalardir.

Hozirda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish omillaridan imkon qadar samarali foydalanishga e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, iqtisodiyotda ishchi kuchining samarali bandligini ta'minlash bu boradagi muhim yo'nalishlardan hisoblanadi. Har yili iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratib borilmoqda. Masalan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy

ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida ishchi kuchi bandligi darajasini oshirish va tarkibini yanada takomillashtirish mumkin. Bu esa mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda ishchi kuchiga talabning oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga eng avvalo mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko'tarish, soliqlarni oqilona belgilash orqali erishiladi.

Muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarishni kengaytirishga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berish, ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish, bozor sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoati tarmoqlarining asosiy mahsulotlariga davlat buyurtmasini belgilash, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy ishlarni mablag' bilan ta'minlash kiradi.

Bu tadbirlar qo'shimcha ish joylarini tashkil qilishda eng kam investitsiyani nazarda tutadi va ishchi kuchiga talabni oshirishda muhim o'rin egallaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini mablag'lar bilan ta'minlashning manbalari bo'lib mahalliy byudjet, bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hamda xususiy tadbirkorlarning shaxsiy jamg'armalari xizmat qiladi. Bugungi kunda ayniqsa, mintaqalarda aholi bandligi, ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan ta'minlash masalalarini o'rganishni hayotni o'zi taqozo etmoqda.

Iqtisodiy o'sish omillaridan texnika taraqqiyotini ta'minlash hamda investitsiyalar hajmini oshirish – mamlakatimizdagi iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishiga aylangan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «**jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni**

jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur»[122].

Umuman olganda, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarishga investitsiyalarni ko'proq jalb etish zarurati quyidagilar orqali izohlanadi:

1) jahon bozorida zamonaviy asbob-uskuna va jihozlar arzonlashadi. Bunday imkoniyatdan foydalanib, ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini yangilash hamda uning asosida raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish qisqa davrda ushbu sarf-xarajatlarni qoplash imkonini beradi;

2) yuqori darajada qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni eksportga chiqarishning qo'shimcha imkoniyatlari vujudga keladi;

3) texnik va texnologik asosni yangilashda vaqt jihatidan yutish imkoni paydo bo'ladi;

4) investitsiyalar ichki talabni kengaytirib, qurilish sanoatining rivojlanishini rag'batlantiradi;

5) ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi diversifikatsiyalanadi.

Korxonalarni texnik va texnologik yangilash, modernizatsiya qilish va yangi ishlab chiqarish obyektlarini qurish, shu orqali yangi ish o'rinlarini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va dinamik rivojlanishini ta'minlash uchun yo'naltirilgan investitsiya loyihalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilga investitsion dasturi haqida"gi PP-2458 Qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu dasturda belgilangan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlarning ahamiyati katta bo'lmoqda.

---

[122] I. Karimov. "2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir" // Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2015-yil 18-yanvar.

Hukumatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda: tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarning keng jalb qilinishini ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish; yurtimizga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi, milliy xo'jalikning zamonaviy tuzilmasini tashkil etishga ko'maklashuvchi chet el investorlariga nisbatan qulay sharoitlar yaratish siyosatini izchil olib borish; eng muhim ustuvor yo'nalishlarga mablag'larni yo'naltirish[123]. Bundan ko'rinadiki, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, zamon talablariga mos bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to'lqinlari zarbasiga ijtimoiy-iqtisodiy talofatlarsiz bardosh berish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq masalalarni hal etishda kompleks yondashuvlarga urg'u berilmoqda.

17.5. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash omillari va natijalari

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki palladanoq mamlakatimiz iqtisodiyotini bir tomonlama, agrar soha ustun ahamiyat kasb etuvchi rivojlanishdan voz kechib, har tomonlama jahon va mamlakat ichki ehtiyojlarini hisobga oluvchi, zamonaviy tarmoq va sohalardan iborat bo'lgan iqtisodiyotga aylantirish vazifasini qo'ygan edi. Ana shu maqsadlarga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar hamda modernizatsiyalash jarayonlari natijasida o'tgan yillarda ham sanoat, qurilish, kommunikatsiya va xizmatlar sohasi tez sur'atlar bilan rivojlandi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan rivojlanishning "o'zbek modeli"ga asoslanib hamda 2015–2019-yillarda iqtisodiyotni yanada isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarini kompleks amalga oshirilishi natijasida yalpi ichki mahsulotning 7,8 foiz o'sishi

[123] Sobirov A. O'zbekiston Respublikasiga xorijlik investorlarni jalb qilish shakllari. /Iqtisodiyot va ta'lim, 2011 y., 5-son.

ta'minlandi. Sanoat hajmi 6,6 foiz, pudrat qurilish ishlari 12,5 foiz, chakana savdo aylanmasi 14,4 foiz, xizmatlar 12,5 foiz o'sdi.

Iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSH dollaridan ko'p investitsiya qilindi, yoki 2015-yilga nisbatan 9,6 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan chet el investitsiya va kreditlar hajmi esa 11,3 foizga o'sib, 3,7 milliard dollardan ko'p bo'ldi.

2016-yilda Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 5,2 milliard dollarlik 164 yirik ishlab chiqarish obyekti ishga tushirildi. Jumladan, Talimarjon IESda 450 MVt quvvatli ikkita bug'-gaz turbinasi va Angren IESda ko'mir kukunidan foydalanishga mo'ljallangan 130–150 MVt quvvatli energiya bloki qurish, Jizzax viloyatidagi sement zavodi quvvatini kengaytirish, «Indorama Qo'qon tekstil» xorijiy korxonasi va «Fanteks» MChJda yigiruv ishlarini tashkil etish, «GM O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida «T-250» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», shu bilan birga «Sirdaryo viloyatidagi «Guliston Med Texnika» qo'shma korxonasida steril shpritslar ishlab chiqarish» va boshqa loyihalar shular jumlasidandir.[124]

2016-yilda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash evaziga sanoat mahsulotlarining yuqori o'sish sur'atlariga erishildi. Jumladan, to'qimachilik buyumlari, kiyim va charm mahsulotlari ishlab chiqarish 111,7 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari 110,8 foiz, farmatsevtika mahsulot va preparatlari 123,9 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari 129,7 foiz, boshqa noruda meneral mahsulotlar 113,8 foizga oshdi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash loyihalari, shuningdek, 2015–2019-yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturining hayotga samarali tatbiq etilishi natijasida respublika YaIMga energiya sarfini 7,4 foizga, hamda yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini esa o'tgan yilga nisbatan o'rtacha 10,6 foiz

---

[124] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

kamaytirishga erishildi.[125]

Shunisi diqqatga sazovorki, yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi an'anaviy xomashyo tarmoqlari hisobidan ham, jahon bozoridagi qulay kon'yunktura va ayrim xomashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan ham emas, balki birinchi navbatda raqobatga bardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirishni belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda.

Mamlakatimizda YaIMning nafaqat miqdoran o'sib borishi, balki uning tarkibiy tuzilmasining sifat jihatidan takomillashib borishi ham alohida e'tiborga molik. Bunga uning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlili, ya'ni qo'shilgan ulushlarning tarkibi hamda YaIMning o'sishiga qo'shgan hissasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir (17.2-jadval).

17.2-jadval

Yalpi ichki mahsulotning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlili

Tarmoqlar	Qo'shilgan ulushlar tarkibi, %					YaIM ning o'sishiga qo'shgan hissasi, %				
	2011	2012	2013	2014	2015	2011	2012	2013	2014	2015
Yalpi ichki mahsulot	100	100	100	100	100	108,3	108,2	108	108,1	108
Sanoat	24	24	24,1	24,0	24,3	103,5	104,4	106	108,3	108
Qishloq xo'jaligi	17,8	17,5	17,4	17,4	16,7	106,8	107	106,8	106,9	106,8
Qurilish	6,1	5,9	6,4	6,7	7,3	107,8	111,5	116,6	118,3	117,8
Transport va aloqa	11,7	11,9	11,8	11,4	11,0	111,3	111,2	103,6	104,9	106
Savdo va umumiy ovqatlanish	9,3	8,6	8,8	8,7	8,3	115,5	107,4	113,9	113,3	115,3
Boshqa xizmat ko'rsatish sohalari	22,5	24,4	23,3	23,2	23,6	110,3	111,1	109,0	108,3	113,2

[125] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Sof soliqlar	8,6	7,7	8,2	8,6	8,8	107,7	107,1	107,4	107,8	108,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Jadvaldan ko'rinadiki, 2015-yildagi YaIMning tarkibida qo'shilgan ulushi jihatidan xizmat ko'rsatish sohalari (23,6%), transport va aloqa (11%), sanoat (24,3%), qishloq xo'jaligi (16,7%), savdo va umumiy ovqatlanish (8,3%) tarmoqlari yetakchi o'rin tutmoqda. Shunga ko'ra, ularning YaIMning o'sishiga qo'shgan hissasi ham tegishli ravishda o'zgarishlarni tashkil etgan.

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishiga katta e'tibor qaratiladi:[126]

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish;

- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xu-

[126] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 1-ilova. 3.1-bandi.

susiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish;

- sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish..

17.6. Milliy boylikning mazmuni va uning tarkibiy tuzilishi

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan Yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy-buyumlashgan boylik.
2. Nomoddiy boylik.
3. Tabiiy boylik.

Moddiy-buyumlashgan boylik oxir-oqibatda ishlab chiqarishning, unumli mehnatning natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida Yaratilgan mahsulotlarning joriy iste'mol qilishdan ortiqcha qismini jamg'arish oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi. Ammo moddiy-buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik yalpi mahsulotlar yig'indisi sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'lar edi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari). Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining o'rnini qoplash bilan bir vaqtda yalpi ichki mahsulotning faqat bir qismi moddiy-buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib boriladi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi yalpi ichki mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning inson mehnati bilan Yaratilgan moddiy qismi qiymat shakliga ega bo‘lib, tarkibiy tuzilishi bo‘yicha quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– ishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy kapital (fondlar);
– noishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy kapital (fondlar);
– aylanma kapital (fondlar);
– tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi;
– moddiy zaxiralar va ehtiyojlar;
– aholining uy xo‘jaligida jamg‘arilgan mol-mulk.

Moddiy-buyumlashgan boylik o‘sishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– mehnat unumdorligining o‘sishi;
– ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;
– milliy daromadda jamg‘arish normasining ortishi.

Moddiy-buyumlashgan boylik ishlab chiqarishning natijasi va shart-sharoiti hisoblanadi. Buning ma’nosi shuki, bir tomondan mahsulotdan milliy boylik tomon harakatda boylikning iste’mol qilingan qismining qoplanishi va uning ko‘payishi ro‘y beradi. Boshqa tomondan milliy boylik ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti, uning moddiy-texnikaviy asosi hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati va miqyosi milliy boylikdan foydalanish xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Milliy boylikning boshqa qismi tabiiy boyliklar ishlab chiqarishning omili bo‘lib ishtirok etadi, uning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning asosi tabiat mahsuli bo‘lib, uning vujudga kelishi tabiat qonunlari asosida ro‘y bersada, ulardan foydalanish jamiyat rivojiga ham bog‘liq bo‘ladi. Foydali qazilma boyliklar, o‘rmonlar, suv va yer resurslari tabiatan mavjud bo‘lsada, ishlab chiqarishda faol qatnashadi.

Tabiat in’omlari o‘zlarining dastlabki ko‘rinishida tabiiy boylik bo‘lib, shu holatida inson faoliyatining natijasi hisoblangan ijtimoiy boylik tarkibiga kirmaydi. Buning ma’nosi shuki, tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potensial boylik hisoblanadi. Ular inson mehnatining ta’siri oqibatida real boylikka aylanadi.

Milliy boylik nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yarati-

ladi. Uning bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Nomoddiy sohalarda ashyoviy-buyum shakl bilan bog'liq bo'lmagan alohida turdagi iste'mol qiymatlar hosil qilinadi. Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyat qilishi va rivojlanishi uchun, shuningdek, bevosita aholining turmush darajasini ta'minlash va oshirib borish uchun zarur bo'ladi. Bunday boyliklarga ta'lim, sog'likni saqlash, fan, madaniyat, san'at, sport sohalarida vujudga keltiriladigan nomoddiy boyliklar kiradi. Uning tarkibida tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, noyob ilmiy adabiyot va san'at asarlari alohida o'rin tutadi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san'atning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining to'plagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovchilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va sportning rivojlanish darajasi o'z ifodasini topadi. Shunday qilib, milliy boylik moddiy buyumlashgan va tabiiy boyliklardan ancha keng tushuncha bo'lib, o'z tarkibiga jamiyatning nomoddiy tavsifdagi boyliklarini ham oladi. Har bir mamlakat ixtiyorida bo'lgan milliy boylikdan oqilona va unumli foydalanish va uni ko'paytirib borish shu mamlakat aholisining burchi hisoblanadi.

Xulosalar

1. Iqtisodiy taraqqiyot uning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tomoni: ishlab chiqaruvchi kuchlar (tabiat, kapital, ishchi kuchi) va iqtisodiy munosabatlari (ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar)ning o'zaro ziddiyatda bo'lib, bir-biriga ta'siri natijasida ro'y beradi.

2. O'zbekiston siyosiy mustaqillikka erishgach bozor iqtisodiyotiga asoslangan, asta sekinlik bilan, lekin izchil amalga oshiriladigan evolyutsion taraqqiyot yo'lini tanladi va "O'zbek modeli" nomi bilan mashhur bo'lgan modelda belgilangan besh tamoyil asosida rivojlandi. Bu rivojlanishning xarakterli belgilari shundan iboratki:

a) iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari va modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgarish jarayonlari tez sur'atlar bilan bormoqda;

b) barpo etilayotgan yangi tarmoqlar va yangi korxonalar fan-texnika taraqqiyotining eng so'ngi yangiliklari va eng yangi texnologiyalar asosida tashkil etilishi;

v) amalga oshirilayotgan modelning xalqchilligi, ya'ni unda xalqimizning orzu-umidlari, ezgu niyatlari mujassamlangan bo'lib, uni hamma aholimiz qo'lab-quvvatlab, amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etayotganligidir.

3. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omilli va ziddiyatli jarayon hisoblanib, u asosan iqtisodiy o'sishda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot mutlaq hajmi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdorining o'sishi hamda sifatining yaxshilanishida, tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

4. Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 miqdori qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi.

5. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari mavjud. Ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi orqali o'sish ekstensiv iqtisodiy o'sish deyiladi. Ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish intensiv iqtisodiy o'sish deyiladi.

6. Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: taklif omillari va taqsimlash omillari. Taklif omillariga tabiiy resurslarning miqdori va sifati; mehnat resurslari miqdori va sifati; asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi; texnologiya va fan-texnika taraqqiyotini kiritish mumkin. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlashga xizmat qiluvchi omillar taqsimlash omillari deyiladi.

7. Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish omillarini o'rganish

hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o'z mazmuniga ko'ra bir-birlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy muvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

8. Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan Yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mazmuni – uning pastdan yuqoriga, oddiylikdan murakkablikka tomon to'xtovsiz to'lqinsimon harakatidan iborat

Iqtisodiy o'sish – YaIM, SMM, MD miqdorining mutlaq hajmi va aholi jon boshiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari – iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalaniladigan qiymat; ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko'rsatkichlar tizimidan iborat.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

Intensiv iqtisodiy o'sish – ishlab chiqarish omillarini rivojlantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.

Iqtisodiy o'sish omillari – iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishda o'z o'rniga ega bo'lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

Milliy boylik – insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan Yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat in'omlari.

Moddiy-buyumlashgan boylik – milliy boylikning inson mehnati bilan Yaratilgan ashyoviy – buyum ko'rinishga ega bo'lgan qismi.

Tabiiy boylik – milliy boylikning tabiatda mavjud bo'lib, insoniyat tomonidan foydalanishga jalb qilingan tabiat ashyolari va kuchlari (yer, qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va boshqalar).

Ma'naviy boylik – ashyoviy-buyum ko'rinishiga ega bo'lmagan nomoddiy boyliklardan va insoniyatning intellektual salohiyati natijalaridan iborat.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy o'sish tushunchalarining ta'rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko'rsating.
2. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi?
3. Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy o'sish turlari uchramaydi?
4. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishining samaradorligiga baho berishda iqtisodiy o'sishning qanday ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?
5. Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi taklif, taqsimlash va talab omillarini tushuntiring hamda ularning ahamiyatini baholang.
6. Milliy boylik tushunchasining ta'rifini bering va tarkibiy tuzilishini ko'rsating.
7. Milliy boylik tarkibida moddiy-buyumlashgan boylik qanday o'ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi?
8. Nima uchun yer, suv kabi tabiiy boyliklarni qiymat o'lchovida baholash mumkin emas?
9. Madaniy, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklarining milliy boylik tarkibida aks yyetishini qanday izohlaymiz? Ularning har biriga misollar keltiring.

18-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING MUVOZANATLI VA MUTANOSIBLI RIVOJLANISHI

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida uning muvozanatini va mutanosibligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Muvozanatlik iqtisodiyot nazariyasining muhim tadqiqot kategoriyalaridan biri bo'lib, u orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, ya'ni milliy daromad, iste'mol va jamg'arma, investitsiyalar, ishsizlik va bandlik kabilarni tahlil qilishda keng foydalaniladi. Milliy iqtisodiyot miqyosida jamiyatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanat asosiy o'rin tutib, bu yalpi taklif va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatning o'ziga xos namoyon bo'lishidir.

Ushbu bobda iqtisodiy muvozanat tushunchasi, uning mazmuniga turlicha yondashuvlar, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning turli tomonlari, soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar tizimi, ularning ta'minlanish darajasi hamda iqtisodiyotdagi balanslarning mazmuni muvozanatlikning ko'rinishi, amaliyotdagi ifodasi sifatida bayon qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy muvozanatga erishishning davlat va bozor mexanizmlarini yoritib beriladi, eng muhimi iqtisodiyotda muvozanatlik va mutanosiblikni ta'minlash iqtisodiy inqirozlarning oldini olishning muhim vositasi ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi.

18.1. Iqtisodiy muvozanatlikning mazmuni va namoyon bo'lish shakllari

Iqtisodiyotning inqirozlarsiz, barqaror va samarali rivojlanishi uchun uning turli tomonlari, sohalari, tarmoqlari va bo'laklari o'rtasida ma'lum muvozanat bo'lishi taqozo etiladi.

Iqtisodiyot bir-biri bilan chambarchas bog'liqlikda amal qiladigan xilma-xil faoliyatlarni, turli sohalar, tarmoqlar, bo'linmalar, majmualar, birlashmalarni, moliya, bank, soliq, sug'urta, tashqi iqtisodiy alo-

qalar va boshqalarni o‘z ichiga oluvchi o‘ta murakkab tizim bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiyotning yaxlit tizim sifatida samarali amal qilishi ko‘p jihatdan uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi muvozanatlik va mutanosiblikka bog‘liq bo‘ladi.

Iqtisodiyotning muvozanatligini ta’minlash, eng avvalo, iqtisodiy maqsadlar – aholining o‘sib boruvchi talabini qondirish, iqtisodiy o‘sish, to‘la bandlik, iqtisodiy samaradorlik, narxlarning barqaror darajasi, iqtisodiy erkinlik, daromadlarning adolatli taqsimlanishi, ijtimoiy himoya, ijobiy savdo balansiga erishish bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli ham ahamiyatlidir.

Iqtisodiy muvozanatlik va uning amal qilishi bilan bog‘liq hodisa va jarayonlarning mohiyatini chuqurroq tushunish, uni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, usullar va vositalaridan samarali foydalanish muvozanatlikning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmunini bilishni taqozo etadi.

«Muvozanat» tushunchasi keng va umumiy holda qo‘llanilib, bu boradagi dastlabki taassurot va aniqliklarni hosil qilishda qo‘l keladi. Chunki, muvozanat tushunchasi nafaqat iqtisodiy, balki tabiiy-ijtimoiy hodisa va jarayonlarga ham tegishli bo‘lib, unga tabiat va jamiyatning har qanday jabha va sohasi nuqtai nazaridan yondashish mumkin. Masalan, kishilik jamiyati tarkib topib, taraqqiy etgunga qadar ham tabiatdagi muvozanatliklar – galaktikadagi koinot jismlarining joylashuvi, ularning bir-biriga nisbatan o‘zaro harakatlanish doiralari, shu jumladan Quyosh tizimi va uning ichida joylashgan sayyoralarning o‘zaro harakati, sayyoramizdagi ichki tabiat hodisalari – bularning barchasi muvozanatlikka asoslangan. Ya’ni, tabiat hodisalarini yuzaga keltiruvchi turli kuch va harakatlar o‘rtasida tenglik, muvofiqlik holati mavjud bo‘ladi. Bu borada prof. D. Moskvinning muvozanatga bergan ta’rifi o‘rinli hisoblanadi: «Muvozanat – qarama-qarshi yo‘naltirilgan kuchlarning baravarlashishi holati»[127]

[127] Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник / Под ред. д-ра экон. наук, проф. Д. Д. Москвина. Изд. 3-е, исправл. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – С. 504.

Iqtisodiy muvozanat tushunchasi esa muvozanatning yanada aniqlashtirilgan, alohida, ya'ni bu o'rinda iqtisodiyot sohasiga nisbatan olingan qismi hisoblanadi. Ayni paytda, bu tushuncha ham iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning umumiy holdagi tavsifini ifodalashda qo'llaniladi.

Iqtisodiy muvozanat deb bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda va ta'sirda amal qiladigan iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki yoki bir necha tomonining teng kelgan holatiga aytiladi. Shuning uchun ham butun iqtisodiyotning muvozanati to'g'risida gap borganda, eng avvalo uning asosiy ko'rsatkichi sifatida yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik e'tiborga olinadi.

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatning shakllanishi, uni ta'minlash ancha murakkab va ziddiyatli jarayondir. Chunki u xususiy va umumiy tavsifdagi bir qator muvozanatlar tizimini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy muvozanat kategoriyasining mazmunini to'g'ri tushuntirish uchun unga ikki tomonlama ya'ni qiymat va naflilik jihatdan yondashuv usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy muvozanatlikning ikki tomoni – qiymat va naflilik jihatidan tahlili E. Shodmonovning tadqiqot ishlarida ancha batafsil berilgan. Bunda muvozanatlikning turli darajalari mazmunan farqlanilib, umumiy muvozanatlikning qiymat va naflilik jihatidan tarkibi alohida tasvirlangan (18.1-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, milliy iqtisodiyot darajasidagi umumiy muvozanatning asosiy ko'rinishi jamiyat barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi tenglik bo'lib, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi aniq shakli – yalpi talab va yalpi taklif tengligi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, hozirgacha aksariyat hollarda bu tenglik faqat qiymat miqdori jihatdan ta'minlanishi lozim, deb qaralmoqda. Fikrimizcha, bu o'rinda miqdoriy tenglik faqat qiymat jihatidan emas, balki naflilik jihatidan ham ta'minlanishi lozim.



18.1-rasm. Umumiqtisodiy muvozanatlikning qiymat va naflilik jihatidan tarkibi[128]

Chunki, yalpi talab va yalpi taklifning qiymat jihatidan tengligi har doim ham iqtisodiyotda muvozanatga erishilganligini anglatavermaydi. Chunki, ma'lum qiymatni namoyon etuvchi yalpi talabni faqat shuncha qiymatga teng tovar va xizmatlar ishlab chiqarish orqali qondirish u qadar mushkullik tug'dirmaydi (biz ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida buning yaqqol guvohi bo'ldik). Masalaning muhim va e'tiborli tomoni shundaki, haqiqiy ma'nodagi

[128] Shodmonov E. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosibli rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Monografiya. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. 13 b.

umumiy iqtisodiy muvozanat ta'minlanishi uchun yalpi talab va yalpi taklif nafaqat qiymat, balki naflilik jihatidan ham o'zaro tenglashgan bo'lishi lozim.

Naflilik – bu ne'matlarning inson ehtiyojini qondira olish xususiyati, iste'mol qiymatining namoyon bo'lishi shaklidir. Yalpi talab va yalpi taklifning naflilik jihatidan tarkibi – bu jamiyatdagi mavjud talablarga turi, miqdori va sifati bo'yicha mos keluvchi tovar va xizmatlar majmui hisoblanadi. Agar iqtisodiyotda A, V, S va boshqa turdagi tovarlardan talabga yetarli qiymatda Yaratilgan bo'lsa, biroq ularning har biri bo'yicha miqdor va sifat jihatidan alohida talab qondirilmasa, u holda umumiy muvozanat ta'minlangan deb bo'lmaydi.

Lekin milliy iqtisodiyot darajasidagi tovar va xizmatlarning yalpi talab yoki yalpi taklif sifatidagi yaxlit miqdorini natural ko'rsatkichlar (tonna, kilometr, kubometr, litr va h.k.) orqali ifodalab bo'lmaydi. Mazkur ko'rsatkichlarning naflilik miqdorini faqat bir xil ko'rsatkichga keltirib, pul ko'rinishida umumlashtirish va o'zaro tengligini taqqoslash hozirgi davrda bu boradagi to'g'ri va yagona yo'ldir. Faqat bunda naflilik hamma tovar va xizmatlar turlari bo'yicha o'zgarmas, ya'ni taqqoslama narxlarda hisoblanishi lozim. Chunki o'zgarmas narxlarda hisoblanib, pulda ifodalangan ko'rsatkichlar naflilikning o'zgarishini, ya'ni o'sishini yoki kamayishini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, iqtisodiy muvozanatlikning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmunini ochib berishda uning amal qilishining asosiy tamoyillarini ma'lum tizimga keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (18.2-rasm).

Iqtisodiy muvozanatning iqtisodiy jarayon va hodisalar ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga tengligi sifatida qaralishini ham u-ning asosiy tamoyillaridan biri sifatida baholash mumkin.

Muvozanatlik holati ham iqtisodiyotdagi boshqa voqea, hodisa va jarayonlar kabi doimo harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun muvozanatlikning vaqti-vaqti bilan izdan chiqib va yana qayta tiklanib turishi ham uning muhim tamoyillaridan biri deb hisoblanadi. Boshqacha aytganda, qandaydir holatda muvozanatlik mavjud deb faraz qilish mumkin bo'lsa, u tez-tez o'zgarib turadi hamda yana shunday tezlik bilan qayta tiklanadi. Bu jarayonni muvozanatlik nuqtasi atrofidagi tebranish sifatida tasavvur etish mumkin.



18.2-rasm. Iqtisodiy muvozanatlik amal qilishining asosiy tamoyillari[129]

Iqtisodiy adabiyotlarda bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslangan holda iqtisodiy muvozanatlik namoyon bo'lishining quyidagi shakllarini keltirish mumkin (18.3-rasm).



18.3-rasm. Iqtisodiy muvozanatlik namoyon bo'lish shakllari

[129] Muallif tomonidan tuzilgan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy muvozanatlik real hayotda shart-sharoitga qarab turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin ekan. Bundan tashqari, iqtisodiyotning ko'plab qismlari va sohalari o'rtasidagi muvozanatlik balanslar ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Ayni chog'da, iqtisodiyotning turli darajalardagi muvozanatligini ta'minlashda balans usulidan keng foydalaniladi. Balans usuli – muayyan maqsadlarga erishishda mavjud resurslar va ulardan foydalanish miqdorlari o'rtasidagi tenglikni ta'minlash asosida muvozanatlikni o'rnatishga qaratilgan usullar majmui. Bunda balanslar tizimidan foydalanilib, u o'z ichiga moddiy (natural), qiymat (pul) va ishchi kuchi balanslarini oladi. Balans usulini qo'llash orqali umumiqtisodiy, hududiy, tarmoqlararo va ishlab chiqarish ichidagi muvozanatliklarning o'rnatilishi va miqdoriy jihatdan ifodalanishi ta'minlanadi.

Tarmoqlararo balans – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ya'ni mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini tavsiflovchi iqtisodiy-matematik model bo'lib, uning yordamida tarmoq va tarmoqlararo kesimda asosiy takror ishlab chiqarish nisbatlarining batafsil detallashtirilishi ta'minlanadi.

To'lov balansi – ma'lum davr davomida muayyan mamlakatdagi pul tushumlari bilan chet mamlakatlarga barcha pul to'lovlari o'rtasidagi tenglikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. To'lov balansida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning turli ko'rinishlari – tashqi savdo, kapital migratsiyasi, litsenziyalar savdosi, transport, turizm, xususiy shaxslar pul o'tkazmalari va h.k. bo'yicha hisob-kitoblar o'z ifodasini topadi.

Ishchi kuchi resurslari balansi – mavjud ishchi kuchi resurslari va ulardan foydalanishning tengligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi. Mazkur balans iqtisodiyotning mutanosib rivojlanishini ta'minlashda ishchi kuchiga bo'lgan talab hamda uni qondirish manbalarini o'zaro taqqoslash imkonini beradi.

Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi – zaruriy mahsulotni pul ko'rinishini olgan asosiy qismining harakatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi. Balansning mazkur turi to'lovga qodir talab va tovarlar taklifi, chakana tovar aylanmasi, puli xizmatlar hajmi va aho-

li omonatlari o'rtasidagi tenglikni ta'minlashning asosiy usullaridan biri hisoblanadi.

Ushbu chora-tadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Jumladan, O'zbekistonda so'nggi besh yil mobaynida investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati 9 foizdan ziyodni tashkil etmoqda.

Iqtisodiy muvozanatlikning mazmuni iqtisodiyotning turli sohalari, tarmoqlari va tomonlari o'rtasidagi mutanosiblikni ko'rib chiqqanimizda yanada oydinlashadi.

18.2. Iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni va turlari

Iqtisodiyotning inqirozlarsiz, katta siklik tebranishlarsiz bir maromda barqaror, samarali va muvozanatli rivojlanishini ta'minlash uning turli tomonlari, sohalari va bo'limlari o'rtasida muayyan mutanosiblikning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Iqtisodiy mutanosiblik kategoriyasini bilish faqatgina ilmiy nazariy ahamiyatga ega bo'libgina qolmay, shu bilan bir qatorda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda katta amaliy ahamiyat kasb etib, uni mensimaslik yoki e'tiborga olmaslik pirovardida jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi, iqtisodiy resurslardan, yalpi ichki mahsulotdan foydalanishda katta isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi mumkin. Tovarlar hajmi bilan amalda harakat qilayotgan pul massasi (naqd va kredit pullar) o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi, tovarlar hajmi e'tiborga olinmasdan naqd pul va ko'plab turli xil to'lov vositalari, qimmatli qog'ozlarning muomalaga chiqarilishi jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozini keltirib chiqargani, bundan esa butun jahon iqtisodiyoti zarar ko'rib kelayotganligi kabi ko'pgina misollar fikrimiz dalilidir. Iqtisodiy mutanosiblik alohida iqtisodiy kategoriya bo'lib, u o'z tabiati, kelib chiqish sabablari, ichki rivojlanish qonuniyatlari va namoyon bo'lish shakllariga egadir. Mutanosiblikning bu jihatlarini va samarali iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini bilish uchun eng avvalo uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmunini chuqurroq o'rganish taqozo etiladi.

Bir qancha adabiyotlarni o'rganib, tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, G'arb mamlakatlari mualliflari tomonidan 400–500-yil davomida yozilgan va bizga yetib kelgan adabiyotlarda asosan muvozanatlik muammosiga e'tibor berilib, mutanosiblik masalasi tamomila e'tibordan chetda qolgan.

Bir qator rossiyalik, ukrainalik olimlar tomonidan iqtisodiy mutanosiblikning mazmunini yoritishga harakat qilingan. Lekin ularning asarlarida iqtisodiy mutanosiblik faqat sotsializmga xos hodisa deb ko'rsatilgan va o'sha sharoitga moslab uning mazmuni, shakllari, amal qilishi yoritilgan. Ikkinchidan esa, ushbu asarlarda mutanosiblik kategoriyasiga tor doirada yondashilib, uning asosiy mazmuni ishchi kuchini ishlab chiqarish tarkibi nisbatlariga mos ravishda taqsimlashni yo'lga qo'yishdan iborat deb qaralgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida MDH mamlakatlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar va yozilgan adabiyotlarning ko'pchiligida g'arb iqtisodchilariga ko'r-ko'rona taqlid qilib, muvozanatlikka ma'lum darajada e'tibor berilmoqda, uning mazmuni, amal qilish mexanizmlari qisman bo'lsada yoritilmoqda, lekin mutanosiblik kategoriyasi bozor iqtisodiyoti tizimiga xos munosabat emas deb qaralib, unga e'tibor berilmasdan kelinmoqda.

2001-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Idoralararo Muvofiqlashtiruvchi Kengashi majlisida mamlakatimiz birinchi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan iqtisodiyotning turli tomonlari o'rtasida jiddiy nomutanosiblik borligi ta'kidlanib, ularni bartaraf qilish zarurligi ko'rsatilganidan keyin MDH mamlakatlari ichida O'zbekistonda bu masalaga e'tibor berila boshlandi va ayrim tadqiqotlar amalga oshirilib, bu muammoning turli tomonlari yoritildi.

Ammo bozor iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi juda murakkab bo'lib, u har xil yo'nalishda, sohada, tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan bir necha minglab xo'jaliklar va tashkilotlardan iboratdir. Bu xo'jalik va tashkilotlarning faoliyati har xil bo'lsada, bir xil yagona maqsadga, ya'ni mamlakatimiz aholisiga sifatli tovar va xizmatlar yetkazib berib, yuqori foyda olishga qaratilgandir. Cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanib bu mushtarak maqsadga erishish yo'lida ha-

rakat qiluvchi iqtisodiyotning turli tomonlari va bo'laklari o'rtasida miqdor va sifat jihatidan ma'lum moslik bo'lishi borgan sari obyektiv zaruriyatga aylanib bormoqda.

Mutanosiblikning mazmuni juda keng bo'lib, uning tabiiy, umumfalsafiy va umumsotsial tomonlari mavjuddir. Masalan, biron bir narsaning yoki voqelikning turli tomonlari o'rtasidagi moslik falsafada garmoniya, jismlarning eni, bo'yi va balandligi o'rtasidagi moslik matematikada simmetriya deb yuritiladi. Bu yerda biz iqtisodiy mutanosiblik haqida, ya'ni mutanosiblikning iqtisodiy mazmuni haqida fikr yuritamiz.

Iqtisodiyotni mutanosibli yuritishning asosiy negizi turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni, ya'ni talabni o'rganishdan boshlanadi. Aholining qaysi turdagi tovar va xizmatlarga qanday sifatda va qancha miqdorda talabi borligi, bu turli talablarning o'zaro nisbati aniqlansa, ushbu talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish tarkibi, xajmi va ularni yaratish uchun qancha miqdorda ishchi kuchi va boshqa iqtisodiy resurslar kerakligi va bu resurslar o'rtasidagi nisbatlar aniqlanadi. Shunday qilib, iqtisodiy mutanosiblik bir tomondan turli talab miqdorlari va sifatlari aniqlanib, ular o'rtasidagi ma'lum nisbatlar bo'lishini, bu nisbatlar orqali ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligini, ikkinchi tomondan esa shu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi sohalar, tarmoqlar o'rtasida, shuningdek ularni yaratishda ishtirok etuvchi turli omillar o'rtasida ham ma'lum nisbatlar bo'lib, ular bir biri bilan aloqada va o'zaro ta'sirda bo'lishini ifodalaydi. Masalaning eng muhim tomoni mana shu talab turlari o'rtasidagi nisbatlar bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning turlari va ularni yaratishda qatnashuvchi iqtisodiy resurslarning turlari o'rtasidagi nisbatlar ma'lum darajada bir-biriga bog'liqlikda va muvofiqlikda, ya'ni moslikda bo'lishi zarurdir. Bu jarayon juda murakkab va o'zgaruvchan jarayondir. Shunga ko'ra, iqtisodiy mutanosiblikning alohida, mustaqil, doimo o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladigan ilmiy kategoriya sifatidagi mazmuni va xususiyatlarini bilish muhimdir.

Bugungi kunda ayrim iqtisodiy adabiyotlarda mutanosiblikning turli ko'rinishlariga e'tibor berilib, ular umumiqtisodiy, tarmoqlar-

aro, tarmoq ichidagi, hududiy mutanosibliklar kabi guruhlarga ajratiladi. Ushbu mutanosibliklarning turlari, ularning qisqacha mazmuni va aniq namoyon bo'lish shakllarini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (18.1-jadval).

18.1-jadval

Mutanosiblikning turlari, qisqacha mazmuni va aniq namoyon bo'lish shakllari[130]

Mutanosiblik turlari	Qisqacha mazmuni	Aniq namoyon bo'lish shakllari
Umumiqtisodiy mutanosiblik	Umumiqtisodiy tavsifdagi hodisa va jarayonlar, ularning turli tomonlari o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi mutanosibliklar; 2) iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi mutanosibliklar; 3) aholining daromadlari bilan xarajatlar o'rtasidagi mutanosibliklar va h.k.
Tarmoqlararo mutanosiblik	Iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalari o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 2) sanoat va qurilish tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 3) qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 4) sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik va h.k.
Tarmoq ichidagi mutanosiblik	Iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarini tashkil etuvchi tarkibiy qism va bo'linmalar o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) sanoatning undirma va qayta ishlash tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 2) qishloq xo'jaligining dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 3) chorvachilikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi mutanosiblik va h.k.

[130] Shodmonov E. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosibli rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. 73 b.

Ishlab chiqarish ichidagi mutanosiblik	Ishlab chiqariladigan mahsulotga sarflanadigan omillarning tashkil etuvchi tarkibiy qismlar o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari o'rtasidagi mutanosiblik; 2) mahsulotni yaratish uchun zarur bo'lgan turli qismlari o'rtasidagi mutanosiblik va h.k.
Hududiy (territorial) mutanosiblik	Milliy iqtisodiyotning turli hududlari o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) hududlararo kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlarining turli fazalarining uzluksizligini ta'minlovchi nisbatlar; 2) ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining me'yorda amalga oshishini ta'minlovchi soha va tarmoqlarning mamlakat hududlari bo'yicha rivojlanganlik nisbati; 3) hududlarda tashkil etilgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari miqdori o'rtasidagi nisbat va h.k.
Mamlakatlar-aro mutanosiblik	Jahonning turli davlatlari o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) davlatlarning jahon hamjamiyatida tutgan iqtisodiy o'rni va rolini namoyon etuvchi nisbatlar; 2) davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki; 3) eksport va import hajmi jihatidan davlatlar o'rtasidagi nisbat va h.k.

A. O'rinov mavjud tan olingan (umumiqtisodiy, tarmoqlararo, tarmoq ichidagi, hududiy, davlatlararo) mutanosibliklar bilan bir qatorda ishlab chiqarish ichidagi mutanosibliklarni ham alohida ta'kidlab o'tadi. Ushbu turkumdagi mutanosibliklar korxonalarda qo'llanilayotgan yer, kapital bilan ishchi kuchi, iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari, ya'ni texnika, texnologiya bilan xomashyo, asosiy va aylanma kapitallar o'rtasidagi mutanosibliklarni ifodalaydi[131].

[131] O'rinov A. A. Mutanosiblik – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili. – I.f.n. ... dis. – T., 2006.

Mualliflar tomonidan amalga oshirilgan turli yondashuvlar hamda iqtisodiy mutanosiblikning yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy turlarini umumlashtirgan holda uning mazmuni bo'yicha quyidagi ta'rifni shakllantirish mumkin.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli sohalari, tarmoqlari, tomonlari va bo'limlari o'rtasidagi miqdor va sifat jihatidan muayyan nisbatlardagi o'zaro moslik bo'lib, barqaror ravishda takrorlanib turuvchi doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladigan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ifodalovchi umumiqtisodiy kategoriyadir. Uning talablarini hisobga olgan holda amalda qo'llanishi iqtisodiyotning barqaror, tebranishlarsiz, inqirozlarsiz rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Bu iqtisodiy kategoriyaning obyektiv xarakteri shundaki, kishilar tomonidan uni mensimaslik, e'tiborga olmaslik turli xil yo'qotishlarga, ortiqcha ishlab chiqarish va sarflarga, oxir-oqibatda iqtisodiy nomutanosiblik va inqirozlarga olib kelishi mumkin.

18.3. O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirish

Mavjud iqtisodiy tizimni butunlay yangi tartiblar asosida isloh qilish iqtisodiyotning rivojlanishidagi turli nomutanosibliklar hamda tanglik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida iqtisodiyotni jonlantirish, bir tekis rivojlantirish va barqarorlashtirish jarayoni qonuniy bosqich hisoblanadi. Barqarorlashtirish jarayoni iqtisodiy rivojlanishda inqiroz holatlarining oldini olish uchun ishlab chiqarish va chiqarilayotgan mahsulot tarkibini o'zgartirishga yo'naltiriladi. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki davrida barqarorlashtirish siyosatidan ko'zda tutilgan maqsad eng avvalo, makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishni keskin darajada pasayishining oldini olish va ommaviy ishsizlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat bo'ldi. Shu bilan birga bu siyosat pul emissiyasini boshqarish, uning qadrsizlanishining oldini olish, mamlakat to'lov balansini bir me'yorda saqlash kabi maqsadlarni ham o'z ichiga oladi.

Respublikada barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda jahon tajribasida sinalgan yondashuvlar hisobga olinib, ishlab chiqarish sohalariga ustunlik berildi. Moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishida ularni tarkiban qayta qurish talablari ham ko'zda tutildi. Bunda asosiy e'tibor katta istiqbolga ega bo'lgan, butun iqtisodiyotning rivojlanish tamoyillarini belgilab beradigan yetakchi tarmoq va sohalarga qaratildi.

Iqtisodiyotda zarur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirgunga qadar ishlab chiqarish hajmining pasayib ketishiga barham berish eng muhim maqsad bo'lib qoladi. Shu sababli respublikada 90-yillarning o'rtalaridayoq makroiqtisodiy barqarorlik sohasida ishlab chiqarish sur'atlari pasayishining sekinlashuvi ko'zga tashlandi, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa o'sishga erishildi. Iqtisodiyotning ikkita yetakchi tarmog'i – sanoat va qishloq xo'jaligini isloh qilish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar natijasida sanoatda 1995-yildayoq, qishloq xo'jaligida 1997-yilda ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatildi.

Makroiqtisodiy barqarorlik siyosatida 1997-yil keskin burilish davri bo'ldi, islohotlar amalga oshirilgan davr davomida birinchi marta yalpi ichki mahsulotning o'sishi (105,2 foiz) aholi sonining o'sishidan (101,8 foiz) yuqori bo'ldi[132]. Bu ijobiy tamoyillar keyingi yillarda mustahkamlab borildi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror sur'atlar bilan o'sishi va makroiqtisodiy mutanosibligi ta'minlandi, ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash ishlari davom ettirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari hamda ularni ta'minlash borasidagi vazifalarning aniq belgilab olinishi va izchil ravishda amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishida ahamiyatli yutuqlarga erishilmoqda.

Mamlakatimizda YaIMning nafaqat miqdoran o'sib borishi, balki uning tarkibiy tuzilmasining sifat jihatidan takomillashib borishi ham alohida e'tiborga molik. Bunda uning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan

[132] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

omillar tahlili, ya'ni qo'shilgan ulushlarning tarkibi hamda YaIMning o'sishiga qo'shgan hissasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirish oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishishning asosiy manbai bo'lishi darkor.

Respublika milliy iqtisodiyotida erishilgan bu ijobiy natijalar tarkibiy qayta qurishlar asosida butunlay yangi iqtisodiyot majmuasining bunyod etilganligi, birinchi navbatda eng muhim makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarini davlat tomonidan samarali tartibga solishning natijasi hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi, hududlarning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishga qaratiladi.

Tarkibiy siyosatning hududiy jihatlarini ta'minlash odamlar turmush darajasida vujudga kelgan hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish, resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turini o'zgartirish, uning sifatini yaxshilash va mahsulot tayyorlashga ketadigan jami xarajatlarni kamaytirish talablari ham hisobga olinadi.

Iqtisodiyot tuzilishidagi o'zgartirishlar, chetdan mahsulot olib kelishni qisqartirish, iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishga qartilgan bir tomonlama yo'nalishini bartaraf etish va uning eksport imkoniyatini kengaytirish, tarmoqlar ichidagi va hududiy jihatdan vujudga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish asosida iqtisodiyotning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlash vazifalarini hal etish bilan bog'liqlikda amalga oshirildi.

Shu vazifalardan kelib chiqib, **iqtisodiyot ichki tuzilishidagi o'zgarishlar – respublikaning energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlovchi tarmoqlarni rivojlantirishga** qaratildi. Bunda birinchi navbatda eng muhim o'zak tarmoqlarni – neft va gaz sanoatini, energetikani, rangli metallurgiya sanoatini, mashinasozlik maj-

muasini, qishloq xo'jalik va agrosanoat majmuasining boshqa sohalarini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tuzilishini tubdan o'zgartirish asosida umumiqtisodiy barqarorlikka erishishda **iste'mol bilan jamg'arish fondi o'rtasidagi eng maqbul mutanosiblikni ta'minlash** asosiy o'rin tutadi. Iste'mol fondining eng maqbul darajasiga erishish – ichki bozorda talab bilan taklif o'rtasida mutanosiblikni ta'minlshda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli davlat eng muhim makroiqtisodiy takror ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga solib turuvchi omillarga ko'proq e'tibor berdi.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohasida tarkibiy qayta qurishlar faol investitsiya siyosatini o'tkazish orqali amalga oshirildi. Shu sababli respublika investitsiya bazasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, bunda o'z sarmoyalarimiz, tashqi kreditlar, bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalaridan o'rinli foydalanish ko'zda tutildi. Tashqi investitsiyalarni jalb qilishda bevosita investitsiyalar tarzida, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlar moliyaviy-kredit resurslari shakllarida amalga oshirilishi mumkin.

Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida **mahalliy xomashyo va tabiiy imkoniyatlar asosida ishlaydigan, ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan holda, nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga qaratilishi** zarur.

Iqtisodiyotni mutanosib rivojlantirishda 2016–2030-yillarga mo'ljallangan uzoq muddatli dastur ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etib, unda iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizasiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovasiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Tarkibiy o'zgartirishlarni

chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish" maqsadida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'rsatib berilgan[133]. Jumladan,

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

- iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

- faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

---

[133] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 1-ilova, 3.2-bandi.

- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

Xulosalar

1. Iqtisodiy muvozanat deb bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda va ta'sirda amal qiladigan iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga teng kelgan holatiga aytiladi. Butun iqtisodiyotning muvozanati to'g'risida gap borganda eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik e'tiborga olinadi.

2. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanat o'z ichiga xususiy va umumiy tavsifdagi bir qator muvozanatlar tizimini oladi. Xususiy muvozanat – bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi. Umumiy muvozanat jamiyat barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o'zaro teng kelishini bildiradi. Umumiy iqtisodiy muvozanat bozor sharoitida, avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning qiymat va naflilik jihatdan teng kelishida ko'rinadi.

3. Umumiy iqtisodiy muvozanat ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishi; mamlakatdagi barcha iqtisodiy resurs-

lardan samarali foydalanadigan xo'jalik mexanizmi; muvozanatli ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste'molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi; bozor muvozanati, ya'ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va hokazolar)da talab va taklif muvozanati kabi qator shart-sharoitlarni taqozo etadi.

4. Iqtisodiy muvozanatlik doimo bir xil holatda turmaydi, u o'zgaruvchan bo'lib, goh muvozanatda, goh nomuvozanat holatida bo'lishi mumkin. U o'zgarib tursada doimo muvozanatlikka intiladi.

5. Iqtisodiy muvozanatlik turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, umumiy, xususiy, uzoq muddatli, qisqa muddatli, makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy va h.k. U ko'pdan ko'p real iqtisodiy hayotda balans ko'rinishida namoyon bo'ladi.

6. Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik, ya'ni mos keluvchi nisbatlar bo'lib, bunda tenglik bo'lishi shart emas. U 1:2, 3:2, 5:3, va h.k. nisbatlarda bo'lishi mumkin.

7. Iqtisodiy mutanosibliklarning barchasini umumlashtirib umumiqtisodiy tavsifdagi mutanosibliklar; tarmoqlararo mutanosibliklar; tarmoq ichidagi mutanosibliklar; ishlab chiqarish ichidagi mutanosibliklar hududiy (territorial) mutanosibliklar; davlatlararo mutanosibliklarga guruhlash mumkin.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy muvozanat – iqtisodiy jarayonlar, voqea, hodisalarning bir-biri bilan bog'liqlikda va qarama-qarshi bo'lgan ikki yoki bir necha tomonining teng kelish holati.

Xususiy muvozanat – bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki iqtisodiyot bo'laklarining miqdoran teng kelishi.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tarmoqlari, tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan bir-biriga mos kelishi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy muvozanat, xususiy va umumiy muvozanatlarga tavsif bering. Ularga misollar keltiring.

2. Iqtisodiy muvozanatlik qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?

3. Milliy iqtisodiyotning muvozanat darajasiga erishishda xususiy mutanosibliklarning roli qanday, ularning o'zaro ta'siri qanday bo'ladi?

4. Mutanosiblikning qanday turlarini bilasiz? Ularga qisqacha ta'rif bering.

5. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo'llari qanday?

6. Respublikada iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishlarni qaysi yo'llarda amalga oshirish ko'zda tutilgan?

19-BOB. IQTISODIYOTNING SIKLLILIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK

Iqtisodiy jarayonlar doimo bir xil bo'lib, bir tekisda rivojlanavermaydi. U o'zgarib to'lqinsimon tebranishda bo'ladi. Bu tebranishlar siklik tavsifga ega bo'ladi. Ushbu bobda dastlab iqtisodiy sikllarga, ya'ni bozor iqtisodiyoti uchun xos bo'lgan ishlab chiqarish, bandlik va narx darajasining davriy tebranishlariga umumiy tavsif beriladi. Iqtisodiy sikl fazalari va davriy tebranishlarning sabablari, shuningdek, moliyaviy, tarkibiy va agrar inqirozlarga hamda ularning xususiyatlarini yoritishga alohida o'rin ajratiladi.

Bob davomida hozirgi davrda ro'y berayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmun-mohiyati, kelib chiqish sabablari va ta'sir yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

19.1. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklliligi

Har qanday mamlakat iqtisodiy o'sish, iqtisodiy resurslarning to'la bandligi va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladi. Ammo uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari ta'sirida tebranib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan obyektiv qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ostida takror ishlab chiqarish harakatida ayrim vaqtlarda, ayrim bo'g'inlarda uzilishlar paydo bo'ladi va bu uzilish iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo'lishi hisoblanadi. Bu holat iqtisodiy adabiyotlarda **iqtisodiyotning siklli rivojlanishi** deb ataladi.

Ko'plab iqtisodchilar ortiqcha ishlab chiqarish sabablarini ochib berishga harakat qilib, talabning ko'payishi va kamayishi, ishlab chiqarish hajmining o'sishi yoki qisqarishi kabi hodisalarning davriy tavsifiga e'tibor qaratdilar. Bu hodisalarning ro'y berish ketma-ketligidagi ma'lum izchillik ham aniqlandi. Siklli rivojlanishning obyektivligi va realligi, uning iqtisodiy jarayonlar tavsifiga ta'siri

nuqtai nazaridan ahamiyatliligi to‘g‘risida bir qator taniqli iqtisodchilar, jumladan, A. Shpitgof, M. Tugan-Baranovskiy, T. Veblen, U. Mitchell, J. M. Klark, J. Xiks, J. M. Keyns, Y. Shumpeter va boshqalarning ilmiy asarlarida bayon etilgan.

Ta’kidlash lozimki, turli darslik va o‘quv qo‘llanmalarda mazkur muammoni yoritishga ham turlicha darajada yondashilgan. Jumladan, akademiklar V. I. Vidyapin, A. I. Dobrinin, G. P. Juravleva va L. S. Tarasevich umumiy tahriri ostida tayyorlangan darslikda bu muammoga alohida mavzu orqali keng to‘xtalib o‘tilgan[134]. Unda iqtisodiy sikllar nazariyasi iqtisodiy o‘sish nazariyasi bilan bir qatorda iqtisodiy dinamika nazariyalari tarkibiga kirishi, iqtisodiy sikl tabiatining o‘zi esa munozarali va kam o‘rganilgan muammolardan biri ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, ijtimoiy hayotda siklli rivojlanishni tan oluvchi hamda inkor etuvchi ikki yo‘nalishdagi tadqiqotchilar mavjudligi ko‘rsatilgan. Siklning mohiyatini ochib berishda dastlab unga jismlar o‘zaro ta’sir jarayonining natijasi sifatida qaralib, falsafiy qoidalar nuqtai nazaridan izohlashga harakat qilingan. Sikl fazalarini ajratib ko‘rsatishda markscha sanoat sikli nazariyasiga keng to‘xtab o‘tilgan. Shundan so‘ng sikllarning asosiy turlari, bugungi kunga qadar mavjud bo‘lgan sikllar to‘g‘risidagi nazariyalar bayon etilgan.

Ba’zi bir darsliklarda esa iqtisodiyotning siklli rivojlanishi muammolariga nisbatan qisqa, umumiy tarzda to‘xtab o‘tilgan[135]. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda iqtisodiy siklning mohiyati va uning fazalari bayoniga to‘xtalib o‘tamiz.

Iqtisodiy sikl deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin ketin bir necha fazalarni bosib o‘tib, o‘zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o‘tgan davr

---

[134] Экономическая теория: Учебник / Изд., испр. и доп. Под общ. ред. акад. В. И. Видяпина, А. И. Добрынина, Г. П. Журавлевой, Л. С. Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, с. 465–485.

[135] Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В. Д. Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, с. 537–541; Борисов Е. Ф. Экономическая теория: Учебник / 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт-Издат, 2005, с. 301–309.

tushuniladi. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi harakati bir sikl bilan to'xtab qolmaydi, balki u to'xtovsiz to'lqinsimon harakat sifatida davom etadi. Siklli harakat iqtisodiy o'zgarishning muhim ko'rinishi, makroiqtisodiy muvozanat unsurlaridan biri bo'lib, milliy xo'jalik turli tarkibiy qismlarining amal qilishidagi notekislikni, uning rivojlanishidagi inqilobiy va tadrijiy bosqichlarning iqtisodiy taraqqiyot jarayonidagi almashuvini aks ettiradi.

Iqtisodiy sikl maxsus fazalar orqali amalga oshadi. Har bir faza iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan pallani ifodalab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Odatda iqtisodiy siklning **inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish** fazalari ajratib ko'rsatiladi (19.1-rasm). Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jarayonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi.



19.1-rasm. Iqtisodiy sikl fazalari

Iqtisodiy siklning dastlabki fazasi **inqirozdan** boshlanib, u iqtisodiy ko'rsatkichlarning, jumladan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning keskin pasayishida ifodalanadi. Inqiroz fazasining asosiy belgilari va o'ziga xos xususiyatlarini mazkur bobning 3-bandida batafsil bayon etiladi.

Inqirozdan keyin **turg'unlik fazasi** boshlanib, u nisbatan uzoqroq davom etadi. Bu fazada ishlab chiqarish darajasining barqarorligi ta'minlansada, u inqiroz boshlanishidan oldingi darajaga nisbatan ancha past bo'ladi. Narxlarning pasayishi to'xtab, ssuda foizlari pa-

sayadi, tovar zaxiralari barqarorlashadi. Biroq ishsizlikning yuqori darajasi saqlanib qoladi. Turg'unlik fazasi davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi nihoyasiga yetadi.

Jonlanish fazasida ishsizlik darajasi bir oz qisqarib, ishlab chiqarish darajasi sekin-asta o'sib boradi. Narxlar ham asta ko'tarilib, ssuda foizi o'sa boshlaydi. Iqtisodiyotning bandlik darajasining ortishi va foyda hajmining tezlik bilan o'sishi jonlanish fazasining yuksalish bosqichiga o'sib o'tishiga imkoniyat yaratadi. Yangi sikl yuksalishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Yuksalish fazasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kengayishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga hamda ish haqining o'sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste'mol tovarlariga to'lovga qodir talab kengayadi. Pirovard talabning oshishi, o'z navbatida, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turtki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to'planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo'lib qoladi.

Alohida iqtisodiy sikllar bir-biridan davomiyligi va intensivligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shunga qaramay, ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi.

19.2. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Sikllarning asosiy turlari

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqish sabablari va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning chuqur va izchil ravishda tadqiq etilishi turli ko'rinishdagi iqtisodiy sikl nazariyalarining vujudga kelishiga olib keldi.

Ko'pchilik hozirgi zamon iqtisodchilari iqtisodiy sikllarning obyektiv tavsifini tan olib, bu hodisani unga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o'rganishni tavsiya qiladi. **Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani eksternal nazariya deb ataladi.**

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– urushlar, inqilobiy o‘zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;

– oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi;

– yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog‘liq ravishda aholi migratsiyasi, yer shari aholisi sonining o‘zgarib turishi;

– ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o‘zgarishlar.

Iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o‘ziga xos ichki omillari ta’sirida vujudga kelishini asoslovchi nazariya internal nazariya deb ataladi.

Asosiy kapitalning jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirib, xizmat muddati tugashi va uning yangilanishi ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy siklni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Agar bir yoki bir necha tarmoqda mashina-uskunalarga talabning keskin ortishini keltirib chiqaradigan iqtisodiy o‘sish boshlansa, tabiiyki, bu hol mashina va uskunalar to‘liq eskiradigan har 10–15-yildan keyin takrorlanadi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida bu muddat qisqarib boradi va inqirozlar tez takrorlanadi. Shuningdek, quyidagi boshqa ichki omillar ham ajratib ko‘rsatiladi:

– shaxsiy iste’molning o‘zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);

– investitsiyalar, ya’ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmi;

– ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o‘zgarishi.

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Iqtisodiy sikl va umuman iqtisodiy tizimdagi miqdoriy va sifat o‘zgarishlar tashqi va ichki omillar birgalikdagi ta’siri oqibatida kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotning siklli rivojlanishi sabablarini izohlashda bir qator nazariyalar ham ilgari suriladi. Quyida ulardan asosiylarini ko‘rib chiqamiz.

Sof monetar nazariya. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha bozor iqtisodiyotida markaziy o'rinni pul va kredit egallaydi. Iqtisodiyotning siklli o'zgarishi eng avvalo pul massasi oqimini o'zgartirishga bog'liq.

Iqtisodiy faollikning o'sishi, iqtisodiyotning ravnaq topishi, uning turg'unlik bilan almashinib turishiga yagona sabab pul oqimining o'zgarishidir. Tovarlarga talabning ortishi natijasida savdo, chakana narx o'sib, ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi.

Pul oqimi (iste'mol xarajatlari summasi) pul miqdorining o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Pul miqdorining kamayishi iqtisodiy faoliyat faolligini pasaytiradi.

Pul va kredit tizimi beqaror tavsifga ega ekanligi sababli pul oqimini barqarorlashtirish murakkab hisoblanadi. Hozirgi paytda kredit pullari to'lov va muomala vositasi sifatida asosiy rolni o'ynaydi. Aynan bank tizimi kredit pullarni yaratadi, shunga ko'ra, pul oqimining o'zgarishida banklarning hisob stavkalari katta ahamiyat kasb etadi. Bu nazariyaning ayrim namoyandalari pulni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qarab, muvozanatning buzilishiga asosiy sabab deb ko'rsatadilar.

Ikkinchi guruhi esa pul tizimi mutanosiblikni buzmaydi, faqat mutanosiblikni buzilishiga olib keluvchi boshqa omillar uchun sharoit yaratadi, degan fikrni ilgari suradilar. Muvofiq ravishda monetar va nomonetar yo'nalish vujudga keldi. Monetar nazariyaning e'tiborli tomonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) yuksalish fazasi davrida kreditni kengaytirish tufayli kelib chiqqan ishlab chiqarish tuzilmasi nomutanosibliklari tahlil qilinadi;

2) mazkur nomutanosibliklarning salbiy oqibati sifatida kelib chiquvchi inqirozlar tahlil qilinadi.

Shunday qilib, bu nazariya tarafdorlari jamg'arishning davriy ravishda oshib ketishi va mutanosiblik buzilishining asosiy sababi sifatida pulni ko'rsatadilar. **Nomonetar nazariya** tarafdorlari esa texnologik o'zgarishlar, yangiliklar, ixtirolarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, pul jamg'arishning ko'payib ketishidagi rolini ko'rsatishadi. Monetar va nomonetar yo'nalish o'rtasidagi farq uncha katta emas, biri ikkin-

chisini to'ldiradi. Har ikkala nazariya ham oxir-oqibat iqtisodiy faollikning kuchayishiga iste'mol emas, balki investitsiya sabab bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Iqtisodiy sikllarni iste'mol tovarlariga talabning o'zgarishiga bog'lab, akseleratsiya prinsipiga e'tibor qaratiladi. Bu prinsip mohiyatiga ko'ra texnik sabablar tufayli iste'mol tovarlariga bo'lgan talabning ozgina o'zgarishi ishlab chiqarish uchun zarur tovarlarga talabning keskin o'zgarishiga olib keladi.

Yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Bu nazariyaning mohiyati ko'proq jamg'arib, samarali darajada iste'mol qilmaslik jamiyatni siklli rivojlanishining sababi qilib ko'rsatiladi:

1) mablag'ni jamg'arish, boshqacha aytganda xazinaga aylantirish turg'unlikka olib kelishi mumkin, chunki bu mablag' investitsiyalash uchun foydalanilmaydi;

2) pulni jamg'arish iste'mol tovarlariga talabning qisqarishiga olib keladi, chunki u iste'molga sarflanmaydi.

3) natijada investitsiyaga nisbatan pul shaklidagi jamg'arish hajmi o'sib borib, iste'mol tovarlariga talab kamayib boradi, taklif esa ortadi, narx pasayadi, iste'mol tovarlari bozoridagi qiyinchiliklar inqirozga olib keladi.

Jamg'arish nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra iqtisodiy sikl ishlab chiqarish vositalari yoki kapitallashgan investitsion tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq.

Kundalik iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar va ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish sikllari o'rtasida katta farq bor.

Kundalik iste'mol mollari doimiy ravishda iste'mol qilinadi. Ularning iste'mol miqdori o'zgargan taqdirda ham uncha katta o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni domiy ravishda xarid qilinmaydi. Balki ular iste'molchi daromadi ko'paygan paytdagina sotib olinadi. Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga talab barqaror emas. Ishlab chiqarishni davom ettirish uchun kapital tovarlar ishlab chiqarish zarur.

Iste'mol o'sgan sari kapital tovarlarga talab ham ortadi. Bunda ishlab chiqarish tarkibida nomutanosibliklar yuz beradi, ya'ni iste'mol tovarlari, uzoq muddat foydalaniladigan va kapital tovarlar o'rtasida nisbatlar buziladi.

Inqirozning sababi pul yetishmasligi, bank rezervlarining kamligi emas, balki ana shu nisbatlarning buzilishidir. Lekin ko'pchilik iqtisodchilar yetarli darajada iste'mol qilmaslik inqirozning sababi emas, balki uning oqibatidir, deb ta'kidlaydilar. Ya'ni iste'molchilar daromadlarini ko'proq jamg'arishga ajratganlari uchun emas, balki to'lov qobiliyatining yetarli emasligi, ya'ni xarid qilish uchun pulning yo'qligidan kelib chiqadi.

Psixologik nazariya. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tushuntirishda iqtisodiy nazariyalar bilan bir qatorda psixologik nazariyalar ham keng o'rin olib bormoqda.

Psixologik nazariya tarafdorlariga J. M. Keyns, U. Mitchell, F. Xayek va boshqalarni kiritish mumkin. Ularning fikricha, insondagi optimizm va pessimizm faoliyat aktivligiga obyektiv iqtisodiy omillar: foiz me'yori, pul oqimi, foyda va boshqalar ta'sir ko'rsatib, buning natijasida ishlab chiqarishning qisqarishi yoki kengayishi ro'y beradi.

Kreditning kengayishi, talab va ishlab chiqarishning o'sishi odamlarning kayfiyatini ko'taradi va aksincha. Bundan tashqari kishilar borgan sari likvidligi yuqori bo'lgan pul jamg'arishga moyilligi ortib borishi va o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishga ta'sir yyetishini ko'rsatishadi.

Hozirgi zamon iqtisodiy fanida iqtisodiy siklning 1380 dan ortiq turlari mavjudligi ta'kidlanadi[136]. Quyidagi 19.1-jadvalda ularning ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan eng asosiy turlari ifodalangan.

---

[136] Экономическая теория: Учебник / Изд., испр. и доп. Под общ. ред. акад. В. И. Видяпина, А. И. Добрынина, Г. П. Журавлевой, Л. С. Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, с. 469

19.1-jadval

Sikllarning asosiy turlari

Sikl turlari	Siklning davomiyligi	Asosiy xususiyatlari
Kitchin sikli	2–4 yil	Zaxiralar miqdori →YaMM, inflyatsiya, bandlikning tebranishi, tijorat sikllari
Juglar sikli	7–12-yil	Investitsion sikl →YaMM, inflyatsiya va bandlikning tebranishi
Kuznets sikli	16–25-yil	Daromad →immigratsiya →uy-joy qurilishi →yalpi talab →daromad
Kondratev sikli	40–60-yil	Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar
Forrester sikli	200-yil	Energiya va materiallar
Toffler sikli	1000–2000-yil	Sivilizatsiyalarning rivojlanishi

Kitchin sikli zaxiralar sikli deb ham nomlanadi. Bunda Jozef Kitchin (1926-yil) o'zining e'tiborini tovar zaxiralarining harakat chog'idagi moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqsa, u siklning davomiyligini jahondagi oltin zaxiralarining tebranishlari bilan bog'lab, uni 3 yilu 4 oyga teng, deb hisoblaydi. Biroq qisqa muddatli sikllar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko'pchilik iqtisodchilarni qoniqtirmaydi.

Juglar sikli «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o'rtacha sikl» va «katta sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7–12-yillik sikllarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Fransiya, Angliya va AQSHda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan Klement Juglar (1819–1905-yillar) nomi bilan ataladi.

Birinchi sanoat sikli 1825-yiliAngliyada metallurgiya va boshqa yetakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni

egallagan davrda kuzatiladi. 1836-yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQSHga ham tarqaladi, 1847–1848-yillarda AQSH va qator Yevropa davlatlarida boshlangan inqiroz tub mohiyatiga ko'ra birinchi jahon sanoat inqirozi bo'lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10–12-yilni tashkil qilgan bo'lsa, XX asrda uning davomiyligi 7–9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AQSH va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo'lib, ulardan yettitasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro'y bergan.

Kuznets sikli ko'phollarda «qurilish sikli» deb ham nomlanib, 20-yilgacha bo'lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Saymon Kuznets o'zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida milliy daromad, iste'mol sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko'rsatkichlarida 20-yillik o'zaro bog'liq tebranishlar mavjud bo'lishini ko'rsatib bergan. 1955-yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznets sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli «uzoq to'lqinlar» sikli deb ham ataladi. Siklliliknıng bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N. D. Kondratev katta hissa qo'shgan. Uning tadqiqoti Angliya, Fransiya va AQSHning 100–150-yil davomidagi rivojlanishini qamrab olgan. Bunda u iqtisodiy o'sishning ko'p omilli tahlilini o'tkazib, ya'ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko'rsatadi.

I-sikl: 1787–1814-yillar – ko'taruvchi to'lqin; 1814–1851-yillar – pasaytiruvchi to'lqin.

II-sikl: 1844–1851-yillar – ko'taruvchi to'lqin; 1870–1896-yillar – pasaytiruvchi to'lqin.

III-sikl: 1896–1920-yillar – ko'taruvchi to'lqin.

Kondratev siklining davomiyligi o'rtacha 40–60-yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirishi hisoblanadi. Kondratev birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini – temir yo'l transportining rivojlanishi, uchinchisini –

elektrenergiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to‘rtinchisini – avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog‘laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari beshinchi siklni elektronika, gen injenerligi va mikroprotsessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy sikl barcha tomonlari bilan namoyon bo‘lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi sababli uning hech bir sohasi inflyatsiya to‘lqini yoki turg‘unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e’tiborga olish zarurki, iqtisodiy sikl alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Odatda iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalaniladigan iste’mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ko‘proqzarar ko‘radilar.

Uy-joy va sanoat binolari qurilishi, og‘ir mashinasozlik hamda investitsion tovarlar, avtomobillar, maishiy xo‘jalik buyumlari va shunga o‘xshash tovarlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo‘lgan ishchilar siklning inqiroz fazasida og‘ir oqibatga uchraydi. Biroq, bu tarmoqlar siklning yuksalish fazasida o‘zining rivojlanishi uchun yuqori darajada rag‘bat oladi.

Iqtisodiyot qiyinchilikni boshidan kechira boshlaganda ishlab chiqaruvchilar ko‘pincha, zamonaviy uskunalarni sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to‘xtatadi yoki qandaydir muddatga kechiktirishi mumkin. Bunday kon’yunktura sharoitida investitsion tovarlar zaxiralarini ko‘paytirish hech qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan ancha to‘laroq foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy jihatdan qulay davrlarda, ya’ni siklning jonlanish va yuksalish fazalarida ishlab chiqarish vositalari odatda ular to‘liq eskirgunga qadar almashtiriladi. Ammo tanazzul davri kelganida, korxonalar o‘zining eskirgan uskunalarini ta’mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo‘lgan ayrim korxonalar, hatto iste’mol qilingan asosiy kapitalining o‘rnini qoplashga ham harakat qilmaydi.

Qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari iqtisodiy siklning oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi.

Aholi yoki keng iste'molchilar qatlamiga iqtisodiy sikl turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tanazzul davri boshlanganda, doimiy daromad oluvchi iste'molchilar oila byudjetini qisqartirishlariga to'g'ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishni to'xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a'zolari yeb-ichishi va kiyinishi zarurligi tufayli, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar, ya'ni qisqa muddatda foydalanadigan iste'mol tovarlarini xarid qilishni to'xtatish mumkin emas. Faqat, bunday tovarlarni xarid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi ko'pchilik sanoat tarmoqlari yuqori darajada monopol mavqega egaligi bilan farqlanadi va natijada bozorda nisbatan ko'p bo'lmagan yirik firmalar ma'lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi turishi, talabning kamayishi sababli mahsulot chiqarish hajmini cheklash uchun yetarlicha monopol hukmronlikka ega bo'lishi mumkin. Shu sababli talabning kamayishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunga teskari bo'lgan holatni qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko'pchiligi o'zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarish markazlashuv darajasining pastligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli ular siklning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlariga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko'proq aks etadi.

Demak, kapitalning to'planishi yuqori darajada bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishi va narxlarning nisbatan sekin tushishi, to'planish darajasi past bo'lgan tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

19.3. Iqtisodiy inqirozlarning mazmuni, kelib chiqish sabablari va turlari

Biz oldingi bandlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning goho'sib, goh tushib siklik tarzda rivojlanishini aytgan edik. Siklli rivojlanishning asosiy fazalaridan biri inqiroz hisoblanadi. Shunga ko'ra ushbu fazaning mazmuni va uning turlarini batafsil ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Inqiroz bir siklni nihoyasiga yetkazib, yana muqarrar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi; inqiroz vaziyatida asosiy kapitalning ortiqcha jamg'arilishi uning hamma funksional shakllarida namoyon bo'ladi.

Inqiroz fazasida ishlab chiqarish va bandlik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoyiliga berilmaydi. Bu fazaning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik o'zining eng past darajasiga tushib ketishi orqali tavsiflanadi. Sh**unga ko'ra, iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi.**

Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga qobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo'ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to'xtab qoladi, tovarlar ishlab chiqarish kamayadi, ishlab chiqarishning o'sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi. Iqtisodiyotning o'sishi inflyatsiya, ya'ni narx darajasining asossiz ravishda keskin ko'tarilishi sababli orqaga ketadi. Shunday davrlar ham bo'ladiki, bunda iqtisodiy o'sish bandlik va ishlab chiqarishning past darajasiga o'rin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko'tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin o'sadi. Qisqacha aytganda, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflyatsiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi – takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo, ishlab chiqarish va uning natijalarini o'zlashtirish o'rtasidagi nomutanosiblik bo'lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish bilan iste'mol, talab va taklif o'rtasidagi vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Rivojlangan tovar xo'jaligi paydo bo'lgunga qadar ishlab chiqarishning keskin qisqarishi odatda tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, toshqinlar va h.k.) yoki urushlar va ular keltiradigan vayronagarchiliklar bilan bog'liq bo'lgan. Yirik mashinali ishlab chiqarishga o'tilgan davrdan keyingi vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotni larzaga solib turuvchi iqtisodiy inqirozlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishga siklik tavsifni kasb etadi. Inqirozlar turli-tuman tarzda ro'y bersada, ularning umumiy, o'xshash tomonlarini nazarda tutib, guruhlarga ajratish mumkin.

Xo'jalik tizimida **muvozanatning buzilishi miqyosiga ko'ra** inqirozlarni umumiy hamda ayrim sohalar va tarmoqlarda yuz beradigan inqirozlarga bo'lish mumkin. Umumiy inqirozlar butun milliy xo'jalikni qamrab olsa, ikkinchisi qisman, ya'ni ayrim sohalar yoki tarmoqlardagi tanglik sifatida ro'y beradi. Ayrim sohalardagi inqirozlar orasida hozirgi davrda moliyaviy inqiroz muhim o'rin tutib, u o'z ichiga pul-kredit sohasidagi inqiroz, valyuta inqirozi, birja inqirozi va boshqalarni oladi. Hozirgi vaqtda AQSH va Yevropaning aksariyat mamlakatlarida ro'y berayotgan inqiroz ham dastlab moliya sohasida boshlanib, keyinchalik ishlab chiqarish sohasiga ham tutashib ketmoqda.

Pul-kredit sohasidagi inqiroz. Mamlakatda pul-kredit tizimining tang ahvolga tushishi bo'lib, bunda tijorat va bank krediti qisqaradi. Aksiya va obligatsiyalarning kursi, bank foizi tushib ketishi natijasida banklar sinib, yalpi holda bankrotlikka uchraydilar.

Valyuta inqirozi. Bunda milliy valyutaning obro'si tushib ketadi. Bankda valyuta zaxirasi tugab, milliy valyuta kursi tushib ketadi.

Birja inqirozi. Bu tanglik birjada qimmatli qog'ozlar kursining tezda tushib ketishi, ularni emissiya qilishning qisqarishi fond birjalari faoliyatidagi chuqur tushkunlikda ifodalanadi.

Ekologik inqiroz. Atrof-muhitni, eng avvalo inson sog'lig'ini yo'qotish, umrini qisqartirishga olib keladigan darajada vaziyatning vujudga kelishida ifodalanadi. U sanoatning shiddatli tarzda o'sishiga yo'l qo'ymaydi.

Tarmoqlar inqirozi. Bu milliy xo'jalikning bironbir tarmog'ini qamrab, ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishi yoki normal xo'jalik aloqalarining buzilishi tufayli yuz beradi (sanoat inqirozi, agrar inqiroz va boshqalar).

Tarkibiy inqirozlar. Iqtisodiyotdagi inqirozlardan bir ko'rinishi yoki uning bir turi tarkibiy inqirozlardir. Bu inqirozlarni ishlab chiqarishning ayrim sohalari va tarmoqlari rivojlanishida ular o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklar keltirib chiqaradi.

Tarkibiy inqirozlar bilan iqtisodiy tebranishlar va shu jumladan iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlari ham mavjud bo'ladi. Masalan, bayramlar arafasidagi xarid qilish, iste'mol tovarlarining faollik sur'atida, asosan, chakana savdoda sezilarli har yillik tebranishlarga olib keladi. Qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, qurilish ham qandaydir darajada mavsumiy tebranishlarga duchor bo'ladi.

Agrar inqiroz. Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlar agrar inqirozlar deb ataladi. Agrar inqirozlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: 1) qishloq xo'jalik mahsulotlarining nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan juda katta zaxiralarining to'planishi; 2) narxlarning pasayishi, daromadlar va foydalarning kamayishi; 3) o'z xarajatlarini qoplay olmasdan, fermyerlarning ommaviy ravishda xonavayron bo'lishi, ular qarzlarining ortishi; 4) qishloq aholisi o'rtasida ishsizlarning ko'payishi.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, agrar inqirozlar ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Agrar inqirozlar sanoat sikllariga qaraganda odatda ancha uzoq vaqt cho'zilib boradi. Birinchi agrar inqiroz XIX asrning 70-yillarida boshlanib, har xil shakllarda 90-yillar o'rtasigacha davom etgan edi. Birinchi jahon urushidan keyin, aholining xarid qobiliyati juda pasayib ketgan sharoitda, 1920-yil bahorida keskin agrar inqiroz boshlanib ketdi va ikkinchi jahon urushining boshlanishga qadar davom etdi. Uchinchi agrar inqiroz 1948-yildan boshlanib, 80-yillargacha davom etdi. Agrar inqirozlarning cho'zilib kyyetishining asosiy sabablari quyidagilar: a) yerga xususiy mulk monopoliyasi sharoitida, u qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining rivojlanishida sanoatga nisbatan orqada qolishni taqozo etadi; b) yer rentasining mavjud bo'lishi va uning uzluksiz sur'atda o'sib borishi. yer rentasining, avvalo absolyut rentaning ko'payishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qimmatlashtirib yuboradi, buning natijasida uni sotish qiyinlashadi; v) ko'plab mayda dehqon xo'jaliklarining mavjud bo'lishi. Mayda

ishlab chiqaruvchilar xo'jalikni asosan o'zi va oilasi uchun zarur tirikchilik vositalarini topish maqsadida yuritadi. Inqiroz sharoitida ham ular ishlab chiqarishni qisqartira olmaydilar. Tirikchiliklarini o'tkazish va ijara haqini to'lash uchun ishlab chiqarishni ilgarigi miqyoslarda olib boraveradilar. Bu hol qishloq xo'jalik mahsulotlarini nisbiy ortiqcha ishlab chiqarishni yana ham ko'paytirib yuboradi.

Agrar inqirozlar siklli tavsifga ega bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish absolyut tavsifga emas, balki nisbiy tavsifga ega. Chunki inqiroz ro'y bergan mamlakatlarda million-million kishilar doimiy suratda ochlikda yashaydi.

Nomuntazam inqirozlar biron-bir alohida sabablarga ko'ra yuz beradi. Masalan, tabiiy ofat, sel, to'fon, qurg'oqchilik tufayli iqtisodiyot tang ahvolga tushib qolishi mumkin.

Takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi tavsifiga ko'ra inqirozlar ikkiga: ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlariga bo'linadi. Tovarlarni **ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi** turli tovarlarni talabdan ortiqcha ishlab chiqarish, lekin ularni to'la sota olmaslikda namoyon bo'ladi. **Taqchil ishlab chiqarish holatida** ya'ni taklifning talabga nisbatan kam bo'lgani holatida ham muvozanat buzilib, yetishmovchilik natijasida tang ahvol kelib chiqadi. Shunday qilib, iqtisodiyotning tushkunlikka tushishiga faqat ortiqcha ishlab chiqarish emas, balki taqchil ishlab chiqarish ham sabab bo'ladi.

19.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining miqyosi, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari

2008-yilda o'zining ko'lami jihatidan keng va salbiy ta'sir oqibatlari jihatidan ancha jiddiy bo'lgan navbatdagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshlandi. Birinchi Prezidentimiz «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarida mazkur inqirozning mazmun-mohiyati hamda kelib chiqish sabablarini quyidagicha bayon etdilar: «Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobili-

yati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi»[137]. Bundan ko'rinadiki, dastlab AQSH ipoteka bozorlarida namoyon bo'lgan mazkur inqiroz yetarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo'lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro'y berdi.

Modomiki, ipoteka krediti o'zining mohiyati bo'yicha ko'chmas mulk garovi hisobiga beriladigan kreditlar bo'lsada, AQSH bozorlari bunday likvidli ko'chmas mulklarga yetarlicha «to'yindi» va ularning narxlari keskin tusha boshladi. Buning ustiga investitsion banklarning AQSH ipoteka bozorlaridagi yangi moliyaviy «mahsulot» hisoblangan aktivlarni sekyuritizatsiyalash bo'yicha operatsiyalarining avj olishi ipoteka bozorlaridagi tanazzullik holatlari ehtimolligini oshirdi.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining «mevasi» ekanligini, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan ham izohlamoqdalar. Shu o'rinda, jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomaladagi pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq, milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan AQSHda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashu-

[137] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 4-b.

viga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi. Jumladan, o'tgan asrning 70-yillariga qadar amal qilib kelgan jahon valyuta tizimlari pullarning oltin yoki tovar mazmunini ta'minlash orqali iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga zamin yaratdi. Biroq, jahon amaliyotida 1976-yildan boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimiga o'tilgach, pulning oltin mazmuni yo'qolib, asosan, AQSH dollari jahonning yetakchi valyutasiga aylandi, uning muomalaga chiqarilishini nazorat qilib bo'lmay qoldi. Keyingi yillarda globallashuv jarayonining jadallashuvi ta'sirida xalqaro iqtisodiy aloqalarda qat'iy valyutaga bo'lgan talabning yanada kuchayishi AQSH tomonidan hech qanday tovar bilan ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilish jarayonini yanada tezlatib yubordi. Ma'lumotlarga ko'ra, muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to'lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligini ham hisobga olinsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoridan, ya'ni pulga bo'lgan talabdan bir necha o'n baravar ko'payib ketganligini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, asosan yetakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga asosiy sabablaridan hisoblanadi:

– noratsional pul-kredit siyosatini, hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;

– moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;

– qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;

– moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;

– yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarni vujudga kelishi va hokazo.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda surunkali byudjet taqchilligi va salbiy tashqi savdo saldosining kuzatilayotganligi jahon moliyaviy inqirozining vujudga kelishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi (19.2-jadval).

19.2-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlari tashqi savdo saldosidagi o‘zgarishlar, mlrd. AQSH doll.[138]

Mamlakatlar	1996	2007	2010	2012	2013	2014	2015
AQSH	-120,2	-854,7	-633,0	193,8	471,0	786,0	484,1
Yaponiya	65,4	81,0	128,4	168,0	118,0	131,0	137,5
Xitoy	7,2	562,0	199,0	259,8	259,7	382,4	293,2

Jahon iqtisodiyotida kuzatilgan bunday nomutanosiblik holatlari, ya’ni rivojlanayotgan mamlakatlar savdo balansida ijobiy savdo o‘sayotgan sharoitda ayrim rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo balansidagi yirik miqdordagi taqchillikning vujudga kelishi dunyo mamlakatlari valyuta zaxiralarining o‘zgarishiga olib keldi. Xususan, keyingi yillarda Xitoy, Yaponiya, Yaqin Sharq mamlakatlari valyuta zaxiralari keskin o‘sdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi paytlarda xalqaro valyuta zaxiralarining 3,4 trln. dollari, ya’ni jami zaxiralarning qariyb 59% Osiyoning 10 ta yirik mamlakati hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Aksariyat xalqaro ekspertlarning e’tirof etishlaricha 2008-yilda AQSH ipoteka bozorlarida boshlangan inqirozning avj olishi va uni jahon moliyaviy inqirozining kelib chiqishiga faol ta’sirini AQSHning jahon yalpi ichki mahsulotining asosiy iste’mol qiluvchisi hisoblanganligini keltirib o‘tishadi. Ma’lumotlarga qaraganda, AQSHning jahon yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqishdagi hissasi 20 foizni tashkil qilsada, uning iste’molidagi hissasi qariyb 40 foizni tashkil qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQSH davlat tashqi qarzi miqdorining o‘sib borganligi va uni YaIMga nisbatan salmog‘i o‘sganligi ham iqtisodiy inqiroz kuchayishining omillaridan biri bo‘ldi (19.3-jadval).

[138] http://ru.wikipedia.org/wiki.

19.3-jadval

Jahondagi ayrim davlatlar tashqi qarzining YaIMga nisbatan dinamikasi, foizda[139]

Davlatlar	2005	2006	2007	2008	2011	2013	2015
O‘zbekiston	29	22	17	13	18	11	11
Rossiya	34	31	36	37	28	25	25
Qozog‘iston	76	91	92	102	85	68	58
AQSH	80	85	89	90	100	110	98
Ukraina	45	51	60	64	77	96,5	96,5
Qirg‘iziston	81	110	83	81	58	81	54,1

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, keyingi yillar mobaynida xususan, AQSH va ayrim Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari (Qirg‘izistondan tashqari) tashqi qarzlarining yalpi ichki mahsulotlariga nisbatan salmog‘i ortib borgan. Xususan, 2015-yilda AQSH tashqi qarzlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog‘i qariyb 110% ni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich Rossiyada 25%ni, Qozog‘istonda 58%ni, Ukrainada 98%ni tashkil etgan. Qirg‘izistonda esa keyingi yillar mobaynida pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2015-yilda 54,1% ni tashkil qilgan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida teskari tendensiya kuzatilgan. Ya’ni, amalga oshirilgan oqilona iqtisodiy siyosat natijasida tashqi qarzlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i 2005-yildagi 29% dan 2015-yilda 11% ga qadar qisqargan.

Hozirda ko‘plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi iqtisodiy pasayishni, investitsiyaviy faollik ko‘lami cheklanib borishini, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahonning ko‘plab mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo‘lishi mumkinligi e’tirof etilmoqda. Xususan, jahon yalpi ichki mahsulotining pasayishi, bevosita xorijiy investitsiyalar ko‘lamining yanada pasayishining kuzatilishi hamda

[139] http://ru.wikipedia.org/wiki

xalqaro savdo hajmi qariyb 15foizga pasayishi ehtimol qilinmoqda. Bu holat esa ishsizlik darajasining ortishi bilan bog'liq jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin (19.4-jadval).

19.4-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi[140]

Davlatlar	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015
AQSH	4,6	5,8	10,0	10,1	8,5	7,7	7,4	6,2	5,3
Yaponiya	3,8	4,1	5,4	6,2	4,5	4,2	4,0	3,7	3,5
Buyuk Britaniya	5,3	5,5	7,6	9,3	8,4	6,9	7,5	6,3	5,6
Germaniya	8,3	7,4	8,0	10,6	7,1	4,7	5,3	5,0	4,7

AQSH Federal zaxira tizimi tomonidan olib borilgan noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalashtirish stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida banklar tomonidan kredit berish ko'lami keskin o'sdi. Federal zaxira tizimining ekspansion pul-kredit siyosati tijorat banklariga taqdim etadigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini 1,25 foizgacha pasaytirilishida namoyon bo'lgan edi.

Federal zaxira tizimining ipoteka bozorlariga e'tiborsizligi, ipoteka kreditlari berish talablarining haddan ziyod erkinlashtirilishi natijasida bozorda ko'chmas mulklarga talab ortdi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi kuzatildi.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining nomuvofiqligi natijasida banklar tomonidan kreditlash tizimi talablari o'ta yengillashib, bu holat kreditlardan foydalanishda to'lovga layoqatlik darajasining hisobga olinmasligiga imkon yaratdi.

Jahondagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining beqarorligiga, bir tomondan, inqirozga qarshi kurashish choralari bo'yicha davlatlar rahbarlari o'rtasidagi o'zaro yakdillikning yo'qligi, iqtisodiy siyosatda uyg'unlikka erishmaslik zamin yaratsa, boshqa tomondan, yirik iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlarning ichki siyosiy beqarorligi ham bunga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada

[140] http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG.

rivojlangan mamlakatlar YaIMning o‘sish sur’atlari keyingi yillarda ahamiyatli darajada pasayib ketdi (19.2-rasm).



19.2-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o‘sish sur’atlari[141]

Shuningdek, 2008-yil noyabr oyida Vashingtonda, jahon yalpi mahsulotining 85 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokida bo‘lib o‘tgan sammit global moliyaviy inqirozning ko‘lami tobora kengayib borayotganini tasdiqlagani, ushbu sammitda bo‘lib o‘tgan muhokamalar bugun jahon moliyaviy inqirozining oldini olish haqida emas, balki undan qanday qilib chiqish yo‘llari izlanayotganligidan darak berishini ta’kidlab o‘tdilar.

Jahon moliyaviy inqirozi aksariyat rivojlangan mamlakatlar moliya tizimini tubdan isloh qilish zarurligini keltirib chiqardi. Shunga ko‘ra, AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘zlarining bank tizimlarini inqirozdan qutqarish uchun yirik tijorat banklarining aksiyalarini sotib olib, ularni byudjet mablag‘lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta’minlay boshladi.

AQSH hukumati iqtisodiyotga yirik masshtabdagi davlat aralashuvi siyosatini yurita boshladi. AQSHning sobiq moliya vazirining tashabbusi bilan Kongress «Polson rejasi» deb nomlanuvchi rejani qabul qildi. Mazkur rejaning umumiy hajmi 700 mlrd. dollarni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari inqirozdan chiqish bo‘yicha tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanishga

[141] http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG.

kelishib olishdi. Bu holatda kafolatlar banklararo kreditlar bo'yicha 5 yil muddatga taqdim etiladi va hukumat banklarning imtiyozli aksiyalarini sotib olish orqali ularni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Masalan, AQSHda Federal zaxira tizimi qimmatli qog'ozlarni sotib olish, xususiy sektorni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish amaliyotiga o'tish orqali likvidlilikni taminlashning yangi usuliga o'tdi.

Buyuk Britaniya hukumati banklar va moliyaviy muassasalar aksiyalariga 37 mlrd. funt sterling mablag'larini investitsiya qilishini e'lon qildi. Germaniya hukumati esa, bank tizimini qo'llab-quvvatlash uchun kapital va kreditlar bo'yicha kafolatlar shaklida 500 mlrd. evro ajratishini e'lon qildi. Avstraliya hukumati esa barcha omonatchilar pul jamg'armalarini 3 yilga kafolatlashini e'lon qildi va ipoteka qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun 2,6 mlrd. dollar mablag' ajratdi (19.5-jadval). Yevropaning yirik banklari milliylashtirildi, ya'ni davlat tomonidan sotib olindi.

19.5-jadval

Jahon mamlakatlarining inqirozga qarshi kurashga sarflangan moliyaviy xarajatlari[142]

Mamlakat	Moliyaviy xarajatlar, mlrd. dollar	Mamlakat YaIMga nisbatan % hisobida, 2008-yil
Rossiya	**222**	**13,9**
Buyuk Britaniya	**1020**	**37,0**
AQSH	**3539**	**25,0**
Germaniya	**893**	**23,0**
Yaponiya	**576**	**12,0**
Xitoy	**570**	**13,0**
Dunyo bo'yicha	**9400**	**15,0**

Inqirozdan qutqarish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlardan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar tartibga solinmaydigan er-

[142] http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG.

kin bozor haqidagi ideologik dogmani orqaga tashlab, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalana boshladilar.

Tijorat banklarini «milliylashtirish»ni nazarda tutuvchi davlat byudjetidan ajratilgan mazkur investitsiya resurslari ma'lum bir davrga o'zining ijobiy natijasini berishi mumkin.

Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari tomonidan inqirozga qarshi kurash bo'yicha yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajratilmoqda. Ularning hajmi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i inqirozning ta'sir ko'lami va har qaysi mamlakatlarning inqirozga qarshi kurash bo'yicha ishlab chiqqan rejalari hajmiga asoslanadi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, dunyo bo'yicha jami sarflangan mablag'larning hajmi 9400 mlrd. dollarni tashkil qilgan. AQSH hukumati sarflagan mablag'larining hajmi 3539 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo'lib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 1020 mlrd. dollarni (mamlakat yalpi ichki mahsulotining 37%), Germaniyada 893 mlrd. dollarni (23%) tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, hozirgi sharoitda inqirozdan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya davlatlari nisbatan ko'proq aziyat chekmoqda.

19.5. Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri borasida birinchi Prezidentimiz o'z asarlarida quyidagicha ta'kidlaydilar: «...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqti-

sodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganligida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu bois global moliyaviy inqiroz va birinchi navbatda uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta'sir etayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi»[143].

Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, moliyaviy inqirozning respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davlatlardagiga qaraganda mazmunan farq qiladi. Agar boshqa mamlakatlarda bu jarayonlar bevosita moliya tizimining izdan chiqishi va ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarning yopilishi orqali namoyon bo'lsa, O'zbekistonda inqirozning iqtisodiyotga ta'siri jahon xomashyo bozorlarida eksport mahsulotlariga talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi hamda buning oqibatida eksport daromadlarining sezilarli kamayishi, asosiy savdo hamkorlar xarid qobiliyatining pasayishi natijasida tashqi savdo aylanmasining qisqarishi orqali namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ko'plab yetakchi olim va mutaxassislarimiz tomonidan iqtisodiyotimizda moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirini pasaytiradigan omillar mavjudligi ta'kidlanmoqda. Ba'zi mutaxassislarning fikricha, «hozirgi inqiroz ehtimol tutilayotgan salbiy ta'sirlardan tashqari biz uchun ijobiy ta'sirlarga ham ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarni vujudga keltirishi mumkin. AQSH va Yevropadagi investorlar aksiyalardan bosh tortib, o'z aktivlarini bo'shatmoqdalar. Mohiyatiga ko'ra, qaytadan qandaydir ishga jalb etilishi zarur bo'lgan resurslarni bo'shatish jarayoni bormoqda. Demak, yangi bozorlarni, yangi imkoniyatlarni izlash boshlanadi. Investorlar kapital kiritishning muqobil yo'llarini qidiradilar. G'arb bozorlari turg'unlikka yuz tutgan chog'da rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlari o'sishning ijobiy dinamikasini ko'rsatadi. Shunday mulohazalardan kelib chiqqan holda, ko'plab investorlar O'zbekiston

[143] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 11-b.

bozoriga e'tibor qaratishlari ehtimoldan xoli emas»[144]. Shuningdek, jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmaganligini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

– ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lining tanlanganligi;

– davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligining aniq belgilab olinganligi;

– O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar Yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;

– oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;

– aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;

– davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekani, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchliligi bilan izohlanadi.

Davlat qarzi darajasining pastligi, ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 11 foizdan oshmagani ham mamlakatimizda erishilgan ijobiy natijalar va makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Respublikamizda doimo qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatlarga, imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etildi. Natijada milliy iqtisodiyotimizning xalqaro kreditlar bozoridagi kon'yunkturaga keskin bog'liqligini va moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarining oldi olindi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda tashqi dunyo bilan ikki tomonlama o'zaro manfaatli aloqalarimiz rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirishimizda xorijiy mamlakatlarning ilg'or

[144] Хаитбаев Д. Кризис может иметь свои плюсы // http://www.review.uz/page/article/v_uzbekistane/2356.

texnologiyalariga asoslangan investitsiyalariga ehtiyoj mavjud. Qolaversa, jahon bozoridagi talabning pasayib borishi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarimizning eksport ko'lamiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunga asoslangan holda, hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan inqirozga qarshi choralar dasturida ichki talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tabdirlar majmui o'z aksini topdi.

Xulosalar

1. Iqtisodiy sikl deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin-ketin bir necha fazalarni bosib o'tib, o'zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o'tgan davr tushuniladi. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi harakati bir sikl bilan to'xtab qolmaydi, balki u to'xtovsiz to'lqinsimon harakat sifatida davom etadi.

2. Iqtisodiy sikl maxsus fazalar orqali amalga oshadi. Har bir faza iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan pallani ifodalab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Odatda iqtisodiy siklning inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish fazalari ajratib ko'rsatiladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jaryonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi.

3. Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani eksternal nazariya deb atash qabul qilingan.

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi, ya'ni: urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar; oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi; yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog'liq ravishda aholi migratsiyasi, yer shari aholisi sonining o'zgarib turishi; ijtimoy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar.

4. Internal nazariya iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillari tug'diradi deb hisoblaydi va quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi: asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati; shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi); investitsiya-

lar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi; ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarishi.

5. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishi sabablarini izohlashda shuningdek sof monetar nazariya, nomonetar nazariya, yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi, jamg'arish nazariyasi, psixologik nazariya kabilar ham ilgari suriladi.

6. Hozirgi zamon iqtisodiy fanida iqtisodiy siklning 1380 dan ortiq turlari mavjudligi ta'kidlanadi. Ularning ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan eng asosiy turlari sifatida Kitchin, Juglar, Kuznets, Kondratev sikllarini keltirish mumkin.

7. Iqtisodiy inqiroz deb asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning keskin tushib ketishiga aytiladi.

8. 2008-yilda dastlab AQSH ipoteka bozorlarida boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yetarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo'lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida namoyon bo'ldi. Aslida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining asosiy sabablari bo'lib rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosati, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvining cheklanganligi; moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi; noratsional pul-kredit siyosatining, hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi; moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi; qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi va boshqalar hisoblanadi.

9. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davlatlardagiga qaraganda mazmunan farq qiladi. Agar boshqa mamlakatlarda bu jarayonlar bevosita moliya tizimining izdan chiqishi va ishlab chiqarish

hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarning yopilishi orqali namoyon bo'lsa, O'zbekistonda inqirozning iqtisodiyotga ta'siri jahon xomashyo bozorlarida eksport mahsulotlariga talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi hamda buning oqibatida eksport daromadlarining sezilarli kamayishi, asosiy savdo hamkorlar xarid qobiliyatining pasayishi natijasida tashqi savdo aylanmasining qisqarishi orqali namoyon bo'ladi.

10. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmaganligi quyidagi yumshatuvchi omillarning mavjudligi bilan izohlanadi: ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lining tanlanganligi; davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligining aniq belgilab olinganligi; O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar Yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi; oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi; aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi; davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekanligi, ularning himoya mexanizmlarining kuchliligi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy inqiroz – asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning keskin tushib ketishi.

Iqtisodiy sikl – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'lqinsimon harakati.

Turg'unlik (depressiya) – ishlab chiqarishning bir joyda depsinib turishini anglatuvchihamda iqtisodiy faollik jonlanishi uchun shart-sharoitlarning vujudga kelishiga imkon yaratiluvchi iqtisodiy sikl fazasi.

Jonlanish – iqtisodiy siklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o'tishini tavsiflovchi fazasi.

Yuksalish – iqtisodiy siklning iqtisodiyotda to'liq bandlikka erishilishi, ishlab chiqarishning inqirozdan oldingi darajadan ham ortib ketishi va to'lovga layoqatli talabning kengayib borishini tavsiflovchi fazasi.

Tarkibiy inqirozlar – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalari rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.

Agrar inqirozlar – qishloq xo'jaligida ro'y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo'lib, siklli tavsifga ega bo'lmaydi va sanoat sikllariga qaraganda ancha uzoq davr davom etadi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishishning qanday yo'llari mavjud?
2. Iqtisodiy sikl bo'yicha qanday nazariyalar mavjud? Eksternal va internal nazariyalarning farqi nimada?
3. Iqtisodiy siklning ta'rifini bering va uning har bir fazasining o'ziga xos belgilarini ko'rsating.
4. Iqtisodiy sikllarning asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini ko'rsating.
5. Iqtisodiy siklning oqibatlarini baholang.
6. Iqtisodiy inqirozlar mazmun-mohiyati nimada ifodalanadi?
7. Iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish sabablarini tushuntiring?
8. Inqirozlarning umumiy jihatlariga ko'ra qanday guruhlarga ajratish mumkin?
9. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring. Siklli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini ko'rsating.
10. Agrar inqirozlarning xususiyatlarini bayon qiling.
11. 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi vujudga kelishining asosiy sabablarini tushuntirib bering.
12. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmuni va ko'lamlari to'g'risida jahonning yetakchi ekspert va tahlil markazlari tomonidan qanday xulosalar chiqarildi?
13. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining rivojlangan mamlakatlarga ta'sir yo'nalishlari va darajasini tavsiflang.
14. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri nimalarda namoyon bo'ldi? Uning ta'sir oqibatlarini yumshatuvchi omillarni izohlab bering.

20-BOB. ISHCHI KUCHI, UNING BANDLIGI VA ISHSIZLIK

Iqtisodiyotning barcha sohalarida, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma fazalarida ishchi kuchi eng faol omil hisoblanadi. Chunki boshqa hamma omillar ishchi kuchi yordamida harakatga keltiriladi, ularning qiymatlari saqlab qolinib, yangi mahsulotga o'tkaziladi, yangi mahsulot yangi qiymat shu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishchi kuchi tomonidan yaratiladi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishchi kuchining mazmuni, tarkibi, ishchi kuchi bozorini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ushbu bob ishlab chiqarishning shaxsiy omili va jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan ishchi kuchini takror hosil qilish hamda uning xususiyatlari bilan bog'liq muammolar bayon qilish bilan boshlanadi. Ishchi kuchi bozori va ishsizlik muammolari batafsil qarab chiqiladi. Shuningdek, ishsizlikning turlari va uning darajasini aniqlash usullari, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash kabi masalalarga ham e'tibor qaratiladi.

20.1. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va uning xususiyatlari

Yakka ya'ni alohida olingan korxonalarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish jarayoni birlashib ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etadi. Chunki, unda ishtirok etayotgan barcha ishlab chiqarish omillari – mehnat predmetlari, mehnat qurollari, ishchi kuchi hamda ishlab chiqarishning boshqa sharoitlari o'z tavsifiga ko'ra ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir tomondan, ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan stanok – bu o'tgan davrlar davomida yig'ilib kelayotgan ko'plab insonlar buyumlashgan mehnati hamda uni yaratishda bevosita ishtirok etgan ko'plab kishilar jonli mehnatining natijasidir. Boshqa tomondan esa, ushbu stanok vositasida yaratilayotgan mahsulot ham aniq bir kishining emas, balki bir-birlari bilan ishlab chiqarish

aloqalari orqali bog'langan kishilar guruhi mehnatining natijasidir. Shuningdek, mazkur mahsulotning bozor sharoitida hali noma'lum bo'lgan iste'molchi uchun ishlab chiqarilishining o'zi ham mazkur jarayonning ijtimoiy tavsifini namoyon etadi. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi, ixtisoslashuv, fan-texnika taraqqiyotining kuchayishi kabi jihatlar ishlab chiqarishning ijtimoiy tavsifini kuchaytiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish sharoitida uning omillariga ham xuddi shunday nuqtai nazardan yondashish zarurati paydo bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayoni bir marta amalga oshirish bilan to'xtab qolmaydi, balki u to'xtovsiz takrorlanib turadi. Bunda hamma ishlab chiqarish omillari shu jumladan ishchi kuchi ham takror ishlab chiqariladi.

Ishchi kuchi – bu insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayonida faqatgina ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omillarigina emas, balki shaxsiy omili, ya'ni ishchi kuchi ham takror ishlab chiqariladi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish yoki uni takror ishlab chiqarish deganda eng avvalo ishchining mehnat qobiliyatini qayta tiklashi, ya'ni uning ovqatlanishi, kiyinishi, dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi tushuniladi. Bu esa ishchi uchun oila, uy-joy va boshqa shart-sharoitlar yaratilishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari ishchi va xizmatchilarning hozirgi avlodi ma'lum vaqt o'tishi bilan qariydi. Ularning o'rinlarini bosadigan o'rinbosarlar ham tayyorlanishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ishchining oilasi, farzandlari bo'lishi lozim, ularning o'sib-ulg'ayishi, o'qishi, zamon talabiga javob beradigan ishchi kuchi sifatida kamol topishi uchun ham shart-sharoit bo'lishi zarur.

Ishchi kuchini takror hosil qilish jarayonini tadqiq etish uning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratishni taqozo etadi. **Ishchi kuchi-ning miqdori mamlakat aholisining mehnatga layoqatli bo'lgan qismi orqali ifodalanib, u ishchi kuchi resurslari deb ham ataladi.** Insonning ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishining asosiy mezoni uning yoshi va mehnatga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi. Odatda ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan to pensiyagacha (60 yosh-

gacha bo'lgan erkaklar, 55 yoshgacha bo'lgan ayollar) bo'lganlar kiritiladi. Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa sohalarda band bo'lgan pensionyerlar ham ishlashi mumkin.

Ishchi kuchining sifati uning tarkibining zamon talablari jihatidan ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiqligi darajasini namoyon etadi. Ishchi kuchining sifati uning ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, malaka, ish tajribasi darajalari kabi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Fan-texnika taraqqiyotining jadallashib borishi bilan ishchi kuchining sifatiga bo'lgan talab ham ortib boradi.

Hozirgi davrda ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismi farqlanadi. **Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan va ishlashga tayyor bo'lib, ish izlab turgan shaxslar ishchi kuchi resurslarining faol qismi hisoblansa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va vaqtinchalik uy xo'jaligida, boshqa har xil ishlarda band bo'lganlar potensial qismi hisoblanadi.**

Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklab va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash demakdir. Ishchi kuchini takror yaratish xodimlarni ishlab chiqarishga jalb etishni, tarmoqlar, korxonalar, mintaqalar o'rtasida ishchi kuchi resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlashni, ularning xodimlarga bo'lgan ehtiyojlari qondirilishini va ayni paytda mavjud ishchi kuchining ish bilan to'la va samarali band bo'lishini ta'minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish ba'zan ilmiy adabiyotda «aholi nufusini takror ishlab chiqarish» tushunchasi bilan bog'liq holda ham ishlatiladi. Maltus tomonidan «Nufus» atamasi asosan aholining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tavsiflarini bayon etishda qo'llanilib, bunda nufus qonuni ahamiyatli o'rin tutadi.

Nufus qonuni – aholining o'sib borishi qonunidir. Nufus qonuni aholining tabiiy harakati, ya'ni o'lim darajasining pasayishi, hayot kechirish davomiyligining uzayishi, tug'ilishning optimal darajaga yetishi, jamiyat va alohida oilalar manfaatlari o'zaro uyg'unligining ta'minlanishi orqali namoyon bo'ladi.

Bunga ko'ra, agar insonlar har 25-yilda ikki marta ko'payib, geometrik progressiya asosida ortib borsa (1, 2, 4, 8, 16, 32, 64, 128, 256 va hokazo), tirikchilik vositalari eng qulay sharoitlarda ham arifmetik progressiya asosidagina ko'payishi mumkin (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 va hokazo).

Ishchi kuchini takror hosil qilish nisbatan mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy muammo bo'lib, bu muammoning ayrim tomonlari aholining tabiiy harakatlari shaklida namoyon bo'ladi. Shu sababli ishchi kuchini takror hosil qilishning asosi aholining tabiiy o'sishi yoki harakati hisoblanadi.

Aholining tabiiy o'sishi – bu tabiiy o'sish koeffitsienti bilan belgilanadi:

– tug'ilish koeffitsienti (yil davomida tirik tug'ilgan chaqaloqlarning mavjud aholi o'rtacha yillik soniga nisbati);

– o'lish koeffitsienti (yil davomida o'lganlarning mavjud aholi o'rtacha yillik soniga nisbati);

– tabiiy o'sish koeffitsienti (tug'ilish va o'lish umumiy koeffitsientlari o'rtasidagi farq). Odatda bu koeffitsientlar mamlakatdagi o'rtacha aholi soniga to'g'ri keluvchi miqdor sifatida baholanadi.

Mamlakatimizdagi doimiy aholi soni 2015-yil holatiga 31,5 mln. kishini tashkil etib, u oldingi yilga nisbatan 0,5 mln. kishiga yoki 1,5 foizga o'sgan. Aholining tabiiy o'sishi 582,1 ming kishini tashkil etadi. O'zbekistonda aholining tabiiy harakati quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (20.1-jadval).

Ishchi kuchi resurslarining soni va sifati mamlakat aholisi soni, jinsi va yoshi jihatidan tarkibi bilan belgilanadi. Bular esa o'z navbatida aholining tabiiy o'sishiga bog'liq bo'ladi.

Respublikada 2007-yilda iqtisodiyotda band bo'lganlar soni 10735,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib bu ko'rsatkich 13058,3 ming kishini (121,6 foiz o'sish) tashkil qildi (20.2-jadval).

Aholining tabiiy o'sishi, uni takror ishlab chiqarish xususiyati ko'pgina holatlar bilan mamlakatning industrial taraqqiyoti va urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniyat va maishiy turmush an'analari, aniq tarixiy omillar bilan belgilanadi. Ular jum-

lasiga demografiya omilini hisobga olgan holda uy-joy sharoitlarini yaxshilash, bolalarga nafaqalar berish, ularni bolalar muassasalari bilan ta'minlash, homiladorlik va bola tug'ilgandan keyingi ta'tillarni uzaytirish, oilani mustahkamlash, shuningdek, jamoada ma'naviy muhitni yaxshilash kiradi.

20.1-jadval

Respublikada aholining tabiiy o'sishi

Yillar	Ko'rsatkichlar		
	Tug'ilish	O'lish	Tabiiy o'sish
2007	603,7	140,1	463,6
2008	608,9	137,4	471,5
2009	646,1	138,8	507,3
2010	651,3	133,6	517,7
2011	669,6	138,4	531,2
2012	625,1	146,0	479,1
2013	679,5	145,7	533,8
2014	718,0	149,8	568,2
2015	734,1	152,0	582,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Mamlakatdagi yoki ayrim hududlardagi ishchi kuchi resurslari miqdoriga aholining tabiiy o'sishidan tashqari ishchi kuchi migratsiyasi ham ta'sir qiladi. **Ishchi kuchi migratsiyasi murakkab jarayon bo'lib, turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishini bildiradi.** Migratsiya ikki darajada, ya'ni xalqaro darajada va mamlakat ichida ro'y berishi mumkin. Davlatlar o'rtasida ro'y bergan migratsiya **tashqi migratsiya** deyiladi. Bir mamlakat ichida ro'y bergan migratsiya **ichki migratsiya** deb atalib, u quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

1) tugal migratsiya – aholining doimiy yashash joyini o‘zgartirishi bilan bog‘liq migratsiya;

2) tebranuvchi migratsiya – ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qatnab ishlashi bilan bog‘liq migratsiya;

3) mavsumiy migratsiya – mavsumiy ish faoliyati bilan bog‘liq migratsiya;

4) tasodifiy migratsiya – ishchi kuchining ba’zi hollarda boshqa hududlarga borib kelishi bilan bog‘liq migratsiya.

20.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ishchi kuchi resurslarining ish bilan bandligi holati (ming kishi hisobida)[145]

Yil	Aholi soni, mln. kishi	Iqtisodiy faol ishchi kuchi soni	Iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni	Ishsizlar soni
2007	27,1	11299,2	10735,4	563,8
2008	27,6	11603,1	11035,4	567,7
2009	28,0	11929,2	11327,7	601,5
2010	28,5	12286,6	11628,4	658,2
2011	29,1	12541,5	11919,1	622,4
2012	29,5	12844,1	12223,8	620,3
2013	30,5	13163,0	12523,3	639,7
2014	31,0	13606,3	12818,4	653,8
2015	31,5	13767,7	13058,3	709,4
2015-yilda 2007-yilga nisbatan, %	116,2	121,8	121,6	125,8

Mamlakatimizdagi migratsiya saldosi 2012-yilda -41,0 ming kishini tashkil etgan, ya’ni immigratsiya miqdori emigratsiyaga nisbatan

[145] Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

yuqoriroq bo'lgan. Ishchi kuchi migratsiyasi shunchaki ro'y bermay, uning negizida ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy sabablar yotadi. Ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy vazifasi sifatida mamlakat bo'ylab ishchi kuchi resurslari samarali taqsimlanishini ta'minlash, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbatini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu vazifaning amalga oshishi natijasida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi oshadi.

Ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy vazifasi aholi turmush darajasini oshirish, inson omilining ijtimoiy hayotdagi roli va mavqeini yanada yuksaltirishdan iborat.

Ishchi kuchini takror hosil qilish uning to'la va samarali ish bilan band bo'lish muammosini ham o'z ichiga oladi. Ish bilan to'la band bo'lishni mutlaq ma'noda tushunmaslik kerak. Birinchidan, ishsizlikning ma'lum darajasi iqtisodiyot uchun me'yordagi hol hisoblanadi. Ikkinchidan, ish bilan to'la band bo'lish mehnatga layoqatli barcha kishilar albatta umumlashgan (davlat va jamoa korxonalarida) ishlab chiqarishga jalb etilishi zarurligini anglatmaydi. Ularning bir qismi o'zini oilada xizmat ko'rsatishga, bolalar tarbiyasiga, shuningdek, xususiy korxonalar va shaxsiy yordamchi xo'jalikda mehnat qilishga, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga bag'ishlashi mumkin. Uchinchidan, ish bilan to'la band bo'lish uning samaradorligi bilan, ishchi kuchi resurslaridan g'oyat oqilona foydalanish bilan qo'shib olib borilishi kerak.

20.2. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va uning taklifi nisbati

Bozor munosabatlari sharoitida ishchi kuchini takror hosil qilishda ishchi kuchi bozori muhim o'rin tutadi.

Ishchi kuchi bozori – bu xo'jalik faoliyati jarayonida ishchi kuchi tovari egalari va uning asosiy iste'molchilari – davlat korxonalari, tashkilotlari va turli xil tadbirkorlar o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatlaridir. U mehnat sharoitlari va unga haq to'lash miqdorlari, ishchilarning malaka darajasi, ular tomonidan bajarilayotgan ishlarning hajmi, intensivligi va mas'uliyat darajasi bo'yicha tarkib topuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimini namoyon etadi.

Har qanday bozor singari ishchi kuchi bozorida ham ikki qarama-qarshi tomon – talab va taklifning o'zaro ta'siri amal qiladi. **Ishchi kuchi talabi – bu muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.** Odatda ish beruvchilar bo'lib davlat, jamoa va xususiy mulkka asoslangan korxona va tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkor va boshqalar hisoblanishi mumkin.

Keyns nazariyasiga ko'ra, bandlik multiplikatori jami talabga, iste'molga moyillik va investitsiya hajmiga bog'liq bo'ladi, ya'ni ishchi kuchiga bo'lgan talab ishlab chiqarish hajmi bilan belgilanadi.[146] Demak, Keynsning fikriga ko'ra, ishsizlik ishchi kuchi talabining yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Keyns ham klassiklar ilgari surgan ish haqining pasayishi bandlikning o'sishiga olib kelishi haqidagi fikrlarni inkor qilmaydi. Biroq, ish haqini pasaytirishga bandlikni o'stirishning yagona vositasi sifatida qaramaslik kerak, deb ko'rsatadi. Chunki, ish haqi faqat korxonalar xarajatlarini emas, balki iste'molchilar daromadlarini ham ifodalaydi.

Ishchi kuchiga talab – bu ish haqining muayyan darajasi hamda ishga yollashning muayyan shartlarida iqtisodiyot sohalari va korxonalardagi mavjud ish joylarida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning puldagi ifodasidir[147]. Muallifning fikricha, ishchi kuchiga belgilangan darajada ish haqi to'lab ishga yollashga qodir bo'lgan ehtiyojdir. Bu o'rinda ishchi kuchiga umumiy talab va qo'shimcha talabni farq-lash juda katta nazariy-uslubiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ishchi kuchiga umumiy talab milliy iqtisodiyot va xorijiy mamlakatlar tomonidan mavjud va yangidan Yaratilgan barcha (ishchi kuchi bilan band bo'lgan va band bo'lmagan) ish o'rinlarida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni namoyon etadi.

Ishchi kuchi taklifi – bu muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori. Ishchi kuchi taklifi mehnat qilish

[146] Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Гелиос, 2002, с.162.

[147] Mamaraximov B. E. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni muvozanatlashtirishning asosiy yo'nalishlari. I.f.n. ... dis. avtoreferati. – Toshkent, 2012. 10 bet.

yoshidagi turli kasb va mutaxassislikka ega bo'lgan kishilarning ishlashga bo'lgan layoqatini namoyon etadi.

Ishchi kuchi taklifi – bu ish haqining muayyan darajasi hamda ishga yollashning muayyan shart-sharoitlarida mehnatga layoqatli ishchi kuchining o'z kasbi, mahorati va boshqa xususiyatlariga mos ravishda ishlashga ehtiyojidir[148]. U ishchi kuchining demografik va kasb tayyorgarligi xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida uni sotish (ayirboshlash) holati orqali namoyon bo'ladi.

Ishchi kuchi bozorida taklif mehnatga qobiliyatli kishilarning quyidagi muayyan guruhlaridan iborat bo'ladi:

– ishlamayotgan, lekin ish topishni istaydigan va faol ravishda ish qidirayotganlar;

– ish bilan band, biroq undan to'la ravishda qoniqmay, boshqa ish qidirayotganlar;

– ishlayotgan, lekin tez orada ishidan mahrum bo'lib qolishi mumkinligi sababli boshqa ish joyi qidirayotganlar.

Ishchi kuchi bozorini tavsiflashdan oldin uning asosiy va o'ziga xos tovari bo'lgan ishchi kuchining qiymati va iste'mol qiymati (nafliligi) to'g'risida to'xtalib o'tish zarur.

Ishchi kuchining qiymati nafaqat ishchining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, balki ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hamda uning sifatini oshirish jarayonlarini, uning oilasini yetarli darajada ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha hayotiy ne'matlarning qiymatini o'z ichiga oladi. Ishchi kuchi qiymati o'zgaruvchan ko'rsatkich bo'lib, u turli omillar ta'sirida oshib yoki pasayib turishi mumkin. Ishchi kuchi qiymatini oshiruvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ish kunining uzaytirilishi, mehnat intensivligining oshishi; turli xil tabiiy va tarixiy sharoitlar, fan-texnikaning rivojlanishi, o'qish va kasbiy bilimlar olishga sarflarning ko'payishi va h.k. Ishchi kuchi qiymatini pasaytiruvchi asosiy omil bo'lib ishlab chiqarish sohasidagi ijtimoiy mehnat un-

[148] Mamaraximov B. E. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni muvozanatlashtirishning asosiy yo'nalishlari. I.f.n. ... dis. avtoreferati. – Toshkent, 2012. 11 bet.

umdorligining o'sishi hisoblanadi. U ishchi va uning oilasi ehtiyojlarini qondiruvchi hayotiy vositalar qiymatining pasayishiga olib keladi.

Ishchi kuchi tovarining nafliligi uning mehnat qilish jarayonida o'z qiymatidan ortiqcha, ya'ni qo'shimcha mahsulot qiymatini yaratib, **kapital egasining foyda olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish layoqati orqali namoyon bo'ladi.**

Ishchi kuchi bozori tovar va kapitallar bozori bilan birgalikda bozor xo'jaligining iqtisodiy tizimini tashkil etadi. Umumiqtisodiy bozor mexanizmining tarkibiy qismi hisoblangan ishchi kuchi bozori talab va taklif qonuniga muvofiq iqtisodiyot tarmoq va sohalari bo'yicha ishchi kuchi resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Bunda ishchi kuchi bozori subyektlarining sifat jihatidan farq qiluvchi manfaatlarini o'zaro uyg'unlashtirish va bog'lashni qiymat tamoyillari asosida shakllantiriladi. Shunga ko'ra, ishchi kuchi bozori o'zining maxsus tovari – ishchi kuchi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos o'rin tutadi. Ishchi kuchining bu bozordagi harakati esa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'ladi. **Birinchidan,** ishchi kuchi bozori ikki mustaqil subyekt – kapital egasi va ishchi kuchi egasi manfaatlarining to'qnashib, o'zaro kelishadigan munosabatlari hisoblanadi. Ularni bozorga o'zaro qarama-qarshi istak va maqsadlar yetaklaydi, ya'ni ularning biri ishchi kuchini sotib, daromad olishni istasa, boshqa biri uni xarid qilib, ishlatib foyda ko'rishni istaydi. Ular o'rtasidagi savdo bitimi ishchi kuchi egasining o'zi bo'yicha emas, balki uning mehnat qilish layoqati, undan foydalanish shartlari va davomiyligi bo'yicha boradi. Bitim natijasi bo'lib kapital egasi tomonidan sotib olingan ishchi kuchi evaziga to'lanadigan ish haqi miqdori hisoblanadi. **Ikkinchidan,** boshqa har qanday tovar bozorlarida bo'lgani singari, ishchi kuchi bozorida ham ishchilar o'rtasida bo'sh ishchi o'rnini egallash borasida raqobat kurashi vujudga keladi. **Uchinchidan,** ishchi kuchi bozori ishchi kuchi yalpi taklifining unga bo'lgan yalpi talabdan doimiy ravishda ko'proq bo'lishi tendensiyasi bilan tavsiflanadi. Bu esa bozorda ishchilar band bo'lmagan qismi (ishsizlar)ning paydo bo'lishiga olib keladi. **To'rtinchidan,** bozor iqtisodiyotining siklli rivojlanishi odatda inflyatsiya va ishsizlik bilan

birga boradi. Bu ikkala jarayon o'rtasida ma'lum o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, u pirovardida ishchilar ommasi hayot darajasining ahamiyatli darajada pasayib ketishi (narxlarning oshishi, ish haqining qisqarishi, to'lovga qodir talabning pasayishi va h.k.) orqali namoyon bo'ladi. Muayyan iqtisodiy sharoitlarda ishchi kuchi bozoridagi umumiy holat inflyatsiyaning o'sishi uchun asosiy sabab bo'lishi ham yoki aksincha, uning o'sishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Mamlakatdagi ishsizlik darajasi qanchalik past bo'lsa, inflyatsiya ta'sirida narxlarning o'sish sur'atlari shunchalik yuqori bo'ladi. Ingliz iqtisodchisi A. Fillips ishsizlik va inflyatsiyaning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berdi va bu bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq **Fillips egri chizig'i** deb nom oldi (20.1-rasm).



20.1-rasm. Fillips egri chizig'i

Fillips egri chizig'iga ko'ra, inflyatsiya darajasini 1 foizga pasaytirish uchun ishsizlikni 2 foizga o'stirish lozim bo'ladi. Ishsizlik va inflyatsiya darajasidagi nisbatni tartibga solishda davlatning iqtisodiy siyosati asosiy rol o'ynaydi. Davlat ish bilan bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi va ish haqi darajasi o'rtasidagi oqilona nisbatni ta'minlash orqali nafaqat ishsizlik va inflyatsiya darajasini nazorat qilishi, balki ularning iqtisodiyot rivojlanishi va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirining oldini olishi ham lozim. Shunday qilib, ishchi kuchi bozori bozor xo'jaligi tizimida yetakchi o'rin tutib, uni yuqori darajada tashkil etmasdan turib iqtisodiyotning samarali amal qilishiga erishib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti tizimida ishchi kuchi bozorining roli u bajaradigan ikkita vazifa orqali belgilanadi. Birinchi vazifasi bevosita mehnat jarayonida ishchining ishlab chiqarish vositalari bilan birikti-

rish mexa-nizmi hamda band bo'lmagan ishchi kuchining harakatini samarali tartibga solish bilan bog'liq. Ikkinchi vazifasi esa yalpi ishchi kuchi-ning sifatini yanada takomillashtirgan holda takror ishlab chiqarish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini oshirish va aholini ijtimoiy himoyalash borasida davlat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida yildan-yilga ish bilan ta'minlanish darajasi o'sib bormoqda (20.2-jadval).

20.2-jadval

O'zbekistonda ish bilan ta'minlashning asosiy ko'rsatkichlari[149]

Yillar	Ish qidiruvchi sifatida ro'yxatdan o'tganlar, ming kishi	Ish bilan ta'minlanganlar, ming kishi	Ish bilan ta'minlanganlarning solishtirma salmog'i, %	Hisobot davri oxiriga rasmiy tarzda ro'yxatga olingan ishsizlar soni, ming kishi
2004	425,0	323,7	76,2	34,9
2005	410,3	325,1	79,2	27,7
2006	391,5	320,7	81,9	29,1
2007	557,4	486,5	87,3	27,4
2008	623,3	546,6	87,7	22,9
2009	658,2	566,3	86,0	20,1
2010	671,6	595,6	88,7	16,2
2011	661,4	595,7	90,1	12,9
2012	653,0	590,5	90,4	6,0
...				
2015	324,0	241,4	74,5	3,0

Jadvaldan ko'rinadiki, agar ish bilan ta'minlanganlarning solishtirma salmog'i 2004-yilda 76,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilga qadar ularni ish bilan ta'minlash salmog'i oshib bordi. Ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar tomonidan olib borilgan say harakatlar va mehnat yarmarkalarining o'tkazilishi natijasida ish bilan

[149] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

ta'minlanish kuchayib bordi. Shu sababli keyingi vaqtlarda bandlikka ko'maklashish markazlariga murojaat qiluvchilar va ularning bandlikni ta'minlash borasidagi ulushining pasayishi ko'zda tutildi. 2015-yilga kelib 74,5 foizgacha pasayib ketdi.

20.3. Ishchi kuchi bandligi to'g'risidagi turli konsepsiyalar sharhi

Ishchi kuchining bandligi to'g'risidagi nazariyalar muammoga nisbatan yondashuv, qo'llanilgan tadqiqot usullari va vositalari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Darslik va o'quv qo'llanmalarda ishchi kuchi bandligi bo'yicha neoklassiklar, keynschilar, monetarizm, institutsional-sotsiologik va boshqa ilmiy maktab vakillarining qarashlari bayon etiladi[150].

Neoklassik maktab konsepsiyasi A. Smitning klassik nazariyasi qoidalari asosida shakllantirilib, D. Gilder, A. Laffer, M. Feldstayn, R. Xoll kabi bir qator olimlarning fikr-mulohazalari orqali namoyon bo'ladi. Bu maktab namoyandalari ishchi kuchi bozorini maxsus qonunlarga bo'ysunuvchi aloqalar tizimi sifatida ko'rib chiqib, ular bozor mexanizmi orqali boshqarilishini ta'kidlaydilar. Ish haqi darajasi ishchi kuchining narxi sifatida ko'rsatiladi. U ishchi kuchi talab va taklifiga ta'sir ko'rsatib, ular o'rtasidagi nisbat va zarur muvozanatni ta'minlaydi. Ishchi kuchining narxi bozor kon'yunkturasiga tezlik bilan javob qaytaradi, ya'ni bozordagi talab va taklifning o'sishi yoki kamayishiga qarab o'zgaradi. Shunga ko'ra, ishchi kuchi bozoridagi taqchillik yoki taklif ortiqchaligi ish haqi darajasini o'zgartirish orqali bartaraf etiladi. Ishchi kuchi bozorining klassik modeli uning o'zini-o'zi tartibga solish tamoyiliga asoslanadi.

Keynscha maktab vakillari ishchi kuchi bozorini harakatsiz, o'zgarmas tizim sifatida baholab, unda ishchi kuchining narxi qat'iy belgilangan bo'lishini ta'kidlaydilar. Bandlik va ishsizlik darajasi, ishchi kuchiga bo'lgan talab, real ish haqi darajasi kabi asosiy ko'rsatkichlar ishchi kuchi bozori orqali emas, balki tovar va xizmat-

[150] Экономическая теория: Учебник / Изд., испр. и доп. Под общ. ред. акад. В. И. Видяпина, А. И. Добрынина, Г. П. Журавлевой, Л. С. Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, с. 485–489.

lar bozoridagi samarali talab miqdori orqali belgilanadi. Ishchi kuchi bozorida esa faqat ish haqi darajasi va unga bog'liq bo'lgan ishchi kuchi taklifi miqdori shakllanadi. Biroq ishchi kuchi taklifi amaldagi bandlikning shakllanishida yetakchi rol o'ynamay, balki faqat uning ish haqining muayyan hajmidagi eng yuqori mumkin bo'lgan darajasini tavsiflaydi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab yalpi talab, investitsiya va ishlab chiqarish hajmi orqali tartibga solinadi. Ishsizlikning mavjud bo'lishi yalpi samarali talabning yetishmasligi bilan shartlanib, uni byudjet va pul-kredit siyosatining iqtisodiy faollikni oshiruvchi chora-tadbirlari orqali bartaraf etish mumkin. Davlat yalpi talabni kengaytirish tadbirlarini amalga oshira borib, ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'sishiga imkon yaratadi va buning natijasida bandlikning o'sishi hamda ishsizlikning qisqarishi ro'y beradi.

Monetar maktab namoyandalari (M. Fridmen, E. Felps va boshqalar) bozor iqtisodiyotini o'z-o'zidan tartiblanuvchi tizim sifatida baholab, undagi narx mexanizmining o'zi bandlikning oqilona darajasini belgilab berishini ta'kidlaydilar. Bunday tizimga davlat tomonidan har qanday aralashuv bozorning o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmini ishdan chiqaradi. Davlatning pul vositasida yalpi talabni rag'batlantirishi esa pirovardida inflyatsiya jarayonlarining kuchayishini keltirib chiqaradi.

Monetaristlar iqtisodiyotda doimo ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'lishini ta'kidlab, uni «ishsizlikning tabiiy me'yori» deb ataydilar. Bandlikning bu «tabiiy daraja»dan chetlanishi faqat qisqa muddatli tavsif kasb etadi. Bandlikni barqarorlashtirish bo'yicha siyosat ishsizlik darajasini uning tabiiy me'yoridan chetlanishiga, ishlab chiqarish hajmi va band bo'lganlar sonining tebranishlariga qarshi kurashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ishchi kuchi bozorini muvozanatga keltirish uchun monetaristlar asosan pul-kredit siyosati dastaklaridan foydalanishni tavsiya etadilar.

Institutsional-sotsiologik maktab namoyandalari (T. Veblen, J. Danlop, J. Gelbreyt, L. Ulman va boshqalar) ishchi kuchi bandligi borasidagi muammolar turli ko'rinishdagi institutsional islohotlar yordamida hal etilishi mumkin, degan qoidaga asoslanadilar. Ular bu muammoning faqat makroiqtisodiy jihatdan tahlili bilan chegaralan-

maydilar. Shuningdek, ular ishchi kuchi tarkibi va unga tegishli holda ish haqi darajasidagi ijtimoiy, kasbiy, tarmoq, yosh, jins, etnik va boshqa tafovutlar ta'sirida ishchi kuchi bozorida vujudga keladigan nomuvofiqliklarni izohlashga harakat qildilar.

Shartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi (M. Beyli, D. Gordon, K. Azariadis) o'zida neoklassik hamda keynscha talqinlarni uyg'unlashtiruvchi konsepsiya hisoblanadi. Konsepsiya mualliflari, bir tomondan, pul ko'rinishidagi ish haqi qat'iyligi to'g'risidagi keynscha qoidani qabul qiladilar va ishchi kuchi bozoridagi muvofiqlashuv narxlar (ya'ni, ish haqi) hisobiga emas, balki ishlab chiqarish moddiy hajmi va bandlikning o'zgarishi hisobiga amalga oshishini ta'kidlaydilar. Boshqa tomondan, bu qat'iylikning o'zi xususiy iqtisodiy manfaatlar ostida harakat qiluvchi individlarning xatti-harakatidan keltirib chiqariladi. Mazkur nazariyaning asosida tadbirkorlar va ishchilar o'zaro uzoq muddatli shartnoma munosabatlariga kirishishlari to'g'risidagi qoida yotadi. Mazkur shartnoma huquqiy jihatdan taqozo etilgani uchun emas, balki har ikkala tomon uchun ham iqtisodiy jihatdan foydaliligi sababli paydo bo'ladi. Firma ishlab chiqarishning pasayib ketishi davrida mehnatga haq to'lash hajmini kamaytirmaydi, ishlab chiqarishning o'sishi davrida esa malakali ishchilarga ish haqini oshirmaydi. Pul ko'rinishidagi ish haqining o'zgarishi bir tekisda boradi. Ish haqi darajasi individlar xatti-harakatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq natijasi sifatida ma'lum me'yorda qat'iy tus oladi.

Moslashuvchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi (R. Buae, G. Stending) 70-yillarning oxirida, nisbatan rivojlangan G'arb mamlakatlarida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish amalga oshirilayotgan davrda keng tarqaldi. Uning asosida ishchi kuchi bozorini tartiblashdan voz kechish, bandlikning moslashuvchan, funksional jihatdan individuallashtirilgan va nostandart shakllariga (qisman bandlik, to'liq bo'lmagan ish haftasi yoki ish kuni, qisqa muddatli shartnomalar, uyga ish olish va h.k.) o'tishning zarurligi to'g'risidagi qoidalar yotadi. Bunday yondoshuv iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajatlarini kamaytirishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ishga yollash, ishdan bo'shatish va bandlik shakllarining turliligi va mos-

lashuvchanligi; ish vaqtini tartibga solishning moslashuvchanligi; ish haqini tabaqalashtirish asosida tartibga solishning moslashuvchanligi; ishchilarni ijtimoiy himoyalash usul va shakllari, shuningdek, ishchi kuchi bozoridagi talab va taklifning tebranishiga ishchi kuchi hajmi, tarkibi, sifati va narxi muvofiqlashuvining moslashuvchanligi hisobiga erishiladi. Umuman olganda moslashuvchan ishchi kuchi bozori konsepsiyasi tadbirkor va ishchilar o'zaro munosabatlarining turli shakllarini mavjudligini taqozo etib, ishchi kuchi bozorining yalpi xarajatlarini ratsionallashtirish, foydalilik darajasini oshirish va yuqori harakatchanligini ta'minlashga qaratilgan.

20.4. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash

Iqtisodiyotning samarali amal qilishiga mamlakatdagi ishsizlik darajasi muhim ta'sir ko'rsatadi.

Ishsizlik – mamlakatdagi mavjud ishchi kuchi bir qismining foydalanilmay qolishini namoyon etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan ishchi kuchining ish bilan ta'minlanmagan qismi ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion, tarkibiy, siklik, institutsional, texnologik, regional, yashirin va turg'un ishsizlik turlariga bo'linadi.

Kishilar turli sabablar (yangi yashash joylariga ko'chib o'tish, ishining mazmuni va tavsifi yoqmay qolishi, nisbatan yuqoriroq ish haqi olishga intilish va boshqalar)ga ko'ra o'z ishlarini almashtirib turadilar. Biroq, bir ishdan bo'shab, boshqa biriga joylashgunga qadar orada ma'lum vaqt o'tadi (ba'zi adabiyotlarda bu muddat 1 oydan 3 oygacha davom yetishi ko'rsatiladi). Aynan shu vaqt oralig'idagi, ya'ni **bir ishdan bo'shab yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan davrdagi ishsizlik friksion (oraliq) ishsizlik deyiladi.**

Fan-texnika taraqqiyoti, yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga qo'llanishi natijasida ba'zi bir tarmoq va soha mahsulotlariga bo'lgan talab qisqarib, zamonaviy mahsulot turlariga talab o'sadi. Natijada ba'zi bir kasb yoki mutaxassislik turlaridagi ishchilarga talabning qisqarishi yoki umuman yo'qolishi ularning o'z kasb va mu-

taxassisliklarini o'zgartirish yoki shunday kasblarga talab saqlanib qolgan joylarga ko'chib o'tishga majbur qilib qo'yadi. **Yangi kasb va mutaxassislikni o'zlashtirib yoki boshqa joyga ko'chib o'tib, yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan ishsizlik tarkibiy ishsizlik deb ataladi.** Tarkibiy ishsizlik friksion ishsizlikka qaraganda uzoqroq davom etadi hamda ko'proq ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Uning uzoq muddat (odatda 6 oydan ko'proq) davom yetishi yangi kasb turini o'zlashtirish yoki malaka oshirish bilan, ma'lum xarajat talab qilishi esa, eski kasb turi bilan shug'ullanish istagi saqlanib qolgan holda, yashash joylarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'ladi. Friksion va tarkibiy ishsizlik, iqtisodiyotdagi rivojlanishning har qanday holatidan qat'iy nazar, ma'lum darajada barcha mamlakatlarda mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra, **friksion va tarkibiy ishsizlik birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini tashkil qiladi.**

Siklik ishsizlik – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq bo'lib, u ishlab chiqarishning pasayishi va yalpi talabning qisqarishi natijasida vujudga keladi. Bunda o'z tovar va xizmatlariga nisbatan talabning qisqarishiga duch kelgan tadbirkorlar ishlab chiqarish hajmini kamaytirish maqsadida ishchilarni ishdan bo'shata boshlaydilar. Siklik ishsizlik haqiqiy darajadagi ishsizlikning tabiiy darajadan farqlanishini ko'rsatadi. Ishsizlikning bu turi majburiy ishsizlik hisoblanadi va siklning yuksalish fazasida mavjud bo'lmaydi.

Institutsional ishsizlik ishchi kuchi bozori infratuzilmasi, ya'ni ishchi kuchini ish bilan ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki samarali faoliyat ko'rsatmasligi natijasida paydo bo'ladi. Uni ham tabiiy ishsizlik tarkibiga kiritish mumkin.

Texnologik ishsizlik ishlab chiqarish jarayoniga texnologik usullarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Ularning ichida asosiylari ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, robotlashtirish va informatsion texnologiyani qo'llash hisoblanadi.

Hududiy ishsizlik muayyan hududdagi tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatdagi bir qator omillar ta'siri ostida ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi hisoblanadi.

Yashirin ishsizlik uchun ish kuni yoki ish haftasi davomida to‘liq band bo‘lmaslik xos. Iqtisodiyot rivojlanishi darajasining pasayishi korxonalardagi ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Biroq, korxona egalari o‘z ishchilarini birdaniga ishdan bo‘shata olmaydilar. Buning natijasida ishchilarning ma’lum qismi rasman ish bilan band bo‘lsalarda, amalda to‘liq holda ishlamaydilar. Buning natijasida mehnat unumdorligi pasayib, korxona moliyaviy natijalariga ta’sir ko‘rsatadi. Yashirin ishsizlik mamlakatda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy keskinlikka yo‘l qo‘ymaslikka intilish natijasida ham paydo bo‘ladi.

Turg‘un ishsizlik mehnatga layoqatli ishchilarning ish joyini yo‘qotgan, ishsizlik bo‘yicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo‘lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo‘lmagan qismini qamrab oladi.

«To‘la bandlik» tushunchasi iqtisodiyotda ishsizlikning mutlaq mavjud bo‘lmasligini bildirmaydi. Iqtisodchilar friksion va tarkibiy ishsizlikning bo‘lishini tabiiy deb hisoblaydilar, shu sababli to‘la bandlik ishchi kuchining 100 foizdan kam qismini tashkil qiluvchi miqdor sifatida aniqlanadi. Aniqroq aytganda, to‘la bandlik sharoitida ishsizlik darajasi friksion va tarkibiy ishsizlar soniga teng bo‘ladi. Siklik ishsizlik nolga teng bo‘lganda to‘la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasiga erishiladi. **To‘la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deb ataladi.** Ishsizlikning tabiiy darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini ko‘rsatadi. To‘la bandlik yoki ishsizlikning tabiiy darajasi ishchi kuchi bozori muvozanatiga erishganda, ya’ni ish izlovchilar soni bo‘sh ishchi o‘rinlari soniga teng kelganda vujudga keladi. Ishsizlikning tabiiy darajasi qandaydir darajada iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Chunki «friksion» ishsizlarga mos keluvchi ish o‘rinlarini topish, «tarkibiy ishsizlarga» ham yangi kasbni o‘zlashtirish yoki yangi yashash joyida ish topish uchun ma’lum vaqt kerak bo‘ladi. «Ishsizlikning tabiiy darajasi» tushunchasi ma’lum bir aniqliklar kiritishni talab qiladi. **Birinchidan,** bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikni tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o‘zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro‘yobga

chiqarishini bildirmaydi. Chunki, ko'pincha ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ortiq, ayrim hollarda, masalan, ish vaqtidan ortiqcha ishlash va o'rindoshlik ishlarida band bo'lish natijasida tabiiy darajadan past ham bo'lishi mumkin. **Ikkinchidan,** ishsizlikning tabiiy darajasi o'z-o'zicha doimiy miqdor hisoblanishi shart emas, u tarkibiy o'zgarishlar (qonunlar va jamiyat urf-odatlaridagi o'zgarishlar) oqibatida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSHda ishsizlikning tabiiy darajasi dastlab XX asrning 60-yillari o'rtalarida 4,5% deb belgilangan bo'lsa, 70-yillarning boshiga kelib 5,5%, 80-yillarning boshida esa 6 foizgacha o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi davrda Ispaniyada 2012-yil oxiriga kelib ishsizlik darajasi 24,44 foizgacha o'sdi, ishsizlarning umumiy soni 5,6 mln. kishiga etib bordi[151].

Ishsizlik darajasi ishsizlar sonining ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi.

$$Ishsizlik\ darajasi = \frac{Ishsizlar\ soni}{Ishchi\ kuchining\ umumiy\ soni} \times 100\%.$$

Ishsizlik darajasini baholash bilan birga uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ham hisobga olish zarur bo'ladi. Chunki ishsizlikning o'zi haddan tashqari yuqori darajasi bilan katta iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari uning ta'sirida ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot hajmi orqali baholanadi. Iqtisodiyot barcha ishlashni xohlagan va ishlay oladiganlar uchun yetarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa mahsulot ishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo'qotish yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YaIMning potensial YaIMdan kam bo'lgan hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi.

Makroiqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini

[151] Манба: http://ru.euronews.com/2013/04/02/spanish-unemployment-edges-down/.

matematik ifodalab beradi. **Bu nisbat iqtisodchilar orasida Ouken qonuni sifatida tanilgan bo'lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YaIM hajmining orqada qolishi 2,5 foizni tashkil qilishini ko'rsatadi.**

Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy hajmi potensial hajmidan ortib ketishi ham mumkin. Bunday hol ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ham past bo'lgan davrlarda ro'y beradi. Ishlab chiqarishga ishchilarning qo'shimcha smenalarini jalb qilish, kapital uskunalardan belgilangan me'yordan ortiqcha darajada foydalanish, ish vaqtidan keyin qo'shimcha ishlash va o'rindosh ishlarda band bo'lish kabilar buning asosiy sabablaridir.

Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazishi mumkin. Jumladan, ishsizlikning ba'zi turlarining uzoq muddatli tavsifi ishchilarning o'z malakalarini yo'qotishlari hamda daromad va ijtimoiy mavqei jihatidan aholining nisbatan past toifasiga o'tib qolishiga olib keladi. Bu esa ularda o'z turmush tarzidan qoniqmaslik, ijtimoiy faollikning yo'qolishi, atrofdagilarga nisbatan loqaydlikning paydo bo'lishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Natijada uzoq davom etgan surunkali ishsizlik millatning ruhiy sog'lomligiga putur yetkazadi. Ishsizlik o'sishining muqarrar oqibati bo'lib mamlakatdagi jinoyatchilikning o'sishi va ijtimoiy keskinlik darajasining kuchayishi hisoblanadi. Shunga ko'ra, mamlakatdagi ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

20.5. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat jamiyat a'zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mavjud ishchi kuchlarining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos aholi

tarkibiga ega bo'lgan respublikamizda ishchi kuchining ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu masalani hal etish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. **Birinchidan,** keng faoliyat turlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash, xalq iste'mol mollarini, mahalliy xom ashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag'batlantirish. **Ikkinchidan,** xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo'yicha xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi. **Uchinchidan,** qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun respublikamizda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda. **To'rtinchidan,** ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish. Bunda ishdan bo'shayotgan va ixtisosi bo'lmagan shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o'zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o'rgatishga e'tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o'quv markazlari, biznes maktablarning keng tarmog'ini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi. **Beshinchidan,** vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo'lmagan ishchi kuchlarini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo'lishga qaratiladi.

Ishchi kuchining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

2017-yilda **aholi bandligi dasturi qabul qilingan bo'lib,** Dastur parametrlari keyingi yilga belgilangan makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari, byudjet, soliq va investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari, mahalliylashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilishi, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarini rivojlantirish dasturlari bilan o'zaro uzviy bog'langan.

Dasturga muvofiq kelgusi yilda 389,3 ming nafar fuqaroning yangidan tashkil etiladigan barqaror ish o'rinlarida bandligi ta'minlanadi.[152]

Bunda investitsiya, mahalliylashtirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish hisobiga - 345–308 ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilmoqda. Shundan:

- sanoatda 10102 ta loyihada 131,1 mingta yaratilishi belgilanmoqda.

Jizzax shahridagi "Elegans Teks" qo'shma korxonasi tomonidan umumiy qiymati 25 mlrd.so'mga teng bo'lgan ip-kalava hamda mato ishlab chiqarish loyihasida 1000 ta, "Guandong Bohua Keramiks" xorijiy korxonasi tomonidan 40 mln. AQSH dollarga teng bo'lgan keramik plitalar va keromagranit ishlab chiqarish loyihasida 800 ta;

Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida "Shangfeng Bridj of frendship" qo'shma korxonasi tomonidan umumiy qiymati 26,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan sement ishlab chiqarish loyihasida 400 ta ish o'rinlari yaratiladi.

- Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishda 16 814 ta loyihada 69, 5 mingtani tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi sohasida 10 058 ta loyihada 55,8 mingta, bunda asosan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni maqbullashtirish orqali chorvachilikda 2 992 ta loyihada 18 550 ta, parrandachilikda 792 ta loyihada 4 756 ta, bog'dorchilik, yangi turdagi ko'chatchilikda 1 126 ta loyihada 7 174 ta, baliqchilikda 821 ta loyihada 3 079 ta, uzumchilikda 891 ta loyihada 4 366 ta, intensiv bog'lar, issiqxonalar, muzlatgichlarni tashkil etish bo'yicha 1 249 ta loyiha hisobiga 7 480 tani tashkil etadi.

---

[152] www.mehnat.uz – O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi rasmiy sayti

Qurilish va infratuzilma loyihalarida 88,9 mingta;

Ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash, davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish va ijaraga berish hisobiga 44,0 mingta yaratilishi belgilangan.

Ayni paytda, 2017-yilgi asosiy vazifalarimiz sifatida:[153]

- bitiruvchilarni biriktirish ishlarini puxta tashkil etish;
- bitiruvchilar bandligini ta'minlashda yangi samarali shakllar va uslublarni davom ettirish;
- bitiruvchilar bandligini ta'minlashda belgilangan imtiyozlardan kengroq foydalanish;
- bitiruvchilarga o'z biznesini tashkil etishlari uchun mikrokreditlar ajratish amaliyotini davom ettirish, 2017-yilda 24 mingdan ortiq bitiruvchiga 350 mlrd. so'm mablag' yo'naltirish belgilangan.

Aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Biz uchun o'ta dolzarb bo'lgan bu masalani yechishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bugungi bosqichda kollejlar bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash, tijorat banklari tomonidan ularga o'z biznesini tashkil qilish uchun imtiyozli kreditlar ajratish bandlik va oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbaiga aylanib borayotganini hech kim inkor eta olmaydi. Ayni vaqtda ish bilan bandlik fuqarolarni, birinchi navbatda, xotin-qizlar, ayniqsa, ko'p bolali ayollarni, yordamga muhtoj nogironlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Band bo'lmaganlarni ish bilan ta'minlashda xizmat ko'rsatish va servis sohasining turli shakllarini, birinchi navbatda, oilaviy biznesni rivojlantirish katta rezerv hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2010-yil 28-iyul PF-4232-sonli «Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar

[153] www.mehnat.uz – O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi rasmiy sayti

to‘g‘risida»gi Farmoni, «2015-yilda ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash dasturi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qaroriga muvofiq hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish, yoshlarni, avvalambor kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan respublikaning kasb-hunar kollejlari, akademik litseylari va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzilganda, ish bilan band xodimlarning o‘rtacha yillik soni qonun hujjatlarida belgilangan cheklangan normativdan ko‘pi bilan 20 foiz oshirilgan hollarda, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlar ularda saqlanib qoladi.

Bunda xodimlar sonining oshirilishiga O‘zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlari, akademik litseylari va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining o‘qishni yakunlagan kunidan boshlab 3 yildan ortiq vaqt o‘tmagan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy soha infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlarni olib borish natijasida oxirgi yillardagi yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishildi. Bu esa, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirishga xizmat qilib, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashni ta’minladi.

Ijobiy tarkibiy o‘zgartirishlar va iqtisodiyotning yuqori o‘sish sur’atlari tufayli 2016-yilda aholining real daromadlari 11 foizga oshdi, 726 ming nafarga yaqin aholining, shu jumladan, 438,5 ming kollej bitiruvchisining bandligi ta’minlandi[154].

Mamlakatimizda ishchi kuchi bandligi samaradorligini ta’minlash uchun davlatning bandlik siyosatining quyidagi yo‘nalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

– oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirishni jadallashtirishni ta’minlash;

– mazkur maqsadlarda mikrokreditlash tizimini rag‘batlantirish;

[154] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

– yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikroq bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperatsiyani rivojlantirish imkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish;

– mahalliy xomashyoni puxta qayta ishlashga va tayyor, raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan yengil va oziq-ovqat qayta ishlash sanoatining ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;

– xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, qishloq joylarida qishloq xo‘jaligiga taalluqli bo‘lmagan bandlik sohalarini kengaytirish masalalarini hal etishga e’tiborni kuchaytirish;

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarini maqsadga muvofiq yo‘naltirish orqali zamonaviy bilimga ega bo‘lgan va malakali ishchi kuchiga talabni oshirish;

– ishsizlarni kasbiy o‘qitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan xizmatlar ishini faollashtirish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi xalqimizning farovon turmushini ta’minlash manbai bo‘lgan ish bilan bandlik darajasining yanada oshishiga, aholining ijtimoiy muhofazasining kuchayishiga yanada keng yo‘l ochib beradi.

2017-yil 7-fevral kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmonidagi to‘rtinchi **“Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”**ning 4.1-bandiga ko‘ra **“Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish” bo‘lib, unda:**

- aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;
- byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur’atlaridan yuqori miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;
- yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta’minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

• mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish hal qilinishi lozim bo'lgan ustuvor masalalar sifatida qaralgan.

Shuningdek, ushbu farmonning 4.4-bandida esa "kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish" masalasiga alohida e'tibor berilgan.[155]

Xulosalar

1. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayonini tadqiq etish uning miqdoriy va sifat jihatlarini ajratishni taqozo etadi. Ishchi kuchining miqdori mamlakat aholisining mehnat faoliyatiga layoqatli bo'lgan qismi orqali ifodalanib, u ishchi kuchi resurslari deb ham ataladi. Ishchi kuchining sifati uning tarkibining zamon talablari jihatidan ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiqligi darajasini namoyon etadi. Ishchi kuchining sifati uning ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, malaka, ish tajribasi darajalari kabi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

2. Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklab va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash demakdir.

3. Ishchi kuchi migratsiyasi murakkab jarayon bo'lib, turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishini bildiradi. Migratsiya ikki darajada, ya'ni mamlakat ichida va xalqaro darajada ro'y berishi mumkin.

4. Iqtisodiyotning barqarorligi va sog'lomligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri ishsizlik darajasi hisoblanadi. Biroq, har qan-

[155] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni. 2017-yil 7-fevral.

day mamlakatda doimiy ravishda ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'ladi. Umuman olganda, mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion, tarkibiy, siklik, institutsional, texnologik, hududiy, yashirin va turg'un ishsizlik turlariga bo'linadi.

5. «To'la bandlik» tushunchasi iqtisodiyotda ishsizlikning mutlaq mavjud bo'lmasligini bildirmaydi. Chunki, friksion va tarkibiy ishsizlikning bo'lishi tabiiy hisoblanadi, shu sababli to'la bandlik ishchi kuchining 100 foizdan kam qismini tashkil qiluvchi miqdor sifatida aniqlanadi. Aniqroq aytganda, to'la bandlik sharoitida ishsizlik darajasi friksion va tarkibiy ishsizlar soniga teng bo'ladi. Siklik ishsizlik nolga teng bo'lganda to'la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasiga erishiladi. To'la bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deb ataladi.

6. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari uning ta'sirida ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot hajmi orqali baholanadi. Iqtisodiyot ishlashni xohlagan va ishlay oladigan barcha uchun yetarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa mahsulot ishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo'qotish yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YaIMning potensial YaIMdan kam bo'lgan hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Ishchi kuchi – insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish – insonning mehnatga bo'lgan jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash, katta yoshli ishchilar o'rnini bosadigan yosh ishchilar avlodini yetishtirish jarayoni.

Yalpi ishchi kuchi – jamiyat yoki alohida olingan mamlakat miqyosida qiymat va iste'mol qiymatlarini yaratishda ishtirok etuvchi bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat qiluvchi ishchi kuchlarining umumlashtirilgan majmui.

Ishchi kuchi talabi – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.

Ishchi kuchi taklifi – muayyan vaqtda ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori.

Aholining tabiiy o'sishi – bu aholining emigratsiya va immigratsiyadan tashqari harakati.

Emigratsiya – fuqarolarning o'z mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib o'tishi.

Immigratsiya – xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga ko'chib kelishi.

Ishsizlik – mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmagan ishchi kuchi.

Friksion ishsizlik – malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rinlar bo'shashini kutayotganlarni namoyon etuvchi ishsizlik.

Tarkibiy ishsizlik – ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o'zgarishlar natijasida vujudga keladigan ishsizlik.

Siklik Ishsizlik – iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik.

Ishsizlik darajasi – ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.

Ouken qonuni – ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish deganda nimani tushunasiz va uning xususiyatlari qanday?

2. Ishchi kuchining sifati nima? U qanday omillarga bog'liq? Fan-texnika taraqqiyotida ishchi kuchining sifatiga qanday talablar kuchayadi?

3. Ishchi kuchi bozori amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4. Ishchi kuchi qiymati va iste'mol qiymati qanday aniqlanadi? Ularga ta'sir etuvchi omillarni sanab bering.

5. Ish bilan to'la bandlik nima uchun nisbiy ma'noda tushuniladi? Qanday qilib ishchi kuchidan samarali foydalanishga erishiladi?

6. Ishsizlikning asosiy turlariga tavsif bering.

7. Ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?

8. Ishsizlikning tabiiy darajasi nimani anglatadi va u qanday tartibda aniqlanadi?

9. Ouken qonunining mohiyati nimada namoyon bo'ladi?

10 Ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tushuntirib bering.

21-BOB. MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining samarali amalga oshirilishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarga bog'liq bo'ladi. Pul vositasida takror ishlab chiqarishning bir bosqichidan boshqasiga o'tiladi hamda muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy fondlar vujudga keltiriladi. O'z navbatida bu fondlar takror ishlab chiqarishning uzluksizligini va kengaytirilishini ta'minlaydi. Yalpi milliy mahsulotni yaratish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonida pul mustaqil harakat qilib, turli xo'jalik yurituvchi bo'g'inlar, uy, dehqon, fermer, jamoa, kasanachilik xo'jaliklari, davlat korxonalari va tashkilotlari, davlatning o'zining pul mablag'lari fondini tashkil etadi. Pul fondlari hosil bo'lish manbalari va amal qilish tavsifi, maqsadlari va foydalanish usullariga qarab moliya va kredit shakllari tusini oladi. Ushbu bobda moliyaning mazmuni, vazifalari tizimi, uning asosiy bo'g'ini bo'lgan davlat byudjeti va byudjet mablag'larining shakllanishida soliqlarning roli bayon etiladi.

21.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi eng avvalo davlat, uning turli mintaqa va hududlari, iqtisodiyotning tarmoq va sohalari, ishlab chiqarish birliklari, aholi turli qatlamlari o'rtasidagi pul mablag'lari oqimining samarali tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi. Bunday pul oqimlari jamiyat real hayoti jarayonlarini aks ettirib, mamlakatdagi fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasida o'zaro iqtisodiy munosabat va aloqalarni o'rnatadi. Davlat korxona va tashkilotlar, turli moliyaviy muassasalar, aholi bilan olib boriladigan o'zining barcha vazifalarini aynan moliya mexanizmi orqali amalga oshiradi. Moliya milliy iqtisodiyot va aholi farovonligining o'sishini aks ettirib, korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarining pa-

sayishi va ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligining oshishini rag'batlantiradi, ishlab chiqarish tuzilmasini, tarmoqlararo va hududiy nisbatlarni shakllantiradi.

Moliya – iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimidir. Uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya pul bilan bog'liq munosabatlar bo'lib, uning moddiy asosini pul tashkil qiladi, lekin u pul emas yoki pul bilan bir xil narsa – tushuncha emas. Bundan ko'rinadiki, iqtisodiyotning samarali va barqaror ravishda amal qilishi, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida davlat ko'plab boshqa iqtisodiy subyektlar bilan moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Moliyaviy munosabatlar – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxona va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o'rtasida pul mablag'lari fondlarining harakati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui.

Moliyaviy munosabatlarning obyektlari va subyektlari farqlanadi. **Moliyaviy munosabatlarning obyektlari** bo'lib iqtisodiyotning turli darajalarida tarkib topuvchi va harakat qiluvchi pul mablag'lari fondlari hisoblanadi. **Moliyaviy munosabatlar subyektlari** tarkiban murakkab bo'lib, ularga barcha tashkilotlar, korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslar, fuqarolar kiradi. Ular orasida doimo moliyaviy munosabatlar bo'lib turadi. Bu munosabatlarning asosiylari sifatida quyidagi munosabatlarni ko'rsatish mumkin:

– davlatlararo moliyaviy munosabatlar;

– davlat va turli xalqaro tashkilotlar, xorijiy firma va korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

– boshqaruvning turli darajalaridagi davlat organlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

– davlat va korxonalar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

– davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

– davlat va aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

– korxonalararo moliyaviy munosabatlar;

– korxonalar va banklar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

– korxona ichidagi xo'jalik aloqalariga xizmat qiluvchi moliyaviy munosabatlar va boshqalar.

Moliya iqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

1) iqtisodiy jarayonlarni, loyihalar va tadbirlarni pul resurslari bilan ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasi;

2) taqsimlash vazifasi;

3) rag'batlantirish vazifasi;

4) nazorat qilish vazifasi.

Jamiyat miqyosidagi iqtisodiy faoliyat turli jarayon va tadbirlarning, jumladan, mamlakatni boshqarish, mudofaa qobiliyatini ta'minlash, huquq-tartibot ishlarini yo'lga qo'yish, sog'liqni saqlash, madaniy-ma'rifiy ishlar va boshqalarning amalga oshirilishini taqozo etadi.

Buning uchun eng avvalo ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash kerak bo'ladi. Shunga ko'ra, moliya iqtisodiy jarayon va tadbirlarni **moliyaviy ta'minlash, ularga xizmat ko'rsatish vazifasini** bajaradi.

Moliyaning **taqsimlovchi vazifasi** moddiy ishlab chiqarish sohalarida Yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Moliyaning **rag'batlantiruvchilik vazifasi**, birinchidan, Yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayoni orqali, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan **nazorat qilish vositasi** sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxona (firma)larning moliya intizomiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo'lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi. Bu tizim davlat va boshqa turli darajadagi byudjetlarni, ijtimoiy, mol-mulk va shaxsiy sug'urta fondlarini, davlatning valyuta zaxiralarini, banklar, pul muomalasi, kredit va soliq tizimi, korxona va firmalar, tijorat va notijorat tuzilmalarining pul fondlarini, boshqa maxsus pul fondlarining harakatini o'z ichiga oladi.

Eng avvalo, korxona (tarmoq)lar va umumdavlat moliyasini bir-biridan farqlash lozim. Korxona va tarmoqlar moliyasi ulardagi takror ishlab chiqarish jarayonida hamda alohida fondlar yaratish yo'li bilan ularning moliyaviy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Umumdavlat moliyasi davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mol-mulk va shaxsiy sug'urtasi fondini, soliq tizimini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat byudjeti moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. **Davlat byudjeti – bu davlat daromadlari va xarajatlar hamda ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.** Davlat daromadlari va xarajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Davlat byudjetining ikki tomoni bo'lib, bir tomonida byudjetga kelib tushadigan daromadlar tarkibi va ularning manbalari, ikkinchi tomonida esa asosiy xarajatlarning tarkibi va miqdori o'z ifodasini topadi.

O'zbekistonda davlat byudjetining tuzilishi, daromadlari va xarajatlarining tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (21.1 va 21.2-jadvallar).

Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy tahlilidan ko'rinadiki, bilvosita soliqlardan byudjetga 2016-yilda 21131,0 milliard so'm kelib tushgan. Ushbu daromad 2012-yilga nisbatan 188,9 foizga oshgan. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlarning fiskal ahamiyati yuqori bo'lmoqda.

21.1-jadval

Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot[156]

Asosiy byudjet ko'rsatkichlari	2012	2013	2014	2015	2016	2016-yilda 2012-yilga nisbatan foizda
Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlari	20614,1	26223,2	31730,5	36493,3	41030,7	199,0
shu jumladan: Bevosita soliqlar	5196,4	6353,7	7433,0	8798,4	9853,6	189,6
Bilvosita soliqlar	11187,8	13398,6	16852,3	19193,8	21131,0	188,9
Resurs soliqlari	2746,4	3888,2	4311,5	4816,1	5306,2	193,2
Boshqa daromadlar	1483,5	2582,7	3133,7	3685,0	4739,9	319,5

Davlat byudjeti daromadlarining shakllanish samaradorligi va barqarorligi amalga oshirilishi ko'zda tutilgan xarajatlar ijrosining moddiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma'nodagi ifodasini o'zida aks ettiradi. Buni 21.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining salmog'i yuqori bo'lmoqda. Xususan, ushbu xarajatlar 2012-yilda 12513 milliard so'mga rejalashtirilib, jami byudjet xarajatlarida 58 foizni tashkil yetishi ko'zda tutilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib ushbu xarajatlar 24106,7 milliard so'm hajmida rejalashtirilgan va uning jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 58,9 foizni tashkil yetishi ko'zda tutilgan. Demak, ushbu sohaga qilinayotgan xarajatlar, birinchidan, nominal mazmunda va shuningdek, umumiy xarajatlar salmog'ida ham ortib bormoqda. Ushbu xarajatlarning tarkibi quyidagi diagrammada keltirilgan.

[156] Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida

21.2-jadval

Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti xarajatlari to'g'risida ma'lumot[157]

Ko'rsatkichlar		2012	2013	2014	2015	2016
Davlat byudjeti xarajatlari	mlrd. so'm foiz	21571 100	25833,7 100	31425,4 100	36257,3 100	40930,0 100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	mlrd. so'm foiz	12513 58	15147,0 58,7	18493,7 58,8	21316,9 58,8	24106,7 58,9
Iqtisodiyot xarajatlari	mlrd. so'm foiz	2372 11,0	2756,7 10,6	3363,3 10,7	3821,3 10,6	4346,9 10,6
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	mlrd. so'm foiz	1059 4,9	1439,5 4,9	1624,7 5,2	1848,7 5,1	2131,8 5,2
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari	mlrd. so'm foiz	629 2,9	856,4 3,1	1414,2 4,5	1605,9 4,4	1790,8 4,4
Boshqa xarajatlar	mlrd. so'm foiz	4735 21,2	5312,1 20,7	6529,4 20,8	7664,5 21,1	8553,8 20,9

O'zbekiston Senati 2017-yilgi davlat byudjetini iqtisodiyotda kutilayotgan 7,8% o'sishni hisobga olgan holda tasdiqladi. Shunga ko'ra, davlat byudjeti daromadi va xarajatlari orasida 1%, ya'ni 750 mln $ defitsit vujudga keladi. 2017-yilda byudjet daromadi YaIMning 19,2%ini, ya'ni 44,5 trillion so'mni (~14 mlrd. $) tashkil qiladi, xarajatlar esa YaIMning – 20,2%ni yoki 46,9 trillion so'mni (14,7 mlrd $) tashkil qiladi. 2017-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida soliq bosimi kamayishiga qaramasdan, YaIM hajmi o'sishi kutilmoqda. Davlat byudjetini hisoblashda kelasi yil iqtisodiyotda kutilayotgan 7,8%ga o'sish ham hisobga olingan. 2017-yilda O'zbekiston iqtisodiyotining sanoat sohasida – 8% o'sish, qishloq xo'jaligi sohasida – 6,2%, kapital sarmoyalar sohasida – 9,6% o'sish kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar

[157] Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida

strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoning 3-yo‘nalishining 3.1-bandida “harajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlab qolgan holda, Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosibligini muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo‘naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish” masalasi qo‘yilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tib borish bilan jamiyat moliya tizimida turli xil sug‘urta (ijtimoiy sug‘urta, tibbiy sug‘urta) fondlari va byudjetdan tashqari moliya fondlari (pensiya fondi, aholini ish bilan ta’minlash fondi, tabiatni muhofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko‘mak berish fondi va boshqalar)ning ahamiyati ortib boradi.

21.2. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo‘lishini taqozo qiladi. **Lekin ko‘pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida byudjet taqchilligi ro‘y beradi.** Bu holning sabablari ko‘p bo‘lib, ularning ichida davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o‘sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o‘rin tutadi. Byudjet taqchilligining o‘sishi yoki kamayishi mutlaq miqdorda va uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga nisbatida aniq namoyon bo‘ladi.

2005–2008-yillar davomida esa davlat byudjeti taqchilligiga barham berib, davlat byudjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga qadar oshirishga erishildi. Keyingi yillarda mazkur jarayonlarga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishiga qaramasdan, byudjet profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, 2016-yilda maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan chora-tadbirlar natijasida byudjet daromadlari uning xarajatlaridan ortish hajmi YaIMning 0,2 foizi darajasida bo‘lishiga erishildi (21.1-rasm).



21.1-rasm. Davlat byudjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi, foizda

Umuman olganda, davlat byudjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich o'zgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarning xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Byudjet taqchilligining o'zgarishi xo'jalik kon'yunkturasidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat byudjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini moliyaviy ta'minlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo'ladi. O'rnatilgan xalqaro standartlarga ko'ra byudjet taqchilligi YaIMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Byudjet taqchilligi, asosan, davlat qarzi hisobiga qoplanadi.

Davlat qarzi ichki va tashqi qarzlardan iborat bo'ladi. **Davlat ichki qarzi – bu davlatning mamlakat ichida zayomlar va boshqa qim-**

matli qog'ozlarini chiqarish, turli nobyudjet fondlari (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi)dan qarz olish ko'rinishidagi qarzlari.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim ko'rinishlaridan biri davlat krediti hisoblanadi. **Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.**

Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli – bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

Davlat o'z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko'payishi bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha miqdorini chiqaradi. Mazkur holda, davlat byudjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to'g'ridan-to'g'ri inflyatsion ta'sir ko'rsatadi. Pul massasining o'sishi jamiyat haqiqiy boyligining ko'payishi bilan birga bormaydi.

Davlat qarzlarining to'xtovsiz ko'payib borishi, milliy daromadni foiz to'lovlari shaklida tobora ko'proq qayta taqsimlanishga olib keladi.

Katta byudjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlari o'sish sharoitida davlat qarzlarini to'lash vaqtini imkon darajada cho'zishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan davlat o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini o'rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini ancha yuqori foiz bo'yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olishi mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy ahvolini yengillashtirishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlar umumiy miqdorining o'sishi bilan bog'liq.

Xo'jalik hayoti baynalminallashuv jarayonlarining tez o'sishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi natijasida davlat o'ziga zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun bo'sh pul

mablag'larining milliy chegaradan tashqaridagi manbalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi. **Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz**.

Tashqi qarzning me'yoridan oshib ketishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar tashqi qarz bo'yicha to'lovlar mamlakat tovar va xizmatlari eksportidan tushumning ahamiyatli qismi, masalan, 20–25 foizdan oshib ketsa, bu holat mamlakatning kredit bo'yicha reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada, chetdan yangi qarz mablag'larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko'ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirib boradilar. Bular qatoriga mamlakat oltin-valyuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to'lab borish; kreditorlarning qarz to'lov muddatlarini o'zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma'lum qismidan voz kechishlariga erishish; qarzlarni mamlakatdagi ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobiga to'lash; xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.

Demak, davlat o'z faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda ssuda kapitallarining ham milliy bozoridan, ham tashqi bozoridan qarz olishi mumkin. Xalqaro kreditning tez o'sishi, kapitalning mamlakatlararo migratsiyasi mamlakat va mintaqalar iqtisodiy o'zaro bog'liqligi chuqurlashuvining muqarrar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham xususiy sektorning ehtiyojlarini qondirish, ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini sezilarli kengaytiradi. Shu bilan birga tashqi qarzlarning o'sishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda eng asosiy muammo milliy iqtisodiyotning kreditor va debitor mamlakatlar iqtisodiyotiga bog'liqligining kuchayib borishi hisoblanib, bu jarayonni mamlakatdagi ichki moliyaviy dastaklar bilan nazorat qilish imkoniyati bo'lmay qoladi.

21.3. Soliq tizimi va uning vazifalari

Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida, sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. **Soliq – bu davlatning o'z vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirish maqsadida jismoniy va huquqiy shaxslardan byudjetga majburiy to'lovlarni undirish shakli.**

Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi.

Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

– davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);

– ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);

– iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsada, davlat sarflari miqyosining o'sishi o'z navbatida soliqlarning o'sishini taqozo qiladi va uning darajasini belgilab beradi.

Hozirgi davrda umumiy tendensiya bo'lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining o'sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi.

1. Aholi sonining o'sishi.
2. Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.
3. Atrof-muhitning ifloslanishi.
4. Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.
5. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta'minlash xarajatlari hajmining o'sishi.

Korxonalar faoliyatini soliq yordamida tartibga solish quyidagi umumiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

– barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog'liq bo'lmagan holda soliq undirishning majburiyligi;

– soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati;

– samarali ishlovchi korxonalarda hamda xo'jalik yuritishning ilg'or

shakllari uchun soliq me'yorlarining rag'batlantiruvchi rolini ta'minlash;

– soliq to'lovi bo'yicha barcha subyektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat.

Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi.

1. Naflilik tamoyili – turli shaxslardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirilishi kerakligini bildiradi.

Soliq summasining (R) soliq olinadigan summaga (D) nisbatining foizdagi ifodasi soliq stavkasi (R') deyiladi:

$$R' = \frac{R}{D} \times 100\% .$$

2. To'lovga layoqatlilik tamoyili – soliq miqdori soliq to'lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilishi zarur.

3. Adolatlilik tamoyili – daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo'yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur.

Soliq bo'yicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. Amaliyotda soliq imtiyozlarining quyidagi turlari keng tarqalgan:

– obyektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;

– soliq to'lashdan alohida shaxs yoki ma'lum guruhlarni (masalan, urush faxriylarini) ozod qilish;

– soliq darajasi (stavkasi)ni pasaytirish;

– soliq olinadigan summadan chegirish;

– soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish).

Soliqlarni turkumlashga turli xil mezonlar asosida yondashiladi.

Soliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanib, soliqlar odatda progressiv (o'sib boruvchi), proporsional (mutanosib) va regressiv (kamayib boruvchi) soliqlarga bo'linadi (21.2-rasm).

1. Daromad hajmi o'sib borishi bilan o'rtacha stavkasi o'sib boruvchi soliqlar **progressiv soliqlar** deyiladi.

2. Daromad hajmi o‘sib borishi bilan o‘rtacha stavkasi pasayib boruvchi soliqlar **regressiv soliqlar** deyiladi.

3. Daromad hajmi o‘sib borishi bilan o‘rtacha stavkasi o‘zgarishsiz qoluvchi soliqlar **proporsional soliqlar** deyiladi.



21.2-rasm. Progressiv, proporsional va regressiv soliqlarning grafik ko‘rinishi

Soliqlar amal qilish doirasi (markaziy va mahalliy soliqlar), mahsulot tannarxiga qo‘shilish usuli (to‘g‘ri va egri soliqlar) va iqtisodiy mazmuniga qarab ham turkumlanadi.

Soliqlarni pasaytirish iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarining o‘sishiga olib kelishini birinchi bo‘lib amerikalik iqtisodchi A. Laffer asosladi. A. Lafferning mulohazalariga ko‘ra, korporatsiyalar daromadiga soliqlar stavkasini haddan tashqari oshirish ularning kapital qo‘yilmalariga bo‘lgan rag‘batini susaytiradi, fan-texnika taraqqiyotini to‘xtatadi, iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi va oxir-oqibatda, davlat byudjeti tushumlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat byudjetining daromadlari va soliq stavkasi o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikning grafikda tasvirlanishi **«Laffer egri chizig‘i»** nomini oldi (21.3-rasm).



21.3-rasm. Laffer egri chizig'i

Grafik tik o'qida soliq stavkasi (R), yotiq o'qida – davlat byudjetiga tushumlar (V) aks etgan. Soliq stavkasining optimal miqdori () davlat byudjetiga eng yuqori tushum ()ni ta'minlaydi. Soliqlar yanada oshirilganda ishlashga va tadbirkorlikka qiziqish susayadi, 100 foizli soliq olishda davlat daromadi nolga teng bo'ladi, chunki hech kim tekinga ishlashni xohlamaydi. Boshqacha aytganda, uzoq muddatli istiqbolda haddan tashqari yuqori o'rnatilagan soliqlarni pasaytirish jamg'armalar, investitsiyalar, bandlikning ortishi orqali soliq undiriladigan yalpi daromad hajmining o'sishini ta'minlaydi. Natijada soliq tushumlari summasi ko'payadi, davlat daromadlari hajmi o'sadi, taqchillik kamayadi va inflyatsiyaning susayishi ro'y beradi. Lekin o'z-o'zidan tushunarliki, Laffer samarasi faqat erkin bozor mexanizmi me'yorida amal qilgan holdagina namoyon bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatning turli mintaqalarida soliq yukining bir xil darajada bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan taqqoslama usullardan foydalaniladi. **Soliq yuki darajasini miqdoran aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi soliqlar miqdorini to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichiga nisbati yoki soliq to'langandan keyingi daromad miqdorini to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichiga nisbati sifatida ifodalash mumkin:**

$K_{soliq\ yuki} = \sum N_x / P$ yoki $K_{soliq\ yuki} = DN/PN$

bu yerda: N_x – aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi soliqlarning o‘rtacha miqdori;

DN – aholining soliqlar to‘langandan keyingi daromadi;

PN – aholining to‘lovga layoqatliligi.

Soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i bo‘yicha ham aniqlash mumkin:

$$K_{soliq\ yuki} = \sum N / \sum YaIM,$$

bu yerda: N – soliqlar miqdori;

YaIM – yalpi ichki mahsulot hajmi.

Davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri moliyaviy siyosat hisoblanadi. **Moliyaviy siyosat – davlatning o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui.**

Moliyaviy siyosat diskretsion va o‘z-o‘zidan tartiblanuvchi tavsifdagi siyosatlarga bo‘linadi. Diskretsion moliyaviy siyosat iqtisodiyotga ta’sir o‘tkazish maqsadida soliq va davlat sarflarini o‘zgartirib turish bilan bog‘liq. O‘z-o‘zidan tartiblanuvchi moliyaviy siyosat esa iqtisodiyotdagi holat o‘zgarishiga muvofiq tarzda tartiblovchi mexanizmlarni o‘zining ishga tushishiga asoslanadi. Bundan ko‘rinadiki, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga turli iqtisodiy subyektlarni soliqqa tortish hamda tushgan mablag‘larni davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash jarayonlari ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. **Davlat tomonidan iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish maqsadida soliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o‘zgartirish bo‘yicha qo‘llaniluvchi chora-tadbirlar fiskal yoki soliq-byudjet siyosati deb ataladi.** Fiskal siyosat, bir tomondan, iqtisodiyotning tanazzul davrida davlat sarflarini oshirish yoki soliqlarni pasaytirish orqali xo‘jalik hayotini rag‘batlantirishni, boshqa tomondan esa, iqtisodiy rivojlanishning yuqori darjasida davlat sarflarini qisqartirish yoki soliqlarni ko‘paytirish orqali yuz berishi mumkin bo‘lgan inflyatsiya va ishsizlikning oldini olishni ko‘zda tutadi.

21.4. O‘zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari

O‘zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish iqtisodiy islohotlar va davlat iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, izchil soliq-byudjet siyosatining amalga oshirilishi, soliq yukini kamaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi, soliq to‘lovchilarda ishlab chiqarishni kengaytirishga sharoit yaratilishi, ishlab topilgan va ularning o‘zlarida qoldirilayotgan mablag‘larning reinvestitsiya qilinishi oqibatida qo‘shimcha soliq obyektining paydo bo‘lishi hisobiga nafaqat byudjetdagi yo‘qotishlar o‘rnining qoplanishi, balki soliq to‘lovchilarning qo‘shimcha daromadlarga ega bo‘lib, ishlab chiqarish imkoniyatining oshishiga olib keladi.

Mamlakatdagi soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi, soliq yukining yanada kamaytirilishi quyidagi bir qator vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga moddiy zamin yaratadi:

– soliq yukining kamaytirilishi orqali soliq imtiyozlarining kengaytirilishi xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni kengaytirishga imkon yaratadi;

– soliq tizimini soddalashtirish va soliq stavkalarini pasaytirish o‘z navbatida xususiy mulkchilik tarmog‘ini kengaytiradi, biznes uchun qulay muhit yaratadi va uning kafolatlarini mustahkamlaydi;

– soliq yukini kamaytirish hisobiga soliq to‘lovchilar ixtiyorida qoladigan mablag‘lar reinvestitsiya qilinishiga hamda ishchi xodimlarning ish haqiga yo‘naltirilishiga tavsiya qilinishi, jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkasining oraliq chegaralari bo‘yicha pasaytirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlarining kengaytirilishi pirovardida aholi daromadlarining oshishiga hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga olib keladi;

– soliq yukini kamaytirish natijasida soliq to‘lovchilar ixtiyorida qolgan mablag‘lardan samarali foydalanish aholi daromadi va bandlik darajasini oshirish orqali xarid talabining jadal o‘sishini ta’minlaydi;

– soliq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va soliq yukini kamaytirish eksportni har tomonlama rag‘batlantirish va valyuta zaxiralarini tejash, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ham ta’minlaydi;

– soliq tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish uy-joy kommunal xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish hamda energiya resurslaridan foydalanishda tejamkorlikni ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, aholining real daromadlarini va iste'mol talablarini oshirishda muntazam ravishda soliq yukini kamaytirish choralarining keng qo'llanilishi o'z natijalarini bermoqda. Ayniqsa, soliqlar va to'lovlarni birxillashtirishga katta e'tibor qaratilishi soliqqa tortish mexanizmlarining oshkoraligiga, soliqlarni hisoblash va to'lashga oid korxonalar faoliyatini soddalashtirishga, shuningdek, soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi. Ayni paytda bu hol respublikada qo'llaniladigan soliq tizimini xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish zarurati bilan izohlanadi.

Faqat 2000–2016-yillar mobaynida mamlakatda daromad solig'i 38 foizdan 23 foizga, yagona ijtimoiy to'lov 40 foizdan 24 foizga, kichik biznes subyektlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruv-chilar uchun yagona soliq 5 foizga tushirildi. Jismoniy shaxslar daromadidan soliq olish stavkasi ham tubdan qayta ko'rib chiqildi va kamaytirildi. Natijada 2016-yilga kelib iqtisodiyotda umumiy soliq yuki 40 foizdan 20,5 foizgacha pasaytirildi. Shunga muvofiq korxo-nalarning moliyaviy resurslari ham tegishli ravishda oshdi. Bu o'z navbatida, investitsiyalarning ko'payishi, korxonalarning aylanma mablag'larini to'ldirish, ishchi va xizmatchilarning ish haqi va daromadlarini oshirish uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilmoqda.

2015-yilda bunday soliq yengilliklari 130 milliard so'mdan ortiq mablag'ni tejash va uni korxonalar ixtiyorida qoldirib, ularning o'z aylanma mablag'larini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, aholi daromadlarini 90 milliard so'mdan ko'proq oshirish imkonini beradi.

2012-yil davomida dastur doirasida oltita muhim qonun, jumladan, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, yangi tahrirdagi "Tadbirkorlik faoliyati

erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek, ruxsat berish tartib-tamoyillarini soddalashtirish, soliq va statistik hisobotlarni qisqartirishga qaratilgan qonun hujjatlari va normativ aktlar majmuasi qabul qilindi.

Ruxsat berishga oid 80 ta tartib-tamoyil, litsenziyalanishi talab etiladigan 15 ta faoliyat turi bekor qilindi, statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarning shakllari va davriyligi bir yarim-ikki barobar qisqartirildi. Davlat va nazorat qiluvchi idoralarning tadbirkorlik subyektlari bilan elektron shakldagi bilvosita aloqasi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda”.

Ma’lumot uzatish, statistika, moliya va soliq hisobotlarining elektron shakli va tarmoqlari hayotimizga izchil va tizimli asosda joriy etilmoqda. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 89 foizdan ortig‘i soliq hisobotlarini, qariyb 86 foizi statistik hisobotlarni elektron shaklda topshirmoqda.

Respublikada 2005–2016-yillarda turli soliq stavkalarining o‘zgarishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i 1,7 baravar, dividend (foizlar) shaklida olinadigan daromadlardan foyda solig‘i 1,5 baravar, aksiz solig‘i 1,6 baravar, yagona soliq to‘lovi 2,6 baravar, yagona ijtimoiy to‘lov 1,2 baravar pasaytirildi (21.3-jadval).

21.3-jadval

Soliq stavkalarining o‘zgarishi, foizda

Soliq turi	2005	2009	2012	2014	2015	2016
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	15,0	10,0	9,0	8,0	7,5	7,5
Dividend/foizlar shaklida olinadigan daromadlardan foyda solig‘i	15	10	10	10	10	10
Aksiz solig‘i	31,0	21,5	20,0	23,0	23,0	23,0
Yagona soliq to‘lovi	13	7	6	6	6	6
Yagona ijtimoiy to‘lov	31	25	25	25	15	15

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi ma’lumotlari.

Iqtisodiyotga soliq yukining pasaytirilishida soliqlar sonining kamaytirilishi, soliq imtiyozlarining kengaytirilishi bilan birga soliq stavkalarining pasaytirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq stavkalarining pasaytirilishi ishlab chiqarish hajmi va daromadlarning ortishi natijasida soliq bazasining kengayishiga, davlat byudjeti xarajatlarini taqchillikka yo'l qo'ymasdan moliyalashtirishga zamin yaratadi.

2016-yilda soliq yukini yanada pasaytirish orqali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadining ko'proq qismini ular ixtiyorida qoldirish, iqtisodiy manfaatdorlikni, investitson faollikni va tovarlar hamda xizmatlarga bo'lgan ichki talabni oshirish borasidagi chora-tadbirlar davom ettiriladi.

Soliq yukini yanada kamaytirish, jumladan, yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb etadi.

2015-yilning 1-yanvaridan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun bir xil soliq stavkasi joriy qilinishi hisobiga (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli qarorining 14-ilovasi 2–4 bandlarida ko'rsatilganlar mustasno) unifikatsiya qilindi.

Bugungi kunda "soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish"[158] dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Soliq stavkalarining pasaytirishi ishlab chiqarish va daromadlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi natijasida soliqqa tortish bazasining kengayishiga imkon tug'iladi. Aynan shu holat mam-

[158] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 1-ilova. 3.1-band.

lakatimizda soliq stavkalari kamaytirilishiga qaramasdan, byudjet xarajatlarini taqchilliksiz moliyalashtirishga yetarli bo'lgan soliq tushumlari ko'rinishidagi byudjet daromadlarini shakllantirishga asos bo'lmoqda.

Belgilangan soliq imtiyozlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada kengaytirish va iqtisodiyotimiz salohiyatini oshirishga qulay imkon yaratadi.

Xulosalar

1. Moliya milliy iqtisodiyot va aholi farovonligining o'sishini aks ettirib, korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi va ularning jahon bozoridagi raqobatbardoshligining oshishini rag'batlantiradi, ishlab chiqarish tuzilmasini, tarmoqlararo va hududiy nisbatlarni shakllantiradi.

2. Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi. Moliya tizimi turli darajadagi byudjetlarni, ijtimoiy, mol-mulk va shaxsiy sug'urta fondlarini, davlatning valyuta zaxiralarini, korxona va firmalar, tijorat va notijorat tuzilmalarining pul fondlarini, boshqa maxsus pul fondlarini o'z ichiga oladi.

3. Umumdavlat moliyasi davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mol-mulkiy va shaxsiy sug'urtasi fondini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

4. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo'lishini taqozo qiladi. Lekin ko'pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida byudjet taqchilligi tez sur'atlar bilan o'sadi.

5. Byudjet taqchilligi asosan davlat qimmatli qog'ozlarini sotish, nobyudjet fondlari (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi)dan qarz olish ko'rinishidagi davlatning ichki va tashki qarzlari hisobiga qoplanadi.

6. Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai bo'lib soliqlar hisoblanadi. Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida, sof daromad-

ning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

7. Soliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanib, soliqlar odatda progressiv (o'sib boruvchi), proporsional (mutanosib) va regressiv (kamayib boruvchi) soliqlarga bo'linadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Moliya – pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

Moliyaviy munosabatlar – davlat, mintaqalar, tarmoqlar, korxona va tashkilotlar hamda alohida fuqarolar o'rtasida pul mablag'lari fondlarining harakati bilan bog'liq holda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmui.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliyaviy siyosat – davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar majmui.

Fiskal (soliq-byudjet) siyosati – davlat tomonidan iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish maqsadida soliqqa tortish va davlat sarfi tarkibini o'zgartirish bo'yicha qo'llaniluvchi chora-tadbirlar.

Davlat byudjeti – davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

Byudjet taqchilligi – davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi.

Davlat ichki qarzi – davlatning mamlakat ichida qimmatli qog'ozlarini chiqarish, turli nobyudjet fondlaridan olgan qarzi.

Davlat tashqi qarzi – xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.

Davlat krediti – davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Soliqlar – jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli.

Soliq stavkasi – soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi.

Laffer egri chizig'i – davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning iqtisodiy vazifalarini bayon qiling.
2. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo'g'inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat byudjetining o'rni qanday?
3. Davlat byudjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o'ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?
4. Byudjet taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy byudjet taqchilligini tushuntiring.
5. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning turlarini, asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Moliyaviy siyosat va fiskal siyosatning umumiy va farqli jihatlarini tavsiflang.
7. Davlatning ichki va tashqi qarzlari manbalarini izohlab bering.
8. Soliq yuki nima? Uning iqtisodiyotga ta'sirini ko'rsatib bering.
9. Laffer egri chizig'ining mazmuni nimadan iborat?
10. Keyingi yillarda O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni gapirib bering.

22-BOB. PUL-KREDIT TIZIMI. BANKLAR VA ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI

Pulning harakati bozor iqtisodiyotining moliyaviy asoslaridan biri bo'lib, barqaror pul tizimi, daromadlar va xarajatlar aylanishiga hayotiy tus bag'ishlaydi, butun iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlab beradi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga imkon tug'diradi va to'la bandlikka erishishni ta'minlaydi. Aksincha, beqaror pul tizimi ishlab chiqarish, bandlik va narx darajasining keskin tebranishiga asosiy sabab bo'lib, iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'lishi mumkin. Mazkur bobda pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlarining mazmuni yoritiladi, pulga bo'lgan talab va taklif tahlil qilinib, inflyatsiyaning mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, kredit tizimi, banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli, respublikada milliy valyutani mustahkamlash vazifalari tahlil qilinadi.

22.1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'lari to'xtovsiz harakatda bo'ladi, tovarlar va xizmatlarni ayirboshlash jarayonida resurslar uchun to'lovlarni amalga oshirishda, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni to'lashda pul qo'ldan qo'lga o'tib, aylanib turadi. **Pulning o'z vazifalarini bajarish jarayonidagi to'xtovsiz harakati pul muomalasi deyiladi.**

Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qo'yilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat **pul tizimi**ning muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1) milliy pul birligi (so'm, dollar, iena, funt sterling, marka va h.k.);

2) naqd pul muomalasida qonuniy to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog'oz, tanga va kredit pullar tizimi;

3) pul emissiyasi, ya'ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi;

4) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. **Naqd pul muomalasiga** bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. **Naqd pulsiz hisoblar** cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi **pul agregati** deb yuritiladi. **Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi** naqd va kredit pullarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi omillarga bog'liq:

1. Muayyan davrda (masalan, bir yil davomida) sotilishi va sotib olinishi lozim bo'lgan tovarlar summasi. Tovarlar va xizmatlar qancha ko'p bo'lsa, ularning narxi qancha baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul miqdori talab qilinadi.

2. Pul birligining aylanish tezligi. Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanadi. Bu ko'p omillarga, jumladan sotilayotgan tovarlar turiga, ularning xaridorgirligiga bog'liq bo'ladi. Pul qanchalik tez aylansa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori shuncha kam bo'ladi.

3. Kreditning rivojlanganlik darajasi, puldan to'lov vositasi sifatida foydalanish. Ko'pincha tovarlar qarzga (kreditga) sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori kredit miqdoriga muvofiq kamroq bo'ladi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pul miqdoriga ehtiyojni ko'paytiradi. Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_m \frac{T_b - X_k + X_t}{A_t},$$

bu yerda *Pm*– muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori;

Tb – sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasi (tovarlar miqdori × narxi);

Xk – kreditga sotilgan tovarlar summasi;

Xt – to'lash muddati kelgan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa to'lovlar summasi;

At – pulning aylanish tezligi.

Masalan sotilgan tovarlar summasi 100 mln. so'mni, kreditga sotilgan tovarlar – 20 mln. so'mni, ilgari kreditga sotilib, ayni paytda to'lash muddati kelgan tovarlar va boshqa to'lovlar – 40 mln. so'mni tashkil qilib, pulning aylanish tezligi 6 marta bo'lsa, u holda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori 20 mln. so'mga teng bo'ladi. Ya'ni:

$$P_m \frac{100 - 20 + 40}{40} = 20\ mln.\ so'm.$$

Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori pul muomalasi qonunini miqdoran ifodalaydi. Chunki muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga nisbatan muomalaga kam pul chiqarilsa, ko'pgina xo'jaliklarda pul etishmasligi, normal holatda xo'jalik yuritib bo'lmay qolish holati yuz beradi. Yoki, aksincha, muomalada bo'lgan pul miqdori sotilayotgan tovarlar va xizmatlar summasiga nisbatan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi uning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiyani bildiradi.

Pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olib, pul muomalasining quyidagi qonuniga ta'rif berish mumkin: **boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlar summasiga to'g'ri mutanosib, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosibdir.** Bunda sotishga chiqariladigan tovarlar summasi ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga va ularning narxiga bog'liq bo'ladi. Albatta bunda narx haqida gap ketganda AQSH iqtisodchisi I.Fisher ko'rsatganidek, hamma tovarlarning o'rtacha narxi olinmaydi. Chunki samolyot narxi bilan ruchka narxining o'rtachasini olib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir turdagi tovarning bozor narxida sotilgan summalari yig'indisi olinadi. Ta'kidlash lozimki, pulning hamma tizimlari uchun pul muomalasi qonuni umumiy bo'lib, shu bilan birga oltin va qog'oz pul muomalasi qonunlarining o'ziga xos xususiyatlari va bir-biridan farqlari mavjud.

Masalan,

1) oltin pul muomalada bo'lganda:

a) ortiqcha oltin pul xazinaga jalb qilinib, zaxirada to'planib boradi, zarur bo'lganda muomalaga yoki har xil bezaklar uchun foydalanishga chiqariladi;

b) tovarlar hajmi ko'payib, muomala uchun qo'shimcha pul zarur bo'lganda xazinadagi oltin pullar muomalaga kiritiladi. Shu yo'l bilan muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori o'z-o'zidan tartiblanadi.

2) Muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori tovarlar qiymatining miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda, oltinning o'z qiymatiga nisbatan esa teskari mutanosiblikda o'zgaradi:

a) oltin pul qiymati va tovarlar hajmi o'zgarmagan taqdirda tovarlar qiymati qancha past bo'lsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ham shuncha kam bo'ladi. Agar tovarlar qiymati o'zgarmasa, pulning miqdori tovarlar hajmining ortishiga qarab unga mutanosib ravishda ko'payadi;

b) agar tovarlar hajmi va qiymati o'zgarmaydi, deb faraz qilsak, muomaladagi oltin pul miqdori oltinning o'z qiymatiga qarab o'zgaradi, ya'ni uning qiymati oshsa, pul miqdori kamayadi, qiymati pasaysa, pul miqdori ko'payadi.

Qog'oz pul muomalasi qonunlari oltin pul muomalasidan farq qilib, uni quyidagicha ifodalash mumkin:

– qog'oz pul qancha miqdorda chiqarilmasin, unda belgilangan qiymat miqdori muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdorining qiymatiga teng bo'ladi;

– qog'oz pulning har bir birligida belgilangan qiymat miqdori muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul qiymatining muomalaga chiqarilgan qog'oz pul miqdori nisbatiga mos keladi.

Qog'oz pul tizimi amal qilib turgan davrdan buyon o'tgan real iqtisodiy hayot shuni ko'rsatadiki, oltin pul muomaladan chiqarilgan va qog'oz pullarning oltin pul bilan aloqasini yo'qotishga rasman urinilgan bo'lsada, uning nominal qiymat belgisi sifatidagi harakatida oltin pul bilan bo'lgan aloqasi hozirgacha obyektiv ravishda saqlanib qolgan. Faqat u modifikatsiyalashib, murakkablashib bormoqdaki,

natijada uni mantiqiy mushohada qilish orqali tushunish ancha qiyinlashadi. Shuning uchun ham qog'oz pullar har bir davlatning maxsus qonuni bilan muomalaga chiqariladi. Bu qonunda pulning belgisi, birliklari, miqyoslari va chet el valyutalari bilan rasmiy almashuv tartibi o'rnatiladi. Ammo uning qiymat belgisi sifatida qancha qiymatga ega ekanligini hech qanday davlat qonuni bilan o'rnatib bo'lmaydi, u faqat obyektiv iqtisodiy qonun – pul muomalasi qonuni asosida o'rnatiladi va amal qiladi[159].

Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi. Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun **M1 ... Mn pul agregatlari yoki tarkibiy qismi** tushunchasidan foydalaniladi. **Barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi.**

Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

M_0 – muomaladagi naqd (qog'oz va metall) pullar.

$M_1 = M_0$ + aholining joriy hisob varaqlaridagi pul qoldiqlari, korxonalarning hisob varaqlaridagi pul mablag'lari, banklardagi talab qilib olish mumkin bo'lgan pul omonatlari.

$M_2 = M_1$ + tijorat banklaridagi muddatli omonatlar va jamg'arma hisob varaqlaridagi pullar, ixtisoslashtirilgan moliyaviy muassasalardagi depozitlar va boshqa aktivlar. Mazkur agregat tarkibiga kiruvchi pul mablag'larini bevosita bir shaxsdan boshqa biriga o'tkazish hamda ayirboshlash bitimlarida foydalanish mumkin emas. Ular asosan jamg'arish vositasi vazifasini bajaradilar.

$M_3 = M_2$ + bank sertifikatlari + aniq maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

Bundan ko'rinadiki, pul massasining har bir alohida agregati o'zining likvidligi darajasiga ko'ra farqlanadi. **Likvidlik – bu turli**

---

[159] Yusupov R. A. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari. I.f.n. ... dis. avtoreferati. – T., 2001, 12–13-b.

aktivlarning o‘z qiymatini yo‘qotmasdan (ya’ni eng kam xarajatlar asosida) tezlik bilan naqd pulga aylana olish qobiliyatidir. Metall (tanga) va qog‘oz pullar eng yuqori likvidlikka ega bo‘ladi. Mijoz o‘zi istagan vaqtida olishi mumkin bo‘lgan bank hisob varaqalaridagi pul omonatlari ham likvidli hisoblanadi. Pul massasi tarkibiga to‘lov vositasi vazifasini bajarish layoqati pastroq bo‘lgan aktivlar qo‘shilib borishi bilan, ularning likvidlik darajasi ham pasayib boradi. Naqd pullar rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida umumiy pul massasining 9–10 foizini, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mustaqil hamdo‘stlik davlatlarida 35–40 foizni tashkil qiladi.

Pul bozori – bu mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag‘lariga bo‘lgan talab va pul taklifining o‘zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm.

Pul taklifi – bu bozorda pul sifatida muomalada bo‘lgan turli-tuman moliyaviy mablag‘lar, ya’ni pul agregatlari yig‘indisi hisoblanadi.

“Mamlakatdagi pul taklifi asosan Markaziy bank tomonidan tartibga solinsada, u iqtisodiyotdagi barcha taklifni qamrab ololmaydi. Chunki, bu jarayonga uy xo‘jaligi xatti-harakati hamda tijorat banklarining siyosati ham ta’sir ko‘rsatadi.

2015-yilda iqtisodiyotdagi pul taklifining, ya’ni pul massasining belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar doirasida bo‘lishiga erishildi. Bunda pul massasining o‘sishi quyidagi omillar ta’sirida shakllandi:

– tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor sohalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga va real sektordagi investitsion faollikni oshirishni yanada rag‘batlantirishga qaratilgan siyosatning davom ettirilishi natijasida banklarning jami kredit portfeli 2014-yilga nisbatan 27,3 foizga oshdi va uning pul massasi o‘sishiga ta’siri 73 foizni tashkil qildi.

– mamlakat to‘lov balansi ijobiy saldosining ta’minlanishi hisobiga bank tizimi sof tashqi aktivlarining ko‘payishi pul massasi o‘sishining 27 foizini ta’minladi.

O‘z navbatida, pul massasining o‘sishi quyidagi omillar hisobiga kamaytirilib, maqbul darajaga keltirildi:

– O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobvarag‘iga joriy tushumlar hisobidan qo‘shimcha ravishda 910

mln. AQSH dollari miqdorida mablag'lar yo'naltirilishi hisobiga pul massasining o'sishi oldi olindi. Ushbu omilning pul massasini kamaytirishdagi ulushi 83 foizni tashkil etdi;

– pul-kredit siyosatining bozor instrumentlaridan foydalanishning pul massasi kamayishiga ta'siri 11 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, Davlat byudjetining YaIMga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan ijro etilishi ham mos ravishda pul massasi o'sishining oldini olishga xizmat qildi"[160].

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan qismida "ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash"[161] ko'zda tutilgan.

Tijorat banklari o'z ixtiyorlarida bo'lgan aktivlari hisobiga yangi pullarni hosil qilishlari, ya'ni ularni bank krediti sifatida mijozlariga berishlari mumkin. To'g'ri, ularning bu faoliyatlari Markaziy bank tomonidan o'rnatiluvchi majburiy zaxira me'yorlari orqali cheklanadi. Ya'ni, tijorat banki o'zining joriy xarajatlarini qoplashi hamda mijozlar tomonidan kreditlar qaytarilmasligi xavfining oldini olish maqsadida ma'lum miqdordagi pul mablag'larini zaxira sifatida saqlashi lozim. Aktivlarning qolgan qismi esa muomalaga chiqarilib, u ma'lum muddatdan so'ng yana bankka qaytishi hamda majburiy zaxira me'yoridan ortiqcha qismi yana muomalaga chiqarilishi mumkin. To'xtovsiz ravishda takrorlanuvchi bu jarayon pul taklifi multiplikatori yoki bank multiplikatori deyiladi.

Pul taklifi multiplikatori – bu bankdagi pul depozitlari qo'shimcha ravishda o'sgan hajmining majburiy zaxiralar

---

[160] 2015-yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari // O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xisoboti. http://www.cbu.uz/uzc/node/47130

[161] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni

qo'shimcha hajmiga nisbati bo'lib, pul mablag'larining bir birlikka ko'payishi iqtisodiyotdagi pul taklifining qanchaga o'sishini ko'rsatadi:

$$m=\frac{M_s}{R} \quad \text{yoki} \quad m=\frac{1}{r},$$

bu yerda m – pul taklifi multiplikatori koeffitsienti;

Ms – bankdagi pul depozitlarining qo'shimcha ravishda o'sgan hajmi;

R – majburiy zaxiralar qo'shimcha hajmi;

r – majburiy zaxiraning foizdagi me'yori.

Masalan, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan majburiy zaxira me'yori 20 foizni tashkil etsin. Agar tijorat bank aktivi 100 mln. so'm deb olsak, u holda pul taklifi multiplikatori 5 ga teng bo'ladi (100 mln. so'm/20 mln. so'm). Bu esa tijorat banki 500 mln. so'm hajmida (100 mln. so'm x 5) yangi pullarni muomalaga chiqarish imkoniga ega ekanligini ko'rsatadi.

Pulga talab ikki qismdan iborat bo'lishi mumkin: ayirboshlash uchun zarur bo'lgan pulga bo'lgan talab hamda aktivlar sotib olish uchun zarur bo'lgan pulga talab.

Ayirboshlash uchun zarur bo'lgan pulga bo'lgan talab aholining kundalik shaxsiy ehtiyojlari, korxonalarning ish haqi to'lash, material, yoqilg'i va shu kabilarni sotib olish uchun kerak bo'lgan pul miqdorini ifodalaydi. Ayirboshlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori biz yuqorida ko'rsatgan formula bilan aniqlanadi. Ushbu formulaga asosan aholi va korxonalarga ikki holda ayirboshlash uchun ko'proq pul talab qilinadi: narxlar o'sganda va ishlab chiqarish hajmi ko'payganda.

Kishilar o'zlarining moliyaviy aktivlarini har xil shakllarda, masalan, korporatsiya aksiyalari, xususiy yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab turishlari mumkin. Demak, aktivlar tomonidan, ya'ni investitsiyalar uchun pulga talab ham mavjud bo'ladi.

Aktivlar tomonidan pulga talab foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Foiz stavkasi past bo'lsa, kishilar ko'proq miqdordagi naqd pulga egalik qilishni afzal ko'radi. Aksincha, foiz yuqori

bo‘lganda pulni ushlab turish foydasiz va aktivlar shaklidagi pul miqdori ko‘payadi. Shunday qilib, pulga bo‘lgan umumiy talab aktivlar tomonidan pulga bo‘lgan talab va ayirboshlash uchun pulga bo‘lgan talabning miqdori bilan aniqlanadi.

22.2. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari

Inflyatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy beqarorlikning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, hozirgi davrda barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgan holat hisoblanadi.

«Inflyatsiya» atamasi (lotincha inflatsion – shishmoq, kengaymoq) ilk bora Shimoliy Amerikada 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi davrida qo‘llanilib, muomalada qog‘oz pullarning haddan ortiq ko‘payib kyyetishini ifodalagan edi. Iqtisodiy adabiyotlarda esa bu atama XX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng tarqaldi. Inflyatsiya tushunchasi juda serqirra bo‘lib, iqtisodiy adabiyotlarda uning ko‘plab izohlari mavjud. Jumladan:

Inflyatsiya – bu pul massasining tovar aylanmasi ehtiyojlariga nisbatan ortib ketishi natijasida pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o‘sishidir[162].

Inflyatsiya – bu muomala sohasining pul belgilari bilan milliy xo‘jalik haqiqiy ehtiyojlaridan ortiqcha miqdorda to‘lib ketishi[163].

Inflyatsiya – bu iqtisodiy tizimda narx o‘sishining barqaror tendensiyasi orqali ifodalanuvchi makroiqtisodiy hodisa[164].

Inflyatsiya – bu:

– muomalada mavjud bo‘lgan naqd qog‘oz pullar yoki naqd bo‘lmagan qog‘oz pul hajmining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan tashqari ko‘payib ketishi;

---

[162] Курс экономической теории. Учеб. пособие / Под ред. Чепурина М. Н., Киселевой Е. А. – Киров, изд. «АСА», 1995. – 423 с..

[163] Борисов Е.Ф. Экономическая теория: Учебник / 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, 170-с.

[164] Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В. Д. Камаева / 10-е изд., перераб. и доп. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, 416-с.

– pullarning xarid qobiliyatining pasayishi;

– uzoq davr mobaynida narxlarning umumiy o'sishi[165].

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, inflyatsiya tushunchasini yoritishda bir tomonlama yondashishga yo'l qo'yilib, uning mazmunini to'la va yetarli darajada ochib bera olinmagan. Inflyatsiyani to'g'ri tushunish uchun pulning qadrsizlanishini va uning sabablarini bilish muhim ahamiyatga egadir.

Pulning qadrsizlanishi faqatgina qog'oz pullargagina xos bo'lgan hodisa emas, u hamma pullarga, jumladan metall (oltin) pullarga ham xosdir. Oltin pul quyidagi ikki holatda qadrsizlanadi:

1) oltin qazib olish texnologiyasi takomillashib, yangi texnikalarni qo'llagan holda mehnat unumdorligining oshishi va, binobarin, oltin qiymatining pasayishi natijasida. Agar boshqa tovarlar qiymati o'zgarmagan holda oltin qiymati ikki barobar pasaygan, deb faraz qilsak, u holda tovarlar odatdagi hajmlarining muomalasi uchun ikki barobar ko'proq oltin pul kerak bo'ladi. Demak, bu holatda tovarlar narxi oshib, oltin pulning qadrsizlanishi ro'y beradi;

2) ba'zi iqtisodchilar metall pullarning qadrsizlanishini qadimdan ma'lum bo'lgan metall pullarni soxtalashtirish jarayoni bilan ham bog'laydilar. Qadimgi Gretsiya, Rim imperiyasida eramizga qadar va keyinchalik boshqa davlatlarda ham oltin va kumush tangalar tarkibini nisbatan arzon metallar aralashtirish yoki ularning og'irligini o'zgartirish orqali soxtalashtirish holatlari uchrab turgan. Bu esa metall pullarning o'z qadrini yo'qotishini keltirib chiqargan.

Boshqa holatlarda oltin yoki kumush pullar muomalada bo'lgan chog'da ularning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiya jarayoni ro'y bermaydi. Iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar hajmidan ortiqcha bo'lgan pul massasi – oltin va kumush tangalar xazinaga aylanadi. Aksincha, iqtisodiyotda tovarlar ko'payib, muomala vositasini bajarish uchun pul yetishmagan taqdirda ularni osonlik bilan jamg'arma tarkibidan chiqarib, muomalaga kiritilgan. Bu esa boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda oltin va kumush pullar inflyatsiyaga uchramasligini anglatadi.

---

[165] Экономическая теория: Учебник / Изд., испр. и доп. Под общ. ред. акад. В.И. Видяпина, А. И. Добрынина, Г. П. Журавлевой, Л. С. Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 538-б.

Real qiymatga ega bo'lmagan qog'oz pullarning muomalaga kirib kelishi esa inflyatsiyaning kelib chiqishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Chunki qog'oz pullarni jamg'arma sifatida muomaladan chiqarish kam samarali va ishonchsiz vosita bo'lib, ular pullarning ortiqchaligi sharoitida ham muomalada qoladilar. Natijada muomalada ortiqcha qog'oz pullarning ko'payishi mavjud yalpi talabni yanada kuchaytirib, narxlarning o'sishini tezlashtiradi.

Inflyatsiya bozor xo'jaligining har xil sohalarida takror ishlab chiqarish nomutanosibliklari tug'diradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Biroq, shuni ham nazarda tutish kerakki, alohida tovar bozorlaridagi talab va taklif nisbatining har qanday buzilishi ham inflyatsiyani keltirib chiqaravermaydi. Shuningdek, iqtisodiyotdagi davriy o'zgarishlar, masalan, talabning mavsum bilan bog'liq holda oshishi yoki tabiiy ofatlar natijasida tovarlarga talabning kuchayishi keltirib chiqargan narxlarning o'sishi inflyatsiyani anglatmaydi. Bu narxlar ma'lum muddat o'tgach, bozordagi talab va taklif nisbati muvozanatga kelgach, yana pasayishi mumkin. Yuqoridagilardan xulosa qilib inflyatsiyaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: **inflyatsiya deb pul muomalasi qonunlari buzilishi bilan bog'liq holda qog'oz pullarning qadrsizlanishiga aytiladi.** Bu yerda qog'oz pul miqdorining nisbatan ortib ketib, uning qadrsizlanishiga pulning ortiqcha emissiya qilinishi, pul emissiyasi o'zgarmasdan, uning aylanish tezligining oshishi, muomaladagi pul miqdori o'zgarmasa ham tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining kamayib ketishi, tovarlar va xizmatlar ijtimoiy qiymatining va, binobarin, narxining pasayishi va nihoyat, pul qiymatining pasayishi kabi omillar ta'sir qiladi. Mana shu omillar yana bir bor inflyatsiya – tovarlar narxining o'sishidir, degan ta'rifning to'liq va yetarli emasligini ko'rsatadi. Qog'oz pullar inflyatsiyaga uchraganda uch xil narsaga nisbatan qadrsizlanadi:

1) oltinga nisbatan – bu oltinning qog'oz pullarda bozor narxining oshishida o'z ifodasini topadi;

2) tovarlarga nisbatan – bu tovarlar narxining oshishida o'z ifodasini topadi;

3) bardoshli chet el valyutalariga nisbatan – bu chet el valyutalariga nisbatan milliy pul kursining tushib ketishida o'z ifodasini topadi.

Real iqtisodiy hayotda barcha kishilar tomonidan har kuni tovar va xizmatlar sotib olinayotganligi uchun qog'oz pullarning tovar va xizmatlarga nisbatan inflyatsiyasiga alohida e'tibor qaratiladi va adabiyotlarda inflyatsiya darajasi narxlarning o'zgarishiga qarab o'lchanadi.

Inflyatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan o'lchanadi. **Narxlar indeksi joriy davrdagi iste'mol narxlarini bazis davrdagi iste'mol narxlariga nisbati orqali aniqlanadi:**

$$NI = \frac{TN_j}{TN_b} \times 100\%,$$

bu yerda *NI* – narxlar indeksi;

TNj – joriy davrdagi iste'mol tovarlari narxi;

TNb – bazis davrdagi iste'mol tovarlari narxi.

Narxlar o'zgarishini hisobga olish qamroviga ko'ra narxlar indeksining quyidagi turlarini hisoblash mumkin:

– iste'mol narxlari indeksi;

– ulgurji narxlar indeksi;

– narxlar indeksi – YaIM deflyatori;

– eksport va import narxlar indeksi.

Narxlar indeksidan foydalangan holda **inflyatsiya sur'atini (IS)** quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$IS = \frac{TN_j - TN_b}{TN_b} \times 100\%.$$

Masalan, iste'mol tovarlarining narx indeksi 2008-yilda 112,6 foizga, 2007-yilda 116,8 foizga teng bo'lsa, inflyatsiya sur'ati quyidagicha bo'ladi:

$$Inflyasiya\ sur'ati = \frac{116{,}8 - 112{,}6}{112{,}6} \times 100 = 3{,}7\%.$$

Ba'zi bir mamlakatlarda inflyatsiya sur'ati juda yuqori bo'lganligi sababli, narxlarning qancha vaqt mobaynida 2 baravar o'sishi mumkinligi «70 miqdori qoidasi» yordamida aniqlanadi. Buning uchun 70 sonini inflyatsiyaning o'rtacha yillik darajasiga bo'linadi. Bizning misolimida bu ko'rsatkich deyarli 19-yilni (70/3,7 =18,9) tashkil etadi, ya'ni inflyatsiyaning yillik 3,7% darajasida 19-yildan so'ng iqtisodiyotdagi narxlar 2 baravarga o'sadi.

Mamlakatimizda inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichlarini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (22.1-jadval).

2015-yil yakuni bo'yicha iste'mol baholari indeksi asosida hisoblangan inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil etdi va 2014-yilga (6,1 foiz) nisbatan 0,5 foiz bandga pasaydi.

Xususan, 2015-yilda oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari 1,3 foizga oshib, inflyatsiya darajasiga ta'siri 0,6 foizni, nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari 8,8 foizga oshib, inflyatsiya darajasiga ta'siri 2,9 foizni tashkil etdi.

2015-yilda ko'rsatilgan xizmatlar narxlari 10,7 foizga oshdi va inflyatsiya darajasiga ta'siri 2,1 foizni tashkil qildi[166].

22.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan narxlarning o'sishi, foizda[167]

Yillar	Oziq-ovqat tovarlari	Nooziq-ovqat tovarlari	Xizmatlar
2011	6,6	4,8	14,2
2012	5,1	4,3	16,5
2013	3,9	7,4	13,8
2014	2,2	7,3	11,3
2015	1,3	8,8	10,7

Kelib chiqish sabablari va o'sish sur'atlariga qarab, inflyatsiyaning bir qancha turlarini farqlash mumkin.

1. Talab inflyatsiyasi. Narx darajasining an'anaviy o'zgarishi jami talab ortiqchaligi bilan tushuntiriladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi mahsulotning real hajmini ko'paytirib, ortiqcha talabni qondira olmaydi. Chunki barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan bo'ladi. Shu sababli bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib

[166] 2015-yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari // O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xisoboti. http://www.cbu.uz/uzc/node/47130.

[167] Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

keladi va talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi. Talab inflyatsiyasini quyidagi rasm orqali izohlash mumkin (22.1-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, iqtisodiyotdagi pul hajmining ko'payishi qisqa muddat ichida yalpi talabni dan ga siljishiga olib keladi. Agar bu vaqtda iqtisodiyotning holati yalpi taklif egri chizig'ining oraliq (2) yoki tik (klassik) (3) kesmasiga mos kelsa, bu narx darajasining o'sishiga, ya'ni talab inflyatsiyasining ro'y berishiga olib keladi.



22.1-rasm. Talab inflyatsiyasi

2. Taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya ishlab chiqarish xarajatlari va bozordagi taklifning o'zgarishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi natijasida kelib chiqadigan inflyatsiya mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi hisobiga narxlarning oshishini bildiradi. Bu holatni ham rasm orqali ko'rib chiqamiz (22.2-rasm).



22.2-rasm. Taklif inflyatsiyasi

Rasmdan ko'rinadiki, xarajatlarning o'sishi natijasida yalpi taklif egri chizig'ining dan ga qisqarishi mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi xarajat miqdorini oshirib, narxlarning dan darajaga qadar ko'tarilishiga, real ishlab chiqarish hajmining esa dan ga qadar qisqarishiga olib keladi.

Shuningdek, inflyatsiyaning quyidagi sabablarini ham ko'rsatish mumkin:

– monopolistik faoliyatlarning paydo bo'lishi va amal qilishi;
– noto'g'ri soliq siyosati yuritish;
– jahon bozorlaridagi narxlarning o'sishi;
– harbiy sohadagi xarajatlarning o'sishi va hokazo.

Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi iqtisodiyotda foydani va mahsulot hajmini qisqartiradi. Natijada tovarlar taklifi ham qisqaradi. Bu o'z navbatida narx darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari nominal ish haqi, xomashyo va energiya narxlarining o'sishi hisobiga ortib boradi.

Inflyatsiyaning o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya kabi turlari ham mavjud. **O'rmalab boruvchi inflyatsiya** holatida narxlar yiliga 10 foizgacha, **jadal inflyatsiyada** 20 dan 200 foizgacha, **giperinflyatsiyada** 200 foizdan yuqori darajada o'sishi kuzatiladi.

Bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflyatsiya farqlanadi. **Kutilayotgan inflyatsiya** va uning oqibatlarini oldindan bashorat qilish mumkin, **kutilmagan inflyatsiyani** oldindan aytib bo'lmaydi. Birinchi holda inflyatsiyaning kutilayotgan salbiy oqibatlariga tayyorlanib, uni sezilarli darajada yumshatish mumkin. Ikkinchi holda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy ahvolining sezilarli yomonlashuvi ro'y berishi mumkin.

22.3. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul doimiy va uzluksiz harakatda bo'lishi lozim. Buning uchun esa bo'sh pul mablag'lari ham pul-kredit muassasalari orqali to'planib, iqtisodiyotga investitsiyalar sifatida yo'naltirilishi lozim. Bu jarayonlarni amalga oshirishda **kredit munosabatlari** muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital **ssuda kapitali** deyilsa, uning harakati **kreditning mazmunini** tashkil qiladi.

Kredit munosabatlari ikki subyekt o'rtasida, ya'ni pul egasi (qarz beruvchi) va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi.

Turli xil korxona va firmalar, tashkilotlar, davlat va uning muassasalari hamda aholining keng qatlami **kredit munosabatlarining subyektlari** hisoblanadi. Sanab o'tilgan subyektlarning aynan har biri bir vaqtning o'zida ham qarz oluvchi va ham qarz beruvchi o'rnida chiqishi mumkin.

Kredit munosabatlarining obyekti jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir.

Takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag'larining doiraviy aylanishi **kredit munosabatlarining** mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga doiraviy aylanish jarayonida muqarrar sur'atda vaqtincha bo'sh turadigan pul mablag'lari va boshqa pul resurslari **kredit mablag'larining manbaini** tashkil qiladi.

Kredit resurslarining **asosiy manbalari** quyidagilardan iborat:

1) korxonalarning amortizatsiya ajratmalari;

2) mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari;

3) korxonalarning ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari;

4) korxonalar foydasi. Ular davlat byudjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek uning tegishli qismi korxona ehtiyojlari uchun foydalanguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi;

5) bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari;

6) aholining bo'sh pul mablag'lari.

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Kreditning bir qator vazifalari mavjud. Birinchidan, kredit **qayta taqsimlash vazifasini** bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag'lari ssuda fondi shaklida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni **xo'jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini** bajaradi. Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan **muomala xarajatlarini tejash vazifasini** bajaradi. To'rtinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali **iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini** bajaradi. Beshinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy subyektlar faoliyati ustidan **nazorat qilish vazifasini** bajaradi.

Nihoyat, kreditning o'ziga xos vazifasi **iqtisodiyotni tartibga solish** hisoblanadi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi.

Kredit bir qator turlarda amalga oshiriladi. Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki – pul va tovar shakllaridan foydalanib kelingan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida **pul kreditidan** kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste'mol va xalqaro kredit shakllarini oladi.

Bank krediti – pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilar (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori)ga pul ssudalari shaklida beriluvchi kredit. Bank krediti yo'nalishi, muddati va kredit bitimlari summasi bo'yicha cheklanmaydi. Uning foydalanish sohasi ham juda keng, tovar muomalasidan tortib kapital jamg'arilishigacha xizmat qiladi.

Xo'jaliklararo kredit – bir korxona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriluvchi kredit. U korxonalarning kapital qurilish, qishloq xo'jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.

Tijorat krediti – korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan krediti. Tijorat krediti, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi.

Iste'mol krediti – xususiy shaxslarga, birinchi navbatda, uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladigan kredit. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarning haqini kechiktirib to'lash bilan sotish shaklida yoki iste'mol maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste'mol kreditidan foydalanganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi.

Ipoteka krediti – ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi kredit. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Davlat krediti – davlat pul mablag'lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadigan kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli. Davlat krediti mablag'lari manbai bo'lib, davlat qarz obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklida, avvalo, davlat byudjeti kamomadini qoplash uchun foydalanadi.

Xalqaro kredit – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyon etuvchi shakli. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda kreditlashning lizing, faktoring, forfeyting, trast kabi shakllari keng rivojlanib bormoqda.

Lizing – bu kreditning pulsiz shakli bo'lib, odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat. Lizing bo'yicha bitimlar 1 yildan to 10-yilga qadar tuzilishi mumkin. Odatda ishlab chiqarish vositalarini ularning egalari bevosita emas, balki maxsus lizing kompaniyalari orqali ijaraga beradilar.

Faktoring – boshqa iqtisodiy subyektlarning qarzdorlik bo'yicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosa-

batlari. Bunda bank korxonalarning «debitorlik hisob varaqalari»ni o‘zi uchun foydali shartlar asosida naqd pulga sotib oladi, keyin esa bu qarzlarni qarzdordan undirib oladi.

Forfeyting – faktoring munosabatlarining uzoq muddatli shakli. Bunda qarzdorlik bo‘yicha huquqlarni sotib olgan bank ularni odatda 1–5 yil vaqt o‘tgandan so‘ng undirishi mumkin bo‘ladi.

Trast – bu mijozlarning kapitallarini boshqarish bo‘yicha operatsiyalar majmui.

Kredit berish quyidagi **tamoyillarga** asoslanadi:

– ssuda berishning maqsadli tavsifi;

– kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarilishi;

– ssudaning moddiy ta’minlanganligi va to‘lovliligi.

Qarzga berilgan ssudaning albatta qaytarilib berilishi, undan foydalanilganlik uchun olingan foydadan ssuda foizini to‘lash zarurati korxonalarni xo‘jalik yuritishning eng samarali usullarini izlab topishga undaydi.

Qarzga (ssudaga) berilgan pul hisobiga olinadigan daromad foiz yoki foizli daromad deyiladi. Shu daromad (foiz)ning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi foiz stavkasi yoki foiz normasini tashkil qiladi:

$$r' = \frac{r}{K_{ssuda}} \cdot 100,$$

bu yerda r’ – foiz normasi;

r – foiz summasi;

Kssuda – qarzga berilgan pul (kapital) summasi.

Agar 100 ming so‘m yiliga 20 ming ssuda foizi to‘lash sharti bilan qarzga berilgan bo‘lsa, ssuda foizi normasi 20 foizni tashkil qiladi.

22.4. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini ta’minlashda banklar muhim rol o‘ynaydi. **Banklar pul mablag‘larini to‘plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi**

iqtisodiy muassasadir. Banklar faoliyatining asosiy tomonlaridan biri kredit munosabatlariga xizmat qilish bo'lib, ular kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi.

Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga **markaziy (emission) bank** va **tijorat (depozitli) banklarning** tarmoq otgan shaxobchalarini oladi.

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Davlat banki **Markaziy bank** hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko'pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo'lib, u o'tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o'rnatiladi. Ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklari va jamg'arma muassasalaridan mablag'larni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko'ra markaziy bank «banklar banki» deyiladi. Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faoliyat ko'rsatmaydi, davlatning butun iqtisodiyot holatini yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Markaziy bank quyidagi **vazifalarni** bajaradi:

1) boshqa bank muassasalarining majburiy zaxiralarini saqlaydi. Bu zaxiralar pul taklifini boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini saqlash vazifasini ham bajaradi;

2) cheklarni qayd (inkassatsiya) qilish mexanizmini ta'minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi;

3) davlatning monetar siyosatini amalga oshiradi;

4) barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi;

5) xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlaydi;

6) pul taklifi ustidan nazorat qilish mas'uliyatini oladi, milliy valyutani muomalaga chiqaradi. Iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

Monetar siyosatning asosiy maqsadi inflyatsiyani past darajada ushlab turish va so'mning barqaror ayirboshlash kursini ta'minlashdan iborat. Mazkur vazifalar makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash

va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan umumiqtisodiy siyosat bilan uzviy bog'langandir.

O'zbekiston Markaziy banki o'zining asosiy vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, bank xizmatlarini erkinlashtirishga qaratilgan siyosatni ham olib boradi. Bank tomonidan pul-kredit siyosatining vositalari sifatida ochiq bozorda qimmatli qog'ozlar operatsiyasi, ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar, qayta moliyalashtirish stavkasi va tijorat banklariga majburiy zaxira talablari vositalari ham ishga solinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida banklar va korxonalar teng huquqli sheriklar sifatida chiqadi. Kredit berishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi sifat darajasiga erishishni ta'minlaydigan tadbirlarga ustunlik beriladi.

Banklar o'z tasarrufidagi resurslardan foydalanish samaradorligi uchun moddiy jihatdan mas'ul hisoblanadi va shu sababli kredit-pul operatsiyalari ko'proq ularning iqtisodiy foydaliligiga va samaradorligiga qarab beriladi.

Tijorat banklari o'zlarining xo'jalik mavqeiga ko'ra aksionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga ko'ra, faoliyatning biron bir turiga xizmat ko'rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashgan tijorat banklar – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi. Jumladan, respublikamizda Sanoat qurilish banki – sanoat, transport, aloqa va moddiy-texnika ta'minoti sohalarida; Agrobank – agrosanoat majmui tarmoqlari va sohalarida; Tadbirkor banki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kooperativ va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasida kredit-pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

Xalq banki – mamlakatda omonat ishlarini tashkil etish, naqd pulsiz hisob-kitob qilish va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirish, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berish kabi operatsiyalarni ta'minlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxona va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalarga kredit berishda qatnashadi, yig'ma valyuta rejasining ijrosini, valyuta resurslaridan tejab foydalanishini

nazorat qiladi, shuningdek, tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob-kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashuvi bo'yicha **investitsion** va **ipoteka banklarini** ajratib ko'rsatish lozim.

Investitsion banklar – maxsus kredit muassasalari bo'lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlarining boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan, davlat va tadbirkorlar) ga taqdim qiladi.

Investitsion kompaniyalar o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish yo'li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to'playdi va ularni korxona (milliy va chet el)lar aksiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday kompaniyalar to'liq investorlar manfaatini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo'yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi.

Ipoteka banklar – bu ko'chmas mulk (yer va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muasasalari. Ipoteka bankining resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingan ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi.

Mamlakatimizda tijorat banklari faoliyatining kengayib borayotganligini kuzatish mumkin (22.2-jadval).

Mamlakatimizda esa birgina tijorat banklarining aktivlari miqdori, «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonunga muvofiq shakllangan zaxiralarni hisobga olgan holda, 2016-yilda 44,6 trln. so'mdan oshdi. Bu aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning jalb qilingan depozitlari hajmidan taxminan 2,4 barobar ko'p demakdir.

Bank aktivlari hajmining sezilarli darajada oshganini hisobga olib, bugungi kunda respublikamizda aholining banklardagi barcha depozitlarini davlat tomonidan yuz foiz kafolatlash ta'minlanmoqda.

Mamlakatimiz bank tizimidagi islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri ham tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va ularning yetarliligini ta'minlashdan iboratdir.

22.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari, mlrd. so‘m[168]

Ko‘rsatkich	2000	2005	2010	2011	2012	2013	2015	2016
Tijorat banklari aktivlari	952,5	5630,6	21106,0	27453,3	33744,6	43868,0	65176,0	80362,0
Tijorat banklari yalpi kapitali hajmi	952,5	930,9	4100,1	5000,0	5253,6	6567,0	7784,0	9353,0
Ajratilgan kreditlar hajmi	608,3	3876,3	11539,3	15652,0	20407,7	26530,0	42685,2	53378,5
Jami omonatlar qiymati	232,8	1688,7	13236,3	17400,0	20062,2	26121,0	35624,1	44623,4

Bank tizimida asosiy e’tibor 2016-yilda bank tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirishda asosiy e’tibor O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2344-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2015-yil 7-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2014-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti haqida»gi SQ-51-III-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bank tizimiga oid boshqa qarorlarida belgilab berilgan vazifalarning bajarilishini ta’minlashga qaratiladi, jumladan:

– tijorat banklarining kapitallashuvi va depozit bazasini oshirishni ta’minlashga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda tijorat banklarining rolini yanada kengaytirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni yanada faollashtirish;

– investitsion iqlim va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash borasida bank tizimi zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta’minlash;

[168] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari

– ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etgan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish, ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish;

– bank nazoratini xalqaro andoza va me’yorlar asosida yanada takomillashtirish;

– respublika tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirib borish;

– mikromoliyalash tizimi va nobank kredit tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish[169].

2017-yilning 1-yanvar holatiga respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari soni 27 tani tashkil etib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 11 tasi aksiyadorlik tijorat banki, 8 tasi xususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi.

Jumladan, hududlarda ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari ko‘lamini oshirish hamda xususiy kapitalni bank tizimiga jalb etishni yanada kengaytirish maqsadida 2016-yil oktyabr oyida O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunining 53-moddasiga muvofiq, Farg‘ona shahridagi «Madad Invest Bank» xususiy aksiyadorlik tijorat bankiga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berildi.

Shuningdek, mamlakatimizda xorijiy banklarning 6 ta vakolatxonasi o‘z faoliyatini yuritmoqda, ular bilan respublikamiz tijorat banklari tomonidan keng qamrovli va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

Respublikamizning barcha hududlarida tijorat banklarining tarmoqlari yanada kengayib, 2016-yil holatiga banklarning filiallari soni 855 taga etdi.

Bank muassasalarini aholi zich joylashgan manzillar hamda ishlab chiqarish hududlariga yaqinlashtirish maqsadida tijorat banklarining 4299 ta mini-banki va maxsus kassalari tashkil etilgan bo‘lib, shularning 2221 tasi qishloq joylardagi aholi va fermer xo‘jaliklariga sifatli bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

---

[169] 2015-yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari // O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoboti. http://www.cbu.uz/uzc/node/47130.

Banklarning kapitali va mijozlardan jalb qilingan depozitlar hajmining o'sishi respublika iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlarida ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya qilish, istiqbolli va yuqori samarali investitsiya loyihalarini amalga oshirish, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda banklar ishtirokini yanada kengaytirish imkonini bermoqda. Banklar tomonidan uzoq muddatga ajratilgan investitsion kreditlardan olingan daromadlar bo'yicha soliq imtiyozlarining berilganligi banklarning ushbu jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirib kelmoqda. Natijada, tijorat banklari tomonidan ustuvor tarmoq korxonalarini modernizatsiya qilish hamda texnik qayta jihozlash uchun kreditlar ajratilishi yanada faollashdi. So'nggi yillarda bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini kengaytirish vositalaridan biri bo'lgan plastik kartochkalardan foydalanish tizimi jadal rivojlantirilmoqda. Hukumat qarorlariga asosan, plastik kartochkalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda foydalaniladigan plastik kartochkalar tizimiga oid jihozlarni import qilishda bojxona imtiyozlarining berilganligi banklarning bu boradagi faoliyatlarini yanada rag'batlantirdi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning zamonaviy va mijoz uchun qulay turlaridan biri bo'lgan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimining qo'llash doirasi kengayib, tadbirkorlar o'rtasida tobora ommalashib bormoqda.

2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2042 mingtani, shundan «Internet-banking» va «Bank-mijoz» dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar 135,6 mingtani, «Mobil-banking» va «SMS-banking» xizmatlaridan foydalanuvchilar 1906,5 mingtani tashkil etib, ularning soni 2015-yilga nisbatan qariyb 2-barobarga ko'paydi.

Bank plastik kartalari muomalasini kengaytirish va takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida so'nggi 5 yil davomida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 2 barobardan ziyodga oshdi va 2016-yil 1-yanvar holatiga ularning umumiy soni 16,3 mln. donadan ortiqni tashkil etdi.[170]

[170] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlarida o‘rnatilgan to‘lov terminallari soni 183 ming donadan oshdi.

Shuningdek, joylarda to‘lovlarni uzluksiz qabul qilishni ta’minlash maqsadida o‘rnatilgan infokiosk va bankomatlar soni 2345 taga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 24-yanvardagi “O‘zagroeksportbank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil qilish to‘g‘risida”gi PQ-2740-sonli Qaroriga muvofiq yangi bank barpo etildi. Uning asosiy maqsadi Eksport qiluvchi tashkilotlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, meva-sabzavot mahsulotlarining eksport imkoniyatlarini samarali va barqaror rivojlantirishni ta’minlash, agrosanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va aholi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularga keng ko‘lamdagi bank-moliya xizmat turlarini ko‘rsatish bo‘lib hisoblanadi.

“Eksport qiluvchi tashkilotlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, meva-sabzavot mahsulotlarining eksport imkoniyatlarini samarali va barqaror rivojlantirishni ta’minlash, agrosanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va aholi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ularga keng ko‘lamdagi bank-moliya xizmat turlarini ko‘rsatadi.

«O‘zagroeksportbank» ATBning boshlang‘ich ustav kapitali ekvivalenti 10,0 million evrodan iborat.

Ma’lumot uchun qabul qilinsinki, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari, shu jumladan xalqaro moliya institutlari belgilangan tartibda «O‘zagroeksportbank» ATB aksiyadorlari bo‘lishlari mumkin.

«O‘zagroeksportbank» ATBga 2020-yilning 1-yanvariga qadar muddatda 15 foizdan kam bo‘lmagan ulush bilan strategik xorijiy investorni ustav kapitaliga jalb qiladi.

«O‘zagroeksportbank» ATBning aksiyadorlari sifatida jahonga mashhur soha kompaniyalari va banklarini, shuningdek xalqaro moliya institutlarini jalb etadi.

Agrosanoat tarmog‘i investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga xalqaro moliya institutlari va chet el tijorat banklarining mablag‘larini jalb yetishi mumkin.

«O‘zagroeksportbank» ATB va uning filiallari davlat ro‘yxatiga olingan sanadan boshlab 5 yil muddatga barcha turdagi soliqlar ham-

da davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinsin, bo'shayotgan mablag'lar bankning resurs va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga maqsadli yo'naltiriladi"[171].

22.5. O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi

Respublikada milliy valyutani mustahkamlash ishida **so'mning xarid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash** asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish va zarur ehtiyojlar hosil qilish orqali erishiladi. Bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirib, mahsulot sifatini yaxshilab borish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste'mol mollari sotishning umumiy hajmida milliy mahsulotlar hissasi oshirib boriladi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali so'mning barqarorligini ta'minlash chetdan mahsulot keltirishni inkor qilmaydi. Aholini sifatli chet el mollari bilan ta'minlash maqsadida import ham rag'batlantirib boriladi. So'mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valyutaga erkin almashtirilishi yetarli **valyuta zaxirasi** bo'lishiga bog'liq. Unga erishishda korxonalar va barcha subyektlarning, jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan rag'batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega.

2015-yilda **majburiy rezerv talablari** instrumentidan tijorat banklarining kredit resurslari miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiyotdagi pul taklifini tartibga solishning muhim vositasi sifatida foydalanildi.

Bunda majburiy rezerv me'yorlari inflyatsiya va pul massasining 2015-yilga belgilangan maqsadli parametrlaridan kelib chiqib hamda tijorat banklarida uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida muddati 1 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 15

[171] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi "O'zagroeksportbank" aksiyadorlik tijorat bankini tashkil qilish to'g'risida"gi PQ-2740-sonli Qarori

foiz, muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar uchun – 12 foiz, muddati 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar uchun 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan ushlab turildi.

Tijorat banklarining majburiy rezervlari hajmi jalb qilingan depozitlar hajmining oshishiga mutanosib ravishda o'sib bormoqda. Natijada 2015-yilda tijorat banklari resurs bazasining kengayishiga mos ravishda Markaziy bankdagi majburiy zaxiralar hajmi 813 mlrd. so'mga ko'paydi.

Shuningdek, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi instrumentidan ham pul bozoridagi foiz stavkalarini boshqarishda hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini rag'batlantirish maqsadida foydalanildi.

Inflyatsiya darajasi, pul massasining va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning maqsadli parametrlaridan kelib chiqib, qayta moliyalash stavkasi 2015-yilning 1-yanvaridan yillik 10 foizdan 9 foizga tushirildi va yil davomida o'zgartirilmagan holda saqlab turildi.

Qayta moliyalash stavkasini shu holatda ushlab turilishi pul bozorida moliyaviy resurslarga bo'lgan talab va taklifning muvozanatini saqlashga, real sektor korxonalarining investitsion imkoniyatini oshirishga, iqtisodiyotni kreditlash hajmini yanada kengaytirish va ayni paytda tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Jumladan, keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida ro'y berayotgan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar bu borada qulay imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2022-sonli Qaroriga muvofiq, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida respublika mintaqalari-da hududiy filiallari bo'lgan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi» tashkil etildi.

Ushbu Jamg'armaning asosiy vazifasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatishdan iborat bo'lib,

o‘tgan qisqa davrdagi faoliyati davomida Jamg‘arma tomonidan 153 ta tadbirkorlik subyektiga umumiy qiymati 56 mln. dollardan ziyod bo‘lgan eksport shartnomalarini tuzishda amaliy yordam ko‘rsatildi[172].

2017-yilda ham **valyuta siyosatini** amalga oshirishda asosiy e’tibor milliy valyuta barqarorligini ta’minlashga hamda eksportbop va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rag‘batlantirishga qaratiladi.

Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda **iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo‘jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag‘batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.**

Aynan ana shu sohalarda hali foydalanilmagan ulkan imkoniyat va salohiyat ko‘p. Eksportga mahsulot chiqaradigan sanoat korxonalaridan farqli ravishda kichik biznes subyektlari va fermyerlar o‘z mahsulotlarini eksport qilishdan olgan valyuta tushumlarining 50 foizini banklarga sotish majburiyatidan ozod qilingani va ularning eksportga mahsulot yetkazib berishdan, avvalo, o‘zlarining manfaatdor bo‘lishini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor[173].

So‘mning barqarorligini ta’minlashda undan **ehtiyotkorona va tejab- tergab foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablag‘larning eng ko‘p samara berishiga, olingan kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishiga erishish** muhim o‘rin tutadi.

---

[172] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari. www.cbu.uz.

[173] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so‘zi, 2016-yil 16-yanvar.

Inflyatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish milliy valyutani mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Bu siyosat eng avvalo inflyatsiya darajasini keskin kamaytirishga qaratilishi lozim. Bunda pulning qadrsizlanish darajasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda unga qarshi samarali tadbirlar qo'llash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu orqali pulning qadrsizlanishida maqbul sur'atni tanlashga erishiladi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosat negizini **pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish**ga qaratilgan tadbirlar tashkil qilishi zarur. Chunki xarid qilish uchun mollar yetarli bo'lmagan holda aholi qo'lida pulning ortiqcha ko'payib ketishi inflyatsiyaning yanada avj olib ketishiga, oxir- oqibatda inqirozlarga sabab bo'ladi. Pul miqdori bilan birga narxlarning ham tobora o'sib borishi muqarrar ravishda, uzoq davom etadigan giperinflyatsiyani keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida, milliy ishlab chiqarishning izidan chiqishi, aholi keng tabaqalarining qashshoqlashuvi va butun ijtimoiy tizimning barbod bo'lishi xavfini tug'diradi.

2015-yilda qat'iy pul-kredit siyosati yuritilganligi inflyatsiyani jilovlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

2015-yil yakuni bo'yicha iste'mol baholari indeksi asosida hisoblanadigan inflyatsiya darajasi 2014-yilga nisbatan 0,5 foizga pasayib, 5,6 foizni tashkil etdi. Bunda iste'mol baholari indeksining o'sishi asosan nomonetar omillar hisobiga yuz berdi.

Jumladan, o'tgan yilda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 1,3 foizga o'sib, uning inflyatsiyaga ta'siri 0,6 foizni, nooziq-ovqat mahsulotlari narxi 8,8 foizga o'sib, inflyatsiya darajasiga ta'siri 2,9 foizni tashkil etdi. Xizmatlar narxi esa 10,7 foizga o'sib, iste'mol baholari indeksiga ta'siri 2,1 foizni tashkil qildi[174].

So'mning barqarorligini ta'minlashda **naqd pul emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik** birinchi darajali ahamiyatga ega. Bunda muomalaga

[174] Manba: 2015-yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari // O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xisoboti. www.cb.uz.

chiqarilgan pul miqdorining o'z vaqtida qaytarilishiga erishish, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlamagan korxonalarga kreditlar berilishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilishi kerak.

Inflyatsiyani pasaytiruvchi qudratli omil **milliy valyuta almashuv kursining barqarorlashuviga erishishdir**. Bu o'z navbatida import narxlarning barqarorlashuviga olib keladiki, natijada ichki bozordagi narxlar o'zgaradi. Valyuta birjalarida valyuta operatsiyalarining barcha turlari uchun talab va taklif natijasida shakllanadigan yagona almashuv kursini belgilash valyuta kursi barqarorligiga erishishning dastlabki shartidir. Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining 95 foizga yaqini AQSH dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo'ljal sifatida so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanildi.

Shunga muvofiq, so'mning AQSH dollaridan boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslari ushbu valyutalarning tashqi valyuta bozorlaridagi AQSH dollariga nisbatan kurslari dinamikasi va ichki valyuta bozorida so'mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi ta'siri ostida shakllandi.

Mazkur davrda so'mning Buyuk Britaniya funt sterlingiga nisbatan almashuv kursi 11 foizga, Yevroga nisbatan 2,8 foizga, Xitoy yuaniga nisbatan 15,8 foizga, Yaponiya ienasiga nisbatan 17 foizga va Janubiy Koreya voniga nisbatan 8,7 foizga pasaydi[175]. Shunday qilib, yuqorida qarab chiqilgan chora va tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi milliy valyutamiz almashuv kursining barqarorlashuviga, uning xarid qilish quvvatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pul-kredit sohasida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlariga muvofiq iqtisodiyotning oshib borayotgan pulga bo'lgan talabini to'liq qondirish va bank tizimi likvidligini maqbul darajada saqlab turish orqali inflyatsiya darajasini belgilangan prognoz ko'rsatkichidan oshirmaslik maqsadlariga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

---

[175] Manba: 2015-yilda Pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari // O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xisoboti. www.cb.uz.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi natijasida undagi ko‘rsatilgan bir qator vazifalar ham mamlakatimizdagi milliy valyutani mustahkamlash siyosatida o‘ziga xos samara beradi. Jumladan:

- ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash;

- bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish.[176]

O‘z navbatida, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan pul bozoridagi operatsiyalari muomaladagi pul massasini boshqarish, bank tizimi likvidligini tartibga solish va foiz stavkalari barqarorligini ta’minlashga qaratildi.

Xulosalar

1. Pulning iqtisodiyotda o‘z vazifalarini bajarish jarayonida to‘xtovsiz harakatda bo‘lishi, tovarlar va xizmatlar ayirbosh qilish jarayonida qo‘ldan qo‘lga o‘tib, aylanib turishi pul muomalasi deyiladi.

2. Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qo‘yilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat pul tizimining muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: milliy pul birligi; naqd pul muomalasida qonuniy to‘lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog‘oz, tanga va kredit pullar tizimi; pul emissiyasi, ya’ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi; pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

---

[176] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni. 1-ilova 3.1-bandi.

3. Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. Naqd pul muomalasiga bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Bularning hammasi birgalikda pul agregati deb yuritiladi.

4. Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori muayyan davr davomida sotilishi va sotib olinishi lozim bo'lgan tovarlar summasi, pul birligining aylanish tezligi va kreditning rivojlanishi kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

5. Makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri inflyatsiya hisoblanib, u pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida qog'oz pul birliklarining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda turli tovar narxlarining o'sishida ifodalanadi.

6. Kelib chiqish sabablariga ko'ra talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasi farqlanadi. Talab inflyatsiyasi iqtisodiyotdagi barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan sharoitda ishlab chiqarish sohasi ortiqcha talabni qondira olmasligi natijasida kelib chiqadi. Taklif inflyatsiyasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi hisobiga narxlarning oshishi natijasida kelib chiqadi. Shuningdek, o'sish sur'atiga ko'ra inflyatsiyaning o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya; bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflyatsiya kabi turlari farqlanadi.

7. Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Kredit resurslarining asosiy manbalari korxonalarning amortizatsiya ajratmalari; mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari; korxonalarning ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari; korxonalar foydasi; bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari; aholining bo'sh pul mablag'laridan iborat.

8. Banklar pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasadir.

Ular kredit munosabatlariga xizmat qilib, kreditning har xil shakllarini o'z ichiga olib, kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi. Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarini oladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Pul muomalasi – pulning iqtisodiyotda o'z vazifalarini bajarish jarayonida to'xtovsiz harakatda bo'lishi, tovarlar va xizmatlar ayirbosh qilish jarayonida qo'ldan qo'lga o'tib, aylanib turishi.

Pul tizimi – tarixan tarkib topgan va mamlakat milliy qonunchiligi bilan mustahkamlangan pul muomalasini tashkil qilish shakli.

Inflyatsiya – qog'oz pul birligining qadrsizlanishi.

Kredit – bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

Foiz normasi (stavkasi) – foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.

Bank krediti – pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) beriluvchi pul ssudalari.

Xo'jaliklararo kredit – bir korxona (muassasa) tomonidan ikkinchisiga berilib, ularning kapital qurilish, qishloq xo'jalik sohalaridagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiluvchi qarz mablag'lari.

Tijorat krediti – korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosan to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida bir-biriga beradigan kreditlari.

Iste'mol krediti – xususiy shaxslarga, avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste'mol tovarlari sotib olish uchun ma'lum muddatga beriluvchi qarz mablag'lari.

Ipoteka krediti – ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriluvchi qarz mablag'lari.

Davlat krediti – kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadi.

Xalqaro kredit – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakati.

Lizing – odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat kreditning pulsiz shakli.

Faktoring – boshqa iqtisodiy subyektlarning qarzdorlik bo'yicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari.

Forfeyting – uzoq muddatli faktoring munosabatlari.

Trast – mijozlarning kapitallarini boshqarish bo'yicha operatsiyalari.

Banklar – pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasadir.

Bank operatsiyalari – mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Bank foydasi (marja) – olingan va to'langan foiz summalari o'rtasidagi farq.

Bank foyda normasi – bank sof foydasining uning o'z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.
2. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?
3. Pul agregatlari nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
4. Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
5. Talab va taklif inflyatsiyalarining grafikdagi ko'rinishlarini tasvirlang va izohlang.
6. Giperinflyatsiya qanday qilib turg'unlikka olib kelishi mumkinligini tushuntiring.
7. Kreditni nima zarur qilib qo'yadi? Kredit tushunchasining mazmunini bayon qiling.
8. Kreditning asosiy turlarini sanab ko'rsating va ularning tavsifini bering. Kredit qanday vazifalarni bajaradi?
9. Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ko'rsating.
10. Hozirda O'zbekistonda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash borasida qanday chora-tadbirlar tizimi qo'llanilmoqda?

23-BOB. BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING IQTISODIY ROLI

Barcha iqtisodiy tizimlarda davlat va bozor tizimi o'ziga xos ahamiyat kasb etib, har biri mustaqil amal qiladi. Shu bilan birga turli iqtisodiy tizimlar bir-biridan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlat va bozor rolining nisbati bo'yicha keskin farqlanadi. Masalan, bir iqtisodiy tizim ko'proq davlat tomonidan boshqarishga tayansa, boshqasi bozor mexanizmi orqali tartiblashga ustunlik beradi. Mustaqil taraqqiyot davrida «mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi»[177].

Ushbu bobda bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning rolini ochib berishga harakat qilinadi. Shuningdek, davlatning milliy iqtisodiyotdagi roli tahlil qilinib, keyin uning iqtisodiy vazifalari tavsifi beriladi. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usul va vositalari bayon etiladi.

23.1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar

Milliy iqtisodiyotning samaradorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog'liq. Chunki milliy iqtisodiyotning yuqori samaradorligiga asosan quyidagi yo'llar orqali erishiladi:

1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo'llash;

2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;

[177] Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 8-b.

3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish. Hozirgi davrda O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xususiyatli hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi ilmiy asosda birinchi marta A. Smit tomonidan ko'rib chiqilgan. Uning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida» (1776) nomli asarida iqtisodiyotning bozor usullari orqali o'zini o'zi tartibga solishining zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A. Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoni mavjud bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashuvsiz, ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qiladi.

A. Smit davlatning iqtisodiy jarayonlarga har qanday aralashuvi oxir- oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb hisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib-qoidalari milliy iste'molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham importga boj to'lovi milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir- oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatining saqlanib qolishiga olib keladi. Bundan past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo'lgan milliy iste'molchilar zarar ko'radilar.

A. Smitning «Tinch qo'yish» nazariyasi 1929–1933-yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi J. M. Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) nomli asarida o'z aksini topdi. Unda muallif davlat fiskal (xazinaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi. Amalda gap davlatning uzluksiz ravishda inqirozga qarshi siyosat o'tkazishi, iqtisodiy inqirozning salbiy oqibat-

larini tugatish va sanoat siklining o'zgarishini bartaraf etish haqida ketadi. Keyns nazariyasi ancha tugal shaklda AQSHda amalga oshirildi. Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko'rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodiyoti amalda ustun bo'lgan barcha mamlakatlarda foydalanildi. Shu bilan birga davlatning iqtisodiyotdagi roli yanada ko'proq oshib borishi ro'y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat siklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni rag'batlantirish tan olinadi.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi quyidagi holatlar orqali izohlanadi. Birinchidan, davlat milliy iqtisodiyotda o'zini o'zi bozor vositasida tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalarni o'ziga oladi. Bular qatoriga mudofaani ta'minlash, mamlakatda ichki tartibni saqlash va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoyalash kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarni tug'diradi. Bu oqibatlar bevosita uchinchi tomon manfaatida aks etib, kishilarning alohida guruhi va umuman jamiyat manfaatiga ta'sir qiladi. Masalan, chigitli texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarda tozalash qurilmalariga xarajatlarni tejash xususiy ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan (u yoki bu kompaniya yoki individual ishlab chiqaruvchi uchun) foydali, atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelishi esa jamiyatning boshqa a'zolari uchun qo'shimcha salbiy oqibatga ega. Davlat yakka tadbirkor yoki iste'molchidan farqli, jamiyat manfaatini ifodalab, qo'shimcha ijobiy samarani rag'batlantirishga va aksincha salbiy samara bilan bog'liq faoliyatni tartibga solish va cheklashga harakat qilishi zarur. Uchinchidan, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi shu sababli ro'y beradiki, individual iste'molchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini obyektiv baholay olmaydilar. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlar

iste'molini cheklash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari uchun yuqori aksiz (egri) solig'ini o'rnatib, bir tomondan o'zining daromadini oshirsa, boshqa tomondan shu mahsulotga bo'lgan talabni cheklaydi. To'rtinchidan, davlat bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Bozor hamma uchun to'lovga qobil talabni qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozor mexanizmining milliy boylikni ijtimoiy-adolatli taqsimlashini anglatmaydi. Bunday sharoitda davlat aholi kam ta'minlangan qatlamining turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga oladi. Beshinchidan, hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma'lum chegaralari ham mavjud bo'lib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlatning har qanday aralashuvi ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga eng avvalo tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirni ham hisobga olish lozim. Bunda tartibga solishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarning miqdori davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi natijasida olinadigan samaradan kam bo'lishi lozim. Ularning nisbati davlatning iqtisodiyotga aralashuvi chegaralarini belgilab beradi.

XX asrning 80-yillarida rivojlangan mamlakatlarda yangi konservativ konsepsiyalar asosida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni cheklash jarayonlari boshlandi. Bunda tartibga solishning an'anaviy shakllaridan voz kechildi, davlat mulkini xususiylashtirish yo'li bilan davlat sektori ulushi qisqartirildi, xo'jalik qarorlarini qabul qilishda nomarkazlashuv jarayonlari kuchaytirildi, iqtisodiyotdagi bozor mexanizmlarining ahamiyati oshirildi. Jumladan, AQSHda bu tadbirlar «Amerikaning yangi rivojlanish yo'li: iqtisodiy jihatdan yangilanish dasturi» nomli yo'nalish asosida amalga oshirilib, unda daromad solig'i stavkalarining pasaytirilishi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida yirik

korporatsiyalar investitsiyalari uchun soliq imtiyozlarini qo'llash, federal hukumat xarajatlarini cheklash, xususiy biznes faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishini kamaytirish, inflyatsiyaga qarshi pul-kredit siyosatini o'tkazish ko'zda tutilgan edi. Biroq, olib borilgan tadbirlar kutilgan natijani bermadi. Bunday jarayonlar Angliya, Yaponiya, Avstriya, Italiya va boshqa mamlakatlarda ham ro'y berdi.

2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyin iqtisodiyotni tartibga solishda keynscha tendensiyalar yangidan kuchaya boshladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tipi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni ro'yobga chiqarish, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchanligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri aralashuv shakllari va nazoratning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaqtda inqirozga qarshi chora-tadbirlar asosan davlat dasturlari asosida olib borilmoqda.

23.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifalari

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish hozirgi davrda obyektiv tavsif kasb etadi. Ko'plab iqtisodchilar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishining zarurligini faqat bozorning kamchiliklari, uning ko'plab iqtisodiy muammolarni hal eta olmaslik holati bilan izohlaydilar. Bu ma'lum ma'noda to'g'ri bo'lsada, biroq, iqtisodiyotga davlat ta'sirining obyektiv zarurligi eng avvalo ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan belgilanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv asosi bo'lib ham milliy iqtisodiyot darajasida, ham xalqaro miqyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi negizida ishlab chiqarishning umumlashuvi jarayoni xizmat qiladi.

Bu jarayon quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– chuqurlashib borayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarish ixtisoslashgan tarmoqlarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi yanada kuchayadi;

– ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va markazlashuvi natijasida alohida xo'jalik birliklarining mayda bo'laklarga ajralib ketish holatlari barham topadi;

– ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to'planuvi jarayoni o'sadi;

– turli iqtisodiy mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va faoliyat almashuvi jadallashadi.

Ishlab chiqarishning umumlashuvi darajasining oshishi bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan holda xo'jalik yuritish, takror ishlab chiqarish nisbatlarini ongli ravishda tartibga solish, yirik ishlab chiqarish majmualari, yaxlit iqtisodiyotni markazlashtirilgan holda boshqarishga obyektiv ehtiyoj paydo bo'ladi. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqarish munosabatlarining har qanday tizimida ishlab chiqarish umumlashuvining ma'lum darajasida obyektiv zaruriyatga aylanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan iqtisodiy resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi to'g'risida to'laroq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi. Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy siklni barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini

yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo'ladi. Bu sohadagi **davlatning iqtisodiy vazifalaridan** quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2) raqobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda **davlatning uchta vazifasi** alohida ahamiyatga ega:

1) daromad va boylikni qayta taqsimlash;

2) resurslarni qayta taqsimlash;

3) iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishining shart-sharoiti hisoblangan **huquqiy asosni ta'minlash vazifalarini** o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni ta'minlash quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo qiladi: xususiy korxonalarning huquqiy mavqeini mustahkamlash; xususiy mulkchilik huquqini ta'minlash va shartnomalarga amal qilishni kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqish va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida» va «Aksionerlik jamiyatlari to'g'risida»gi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo'shimcha va tuzatishlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zarur huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan.

Davlat tomonidan **ijtimoiy muhitni ta'minlash** o'z ichiga ichki tartibni saqlash, mahsulot sifati va og'irligini o'lchash standartlarini belgilash, tovar va xizmatlar ayirboshlashni yengillashtirish uchun milliy pul tizimini muomalaga kiritish kabilarni oladi.

Raqobat bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bu shunday kuchki, u xaridorlar yoki iste'molchilarning ehtiyojlariga ishlab chiqaruvchi va resurs yetkazib beruvchilarni bo'ysundiradi. Raqobat sharoitida ko'plab xaridorlar tomonidan bildirilgan talab va sotuvchilarning taklifi bozor narxlarini belgilaydi. Bu shuni bildiradiki, ishlab chiqaruvchilar va resurs yetkazib beruvchilar iste'molchilarning faqat bozor orqali hisobga olinadigan xohishlariga moslashishi mumkin. Bozor tizimining irodasiga bo'ysunuvchi, raqobatlashuvchi ishlab chiqaruvchilar foyda olishni va o'z mavqelarining mustahkamlanishini kutadi, kim bozor qonunlarini buzsa, zarar ko'radi va oxir-oqibatda sinadi. Raqobat sharoitida xaridor – bu xo'jayin, bozor ularning gumashtasi, korxona esa ularning xizmatkori hisoblanadi.

Iqtisodiyotda sotuvchilar o'rtasidagi raqobat o'rnini monopoliyalar egallaganda, ularning bozorga ta'sir ko'rsatish yoki undagi narxlarni o'z manfaatlarini ko'zlab o'zgartirish imkoniyati paydo bo'ladi. Monopoliyalar o'zlarining takliflari umumiy hajmini tartibga solish layoqatidan foydalanib, mahsulot hajmini sun'iy cheklash orqali ularga ancha yuqori narx belgilash va shu orqali ancha barqaror foyda olishi mumkin.

Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda monopoliyalar ustidan ikki usulda nazorat o'rnatiladi. Birinchi usulda, texnologiya va iqtisodiy sharoitlar raqobatli bozor mavjud bo'lish imkoniyatini yo'qqa chiqaradigan tabiiy monopoliyalar deb nomladigan tarmoqlarda davlat narxlarini tartibga soladi va ko'rsatiladigan xizmatlarga standartlarni o'rnatadi. Transport, aloqa, elektr energiyasi ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar ma'lum darajada shunday tartibga solinadi. Ikkinchi usulda, samarali ishlab chiqarish juda ko'pchilik bozorlarda raqobat rivojining juda yuqori darajasida ta'minlanishi sababli davlat raqobatini kuchaytirish va himoya qilish maqsadida monopoliyalarga qarshi qonunlar qabul qiladi.

Respublikamizda ham monopol faoliyatni cheklash, tovarlar bozorida raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar va tadbirkorlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilingan.

Bozor tizimi kishilarning tabiiy qobiliyati, orttirgan bilimi va malakasi hamda mulkka egaligini hisobga olib, ularning yuqori daromad olishini ta'minlaydi. Shu bilan birga jamiyatning moddiy vositalarga ega bo'lmagan, bilim va malaka darajasi past, layoqati ham yuqori bo'lmagan a'zolari, qariyalar, nogironlar, ishsizlar yolg'iz va qaramog'ida bolalari bo'lgan ayollar juda kam daromad oladi yoki bozor tizimi doirasida ishsizlar kabi umuman daromadga ega bo'lmaydi. Qisqasi, bozor tizimi pul daromadlarini va milliy mahsulotni jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlashda birmuncha tengsizliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli davlat o'z zimmasiga **daromadlar tengsizligini kamaytirish vazifasini** oladi. Bu vazifa bir qator tadbir va dasturlarda o'z ifodasini topadi. Birinchidan, transfert to'lovlari muhtojlarni, nogironlarni va birovning qaramog'ida bo'lganlarni nafaqalar bilan, ishsizlarni ishsizlik nafaqalari bilan ta'minlaydi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari orqali pensionyerlar va qariyalarga moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Bu barcha dasturlar davlat byudjeti mablag'larini jamiyatning kam daromad olgan yoki umuman daromadga ega bo'lmagan a'zolari hisobiga qayta taqsimlaydi. Ikkinchidan, davlat bozorni tartibga solish yo'li bilan, ya'ni talab va taklif ta'sirida o'rnatiladigan narxlarni o'zgartirish yo'li bilan ham daromadlarning taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Me'yordagi oziq-ovqat tovarlariga o'rnatiladigan imtiyozli narxlar va ish haqining eng kam (minimal) darajasi haqidagi qonunchilik davlatning, aholining ma'lum qatlami daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarining yana bir misolidir.

Davlat jamiyat a'zolari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashda soliq imtiyozlarini belgilash orqali soliq tizimidan ham keng foydalanadi.

Bozor mexanizmining resurslarni qayta taqsimlashdagi layoqatsizligi ikki holatda ko'rinadi, ya'ni raqobatli bozor tizimi: 1) ma'lum tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi; 2) ishlab chiqarishi o'zini oqlagan ayrim tovarlar va xizmatlarga resurslarning har qanday turini ajratish holatida bo'lmaydi.

Resurslarning qayta taqsimlanishi tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq foyda yoki zarar uchinchi tomonga, ya'ni bevosita xaridor yoki sotuvchi hisoblanmaganlar tomonga «siljigan» chog'da vujudga keladi. Bu **qo'shimcha samara** deb ataladi,

chunki u bozor qatnashchisi hisoblanmaganlar hissasiga to'g'ri keluvchi foyda yoki zararni ifodalaydi. Bunga atrof-muhitning ifloslanishini misol qilib keltirish mumkin. Kimyo korxonasi o'zining sanoat chiqindilarini ko'l yoki daryoga oqizsa, bu ushbu suv havzasida cho'miluvchilar, baliqchilar va atrofdagi aholiga zarar keltiradi. Ishlab chiqaruvchi esa atrof-muhitni muhofazalovchi inshoot va qurilmalar o'rnatmaslik hisobiga o'z ishlab chiqarish xarajatlarining ancha past darajasini ta'minlaydi. Resurslarning nomutanosib taqsimlanishi natijasida vujudga keladigan bunday holatlarni tartibga solish uchun davlat qonunchilik tadbirlarini qo'llaydi yoki maxsus soliq va jarimalardan foydalanadi. Masalan, atrof-muhit va suv havzalarining ifloslanishini taqiqlovchi yoki cheklovchi qonunlar ishlab chiqaruvchilarni o'zlarining sanoat chiqindilarini ishlab chiqarish jarayonida ifloslangan suvni tozalovchi qurilmalar sotib olish va o'rnatish bilan yo'qotishga majbur qiladi. Shuningdek, davlat maxsus soliqlarni kiritish orqali atrof-muhitning ifloslanishidan boshqalarga kelishi mumkin bo'lgan zararni korxonalarning o'ziga yuklashga harakat qiladi.

Davlat bir qator yo'llar bilan resurslarning nomutanosib taqsimlanishi keltirib chiqaradigan oqibatlarni yumshatishga ham harakat qiladi. Birinchidan, iste'molchilarning muayyan tovar va xizmatlarni xarid qilish qobiliyatini oshirish yo'li bilan ularning talabi kengaytiriladi. Masalan, respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki davrida oziq-ovqat mahsulotlariga talon tizimi joriy etilishi past daromadli oilalarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini oshirdi va shu orqali resurslarning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf qildi. Ikkinchidan, davlat taklifni oshirish maqsadida ishlab chiqarishni subsidiyalashi mumkin. Subsidiyalar ishlab chiqaruvchilarning zararlarini qisqartiradi va mahsulotlar ishlab chiqarishda resurslarning yetishmasligi muammosini bartaraf qiladi. Uchinchidan, davlat ayrim tovarlar va ijtimoiy ne'matlarning ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqadi. Bunday tarmoqlar davlat mulkiga asoslanadi va davlat tomonidan bevosita boshqariladi yoki ularni moliyalashtirishni davlat o'z zimmasiga oladi. Fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, milliy mudofaa, favqulodda ro'y beradigan tabiiy hodisalarga qarshi kurash, ichki tartibni saqlash shular jumlasidandir.

Davlat byudjet mablag'lari hisobiga resurslarni xususiy sohada qo'llanilishdan bo'shatadi hamda ularni ijtimoiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirishi mumkin. Shunday qilib, davlat mamlakat milliy mahsuloti tarkibida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida resurslarni qayta taqsimlaydi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiyotning barcha sohalarini resurslar bilan ta'minlash, to'la bandlik va narxlarning barqaror darajasiga erishishda yordam berish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlatning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda to'la bandlikni ta'minlash uchun umumiy sarflar, ya'ni xususiy va davlat sarflarining hajmi yetarli bo'lmasa, davlat bir tomondan ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarga o'z sarflarini ko'paytiradi, boshqa tomondan xususiy sektor sarflarini rag'batlantirish maqsadida soliqlarni qisqartiradi. Agar jami sarflar to'la bandlik sharoitida taklif hajmidan oshib ketsa, bu narxlar darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Jami sarflarning mazkur ortiqcha darajasi inflyasion xususiyat kasb etadi. Bunday holda davlat soliqlarni oshirish orqali xususiy sektor sarflarini qisqartirish va shu yo'l bilan ortiqcha sarflarni tugatishga harakat qiladi. Iqtisodiyotda ishsizlik mavjud bo'lganda davlat sarflarining ko'payishi jami sarflar, ishlab chiqarish hajmi va bandlilikning o'sishiga olib keladi. O'z navbatida, soliqlarning qisqarishi yoki transfert to'lovlarining ko'payishi daromadlarni ko'paytiradi. Bu daromadlar shaxsiy sarflarning o'sishini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Davlat o'z ishlab chiqarishini moliyalashtirishdan tashqari ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotning bir qator dasturlarini amalga oshiradi, iqtisodiyotning xususiy va kooperativ sektorida daromadlarni qayta taqsimlaydi. Davlat tartibga soluvchi xususiyatga ega bo'lgan bir qator vaziyatlarni ham amalga oshiradi. Bularga atrof-muhitni himoya qilish, aholi sog'lig'ini saqlash, bo'sh ishchi o'rinlariga ega bo'lishning teng sharoitini ta'minlash va ma'lum sohalarda narx belgilash amaliyoti ustidan nazorat qilish va shu kabilarni kiritish mumkin.

23.3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

– bevosita ta'sir qilish usullari;

– bilvosita ta'sir qilish usullari;

– tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa asosan iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning **davlat sektori** mavjud. Davlat sektorini boshqarish mulkchilikning davlat shakliga asoslanib, u asosan quyidagi uchta yo'l orqali shakllanadi:

1) ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli qog'ozlar bilan tovon to'lash orqali mulkni milliylashtirish;

2) davlat byudjeti mablag'lari hisobiga yangi korxonalar, ba'zi hollarda yaxlit tarmoqlarni barpo etish;

3) davlat tomonidan xususiy korporatsiyalarning aksiyalarini sotib olish va aralash davlat-xususiy korxonalarini tashkil etish.

Hozirda so'nggi uchinchi yo'l ustun ravishda amal qilmoqda.

Davlat xilma-xil shakldagi kapitalga egalik qiladi, kreditlar beradi, korxonalarga mulkdor hisoblanadi. Bu davlatni ijtimoiy kapitalning bir qismiga egalik qilishiga olib keladi.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalanadi. Ma'muriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga tayanadi va taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xususiyatidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Tartibga solishning ma'muriy vositalaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish ko'zda tutiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish tanazzulga uchragan davrda iqtisodiyotga bilvosita ta'sir qilish tadbirlari kam samarali bo'lib, ma'muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari – transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa sohalarni bevosita boshqarish. Bunda davlat mulk sohibi va tadbirkor sifatida o'ziga qarashli korxona va tashkilotlarning iqtisodiy hayotida faol qatnashadi. Davlat tadbirkorligi ma'lum doirada amal qilib, ko'pincha texnologiya sharoiti xususiy kapital uchun qulay bo'lmagan korxonalar doirasi bilan cheklanadi. Davlat tadbirkorligi bir tomondan, ma'lum sharoitlarda iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan vaqt o'tishi bilan samarasiz bo'lib qolishi ham mumkin. Bunday holda ular xususiy tadbirkorlik obyektiga aylantiriladi.

Mamlakatimizda «iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning boshqaruvchilik vazifalarini – funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash»[178] hisoblanadi;

b) narxlar va ish haqini «muzlatib» qo'yish siyosati. Bu iqtisodiyotni tartibga solishning inflyatsiyaga qarshi tadbirlari hisoblanib, inflyatsiyani yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritishda narxlar va ish haqini oshirish qonun bilan taqiqlanadi yoki ma'lum doira bilan cheklanadi. Inflyatsiyaga qarshi tadbirlar ta'sirida inflyatsiya darajasining pasayishi investitsiyalar hajmining oshishini rag'batlantiradi;

v) ish bilan bandlik xizmati (mehnat birjalari) faoliyatini tashkil qilish. Davlat bu faoliyatni tashkil qilish bilan ishsizlikni qisqartirish choralarini ko'radi. Ularni zarur kasblarga qayta tayyorlaydi, ish bilan ta'minlanmaganlarga nafaqa beradi, muhtojlarga yordam ko'rsatadi;

g) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish. Bunday qonunlar qatoriga monopoliyaga qarshi qonunchilik, tadbirkorlik to'g'risidagi, bank sohalari, qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlar kiradi.

Shu orqali bozor munosabatlarining rivojlanishi qonun yo'li bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta'minlanadi, monopoliyalarga yo'l berilmaydi va erkin raqobat uchun sharoit yaratiladi.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vosital-

[178] Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: «Yangi asr avlodi», 2001, 62-bet.

arga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va byudjet siyosatida o'z ifodasini topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

– hisob stavkasini tartibga solish;

– moliya-kredit muassasalarining Markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish;

– davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat obligatsiyalarini chiqarish, ularni sotish va to'lash).

Davlat bu dastaklar yordamida moliya bozorida talab va taklif nisbatini kutilgan yo'nalishda o'zgartirishga harakat qiladi. Jumladan, ssudaga beriladigan pul miqdorini o'zgartirish uchun foiz stavkasi vositasidan foydalanadi. Davlat kreditga bo'lgan talab va taklifni Markaziy bank orqali quyidagi yo'llar bilan o'zgartiradi. Birinchidan, davlat Markaziy bank ehtiyojlari orqali banklar mablag'larining qarzga beriladigan va zaxirada turadigan qismlari ulushini o'zgartiradi. Natijada qarzga beriladigan pul miqdori o'zgaradi, ya'ni uning taklifi oshsa, foiz kamayadi, aksincha u kamaysa, foiz oshadi. Foizning kamayishi kredit olishga intilishni kuchaytiradi va bu investitsiya faolligi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Ikkinchidan, Markaziy bank boshqa banklarga past foiz stavkasida qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o'sishiga ta'sir qilishini ta'minlaydi. Uchinchidan, davlat Markaziy bank orqali xazina majburiyatlarini tarqatadi, o'z obligatsiyalarini sotadi yoki qimmatli qog'ozlarini sotib oladi. Natijada taklif etilgan pul miqdori o'zgarib, bu foizga ta'sir etadi. **Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifini o'zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi.**

Davlat byudjet siyosati uning daromadlar va xarajatlar qismini o'zgartirishga qaratiladi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun moliyaviy mablag'larni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Ulardan xo'jalik sub'eklari faoliyatiga va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishda ham keng foydalaniladi.

Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga hamda soliq turlari va soliq to'lashda berilgan imtiyozlarga bog'liq bo'ladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida **byudjet xara-**

jatlaridan ham foydalanadi. Bunga birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalari va kafolatlari, hamda xususiy sektordan tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar misol bo'ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda asosiy kapitalga hisoblanadigan **jadallashgan amortizatsiya** ajratmalari alohida rol o'ynaydi. U hozirgi sharoitda jamg'arish va iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirishning asosiy vositasi hamda iqtisodiy sikl va bandlikka ta'sir ko'rsatuvchi muhim dastak hisoblanadi.

Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat kapital qo'yilmalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, bozor kon'yunkturasi yomonlashgan, turg'unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qo'yilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odatda o'sadi. Shu orqali davlat ishlab chiqarishda tanazzul va ishsizlikning o'sishiga qarshi turishga harakat qiladi.

Davlat kapital qiymatlari iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarda ham sezilarli o'ringa ega bo'ladi, masalan, davlat xususiy kapitalining oqib kelishi yetarli bo'lmagan mintaqalar, tarmoqlar yoki faoliyat sohalarida yangi obyektlar qurish va eskilarini qayta qurollantirish orqali iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bulardan tashqari davlat kapital qo'yilmalari ilmiy-tadqiqot ishlarida, kadrlar tayyorlashda, tashqi savdo va chetga kapital chiqarishda ham katta rol o'ynaydi. Shuningdek, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bir qator shakllarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

– davlat iqtisodiy dasturlarining ishlab chiqilishi;

– ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, ixtirolarni davlat tomonidan rag'batlantirish hamda iqtisodiyotdagi ijobiy tarkibiy siljishlarni ta'minlash;

– investitsiya jarayoni va iqtisodiy o'sishni davlat tomonidan tartibga solish;

– ishchi kuchi bozoriga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish;

– qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va boshqalar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning hozirgi davrdagi oliy shakli **davlat iqtisodiy dasturlari** hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat. Iqtisodiy dasturlar o'rta muddatli, favquloddagi va maqsadli bo'lishi mumkin. O'rta muddatli umumiqtisodiy dasturlar

odatda besh yilga tuziladi. Favquloddagi dasturlar tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyatsiya sharoitlarida ishlab chiqilib, qisqa muddatli xususiyatga ega bo'ladi. Maqsadli dasturlarning obyekti tarmoqlar, mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo'nalishlari bo'lishi mumkin. Masalan, mamlakatimizda 2006–2008-yillarda mahalliy xomashyo negizida tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi qabul qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xomashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish joylarini yaratishdan iborat.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish **tashqi iqtisodiy usullar** yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo'jalik aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatiladi.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan-texnika yutuqlari eksportini rag'batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to'lovlarini o'zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish yoki cheklash bo'yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jalb qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasida quyidagicha belgilab berildi:

- davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini

bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish;

- mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

- «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

Shunday qilib, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning qarab chiqilgan barcha ichki va tashqi iqtisodiy usullari (vosita va dastaklari) birgalikda milliy iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga va mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosalar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi uning bozor vositasida o'zini-o'zi tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalarni o'z zimmasiga olishi; bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi keltirib chiqaruvchi salbiy oqibatlarni bartaraf etish zarurligi; iste'molchilarning manfaatlarini himoyalash; bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish, jumladan, aholining kam ta'minlangan qatlamining turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga olishi; hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini ham o'z zimmasiga olishi orqali izohlanadi.

2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlat-

ning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalari orqali ifodalanib, ular, asosan, bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish, iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Ya'ni, bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash; raqobatni himoya qilish; daromad va boylikni qayta taqsimlash; resurslarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

4. Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bevosita va bilvosita ta'sir qilish usullari hamda tashqi iqtisodiy usullardan foydalanadi. Tartibga solishning bevosita ta'sir qilish usullaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri, ma'muriy tartibga solish ko'zda tutiladi. Bu usullar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlarini bevosita boshqarish; narxlar va ish haqini «muzlatib» qo'yish siyosati; ish bilan bandlik xizmati (mehnat birjalari) faoliyatini tashkil qilish; iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish va h.k.

5. Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va byudjet siyosatida o'z ifodasini topadi. Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi: hisob stavkasini tartibga solish; moliya-kredit muassasalalarining Markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish; davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat obligatsiyalarini chiqarish, ularni sotish va to'lash). Davlat byudjet siyosati uning daromadlar va harajatlar qismini o'zgartirishga qaratilib, bu usulning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish.

Davlatning iqtisodiy vazifalari – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

Bevosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma'muriy vositalari.

Bilvosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang.
2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi to'g'risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?
3. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
6. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.
7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o'ynaydi?

8. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy dasturlari nima va ular qanday amalga oshiriladi?

9. O'zbekiston iqtisodiyotida davlat sektorining ulushi dinamikasini tahlil qiling. Yillar davomida tarmoq va sohalar bo'yicha davlat sektori ulushining o'zgarishini izohlang.

10. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning tashqi iqtisodiy usullari mazmunini tushuntiring.

24-BOB. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

Ma'lumki, aholi farovonligi va turmush darajasi sifatini yaxshilash Prezidentimiz va davlatimizning oliy maqsadidir. Bu maqsadga erishishda aholi daromadlari asosiy rol o'ynaydi. Ushbu bobda aholi turmush darajasi va daromadlarining iqtisodiy mazmuni, ularning tarkibi, daromadlarning aholi turmush darajasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligining asosiy sabablari o'rganiladi. Daromadlar tengsizligi borasida bildirilgan fikrlar tahlil qilinib, tengsizlik va samaradorlik o'rtasidagi nisbat ko'rsatib beriladi. Shuningdek, kambag'allik muammosi, aholi daromadlarining yetarli darajasini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari bayon etiladi.

24.1. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari. Aholi daromadlari va uning tarkibi

Aholi turmush darajasi juda keng va serqirra iqtisodiy tushunchadir. Shuning uchun bu tushunchaga iqtisodiy adabiyotlarda turli xil ta'riflar berilgan. Biz ularni umumlashtirib uni quyidagicha ta'riflaymiz. **Aholi turmush darajasi – aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasidir.**

Aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan talabi tabiiy tarixiy milliy va boshqa shart-sharoitlarga qarab turlicha bo'ladi va tez o'zgarib turadi. Shunga binoan aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham turlicha bo'ladi.

Insonning turmush darajasi o'sib boruvchi talablar darajasi bilan uni qondirish imkoniyatlari darajasi o'rtasidagi dialektik bog'lanish va uning o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bunda insonning tanlash erkinligining o'sishi ya'ni uning nimalarni iste'mol qilishi, qayerda, qan-

day yashashi, qanday o'qib bilim olishi kabilarni bemalol tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Demak, insonning turmush darajasi o'sishi uchun uning tanlash erkinligi kengayishi, uzoq va sog'lom hayot kechirishi, bilim olishi uchun zarur iqtisodiy resurslarga (imkoniyatlarga) ega bo'lishi lozim. Bunda tinchlik, xavfsizlik, ekologiya va ijtimoiy adolat masalalari ham muhim o'rin tutadi.

Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlari tizimi o'z ichiga quyidagi guruhlarni oladi:

1) tug'ilish va o'lish darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatkichlar;
2) hayot kechirishning sanitar-gigiena jihatidan sharoitlari;
3) oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish;
4) turar joy sharoitlari;
5) ma'lumot va madaniyat;
6) mehnat qilish va bandlik sharoitlari;
7) aholining daromadlari va xarajatlari;
8) hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlari;
9) transport vositalari;
10) dam olishni tashkil etish;
11) ijtimoiy ta'minot;
12) inson erkinligi.

Bu asosiy ko'rsatkichlardan tashqari yana bir qancha ko'rsatkichlar ham borki, ular alohida ko'rsatiladi: aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol hajmi va boshqalar.

Kishilar hayot faoliyati uchun zarur ne'matlar to'plami mehnat sharoiti, ta'lim, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi xilma-xil ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a'zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog'liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida (butun aholi uchun) va tabaqalashgan mikrodarajada (aholining alohida guruhi uchun) qarab chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Aholi guruhlari bo'yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash **iste'molchi byudjeti** asosida amalga oshiriladi. Iste'molchi byudjetlarining bir qator turlari mavjud: o'rtacha oila byudjeti, yuqori darajada ta'minlangan byudjet, minimal darajada moddiy ta'minlanganlar byudjeti, nafaqaxo'rlar va aholi boshqa ijtimoiy guruhlari byudjeti shular jumlasidandir.

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja **moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi** (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad «o'rtacha sinf» deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste'mol savati to'plamiga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalarini o'qitish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar va zebu ziynat buyumlari kiradi.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta'minlangan yoki «boy» qatlamining mavjud bo'lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo'lgan juda oz miqdori kiradi. AQSHda aholi bu qismining shaxsiy imkoniyati 8–10 mln. dollar miqdorida baholanadi.

Turmush darajasi kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog'liq. **Turmush tarzi – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya.** Turmush tarzi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi, ya'ni:

– mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;
– turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;
– siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
– moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
– kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me'yorlari va qoidalari.

Yalpi ichki mahsulotning taqsimlanish va qayta taqsimlanishi natijasida aholi daromadlari shakllanadi. **Aholi daromadlari ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi.**



24.1-rasm. O'zbekistonda aholi real pul daromadlarining o'sishi (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida)[179]

Jamiyat a'zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko'rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog'lig'ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirishi imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi daromadlari darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida ish haqidan tashqari chakana narx dinamikasi, iste'mol bozorining tovarlar bilan to'yinganlik darajasi kabilar muhim o'rin tutadi.

Aholi daromadlari pul va natural ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Aholi **pul daromadlari** ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Nominal daromad – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori.

---

[179] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Ya'ni, real daromad aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

Aholining nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanib, ulardan asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

a) ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;

b) davlat yordam dasturlari bo'yicha to'lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;

v) moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pud daromadlari.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. **Birinchidan,** daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari – tadbirkorlik faoliyatidan, (ko'chmas) mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi. **Ikkinchidan,** daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsienti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi. Uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishi paydo bo'ldi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar shular jumlasidandir.

Respublikamiz iqtisodiyotining yanada rivojlanib borishi va aholining turli faoliyat turlari bilan shug'ullanishiga keng yo'l ochib berilganligit sababli aholining pul daromadlari yildan-yilga oshib bormoqda (24.2-rasm).

"2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz **aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun** mustahkam asos yaratdi.

Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi.



24.2-rasm. O'zbekistonda aholi pul daromadlari dinamikasi, mlrd. so'm[180]

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010-yildagi 47,1 foiz o'rniga 52 foizga o'sgani va bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanini alohida ta'kidlashni istardim"[181].

O'zbekistonda aholi yalpi daromadlari tarkibining tahlili shuni ko'rsatadiki, daromadlarning ahamiyatli qismi ishlab chiqarish daromadlari bo'lib, uning tarkibida mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlar yetakchilik qilmoqda (24.2-jadval).

---

[180] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

[181] O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so'zi, 2016-yil 16-yanvar.

24.1-jadval

O‘zbekistonda aholi yalpi daromadlari tarkibi, foizda[182]

Tarkibi	2011	2012	2013	2014	2015
Yalpi daromad - jami	100	100	100	100	100
shu jumladan,					
1. Boshlang‘ich daromadlar	73,5	71,5	71,4	73,9	78,2
A) Ishlab chiqarish daromadlari	**71,0**	**69,1**	**68,4**	**71,3**	**75,2**
- mehnat faoliyati daromadlari	69,4	67,4	66,6	69,3	72,9
- o‘z-o‘zini band qilishdan daromad	26,5	25,8	26,4	29,7	31,7
- o‘z iste’moli uchun Yaratilgan xizmatlar	1,6	1,7	1,8	2,0	2,3
B) mol-mulkdan olinadigan daromad	**2,5**	**2,4**	**3,0**	**2,6**	**3,0**
2. Ijtimoiy transfertlar	26,5	28,5	28,6	26,1	21,8

2015-yilda jami daromadlarning 78,2 foizi mehnat faoliyati ya’ni mehnatga haq to‘lash natijasida olingan daromadlar hissasiga, 21,8 foizi ijtimoiy transfertlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Aholining yollanib ishlovchi qismi oladigan daromadlarining asosiy ulushini **ish haqi** tashkil etadi. Daromadning bu turi istiqbolda ham pul daromadlari umumiy hajmining shakllanishida o‘zining yetakchi rolini saqlab qoladi.

Aholi pul daromadlari darajasiga davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lovlar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu manbalar hisobiga pensiya ta’minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to‘lanadi.

Aholining **moliya-kredit tizimi** orqali olinadigan pul daromadlari quyidagilardan iborat:

– davlat sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar;

– shaxsiy uy qurilishiga va mathubot jamiyati a’zolariga bank ssudalari;

[182] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

– jamg'arma bankidagi omonatlar bo'yicha foizlar;

– aksiya, obligatsiya qiymatining o'sishidan olinadigan daromad va zayom bo'yicha to'lovlar;

– lotereya bo'yicha yutuqlar;

– tovarlarni kreditga sotib olish natijasida paydo bo'ladigan vaqtincha bo'sh mablag'lar;

– har xil turdagi kompensatsiya to'lovlar va h.k.

Aholi daromadlari ularning turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

24.2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhlari o'rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo'ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi darajasi ham daromadlaridagi farqlarni bartaraf eta olmaydi.

O'z-o'zidan aniqki, iqtisodiy o'sish daromadlarning ko'payishiga olib keladi. Bunda butun aholi daromadlari mutlaq miqdorda astasekin o'sib boradi. Daromadlarning mutlaq miqdori ko'payib borsa-da, har doim ham daromadlar tengsizligi darajasiga ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida **Lorens egri chizig'idan** foydalaniladi (24.3-rasm).



24.3-rasm. Lorens egri chizig'i

Rasmning yotiq chizig'ida aholi guruhlarining foizdagi ulushi, tik chizig'ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlarning **mutlaq teng taqsimlanishi imkoniyati** (burchakni teng ikkiga bo'luvchi) 0E chiziqda ifodalangan bo'lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko'rsatadi. Ya'ni aholining 20 foizi barcha daromadlarning 20 foizini, aholining 40 foizi daromadlarning 40 foizini, aholining 60 foizi daromadlarning 60 foizini olishini bildiradi va h.k. Demak, 0E chizig'i daromadlarning taqsimlanishidagi mutlaq tenglikni ifodalaydi. Shuningdek, nazariy jihatdan mutlaq tengsizlikni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda aholining ma'lum guruhlari (20 foiz, 40 yoki 60 foiz va h.k.) hech qanday daromadga ega bo'lmay, faqat bir foizi barcha 100 foiz daromadga ega bo'ladi. Rasmdagi 0FE siniq chizig'i mutlaq tengsizlikni ifodalaydi.

Real hayotda mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlik holatlari mavjud bo'lmaydi. Balki aholining ma'lum guruhlari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishi notekis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishini Lorens egri chizig'i deb nomlanuvchi 0E egri chizig'i orqali kuzatish mumkin. Aholi guruhlari ulushi va daromad ulushini birlashtiruvchi egri chiziqdan ko'rinadiki, aholining dastlabki 20 foiziga daromadlarning juda oz (taxminan 3–4 foizgacha) qismi to'g'ri keladi. Keyingi guruhlarga to'g'ri keluvchi daromad ulushi ortib boradi. Daromadning eng katta qismi (deyarli 60 foiz) aholining so'nggi 20 foiziga to'g'ri keladi. Bu guruh chegarasi ichida ham daromadlar notekis taqsimlangan, ya'ni dastlabki 10 foiz taxminan 20 foiz daromadga ega bo'lsa, keyingi 10 foizga daromadning deyarli 40 foizi to'g'ri keladi va h.k.

Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa, ya'ni Lorens egri chizig'i 0E chizig'idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo'ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutlaq teng bo'lsa, bunda Lorens egri chizig'i va bissektrisa o'qi bir-biriga mos kelib, farq yo'qoladi.

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashning ko'proq qo'llaniladigan ko'rsatkichlaridan biri **ditsel koeffitsienti** hisoblanadi. Bu ko'rsatkich 10 foiz eng yuqori ta'minlangan aholi o'rtacha daromadlari va 10 foiz

eng kam ta'minlanganlar o'rtacha daromadi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1ga, Shvetsiyada esa 5,5:1ga teng.

"O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Yurtimizdagi 10 foiz ta'minlangan va 10 foiz yetarlicha ta'minlanmagan aholi daromadlari o'rtasidagi farq, ya'ni «detsil koeffisenti» deb nom olgan ko'rsatkich barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu raqam 2010-yildagi 8,5 foiz o'rniga 2015-yilda 7,7 foizni tashkil etdi"[183].



24.4-rasm. Daromadlar darajasi bo'yicha 2000 – 2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining tabaqalanishi (eng ko'p va eng kam daromad oladiganlar nisbati – me'yor – 10 barobar)

[183] O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so'zi, 2016-yil 16-yanvar.

Yalpi daromadning aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun **aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Jini koeffisienti)** ko'rsatkichi qo'llaniladi. Jini koeffitsienti rasmdagi Lorens egri chizig'i bilan mutlaq tenglik chizig'i o'rtasidagi yuzaning 0FE uchburchak yuzasiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Jini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQSHda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

Daromadlarning taqsimlanish darajasi ***Jini koeffitsienti yordamida baholanadi va u 0 ≤KJ ≤1 oraliqda bo'ladi.***

1. Jini koeffitsienti 0 ga teng bo'lganda daromadlar aholi orasida teppa-teng taqsimlanadi.

2. Jini koeffitsienti 1 ga teng bo'lganda barcha daromadlar ayrim shaxslar tasarrufida bo'ladi.

Bu holatlar quldorlik tizimida ko'proq vujudga kelgan.

Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalaniladi.

Misol uchun, "Daromadlar o'rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko'rsatkich –Jini indeksi mamlakatimizda 2010-yildagi 0,390 o'rniga 2015-yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir"[184] (24.5-rasm).

---

[184] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so'zi, 2016-yil 16-yanvar.



24.5-rasm. 1991 – 2015-yillarda O'zbekiston Respublikasida Jini koeffisenti dinamikasi

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy beqarorlik tufayli qarab chiqilgan bu ko'rsatkich o'sish tamoyiliga ega bo'ladi. Umumiy daromadning tabaqalanishi alohida tarmoqlar va faoliyat sohalarida ish haqi darajasidagi farqlarning ortishi bilan birga boradi. Milliy iqtisodiyotda o'rtacha ish haqining tarmoqlar, korxonalar va ishlovchilar toifalari bo'yicha yuqori tengsizligi tarkib topadi. Daromadlar tengsizligida katta farqlar mavjud bo'lishining asosiy sababi bozor tizimiga asoslangan iqtisodiyotning o'z xususiyatlaridan kelib chiqadi. Respublikamizda ham bozor iqtisodiyotiga o'tish daromadlar tengsizligi muammosini keskinlashtiradi. Bu yerda asosiy rolni mol-mulk (uy-joy, ko'chmas mulk, aksiya va boshqalar)ga ega bo'lish omili o'ynay boshlaydi. Daromadlarning tabaqalanish jarayoni yetarli darajada tez boradi, minimal darajadan bir necha o'n baravar yuqori daromadga ega bo'lgan ijtimoiy qatlam shakllanadi. Daromadlarning tabaqalanishi mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqaradi. Vaqt o'tishi bilan oilalarning o'z mol-mulkini meros qilib qoldirishi natijasida daromadlar tabaqalanishining kuchayishi ro'y beradi. Har xil oilalar uchun turlicha iste'mol muhiti yaratiladi. Ijtimoiy tenglik va daromadlar taqsimotida adolatni ta'minlashda muhim muammolar vujudga keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar ham mavjud bo'ladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

– kishilarning umumiy (jismoniy, aqliy va estetik) layoqatidagi farqlar;

– ta'lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;

– tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajasidagi farqlar;

– ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o'rnatishga layoqatliligi (bozordagi hukmronlik darajasidan kelib chiqib) darajasidagi farqlar.

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashga qaratiladi.

Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to'lovlari taqozo qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to'lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70–75 foiz)ni tashkil qiladi va qashshoqlikni yumshatishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

24.3. Davlatning ijtimoiy siyosati. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari

Davlatning ijtimoiy siyosati tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan muayyan markazlashgan daromadlarni shakllantirish va ularni aholi turli guruhlari o'rtasida byudjet orqali qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor narxlarini o'zgartirish (masalan, fermyerlarga narxlarni kafolatlash) va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo'lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy to'lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlashtirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholi real daromadlari darajasiga inflyatsiya sezilarli ta'sir ko'rsatishi sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning

muhim vazifasi **iste'mol tovarlari narxlarining o'sishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash,** ya'ni nominal daromadlarni narxlar o'sishiga bog'liqlikda oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi **aholi kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash** hisoblanadi.

Amaliy hayotda qashshoqlikning o'zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi. **Ijtimoiy minimum jismoniy ehtiyojlarni qondirishning minimal me'yori bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajatlarini ham o'z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko'zda tutadi.**

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulki miqdori, oilaviy ahvoli va shu kabilar kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosatdir.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda alohida yirik yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Bu yo'nalishlar I. A. Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»[185] kitobida to'liq bayon qilib berilgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu **narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish** hisoblanadi. Bunda respublikaning o'ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o'zgartirish, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg'arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o'zida qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o'zgartirishda joriy etilgan yangi yagona tarif setkasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu barcha toifadagi

[185] Qarang: Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995, 119–138 betlar.

xodimlarning mehnat haqi miqdorlarini tarif koeffitsientlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o'zaro bog'lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi – **ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish** bo'ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Milliy valyuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me'yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o'tish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo'nalishi – **aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash** borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo'nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – pensionyerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o'tish – ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Yangilangan ijtimoiy siyosat adolat tamoyillariga izchillik bilan rioya qilishga asoslanib, ijtimoiy ko'maklashishning mavjud usullarini va pul bilan ta'minlash manbalarini tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bu siyosat ijtimoiy himoya aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab olishni ko'zda tutadi. Yordam tizimi faqat kam ta'minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo'llanilib, shu maqsad uchun davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, turli tashkilot hamda jamg'armalarning mablag'laridan ham foydalaniladi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar hisob-

lanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat mahalla orqali yetkazib beriladi. Shu maqsadda mahallalarda byudjet mablag'lari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari va ayrim fuqarolarning ixtiyoriy o'tkazgan mablag'lari hisobidan maxsus jamg'armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko'maklashishning yangi tizimi mehnatga rag'batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo'lishini ham taqozo qiladi. Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, o'z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta'minlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar buning yaqqol dalilidir.

Mamlakatimiz aholisi pul daromadlarining oshib borishi o'z navbatida ular turmush sharoiti va sifatining bosqichma-bosqich yaxshilanib borishiga zamin yaratmoqda.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi Dasturiga asosan 2016-yil davomida 13435 ta uy-joylar qurildi. Maxalla guzarlari, savdo majmualari, bozor, nonvoyxona, maishiy xizmat majmualari, minibanklarni hisobga olgan holda 159 ijtimoiy va iqtisodiy obyektlar infrastrukturasi barpo etildi.

Umuman olganda, joriy yilda respublikada 12413,5 ming kvadrat metr, jumladan, qishloq joylarda 9000,6 ming kvadrat metr uy-joylar, 2448,1 kilometr, xususan, qishloq joylarda 1972,4 kilometr suv ta'minoti tarmoqlari bunyod etildi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 378,4 mlrd. so'm o'zlashtirilib, shundan byudjet mablag'lari hisobidan 185,3 mlrd. so'm (umumiy hajmidan 49,0 foizi), chet el investitsiyalari va kreditlari hisobidan 167,8 mlrd. so'm (44,3 foizi), aholi mablag'lari hisobidan 21,7 mlrd. so'm (5,8 foizi), korxona va tashkilotlar hisobidan 1,6 mlrd. so'm (0,4 foizi) va boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan 2,0 mlrd so'm (0,5 foizi) o'zlashtirildi.[186]

Ta'lim tizimidagi islohotlar O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblanadi. «Ta'lim uchun xarajatlar, – degan edi bi-

[186] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

rinchi Prezidentimiz I. Karimov, – davlat byudjeti xarajatlari umumiy qiymatining qariyb yarmini tashkil etadi. Biroq men ularni xarajat emas, kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblayman, chunki ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omildir»[187]. Shunga ko'ra, O'zbekistonda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturlari muhim o'rin tutadi. Jumladan,

- yangidan tashkil qilingan 1,6 mln.o'quvchiga mo'ljallangan **1556 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlari** faoliyat yuritmoqda;
- 3 mln. o'quvchiga mo'ljallangan 7,8 mingta **umumta'lim maktablari** rekonstruksiya qilindi va yangidan qurildi;
- **66 ta oliy o'quv yurtlarida** 260 ming talaba ta'lim olayapti, shu jumladan Vestminster xalqaro Universiteti, Turin politexnika instituti, Singapur menejment rivojlanishi instituti, Toshkent shahridagi Inxa Universiteti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva daylat Universiteti, M.I.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti va boshqa yetakchi xorijiy universitetlar filiallari.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga joriy etishda davlat byudjetidan qo'shimcha sarf-xarajatlarining katta qismini tashkil etdi. Ta'lim sohasiga sarflanayotgan xarajatlar bo'yicha O'zbekiston dunyoda o'z o'rniga ega. Xususan, Jahon bankining ma'lumotiga ko'ra, yalpi ichki mahsulotdan ta'lim sohasiga xarajatlar Rossiyada 3,4 foiz, AQSH, Fransiya va Buyuk Britaniyada 5,3 foizni tashkil etadi. 2012-yilda O'zbekistonda davlat xarajatlarining 34 foizdan ortig'i ta'lim sohasini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Birinchi Prezidentimizning 2011-yil 20-maydagi «Oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori Oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv va ilmiy-tadqiqot va laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, ta'lim jarayonlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda o'qitish shakllarini joriy etish, o'qituvchi kadrlar mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish asosida iqtisodiyot soha va tarmoqlari-

[187] Karimov I. A. Asarlar.T.13, 437-b.

da talab qilinadigan oliy ma'lumotga ega mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadlarini qamrab olgan.

O'tgan davr mobaynida Kadrlar tayyorlash va Maktab ta'limi rivojlantirish umummilliy dasturlari doirasida ahamiyatli ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

Ta'lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, jumladan, umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi.

Bu borada umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini, ayniqsa, qishloq joylarda, olis aholi punktlarida yashaydigan qizlarni kasb-hunar kollejlarida o'qishga to'liq jalb etish masalasini tekshirish bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli ishlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Yangi kasb-hunar kollejlari va ularning filiallarini qurish nihoyasiga yetkazildi. 2012–2013-o'quv yilida mamlakatimizda 12-yillik majburiy ta'limga o'tish to'liq ta'minlandi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu kollejlarning ish beruvchi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarining turli shakllaridan foydalanishi, bu masalaga tuman va shahar jamoatchiligini jalb etish mazkur vazifani ado etishning eng muhim, hal qiluvchi yo'nalishi bo'ldi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kollejlarni tugatgan 450 ming nafardan ortiq bitiruvchi ish bilan ta'minlandi, ularning 43 foizi o'zlari ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan korxonalarga ishga joylashdi.

O'tgan yili **ta'lim-tarbiya sohasini** yanada isloh etish va takomillashtirish masalasi ham diqqat markazimizda bo'ldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10–12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6–7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir.

2015-yilda bu sohada 384 ta obyektning moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha qiymati 423 milliard so'mlik ishlar amalga oshirildi, namunaviy loyihalar asosida 29

ta yangi umumta'lim maktabi barpo etildi, 219 ta maktab rekonstruksiya qilinib, 136 tasi kapital ta'mirlandi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2 ming 200 talabaga mo'ljallangan yangi zamonaviy o'quv korpusi, sport majmuasi, shuningdek, o'quv jarayoniga jalb etilgan xorijlik mutaxassislar uchun mehmonxona barpo etildi. Navoiy davlat konchilik institutida yangi o'quv binosi qurilishi nihoyasiga yetkazildi.

Oliy ta'lim sohasida oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilarini muntazam qayta tayyorlash bo'yicha mutlaqo yangi, takomillashtirilgan tizim joriy qilindi. 15 ta tayanch oliy o'quv yurtida oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish kurslari tashkil etildi. Mazkur kurslarda oliy o'quv yurtlarining 2 ming 700 ga yaqin o'qituvchisi malaka oshirdi[188].

Ustoz va murabbiylar mehnatini munosib rag'batlantirishga yo'naltirilayotgan Direktor jamg'armasi uchun ajratilayotgan mablag'lar ham yildan-yilga muttasil oshib bormoqda.

2016-yilda ijtimoiy sohaga Davlat byudjeti jami xarajatlarining 59,1 foizi yoki o'tgan yilga nisbatan ko'proq mablag' ajratiladi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga davlat byudjeti xarajatlarining 33,7 foizi, sog'liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo'naltiriladi. Ta'lim-tarbiya sohasini ta'minlash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o'tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog'liqni saqlash tizimida 16 foizga ko'payadi.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Joriy yilda 13 ta oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Qoraqalpog'iston, Buxoro va Samarqand davlat universitetlari, Farg'ona politexnika institutidagi qurilish va

[188] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so'zi, 2016-yil 16- yanvar.

rekonstruksiya ishlariga 355 milliard so'm ajratish ko'zda tutilmoq-da. Shuningdek, Toshkent davlat stomatologiya instituti binolari, Toshkent shahridagi Inxa universiteti va Singapur menejmentni rivojlantirish instituti filiallarining yangi o'quv korpuslari quriladi.

2016-yilda 2016–2020-yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi doirasida qariyb 14,6 ming yangi servis obyekti va 194 ta yangi turdagi maishiy xizmat ko'rsatish kompleksi foydalanishga topshirildi. Mobil aloqaning 1632 ta yangi baza stansiyasi, hududlarda 63 ta yangi yo'lovchi transport yo'nalishlari va 54-yangi mexmonxonalar foydalanishga topshirildi.

2013–2020-yillarda telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoqlari va aloqa infratuzilmasini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi doirasida 2016-yilda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi 2300 kilometrdan ziyod keng polosali optik-tolali tarmoqlar barpo etildi va zaxiraga olindi. Yagona portal orqali 929 mingdan ziyod xizmatlar ko'rsatildi va o'sish oldingi yilning shu davriga nisbatan 2,2 barobarni tashkil qildi.[189]

"Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi doirasida ona va bolaning salomatligini muhofaza qilishni kuchaytirish, sog'lom va har tomonlama rivojlangan avlodni shakllantirish bo'yicha keng chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirilib, ularni moliyalashtirishga barcha manbalar hisobidan 8 trillion so'm va 212 million dollar mablag' yo'naltirildi.

Shuni e'tiborda tutish lozimki, respublikamizda keyingi yillarda aholining kam ta'minlangan va muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish borasida aniq yo'naltirilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta'lim, kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida maqsadli umummilliy dasturlarni hayotga tatbiq etish yanada faollashtirilmoqda. 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublika Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida bir qator yo'nalishlarni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Jumladan, ushbu farmonning 4-yo'nalishida "ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib bor-

[189] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

ish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish"ga[190] alohida e'tibor berilgan.

Bularning barchasi mamlakat aholisini ijtimoiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, uning turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosalar

1. Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida ta'riflash mumkin.

2. Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

3. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi. Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

4. Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi.

[190] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni

Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi.

5. Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni byudjet orqali aholi turli guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat.

6. Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlarning oshib va pul qadrining tushib ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Aholi daromadlari – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.

Nominal daromad – aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

Ixtiyorida bo'lgan daromad – barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad, ya'ni shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad.

Real daromad – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni sotib olishga yetadigan quvvati, ya'ni aholi daromadining xarid quvvati.

Lorens egri chizig'i – daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy jihatdan ifodalovchi geometrik egri chiziq.

Ijtimoiy to'lovlar – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

Ijtimoiy siyosat – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni, iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?

2. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.

3. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko‘rsatkichlar tavsiflab beradi?

4. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko‘rsating va tushuntirib bering.

5. Lorens egri chizig‘i nimani anglatadi? Uning mazmunini misollar yordamida bayon qiling.

6. Jini koeffitsienti qanday aniqlanadi? Rivojlangan mamlakatlarda mazkur koeffitsient qiymatining o‘zgarish tendensiyalari nima bilan izohlanadi?

7. O‘zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo‘nalishlarini izohlang.

8. Mamlakatimizda «Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturi doirasida qanday ishlar amalga oshirildi?

9. Keyingi yillarda O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirish borasida qanday natijalar qo‘lga kiritilmoqda?

10. Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o‘zgarishida qanday tendensiyalar kuzatilmoqda?

IV-BO‘LIM
JAHON XO‘JALIGI

25-BOB. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI

Oldingi boblarda iqtisodiy munosabatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari va qonuniyatlari alohida olingan xo'jaliklar tarmoqlar va milliy iqtisodiyot miqyosida ko'rib chiqilgan edi. Shuningdek, bu munosabatlarni nafaqat alohida xo'jalik subyektlari va milliy iqtisodiyotlar, balki butun jahon xo'jaligiga nisbatan ham ko'rib chiqish muhim hisoblanib, bunda mazkur munosabatlarning namoyon bo'lish shakllari mazmun jihatdan farqlanadi.

Bu holatlar jahon xo'jaligi aloqalari va milliy xo'jaliklarning iqtisodiy rivojlanish muammolarini alohida tahlil qilishni taqozo etadi. Shunga ko'ra ushbu bobda jahon xo'jaligining tarkib topishi, bunda ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va globallashuv jarayonlarining o'rni, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, jahon infratuzilmasining rivojlanishi, jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish masalalari bayon etiladi.

25.1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi rivojining muhim tamoyili milliy xo'jaliklarning baynalminallashuvi, shu asosda jahon xo'jaligi va avvalo jahon bozorining shakllanishi va rivojlanishidan iborat. Insoniyat taraqqiyoti uchun ijobiy bo'lgan bu jarayonga yetmish yildan ortiq davr davomida dunyoning ikki qarama-qarshi ijtimoiy-siyosiy tizimiga bo'linganligi salbiy ta'sir ko'rsatib keldi. Hozir yangi davr boshlandi, dunyoning iqtisodiy rivojlanishi va shunga mos ravishda O'zbekiston bilan jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning butunlay yangi imkoniyatlari vujudga keldi. O'zbekiston va jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi har tomonlama aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvi har ikki tomon uchun iqtisodiy va siyosiy jihatdan foydali hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir mam-

lakat iqtisodiyotining rivojlanishi, uning milliy xo'jaligi ko'p darajada nafaqat bu mamlakatning ichki imkoniyatlari bilan, balki uning xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotida qatnashish darajasi va miqyosi, butun insoniyat resurslari bilan aniqlanadi.

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlar va mintaqalar xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning o'sib, rivojlanib borishi hisoblanadi.

Jahon xo'jaligi birdaniga shakllangan tizim emas, u uzoq davrni o'z ichiga olgan tarixiy jarayon hisoblanadi. Turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar dastlab cheklangan turdagi va miqdordagi tovarlar savdosi shaklida kelib chiqib, bu quldorlik va feodalizm davrlarida ham mavjud bo'lgan. Bunga misol qilib, qadimdan O'rta Osiyoda joylashgan mamlakatlarning Hidniston, Xitoy, Arab va boshqa mamlakatlar bilan, ikkinchi tomondan esa, Yevropa mamlakatlari bilan "Buyuk ipak yo'li" orqali olib borgan turli xil savdo-sotiq ishlarini ko'rsatish mumkin.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Rim imperiyasi davrlarida ham turli xil xalqaro savdolar, ayniqsa, qul savdosi amalga oshirilgan. Lekin u davrda asosan natural ishlab chiqarish hukmron bo'lib, tovarlar savdosi va iqtisodiy aloqalar juda cheklangan holda bo'lgan. Keyinchalik tovar ishlab chiqarish va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, oltinning yagona jahon puli sifatida tan olinishi buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilikning rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi jahon bozorining paydo bo'lishi va rivojlanishi ilmiy texnika taraqqiyotining jadallashuvi, globallashuv jarayonlarining kuchayishi kabi qator omillar turli mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanishga va asta-sekinlik bilan jahon iqtisodiyoti tizimiga birlashishiga turtki bo'ldi.

Ayniqsa, hozirgi davrda umumjahon muammolari: sovuq urushning oldini olish va tinchlikni ta'minlash; ekologik buzilishning oldini olish; cheklangan energiya va yoqilg'i manbalaridan samarali foydalanish; energiyaning yangi manbalarini topish (masalan, quyosh energiyasidan foydalanish); rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyat va keskinlikni yumshatish; xalqaro terrorizmga va giyohvandlikka qarshi kurashish kabi muammolarni

birgalikda hal qilish masalasi milliy xo'jaliklarni jahon xo'jaligiga birlashishni zarur qilib qo'ymoqda. Jahon xo'jaligining asta-sekinlik bilan shakllanishini, uning rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqqanda yanada ravshanroq ko'rinadi.

Bu masalada ham iqtisodiy adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Ularning ayrimlarida jahon xo'jaligining rivojlanishini 5 bosqich deb, ayrimlarida esa 4 bosqich deb beriladi. Masalan, E. F. Borisov jahon xo'jaligi shakllanishining to'rtta bosqichini ajratib ko'rsatadi. Biz misol tariqasida ushbu bosqichlarni bayon qilamiz.

Birinchi bosqich ishlab chiqarishning sanoatlashuvidan oldingi davrda vujudga kelib, dastlab o'sha davrdagi kishilar jamoalari yoki qabilalari o'rtasida paydo bo'lgan savdo ayirboshlashuvi keyinchalik tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan turli mamlakatlar o'rtasidagi doimiy tovar almashuvi – **xalqaro savdo**ning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi.

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarishning sanoatlashuv davriga to'g'ri kelib, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi va tadbirkorlarning ko'proq foyda olishga intilishi tashqi savdoni deyarli barcha milliy xo'jaliklarning tarkibiy qismiga aylantirib qo'yishi natijasida XVIII-XIX asrlarda rivojlangan **jahon bozori** paydo bo'ldi.

Uchinchi bosqich XIX-XX asrlarga to'g'ri kelib, bu davrda **jahon xo'jaligi tizimi** shakllandi.

To'rtinchi bosqich XX asrning 60-yillaridan boshlab, ya'ni ko'plab mustamlaka mamlakatlarning siyosiy qaramlikdan ozod bo'lishi natijasida zamonaviy jahon iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlarning yangi tendensiyalari paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bu tendensiyalar quyidagilardan iborat:

– iqtisodiy manfaatdorlik asosidagi xalqaro hamkorlik;
– ishlab chiqarishning baynalminallashuvi;
– jahon miqyosidagi bozor makonlarining kengayishi;
– jahon xo'jaligi aloqalari majmuining rivojlanishi[191].

[191] Борисов Е. Ф. Экономическая теория: Учебник / 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с. 497–499.

Ba'zi manbalarda «Jahon xo'jaligi», tushunchasining keng va tor ma'nolari farqlanadi[192]. Keng ma'nosiga ko'ra, jahon xo'jaligi – bu jahondagi barcha milliy iqtisodiyotlarning yig'indisidir. Tor ma'nosiga ko'ra – bu milliy iqtisodiyotlarning faqat tashqi dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lgan qismlari majmuidir. Biroq, bu ikkala ma'no o'rtasidagi tafovut borgan sari sezilmay qolmoqda, chunki barcha mamlakatlarda tashqi dunyo bilan bevosita yoki bilvosita aloqaga kirishmagan tarmoq yoki sohalar tobora kamayib bormoqda.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, **jahon xo'jaligi – bu xalqaro mehnat taqsimoti asosida savdo, ishlab chiqarish, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy va boshqa shakldagi iqtisodiy hamkorlik va aloqalari kuchaygan, o'zaro manfaatdorlik maqsadida birlashgan turli mamlakatlar xo'jaliklarining umumiy tizimidir.**

Jahon xo'jaligi subyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– o'z ichiga milliy iqtisodiyot majmuasini oluvchi turli mamlakatlar;

– transmilliy korporatsiyalar;

– xalqaro tashkilot va institutlar;

– milliy iqtisodiyot chegarasidan chiqqan, barcha sohalar, xo'jaliklar va firmalar.

Jahon bozorining o'ziga xos xususiyati bo'lib jahon narxlari va xalqaro raqobat tizimining amal qilishi hisoblanadi. Aynan xalqaro raqobatning mavjudligi turli darajadagi milliy qiymatlarni yagona baynalminal qiymatga keltiradi. Jahon narxi jahon bozoriga ne'matlarning asosiy hajmini yetkazib beruvchi mamlakatlardagi shart-sharoitlar orqali aniqlanadi. Mamlakatlar o'rtasida sotish bozorlarini egallash uchun keskin raqobat kurashi olib boriladi.

Jahon xo'jaligida har bir o'zgarishlar (jahon bozoridagi narxlar harakati va alohida mamlakatning eksport imkoniyatidan tortib dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar va xalqaro monopoliyalar faoliyatigacha) dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o'ziga tortadi. Mamlakatning savdo, ishlab chiqarish, valyuta-moliya sohalaridagi jahon tamoyillariga bog'liqlik obyektiv reallik hisoblanadi. Hozirgi

[192] Экономика: Учебник / 3-е изд., перераб. и доп. Под ред. д-ра экон. наук, проф. А. С. Булатова. – М.: Экономистъ, 2005, с.691.

davrda har qanday mamlakatni uning iqtisodiyoti qanday rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, jahon xo'jaligi aloqalariga jalb qilmasdan to'laqonli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Shu sababli birinchi Prezidentimiz I. Karimov «Mamlakatning jahon xo'jalik aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok yetishi ochiq turdagi iqtisodiyotni barpo etishning asosidir»[193] deb ta'kidlaydi.

Shuni amalga oshirish maqsadida "davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish"[194] strategik vazifa sifatida qo'yildi.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlarga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Turli mamlakatlarning **iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari**ning turli-tumanligi ular taraqqiyot darajasini qandaydir bitta nuqtai-nazardan baholash imkonini bermaydi. Shunga ko'ra, mazkur maqsadda bir necha asosiy ko'rsatkich va mezonlardan foydalaniladi:

– mutlaq va nisbiy YaIM;
– milliy daromad va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori;
– milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi;
– mamlakat eksporti va importi tarkibiy tuzilmasi;
– aholining turmush darajasi, sifati va boshqalar.

Mamlakatning jahon xo'jaligidagi o'rnini aniqlashda bir necha yondashuvlar mavjud. Ulardan eng oddiylari – mamlakatlarni **aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad darajasi** bo'yicha guruhlarga ajratish hisoblanadi. Bunday yondashuv BMT, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon tiklanish va taraqqiyot banki (JTTB) tomonidan

[193] Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari – T.: «O'zbekiston», 1998. 267-b.

[194] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni, 1-ilova.

qo'llaniladi. Masalan, JTTB daromad darajasiga ko'ra mamlakatlarning uchta guruhini farqlaydi. 1995-yili aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromadlarning quyidagi chegaraviy miqdorlari belgilangan edi:

– daromadlarning past darajasi – 765 dollargacha (49 ta mamlakat);

– daromadlarning o'rtacha darajasi – 766 dollardan 9385 dollargacha (58 ta mamlakat);

– daromadlarning yuqori darajasi – 9386 dollar va undan yuqori (26 ta mamlakat).

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiy asosda yondashib **xo'jalik tizimlarining xususiyatlariga** mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan holda rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti mavjud bo'lmagan mamlakatlar. **Rivojlanganlik darajasi** bo'yicha ham o'z navbatida uchta guruh farqlanadi: past, o'rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoli-sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YaIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqalar), eng kam rivojlangan mamlakatlar (EKRM), shu jumladan eng kambag'al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya), har xil mintaqaviy ittifoqlar va baynalminal guruhlarga ajratiladi. Bu barcha turli-tumanlik bir butun yaxlitlikka o'zaro iqtisodiy bog'liqlikning har xil jihatlari orqali tortiladi. Hozirgi xo'jalik aloqalarining chuqurlashib borayotganligi, baynalminallashuvning kuchayishi hamda fantexnika inqilobining keng qamrovli tavsifi, aloqa va kommunikatsiya vositalarining butunlay yangi roli sharoitida milliy iqtisodiyot o'z-o'zini ta'minlash orqali samarali amal qilishi mumkin emas.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan o'sib chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvini ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mantiqi taqozo qiladi, ya'ni u milliy chegaradan o'sib chiqadi va obyektiv ravishda ishlab chiqarishning baynalminallashuvini zarur qilib qo'yadi.

Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi – bu mamlakatlarning jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olish jarayoni hisoblanadi.

Barcha iqtisodiy jarayonlarning baynalminallashuvi natijasida jahon xo'jaligining quyidagi tarkibi vujudga keldi:

1) tovar va xizmatlar jahon bozori;

2) kapitallar jahon bozori;

3) ishchi kuchi jahon bozori;

4) xalqaro valyuta tizimi;

5) xalqaro kredit-moliya tizimi.

Bundan tashqari, baynalminallashuv axborotlar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, madaniyat sohalarida ham rivojlanmoqda. Yagona ilmiy-axborot makoni shakllanmoqda.

Xalqaro savdo milliy davlatlarning paydo bo'lishi bilan ular orasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarning ifodasi sifatida qadimdan amal qilib kelgan bo'lsada, bu hali jahon bozori mavjudligini anglatmas edi. Jahon bozori faqat yirik mashinalashgan sanoatning paydo bo'lishi bilan dastlab bir qator mamlakatlar o'rtasida vujudga kelib, XX asrning boshlarida jahonning barcha mamlakatlarini qamrab oldi.

Alohida mamlakatlar milliy bozori hamda jahon bozori farqlanadi. Jahon bozori bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Agar milliy bozorda tovarlar harakati iqtisodiy omillar (ishlab chiqarish aloqalari, transport, xomashyo, mehnat resurslari va h.k.) bilan bog'liq bo'lsa, tovarlarning jahon bozoriga bu omillardan tashqari alohida davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosati ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Milliy xo'jaliklar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

Dastlabki vaqtlarda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlardagi tafovutlarga asoslangan edi. Binobarin,

faqat sanoat to'ntarishidan keyin, ya'ni ishlab chiqaruvchi kuchlar baynalminal xususiyat kasb etib, milliy xo'jaliklar doirasidan tashqariga o'sib chiqa boshlagach, ularning negizida barqaror mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topadi. Hozirgi vaqtda xalqaro mehnat taqsimoti turli ijtimoiy tizimlarni o'z ichiga oluvchi umumjahon xo'jaligi doirasida rivojlanmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti va ayirboshlashda qatnashayotgan mamlakatlar bir xil sharoitda emas. Bu hol ularning turli geografik ahvoli, tabiiy resurslarining tarkibi va miqdori, rivojlanish ko'lami, darajasi va iqtisodiyotining tuzilishi, ichki bozorning hajmi bilan belgilanadi.

Ana shu farqlar sababli ayrim mamlakatlarda bir xil tovarlarni ishlab chiqarishdagi xarajatlar darajasi ham turlicha bo'ladi. Shuning uchun har bir mamlakat o'zi nisbatan qulayroq, kamroq xarajat bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotishga harakat qiladi. Aksincha, ishlab chiqarish nisbatan ko'proq xarajat talab qiladigan yoki tabiiy va boshqa sharoitlarga ko'ra umuman ishlab chiqarib bo'lmaydigan tovarlarni jahon bozoridan sotib olishga intiladi.

Tovarlar mamlakatlar o'rtasida jahon narxlari asosida ayirboshlanadi. Ular **baynalminal qiymatga** asoslanadi. Buning ma'nosi shuki, **ijtimoiy zaruriy baynalminal mehnat sarflari** jahon bozorida e'tirof qilinadi. Umuman olganda, jahon narxlarining tashkil topishi odatda sof holda amalga oshmaydi. Baynalminal qiymatning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi maxsus omillar jahon narxlariga ta'sir qiladi. Tashqi savdo va valyuta cheklovlari, valyutalar qiymatining o'zgarib turishi, xalqaro monopoliyalar siyosati, birjadagi chayqovchiliklar va hokazolar shular jumlasidandir. Shu sababli ayrim mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatlashuv qobiliyatidagi farqlar, pirovard natijada mehnat unumdorligining milliy darajadagi farqlarini aks ettiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda keyingi o'n yilliklarda yangi texnologik asoslarga o'tish jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi bilan birga bordi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining baynalminallashuvi o'zining har ikkala shaklida: **integratsion** (milliy xo'jaliklarning yaqinlashuvi, o'zaro moslashuvi orqali) va **transmilliy** (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakl-

larida kuchayadi. Jumladan, butun dunyoda mintaqaviy davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning qaror topish tamoyili kuzatiladi. Xususan, rivojlangan Yevropa integratsion hamjamiyati (EI) doirasida tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining erkin harakati amalga oshiriladi. Shimoliy Amerika umumiy iqtisodiy hamkorligi AQSH, Kanada va Meksika iqtisodiyotining integratsiyasini ko'zda tutadi. Davlatlararo integratsiyaning kuchayishi janubiy-sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo, arab dunyosi, Afrika va Markaziy Amerika mamlakatlari uchun ham xususiyatli bo'lmoqda.

25.2. Jahon xo'jaligining globallashuvi yo'nalishlari va ziddiyatlari

Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi bilan bir qatorda globallashuvi jarayoni ham muhim o'rin tutadi. Bu har ikkala tushuncha o'zaro bog'liq bo'lib, ular jahon xo'jaligi subyektlarining umumiy maqsadlarga erishish yo'lidagi xatti-harakatlarining birlashuvi jarayonini aks ettiradi. Shuningdek, bu tushunchalar bir-biridan farqlanadi. Birinchidan, ular bir xilda bo'lmagan xo'jalik birlashmalari miqyoslarini ifodalaydilar. Oldingi o'rinda ko'rsatilganidek, baynalminallashuv jahon xo'jaligining bir necha subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar o'rnatilishi va rivojlanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi. **Globallashuv (lotincha globus – yer kurrasi) jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi.** Bugungi kunda globallashuv jarayoni ahamiyatining tobora oshib borishi iqtisodiy adabiyotlarda uning rivojlanish yo'nalishlari va ziddiyatlari kabi masalalarning ham ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda[195].

Globallashuv uzoq vaqt davomida tarkib topuvchi hamda butun borliqni qamrab oluvchi bashariyat miqyosidagi iqtisodiy tizimni namoyon etadi. Hozirda u jahon xo'jaligining umumjahon tavsifiga ega hamda yaxlit holda butun insoniyatga taalluqli bo'lgan ma'lum bir unsurlarni o'z ichiga olishi mumkin. Shunga ko'ra, hozirgi

[195] Борисов Е. Ф. Экономическая теория: Учебник / 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с. 514–524.

vaqtda jahon xo'jaligining globallashuv yo'lidagi rivojlanishining dastlabki qadamlari, yo'nalishlari amalga oshmoqda. Globallashuvning yo'nalishlari makroiqtisodiyotga nisbatan sifat jihatidan yangi bo'lgan iqtisodiy munosabatlar turining tarkib topishiga olib keladi. Globallashuv jarayonining quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish – mulkchilik munosabatlarining globallashuvi. Hozirda mulkiy o'zlashtirishning mamlakatlar hududidan chetga chiquvchi, ko'plab davlatlarning ishtiroki asosida ro'y beruvchi ko'rinishlari amal qilmoqda. Bularga transmilliy korporatsiyalar (TMK), shuningdek TMKning xalqaro birlashmalarini misol keltirish mumkin.

Yevropa ittifoqi tajribasi shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy integratsiyalashuv milliy tuzilmalardan yuqori turuvchi organlarni tarkib toptirishi mumkin. Bu organlar EIga a'zo davlatlarning mulkchilik munosabatlarini ham ma'lum darajada tartibga soladi.

Ikkinchi yo'nalish – kooperatsiya va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasiga o'tish. Yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar hozirgi zamon murakkab mehnat kooperatsiyasiga xos bo'lgan xo'jalik o'zaro aloqalarining juda katta tarmog'iga kirishib ketganlar. Eng mukammal texnika vositalarini yaratishda turli mamlakatlardan yetkazib beriluvchi ko'plab butlovchi qismlardan foydalaniladi. Masalan, AQSH «Boing» samolyotini ishlab chiqarishda butlovchi qism va detallarni mingga yaqin xorijiy firmalardan oladi.

Uchinchi yo'nalish – xo'jalikni tashkil etishning butunlay yangi shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Jahonda xo'jalik aloqalarini tashkil etish shakllarining tubdan o'zgarishi ko'p jihatdan axborot tarqatishning globallashuvi bilan bog'liq. Jumladan, yangi asrimizning dastlabki davri uchun quyidagi jarayonlar xos: a) butun jahonni to'liq kompyuterlashtirishni taqozo etuvchi global axborot tizimlari (Internet) yanada rivojlanadi; b) sun'iy yo'ldoshlar imkoniyatlaridan foydalanishning yangi tizimi uyali telefon aloqasidan yo'ldoshlar orqali ta'minlanuvchi global aloqaga o'tish imkonini beradi; v) insoniyat ochiq axborotlari rivojlangan jamiyat tomon intiladi; g) Internet orqali savdo tizimi keng rivojlanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish – xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tartibga soluvchi roli rivojlanadi. Jahon xo‘jaligi subyektlarining o‘zaro aloqasi hamda o‘zaro bog‘liqligining kengayishi va kuchayishi global muammolarni hal etishda tobora ko‘proq davlatlarning ishtirok yetishini taqozo etadi. Bunga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqish va uning salbiy ta’sirini yumshatish maqsadida 20 ta rivojlangan mamlakatlar ishtirokida o‘tkazilgan Sammitlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu va shunga o‘xshash muammolarning murakkablashuvi ularning o‘z vaqtida va tezkorlik bilan hal etilishida hukumatlararo va nohukumat (ishlab chiqaruvchilar, kompaniyalar va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqa tashkilotlarning birlashmalari) xalqaro iqtisodiy tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini zaruriyatga aylantiradi.

Shuningdek, jahon xo‘jaligi globallashuvi jarayonlarining **ziddiyatli tomonlari** ham mavjud. Bu ziddiyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1) turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi.

Iqtisodiy o‘sishning jadallashuvida ilmiy-texnika inqilobi (ITI) hal qiluvchi rol o‘ynaydi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib yangi texnika va texnologiyalarga «sakrab» o‘tilishi o‘ziga xos «tutash zanjir» hosil qildi. Global miqyosdagi axborotlashtirish natijasida turli mamlakatlarning texnologik jihatdan baravarlashuvi tendensiyasi kuchaydi. Axborot, aloqa va transport vositalari rivojlanishidagi texnikaviy to‘ntarish yer sharining barcha mintaqalarida ITI yutuqlarini tezlik bilan o‘zlashtirish imkonini berdi. Natijada, bir mamlakatda Yaratilgan yangi texnika va texnologiyalar, sun’iy to‘siqlarni bartaraf etgan holda, jahon bo‘yicha tezlik bilan tarqalmoqda. Biroq, XX asrning oxiriga kelib, jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy o‘sish sur’atlarida jiddiy tafovutlar sezilmoqda. Birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning ko‘payish tezligi juda o‘sib ketdi. Aholi jon boshiga YaIM o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar soni ko‘paydi. Ikkinchidan, iqtisodiy rivojlanish sur’atlaridagi tafovutlar natijasida g‘arb mamlakatlari iqtisodiy qudratining sekin-asta, biroq muntazam ravishdagi nisbatan pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ba’zi mamlakatlar o‘zlarining iqti-

sodiy o'sish sur'atlarini sezilarli darajada oshirgan holda zamonaviy sanoatlashgan ishlab chiqarishning eng yuqori darajasiga erishishga harakat qilmoqdalar. Masalan, 1970–1980-yillarda yangi industrial mamlakatlarning «dastlabki avlodi» – Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur va Gonkong ancha tez sur'atlarda rivojlandi. 1990-yillarning oxiriga kelib yangi industrial mamlakatlarning «ikkinchi avlodi» – Indoneziya, Filippin, Malayziya, Tailand jadal sur'atda taraqiy etdi. Ular rivojlangan mamlakatlar bilan nafaqat an'anaviy ishlab chiqarish sohalari, balki murakkab texnika mahsulotlari, jumladan ishlab chiqarish vositalari bozori bo'yicha raqobatlasha boshladilar. Biroq, hali jahon xo'jaligi tarkibida ishlab chiqarishning sanoatlashuvi darajasiga yetmagan, taraqqiyotda ilgarilab ketgan mamlakatlarga yetib olish uchun zarur resurslarga ega bo'lmagan ko'plab mamlakatlar ham mavjud.

2) boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi farqning kuchayishi.

Jahon miqyosida Yaratilgan mahsulot va daromadlarning turli mamlakatlar o'rtasidagi taqsimoti o'ta darajada notekis bormoqda. XX asrda yer shari aholisining eng boy chorak qismi YaIMning o'rtacha jon boshiga 6 baravar o'sishiga erishgan bo'lsa, eng kambag'al chorak qismi esa bu ko'rsatkichning 3 baravar o'sishiga erishgan xolos.

BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi davrda jahonda ochlikka mahkum kishilar soni 500 mln. ga yetadi, ularning deyarli yarmi ochlik va to'yib ovqatmaslik hamda buning oqibatida kelib chiquvchi turli kasalliklar natijasida o'limga mahkumdirlar. 1 mlrd.dan ortiq kishilar yetarli darajada ovqatlanmaslik muammosiga duch kelmoqdalar. Shuningdek, «yashirin ochlik» – sifatli va to'liq ovqatlanmaslik ham keng tarqalgan. Shunga qaramay, fan va texnikaning zamonaviy darajasi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ahamiyatli darajada ko'paytirish imkonini berib, u nafaqat hozir, balki kelgusida yashashi mumkin bo'lgan barcha aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondira oladi.

3) ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi.

Insoniyat taraqqiyotining butun tarixi davomida xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri u qadar ahamiyatli bo'lmay, tabiat o'zining

ekologik muvozanatini qayta tiklashga qodir bo'lib kelgan. Biroq, hozirga kelib, atrof-muhitga ko'rsatilayotgan ta'sir shunchalik kuchayib ketdiki, natijada tabiat o'zini-o'zi qayta tiklash qobiliyatini yo'qotib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, keyingi 200-yil ichida yer yuzidagi 900 mingga yaqin turdagi o'simlik va hayvonlar qirilib ketgan.

Foydali qazilmalarning ba'zi bir qayta tiklanmas zaxiralari tugab bormoqda, o'rmon materiallari resurslari va xomashyoning boshqa turlari qayta tiklanib ulgurmayapti. yer yuzidagi iqlimning o'zgarishi, ozon qatlamining siyraklashuvi, boshqa halokatli jarayonlarning kuchayishi sivilizatsiyaga jiddiy tahdid solmoqda.

Ishlab chiqarishning tabiiy muhitga salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida tozalash qurilmalari va boshqa ekologik himoya vositalarini barpo etish uchun yirik kapital qo'yilmalar talab etiladi. Global ekologik muammolarni hal etish uchun butun dunyo mamlakatlari va xalqlarining kuchlarini birlashtirish lozim bo'ladi.

4) turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining farqlanishi.

Yana bir global ziddiyat sifatida XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan demografik «portlashlar», ya'ni yer shari aholisi sonining jadal o'sishi ko'rsatiladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining tez o'sishi bir qator jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ba'zi bir mamlakatlardagi aholi sonining ko'payishi natijasida ratsional xo'jalik yuritishga to'sqinlik qiluvchi aholining nisbiy ortiqchaligi belgilari ko'zga tashlanadi. Ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga qaramay aholi jon boshiga ist'emol, ayniqsa rivojlangan mamlakatlardagi iste'mol darajasi bilan taqqoslaganda kishilarning haqiqiy ehtiyojlariga qaraganda past darajada qolmoqda. Bu kabi holatlardan ba'zi bir demograf-olimlar asossiz ravishda, keskin xulosalar chiqarib, aholi nufusi jarayonlari ustidan davlat miqyosidagi nazoratlarning o'rnatilishi, jumladan oilani rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqish kabi da'volarini kuchaytirmoqdalar. Bunday asossiz dasturlardan ko'ra, ular bu mamlakatlarda yangi texnika va texnologiya asosida ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish dasturini taklif qilsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, hozirda jahon miqyosida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari o'zining ijobiy yo'nalishlari va

ziddiyatlariga ega bo'lib, bu jihatlarning nisbatini tartibga solishda dunyoning barcha mamlakatlarining faol ishtiroki va birlashuvi talab etiladi.

25.3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi

Jahon xo'jaligi murakkab tizim hisoblanadi. Turli milliy iqtisodiyotlar (yoki ular tashqi iqtisodiy aloqalari)ning barcha majmui tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining harakati bilan mustahkamlangan bo'ladi. Shu asosda mamlakatlar o'rtasida xalqaro iqtisodiy munosabatlar vujudga keladi. **Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (ba'zida ularni tashqi iqtisodiy aloqalar, jahon xo'jaligi aloqalari deb ham yuritiladi) – bu jahonning turli mamlakatlari o'rtasidagi xo'jalik aloqalari majmuidir.**

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

– tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi;
– kapital va chet el investitsiyalarining harakati;
– ishchi kuchining tashqi migratsiyasi;
– ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
– fan va texnika sohasidagi ayirboshlash;
– valyuta-kredit munosabatlari.

Tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi eng avvalo milliy xo'jaliklarning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokiga bog'liq. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozoriga tovar va xizmatlarning xalqaro harakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o'zining rivojlanishida bir qator bosqichlardan o'tadiki, ulardan har biri milliy xo'jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilinishining ma'lum darajasi bilan tavsiflanadi. Tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi va jahon bozorining asosiy belgi va xususiyatlarini 27-bobda batafsil ko'rib chiqamiz.

Kapitalning xalqaro harakati – bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va harakatga keltirilishi. U chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

– xususiy yoki davlat kapitali shaklida. Kapitalning xalqaro tashkilotlar yo'li bilan harakati ko'pincha mustaqil shakl sifatida ajratiladi;

– pul va tovar shaklida. Jumladan, kapital chiqarish mashina va uskunalar, patentlar, nou-xau hamda tovar kreditlari shaklida bo'lishi mumkin;

– qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida;

– ssuda va tadbirkorlik kapitali shaklida. Ssuda shaklidagi kapital quyilmalar bo'yicha foiz, tadbirkorlik shaklidagi kapital esa foyda keltiradi. Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan-to'g'ri va portfelli investitsiyalardan iborat bo'ladi. **To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shu kapital hisobiga qurilgan obyekt (korxona)lar ustidan nazorat qilish huquqini beradi, portfelli investitsiyalar esa bunday huquqni bermaydi.** U odatda aksiya paketlari hamda obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida beriladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri **ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi** hisoblanib, u o'z ifodasini ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi. Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa tavsifdagi omillar ham taqozo qiladi.

Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: emigratsiya va immigratsiya. **Emigratsiya – yashab turgan mamlakatlaridan doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga chiqib ketishni, immigratsiya – shu mamlakatga doimiy yashash uchun boshqa mamlakatdan kirib kelishni bildiradi.** Xalqaro migratsiya shuningdek **repatriatsiya – ya'ni fuqarolarni ilgari chiqib ketgan mamlakatlariga qaytarilishi jarayoni**ni ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro migrantlar beshta asosiy toifaga ajratiladi:

1) immigrantlar va noimmigrantlar;

2) shartnoma bo'yicha ishlashga kelgan migrantlar;

3) nolegal, yashirin immigrantlar;

4) boshpana so'rovchi shaxslar;

5) qochoqlar.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash bir qator shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar, muta-

xassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Ilmiy-texnikaviy hamkorlikning muhim shakllaridan biri **xalqaro injiniring** hisoblanadi. **Xalqaro injiniring bir davlat tomonidan boshqasiga sanoat va boshqa obyektlarni loyihalashtirish va qurish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyihalarini berish hamda injenerlik-qurilish xizmati ko'rsatishdan iborat bo'ladi.**

Jahon infratuzilmasi. Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralardan chiqib, boshqa mamlakatlarga kirib borishi orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi harakati butun jahon infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi. Muhim transport tizimi (dengiz, daryo, havo, temir yo'l transporti) bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida axborot kommunikatsiyalar tarmog'i tobora ko'proq ahamiyat kasb etib boradi. Munosib umumjahon infratuzilmasi bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalminallashuvini rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday infratuzilmaning ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan.

Hozirgi davrda birjalar, moliya markazlari, yirik sanoat va savdo birlashmalari misli ko'rilmagan tezlik bilan operativ ma'lumotlar olishga va ularni ishlab chiqishga imkon beruvchi eng yangi texnik vositalar bilan jihozlangan. Rivojlangan mamalakatlarda keng tarmoqli axborot majmuasi tashkil topmoqda, uning ta'siri amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga yoyilmoqda. Hozirgi sharoitda ilmiy va tijorat axborotlar ayniqsa qimmatlidir. Shu sababli turli xalqaro darajalarda maxsus «ma'lumotlar banklari» tashkil topmoqda, bular ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlari uchun zarur axborotni qidirib topishni ancha yengillashtiradi. Jahon infratuzilmasi turli ziddiyatlarni bartaraf qilish orqali rivojlanadi.

Xalqaro ayirboshlash tovarlarda moddiylashgan shakllardan nomoddiy aloqalarga tobora ko'proq o'rin bo'shatadi, ya'ni fan-texnika yutuqlari, ishlab chiqarish va boshqarish tajribasi, xizmatning boshqa turlari bilan ayirboshlash o'sib boradi. Hisob-kitoblar

va ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda xizmatlar jahon yalpi ichki mahsulotining 46 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi, bu ko'rsatkich yanada tezlik bilan o'sib boradi.

25.4. Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish

Butun jahon xo'jaligining tashkil topishi uning iqtisodiy hayotining baynalminallashuvi davlatlararo xo'jalik aloqalarini tartibga solishning mexanizmini yaratish zarurligiga olib keldi. Hozirgi davrda qandaydir tartibga soluvchi tuzilma amal qilmaydigan xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasini topish qiyin. Jumladan, moliya, valyuta va kredit sohalarida **Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro ta'mirlash va rivojlanish banki (XTRB), jahon savdosi sohasida – Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv – Jahon savdo tashkiloti (TSBK – JST)**ni ko'rsatish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish milliy-tashkiliy shakllardan boshlanadi. Xo'jalik hayotining baynalminallashuv jarayoni dastlab milliy davlatlar faoliyatini xalqaro uyg'unlashtirishga, keyin esa davlatlararo va xalqaro tashkilotlar tuzilishiga olib keldi.

Huquqiy ma'noda tartibga solish xalqaro tartiblarni o'rnatishga, ya'ni me'yoriy chegaralar va qoidalarni aniqlovchi kelishuvlarni ishlab chiqarishni yoki xalqaro aloqalarning qandaydir sohasini hal qilishda tomonlar zimmasiga majburiyatlarga amal qilishni yuklaydi. Umumqabul qilingan andozalar va qoidalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro tartiblar o'z navbatida milliy tatibga solishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Birinchi xalqaro tashkilotlar XX asrning 20-yillarida tuzilgan bo'lsada (Millatlar ligasi – 1919-yil, Xalqaro hisob-kitoblar banki – 1929-yil), xalqaro darajada jahon xo'jalik aloqalarini ko'p tomonlama tartibga soluvchi tuzilmalar ikkinchi jahon urushidan keyin shakllana boshladi.

1945-yil maxsus xalqaro uyg'unlashtiruvchi muassasalar – **Xalqaro valyuta fondi (XVF)** va **Xalqaro ta'mirlash va rivojlantirish banki (XTRB)** tashkil topdi. Hozirgi davrda ham ularning ikkalasi muhim xalqaro tashkilot hisoblanib, jahon savdosi, xalqaro kredit

va valyuta munosabatlari sohalarini davlatlararo tartibga solishning tartib-qoidalarini aniqlab beradi. Urushdan keyingi davrda tuzilgan **Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK), Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EIHT), NATOning iqtisodiy masalalarni uyg'unlashtiruvchi komiteti (IMUK)** xalqaro iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish davriga to'g'ri keldi.

Jahon savdosini erkinlashtirish ko'p tomonlama shartnoma asosida harakat qiluvchi, xalqaro savdo tartib-qoidalarini qayd qiluvchi, 1948-yilning 1-yanvaridan buyon Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (TSBK) nomi bilan faoliyat ko'rsatib, 1995-yil 1-yanvardan Jahon savdo tashkiloti (JST) deb yuritiluvchi xalqaro tashkilot doirasidagi faoliyat bilan bog'liq. Hozirgi davrda JST jahon savdo aylanmasining 4/5 qismidan ko'prog'ini tartibga soladi. JST milliy va mintaqaviy darajada vaqti-vaqti bilan kuchayib boruvchi protekcionizmga qarshi turadi, milliy manfaatlarni o'zaro kelishtirishga yordam beradi. Uning faoliyati savdoda kamsitmaslik, savdoda tarifli va tarifsiz cheklashlarni aniqlashda teng asosda maslahatlashish kabi tamoyillarga asoslanadi. JST faoliyatining asosiy shakli qatnashuvchi tomonlarining ko'p tomonlama savdo muzokaralarini o'tkazish hisoblanadi. Ammo jahon savdosi raqobat kurashi asosida boradi, shu sababli o'zaro maqbul qarorlarni qidirib topishga va savdoni xalqaro darajada tartibga solishga ko'plab qiyinchiliklar bilan erishiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yana bir ahamiyatga molik sohasi – bu valyuta-moliya sohasidir. Xalqaro moliyaviy munosabatlarni uyg'unlashtirish XVF, XTRB, **Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK)** va shu kabilar doirasida amalga oshiriladi. «Katta sakkizlik» nomini olgan jahondagi yetakchi mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Rossiya) ning har yillik kengashi bu sohada muhim rol o'ynaydi. Bu mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti 2014-yilda jahondagi barcha mamlakatlar YaIMning 41,5 foizini tashkil etgan (25.1-jadval).

25.1-jadval

«Katta sakkizlik» tarkibiga kiruvchi mamlakatlarning ko‘rsatkichlari, 2014-yil[196]

Mamlakatlar	Aholi soni		YaIM	
	Mln. kishi	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. doll.	Jamiga nisbatan foizda
Jahon bo‘yicha	6345,1	100	78852,9	100
AQSH	302,5	4,77	14586,7	18,5
Yaponiya	127,7	2,01	4301,8	5,5
Germaniya	82,4	1,30	3308,8	4,2
Buyuk Britaniya	60,2	0,95	2633,9	3,3
Fransiya	64,1	1,01	2494,1	3,2
Rossiya	142,5	2,25	2216,8	2,8
Italiya	59,1	0,93	1828,6	2,3
Kanada	32,9	0,52	1391,1	1,8
«Katta sakkizlik» mamlakatlari birgalikda	871,4	13,73	32761,8	41,5

Valyuta-moliyaviy sohani xalqaro uyg‘unlashtirishning kuchayishi ko‘p jihatdan XVFning faoliyati bilan bog‘liq. U o‘zining nizomiga muvofiq valyuta kurslari va a’zo mamlakatlar to‘lov balanslarini tartibga soladi, ko‘p tomonlama to‘lov tizimlari va rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzlarini nazorat qiladi, a’zo mamlakatlarga ularning valyuta-moliya muammolarini hal qilish uchun kredit beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tarkibiy qayta qurishlarni moliyalashtirish bilan XTRB faol shug‘ullanadi. XTRB va u bilan birga Jahon banki tarkibiga kiruvchi Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK) har xil investitsion obyektlarni o‘rta va uzoq muddatli kreditlash bilan shug‘ullanadi,

[196] Manba: http://ru.wikipedia.org.

loyihalarning moliyaviy-iqtisodiy asoslarini tayyorlaydi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy qayta o'zgartirishga yordam beradi.

Davlatlararo tashkilotlar ichida barcha sanoat jihatdan rivojlangan mamlakatlarni birlashtiruvchi IHRT muhim rol o'ynaydi. Uning doirasida ichki iqtisodiy tadbirlarning boshqa mamlakatlar milliy iqtisodiyoti samaradorligiga ta'sirini, ularning to'lov balansi holatini o'rganish amalga oshiriladi, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi tamoyillariga tez moslashishini ta'minlash maqsadida makroiqtisodiy tartibga solish bo'yicha tavsiyanomalar beriladi. IHRT jahon xo'jaligi doirasida ko'p omilli fuksional aloqalarni o'rganishni amalga oshiradi, valyuta va byudjet siyosati, narxlar, savdo va boshqa sohalar bo'yicha ilmiy asoslangan iqtisodiy prognozlar tavsiya etadi.

Sharqiy Yevropa mintaqasida tarkibiy qayta qurishga moliyaviy ta'sir ko'rsatish va yordam tashkil qilish maqsadida 1991-yil **Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB)** tuzildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiy munosabatlarini xalqaro tartibga solish tizimida doimiy o'zgarishlar ro'y berib turadi. 80-yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sabablar taqozo qilgan dunyo siyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar, jahon xo'jalik aloqalari tizimini ko'p tomonlama tartibga solish shakllari evolyusiyasiga olib keldi. Bular ichida sobiq sotsialistik mamlakatlarda vaziyatning o'zgarishi, tashqi faoliyatida mustaqil subyektlarni tashkil qiluvchi davlatlar sonining keskin ko'payishi hamda dunyo mamlakatlari ichida ro'y beradigan o'zgarishlar muhim o'rin tutadi.

80-yillarning o'rtalarida dunyoda AQSH, G'arbiy Yevropa va Yaponiyadan iborat ancha qudratli raqobatlashuv markaz vujudga keldiki, bu ham jahon iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jahon xo'jalik aloqalarini tartibga solishga xalqaro tashkilotlar a'zolari tarkibidagi o'zgarishlarning ham ta'siri bo'ldi. XVF, XTRB, TSBK (XST)ga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi ozod bo'lgan mamlakatlar va keyin qator sobiq sotsialistik mamlakatlar faol kira bordiki, bu ham jahon xo'jaligi aloqalarini tartibga solishda ma'lum o'zgarishlarga olib keladi.

Yevropa Ittifoqi (EI) doirasida yagona bozorni bunyod etishga harakat tufayli yagona umumYevropa fuqaroligi, iqtisodiy, valyuta va siyosiy ittifoq ta'sis etiladi. Bu Ittifoqning Shartnomada belgilangan vazifalarini bajarish uchun bir qator Yevropa muassasalari tuzildi.

Yevropa Ittifoqining ijroiya organi **Yevropa hamjamiyati Komissiyasi (EHK)**dir. Uning a'zolarini milliy hukumatlar tayinlaydi, lekin ular o'z faoliyatlarida mutlaqo mustaqildir.

Ittifoqning qarorlar qabul qilish organi Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Uning tarkibida ichki ishlar, moliya, ta'minot, qishloq xo'jaligi kabi Vazirlar Kengashi mavjud bo'ladi.

Yevropa hamjamiyati Komissiyasi faoliyatini nazorat qilish, hamjamiyat byudjeti va qonunlarini ma'qullash hamda ularga o'zgartirish kiritish huquqi Yevroparlament zimmasiga yuklatiladi.

Yevropa Ittifoqida 1999-yildan boshlab yagona pul-kredit siyosati o'tkazila boshlandi. Shu munosabat bilan yagona valyuta – EKYU, 2004-yildan boshlab esa Evro joriy etildi va yangi muassasa – Yevropa Markaziy banki tuzilib, u milliy banklar bilan birga Yevropa banklar tizimining asosini tashkil qildi. Shuningdek, hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuz berishi va ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, katta ijtimoiy-iqtisodiy talofatlar keltirishi rivojlangan mamlakatlar hukumatlarini jiddiy tashvishga solib qo'ydi. Ushbu inqirozga qarshi birgalikda kurashish va uning oldini olish maqsadida dastlab, 2008-yil noyabr oyida Vashingtonda, keyin 2009-yil aprel oyida Londonda jahon yalpi mahsulotining 85 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokidagi sammit o'tkazildi. Prezidentimiz dastlabki sammit muhokamalarida inqirozni keltirib chiqargan sabablar tahlili bo'yicha sammit ishtirokchilarining yagona yondashuvga ega emasligi, shu bois ushbu global moliyaviy inqirozning jiddiy va uzoq davom etadigan oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan umumiy va samarali dastur ishlab chiqish haqida hali erta ekanligini qayd etib, «shu bilan birga, mazkur sammitning bo'lib o'tgani, unda jahon moliya inqirozi bilan bog'liq muammolar va vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinganining o'zi umid uyg'otadigan ijobiy hol ekani shubhasiz»[197], deya baholadilar.

[197] Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida

Xulosalar

1. Jahon xo'jaligi milliy xo'jalikdan iqtisodiy aloqalarning xalqaro miqyosga chiqishi va yagona jahon bozorining mavjudligi bilan farqlanadi. Jahon bozorining amal qilishiga rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy siyosati ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Jahon bozorining o'ziga xos xususiyati bo'lib jahon narxlari va xalqaro raqobat tizimining amal qilishi hisoblanadi. Aynan xalqaro raqobatning mavjudligi turli darajadagi milliy qiymatlarni yagona baynalminal qiymatga keltiradi. Jahon narxi jahon bozoriga ne'matlarning asosiy hajmini yetkazib beruvchi mamlakatlardagi shart-sharoitlar orqali aniqlanadi.

2. Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi – bu iqtisodiy aloqalarning jahon miqyosida kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olishi jarayoni hisoblanadi.

3. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi bilan bir qatorda globallashuv jarayoni ham muhim o'rin tutadi. Globallashuv jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi. Globallashuv jarayonining mulkchilik munosabatlarining globallashuvi; kooperatsiya va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasiga o'tish; xo'jalikni tashkil etishning butunlay yangi shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi; xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tartibga soluvchi roli rivojlanishi kabi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, jahon xo'jaligi globalashuvi jarayonlarining turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishining bir tekisda bormasligi; boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi farqning kuchayishi; ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi; turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining farqlanishi kabi ziddiyatli tomonlari ham mavjud.

4. Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

---

uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 6–7-b.

5. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozoriga tovar va xizmatlarning xalqaro harakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o'zining rivojlanishida bir qator bosqichlardan o'tadiki, ulardan har biri milliy xo'jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilinishining ma'lum darajasi bilan tavsiflanadi.

6. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi hisoblanib, u o'z ifodasini ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishida topadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Jahon xo'jaligi – xalqaro mehnat taqsimoti asosida savdo-ishlab chiqarish, moliyaviy va ilmiy-texnikaviy va boshqa aloqalar orqali o'zaro manfaatdorlik maqsadida birlashgan turli mamlakatlar xo'jaliklari tizimi.

Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi – mamlakatlarning jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olishi jarayoni.

Xalqaro mehnat taqsimoti – alohida olingan mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Globallashuv – jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkil topishi va rivojlanishi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar – jahonning turli mamlakatlari o'rtasidagi xo'jalik aloqalari majmui.

Kapitalning xalqaro harakati – kapitalning chet elda joylashtirilishi va harakat qilishi.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi – ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishi.

Emigratsiya – aholining bir mamlakatdan doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga chiqib ketishi.

Immigratsiya – aholining shu mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat? Jahon xo'jaligining milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?

2. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash qanday mezonlarga asoslanadi? Ularni turkumlash bo'yicha hozirgi davrdagi yondoshuvlarga asoslanib davlatlarning asosiy guruhlarini ajratib ko'rsating.

3. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi jarayonining mohiyati nimadan iborat?

4. Globallashuv jarayoni nima va uning qanday yo'nalishlari mavjud? Globallashuv jarayonining ziddiyatli jihatlarini gapirib bering.

5. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol o'ynaydi?

6. Jahon narxlari qanday qiymatga asoslanadi? Jahon narxlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tavsifini bering.

7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko'rsating.

8. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi to'g'risida tushuncha bering. Xalqaro migrantlar qanday toifalarga ajratiladi?

9. Jahon infratuzilmasi tarkibiy qismlarining tavsifini bering va ularning har birining ahamiyatini ko'rsating.

10. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qo'yadi? Hozirda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qanday xalqaro tuzilmalarni bilasiz?

26-BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA KIRIB BORISHI

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida ikki tendensiya amal qilmoqda. Bir tomondan, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, xalqaro savdoning erkinlashuvi, kommunikatsiya va axborot zamonaviy tizimi, texnik jihatdan jahon andozalari va me'yorlarining yaratilishi natijasida jahon xo'jaligining yaxlitligi, uning globallashuvi kuchaymoqda. Ayniqsa, bu jarayon transmilliy korporatsiyalarning faoliyatlari orqali aniq namoyon bo'lmoqda. Boshqa tomondan, mintaqaviy darajada mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan yaqinlashuvi va o'zaro aloqadorligi ro'y berib, jahon xo'jaligining nisbatan mustaqil markazlarini tashkil etish yo'nalishida rivojlanayotgan yirik mintaqaviy integratsion tuzilmalar shakllanmoqda.

Shunga ko'ra, ushbu bobda xalqaro integratsiyaning mohiyati, maqsad va shakllari bayon etiladi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning turlicha nazariyalari tahlil etilib, jahondagi asosiy integratsion guruhlar, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari ochib beriladi.

26.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va obyektiv asoslari

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tadqiq etish, unda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etish va mazkur jarayonning eng samarali shakllarini ko'rsatib berishga intilish bu boradagi turli nazariyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib keldi. Bunday nazariyalar qatorida neoliberalizm, korporatsionalizm, strukturalizm, neokeynschilik, dirijistlik yo'nalishi kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Erta **neoliberalizm** (1950–1960-yillar) vakillari V. Repke va M. Alle to'liq integratsiya deganda bir necha mamlakatlar miqyosida

yagona bozor makonining tashkil etilishini tushunib, bu makonda erkin raqobat va bozorning stixiyali kuchlari amal qilib, davlat siyosati unga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Bu olimlarning fikricha, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasiga davlatning aralashuvi inflyatsiya, xalqaro savdo va to'lov nisbatlarining buzilishi kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Biroq, davlat ishtirokidagi mintaqaviy davlatlararo ittifoqlarning shakllanishi asosidagi xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi erta neoliberallar fikrining asossiz ekanligini ko'rsatdi. Shunga ko'ra, keyingi neoliberalizm vakili B. Balass iqtisodiy integratsiya davlatning iqtisodiy hayotdagi ishtirokining faollashuviga olib kelishini tadqiq etdi.

Korporatsionalizm (namoyandalari S. Rolf, YU. Rostou) XX asrning 60-yillarida paydo bo'lib, bozor mexanizmi va davlat tomonidan tartibga solishga qarama-qarshi holda transmilliy korporatsiyalarning faoliyat ko'rsatishi xalqaro iqtisodiyotning integratsiyalashuvini, uning ratsional va muvozanatli rivojlanishini ta'minlashga qodirligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surdi.

Strukturalizm (asosiy vakili G. Myurdal) yo'nalishi tarafdorlari tovarlar, kapital va ishchi kuchi harakatining to'la liberallashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, bozor mexanizmining erkin amal qilishi ishlab chiqarishning rivojlanishi va joylashuvida ma'lum nomutanosibliklarni, daromadlardagi tengsizlikning chuqurlashuvini keltirib chiqaradi, deb hisoblaydilar. Bu oqim vakillari iqtisodiy integratsiyaga integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarning chuqur jarayoni sifatida qarab, buning natijasida sifat jihatidan yangi integratsiyalashgan makon, nisbatan takomillashgan xo'jalik organizmi paydo bo'lishini ta'kidlaganlar.

Neokeynschilik (asosiy vakili R. Kuper) yo'nalishi xalqaro iqtisodiy hamkorlikning markaziy muammosini mamlakatlarning erkinligini maksimal darajada saqlab qolgan holda integratsiya jarayonlaridan olinadigan turli-tuman naflilikni ko'paytirishga asosiy e'tibor qaratgan. Neokeynschilar xalqaro integratsiyani rivojlantirishning mumkin bo'lgan ikkita variantini ilgari surdilar: birinchisi – iqtisodiy maqsad va siyosatni muvofiqlashtirgan holda milliy erkinlikni yo'qotish asosidagi integratsiya; ikkinchisi – milliy mustaqillikni im-

kon qadar saqlab qolish shartiga asoslangan integratsiya. Bu variantlarning hech biri sof holda mavjud bo'lmasligini anglagan holda, ular integratsiyalashuvchi tomonlarning ichki va tashqi siyosatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan bu variantlarni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatganlar. Neokeynscha yo'nalishning yana bir ko'rinishi dirijizm (asosiy vakili Ya. Tinbergen) bo'lib, uning namoyandalari integratsiya jarayonlarida bozor mexanizmining hal qiluvchi rolini inkor etadilar. Ular xalqaro iqtisodiy tuzilmalarning tashkil etilishi va amal qilishi integratsiyalashayotgan mamlakatlar tomonidan umumiy iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi, sotsial qonunchilik bo'yicha kelishuv, kredit siyosatining muvofiqlashtirilishi asosida amalga oshirilishi mumkin deb hisoblaydilar. Yuqoridagi turli-tuman nazariyalarning umumiy tavsifi shuni ko'rsatadiki, ularning har biri xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ma'lum jihatlarini ochib berishga, bu boradagi muammolarni hal etish va yangi g'oyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur nazariyalarning to'g'ri va ilmiy asoslangan tomonlaridan foydalangan holda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada takomillashtirishga intilish iqtisodiyot nazariyasi oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – bu turli mamlakatlar iqtisodiy aloqalarining barqarorlashib, chuqurlashib rivojlanishi, ular xo'jaliklarining chambarchas chatishib-chirmashib rivojlanish jarayonlaridir. Mikrodarajada bu jarayon hudud jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlar alohida firmalarining o'zaro ta'siri orqali, ular o'rtasidagi turli-tuman iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, shu jumladan chet ellardagi filiallarini tashkil etish asosida boradi. Davlatlararo darajada integratsiya davlatlar iqtisodiy birlashmalarining shakllanishi hamda iqtisodiy siyosatlarning kelishuvi asosida amalga oshadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari quyidagilar:

– **erkin savdo hududlari.** Bu iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasidagi savdo cheklashlari bekor qilinadi. Erkin savdo hududlarining tashkil etilishi ichki bozorda milliy va xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, bu bir tomondan, milliy ishlab

chiqaruvchilarning bankrot bo'lishi xavfini kuchaytirsa, boshqa tomondan ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangiliklarni joriy etish uchun rag'bat yaratadi. Bunga Yevropa erkin savdo uyushmasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bitim misol bo'la oladi;

– **bojxona ittifoqi.** Iqtisodiy integratsiyaning bu shakli erkin savdo hududlarining faoliyat qilishi bilan birga yagona tashqi savdo tariflari o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi. Yevropa Ittifoqi (EI) bojxona ittifoqiga yorqin misoldir;

– **to'lov ittifoqi.** Bu milliy valyutalarning o'zaro erkin almashuvini va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishini ta'minlaydi. Yevropa hamjamiyati, Janubiy-Sharqiy Osiyo va MDH mamlakatlari uchun to'lov ittifoqi pirovard maqsaddir;

– **umumiy bozor.** Bu iqtisodiy integratsiyaning ancha murakkab shakli bo'lib, uning qatnashchilariga erkin o'zaro savdo va yagona tashqi savdo tarifi bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati hamda o'zaro kelishilgan iqtisodiy siyosat ta'minlanadi. Bunga Yevropa iqtisodiy ittifoqi yoki Yevropa umumiy bozorini misol qilib keltirish mumkin. Uning doirasida barcha boj to'lovlari va import me'yor (kvota)lari bekor qilinadi, boshqa mamlakatlardan Yevropa bozoriga tovarlar kirishi bir xil tartibga solinadi, pul mablag'lari va ishchi kuchining chegaradan erkin o'tishi ta'minlanadi hamda umumiy muammolarni hal etishda yagona siyosat o'tkaziladi;

– **iqtisodiy va valyuta ittifoqi.** Bu davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli hisoblanadi. Bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari umumiy iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini obyektiv tavsifdagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichidan quyidagilar asosiy o'rinni egallaydi:

– xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi;
– xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
– umumjahon fan-texnika revolyutsiyasi;
– milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.

Integratsiya jarayonlarini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri – **milliy iqtisodiyot ochiqlik darajasining oshishidir.** Ochiq iqtisodiyotning o'ziga xos belgisi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jalik munosabatlari tizimiga chuqur kirishganligi;

– tovarlar, kapital, ishchi kuchining mamlakatlararo harakati yo'lidagi to'siqlarning kamaytirilishi yoki to'liq bartaraf etilishi;

– milliy valyuta konvertatsiyasining ta'minlanganligi.

Shunday qilib, integratsiya milliy darajadagi iqtisodiy o'sish jarayonlarining o'zaro birikishi orqali tavsiflanib, buning natijasida yagona xo'jalik organizmi shakllanadi. Real hayotda bir vaqtning o'zida integratsiyalashuv va integratsiyalashuvdan qaytishdan iborat ikki tendensiya amal qiladi. Bundan tashqari, ba'zi bir sabablarga ko'ra turli mamlakatlardagi integratsiyaning turli elementlari bir xilda rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, integratsiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

– **qat'iy (bir tomonlama nafli) integratsiya.** Bu turdagi integratsiya tashqi tavsif holatlari bilan shartlangan bo'lib, mazkur jarayonlardan ba'zi mamlakatlar naf ko'ruvchi hisoblansa, boshqa birlari donor hisoblanadi;

– **moslashuvchan (ikki tomonlama nafli) integratsiya.** Bu turdagi integratsiyada har bir mamlakat bir vaqtning o'zida ham donor, ham naf ko'ruvchi hisoblanadi.

Davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishida quyidagi bir qator shart-sharoitlarning mavjudligi ta'sir ko'rsatadi:

– integratsion aloqaga kirishayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot jihatidan bir xil darajada bo'lishi hamda bir turdagi xo'jalik tizimlariga ega bo'lishi;

– ularning hududiy jihatdan yaqinligi, yagona mintaqada joylashganligi va umumiy chegaraga egaligi;

– ularning tarixan tarkib topgan va yetarli darajada mustahkam iqtisodiy aloqalarga egaligi;

– iqtisodiy manfaatlar va muammolarning umumiyligi hamda ularni hal etishda birgalikdagi harakatning samaradorligi va h.k.

26.2. Jahondagi asosiy integratsion guruhlarning amal qilish xususiyatlari

Integratsiya jarayonlari obyektiv tavsif kasb yetishiga qaramay, u o‘z-o‘zicha, stixiyali tarzda bormaydi. Balki bugungi kunda tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan mintaqaviy integratsion tuzilmalar ularga kiruvchi mamlakatlar o‘rtasida qonuniy kelishuv va o‘zaro shartnomalar asosida amal qiladi.

Hozirda dunyoda juda ko‘plab integratsion guruhlar mavjud. Biz turli mintaqalardagi asosiy integratsion guruhlar sifatida quyidagi tuzilmalarni ko‘rsatishimiz mumkin:

– G‘arbiy Yevropada – Yevropa Ittifoqi (EI);

– Shimoliy Amerikada – Erkin savdo to‘g‘risida Shimoliy Amerika bitimi (NAFTA);

– Osiyo-Tinch okeani mintaqasida – Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN).

Yevropa Ittifoqi 1993-yil 1-noyabrda Maastrixt kelishuvlari (bu kelishuvlar 1991-va 1992-yillarda iqtisodiy va valyuta ittifoqini shakllantirish to‘g‘risida imzolangan edi) kuchga kirishi asosida yangi nom bilan paydo bo‘ldi. Bunga qadar u Yevropa hamjamiyati deb atalib, o‘z ichiga 1967-yilda birlashgan uchta mustaqil mintaqaviy tashkilotlarni olar edi, ya’ni:

– 1951-yilda tashkil etilgan ko‘mir va po‘lat ishlab chiqarish bo‘yicha Yevropa birlashmasi;

– 1957-yilda tashkil etilgan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati;

– 1958-yilda tashkil etilgan atom energiyasi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati.

YeI doirasidagi integratsiyaning rivojlanishi bosqichma-bosqich bormoqda. Jumladan, dastlab erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozorning, keyinchalik esa iqtisodiy va valyuta ittifoqining tashkil etilishi bu tuzilmalar shakllanishining quyidan yuqoriga tomon harakatini bildiradi. Hozirda YeIda yagona bozor hamda davlatlararo boshqaruv tizimini tashkil etish jarayoni yakunlanib, mamlakatlar iqtisodiy, valyuta va siyosiy ittifoqlarni rasmiylashtirdilar.

Iqtisodiy ittifoqning amal qilishi YeI Vazirlar kengashi tomonidan YeI iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilishini

ko‘zda tutadi hamda ularga har bir a’zo mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi muvofiq tushishini nazorat qiladi.

Siyosiy ittifoq yagona tashqi siyosatni olib borish hamda ichki qonunchilik doirasida umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Valyuta ittifoqi YeI doirasida yagona pul-kredit siyosatini olib borish hamda barcha mamalakatlar uchun umumiy bo‘lgan valyutaning amal qilishini anglatadi.

1999-yil 1-yanvardan YeI mamlakatlari hududida evro hisob-kitob birligi sifatida amal qila boshladi. Biroq, bu paytda valyuta ittifoqiga YeIning barcha a’zolari kirmay, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Daniya va Shvetsiya evro hududidan tashqarida qoldi.

YeI to‘la huquqli a’zolari tarkibi yillar davomida kengayib bormoqda. Hozirda uning tarkibiga 28 mamlakat kiradi: Belgiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Fransiya (1957-yil); Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya (1973-yil); Gretsiya (1981-yil); Grenlandiya (1985-yil); Portugaliya, Ispaniya (1986-yil); Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya (1995-yil); Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya (2004-yil); Bolgariya, Ruminiya (2007-yil).

YeIga a’zo bo‘lish uchun bu mamlakatlar quyidagi talablarga javob berishlari kerak:

– demokratiyani kafolatlovchi tashkilotlarning barqaror faoliyati;

– huquqiy tartibning o‘rnatilishi va unga amal qilinishi;

– inson huquqlariga amal qilinishi va kam sonli millatlarning himoya qilinishi;

– bozor iqtisodiyotining amal qilishi;

– Ittifoq ichidagi raqobat kurashi va bozor kuchlarining ta’siriga bardosh bera olish;

– o‘z zimmasiga a’zolik majburiyatlarini, shu jumladan, siyosiy, iqtisodiy va valyuta ittifoqi vazifalarini olishga tayyorlik.

Yevropa Ittifoqining kengayishi o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Bir tomondan, yangi hududlar va aholining qo‘shilishi hisobiga YeIning resurs salohiyati o‘sadi, mavjud a’zolar uchun bozorlar ahamiyatli darajada kengayadi, YeIning jahondagi siyosiy mavqei

kuchayadi. Boshqa tomondan, YeIdan katta hajmdagi sarf-xarajatlar, jumladan, uning yangi a'zolari uchun subsidiya va transfert to'lovlari uchun byudjet sarflarining o'sishi talab etiladi. Yangi a'zolar iqtisodiyotining tarmoq bo'yicha tarkibi talabga javob bermaganligi sababli, YeIda beqarorlik xavfi kuchayadi.

Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika bitimi (NAFTA) 1994-yildan boshlab amalda bo'lib, o'z ichiga AQSH, Kanada va Meksikani qamrab oladi. Bu mamlakatlarning o'zaro savdo va kapital harakati asosidagi iqtisodiy aloqalarining miqyoslarini quyidagi ma'lumotlar orqali tasavvur etish mumkin: AQSHda Kanada eksportining 75–80% (yoki Kanada YaMMning 20%) sotiladi. Kanadadagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida AQSHning ulushi 75 foizdan, Kanadaning AQSHdagi ulushi esa 9 foizdan ortiq. AQSHga Meksika eksportining 70 foizdan ortig'i yo'naltirilib, AQSHdan Meksikaga 65% import kelib tushadi.

Shimoliy Amerika integratsion guruhining mavjud tarkibi Yevropadagi integratsiya modelidan farq qilib, bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– AQSH, Kanada va Meksika o'rtasidagi iqtisodiy o'zaro aloqalarning teng nisbatlarda emasligi;

– bu guruh a'zolari rivojlanganlik darajasining keskin farq qilishi.

Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika bitimi (NAFTA)ning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

– barcha bojxona to'lovlarini bekor qilish;

– tovar va xizmatlar savdosidagi tarifsiz to'siqlarning ahamiyatli qismini bosqichma-bosqich tugatib borish;

– Meksikadagi Shimoliy Amerika kapital qo'yilmalari uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

– Meksika moliya bozorida AQSH va Kanada banklarining faoliyatini erkinlashtirish;

– AQSH, Kanada va Meksika arbitraj komissiyasini tashkil etish.

Shuningdek, kelgusida nafaqat NAFTA doirasida ichki mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish, balki boshqa Lotin Amerikasi mamlakatlari hisobiga uning tarkibini kengaytirish ham ko'zda tutilmoqda.

Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) 1967-yilda tashkil topganligiga qaramay, faqat 1992-yilga kelib uning ishtirokchilari (Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailand, Bruney, Vetnam, Myanma, Laos) o'z oldilariga 2008-yilga qadar yagona mintaqaviy erkin savdo hududini tashkil etish vazifasini qo'ydilar. ASEANning a'zosi hisoblangan har bir mamlakatning iqtisodiyoti Yaponiya, AQSH, Osiyoning yangi industrial mamlakatlari iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liq.

26.3. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyati

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan vujudga kela boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy aloqalar majmuini boshqarishning o'ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini belgilash taqozo etiladi.

Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlarida o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi[198].

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok yyetishining asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ortiq davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o'rnatdi, dunyoning ko'pchilik davlatlarida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko'pgina xalqaro tashkilotlar – BMT iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro bank, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi.

[198] Karimov I. A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». – T.: «O'zbekiston», 1998. 266–267-b.

O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida to‘xtalib, birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edi: «Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang‘ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O‘zbekiston bir vaqtning o‘zida turli darajalarda – dunyo miqyosida va mintaqa ko‘lamida – integratsiya jarayonlarida qatnashsada, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir»[199].

Shunga ko‘ra, 2017-yilda Tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash va ularning xalqaro infratuzilmalari bilan integratsiyalashuviga qaratilgan dasturni ishlab chiqish strategik vazifa sifatida qo‘yilmoqda. Jumladan, bu borada qaror ishlab chiqish ko‘zda tutilgan bo‘lib, unda quyidagilarni inobatga olish taklif etiladi:[200]

- milliy transport logistika kompaniyalari o‘rtasida raqobat darajasini oshirish, eksport korxonalari uchun tariflarni pasaytirishni rag‘batlantirish, avtomobil parklarini kengaytirish, yuk avtomobillarini olish uchun kreditlar olishni soddalashtirish;
- eksportga mo‘ljallangan milliy mahsulotlar narxlarini raqobatdosh qilish maqsadida yuklarni bir transportdan boshqasiga qayta yuklash punktlari sonini oshirish;
- «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ va «O‘zbekiston havo yo‘llari» MAK veb-saytlarida temir yo‘l va havo transportlarida yuk tashish tariflarini optimallashtirish.

---

199 Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997, 299-bet.

200 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni. 8-ilova, 145-qator.

Bugungi kunda O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi ko‘p darajali tizim sifatida amal qilib, uni quyidagi beshta darajaga ajratish mumkin: global; transkontinental; mintaqalararo; mintaqaviy; mahalliy[201]. Har bir darajadagi integratsion aloqalarning o‘ziga xos vazifalari mavjud.

O‘zbekistonning **global darajada** amalga oshiriluvchi strategik integratsion vazifasi – bu mamlakatdagi barcha xo‘jalik subyektlarining tashqi bozor bilan o‘zaro aloqasini ta’minlash uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga mos keluvchi shart-sharoitlarni yaratish asosida uning xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo‘shilishidir. O‘zbekistonning BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Yevropa hamjamiyati, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) kabi tashkilotlar faoliyatidagi faol ishtiroki uning jahon xo‘jaligiga yanada kengroq integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

O‘zbekistonning **transkontinental darajada** amalga oshiriluvchi integratsion vazifasi – bu xalqaro transosiyo Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) doirasidagi o‘zaro aloqalarni yanada kuchaytirishdan iborat. Bu tashkilot 1992-yilda tashkil etilgan bo‘lib, o‘z ichiga Osiyo qit’asining 10 ta davlati (Turkiya, Eron, Pokiston, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon)ni oladi. Uning asosiy maqsadi – xo‘jalikning transport, kommunikatsiyalar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo, turizm, ishchi kuchi resurslarini rivojlantirish kabi sohalarida mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

O‘zbekiston **mintaqalararo darajada** yangi mustaqil davlatlar – MDH mamlakatlari bilan integratsiyaga kirishdi. O‘zbekiston birinchilar qatorida MDHni tashkil etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi, uning tashkilotchilari tarkibiga kirdi, integratsion va kooperatsion aloqalarini mustahkamlash hamda uning Xalqaro iqtisodiy qo‘mita (MEK), Davlatlararo bank (MGB), MDH Statistika qo‘mitasi kabi institutsional tuzilmalarini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

---

[201] Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики / Под ред. А. Х. Хикматова. – Т.: “Узбекистон”, 2001, с. 292.

O‘z o‘rnida ta’kidlash lozimki, keyingi paytlarda MDH o‘zining tashkil topishi chog‘idagi dastlabki maqsadi – ya’ni, mavjud xo‘jalik aloqalari va imkoniyatlardan foydalanishda o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash maqsadi hamda undan kelib chiquvchi vazifalarga mos kelmay qoldi. Bu tashkilot faoliyat yo‘nalishida ko‘proq siyosiy masalalar, «integratsion aloqalarni kuchaytirish» shiori ostida kuchli mamlakatlarning nisbatan kuchsiz mamlakatlar ichki ishlariga aralashuvi, ular manfaatlarining siqib qo‘yilishi, iqtisodiy va siyosiy tazyiq o‘tkazish holatlari ustunlik kasb eta boshladi. Bunday holatlarga birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov MDHga a’zo mamlakatlarning turli darajadagi yig‘ilishlarida tanqidiy nuqtai nazardan qarab, uni tubdan isloh qilish borasida o‘zlarining amaliy takliflarini berdilar.

O‘zbekistonning **mintaqaviy darajadagi** integratsiyasi – bu umumiy tarixga, yagona madaniy an’analarga, o‘xshash turmush tarzi va mentalitetga ega bo‘lgan qardosh xalqlarni birlashtiruvchi Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat. Bunday integratsion aloqaning aniq shakli sifatida 1992-yilning yanvar oyida tashkil etilgan Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligi (SARS) tashkil etildi.

Yana bir istiqbolli, kuchli salohiyatga ega bo‘lgan mintaqaviy birlashmalardan biri – **Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) dir**. ShHTning shakllanishi 1992-yildan Xitoy bilan chegaradosh besh postsovet respublikalarining o‘zaro chegaralarni aniqlash bilan bog‘liq muammolarni muhokama qilishidan boshlangan. Dastlab “Shanxay beshligi” deb nom olgan bu tashkilot 1996-yilda Shanxayda, 1998-yilda Almatida, 1999-yilda Bishkekda besh davlat rahbarlarining sammiti chegaralarni mustahkamlash, chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish kabi masalalarni kelishib, hal etishga qaratildi. 2000-yil iyulida Dushanba sammitida O‘zbekiston birinchi Prezidenti I. A. Karimov kuzatuvchi sifatida qatnashdi. 2001-yil 15-iyunda Shanxay sammitida tashkilotga oltinchi bo‘lib O‘zbekiston qo‘shildi, ShHTni tuzish to‘g‘risidagi deklaratsiya e’lon qilindi, “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida Shanxay konvensiyasi” imzolandi. 2002-yil iyulda Sankt-Peterburgda olti

davlat rahbarlari "Shanxay hamkorlik tashkiloti xartiyasi"ni qabul qildilar. 2003-yil may oyida Moskvada ShHTning tashkiliy organlari, ramzlari tasdiqlanib, O'zbekiston tashkilotning yangi raisi etib belgilandi. 2003-yil sentyabrida Pekinda "ShHTga a'zo davlatlarning 20-yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi" qabul qilinib, mahsulot, kapital, xizmat va texnologiyalar erkin aylanishi shartlari belgilab olindi, ShHTning moliyaviy byudjeti ko'rildi. 2004-yil iyundan boshlab tashkilot to'la ravishda ishga kirishdi. 2005-yilda Ostona sammitida va 2007-yil 15–16-avgustda Bishkek uchrashuvlarida Eron, Pokiston va Hindiston, Mo'g'uliston kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi.

2015-yilda Ufa shahrida ShHTning navbatdagi sammiti o'tkazildi. Mazkur sammitda mintaqaviy muammolar va xalqaro xavfsizlikka doir dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. Sammit yakunida davlatlar rahbarlari tomonidan Ufa deklaratsiyasi imzolandi. Unda 2025-yilgacha ShHT rivojlanish strategiyasi, 2016–2018-yillarga mo'ljallangan a'zo davlatlarning terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish uchun hamkorlik Dasturi tasdiqlandi.

2016-yilda ShHTning Toshkentda o'tkazilgan Sammitida Hidniston va Pokiston davlatlari ShHTga a'zo sifatida qabul qilindi. Ushbu sammitda a'zo davlatlar bilan birga 18 ta kuzatuvchi davlatlar vakillari ishtirok etishdi. Tashkilot a'zolari o'zaro kelishuvlar va hamkorlik shartnomalarini imzolashdi. Bugungi kunda ShHTning maqsadi juda oddiy: a'zo davlatlarda harbiy-siyosiy mojarolarga yo'l qo'ymaslik, hududdagi barchani birlashtiruvchi infrastrukturani yaratish (yo'l, logistika markazlari, axborot va qonuniy asoslar va boshqalar).

O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyasining kuchayishi ko'p jihatdan mazkur mamlakatlarning milliy manfaatdorligi bilan belgilanadi. Eng avvalo, O'zbekiston raqobat jihatidan nisbatan ustunlikka ega bo'lgan ishlab chiqarish sohalari tovarlari – paxta xomashyosi, mashinasozlik, kimyo sanoati, qurilish materiallari sanoati, elektr energetikasi tovarlarining savdosini kengaytirishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, telekommunikatsiyalar, suv va energiya resurslaridan foydalanish, xalqaro turizm, hamkorlikdagi ekologik loyihalarni amalga oshirish borasida integratsiya aloqalarini kuchaytirish lozim.

26.1-jadval

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar to'g'risida ma'lumotlar, 2015-yil[202]

Davlat nomi	Hududi		Aholisi soni		YaIM	
	ming kv. km	jahondagi salmog'i, %	ming kishi	jahondagi salmog'i, %	mlrd. doll	jahondagi salmog'i, %
O'zbekiston	447,4	0,09	31807	0,43	65,7	0,09
Qozog'iston	2724,9	0,53	18360,4	0,25	173,0	0,24
Xitoy	9599	1,88	1382923	18,61	10983,0	15,01
Qirg'iziston	198,5	0,04	6008,6	0,08	6,6	0,01
Rossiya	17125,2	3,36	146838,9	1,98	1326,0	1,81
Tojikiston	143,1	0,03	8593,6	0,12	7,8	0,01
Pokiston	880,3	0,17	196686,6	2,65	932,0	1,27
Hidniston	3287,3	0,64	1305702	17,57	7998,0	10,93
ShHT bo'yicha jami	**34405,7**	**6,75**	**3096920,1**	**41,67**	**21492,1**	**29,37**
Jahon bo'yicha jami	**510072**	**100,00**	**7432663,3**	**100,00**	**73171**	**100,00**

26.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ShHTning tarkibida O'zbekiston ma'lum bir salmoqqa ega. Shu bilan birga ShHTning jahon miqyosidagi iqtisodiy salohiyati va salmog'i ancha yuqoridir. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish talablaridan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan barcha muassasalar (tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bojxonalar xizmati va boshqalar) amalda yangidan tashkil etildi.

[202] Manba: http://ru.wikipedia.org/wiki, www.krugosvet.ru/articles, www.regnum.ru/dossier

Vazirlar Mahkamasidan tortib, boshqaruvning mahalliy darajasi va korxonalargacha bo'lgan xo'jalik subyektlarida tegishli tashqi iqtisodiy bo'limlar tuzildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida savdo uylari ochildi va savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Respublikamiz MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoni amalga oshirishni keng yo'lga qo'ygan bo'lib unda asosiy katta ulushlarni Rossiy va Qozog'iston egallaydi Tashqi savdo bilan birga iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari ham sezilarli darajada rivojlandi. Jumladan, 2014–2015-yillarda yengil sanoat sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi ancha oshdi (26.2-jadval).

26.2-jadval

MDH mamlakatlarining respublika tashqi savdosidagi ulushi[203]

Davlatlar	Eksport		Import	
	2014	2015	2014	2015
Ozarbayjon	21,8	11,4	9,2	9,2
Armaniston	1,5	1,5	4,4	3,2
Belorus	36,1	26,7	40,5	30,3
Qozog'iston	79,5	46,0	41,3	30,6
Qirg'iziston	1,9	1,6	5,7	3,9
Moldova	2,3	2,0	5,3	4,0
Rossiya	501,5	346,1	292,0	184,8
Tojikiston	1,0	0,9	4,3	3,4
Ukraina	54	38,1	54,4	37,5

Yengil sanoat sohasida tashkil etilgan qo'shma korxonalar geografiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bugungi kunda sohani rivojlantirish borasida eng katta xorij sarmoyasiga ega bo'lgan (xorijiy investitsiya mablag'larini kiritgan) davlatlardan biri Koreya Respublikasi hisoblanadi. Mazkur davlatning ulushi 38 foizni tashkil etadi.

[203] Manba: http://ru.wikipedia.org/wiki

Keyingi o'rinlarda esa Turkiya, Xitoy, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar turadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon xo'jaligi rivojining tarixiy jihatdan uzoq davr davom etgan natijasi hisoblansada, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi kunda ham mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonida hal etilmagan ko'pdan-ko'p muammolar mavjudki, bizning Respublikamiz uchun bu tashqi iqtisodiy va valyuta siyosatini yanada erkinlashtirishdan iborat[204].

Dastlabki davrlarda respublikamizda tashqi savdo ikki yo'nalish bo'yicha: MDH mamlakatlari bilan hukumatlararo bitimlar va xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valyutada hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi.

Jahon miqyosida savdo-sotiq ishlarining o'sish sur'ati sezilarli darajada sustlashgani, eksport qilinadigan eng muhim tovarlarga nisbatan tashqi talabning kamayishi va narxlarning pasayishiga qaramasdan, **biz tashqi savdo aylanmasida ijobiy savdoga erishdik. Bu esa davlatimizning oltin valyuta zaxirasini oshirish imkonini berdi.**

Ta'kidlash kerakki, tashqi savdo munosabatlarimiz geografiyasi, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobiga sifat jihatidan o'zgarmoqda. Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh tayyor mahsulot ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday holat eksportimizning xomashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama aloqalari va hamkorligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasidagi yagona iqtisodiy makon to'g'risida tuzilgan shartnoma samara bera boshladi. Ularning sanoatini integratsiyalashtirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi.

---

[204] Karimov I. A. Islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2000-yil 2-fevral.

MDH mamlakatlari bilan bevosita va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Hamdo'stlik davlatlari muassasalari – Davlatlararo iqtisodiy qo'mita, Davlatlararo bank va boshqa muassasalarni tashkil etishda faol qatnashmoqda. MDHdagi mamlakatlar (Rossiya, Ukraina, Belorus, Moldova va boshqalar) bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa shartnoma hamda bitimlar imzolanib, ular kuchga kirdi.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga, hamda zarur bo'lgan tashkilot va muassasalar tuzishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga tavakkalchilik xatarlaridan keladigan zararni qoplaydigan «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasini, turli qo'shma sug'urta kompaniyalarini, Vazirlar Mahkamasi huzurida BMT bilan birgalikda tashkil qilingan investitsiyalarga ko'maklashuvchi xizmatni, Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi ko'chmas mulk va xorijiy investitsiyalar agentligi kabilarni kiritish mumkin. Bu muassasa va tashkilotlar hamda respublikada vujudga keltirilgan huquqiy me'yorlar xorijiy investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratib, ularning huquqlarini himoya qiladi va sarflangan sarmoyasini kafolatlaydi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi **BMTning respublikada amalga oshirayotgan iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarida** ham namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizning **Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorligi, NATOning «Tinchlik yo'lidagi sheriklik» dasturidagi ishtiroki** uning jahon xo'jaligiga qo'shilishining navbatdagi yo'nalishidir. Jumladan, Yevropa Ittifoqi bilan Respublikamiz o'rtasida imzolangan Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim (1996-yil iyun) tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'nalishidir.

O'zbekistonning Xalqaro valyuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo'nalishdir. Bu yo'nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilish-

larni mablag‘ bilan ta’minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari ma’qullandi.

Jahon bank tashkilotlari – Xalqaro ta’mirlash va rivojlanish banki (XTRB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, XRRB yo‘li bilan O‘zbekistonga paxta yetishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning jahon bozoriga chiqishiga ko‘maklashish va unumdorlikni oshirish uchun asos yaratish maqsadida 66 mln. dollar, institutsional islohotlarni davom ettirish uchun 120 mln. dollar mablag‘ ajratildi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O‘zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda **Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB)** alohida rol o‘ynaydi. Respublikada amalga oshirilayotgan umumiy qiymati 536 mln. dollarga teng 9 ta loyihada YTTBning ulushi 253,1 mln. dollarni tashkil qiladi. YTTBning O‘zbekistonda amalga oshirish ko‘zda tutilgan, umumiy summasi bir mlrd.dollardan ortiq bo‘lgan yana 8 ta loyihani ko‘rib chiqishi mo‘ljallangan.

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy va savdo faoliyatida **Osiyo rivojlanishi Banki (ORB) hamda Jahon savdo tashkiloti (JST)** bilan hamkorligi istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi. Shunday qilib, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishida dunyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik hal qiluvchi o‘ringa ega bo‘lib, bu milliy iqtisodiyotning baynalmilallashuvini kuchaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko‘tarishning asosiy tashqi omillari hisoblanadi.

Xulosalar

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya – bu mamlakatlarning chuqur, barqaror o‘zaro iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi, milliy xo‘jaliklar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo‘jalik va siyosiy aloqalarining chatishib ketish jarayonlaridir. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari sifatida erkin savdo hudud-

lari, bojxona ittifoqi, to'lov ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqini ko'rsatish mumkin.

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini obyektiv tavsifdagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichida xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi; xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi; umumjahon fan-texnika revolyutsiyasi; milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi kabilar asosiy o'rinni egallaydi.

3. Turli mamlakatlardagi integratsiyaning turli elementlari bir xilda rivojlanmaydi. Shunga ko'ra, integratsiyaning qat'iy (bir tomonlama nafli) integratsiya, tasodifiy integratsiya, moslashuvchan (ikki tomonlama nafli) integratsiya kabi turlari farqlanadi.

4. Bugungi kunda O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi ko'p darajali tizim sifatida amal qilib, uni quyidagi beshta darajaga ajratish mumkin: global; transkontinental; mintaqalararo; mintaqaviy; mahalliy. Har bir darajadagi integratsion aloqalarning o'ziga xos vazifalari mavjud.

5. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida qurilib, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlarida o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslandi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – jahon mamlakatlari o'zaro iqtisodiy aloqalarini chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishi hamda milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik aloqalarining birlashish jarayoni.

Erkin savdo hududlari – iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning dorasida savdo cheklashlari bekor qilinadi.

Bojxona ittifoqi – yagona tashqi savdo ta'riflari o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishini taqozo qiladi.

To'lov ittifoqi – milliy valyutalarning o'zaro almashinuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

Umumiy bozor – bunda uning qatnashchilari o'zaro erkin savdoni

amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o'tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta'minlanadi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi – iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli bo'lib, bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

Qat'iy (bir tomonlama nafli) integratsiya – integratsiya jarayonlaridan ba'zilari naf ko'ruvchi, boshqa birlari donor mamlakatlar hisoblanadigan integratsiyaning tashqi tavsif holatlari bilan shartlangan turi.

Moslashuvchan (ikki tomonlama nafli) integratsiya – har bir mamlakat bir vaqtning o'zida ham donor, ham naf ko'ruvchi hisoblanadigan integratsiya turi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning qanday shakllari mavjud?
2. Erkin savdo hududlarining mohiyatini tushuntiring. Bunday tuzilmalarning integratsiyalashuv jarayonidagi o'rni qanday?
3. Bojxona ittifoqi va to'lov ittifoqi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Umumiy bozorning amal qilish tamoyillari qanday va bugungi kunda uning faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar talab qilinadi?
5. Integratsiyaning qanday turlarini bilasiz? Har biriga misollar keltiring.
6. Bugungi kunda O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvining qanday darajalari mavjud?
7. Yevropa Ittifoqi, Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika bitimi (NAFTA), Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) to'g'risida ma'lumot bering.
8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi yana qanday nazariyalarni bilasiz? Bu nazariyalarning afzal va kamchilik tomonlarini taqqoslang.
9. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsating.
10. Mamlakatimizning keyingi yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyatiga baho bering.

27-BOB. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

Ushbu bobda milliy iqtisodiyotning dunyo mamlakatlari bilan bog'langan murakkab iqtisodiy munosabatlari tizimida xalqaro savdo munosabatlarining tutgan o'rni, xalqaro savdoning rivojlanishi, omillari va tuzilishi, xalqaro munosabatlarning moliyaviy yoki valyutaga oid tomonlari bayon etiladi. Shuningdek, valyuta munosabatlari va hozirgi zamon valyuta tizimi asoslari, mamlakatning to'lov balansi, uning tarkibi va taqchilligi muammolari o'rganiladi. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, valyuta tizimi, valyuta kursi va valyuta siyosati, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar alohida e'tibor beriladi.

27.1. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdo to'g'risidagi turlicha nazariyalar

Milliy xo'jaliklarning xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida ishtirok yetishi, ularning shakllari va samaradorlik darajasi kabi muammolarning uzoq davr mobaynida turli olimlar tomonidan tadqiq etilishi bu boradagi turlicha nazariyalarning shakllanishiga olib keldi. Bu nazariyalar orasida eng avvalo mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvda ishtirok yetishi zarurligini nazariy jihatdan asoslab beruvchi mutlaq va qiyosiy (nisbiy) ustunlik nazariyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutlaq ustunlik nazariyasi. Iqtisodiy rivojlanishning milliy andozasidan jahon andozasiga o'tish, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi, iqtisodiyotning globallashuvi mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok yetishi milliy manfaatlarga qay darajada javob beradi, degan savolni qo'yadi. Bu savolga javob topishga iqtisodiyot fani ilgaridan qiziqib kelgan. Jumladan, A. Smit xalqaro mehnat taqsimoti masalasini tahlil qilib, qanday tovarlarni eksport qilish va qaysilarini import qilish qulayligi to'g'risidagi o'z

qarashlarini bayon qilish asosida «mutlaq ustunlik» nazariyasini ilgari surgan. Mazkur nazariyaga ko'ra, A. Smit har bir mamlakatning qandaydir mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvida bozorning asosiy rol o'ynashini ko'rsatib bergan. Shu bilan birga, u mamlakatlar quyidagi ikki ko'rinishdagi ustunlikka: 1) tabiiy, ya'ni iqlim sharoitining qulayligi, ba'zi bir tabiiy resurslarning mavjudligi va shu kabi holatlar bilan shartlangan ustunlik; 2) erishilgan, ya'ni mamlakatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish texnologiyasi bilan shartlangan ustunlikka egaligini ta'kidlagan. Bu ustunliklardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot o'z sifati jihatidan yuqori va tannarxi jihatidan past darajada bo'ladi. Shunga ko'ra, mahsulotlarning barcha turlari har bir mamlakat tomonidan ishlab chiqarilishi shart emas, balki ularning ba'zilarini ustunlikka ega bo'lgan mamlakatdan sotib olish samarali hisoblanadi. Uni sotib olish mehnat sarflari esa mazkur mamlakatning o'zi uchun ustun hisoblangan sohadagi mehnat orqali qoplanadi. A. Smit nazariyasi bo'yicha har bir mamlakat o'zida boshqalarga qaraganda arzonga tushgan, ya'ni kam mehnat sarflangan tovarni eksport qilib, ularga nisbatan ko'p sarf talab qiladigan tovarlarni import qilish foydalidir.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi. D. Rikardo o'zaro foydali savdo va xalqaro ixtisoslashuvning ancha umumiy tamoyillarini shakllantirib, A. Smitning qarashlarini takomillashtirgan holda «qiyosiy ustunlik» nazariyasini ishlab chiqdi. U mazkur nazariya yordamida, hatto barcha mahsulotlarni ishlab chiqarishda ayrim mamlakatning mutlaq ustunligi mavjudligida ham o'zaro foydali savdoning nafaqat mumkinligini, balki zarurligini isbotlab berdi. Bu mamlakat nisbatan past samarali mahsulotni ishlab chiqarishdan voz kechib, nisbatan yuqori samarali mahsulotni ishlab chiqarishga o'tish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin. Mazkur nazariyaga ko'ra, mamlakatlar nisbatan past xarajatli mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv orqali qo'shimcha ustunlikka ega bo'lishi va mahsulot umumiy hajmini oshirishlari mumkin. Bunda har bir mamlakatning qandaydir tovar ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq ustunlikka ega bo'lishi, ya'ni uning ishlab chiqarish xarajatlari xorijda yaratilayotgan shunday tovarlarning xarajatlaridan past bo'lishi shart emas. D. Rikardoning

fikricha, mamlakat o'zida qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishi va chetga sotishi yetarli hisoblanadi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi quyidagi bir qator shartli farazlarga asoslanadi: 1) unda ikkita mamlakat va ikkita tovar o'zaro taqqoslanadi; 2) ishlab chiqarish xarajatlari ish haqi ko'rinishida olinadi; 3) mamlakatlar o'rtasidagi ish haqi darajasidagi farqlar e'tiborga olinmaydi; 4) transport xarajatlari e'tiborga olinmaydi; 5) erkin savdo mavjud deb faraz qilinadi.

Xalqaro savdoda qiyosiy ustunlik tamoyillarining amal qilishini yaqqol tasavvur qilish uchun quyidagi shartli misolni ko'rib chiqamiz (27.1-jadval).

27.1-jadval

Turli mamlakatlarda don va vino ishlab chiqarish xarajatlari

Mamlakat	50 kg don ishlab chiqarish xarajatlari, kishi-kun	100 l vino ishlab chiqarish xarajatlari, kishi-kun
Buyuk Britaniya	100	120
Portugaliya	90	80

Jadvaldan ko'rinadiki, agar mutlaq xarajatlar e'tiborga olinsa, ular har ikkala mahsulot bo'yicha ham Portugaliyada past bo'lib, uning Buyuk Britaniya bilan savdo aloqalarini o'rnatish uchun hech qanday ehtiyoj yo'q. Biroq, qiyosiy xarajatlar ushbu fikr-mulohazalarni o'zgartirib yuboradi. Buning uchun har ikkala mahsulot bo'yicha mamlakatlarning qiyosiy xarajatlarini hisoblab chiqamiz:

1. Don bo'yicha qiyosiy xarajatlar:

a) Buyuk Britaniyada $\frac{100}{50}:\frac{120}{100}=\frac{5}{3}=1{,}6$.

b) Portugaliyada $\frac{90}{50}:\frac{80}{100}=\frac{9}{4}=2{,}25$.

2. Vino bo'yicha qiyosiy xarajatlar:

a) Buyuk Britaniyada $\frac{120}{100}:\frac{100}{50}=\frac{3}{5}=0{,}6$.

b) Portugaliyada $\frac{80}{100}:\frac{90}{50}=\frac{4}{9}=0{,}4$.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, don bo'yicha qiyosiy xarajatlar koeffitsienti Portugaliyaga (2,25) nisbatan Buyuk Britaniyada (1,6) pastligi sababli donni Buyuk Britaniya ishlab chiqarishi va eksport qilishi lozim. Vino bo'yicha qiyosiy xarajatlar koeffitsienti Buyuk Britaniyaga (0,6) nisbatan Portugaliyada (0,4) pastligi sababli, vinoni Portugaliyada ishlab chiqarish va eksport qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday tartibdagi xalqaro savdoda ishtirok etish har ikkala mamlakat uchun ham manfaatli hisoblanadi.

Iqtisodiyot nazariyasida xalqaro ixtisoslashuvning ustunliklarini asoslash Rikardoning klassik sxemasi bilan cheklanmagan. XX asrda xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlari E. Xeksher, B. Olin, P. Samuelson, J. Keyns, V. Leontev, G. Xaberler va boshqa ko'plab iqtisodchilar tomonidan tadqiq qilindi. Jumladan, iqtisodiy adabiyotlarda **Xeksher-Olin-Samuelson modeli** deb yuritiluvchi model alohida ahamiyat kasb etadi. Bu model asoschilari E. Xeksher va B. Olin xalqaro tovar oqimlarining yo'nalish va tarkibiy tuzilishi qay tarzda belgilanishi to'g'risidagi zamonaviy tasavvurlarni ishlab chiqdilar. P. Samuelson esa mazkur fikrlarni amaliy jihatdan ifodalovchi matematik shartlarni ochib berdi. Mazkur model asosida **ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi** yotadi. Ma'lumki, turli mamlakatlar ishlab chiqarish omillari – ishchi kuchi, yer va kapital bilan turli darajada ta'minlanganlar. Agar mamlakat faqat qandaydir bitta omil bilan yetarli darajada ta'minlangan bo'lsa, bu mamlakatda shunday omil sig'imi katta bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish arzonga tushadi. Bu mamlakat uchun ularni ishlab chiqarish va eksport qilish nisbatan foydali hisoblanadi.

Xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish qiyosiy xarajatlar tahlili asosida ko'p omilli andoza tuzishga

olib keldiki, unda tovarlar harakati bilan birga ishlab chiqarish omillarining davlatlararo erkin harakati imkoniyatlari hisobga olindi. O'tkazilgan tadqiqotlarda nafaqat tarmoqlararo, balki tarmoqlar ichida va mintaqa o'rtasidagi ixtisoslashuvning qonuniyatlari, mamlakatning material, kapital, mehnat va fan sig'imli tovarlarga ixtisoslashuv sabablari ochib berildi. Ixtisoslashuvga fan va texnika taraqqiyoti hamda texnologik o'zgarishlar sur'ati va tavsifi ta'sirining xususiyatlari aniqlandi.

1954-yili amerikalik iqtisodchi V.Leontevning maqolasi e'lon qilinib, unda o'sha davrda kapital ortiqchaligiga ega bo'lgan mamlakat hisoblanuvchi AQSH eksporti va importida mehnat va kapital to'liq sarfining hisob-kitobi asosida Xeksher-Olin nazariyasini tekshirishga urinib ko'rilgan. Bunda AQSH kapital sig'imi yuqori bo'lgan tovarlarni eksport qilib, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tovarlarni esa import qilishi taxmin qilinar edi. Natija teskari bo'lib chiqib, **Leontev paradoksi** degan nom oldi. Ma'lum bo'ldiki, AQSHdagi kapitalning nisbiy ortiqchaligi Amerika tashqi savdosiga ta'sir ko'rsatmaydi. AQSH ko'proq mehnat sig'imi yuqori, kapital sig'imi esa past bo'lgan tovarlarni eksport qilar ekan. V.Leontev Amerikadagi mehnatning yuqori unumdorligi amerikalik ishchilarning nisbatan yuqori malakasi bilan bog'liqligini ta'kidlab, bu yerdagi mehnatning xorijdagi mehnat bilan nisbati 1:3 ekvivalentlikda ekanligini ko'rsatdi. Bu esa ishchi kuchi malakasi modelining paydo bo'lishiga olib keldi.

Ishchi kuchi malakasi modeliga ko'ra, ishlab chiqarishda uchta emas, balki to'rtta: malakali ishchi kuchi, malakasiz ishchi kuchi, kapital va yer ishtirok etadi. Kasbiy mahoratga ega bo'lgan xodimlar va yuqori malakali ishchi kuchining nisbatan ko'pligi malakali mehnatning katta miqdorini taqozo etuvchi tovarlarning eksport qilinishiga olib keladi. Malakasiz ishchi kuchining ko'pligi esa ishlab chiqarishda yuqori malaka talab etilmaydigan tovarlarning eksportiga imkon yaratadi.

Hozirgi zamon iqtisodiy fani Xeksher-Olin nazariyasining faqat yutuqli jihatlarini emas, balki cheklangan tomonlarini ham ochib beradi. Jumladan, quyidagi jarayonlar bu nazariyaga muvofiq kelmaydi:

– yuqori rivojlangan mamlakatlarning sanoati va savdosidagi tarkibiy siljishlarning yaqinlashuvi;

– daromadlarning bir xilda yuqori darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoning ahamiyatli va muntazam o'sib boruvchi solishtirma salmog'i;

– jahon savdosida o'xshash sanoat tovarlarini bir-biriga yetkazib berishning yuqori va o'sib boruvchi solishtirma salmog'i.

Sanab o'tilgan holatlar iqtisodiy fan oldiga Xeksher-Olin nazariyasini kengaytirish yoki asosiy qoidalarini yangilash yo'llarini qidirish vazifasini qo'yadi. Bu bir tomondan, nazariyaning kengayishiga, ishlab chiqarish omillarining yangicha talqin etilishiga, ikkinchi tomondan esa, uning to'liq inkor etilishiga hamda XMT samaradorligi muammosiga mutlaq yangi yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti neoklassik nazariyalari o'rtasida amerikalik iqtisodchi **G. Xaberlerning muqobil xarajatlar modeli** yetakchi o'rin tutadi. U har bir mamlakat uchun barcha resurs va eng yaxshi texnologiyalardan foydalangan holda ikki turdagi tovarni qanday nisbatda ishlab chiqara olishi mumkinligini ko'rsatuvchi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idan foydalanishni taklif etadi. Bu qarashlarga ko'ra, har bir mamlakat boshqa mamlakatlarga taqqoslaganda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan tarmoqlardagi mahsulotlarni eksport qiladi. Keyinchalik ilg'or texnologiya muqarrar ravishda dunyo bo'ylab tarqalib, texnologiyadagi farqlar yo'qoladi, eksport pasayib, jahon savdosi tarkibiy tuzilishida keyingi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

R. Vernonning tovarning hayotiy sikli nazariyasida mamlakatning jahon savdosidagi muvaffaqiyati ichki bozorga bog'liqligi ta'kidlanadi. Vernon nazariyasiga ko'ra mahsulotlarning ba'zi bir turlari to'rt bosqichdan iborat sikldan o'tadi (joriy etish, o'sish, yetuklik, pasayish), ularni ishlab chiqarish esa xalqaro miqyosda siklning bosqichidan kelib chiqqan holda siljiydi. R. Vernon AQSHning yangi va istiqbolli tovarlarning ahamiyatli miqdorini ishlab chiqarishda yetakchilik qilishi sabablarini ochib berishga harakat qildi. U milliy bozorda xorijiy bozorga nisbatan ertaroq paydo bo'lgan tovarlarga talab AQSHning texnologik ustunligiga olib kelishini ta'kidladi. Amerika firmalari ishlab chiqarishning rivojlanishi bosqichida bu yangiliklarni eksport qiladi, ularga bo'lgan talabning o'sishi bilan esa xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarishni tashkil etadi. Yangi texnologiyaning tar-

qalishi bilan xorijiy korxonalar ham yangi tovarlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirib, ularni AQSHga olib kela boshlaydilar. «Tovar sikli» tushunchasi milliy va tashqi bozorlarning o'zaro bog'liqligini izohlovchi nazariyaning asosiga aylandi. Xalqaro mehnat taqsimoti va jahon savdosi tarkibiy tuzilishining samaradorligi mustaqillik, o'zaro bog'liqlik va bog'liqlik konsepsiyalarini tushuntirishga yordam beradi.

Yuqori iqtisodiy mustaqillik ba'zi bir tovar, xizmat va texnologiyalarning mavjud bo'lmasligini bildiradi, shunga ko'ra hozirda hech bir mamlakat to'liq mustaqillikka intilmaydi. Biroq, ko'plab mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga kirish hamda tashqi savdo tarkibini shakllantirishda talab va taklif ustidan xorijiy nazoratning o'rnatilishi xavfini past darajada bo'lishiga harakat qiladilar.

Xorijdagi o'zgarishlardan himoyalanganlikning o'sishini o'zaro ehtiyoj asosidagi savdo aloqalarini rivojlantirish orqali ta'minlash mumkin. Mamlakatlar (masalan, Fransiya va Germaniya)ning savdo sheriklari sifatidagi o'zaro bog'liqligi holatida ulardan birining tovarlarni yetkazib berish yoki bozor hajmini qisqartirishi ehtimoldan uzoq, chunki boshqa tomon ham bunga darhol javob qaytaradi. O'ta yuqori darajadagi bog'liqlik mamlakatning boshqa mamlakatlarda ro'y beruvchi o'zgarishlarga bog'liqligini keltirib chiqaradi.

Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi barcha nazariyalarning hayotiy layoqatliligini va ularni doimiy ravishda modifikatsiyalab, yangi qirralarni qo'shib turish zarurligini tasdiqlaydi. Xalqaro aloqalarning jahon amaliyotida esa bu nazariyalardan keng foydalanilmoqda.

27.2. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari

Hozirgi jahon rivojining xususiyatli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo, tashqi savdoning tez o'sishi hisoblanadi. Tashqi savdo xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish, ilmiy-texnika va boshqa shakllari (kadrlarni tayyorlash, turizm va h.k.) bilan bir qatordagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim shakli hisoblanadi. Barcha mamlakatlar tashqi savdosi majmui xalqaro savdoni tashkil etadi.

Xalqaro savdo – bu turli mamlakat xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarni ayirboshlash jarayonida sodir bo'ladigan munosa-

batlar majmuidir. Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo'lsada, faqat XIX asrga kelib, ya'ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi.

Xalqaro savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import, savdo balansi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Eksport – mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni mamlakatdan tashqariga chiqarilib chet ellik mijozlarga sotishdir. Eksportning iqtisodiy samaradorligi, foydaliligi shu bilan aniqlanadiki, mazkur mamlakatda ishlab chiqarish xarajatlari tovarni import qiluvchi mamlakatlar xarajatlaridan past bo'lgan mahsulotlarni chetga chiqaradi. Bunda eksportda olinadigan yutuq hajmi mazkur tovar milliy va jahon narxlarining nisbatiga, mazkur tovarning xalqaro aylanmasida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mehnat unumdorligiga bog'liq.

Xalqaro savdoda **tovarlarning eksport tarkibi** fan-texnika revolyutsiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayirboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xomashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi (masalan, chet el kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik va boshqa xizmatlar ko'rsatish va h.k.).

Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aksiyalariga maqsadli sarmoyalar sarflash kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlarini ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

Ko'plab mamlakatlar, cheklangan resurs bazasiga va tor ichki bozorga ega bo'lib, o'zlarining ichki iste'moli uchun zarur bo'lgan barcha tovarlarni yetarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo'lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun import kerakli tovarlarni olishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Import eksportdan farq qilib chet ellik ishlab chiqaruvchilardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi. Bunda mamlakat ichida ishlab chiqarish xarajatlari tashqaridan sotib olingan chog'dagi xarajatlardan yuqori bo'lgan tovarlar import qilinadi. Tashqi savdo samaradorligini hisoblashda mazkur mamlakat tomonidan import qilish hisobiga muayyan tovarlarga bo'lgan o'z ehtiyojining tezlik bilan qondirilishi hamda bunday tovarlarni mamlakat ichida ishlab chiqarilgan chog'da sarflanishi lozim bo'lgan resurslarning tejalishi natijasida olinuvchi iqtisodiy naf e'tiborga olinadi.

Quyidagi jadvalda keyingi yillarda mamlakatimizdagi eksport va importning tovar tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan (27.2-jadval).

27.2-jadval

O'zbekistonda eksport va importning tovar tarkibi, foizda[205]

Tovarlar guruhi	Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foizda							
	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2014	2015
Eksport	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
Paxta tolasi	12,5	9,2	8,6	11,3	14,8	14,6	7,7	6,1
Oziq-ovqat	8,5	4,4	6,0	9,7	2,5	2,6	12,4	10,8
Kimyo mahsulotlari	6,8	5,6	5,0	5,1	7,3	8,3	4,7	5,1
Energetika mahsulotlari	20,2	25,2	34,2	24,8	5,4	13,5	23,0	22,1
Qora va rangli metallar	11,5	7,0	5,0	6,8	12,1	14,5	7,2	6,8

[205] Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Mashina va uskunalar	10,4	7,5	2,9	5,5	0,2	0,4	4,0	1,3
Xizmatlar	10,7	10,4	8,8	9,1	13,7	23,0	22,4	25,2
Boshqalar	19,4	30,7	29,5	27,7	43,7	22,2	18,6	22,6
Import	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
Oziq-ovqat	7,9	8,1	9,0	10,9	8,2	7,2	10,8	12,8
Kimyo mahsulotlari	14,8	13,0	11,1	14,3	15,9	17,7	15,9	17,0
Energetika mahsulotlari	3,3	2,1	3,5	6,0	0,4	0,3	6,2	5,8
Qora va rangli metallar	8,3	6,8	6,3	8,4	3,1	3,2	8,0	7,4
Mashina va uskunalar	46,6	53,3	56,5	44,1	60,7	58,4	39,5	40,5
Xizmatlar	7,4	5,7	4,4	4,7	5,5	7,0	8,0	7,7
Boshqalar	11,7	11,0	9,2	11,6	6,2	6,2	11,6	8,88

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtirokini ifodalovchi bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud. Masalan, tarmoq ishlab chiqarishining xalqaro ixtisoslashuvi darajasi ko'rsatkichlari sifatida **taqqoslama eksport ixtisoslashuvi koeffitsienti (TEIK)** hamda **tarmoq ishlab chiqarishidagi eksport bo'yicha kvotadan** foydalanish mumkin. TEIK quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Kt=Et/Ej,$$

bu yerda: Et – mamlakat eksportida tovar (tarmoq tovarlari yig'indisi)ning solishtirma salmog'i;

Ej – jahon eksportidagi shu turdagi tovarlarning solishtirma salmog'i.

Agar nisbat birdan katta bo'lsa, bu tarmoq yoki tovarni xalqaro jihatdan ixtisoslashgan tarmoq yoki tovarlarga kiritish mumkin va aksincha.

Eksport bo'yicha kvota milliy sanoatning tashqi bozor uchun ochiqlik darajasini ifodalaydi:

$$Ke=E/YaIM,$$

bu yerda: E – eksport qiymati.

Eksport bo'yicha kvotaning ko'payishi ham mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining, ham mahsulot raqobatbardoshligining o'sib borishidan darak beradi.

Mamlakatdagi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi eksport hajmi uning iqtisodiyotining «ochiqligi» darajasini ifodalaydi. **Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari) – mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z iqtisodiyoti manfaatlariga putur yetkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo'lgan qismi.**

Tovarlar eksporti va importi summasi tashqi savdo aylanmasi yoki tashqi tovar aylanmasini tashkil etadi. **Biror bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilgan taqdirda reeksport ro'y beradi.** Reeksport bilan reimport uzviy bog'liq. **Reimport iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.**

O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (27.3-jadval).

Eng muhimi, yeksport hajmining ana shunday o'sishi biz uchun an'anaviy resurslar bo'lmish paxta tolasi, qimmatbaho metallar va turli xomashyo yetkazib berish hisobiga emas, balki asosan avtomobillar, neft-kimyo va metall mahsulotlari, mineral o'g'itlar, ip-kalava va gazlama, trikotaj buyumlar, sim-kabel mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqa shu kabi ko'plab eksport tovarlari hajmi va turlarini ko'paytirish evaziga ta'minlanmoqda.

«Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarimizning natijasidir»[206].

[206] Karimov I. A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 18-b

27.3-jadval

O‘zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi, foizda[207]

Ko‘rsatkichlar		Yillar								
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2014	2015
Tashqi savdo aylanmasi	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
Eksport	56,9	59,2	63,2	60,7	55,5	59,7	55,3	47,0	49,2	49,4
Import	43,1	40,8	36,8	39,3	44,5	40,3	44,7	53,0	50,8	50,6
Eksport – jami	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:										
Tovarlar	87,8	87,9	89,3	89,6	91,2	90,9	86,3	77,0	77,6	74,8
Xizmatlar	12,2	12,1	10,7	10,4	8,8	9,1	13,7	23,0	22,4	25,2
Import – jami:	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:										
Tovarlar	89,6	90,9	92,6	89,0	90,8	88,4	93,8	93,8	92,0	92,3
Xizmatlar	10,4	9,1	7,4	11,0	9,2	11,6	6,2	6,2	8,0	7,7

Eksport va importning harakatida ham multiplikatsiya samarasi mavjud bo‘lib, bu omilni hisobga olish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada taniqli iqtisodchi olimlardan J. Keyns, R. Kan, F. Maxlup, P. Samuelson va boshqalar tashqi savdo multiplikatori to‘g‘risidagi nazariy asoslarni yaratishda katta hissa qo‘shdilar.

Eksport multiplikatori ham investitsiyalar multiplikatori singari iste’mol sohasidagi ichki jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, iste’mol yoki jamg‘armaga so‘nggi qo‘shilgan moyillik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi:

$$M_x = \frac{1}{MRS} = \frac{1}{1\text{-}MRC},$$

bu yerda Mx – eksport multiplikatori koeffitsienti;

MRS – jamg‘armaga so‘nggi qo‘shilgan moyillik;

[207] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

MRC – iste'molga so'nggi qo'shilgan moyillik.

Eksport hajmi oshishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$YaIM=Mr\ \Delta X,$$

bu yerda Mr – multiplikator;

ΔX – eksport hajmining o'sishi.

Biroq, xalqaro savdo faqat eksportdan iborat bo'lmay, balki o'z ichiga importni ham oladi. Agar eksportdan olingan daromadning bir qismi importga sarflansa, u holda mamlakatning ichki xarid qobiliyati pasayadi. Import jamg'arma singari boy berilgan imkoniyat sifatida amal qiladi, shuning uchun u matematik ifodalarda manfiy ishora bilan qo'llaniladi. Importni jamg'arish funksiyasiga o'xshagan holda tahlil qilish mumkin. Buning uchun importga so'nggi qo'shilgan moyillik tushunchasini kiritib olamiz. Bu moyillik import hajmi o'zgarishining daromad o'zgarishiga nisbati orqali ifodalanishi mumkin. Natijada **import multiplikatori** formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$M_r=\frac{1}{(MRS+MRM)\Delta X},$$

bu yerda MRM – importga so'nggi qo'shilgan moyillik.

Importni hisobga olgan holda eksport hajmi o'zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Delta YAIM=\frac{1}{(MRS+MRM)\Delta X}.$$

Tashqi savdo multiplikatori cheksiz harakatda bo'lmaydi. Import tovarlarni iste'mol qilishga so'nggi qo'shilgan moyillikning qiymati birdan kam bo'lganligi sababli navbatdagi qo'shimcha o'sishlar miqdori muntazam qisqarib, multiplikatsiya jarayoni sekin-asta so'nib boradi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan, ishchilar mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlardan

tashqari yana immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan tavsifi va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

Xalqaro savdoning tarkibiy tuzilishi ishlab chiqarish asosiy omillarining turli mamlakatlar o'rtasida joylashuvi hamda jahon ishlab chiqarishi tuzilmasiga bog'liq. Agar bundan bir asr muqaddam xalqaro savdoda ustun ravishda xomashyo, materiallar, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari ayirboshlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib sanoat tovarlari, ayniqsa mashina va asbob-uskunalarning salmog'i sezilarli darajada o'sdi. Intellektual tovarlar va xizmatlarning ulushi ham keskin ravishda oshib, umumiy savdo aylanmasining 10 foiziga qadar yetdi. Shuningdek, xalqaro savdoni tashkil etish shakllari ham takomillashib bormoqda. An'anaviy ko'rinishdagi tovar birjalari, auksionlar, savdo-sanoat yarmarkalari, savdo ko'rgazmalari bilan bir qatorda ikki tomonlama bitimlarning quyidagi shakllari ham keng qo'llanmoqda:

1) barter – tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz bir-biriga ayirboshlash. Barterda pul ishtirok etmasada, tovarlarning qiymatini bir-biriga taqqoslash uchun pulning qiymat o'lchovi vazifasi orqali baholab olinadi;

2) eksport qiluvchilar tomonidan yetkazib berilgan tovarlar qiymatining bir qismiga import tovarlarni xarid qilish;

3) texnikaning yangi modellarini sotishda eskirgan modellarni sotib olish;

4) import qilingan asbob-uskunalar qism va detallarini importga sotuvchi mamlakat tomonidan butlab berish;

5) kompensatsion bitimlar. Mazkur bitimlar shartiga ko'ra,

texnologik asbob-uskunalar yetkazib beruvchi tomonlarning biri taqdim etgan kredit (moliyaviy, tovar ko'rinishidagi) bo'yicha to'lovlar ana shu asbob-uskunalarda tayyorlangan tayyor mahsulotlarni yetkazib berish orqali amalga oshiriladi;

6) bir mamlakatda undirilgan xomashyoni boshqa bir mamlakat ishlab chiqarish quvvatlari yordamida qayta ishlashda ushbu qayta ishlash va tashib berish xizmatlarini qo'shimcha xomashyo yetkazib berish orqali to'lash;

7) kliring operatsiyalari, ya'ni o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olish orqali naqd pulsiz hisoblashuv.

Ikki tomonlama savdo tamoyilida amalga oshiriluvchi xalqaro operatsiyalar barcha hajmida barter bitimlari 4 foiz, ikki tomonlama xarid – 55 foiz, kompensatsion bitimlar – 9 foiz, kliring operatsiyalari 8 foizni tashkil etadi.

Xalqaro savdoda ishtirok etish har bir mamlakat uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish vazifasini dolzarb qilib qo'yadi. Bu vazifa mamlakatlarning savdo siyosati orqali amalga oshadi. Jahon amaliyotida bu siyosatning **proteksionizm (tashqi ta'sirdan himoyalash)** va **fritrederlik (savdoga to'liq erkinlik berish)** kabi shakllari keng tarqalgan.

Proteksionizmning klassik va zamonaviy ko'rinishlari farqlanadi. **Klassik yoki qattiq proteksionizm** siyosatining nazariy asosini merkantilizm tashkil etib, uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

– tovarlar importini cheklash;

– eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

– chetdan keluvchi tovarlarga yuqori boj to'lovlari o'rnatish orqali milliy ishlab chiqarishni himoyalash;

– tovarlarning ma'lum turlari bilan savdo qilishga davlat monopoliyasining o'rnatilishi va h.k.

Zamonaviy proteksionizmning ham asosiy maqsadi ichki bozorda milliy ishlab chiqaruvchilar uchun nisbatan qulay sharoitlar yaratish hamda ularni xorijiy ishlab chiqaruvchilar raqobatidan himoyalash hisoblanadi, biroq uning usul va vositalari o'zining moslashuvchanligi bilan klassik proteksionizmdan farq qiladi.

Qiyosiy xarajatlar nazariyasiga ko'ra erkin savdo tufayli, jahon

xo'jaligi resurslarni samarali joylashtirishga va moddiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishi mumkin. Proteksionizm, ya'ni erkin savdo yo'lidagi to'siqlar xalqaro ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo'qqa chiqaradi.

Erkin savdo yo'lida juda ko'p to'siqlar mavjud bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

1) boj to'lovlari. Boj to'lovlari import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin;

2) import kvotalari. Import kvotalari yordamida ma'lum bir vaqt oralig'ida import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi;

3) tarifsiz to'siqlar. Tarifsiz to'siqlar tarkibiga litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo'yish yoki oddiy ma'muriy taqiqlashlar kiradi;

4) eksportni ixtiyoriy cheklash. Eksportni ixtiyoriy cheklash savdo to'siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o'zlarining ma'lum mamlakatga eksportini ixtiyoriy ravishda cheklaydi.

Mamlakatlar xalqaro savdo yordamida o'zlarining davlatlararo ixtisoslashuvini rivojlantirishi, o'zlarining resurslari unumdorligini oshirishi va shu orqali ishlab chiqarishning umumiy hajmini ko'paytirishi mumkin. Alohida davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o'zlari samarali ishlab chiqarish holatida bo'lmagan tovarlarga ayirboshlash hisobiga yutish mumkin.

Shu o'rinda mamlakatlar nima uchun savdo-sotiq qiladi, degan savol tug'iladi. Birinchidan, iqtisodiy resurslar dunyo mamlakatlari o'rtasida juda notekis taqsimlanadi: mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishi keskin farqlanadi. Ikkinchidan, har xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg'unlashuvini talab qiladi. Bu ikki holatning xalqaro savdoga ta'sirini oson tushuntirish mumkin. Masalan, Yaponiya ko'p va yaxshi tayyorlangan ishchi kuchiga ega, malakali mehnat ortiqcha bo'lganligi sababli arzon turadi. Shu sababli, Yaponiya tayyorlash

uchun ko‘p miqdorda malakali mehnat talab qilinadigan turli-tuman mehnat sig‘imli tovarlarni samarali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Avstraliya esa aksincha, juda keng maydonlariga ega bo‘lgan holda yetarli bo‘lmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga ega.

Qisqacha aytganda, himoya qilinadigan tarmoqlar savdo to‘siqlarini kiritishdan oladigan foyda butun iqtisodiyot uchun ancha katta yo‘qotish hisoblanadi.

Erkin savdo (fritrederlik) siyosati proteksionizm siyosatining aksi bo‘lib, tashqi savdoni erkinlashtirishga qaratilgan. Bu siyosat xalqaro savdo hajmlarini o‘sishiga olib keluvchi turli tarif va kvotalarni qisqartirish, milliy iqtisodiyotning ochiqligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro savdoni tartibga solish xalqaro va milliy darajalarda amalga oshadi.

Milliy darajadagi tartibga solish eksport va importni tartiblash orqali namoyon bo‘ladi. Eksportni tartiblash tashkiliy va kredit-moliyaviy usullar yordamida uni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan. **Eksportni rag‘batlantirishning tashkiliy usullariga** quyidagilarni kiritish mumkin:

– eksport qiluvchilarga axborot va maslahat berish xizmatlarini ko‘rsatish uchun maxsus bo‘linmalarni tashkil etish;

– savdo bitimlarini tuzishda davlat idoralarining ishtirok yetishi;

– tashqi savdo uchun malakali kadrlarni tayyorlashga ko‘maklashuv;

– xorijiy mamlakatlarda ko‘rgazmalar tashkil etishda yordam ko‘rsatish;

– milliy kompaniyalarni diplomatik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va h.k.

Eksportni rag‘batlantirishning kredit-moliyaviy usullari quyidagilardan iborat:

– eksportga tovarlar yetkazib berishni subsidiyalash;

– eksport qiluvchilar uchun davlat kreditlarini berish va xususiy kreditlar berilishini rag‘batlantirish;

– xorijda amalga oshiriluvchi savdo bitimlarini davlat tomonidan sug‘urtalash;

– eksportdan olinuvchi foydadan soliq to‘lashdan ozod etish va h.k.

Mamlakatimizda ishlab chiqaruvi korxonalarning eksport salohiyatini yanada oshirishni rag'batlantirish ko'lami yanada oshirildi. Shu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil-26-martdagi "Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1731-sonli Qarori qabul qilinib, unga muvofiq mikrofirma va kichik korxonalarga sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlar-ning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatsiyadan o'tkazish, shuningdek, laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish komplekslarini xarid qilishga yo'naltiriladigan mablag'lar uchun yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish huquqi berildi.

Importni tartibga solish, asosan, uni tarifli va tarifsiz vositalar orqali cheklashdan iborat. Asosiy tarifli to'siq sifatida bojxona bojlarini keltirish mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning strategik yo'nalishi sifatida O'zbekistonning xorijiy sheriklar bilan 2017-yildagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlanishi va kengayishini ta'minlashga doir «Yo'l xaritasi» loyihasini ishlab chiqib, unda quyidagilarni nazarda tutilmoqda:[208]

- O'zbekiston korxonalarining mahsulotlari va xizmatlarini tashqi bozorga eksport qilishni kuchaytirib borish;
- O'zbekistonga investitsiyalarni, ilg'or texnologiyalarni, sayyohlar oqimini, shuningdek, grantlar, imtiyozli kreditlar va texnik ko'maklarni jalb etish;
- Respublikaning transport-tranzit imkoniyatlarini oshirish, tashqi savdo yuk tashish ishlari uchun qulay sharoitlarni shakllantirish;
- ta'lim, fan va texnika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish.

---

[208] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. 8-ilova, 313-qator.

27.3. To‘lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi

To‘lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma’lum vaqt (odatda bir yil) oralig‘ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya’ni tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o‘tishi bo‘yicha kelishuvlardan iborat. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo‘ladi va shu sababli to‘lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibiga rioya qilinadi. Har bir bitim to‘lov balansining debet va kredit qismlarida o‘z ifodasini topadi.

Kredit – qiymatning mamlakatdan chiqib ketishi bo‘lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valyutalarida qoplovchi to‘lovlar ekvivalentini oladi. Debet – qiymatning mazkur mamlakatga kirib kelishi bo‘lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valyutalarning sarflaydi. To‘lov balansida kreditlar umumiy summasi debetlarning umumiy summasiga teng bo‘lishi zarur.

To‘lov balansidagi barcha bitimlar o‘z ichiga joriy va kapital bilan operatsiyalarni olishi sababli, u uchta tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi (27.4-jadval):

1) joriy operatsiyalar hisobi;
2) kapital harakati hisobi;
3) rasmiy zaxiralarning o‘zgarishi.

Mamlakatning **tashqi savdo balansi (to‘lov balansi)** mazkur davlatning chet ellik sheriklari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning holatini ifodalab, uning kredit-pul, valyuta, byudjet-soliq, tashqi savdo siyosatini amalga oshirish va davlat qarzlarini tartibga solishi uchun indikator bo‘lib xizmat qiladi.

Joriy operatsiyalar hisobi tovar va xizmatlar eksporti («+» belgisi bilan), import («–» belgisi bilan), investitsiyalardan sof daromad va sof transfertlarni o‘z ichiga oladi. **Tovarlar eksporti va importi o‘rtasidagi muvozanat (tenglik) savdo balansini tashkil qiladi.**

27.4-jadval

To‘lov balansining tuzilishi

I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashqi savdo balansi qoldig‘i	
Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va h.k. – kreditli xizmatlar)	Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to‘lovlar va h.k. – kreditli xizmatlar)
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transfertlar	
Joriy operatsiyalar bo‘yicha balans qoldig‘i	
II. Kapital harakati hisobi	
7. Kapital kirishi	8. Kapital oqib chiqishi
Kapital harakati balansi qoldig‘i	
Joriy operatsiyalar va kapital harakati balansi qoldig‘i	
III. Rasmiy zaxiralarning o‘zgarishi	

Tovar eksporti kredit sifatida chiqib, milliy bankda chet el valyutalari zaxiralarini vujudga keltiradi. Import esa («debet» grafasida «–» belgisi bilan) mamlakatdagi chet el valyutalari zaxirasini qisqartiradi.

Investitsiyalardan sof daromadlar (chet eldan sof omilli daromadlar) kreditli xizmatlardan olinadigan sof daromad hisoblanib, u chet ellarga qo‘yilgan milliy pul kapitali hisobiga keladi. Agar chet elga qo‘yilgan milliy kapital mazkur mamlakatga qo‘yilgan chet el kapitaliga qaraganda ko‘proq miqdorda foiz va dividend keltirsa, bunda investitsiyalardan olinadigan sof daromad ijobiy, aks holda esa salbiy bo‘ladi.

Sof transfertlar xususiy va davlat mablag‘larining boshqa mamlakatlarga o‘tkazilgan summasini bildiradi (pensiya, sovg‘a, chet elga pul o‘tkazishlar yoki chet mamlakatlarga insonparvarlik yordamlari). Bunday to‘lovlar mamlakatda mavjud chet el valyutalari zaxirasini kamaytiradi.

Makroiqtisodiy modelda joriy operatsiyalar hisobi qoldig‘i quyidagicha ifodalanadi:

$$\underset{\text{eksport}}{X} - \underset{\text{import}}{M} = \underset{\text{sof eksport}}{X_n} = \underset{\text{YAIM}}{Y} - \underset{\text{absorbsiya}}{(S+I+G)}$$

Absorbsiya – yalpi ichki mahsulotning mazkur mamlakatdagi uy xo'jaliklari, korxonalar va davlatga realizatsiya qilinadigan qismi.

Importga to'lovlar eksportdan olingan daromaddan ortiqcha bo'lsa, bu mamlakatning joriy operatsiyalar bo'yicha balansi taqchilligini bildiradi. Bu taqchillik chet el qarzlari yordamida, yoki aktivlarning bir qismini chet elliklarga sotish yo'li bilan moliyalashtiriladi va bu kapital harakati hisobida aks etadi.

Eksportdan olinadigan daromad importga sarflardan ortiq bo'lsa joriy operatsiyalar hisobi ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

Kapital harakati hisobida aktivlar bilan amalga oshiriladigan barcha xalqaro bitimlar o'z ifodasini topadi. Bular chet elliklarga aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk va h.k. sotishdan olinadigan daromadlar hamda chet eldan aktivlar sotib olish natijasida vujudga keladigan sarf xarajatlar.

Kapital harakati balansi	=	Aktivlar sotishdan tushumlar	–	CHetdan aktivlar sotib olishga sarflar

Chet el aktivlarini sotish chet el valyutalari zaxiralarini ko'paytiradi, ularni sotib olish esa valyutalari zaxiralarini kamaytiradi. Kapital harakati hisobi ham taqchillikka va ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

To'lov balansining taqchilligi Markaziy bank rasmiy zaxiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Rasmiy zaxiralarning asosiylari quyidagilar:

– chet el valyutalari;
– oltin;
– mamlakatning XVFdagi kredit ulushi;
– qarz olishning maxsus huquqi (SDR) va h.k.

Balans taqchilligi rasmiy zaxiralar hisobiga moliyalashtirilganda ichki bozorda chet el valyutalari taklifi ortadi, milliy valyutalar taklifi esa nisbatan kamayadi va uning ayirboshlash kursi nisbatan o'sib milliy iqtisodiyotga inqirozli ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, to'lov balansining aktiv qoldig'i Markaziy bank rasmiy valyuta ehtiyojlari-

ning o'sishi bilan birga borganda ichki bozorda chet el valyutalari taklifini kamaytiradi, milliy valyuta taklifi esa nisbatan ortadi va uning ayirboshlash kursi pasayib, iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan chet el valyutalarining bunday sotilishi va sotib olinishi **rasmiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalar** deyiladi. Bu operatsiyalar Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari bilan bir xil emas. Rasmiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalar natijasida joriy hisobdagi qoldiq summasi, kapital harakati hisobi va zaxiralar miqdorining o'zgarishi nolni tashkil qilishi zarur.

Mamlakat uzoq davr davomida joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikni bartaraf qilishni kechiktirishi va o'zining rasmiy valyuta zaxiralarini to'liq sarflashi natijasida to'lov balansi inqirozi kelib chiqadi. Mamlakat tashqi qarzlarni to'lash holatida bo'lmaganligi sababli, chet eldan kredit olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Iqtisodiyot subyektlarining davlat va Markaziy bank siyosatiga ishonchsizligi to'lov balansi inqirozini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalariga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag'batlantiradi. Bu Markaziy bankning milliy valyuta qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan harakatini ancha qiyinlashtiradi, chunki uning rasmiy valyuta zaxiralari bir vaqtda to'lov balansining taqchilligini moliyalashtirish va chet el valyutalariga o'sib boruvchi chayqovchilik talabini qondirish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Bunday holda valyutalarning «xufyona bozori» vujudga kelib, rivojlana boshlaydi.

27.4. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari

Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari pulning xalqaro

to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi. **Valyuta – bu mamlakatlar pul birligi** (masalan, so'm, dollar, funt sterling va h.k.). Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi. Bunda milliy va xalqaro valyuta tizimini farqlash zarur. **Milliy valyuta tizimi – valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda amal qilish shaklini ifodalaydi.** Uning tarkibiga quyidagi unsurlar kiradi:

– milliy pul birligi;

– valyuta kursi tartibi;

– valyutaning muomalada bo'lish shart-sharoitlari;

– valyuta bozori va oltin bozori tizimi;

– mamlakatning xalqaro hisoblashuv tartibi;

– mamlakat oltin-valyuta zaxirasining tarkibi va uni boshqaruv tizimi;

– mamlakat valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi milliy muassasalar mavqei.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda kelishilgan holda amal qiladigan shakli.

Xalqaro valyuta tizimining tarkibiy unsurlari quyidagilar hisoblanadi:

– asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari – SDR, Yevro);

– valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi;

– xalqaro to'lovlarini balanslashtirish tartibi;

– valyutaning muomala qilish shart-sharoiti;

– xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tartibi;

– valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

Bundan ko'rinadiki, milliy va xalqaro valyuta tizimi unsurlari deyarli bir xil bo'lib, ular faqat tashkil etilishi, amal qilishi va tartibga solinishi miqyoslari jihatidan farqlanadi.

Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida uchta bosqichdan o'tdi va ularning har biriga xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning o'z tiplari mos keladi. **Birinchi bosqich** 1879–1934-yillarni o'z ichiga olib, bunda **oltin standart** sifatidagi valyuta tizimi ustunlikka ega bo'lgan. **Ikkinchi bosqich** 1944–1971-yillarni o'z

ichiga olib, bunda **oltin-devizli** (Breton-Vuds tizimi deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan. **Uchinchi bosqich**, ya'ni hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valyuta tizimi 1971-yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim **boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimi** nomini oldi. Chunki davlat ko'pincha o'z valyutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valyuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi.

Oltin standart tizim qayd qilingan valyuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar o'zlari chiqargan banknotlarni oltinga almashtirgan. Oltinni erkin chiqarish va kiritish Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, xizmat qilgan. Mamlakat uchta shartni bajarsa oltin standart qabul qilingan, deb hisoblangan, ya'ni: a) o'z pul birligining ma'lum oltin mazmunini o'rnatadi; b) o'zining oltin zaxirasi va pulning ichki taklifi o'rtasidagi qattiq nisbatni ushlab turadi; v) oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi. Oltin strandart pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. Oltin standart sharoitida, turli mamlakatlar pul birligining nisbati ularning rasmiy oltin mazmuni bo'yicha o'rnatiladi.

Oltin standart barbod bo'lgandan keyin, valyuta sohasini tartibga solishning o'zaro maqbul yo'lini topishga harakat qilindi. Yangi jahon valyuta tizimi asoslarini ishlab chiqish maqsadida, 1944-yil Bretton-Vudsda (AQSH) ittifoqchi davlatlarning xalqaro konferensiyasi chaqirildi. Bu konferensiyada o'zaro bog'liq valyuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu ko'pincha Bretton-Vuds tizimi deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin standartdan keskin farq qilmaydi. Uning asosida oltin-valyuta standarti (AQSH dollari) yotadi va bu yerda rezervlar sifatida oltin va dollar chiqadi.

Dollarning oltinga almashinishi rasman to'xtagandan keyin, valyutaning qayd qilingan kursi suzib yuruvchi kursiga o'rin bo'shatadi. Xalqaro valyuta tizimidagi bu o'zgarish 1976-yil Kingston (Yamayka) dagi kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Qog'oz pul tizimiga o'tish bilan, qog'oz pullar oltinga almashtirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valyuta kursi ham har qanday boshqa narxlar kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilanadi.

Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. **Valyuta kursi bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi bahosidir.**

Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;

– milliy iste'molchilarning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;

– valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balansi holati;

– mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;

– valyutaga jahon bozoridagi ishonch va h. k.

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish **xarid qilish layoqatining paritet** (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) **nazariyasi** yordamida amalga oshiriladi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun ikki mamlakat iste'mol tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar O'zbekistonda bunday «savat», aytaylik 120 ming so'm, AQSHda esa 100 dollar tursa, 120 mingni 100 ga bo'lib, 1 dollarning narxini hosil qilamiz, bu 1200 so'mga teng. Agar boshqa sharoitlar o'zgarmagani holda mamlakatimizdagi tovarlarning narxi oshsa, dollarning so'mga nisbatan almashuv kursi ham oshadi. Bunday bog'liqlikni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$P=r\times P_i \quad \text{yoki} \quad r=P/P_i,$$

bu yerda P – mamlakatimizdagi narxlar darajasi;

Pi– xorijiy mamlakatdagi narxlar darajasi;

r – valyuta kursi yoki xorijiy valyutaning milliy valyutadagi narxi.

O'zbekiston Markaziy banki mavsumiy tebranishlarni kamaytirish va oltin-valyuta zaxiralarini ko'paytirishni hisobga olgan holda o'zgaruvchan valyuta kursi rejimini qo'llab kelmoqda. Bunda ichki valyuta bozorida almashuv kursini maqsadli koridor doirasida ushlab turish uchun, valyuta savdolarida intervensiya operatsiyalarini amalga oshirish orqali Markaziy bank tomonidan so'm almashuv kursining o'zgarib boruvchi boshqariladigan usuli qo'llanildi. Eksportni

rag'batlantirish maqsadida so'mning AQSH dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko'rildi.

Milliy valyuta almashuv kursining maqsadli parametrlar doirasida bo'lishi va uning devalvatsiya darajasining bosqichma-bosqich pasaytirib borilishi iste'mol tovarlari narxlarini past darajada ushlab turish uchun qo'shimcha omil sifatida xizmat qildi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning ustuvor sohalarini moliyalashtirish va tashqi iqtisodiy omillarning ichki bozorga salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobvarag'iga qo'shimcha ravishda 3176 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag'lar yo'naltirilishi pul massasini prognoz ko'rsatkichdan ortiqcha o'sishining oldini olishga va shu orqali ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi[209].

Agar O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi oqibatida, tovarlar narxi ikki marta oshsa va barcha sharoitlar teng bo'lganda dollarning so'mga ayirboshlash kursi ikki marta oshadi.

27.5. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi

Xalqaro valyuta munosabatlari o'ta beqaror, noaniq va tez o'zgaruvchi jarayon bo'lib, uni har bir mamlakat hukumatlari bilan bir qatorda valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar ham tartibga solishga harakat qiladilar. Bunday tashkilotlar qatoriga Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki (XTTB), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) kabilarni kiritish mumkin.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) o'ziga a'zo mamlakatlarning valyuta kursi va to'lov balanslarini tartibga soladi, ularning valyuta-moliyaviy muammolarini hal etish maqsadida kreditlar ajratadi, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'p tomonlama to'lovlari tizimini va tashqi qarzlarini nazorat qiladi.

---

[209] 2015-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. http://cbu.st.uz/uz/monet_policy/monet_direct2016.htm.

Qat'iy valyuta kurslari amal qilgan davrda XVFning asosiy faoliyati valyuta nisbatlarini ushlab turish, valyuta kurslariga asossiz ra-vishda ta'sir ko'rsatishning oldini olishga qaratilgan edi. Suzib yuruvchi, erkin valyuta kurslariga o'tilishi bilan bu faoliyat yo'nalishi o'zgarib, 1978-yili XVFning Nizomi qayta ko'rib chiqildi. Unga ko'ra, valyutani davlatlararo tartiblashning asosi sifatida XVF nazorat funksiyalarini kuchaytirish, balanslashtirilmagan xalqaro hisoblashuv-lar hamda asossiz kurs nisbatlariga ta'sir o'tkazish dastaklarini kengaytirish ko'zda tutildi.

XVF mamlakatlarning to'lov balanslarini va tashqi qarzlarini tartibga solish maqsadida kreditlar ajratadi. Bunda qarz oluvchi mamlakat o'zining iqtisodiy siyosatida XVFning tavsiyasiga binoan o'zgartirishlar kiritishi talab etiladi. 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan muddatdagi moliyaviy-iqtisodiy barqarorlashtirish dasturi ko'rinishidagi bunday o'zgarishlar fond bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi va bunga mamlakatning to'lovga layoqatligi to'g'risidagi o'ziga xos xalqaro guvohnoma sifatida qaraladi.

1970-yildan boshlab XVF xalqaro to'lov va zaxira vositalari – **qarz olishning maxsus huquqlari (SDR)**ni chiqara boshladi. SDR naqd pul ko'rinishida bo'lmay, faqat XVF maxsus hisobvaraqlarida kredit yozuvlari ko'rinishida amal qiladi va fondga a'zo mamlakatlarning Markaziy banklari o'rtasidagi hisoblashuvlarda foydalaniladi.

Yevropa valyuta tizimi 1979-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga kiruvchi davlatlar tomonidan valyuta kurslarini barqarorlashtirish maqsadida tashkil etilib, bu davlatlar o'rtasidagi to'lov jarayonlarida amal qiluvchi **Yevropa valyuta birligi – EKYU** muomalaga kiritildi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi (IVI) Yevropa valyuta tizimi amal qilishi natijasida tashkil etilib, u quyidagilarni taqozo etadi:

– moliya bozorlarining to'liq integratsiyalashuvi;

– kapitallar harakatining to'liq erkinlashuvi;

– barcha valyutalarning to'liq konvertatsiyasini ta'minlash va pirovardida milliy valyutalarni yagona valyuta bilan almashtirish.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining (XTTB) ham faoliyati xalqaro valyuta-moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga

yo'naltirilgan bo'lib, u o'zining ikkita filiali – Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK) hamda Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) bilan birgalikda Jahon banki tarkibiga kiradi.

XVFning a'zosi bo'lgan mamlakatlar XTTBning a'zosi bo'la oladi. XTTB tomonidan taqdim etiladigan qarzlarning asosiy qismi qarz oluvchi mamlakatlarning iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish imkonini beruvchi loyiha va dasturlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK)ning faoliyati ustun ravishda rivojlanayotgan mamlakatlarning xususiy sektorini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA)ning asosiy faoliyati esa ko'proq qoloq mamlakatlarga imtiyozli yoki foizsiz kreditlar ajratishga qaratilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) tarkibiga barcha sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar kiradi. IHRT unga a'zo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi tendensiyalarni, iqtisodiyot sohasidagi ichki xatti-harakatlarning boshqa mamlakatlar to'lov balansiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. IHRT tomonidan ishlab chiqilgan bashorat ko'rsatkichlari asosida, jahon xo'jaligi rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, milliy iqtisodiyotlarning o'zaro moslashuviga imkon yaratuvchi makroiqtisodiy siyosatni olib borish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Xalqaro hisoblashuvlar banki (XHB) Shveysariyaning Bazel shahrida joylashgan bo'lib, u xalqaro moliyaviy tashkilot hisoblanmasada, bank faoliyatini xalqaro tartibga solishda yetakchi rol o'ynaydi. XHB Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarini, Kanada, Avstraliya, Yaponiya hamda AQSH tijorat banklari guruhini o'z tarkibida birlashtiradi. 70 dan ortiq Markaziy banklar o'zlarining oltin-valyuta zaxiralarini XHB hisobvaraqlarida saqlaydilar.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) Sharqiy Yevropa hamda sobiq Ittifoq mamlakatlariga valyuta-moliya sohasida ko'maklashishni muvofiqlashtirish maqsadida 1990-yilda tashkil etildi. Uning asosiy faoliyati Markaziy va Sharqiy Yevropa, MDH mamlakatlarini isloh qilish jarayonlari bilan bog'liq turli ko'rinishdagi

dastur va loyihalarni moliyalashtirishga, bu mamlakatlarning jahon xo'jaligiga moslashuvini jadallashtirishga ko'maklashishga yo'naltirilgandir.

Bugungi kunda sanab o'tilgan bu kabi davlatlararo tashkilotlarning xalqaro valyuta-moliya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va yanada takomillashtirishga qaratilgan faoliyatining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Shu bilan bir qatorda mazkur tuzilmalarning rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish tartibini takomillashtirish, bunda ko'mak berilayotgan mamlakatlarning milliy manfaatlariga putur yetkazmaslik, faoliyat yo'nalishi sifatida ko'proq iqtisodiy maqsadlarning ilgari surilishi kabi jihatlarga e'tibor kuchaytirish zarur bo'ladi.

Xulosalar

1. Barcha mamlakatlar tashqi savdosi majmui xalqaro savdoni tashkil etadi. Xalqaro savdo – bu turli davlat milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir. Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo'lsada, faqat XIX asrga kelib, ya'ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan xalqaro savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

2. Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aksiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlarini ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

3. Mamlakatdagi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi eksport hajmi uning iqtisodiyotining «ochiqligi» darajasini ifodalaydi. Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari) – bu mazkur mamlakat tomonidan

ishlab chiqarilgan mahsulotning o‘z iqtisodiyoti manfaatlariga putur etkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo‘lgan qismi.

4. Xalqaro savdoda ishtirok etish har bir mamlakat uchun milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatdan himoya qilish vazifasini dolzarb qilib qo‘yadi. Bu vazifa mamlakatlarning savdo siyosati orqali amalga oshadi. Jahon amaliyotida bu siyosatning proteksionizm (tashqi ta’sirdan himoyalash) va fritrederlik (savdoga to‘liq erkinlik berish) kabi shakllari keng tarqalgan.

5. Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya’ni tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o‘tishi bo‘yicha kelishuvlar. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo‘ladi va shu sababli to‘lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibiga rioya qilinadi. Har bir bitim to‘lov balansining debet va kredit qismlarida o‘z ifodasini topadi.

6. Iqtisodiyot subyektlarining davlat va Markaziy bank siyosatiga ishonchsizligi to‘lov balansi inqirozini chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalariga chayqovchilikka qaratilgan talabni rag‘batlantiradi.

7. Pulning jahon xo‘jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika yutuqlarini ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. U pulning xalqaro to‘lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi.

8. Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. Valyuta kursi bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi ifodalanishini ko‘rsatadi.

9. Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish, xarid qilish layoqatining paritet (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) nazariyasi yordamida beriladi. Bu nazariyaga ko‘ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun ikki mamlakat iste’molchilik tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – biror bir mamlakatning boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.

Reimport – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valyuta kursi – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi.

To'lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi?
2. Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
3. Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering.
4. Proteksionistik siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang.
5. Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok yetishi imkoniyatlarini aniqlang.
6. Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?

7. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi?

8. Chet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

9. Jahon valyuta tizimining mazmuni nimadan iborat? Uning rivojlanish bosqichlari va ularga mos xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish tiplarini izohlang.

10. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi? Ularning asosiy faoliyatlarini tavsiflab bering.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: «O‘zbekiston», 2014.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Raqobat to‘g‘risida. 2012-yil 6-yanvar.

4. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-328-sonli Qonuni. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida (yangi tahriri). 2012-yil 2-may

5. Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida. - T.: «Adolat», 2004.

6. Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida.– T.: «Adolat», 2004.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida. - T.: «Adolat», 2003.

8. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida. - T.: «Adolat», 2003.

9. Erkin iqtisodiy hududlar to‘g‘risida. - T.: «Adolat», 2003.

10. Raqobat va tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida. - T.: «Adolat», 2001.

11. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. - T.: «Adolat», 2001.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi «Urgut», «G‘ijduvon», «Qo‘qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4931-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 3-son,

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-yanvardagi «Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2746-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi ««Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2752-son qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi «Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-tamoyillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4933-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 3-son

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-fevraldagi «Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2750-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 5-son

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi ««O‘zagroeksportbank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil qilish to‘g‘risida»gi PQ-2740-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 4-son

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4725-sonli Farmoni

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va resurs bazasini shakllantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2344-sonli Qarori

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdagi «Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2454-sonli Qarori

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 8-avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ–2022-sonli Qarori

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 22-oktyabrdagi «O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–4478-sonli Farmoni

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28 -iyuldagi «Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF–4232-sonli Farmoni

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida. PF-4483-son. 2012-yil 13-noyabr.

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1887-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil, 52-son, 587-modda

29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 23-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy mak-

roiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1887-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-yil

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 3-iyuldagi “Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2200-sonli qarori

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 31-oktyabrdagi “Respublikada 2012–2015-yillarda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va kelajakda boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1633-sonli qarori

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 15-dekabrdagi “2011–2015-yillarda sanoat salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari Dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1442-sonli qaror

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-fevraldagi “2014–2016-yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi qism va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2120-sonli qarori

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi “2012–2016-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida” gi PQ 1754-sonli qarori

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 17-apreldagi “2013–2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida” gi PQ 1957-sonli qarori

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2009-yil 26 -yanvar, PQ-1047-son.

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2009-yil 20-yanvar, PQ-1041-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

38. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi “Zarar ko‘rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor, past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan va ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini yanada optimizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 192-sonli qarori

39. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 10-maydagi “Davlat mulkidan samarali foydalanish va davlat organlarini turar uy joylar bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 273-F-sonli farmoyish

40. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida. 200- yil 20-avgust.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

41. Sh.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” // Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi, 2017-yil 16-yanvar.

42. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir // Xalq so‘zi, 2016-yil 16-yanvar.

43. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. 304 b.

44. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. 440 b.

45. Islom Karimov. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. T.: O‘zbekiston, 2010. 48–49 betlar.

46. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009.

47. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», **2008. – 176 b.**

48. Karimov I. A. Eskicha qarashlar va yondashuvlar bilan yangicha hayot qurib bo‘lmaydi. - T.: “O‘zbekiston”, 2005.

49. Karimov I.A. Mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanish – taraqqiyot omili. - T.: “O‘zbekiston”, 2004.

50. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifamiz. T.: “O‘zbekiston”, 2000.

51. Karimov I.A. «O‘zbekiston buyuk kelajak sari». T.: «O‘zbekiston», 1998. 266–267-b.

5. Darsliklar

52. Shodmonov Sh.Sh., G’afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2010. – 756 b.

53. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», **2014.**

54. Razzoqov A. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun darslik / A.A.Razzoqov, Sh.H.Tashmatov, N.T.O’rmonov. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b.

55. Shodmonov Sh.Sh., G’afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. – 784 b.

56. Borisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – 2-e izd., pererab. i dop. - M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2010. – 544 s.

57. Zubko N.M. Ekonomicheskaya teoriya. - Minsk: NTS API, 2012. 61-b.

58. I.K.Stankovskaya, I.A.Strelets. Ekonomicheskaya teoriya.: Uchebnik. / 3-e izd., ispr. – M.: «Eksmo», 2009. – 448 s.

59. Ioxin V.Ya. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik. – M.: Ekonomist', 2005. – 861 s.

60. Kamayev V.D. Ekonomicheskaya teoriya: Kratkiy kurs: uchebnik / V.D.Kamayev, M.Z.Ilchikov, T.A.Borisovskaya. – 2-e izd., ster. – M.: KNORUS, 2007. – 384 s.

61. Keyns Dj.M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – M.: Gelios, 2002, s.162.

62. Kulikov L.M. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – M.: TK Vebli, Izd-vo Prospekt, 2005. – 432 s.

63. Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik / Pod obщ. red. prof. Chepurina M.N., prof. Kiselevoy E.A. – 6-ispravlennoe, dopolnennoe i pererabotannoe izdanie. – Kirov: «ASA», 2007. – 848 s.

64. Makkonnel K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: prinsipi, problemi i politika: Uchebnik. / 17-izd. - M.: INFRA-M, 2014. – 916 s.

65. Sajina M.A. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. dlya vuzov / M.A.Sajina, G.G.Chibrikov. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Norma, 2007. – 672 s.

66. Samuelson Pol E., Nordxaus Vilyam D. Ekonomika.: Uchebnik. / 18-e izd.: Per s angl. – M.: OOO «I.D.Vilyams», 2009. – 1360 s.

67. Simkina L.G. Ekonomicheskaya teoriya. 2-e izd. – SPb.: Piter, 2008. – 384 s.

68. Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya: uchebnik / I.A.Strelets. – 3-e izd., ispr. – M.: Eksmo, 2008. – 448 s.

69. Ekonomika. Uchebnik, 8-e izd., prererab. i dopolnennoe. - / Pod red. A.S. Bulatova. M.: Ekonomist, 2005. – 896 s.

70. Ekonomicheskaya teoriya (politekonomiya): Uchebnik/ Pod obщ. red. akad. V.I.Vidyapina, akad. G.P.Juravlevoy, – 4-e izd. - M.: INFRA-M, 2004, s.78–79.;

71. Ekonomicheskaya teoriya / Pod red. A.I.Dobrinina, L.S.Tarasevicha, 3-e izd. – SPb.: Izd. Piter, 2008. – 544 s.

72. Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik / Pod red. A.G.Gryaznovoy, T.V.Chechelovoy. – M.: Ekzamen, 2011. – 592 s.

73. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – 2-e izd., pererab. i dop. -M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005, 208-b.;

74. Ekonomicheskaya teoriya: Ucheb. dlya stud. vissh. ucheb.

zavedeniy / Pod red. V.D.Kamayeva. – 10-e izd., pererab. i dop. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2004, 217-bet.

75. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh. red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrinina, G.P.Juravlevoy, L.S.Tarasevicha. – M.: INFRA-M, 2005. – 672 s.

6. O‘quv qo‘llanmalar

76. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G‘afurov, B.K. To‘xliyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisodiyot, 2009.-120 b.

77. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: “O’qituvchi” NMIU. - 2013. –117 bet.

78. Bogacheva G.N., Denisov B.A. O mnogoobraznoy traktovke kategorii «kapital» // Menedjment v Rossii i za rubejom, №1, 2000. - http://www.dis.ru

79. Borisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya: voprosi – otveti: Ucheb. posobie. – 2-e izd., pererab. i dop. M.: Yuridicheskaya firma «KONTRAKT»: INFRA-M, 2008. – 192 s.

80. Borisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – 2-e izd., pererab. i dop. -M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005. – 544 s.

81. V poiskax novoy teorii s problemnimi situatsiyami: Ucheb. posob. / Pod red. Gryaznovoy A.G. i dr. - M.: KNO RUS, 2004. – 368 s.

82. V.Avtonomova, O.Ananina, N.Makashevoy. Istoriya ekonomicheskix uchuniy. uchebnoe posobie./Pod. red. - M.: INFRA-M, 2009. – 784 s.

83. Ziyaev T.M. Ishchi kuchi va bandlik nazariyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDIU, 2009. 56 bet

84. Kulikov L.M. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – M.: TK Vebli, Izd-vo Prospekt, 2005, 191-b.

85. Kurs ekonomicheskoy teorii. Ucheb. posob. pod red. Chepurina M.N., Kiselevoy E.A. Kirov, izd-vo «ASA», 1995, 233-b.;

86. Shodmonov Sh.Sh., Yusupov R.A. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. – T.: TDIU, 2007.

87. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «Yungi asr avlodi», 2001, 62-bet.

88. Nosova S.S. Ekonomicheskaya teoriya. Elementarniy kurs: uchebnoe posobie / S.S.Nosova. – M.: KNORUS, 2008. – 520 s.

89. Osnovi ekonomicheskoy teorii. Politekonomiya: Uchebnik / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. D.D.Moskvina. Izd. 3-e, ispravl. – M.: Editorial URSS, 2003. – S.504.

90. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2002. – 416 b.

91. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi». 2002, 227-b.

92. Xudokormov A.G. Ekonomicheskaya teoriya: Noveyshie techeniniya Zapada: / - M.: INFRA-M, 2009. – 416s.

93. Ekonomicheskaya teoriya: uchebnoe posobie / V.M.Sokolinskiy, V.E.Korolkov [i dr.] ; pod red. A.G.Gryaznovoy i V.M.Sokolinskogo. – 4-e izd., ster. – M.: KNORUS, 2008. – 464 s.

7. Ilmiy monografiyalar, maqolalar

94. Bekmurodov A.Sh. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 1–5-qismlar. T.: TDIU, 2005. – 310 b.

95. Saidov A.X. O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishda ijtimoiy fanlarning roli // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, №3, 2006, 3-b.

96. Sobirov A. O'zbekiston Respublikasiga xorijlik investorlarni jalb qilish shakllari. /Iqtisodiyot va ta'lim, 2011 y., 5-son.

97. O'rinov A.A. Mutanosiblik – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili. – I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2006.

98. Xajiyev B.D. Tadbirkorlik kapitali va uning samarali amal

qilishi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. avtoref. – T., 2008, 13–14 -b.

99. Xodiyev B.YU., Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilashning ilmiy va nazariy asoslari. Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDIU, 2008. – 57 b.

100. Mambetjanov Q. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy hisoblar tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. // I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2012. 8–9 betlar.

101. Mamaraximov B.E. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni muvozanatlashtirishning asosiy yo'nalishlari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent -2012. 10 bet.

102. Hamroyev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari. – T.: TDIU, 2004.

103. Shadibayev T. i dr. Osobennosti antimonopolnoy politiki v Uzbekistane: obshie prinsipi i pravovaya baza. - Ekonomicheskoe obozrenie, №2, 2004, s.5.

104. Shishkin A.F. Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnoe posobie dlya vuzov. 2-e izd. Kn.1. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 1996, 597-b.

105. Shodmonov Sh. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda pulning yangi mazmuni va roli. Bozor, pul va kredit. Maxsus nashr, 2001, 9-b.

106. Shodmonov Sh., G'afurov U. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2007. – 75 b.

107. Shodmonov Sh.Sh., Baubekova G.D. Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomicheskoy teorii. - T.: Yangi asr avlodi. 2004.

108. Shodmonov Sh.Sh., Baubekova G.D., Xalikova G.T. Innovatsionnie metodi obucheniya v ekonomicheskom obrazovanii. – T.: «Fan», 2003.

109. Shodmonoy E. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyotni muvozanatli va mutanosibli rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. Monografiya. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. 13 b.

110. Yusupov R.A. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2001, 12–13-b.

8. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plamlari

111. Iqtisodiyotning tarkibiy qismlari o'rtasidagi mutanosiblik va muvozanatni ta'minlashning nazariy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar tezislari. – T.: TDIU, 2008-yil 6-iyun.

112. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish mamlakat eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omilidir. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar tezislari. – T.: TDIU, 2006-yil 28-dekabr.

113. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etish – barqaror o'sishni ta'minlashning bosh yo'li. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar tezislari. – T.: TDIU, 2005-yil 16-aprel.

9. Gazeta va jurnallar

114. «Xalq so'zi» gazetasi.
115. «Mening mulkim» gazetasi.
116. «Bozor, pul va kredit» jurnali.
117. «Iqtisodiyot va ta'lim» jurnali.
118. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali.
119. «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali.
120. Jurnal «Ekonomicheskoe obozrenie».
121. Jurnal «Rossiyskiy ekonomicheskiy jurnal».
122. Jurnal «Voprosi ekonomiki».

10. Statistik ma'lumotlar to'plamlari.

123. O'zbekiston raqamlarda – 2015. Toshkent 2015.
124. O'zbekiston raqamlarda – 2014. Toshkent 2014.
125. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil statistik axborotnomasi, T., 2013.
126. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil statistik axborotnomasi, T., 2009.

127. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil statistik axborotnomasi, T., 2008.

128. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil statistik axborotnomasi, T., 2007.

11. Internet saytlari

129. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

130. www.uza.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.

131. www.ceep.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

132. www.internetindicators.som – Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.

133. www.uzreport.som – SAIPRO konsalting kompaniyasiga tegishli, O’zbekiston va butun dunyodagi biznes tizim va iste`molchilarga axborot yetkazib berishga mo’ljallangan integratsiyalashgan internet loyiha.

134. www.uzsecurities.som – O’zbekiston Respublikasining Qimmatli qog’ozlar bozori haqida axborot beruvchi rasmiy sayti.

135. www.uzexport.som - O’zbekiston Respublikasining mamlakat eksport salohiyati haqida axborot beruvchi rasmiy sayti.

136. http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG

137. http://ekonomic.doso.ru.

138. http://ru.euronews.som/2013/04/02/spanish-unemployment-edges-down/

139. http://ru.wikipedia.org/wiki

140. www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari

141. Konkurentosposobnost i modernizatsiya rossiyskoy ekonomiki. - http://www.moderniz.org.ru.

142. Xaitbaev D. Krizis mojet imet svoi plyusi // http://www.review.uz/page/article/v_uzbekistane/2356.

MUNDARIJA

KIRISH 3

I - B O‘ L I M IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI 11

1-BOB. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA O‘RGANISH USULLARI 12
1.1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi 12
1.2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi 22
1.3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari 28
1.4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar) .. 33
1.5. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari 35
Xulosalar 40
Asosiy tayanch tushunchalar 42
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 43

2-BOB. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI 44
2.1. Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi 45
2.2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni 49
2.3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari 54
2.4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi 69
2.5. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko‘rsatkichlari 74
Xulosalar 78
Asosiy tayanch tushunchalar 79
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 81

3-BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI 82
3.1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga

bo'lgan turlicha yondashuvlar 82
3.2. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari 89
3.3. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk obyektlari va subyektlari 91
3.4. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni 94
3.5. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish maqsadi, yo'llari va usullari 99
Xulosalar 109
Asosiy tayanch tushunchalar 110
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 111

4-BOB. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI BOZOR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHI VA AMAL QILISHINING ASOSIDIR 113
4.1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi 113
4.2. Tovar va uning xususiyatlari 117
4.3. Qiymatning mehnat nazariyasi, naflilik va keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyalari 123
4.4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari 129
4.5. O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi va uning barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari 136
Xulosalar 142
Asosiy tayanch tushunchalar 143
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 144

II-B O' L I M BOZOR IQTISODIYOTI NAZARIYASI .. 145

5-BOB. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI 146
5.1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari 146
5.2. Bozor iqtisodiyotida doimiy va asosiy muammolarning hal qilinishi 151
5.3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari 155

5.4. Bozor va uning vazifalari 158
5.5. Bozorning turlari va tuzilishi 163
5.6. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari 167
Xulosalar 172
Asosiy tayanch tushunchalar 173
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 174

6-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI 176
6.1. O'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari 176
6.2. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari 181
6.3. O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari 185
Xulosalar 189
Asosiy tayanch tushunchalar 191
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 191

7-BOB. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI 193
7.1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni 193
7.2. Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif qonuni 199
7.3. Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati 203
7.4. Iste'molchi xatti-harakati nazariyasi 210
Xulosalar 216
Asosiy tayanch tushunchalar 216
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 219

8-BOB. RAQOBAT VA MONOPOLIYA 222
8.1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari 222
8.2. Monopoliyalarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari. 231

8.3. O‘zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik 240
Xulosalar 246
Asosiy tayanch tushunchalar 247
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 250

9-BOB. NARXNING MOHIYATI VA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI 251
9.1. Narxning mazmuni, vazifalari va uning darajasiga ta’sir etuvchi omillar 251
9.2. Narx turlari va ularning mazmuni 258
9.3. Raqobatning turli ko‘rinishlari sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari 260
9.4. Narx siyosati va uning O‘zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari 269
Xulosalar 272
Asosiy tayanch tushunchalar 272
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 274

10-BOB. TADBIRKORLIK FAOLIYATI. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI 275
10.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari 275
10.2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari, ularni tashkil etish va boshqarishning bozor tizimlari 278
10.3. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi va rag‘batlantirilishi 287
10.4. Tadbirkorlik kapitali va uning harakat bosqichlari 295
10.5. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital 300
10.6. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish samaradorligi 303
Xulosalar 310
Asosiy tayanch tushunchalar 312
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar: 313

11-BOB. KORXONA (FIRMA) XARAJATLARI VA FOYDASI 314
11.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi 314
11.2. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarish tamoyillari 323
11.3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi 330
Xulosalar 336
Asosiy tayanch tushunchalar 338
Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar 339

12-BOB. ISH HAQI VA MEHNAT MUNOSABATLARI 341
12.1. Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari 341
12.2. Ish haqining iqtisodiy mazmuni 344
12.3. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari 351
12.4. Mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va kasaba uyushmalarining roli 355
Xulosalar 360
Asosiy tayanch tushunchalar 361
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 362

13-BOB. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES . 364
13.1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari 364
13.2. Renta munosabatlari 369
13.3. Agrosanoat integratsiyasi va agrobiznes 378
13.4. O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirish va yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari 380
Xulosalar 391
Asosiy tayanch tushunchalar 393
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 394

III-B O‘ L I M MILLIY IQTISODIYOT (MAKROIQTISODIYOT)NING AMAL QILISH VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI 395

14-BOB. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O‘LCHAMLARI. YALPI MILLIY MAHSULOT VA UNING HARAKAT SHAKLLARI 396
14.1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari 396
14.2. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari 401
14.3. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari 409
Xulosalar 415
Asosiy tayanch tushunchalar 417
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 418

15-BOB. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF 419
15.1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta’sir qiluvchi omillar 419
15.2. Yalpi taklif tushunchasi. Yalpi taklif tarkibi va unga ta’sir qiluvchi omillar 427
15.3. Yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanat va uning o‘zgarishi 433
Xulosalar 441
Asosiy tayanch tushunchalar 442
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 442

16-BOB. ISTE’MOL, JAMG‘ARMA VA INVESTITSIYALAR 444
16.1. Iste’mol va jamg‘armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi 444
16.2. Jamg‘arishning mohiyati, omillari va samaradorligi 452
16.3. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar .. 454
16.4. Jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash muammolari 458

16.5. O‘zbekistonda investitsion faoliyatni kuchaytirish va uning shart-sharoitlari 460
Xulosalar 465
Asosiy tayanch tushunchalar 466
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 467

17-BOB. IQTISODIY O‘SISH VA MILLIY BOYLIK 468
17.1. Iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni va ko‘rsatkichlari 468
17.2. Iqtisodiy o‘sish modellari 475
17.3. Iqtisodiy o‘sishning mazmuni va turlari 483
17.4. Iqtisodiy o‘sishning omillari 489
17.5. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlash omillari va natijalari 494
17.6. Milliy boylikning mazmuni va uning tarkibiy tuzilishi . 498
Xulosalar 500
Asosiy tayanch tushunchalar 502
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 503

18-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING MUVOZANATLI VA MUTANOSIBLI RIVOJLANISHI 504
18.1. Iqtisodiy muvozanatlikning mazmuni va namoyon bo‘lish shakllari 504
18.2. Iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni va turlari 511
18.3. O‘zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash asosida mutanosibli rivojlantirish 516
Xulosalar 521
Asosiy tayanch tushunchalar 522
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 522

19-BOB. IQTISODIYOTNING SIKLLILIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK 524
19.1. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotningsiklliligi .. 524
19.2. Iqtisodiy sikl nazariyalari. Sikllarning asosiy turlari 257
19.3. Iqtisodiy inqirozlarning mazmuni, kelib chiqish sabablari va

turlari 536
19.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining miqyosi, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari 539
19.5. Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar 547
Xulosalar 550
Asosiy tayanch tushunchalar 552
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 553

20-BOB. ISHCHI KUCHI, UNING BANDLIGI VA ISHSIZLIK 554
20.1. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish va uning xususiyatlari 554
20.2. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va uning taklifi nisbati 560
20.3. Ishchi kuchi bandligi to'g'risidagi turli konsepsiyalar sharhi 566
20.4. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash .. 569
20.5. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari 573
Xulosalar 579
Asosiy tayanch tushunchalar 580
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 581

21-BOB. MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT 583
21.1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi 583
21.2. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari 589
21.3. Soliq tizimi va uning vazifalari 593
21.4. O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish masalalari 598
Xulosalar 602
Asosiy tayanch tushunchalar 603
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 604

22-BOB. PUL-KREDIT TIZIMI. BANKLAR VA ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI 605
22.1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi 605
22.2. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari 613
22.3. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari 619
22.4. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari 623
22.5. O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi 631
Xulosalar 636
Asosiy tayanch tushunchalar 638
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 639

23-BOB. BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING IQTISODIY ROLI 640
23.1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar 640
23.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifalari 644
23.3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari 651
Xulosalar 656
Asosiy tayanch tushunchalar 658
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 658

24-BOB. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI 660
24.1. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari. Aholi daromadlari va uning tarkibi 660
24.2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash 667
24.3. Davlatning ijtimoiy siyosati. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari 672
Xulosalar 680

Asosiy tayanch tushunchalar 681
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 681

IV-B O‘ L I M J A H O N X O‘ J A L I G I 683

25-BOB. JAHON XO‘JALIGI VA UNING EVOLYUSIYASI 684
25.1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi 684
25.2. Jahon xo‘jaligining globallashuvi yo‘nalishlari va ziddiyatlari 692
25.3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi 697
25.4. Jahon xo‘jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish 700
Xulosalar 705
Asosiy tayanch tushunchalar 706
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 707

26-BOB. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA VA O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA KIRIB BORISHI 708
26.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va obyektiv asoslari 708
26.2. Jahondagi asosiy integratsion guruhlarning amal qilish xususiyatlari 713
26.3. O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyati 716
Xulosalar 725
Asosiy tayanch tushunchalar 726
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 727

27-BOB. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI 728
27.1. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdo to‘g‘risidagi turlicha nazariyalar 728

27.2. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari 734
27.3. To'lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi..... 746
27.4. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari 749
27.5. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi 753
Xulosalar 756
Asosiy tayanch tushunchalar..... 758
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar 758
ADABIYOTLAR..... 760

QAYDLAR UCHUN

B.Y. XODIYEV, SH.SH. SHODMONOV.

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(DARSLIK)

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2017

Muharrir: A. Abdujalilov
Tex.muharrir: F. Tishaboyev
Musahhih: O. Doniyorov
Kompyuterda sahifalovchi: A. Kuchkarov

E-mail: Barkamolfayz@mail.ru
Nashr.lits. AI№ 284, 12.02.16. Bosishga ruxsat etildi: 18.12.2017.
Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 49,0.
Nashriyot bosma tabog'i 49,25. Tiraji 1000. Buyurtma № 15.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi 171-uy.

ISBN 978-9943-5142-4-9